QISHLOQ XO'JALIGI IQTISODIYOTI

NURMATOV N.J., AVLIYAQULOV A.A.

QISHLOQ XO'JALIGI IQTISODIYOTI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

Nurmatov N.J., Avliyaqulov A.A.

QISHLOQ XO‘JALIGI IQTISODIYOTI

(O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan)

TOSHKENT - 2021
“FAN ZIYOSI” NASHRIYOTI

KBK 41.41(O‘zb)7
M 57
UO’K: 238.(12).100

Nurmatov N.J., Avliyaqulov A.A. // Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti // darslik – Toshkent.: “Fan ziyosi” nashriyoti, 2021, 580 bet.

ISBN 978-9943-709-45-4

Ushbu darslik O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020-yil 14-avgustdagi 418-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan fan dasturi asosida tayyorlangan bo‘lib, bakalavriatning kredit-modul tizimi asosida tahsil olayotgan 5230100 – “Iqtisodiyot (qishloq xo‘jaligida)” ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabalari uchun mo‘ljallangan. Shuningdek, mazkur darslikdan 5410100 – “Agrokimyo va agrotuproqshunoslik”, 5410200 – “Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo‘yicha)”, 5410400 – “Qishloq xo‘jalik ekinlari seleksiyasi va urug‘chiligi”, 5410500 – “Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi”, 5411000 – “Mevachilik va uzumchilik”, 5411600 – “Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik” va 5411700 – “Issiqxona xo‘jaligini tashkil etish va yuritish” ta’lim yo‘nalishlarining 2-kurs talabalariga “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” fanini o‘qitishda ham foydalanish mumkin. Unda qishloq xo‘jaligiga oid nazariy bilimlar bilan birga mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan islohotlar, qabul qilingan me’yoriy hujjatlar, tarmoqni rivojlantirish borasidagi xorijiy tajribalarni yoritishga hamda mavzular bo‘yicha statistik ma’lumotlardan keng foydalanishga harakat qilindi.

Darslikdan qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti masalalarini o‘rganuvchi tadqiqotchilar, qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida faoliyat olib boruvchi mutaxassislar va ushbu sohaga qiziquvchilar ham foydalanishlari mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 1-martdagi 110-sonli buyrug‘iga asosan ushbu darslikni nashr etishga ruxsat berilgan.

Taqrizchilar:

XATAMOV O.Q. – iqtisod fanlari doktori

OTAMURODOV Sh.N. – iqtisod fanlari falsafa doktori

© Nurmatov N.J., Avliyaqulov A.A., 2021

ISBN 978-9943-709-45-4 **© “Fan ziyosi” nashriyoti, 2021**

KIRISH

Mamlakatimiz iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining o‘rni beqiyosdir. Chunki mazkur tarmoq aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan hamda sanoatning ayrim sohalarini xomashyo bilan ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, mamlakatimiz aholisining deyarli yarmi qishloq joylarda istiqomat qiladi va ularning turmush farovonligi mazkur tarmoq rivoji bilan uzviy bog‘liqdir. Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti va eksporti tarkibida ham qishloq xo‘jaligi tarmog‘i sezilarli salmoqqa ega. Aholi soni va ehtiyojlarining o‘sishi hamda qayta ishlash sanoati quvvatlarining yuksalishi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmini yanada ko‘paytirishni obyektiv ravishda taqozo etadi. Shuning uchun ham mazkur tarmoqni rivojlantirish va samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan biridir.

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini rivojlantirish uchun tarmoqda erkin faoliyat yurituvchi turli mulkchilik shakllariga asoslangan tadbirkorlik shakllari hamda ular o‘rtasidagi erkin bozor munosabatlarining nazariy asoslarini o‘rganish va amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o‘rni va ahamiyatini inobatga olgan holda, tarmoqqa investitsiyalarni ko‘proq jalb etib, fan-texnika yutuqlarini, innovatsiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish, yer, kapital hamda mehnat resurslaridan samarali foydalanish yo‘llarini aniq belgilash, mehnat unumdorligini yuksaltirish, mahsulot tannarxini pasaytirish, ishchi-xizmatchilarni rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish negizida foyda summasini ko‘paytirish yo‘llarini belgilab olish maqsadga muvofiqdir. Bu masalalarning ilmiy hamda amaliy asoslarini yaratishda, rivojlantirishda, ularni ishlab chiqarishga joriy etishda qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining o‘ziga xos xususiyatlarini e’tiborga olish zarur.

Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning yo‘nalishlari, ahamiyati hamda mazmunini yoritishda hukumatimiz tomonidan qabul qilingan me’yoriy hujjatlar va

Davlat dasturlariga asoslanish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, 2017-yildan boshlab mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan islohotlar yangicha mazmunda davom ettirilib, tub o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu o‘zgarishlarni inobatga olgan holda “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” fani bo‘yicha o‘quv adabiyotlari tayyorlash talabalarda fan bo‘yicha nazariy bilimlar bilan birga mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan islohotlar va tarmoqni kelgusida rivojlantirish yo‘nalishlari haqidagi bilimlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida mamlakatimizda qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari belgilab berilgan. Bundan tashqari, mazkur darslikda qishloq xo‘jaligidagi iqtisodiy munosabatlarning mazmun va mohiyatini O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi va boshqa manbalarning so‘nggi ma’lumotlaridan foydalanib, jadvallar, diagrammalar, grafiklar yordamida yoritishga e’tibor berildi.

Hozirgi vaqtda oliy ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan asosiy talablardan biri – talabalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishdir. Shuni inobatga olgan holda mazkur darslikning har bir bobida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda mustaqil fikrlash, o‘z fikrini himoya qila olish, jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmalarini shakllantiruvchi topshiriqlar ham berilgan.

Mualliflar ushbu darslikning tuzilishi, tarkibi, mavzularning bayon etilish tartibi va uslubi bo‘yicha bildirilgan barcha taklif hamda fikr-mulohazalarni minnatdorchilik bilan qabul qilib, ularni keyingi nashrlarda e’tiborga olishga harakat qiladilar. O‘z fikr va mulohazalaringizni *norbek8@mail.ru* elektron manziliga yuborishingizni so‘raymiz.

1-BOB: “QISHLOQ XO‘JALIGI IQTISODIYOTI” FANINING PREDMETI, VAZIFASI VA USLUBLARI

1. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o‘rni va ahamiyati.
2. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining o‘ziga xos xususiyatlari.
3. “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.
4. “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” fanining tadqiqot usullari va boshqa fanlar bilan aloqadorligi.

Tayanch iboralar: agrar soha, qishloq xo‘jaligi tarmog‘i, yalpi ichki mahsulot, oziq-ovqat xavfsizligi, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, fanning predmeti, fanning usullari.

1. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o‘rni va ahamiyati.

Qishloq xo‘jaligi – O‘zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmog‘i hisoblanadi. Ushbu tarmoq mamlakatimiz aholisi uchun oziq-ovqat mahsulotlari va sanoatning ko‘pgina sohalariga xomashyo yetkazib berishi bilan birga, qishloq xo‘jaligi mashinasozligi, kimyo sanoati va boshqa sanoat tarmoqlari mahsulotlarining asosiy xaridori bo‘lib ham hisoblanadi.

2019-yilda mamlakatimiz iqtisodiyot tarmoqlari yalpi qo‘shilgan qiymatining 28,1 foizi, iqtisodiyot tarmoqlarida band bo‘lgan aholining 26,2 foizi qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri kelgan. Shu jihatdan ushbu tarmoq mamlakatimiz makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

2020-yilda butun dunyoda yuzaga kelgan pandemiya va shu sababli joriy etilgan karantin choralari natijasida tashqi savdo aloqalarining cheklanishi har bir mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash uchun qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish lozimligini yana bir marotaba isbotladi.

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘i mamlakatimiz agrosanoat majmuasining muhim bo‘g‘ini bo‘lib, uning mamlakatimiz iqtisodiyotidagi ahamiyati quyidagilardan iborat:

Birinchidan, u aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlaydi. Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashda mazkur tarmoqning o‘rni beqiyosdir, chunki aholi iste’mol qiladigan oziq-ovqat mahsulotlari asosan qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida yetishtiriladi.

Ikkinchidan, qishloq xo‘jaligi yengil va oziq-ovqat sanoati uchun xom ashyoning asosiy qismini yetkazib beradi. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining rivojlanish darajasi sanoat ushbu sohalarining ishlab chiqarish miqdori va samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Uchinchidan, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi mamlakat og‘ir sanoatining rivojlanish sur’atiga va darajasiga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘i yirik miqdorda ishlab chiqarish vositalarini iste’mol qilgani holda, qishloq xo‘jalik texnikalari va melioratsiya mashinalari ishlab chiqaruvchilar hamda qishloq xo‘jalik mashinasozligi, kimyo sanoati, ayniqsa mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarishga faol ta’sir ko‘rsatadi. Hozirgi vaqtda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishga ketadigan moddiy xarajatlarning asosiy qismini sanoat tarmog‘i yetkazib beradigan ishlab chiqarish vositalari tashkil qiladi (yoqilg‘i-moylash materiallari, ehtiyot qismlar, mineral o‘g‘it, omuxta yem va boshqalar).

To‘rtinchidan, qishloq xo‘jaligi tarmog‘i mehnat resurslarini ish bilan ta’minlashda ham katta ahamiyatga ega. 2019-yil holatiga mamlakatimiz aholisining 49,4 foizi qishloq joylarda istiqomat qiladi. Aholini ish bilan ta’minlash, ularning turmush farovonligini oshirish ko‘p jihatdan mazkur tarmoqda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning natijalariga bevosita bog‘liqdir.

Beshinchidan, qishloq xo‘jaligining mamlakat iqtisodiyotidagi roli yana shu bilan aniqlanadiki, u mamlakatning iqtisodiy salohiyatini belgilab beruvchi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarda ham sezilarli salmoqqa ega. Bu tarmoqda mamlakat yalpi ichki mahsulotining salmoqli qismi yaratiladi. 2019-yilda mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlarining yalpi qo‘shilgan qiymati tarkibida qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining ulushi 28,1 foizini tashkil etgan (1.1-rasm).



1.1-rasm. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati tarkibida qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining ulushi, foizda

Ushbu rasmdagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, so‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligining mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlarining yalpi qo‘shilgan qiymati tarkibidagi ulushi kamayishi kuzatilmoqda. Bu qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining kamayganligini anglatmaydi, balki mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi qishloq xo‘jaligi tarmog‘i ulushining kamayishi sanoat va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida rivojlanish sur’atlarining yuqoriroq bo‘layotganligi bilan izohlanadi. Lekin mamlakatimiz iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining o‘rni va ahamiyati muhimligicha qolaveradi.

Mazkur tarmoq mamlakatimiz eksportida ham muhim ahamiyatga ega. Qishloq xo‘jalik mahsulotlari va ularni qayta ishlash hisobiga olingan mahsulotlar mamlakatimiz jami eksporti tarkibida sezilarli salmoqni egallaydi.

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining asosiy ko‘rsatkichlari 1.1-jadvalda keltirilgan.

1.1-jadval

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining asosiy ko‘rsatkichlari

	2016	**2017**	**2018**	**2019**
Yalpi ichki mahsulot, mlrd. so‘m	242495,5	302536,8	406648,5	511838,1
Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati, mlrd. so‘m	220064,0	267744,8	361072,7	465357,4
Shu jumladan, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligining yalpi qo‘shilgan qiymati, mlrd. so‘m	74779,0	90983,9	113660,7	130599,9
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligining ulushi, foiz	34,0	34,0	31,5	28,1
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarda qishloq xo‘jaligining ulushi, foizda	9,4	8,5	6,4	6,2
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi o‘sish sur’ati, o‘tgan yilga nisbatan foizda	106,1	101,2	100,3	103,1
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida band bo‘lganlarning o‘rtacha yillik soni, ming kishi	3646,7	3671,3	3537,2	3544,6
Iqtisodiyot tarmoqlarida band bo‘lganlar sonida qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining ulushi, foizda	27,4	27,2	26,6	26,2
Meva-sabzavot mahsulotlari eksportining jami eksportdagi ulushi, foizda	4,6	5,1	6,3	6,9

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2019-yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan

qiymati 90,9 foizni tashkil etgan. Qolgan 9,1 foizi esa mahsulotlarga sof soliqlardir. 2019-yilda meva-sabzavot mahsulotlari eksporti mamlakatimiz jami eksporti tarkibida 6,9 foizni tashkil etgan va u o‘sish tendensiyasidadir. Qulay geografik joylashuv mamlakatimizga qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining jahon bozorida nisbiy ustunlik beradi. Chunki tabiiy omillar ta’sirida mamlakatimizda yetishtirilayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yuqori sifat ko‘rsatkichlariga ega bo‘ladi. Ushbu ustunlikdan unumli foydalangan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini yanada rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida bozor iqtisodiyoti talablariga mos iqtisodiy munosabatlarni shakllantiradigan, huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy hamda ijtimoiy islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilishini ta’minlash imkoniyatini beradigan tadbirlar ishlab chiqilib, izchil amalga oshirilmoqda. Bunda sohaga oid turli dasturlarning qabul qilinib, hayotga tatbiq etilishi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Natijada qishloq xo‘jaligining yuqori sur’atlarda rivojlanishini ta’minlash va shu orqali respublika iqtisodiyotini yuksaltirishga erishilmoqda.

2. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining o‘ziga xos xususiyatlari.

“Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” fanini o‘rganishda qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining o‘ziga xos xususiyatlarini ham e’tiborga olish lozim. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining quyidagi o‘ziga xos xususiyatlari mavjud:

a) qishloq xo‘jaligida tabiiy omillarning ta’siri kuchli. Tarmoqda ishlab chiqarish jarayoniga harorat, yog‘ingarchilik, shamol va boshqa tabiiy omillar o‘z ta’sirini o‘tkazadi. “Trademap” ma’lumotlariga ko‘ra, 2020-yilda O‘zbekistondan o‘rik eksporti rekord darajadagi 74,5 ming tonnani tashkil etgan va o‘rik eksporti hajmi bo‘yicha jahonda ikkinchi o‘rinni egallagan. Birinchi o‘rin Ispaniyaga tegishli bo‘lib, ushbu mamlakat 2020-yilda tashqi bozorga 96 ming tonna o‘rik eksport qilgan. EastFruit tahlillariga ko‘ra, 2021-yilda fevral oyi oxiri va mart oyi o‘rtalarida respublika hududlariga to‘satdan kirib kelgan sovuq havo oqimi natijasida o‘rik eksporti bo‘yicha jahon miqyosida yetakchilardan biri bo‘lmish O‘zbekiston uning importchisiga aylandi. Noqulay ob-havo ta’sirida kam yetishtirilganligi sababli ichki bozorda o‘rik narxi yuqori ekanligi va qo‘shni Tojikistonda nisbatan arzonligi sababli, qo‘shni mamlakatdan ushbu meva import qilindi. Ushbu misoldan

ko‘rish mumkinki, qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida mahsulot yetishtirish jarayoniga tabiiy-iqlim sharoitlari bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

b) qishloq xo‘jaligida yer asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi. Boshqa tarmoqlarga nisbatan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida yerning ahamiyati juda katta, chunki mazkur tarmoqda ishlab chiqarish jarayoni bevosita yerda amalga oshadi. Yerga urug‘ sepiladi, ko’chat ekiladi va dehqonchilik mahsulotlari yetishtiriladi. Chorvachilikda ham yerning ahamiyati katta, ya’ni chorva mollari yaylovlarda boqiladi, yerda yetishtirilgan chorva ozuqasi mahsulotlari bilan oziqlantiriladi. Yerdan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi jarayonida ularga e’tibor berish talab etiladi;

d) qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida ishlab chiqarish mavsumiy xususiyatga ega. Mahsulot yetishtirishda o‘simliklar va chorva mollari ma’lum vegetatsion davrning o‘tishini taqozo etadi. Bu holat tarmoqda xarajatlar va faoliyat natijasida olinadigan daromadlar muddati o‘rtasidagi farqning katta bo‘lishiga olib keladi. Masalan, paxta yetishtirishda ishlab chiqarish jarayoni erta bahorda boshlanib, kuzda nihoyasiga yetadi. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida faoliyat yurituvchi tadbirkor o‘zlari yetishtirayotgan mahsulot tayyor bo‘lgunga qadar uzoq muddat davomida faqat xarajat qilishi talab etiladi. Bundan tashqari, ishlab chiqarishning mavsumiyligi qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida mavjud resurslardan yil davomida samarali foydalanishni tashkil etishni taqozo etadi. Qish oylarida mehnat resurslarini ish bilan ta’minlash uchun tarmoqda tadbirkorlikning boshqa shakllarini ham rivojlantirish talab etiladi;

e) ishlab chiqarish jarayonida tirik organizmlar ham mehnat vositalari sifatida qatnashadi. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida mehnat qilayotgan mutaxassislar o‘simlik va hayvonlarning biologik hamda zoologik xususiyatlarini ham bilishi, ishlab chiqarish jarayonida ularni hisobga olishi talab qilinadi. Qishloq xo‘jaligida sarflanayotgan mehnatning samarasi ko‘p jihatdan o‘simlik va chorva mollarining biologik imkoniyatlariga bog‘liq;

f) qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish juda keng maydonlarda amalga oshiriladi. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan shug‘ullanuvchi yerdan foydalanuvchilar ixtiyoridagi yer maydoni 20761,6 ming gektar yer bo’lib, 4210,1 ming gektar sug’oriladigan yerlarda dehqonchilik qilinadi. Bitta fermer xo’jaligi o’nlab gektar yer maydonida o’z faoliyatini tashkil etadi. Bu esa o‘z

navbatida ishlab chiqarishni tashkil etishda ma’lum qo’shimcha xarajatlar va boshqa shu kabi talablarni keltirib chiqaradi;

g) qishloq xo‘jaligida yetishtirilgan mahsulotning bir qismi tarmoqning o‘zida urug‘lik, yem-xashak, oziq-ovqat va boshqa maqsadlarda ishlatiladi;

h) qishloq xo‘jalik mahsulotlarining ayrim turlarini uzoq muddat saqlash imkoniyatlari cheklangan va tashish uchun noqulaydir. Bu muammo qishloq xo‘jalik mahsulotlarining deyarli bir vaqtda pishib yetilishi oqibatida yanada chuqurlashadi. Bu o‘z navbatida yetishtirilgan mahsulotni nobud qilmaslik uchun tayyorlovchi, saqlovchi va qayta ishlovchilarning bir me’yorda ishlashini, ma’lum davrda katta quvvatlarning bo‘lishini talab qiladi. Yilning qolgan davrlarida esa bu quvvatlarning nisbatan bo‘sh qolishi kuzatiladi.

Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiy tizimga o‘tish sharoitida davlatning ko‘magida qishloq xo‘jaligida talabga javob beradigan, samarali huquqiy, tashkiliy-iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar tizimi yaratilmoqda, ya’ni mulkchilikning turli shakllari barpo etilmoqda. Natijada erkin mulkiy munosabat vujudga kelmoqda, tadbirkorlikning turli shakllariga keng yo‘l ochib berish va ularni rivojlantirish yo‘lidan borilmoqda. Bundan tashqari yer-suv islohotlari amalga oshirilmoqda, tarmoqning cheklangan ishlab chiqarish resurslari (moddiy, kapital va mehnat)dan samarali foydalanish, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish jarayonini takomillashtirish, foyda hajmini oshirish, investitsiyalarni keng jalb etish, ulardan samarali foydalanish, tarmoq ishlab chiqarishini maqsadga muvofiq joylashtirish, ixtisoslashtirish hamda agrosanoat integratsiyasini rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy munosabatlar tizimi yaratilib, ular takomillashtirilmoqda va rivojlantirilmoqda. Yuqorida ta’kidlangan iqtisodiy munosabatlar tizimini yaratishda xalqimiz hamda qishloq xo‘jaligining o‘ziga xos xususiyatlarini e’tiborga olgan holda tabiiy va iqtisodiy qonunlar, iqtisodiy kategoriyalar talablaridan oqilona foydalanish taqozo etiladi.

3. “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.

“Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” fanining predmeti – qishloq xo‘jaligida obyektiv iqtisodiy qonunlarning amal qilish xususiyatlari, tarmoqda iqtisodiy munosabatlarni ishlab chiqarish kuchlari bilan bog‘lagan holda o‘rganishdir. Qishloq xo‘jaligining barqaror iqtisodiy

asosini, takror ishlab chiqarish jarayoni rivojlantirilishini ta’minlaydigan iqtisodiy munosabatlar tizimini yaratish va ularni hayotga joriy etish masalalarini, tarmoqda mavjud resurslardan oqilona foydalanish, xarajatlarni tejash hamda samaradorlikni oshirish yo‘llarini o‘rgatish “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” fanining maqsadi hisoblanadi. “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” fani o‘z oldiga qo‘ygan maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi asosiy vazifalar yechimining nazariy va uslubiy asoslarini o‘rgatishi lozim:

- qishloq xo‘jaligining respublika iqtisodiyotidagi o‘rni, ahamiyati, uning rivojlanish qonuniyatlarini;
- tarmoqqa davlat rahbarligini, unda amalga oshirilayotgan agrar-iqtisodiy islohotlar mazmuni va mohiyatini, ularni rivojlantirish yo‘llarini;
- qishloq xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik shakllari, ularning faoliyatiga baho berish va takomillashtirish yo‘llari;
- tarmoqning cheklangan yer-suv, mehnat resurslari, investitsiyalar va ulardan tadbirkorlik bilan samarali foydalanish darajasiga iqtisodiy baho berish tartibini o‘rganish, ularni takomillashtirish va rivojlantirish yo‘llarini asoslab berish;
- qishloq xo‘jaligida qilinadigan doimiy va o‘zgaruvchan, o‘rtacha xarajatlarni, ularning tarkibi va kamaytirish yo‘llarini, yetishtirilgan mahsulotning hajmini, sifatini, samarali taqsimlanishini hamda pul oqimlarini o‘rgatish;
- tarmoqda iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishda foydalanilayotgan narxlar tizimini, daromad va foydani aniqlash, ularni oqilona taqsimlash yo‘llarini ko‘rsatish;
- qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining qay darajada ixtisoslashganligini, joylashganligini hamda ichki va tashqi integratsiyalashganligini va boshqa masalalarini o‘rganish.

4. “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” fanining tadqiqot usullari.

“Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” fani o‘z predmetini o‘rganishda quyidagi usullardan foydalanadi:

a) ilmiy abstraksiya usuli. Ushbu usulda o‘rganilayotgan jarayonning asl mohiyatiga e’tibor qaratilib, tahlil vaqtida chalg‘itishi mumkin bo‘lgan ikkinchi darajali omillar, voqea-hodisalar nazardan

chetlashtiriladi. Masalan, qishloq xo‘jalik mahsulotlariga nisbatan talab qonuni o‘rganilayotgan vaqtda faqatgina talab va baho o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tahlil qilinib, boshqa omillar – raqobat, davlatning baho siyosati, bozorning to‘yinganlik darajasi va boshqalar e’tiborga olinmaydi.

b) induksiya va deduksiya usullari. Bu bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan, ammo o‘zaro bog‘liqlikdagi fikrlash usullaridir. Fikrning xususiy faktlardan umumiy faktlarga tomon harakati induksiya, aksincha, umumiy faktlardan xususiy faktlarga qarab harakatlanishi deduksiya deb ataladi. Induksiya va deduksiya usullarida turli gipotezalar ilgari suriladi. Gipoteza – biror-bir voqea-hodisaning ilmiy nazariya bo‘la olishi uchun uni tajribada sinab ko‘rish va nazariy jihatdan asoslab berish uchun beriladigan ilmiy taklifdir.

d) taqqoslama tahlil usuli. Bu ko‘zlangan maqsadga erishish maqsadida xususiy va umumiy ko‘rsatkichlarni taqqoslash orqali tahlil qilish usulidir.

e) eksperiment usuli. Bu o‘rganilayotgan voqea-hodisaga omillar ta’sirini, uning rivojlanish qonuniyatlarini bilish uchun turli tajribalar o‘tkazish usulidir. Qishloq xo‘jaligida mehnatga haq to‘lash, xo‘jalik hisobi, ijara pudrati va boshqalarda eksperimentlar o‘tkaziladi.

f) hisob-konstruktiv usul. Bu usul qishloq xo‘jaligiga oid biror muammoni kelajakda hal etishning ilmiy asoslangan yo‘llarini aniqlab beradi. Ushbu usul ASM tarmoqlarini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda keng qo‘llaniladi.

g) monografik usul. O‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha umumiy xulosalar chiqarish maqsadida mazkur yo‘nalishdagi ilg‘or mintaqalar va xo‘jaliklar faoliyatini chuqur o‘rganish va taqqoslash mazkur usulning mohiyatidir.

h) iqtisodiy-matematik usul. Mazkur usul o‘z ichiga matematik statistika, ishlab chiqarish funksiyalari va iqtisodiy-matematik modellashtirishni oladi hamda bir qancha omillar ta’sir etuvchi murakkab iqtisodiy jarayonlarni o‘rganishda qo‘llaniladi. Ma’lum ishlab chiqarish omillari mavjud bo‘lganda biror natijaga erishish uchun turli muqobil variantlarni o‘zaro taqqoslab, ular orasidan eng ma’qulini

tanlab olishda iqtisodiy-matematik usullarning ahamiyati kattadir. Bunda kompyuter texnologiyalaridan ham keng foydalaniladi.

“Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” fani tarmoqda amalga oshirilayotgan tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy munosabatlar majmuasining nazariy asoslarini, yo‘nalishlarini, samaradorligini mavjud tadqiqot usullari yordamida o‘rgatish orqali talabalarda tarmoq iqtisodiyoti bo‘yicha iqtisodiy mushohada qilish, uni rivojlantirishga oid muammolarni qo‘yish va uni hal etish, samaradorligini oshirish yo‘nalishlarini belgilab berish qobiliyatini shakllantirib, bozor munosabatlari talablariga javob bera oladigan mutaxassislar tayyorlashga ko‘maklashadi.

“Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” fanini o‘rganishda barcha iqtisodiy fanlar, shu jumladan “Iqtisodiyot nazariyasi”, “Makroiqtisodiyot”, “Mikroiqtisodiyot”, “Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi”, “Statistika”, “Marketing”, “Menejment”, “Iqtisodiy tahlil” kabi fanlardan olingan nazariy va amaliy bilimlarga asoslanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, iqtisodiy qonunlar, kategoriyalar, ularning har birining mazmunini, amal qilish mexanizmini o‘zlashtirmasdan qishloq xo‘jaligidagi iqtisodiy munosabatlar tizimini to‘g‘ri va samarali amalga oshirish, mehnatni tejash va uning unumdorligi rivojlantirilishini belgilash qiyin. “Mikroiqtisodiyot” fanidan talab va taklif kabi iqtisodiy qonunlarning korxonalarda amal qilishini o‘rganmasdan qishloq xo‘jaligida qanday mahsulotni, qayerda, qancha miqdorda yetishtirish zarurligini to‘g‘ri belgilab bo‘lmaydi.

Qisqacha xulosalar

Mamlakatimiz iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi tarmog‘i muhim ahamiyatga ega. U aholini oziq-ovqat mahsulotlari, qayta ishlash sanoatini esa xomashyo bilan ta’minlaydi. Kelajakda mamlakatimiz iqtisodiyotini yuksaltirish uchun qishloq xo‘jaligini rivojlantirish obyektiv zaruriyat hisoblanadi. Bu masalani samarali hal etish mexanizmlarini, yo‘llarini aniqlash “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” fanida o‘rganiladi. Chunki bu fan tarmoqning barqaror iqtisodiy negizini yaratish asosida uni rivojlantirishni ta’minlay olish qobiliyatiga ega

bo‘lgan iqtisodiy munosabatlar tizimini ilmiy asoslangan holda yaratish va ularni izchillik bilan bosqichma-bosqich hayotga joriy etish usullarini, yo‘llarini o‘rgatadi.

Iqtisodiy munosabatlar tizimini mukammal o‘zlashtirish uchun nazariy hamda amaliy jihatdan asoslangan tadqiqot usullaridan oqilona foydalanish maqsadga muvofiqdir. Qishloq xo‘jaligi rivojlanishini hamda samaradorligi yuksalishini ta’minlovchi iqtisodiy munosabatlarni amaliyotga tatbiq etish uchun iqtisodiy, tabiiy hamda ayrim texnologik fanlarni bilish lozim.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘i mamlakatimiz iqtisodiyotida qanday o‘rin tutadi?
2. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining qanday o‘ziga xos xususiyatlari mavjud?
3. “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” fanining predmeti nimadan iborat?
4. “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” fanining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
5. “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” fani o‘z predmetini o‘rganishda qanday usullardan foydalanadi?
6. “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” fanining boshqa iqtisodiy fanlar bilan bog‘liqligini bayon eting.

BOB YUZASIDAN AMALIY TOPSHIRIQLAR:

1-topshiriq:

BBB texnikasi yordamida mavzuga doir bilimlarni yanada kengaytirish.

1. Mavzuga oid materiallarni o‘qib chiqing.
2. Olingan ma’lumotlarni individual sohalarga ajrating. Qalam bilan qo‘yilgan belgilar asosida BBB jadvalini to‘ldiring.

BBB jadvali

№	*Mavzu savollari*	*Bilaman*	*Bilishni istayman*	*Bilib oldim*
1.	Qishloq xo‘jaligining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o‘rni va ahamiyati.			
2.	Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining o‘ziga xos xususiyatlari.			
3.	“Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.			
4.	“Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” fanining tadqiqot usullari va boshqa fanlar bilan aloqadorligi.			

2-topshiriq:

SWOT tahlil usuli yordamida mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining kuchli tomonlari, zaif tomonlari, imkoniyatlari va xavf-xatarlarini tahlil qilish. Bunda SWOT tahlil jadvali chiziladi va har bir talaba alohida ushbu tahlilni amalga oshiradi.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining rivojlanishi

S (strength)	W (weakness)
O (opportunity)	T (threat)

3-topshiriq:

“Baliq skeleti” texnologiyasi asosida **“Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?”** savoliga javob beriladi. Ushbu texnologiya katta muammolarning yechimini topishga qaratilgan.

Yuqori qismida sinflarga ajratilsa, pastki qismida esa ularning farqlarini tasdiqlovchi dalillar yoziladi.



Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining mamlakatimiz iqtisodiyotida tutgan o‘rni.
2. Qishloq o‘jaligi tarmog‘ining o‘ziga xos xususiyatlari.
3. “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” fanining predmeti, maqsadi, vazifalari va usullari.

2-BOB: O‘ZBEKISTONDA AGRAR ISLOHOTLARNING MOHIYATI, BOSQICHLARI VA ASOSIY YO‘NALISHLARI.

1. Qishloq xo‘jaligida bozor munosabatlarini shakllantirishning zarurligi va ahamiyati.
2. Qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan islohotlarda davlatning roli.
3. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy bosqichlari va yo‘nalishlari.
4. Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha islohotlarning istiqbolli yo‘nalishlari.

Tayanch iboralar: agrar islohotlar, bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyot, ko‘p ukladli iqtisodiyot, xususiylashtirish, xususiy mulk, shirkat xo‘jaliklari, fermer xo‘jaliklari, yagona yer solig‘i, moliyalashtirish.

1. Qishloq xo‘jaligida bozor munosabatlarini shakllantirishning zarurligi va ahamiyati.

Sobiq ittifoq davrida mamlakatimizda ma’muriy boshqariladigan rejali iqtisodiy tizim amal qilgan bo‘lib, ushbu iqtisodiy tizimning asosiy kamchiligi – mulkning egasizligidir. Ushbu iqtisodiy tizimda asosan davlat mulki va qisman jamoa mulki mavjud bo‘lgan bo‘lib, xususiy mulkchilikka ruxsat berilmagan. Jamoa mulki deb ataluvchi mulk shakli ham o‘z nomiga to‘liq mos bo‘lmasdan, amalda davlat tomonidan boshqarilgan. Bunday sharoitda xodimlar tomonidan korxonalarda mavjud resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish, ishlab chiqarish hajmini oshirish, mahsulot tannarxini pasaytirish, yetishtirilyotgan mahsulot sifatini yaxshilab borish, iqtisodiy samaradorlikni oshirishga rag‘bat beruvchi mexanizm mavjud bo‘lmagan.

Yuqoridagi holatlarni inobatga olgan holda mamlakatimizda mustaqillikka erishilgandan so‘ng yangicha iqtisodiy tizim – bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiy tizimga o‘tish bo‘yicha islohotlar amalga oshirila boshlandi. Mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida bo‘lgani singari qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida ham keng qamrovli islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Amalga oshirilayotgan ushbu islohotlar natijasida qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida ham bozor munosabatlari shakllanib, mulkiy munosobatlar takomillashdi, bozor iqtisodiyoti sharoitlariga mos yangicha tadbirkorlik shakllari paydo bo‘ldi.

2. Qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan islohotlarda davlatning roli.

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda mazkur tarmoqda tabiiy resurslardan samarali foydalanishni tashkil etish, ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash, ekologiyaga salbiy ta’sirlarning oldini olish, tarmoqda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda davlatning ko‘magi va aralashuvi muhimdir. Masalan, tarmoqda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarning o‘zlariga ajratib berilgan yer maydonida tuproq erroziyasining oldini olish uchun tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, turli irrigatsiya obyektlarini qurish va undan foydalanishni tashkil etish uchun iqtisodiy imkoniyati yetmasligi mumkin. Buning natijasida yer va suv resurslaridan foydalanishning holati yomonlashadi. Bundan tashqari, tarmoqda ilmiy tadqiqotlarni yo‘lga qo‘yish va ularni moliyalashtirish jarayonida ham davlatnjing o‘rni muhim. Mamlakatimiz hukumati qishloq xo‘jaligi tarmog‘i oldidagi muhim vazifalarni e’tiborga olgan holda tarmoqni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishni o‘z zimmasiga olgan. Hozirgi davrda respublikamiz hukumati agrar siyosatning strategik yo‘nalishlarini belgilab, uni ta’minlash bilan bog‘liq tadbirlarni amalga oshirish choralarini ko‘rmoqda.

Respublikamiz hukumati agrar siyosatning strategik yo‘nalishlarini belgilab, uni ta’minlash bilan bog‘liq tadbirlarni amalga oshirish choralarini ko‘rmoqda. Hukumatning asosiy e’tibori qishloq xo‘jaligining barcha sohalari yagona fan-texnika siyosatiga asoslangan holda rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan. Davlatning agrar sohada amalga oshirayotgan islohotlarning asosiy yo‘nalishlari quyidagilar:

- mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini barqaror ko‘paytirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rish;
- urug‘chilik, naslchilik va ko‘chatchilikni rivojlantirish, yangi, serhosil, tezpishar navlar hamda mahsuldor zotlarni yaratish;
- qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi jarayoniga fan yutuqlarini joriy etishni tashkillashtirish;
- tarmoqda bozor munosabatlarini yanada takomillashtirib borish;
- yangi texnika, ilg‘or texnologiyalarni yaratish, agrotexnika tadbirlarini takomillashtirish va boshqalar.

3. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy boshqichlari va yo‘nalishlari.

Mustaqillikning ilk davridan boshlab mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan islohotlarni ma’lum xususiyatlariga qarab turli bosqichlarga ajratish mumkin. Bizning fikrimizcha, qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan islohotlarni quyidagi asosiy bosqichlarga ajratish mumkin:

- 1991-1995-yillar. Ushbu davr mobaynida tarmoqda amalga oshiriladigan islohotlarning huquqiy asoslari ishlab chiqildi, davlat mulkini davlat tasarrufidan chiqarish amalga oshirildi. Shu yillar mobaynida davlat tasarrufidagi qishloq xo‘jaligi korxonalarini xususiylashtirish tugallandi. Tarmoqda faoliyat yuritib kelgan davlat xo‘jaliklari va chorvachilik fermalari xususiylashtirildi. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida jamoa mulkiga asoslangan tadbirkorlik shakllariga ustuvorlik berildi. Bundan tashqari, ushbu bosqichda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmi kamayish tendensiyasida bo‘lgan. Chunki sobiq ittifoq davrida qo‘shni respublikalar bilan o‘rnatilgan iqtisodiy aloqalarning mustaqillikka erishilgandan so‘ng barham topishi, mamlakatimizda yangicha iqtisodiy tizimni barpo etish bo‘yicha islohotlarning boshlanishi va boshqa shu kabi omillar ta’sirida 1991-1995-yillar mobaynida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmi 11 foizga kamaygan.
- 1996-2007-yillar. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida amalga oshirilgan islohotlarning ushbu davrida makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, iqtisodiy o‘sishga erishish bilan tavsiflanadi. Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida mahsulot ishlab chiqarish hajmi 1996-yildan boshlab o‘sish tendensiyasiga o‘zgardi. Tarmoqda faoliyat yurituvchi xo‘jalik yuritish shakllarini takomillashtirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish bilan shug‘ullanuvchilarda haqiqiy mulkdorlik hissini ta’minlashga e’tibor berildi. Shu maqsadda faoliyat yuritib kelayotgan jamoa xo‘jaliklari negizida shirkat xo‘jaliklarini tashkil etildi. Shirkat xo‘jaliklari ham kutilgan natijani bermagandan so‘ng ularning negizida fermer xo‘jaliklarini tashkil etish va ularni rivojlantirish bo‘yicha islohotlar keng qamrovda amalga oshirildi. Bundan tashqari, davlat buyurtmasi asosida qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni moliyalashtirish tizimi takomillashtirildi.
- 2008-2016-yillar. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi yuzaga kelishi va mamlakatimizda inqirozga qarshi choralar dasturining ishlab

chiqilishi bilan qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida ham tub islohotlar belgilab berildi. Jumladan, fermer xo‘jaliklariga ajratib berilgan yer maydonlarini optimallashtirish bo‘yicha tegishli islohotlar amalga oshirila boshlandi, qishloq xo‘jaligi yerlarining meliorativ holatini yaxshilash chora-tadbirlari kuchaytirildi. Bundan tashqari ushbu bosqichda qishloq joylarda ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish bo‘yicha ham islohotlar boshlandi, ya’ni qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida uy-joylar qurilishi ishlari boshlangan edi.

- 2017-yildan hozirgi vaqtgacha. Tarmoqda amalga oshirilayotgan islohotlarning ushbu bosqichi mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida tub burilish davri bo‘lib, tarmoqqa bozor munosabatlarinig keng joriy etilishi bilan ajralib turadi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini intensiv rivojlantirish maqsadida tarmoqda tadbirkorlikning yangi shakli bo‘lgan klasterlar tashkil etila boshlandi, qishloq xo‘jaligida raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, innovatsiyalarni joriy etish, resurs tejamkor texnologiyalar va usullarni joriy etishga e’tibor kuchaytirildi. Bundan tashqari, tarmoqda faoliyat yuritib kelayotgan tadbirkorlik subyektlarining faoliyat erkinligini ta’minlash, tarmoqda bozor munosabatlarini joriy etish maqsadida paxta va g‘alla uchun davlat buyurtmalarining bekor qilinishi muhim islohotlardan biri hisoblanadi. Fermer xo‘jaliklarining faoliyatini diversifikatsiyalash, ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini tashkil etish, ularda bog‘dorchilik, sabzavotchilik, chorvachilik kabi yo‘nalishlarni tashkil etish va rivojlantirishga alohida e’tibor berila boshlandi. Mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, qishloq aholisi daromadlarini oshirish maqsadida dehqon xo‘jaliklarida ham qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida aholiga imtiyozli shartlar asosida kreditlar berish ko‘lami kengaytirildi.

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida amalga oshirilayotgan islohotlarni quyidagi asosiy yo‘nalishlarga ajratish mumkin:

- yer va suv resurslaridan foydalanishni takomillashtirish bo‘yicha islohotlar;
- qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida mulkiy va tarkibiy islohotlar, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish**;**
- qishloq xo‘jaligini moliyalashtirish va kreditlash sohasidagi islohotlar;
- qishloq xo‘jalik mahsulotlarining narxi shakllanishi va uni erkinlashtirish bo‘yicha islohotlar;

- qishloq xo‘jaligida soliqqa tortish va to‘lash mexanizmini soddalashtirish bo‘yicha islohotlar;
- qishloq xo‘jaligida raqamli iqtisodiyotni shakllantirish hamda resurs tejamkor innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha islohotlar;
- qishloq xo‘jaligida bozor munosabatlarini takomillashtirish sohasidagi islohotlar.

Yer resurslaridan foydalanish sohasidagi islohotlar.

Yer qishloq xo‘jaligining asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi. Shu sababli mustaqillikning ilk davridan boshlab qishloq xo‘jaligida yer resursidan foydalanishni takomillashtirish borasida islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Birinchidan, mamlakatimizda yerga nisbatan mulkchilik bo‘yicha Konstitutsiyamizga alohida norma kiritildi. Bosh qomusimiz hisoblangan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida “Yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir” - deb belgilab qo‘yilgan.

Ikkinchidan, mustaqillikning dastlabki yillarida aholiga tomorqa yerlarining berilishi ularning turmush sharoitini yomonlashib ketishiga yo‘l qo‘ymadi. Mustaqillik yillarida aholiga 682,5 ming gektardan ortiqroq yer yakka tartibda uy-joy qurish va tomorqa uchun berildi. Ushbu islohotni amalga oshirishdan quyidagi maqsadlar ko‘zlangan edi:

- aholi bandligini ta’minlash va daromadini oshirish. Mustaqillikning ilk davrlarida sobiq ittifoq davridagi iqtisodiy aloqalar uzilishi, ko‘plab korxonalarning o‘z faoliyatini to‘xtatishi natijasida mamlakatimiz aholisining ma’lum qismi ishsizlikka duch kelgan edi. Ayniqsa bu muammo qishloq joylarda murakkab edi. Qishloq aholisining bandligini ta’minlash va shu orqali ularning daromadini oshirishda aholiga tomorqa sifatida yerlarning berilishi muhim ahamiyat kasb etdi;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish. Mustaqillikning dastlabki davrida qishloq xo‘jaligida faoliyat yuritayotgan xo‘jaliklar faoliyatining pasayishi o‘z navbatida ularda ishlab chiqarish hajmining kamayishiga ham olib keldi. Aholiga tomorqa sifatida yerlarning berilishi qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Aholi o‘z tomorqasida yetishtirgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini o‘z ehtiyojlari uchun sarfladi, ehtiyojdan ortgan qismini esa bozorlarda sotib, qishloq

xo‘jalik mahsulotlari taklifining oshishiga olib keldi. Bu o‘z navbatida qishloq xo‘jalik mahsulotlari narxining keskin ko‘tarilib ketishining oldini oldi. Ushbu islohot natijasi o‘laroq hozirgi vaqtda qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqon xo‘jaliklarining ulushi yuqori. Masalan, 2019-yil holatiga jami qishloq xo‘jalik mahsulotlari tarkibida dehqon xo‘jaliklarining ulushi 68,3 foizni tashkil etgan. Shu jumladan dehqonchilik tarmog‘ida ushbu ko‘rsatkich 46,8 foizni, chorvachilikda esa 91,2 foizni tashkil etgan.

- aholining uy-joyga bo‘lgan talabini qondirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Tomorqa sifatida berilgan yerlarda aholi uy-joylar qurdi va bu holat ma’lum davrda aholining uy-joyga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda muhim rol o‘ynadi.

Uchinchidan, mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida yerdan foydalanish ijara usuliga asoslangan bo‘lib, yer ijara mexanizmi orqali bozor munosabatlariga kiritiladi. Shuni ta’kidlash zarurki, agrar islohotlar jarayonida qishloqda turli toifadagi yerdan foydalanuvchilar soni keskin ko‘paydi va bu hozir ham davom etmoqda. “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonunda ham yer uchastkasi fermer xo‘jaliklariga 30 yildan 50 yilgacha bo‘lgan muddatga ijaraga berilishi belgilab qo‘yilgan. Fermer xo‘jaliklariga yer uchastkalari ajratib berish jarayonini takomillashtirish maqsadida ularga yer uchastkasini tender asosida ajratib berilishi tartibi joriy etilgan.

To‘rtinchidan, fermer xo‘jaliklari faoliyatini yuritishda yer uchastkalari miqdorini maqbullashtirish choralari amalga oshirib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 6-oktabrdagi “Fermer xo‘jaliklari faoliyatini yuritishda yer uchastkalari miqdorini maqbullashtirish choralarini ko‘rish yuzasidan takliflar ishlab chiqish bo‘yicha maxsus komissiya tashkil etish to‘g‘risida”gi 3077-sonli Farmoyishi, 2015-yil 15-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Fermer xo‘jaliklarini yuritish uchun berilgan yer uchastkalari maydonlarini maqbullashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 362-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-yanvardagi “Fermer xo‘jaliklari va boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalari yer maydonlarini maqbullashtirish hamda qishloq xo‘jaligi ekin yerlaridan samarali foydalanishga doir qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi 14-sonli qarorlariga muvofiq fermer xo’jaliklariga ajratib berilgan yer uchastkalarini maqbullashtirish chora-tadbirlari amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 6-oktabrdagi 3077-sonli Farmoyishiga ko‘ra, o‘sha paytda

jahon-moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etayotganligi va mamlakatimizda inqirozga qarshi chora-tadbirlar dasturi doirasida fermer xo‘jaliklari yer maydonlarini asosan yiriklashtirishga e’tibor qaratildi. 2015-yil 15-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 362-sonli qarori bo‘yicha esa fermer xo‘jaliklarining yer uchastkalari kichiklashtirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-yanvardagi 14-sonli qarorlariga muvofiq esa fermer xo‘jaliklariga ajratib berilgan yer maydonlari yiriklashtirildi. Ushbu qarorda qishloq xo‘jaligi korxonalari yer uchastkalarining hajmlari ularning faoliyat yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda quyidagicha belgilanadi:

- paxtachilik va g‘allachilik yo‘nalishidagi qishloq xo‘jaligi korxonalari yer uchastkalari maydonlarining eng kam o‘lchami - 100 gektar;
- g‘allachilik va sabzavotchilik yo‘nalishidagi qishloq xo‘jaligi korxonalari yer uchastkalari maydonlarining eng kam o‘lchami - 20 gektar;
- bog‘dorchilik va uzumchilik yo‘nalishidagi qishloq xo‘jaligi korxonalari yer uchastkalari maydonlarining eng kam o‘lchami - 10 gektar;
- sabzavotchilik va polizchilik yo‘nalishidagi qishloq xo‘jaligi korxonalari yer uchastkalari maydonlarining eng kam o‘lchami - 5 gektar.

Bir gektar yer maydoni uchun paxta-g‘allachilik loyihasiga 2 ming AQSh dollari ekvivalenti miqdorida hamda sabzavot-g‘allachilik, bog‘dorchilik-uzumchilik, sabzavot-polizchilik loyihalariga 5 ming AQSh dollari ekvivalenti miqdorida to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya kiritadigan talabgorlarga va klaster korxonalariga tuman sektor rahbarining tavsiyasiga ko‘ra tanlov o‘tkazmasdan tuman hokimining qaroriga asosan yer uchastkalari ajratiladi.

Bizning fikrimizcha, fermer xo‘jaliklari yer maydonlarining maqbullashishi tabiiy jarayon sifatida yuz berishi lozim. Ya’ni, faoliyati rivojlanayotgan fermer xo‘jaliklari asta-sekinlik bilan o‘z maydonini kengaytirib borishi lozim, faoliyatini yaxshi tashkil eta olmagan, samaradorlikka erisha olmagan fermer xo‘jaliklari o‘z maydonlarini qisqartirishga majbur bo‘ladilar. Bu jarayonga ma’muriy yo‘l bilan aralashish ko‘zlangan natijani bermasligi mumkin. Masalan, mavjud resurs salohiyati va inkoniyatlari 50 gektar yerda faoliyat yuritishga yetadigan, shu maydonda samarali faoliyat yuritayotgan fermer

xo‘jaligining yer maydonini yiriklashtirish uning faoliyati samaradorligi pasayib ketishiga olib kelishi mumkin. Yoki aksincha, undan ma’lum miqdordagi yer maydonining olib qo‘yilishi uning kelgusida o‘z faoliyatini yanada rivojlantirishga, faoliyatiga uzoq muddatli investitsiya kiritishga bo‘lgan rag‘batini susaytiradi. Shu sababli, yer uchastkasini yiriklashtirish yoki kichiklashtirishni fermerning o‘zi hal etishi maqsadga muvofiqdir.

Beshinchidan, qishloq xo‘jaligi yerlarining meliorativ holatini yaxshilashga e’tibor berilmoqda. Yerlarning meliorativ holatini tubdan yaxshilashni ta’minlovchi tadbirlarni kompleks amalga oshirishni rivojlantirish juda muhim hisoblanadi. Hozirgi vaqtda respublika bo‘yicha sug‘oriladigan yerlarning 45,3 foizi turli darajada, shundan 31,1 foizi kuchsiz, 12,2 foizi o‘rtacha, 2 foizi esa kuchli darajada sho‘rlangan, 24,4 foiz maydonda esa yer osti suv sathi 2 m va undan yuqorida joylashgan.

Yerlarning sho‘rlanish darajasiga ayrim joylarda irrigatsiya tizimining yaroqsiz holga kelganligi, suvdan tejab-tergab samarali foydalanish qoidalarining buzilishi, ekinlarni sug‘orish texnologiyasining takomillashmaganligi, yerdan foydalanuvchi subyektlar sonining ko‘payishi, ularga ijaraga berilayotgan yer uchastkalarining maydalashib ketganligi va ularning meliorativ tadbirlarni amalga oshirishga mablag‘lari yetishmasligi sabab bo‘lmoqda.

Suv iste’molchilari uyushmalari va fermer xo‘jaliklarining 77 foiz sug‘orish tarmog‘i tuproq o‘zanli bo‘lib, 44 foiz tarmoq ta’mirlash va tiklashga, 10 foiz tarmoq esa rekonstruksiya qilishga muhtoj.

Mavjud lotok tarmoqlarining asosiy qismi 30 yildan ziyod xizmat ko‘rsatib ularni o‘z vaqtida ta’mirlash ishlari amalga oshirilmaganligi, shuningdek, xizmat muddatlarini o‘tib ketganligi natijasida ularning 70 foizi rekonstruksiya qilish va almashtirishni talab qiladi. Suv iste’molchilarining suv olish joylari esa aksariyat holda suvni boshqarish va hisobga olish vositalari bilan jihozlanmagan. Natijada irrigatsiya tizimi va sug‘orish tarmoqlarining foydali ish koeffitsiyenti o‘rtacha 0,63, bir qator hududlarda esa undan ham past bo‘lib, asosiy manbalardan olinadigan suvning 35-40 foizi sug‘orish tarmoqlarida yo‘qotilmoqda.

Bu muammoni yechishda davlatning bevosita ko‘magi lozim. Bu muhim tadbirni qishloq xo‘jalik korxonalarining o‘zlari bajara olmasligi mumkin, chunki ularning texnik-iqtisodiy quvvati yetmaydi. Qishloq xo‘jalik korxonalari yerlarining meliorativ holatini yaxshilashda

irrigatsiya va melioratsiya davlat hissadorlik tashkilotlarining ma’lum haq evaziga xizmat qilishini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqdir. Mazkur soha bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlarning huquqiy asoslari yaratilgan bo‘lib, ular jumlasiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 29-oktabrdagi “Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-3932-sonli farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 31-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-718-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 21-dekabrdagi “O‘zmeliomashlizing” davlat lizing kompaniyasini tashkil etish to‘g‘risida”gi 266-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 19-martdagi “2008-2012-yillarda sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash Davlat dasturi to‘g‘risida”gi PQ-817-sonli qarori va boshqalarni kiritish mumkin.

Bundan tashqari “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” Davlat dasturida belgilab berilgan chora tadbirlarning to‘rtinchi yonalishi - 2008-2012-yillarda sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash davlat dasturida ko‘zda tutilgan chora-tadbirlar tizimining izshil amalga oshirilishiga, ya’ni ekin maydonlarining meliorativ ahvolini yaxshilash, faoliyat ko‘rsatayotgan irrigatsiya-melioratsiya obyektlarining tegishli texnik holatini ta’minlash, ixtisoslashgan suv xo‘jaligi, qurilish va ekspluatatsiya tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni zamonaviy texnika bilan jihozlash masalalariga alohida e’tibor qaratishdir. Bundan tashqari mazkur dasturda sug‘orishning tejamli usullarini, jumladan, tomchilatib sug‘orishni joriy qilishga ham alohida e’tibor qaratilgan. Unda tegishli asbob-uskunalar va tizimlarni mamlakatimizning o‘zida ishlab chiqarishni tashkil etgan holda 2009-2020 yillarda tomchilatib sug‘orish tizimlarini joriy etish dasturini ishlab chiqish nazarda tutilgan. Bundan tashqari respublika viloyatlarida 2009-yilda jami 3710 gektar maydonda tomchilatib sug‘orishni joriy etish mo‘ljallangan edi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 19-apreldagi PQ-1958-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “2013-2017 yillar davrida sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish Davlat dasturi” qabul qilingan va u bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tadbirlarlariga davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar 2.1-rasmda keltirilgan.



2.1-rasm. Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tadbirlarlariga davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar.

Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshirish masalasi sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va unumdorligini oshirish bo‘yicha o‘ta muhim vazifani hal etish bilan bevosita bog‘liqdir. Mazkur muammoni hal etish bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlardan biri - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 19-martdagi PQ-817-sonli “2008-2012-yillarda sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash Davlat dasturi to‘g‘risida”gi qaroridir. Ushbu dasturda melioratsiya inshootlarini barpo etish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash, melioratsiya texnikasi parkini yangilash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlarni bajarish belgilangan edi. 2008-2012-yillarda umumiy uzunligi 3,5 ming kilometrdan ziyod bo‘lgan magistral, tumanlararo va xo‘jaliklararo kollektorlarni, mingdan ortiq melioratsiya qudug‘ini barpo etish va rekonstruksiya qilish, 7,6 ming kilometrlik drenaj tarmog‘ini qayta tiklash vazifasi qo‘yilgan edi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 19-martdagi PQ-817-sonli “2008-2012-yillarda sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash Davlat dasturi to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq 2008-yilda mazkur Davlat dasturi doirasida jami 92,9 mlrd. so‘m mablag‘ maqsadli o‘zlashtirildi. Jumladan, rekonstruksiya qilish va qurish bo‘yicha 47 ta loyiha (22,4 mlrd. so‘m) hamda 243 ta obyekt bo‘yicha (38,6 mlrd. so‘m) ta’mirlash-tiklash ishlari amalga oshirildi va 31,9 mlrd. so‘mlik meliorativ texnikalar xarid qilindi. Sug‘oriladigan

yerlarning meliorativ holatini yaxshilash maqsadida 266,5 kilometr masofadagi kollektor-drenaj tarmoqlari rekonstruksiya qilindi va qurildi, uzunligi 11052,7 kilometr magistral, tumanlararo va xo‘jaliklararo kollektorlar tozalandi, jami 896,2 kilometr masofada yopiq-yotiq zovur tarmoqlari ta’mirlandi hamda lizing asosida 144 dona gidravlik zanjirli ekskovatorlar keltirilib, shundan 112 tasi yangi tashkil etilgan Davlat unitar korxonalariga yetkazib berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6024-sonli farmoniga binoan O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasi qabul qilindi. Ushbu konsepsiyani amalga oshirish natijasida 2030-yilgacha sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash yo‘nalishida:

a) sho‘rlangan maydonlar 1948 ming gektardan 1722 ming gektarga, o‘rta va yuqori sho‘rlangan yerlarni 607 ming gektardan 430 ming gektargacha qisqartirilishi;

b) sizot suvlar sathi muammoli darajada (0-2 metr) bo‘lgan sug‘oriladigan yer maydonlari 1051 ming gektardan 773 ming gektargacha kamaytirilishi;

d) foydalanishdan chiqqan 298,5 ming gektar sug‘oriladigan yerlar 2025-yilga kelib qishloq xo‘jaligida foydalanishga kiritilishi nazarda tutilgan.

Oltinchidan, mamlakatimiz hukumati tomonidan yerga nisbatan xususiy mulkchilikni joriy etish bo‘yicha islohotlar amalga oshirilmoqda. 2019-yil 13-avgustda O‘zbekiston Respublikasining “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilingan. Bunda yer uchastkasini xususiylashtirish deganda ommaviy mulk bo‘lgan yer uchastkasini O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bo‘lgan jismoniy shaxslarga va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar mulkiga o‘tkazish nazarda tutilgan. Ushbu qonunning 10-moddasiga binoan, yer uchastkalarini xususiylashtirish obyektlari quyidagilardan iborat:

- yuridik shaxslarga mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan yoki ular tomonidan xususiylashtirilgan binolar va inshootlar, ishlab chiqarish infratuzilmasi obyektlari joylashgan yer uchastkalari, shuningdek ularga tutash bo‘lgan, ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun zarur o‘lchamlardagi yer uchastkalari;

• O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga yakka tartibda uy-joy qurish va uy-joyni obodonlashtirish uchun berilgan yer uchastkalari;

• bo‘sh turgan yer uchastkalari;

• Urbanizatsiyani rivojlantirish jamg‘armasiga berilgan yer uchastkalari.

Yer uchastkalarini xususiylashtirishda ularni elektron onlayn-auksion orqali sotish nazarda tutilgan. Ushbu qonun 2020-yil 1-martdan e’tiboran kuchga kirgan.

Suv resurslaridan foydalanish sohasidagi islohotlar.

Mustaqil rivojlanish yillarida hukumatimiz tomonidan suv resursidan samarali foydalanish va suv xo‘jaligini boshqarishni takomillashtirishga alohida e’tibor berilmoqda.

Birinchidan, suv xo‘jaligini davlat tomonidan boshqarishni takomillashtirish va samaradorligini oshirish, mas’uliyat sohalarini aniq chegaralash va oydinlashtirish, ushbu sohada dolzarb va muayyan muammolarni hal etish uchun mavjud kuch va vositalar bilan oqilona ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-fevraldagi “Qishloq va suv xo‘jaligini davlat tomonidan boshqarish tizimini tubdan takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘gisida”gi PF-5330-sonli farmoniga binoan O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi negizida O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi tashkil etildi.

Ikkinchidan, mamlakatimizdagi mavjud suv xo‘jalik tashkilotlari va xizmat ko‘rsatuvchi tuzilmalar hamda ularning hududiy bo‘linmalari negizida Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi tashkil etildi. Uning vazifasi xalq xo‘jalik tarmoqlari hamda qishloq xo‘jalik korxonalarida mahsulot yetishtirish uchun suv bilan ta’minlash va suv xo‘jaliklariga servis xizmat ko‘rsatishdan iboratdir. Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligi vazirligining suv xo‘jaligi sohasidagi hududiy organi hisoblanib, suv resurslarini tartibga solish va foydalanishni amalga oshiradi. Mamlakatimizdagi mavjud suv xo‘jalik tashkilotlari va xizmat ko‘rsatuvchi tuzilmalar hamda ularning hududiy bo‘linmalari negizida Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi tuzildi. Uning vazifasi xalq xo‘jalik tarmoqlari hamda qishloq xo‘jalik korxonalarida mahsulot yetishtirish uchun suv bilan ta’minlash va suv xo‘jaliklariga servis xizmat ko‘rsatishdan iboratdir. Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligi vazirligining

suv xo‘jaligi sohasidagi hududiy organi hisoblanib, suv resurslarini tartibga solish va foydalanishni amalga oshiradi.

Magistral kanallar boshqarmasi Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasining tashkiliy bo‘linmasi hisoblanib, suv resurslarini tartibga solish bo‘yicha faoliyat yuritadi. Magistral kanallar boshqarmasining asosiy vazifalari quyidagilar:

- magistral kanallar, inshootlar va suv resurslarini oqilona boshqarish, uning tezkorligini oshirish;
- suv inshootlarining texnik ishonchliligini ta’minlash, ishonchli foydalanish uchun ish holatida saqlash;
- suv bo‘yicha hisob-kitob yuritish;
- suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish, ajratilgan mablag‘lar, moddiy-texnika resurslari, asbob-uskunalardan samarali foydalanish.

Suv xo‘jaligini boshqarishning hududiy tartibidan Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi va magistral kanallar boshqarmalari tartibiga o‘tilishi sug‘orish tizimlaridan foydalanish jarayonini takomillashirdi.

Uchinchidan, suv resurslari tanqisligi yil sayin jiddiylashib borayotganligi sababli sug‘orishning tejamkor usullarini qo‘llashga alohida e’tibor berilmoqda.

Olimlarning taxminlariga ko‘ra, yer sayyorasi aholisi yaqin 30 yil ichida 2 milliardga ko‘payib, hozirdagi 7,7 milliard kishidan 2050-yilda 9,7 milliardga, asr oxiriga esa 11 milliardga yetishi mumkin. Aholi sonining ko‘payishi qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni ham unga mutanosib ravishda ko‘paytirishni talab etadi. Ammo, ekologik vaziyatning yomonlashishi, suv taqchilligi va ekin maydonlarining cheklanganligi talab darajasidagi oziq-ovqat ishlab chiqarishda jiddiy to‘siq bo‘lishi ham ta’kidlanmoqda. Bu muammoni hal etishh uchun qishloq xo‘jaligini intensiv rivojlantirish, sohaga resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish talab etiladi. Chunki, mamlakatimizda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan 20,2 mln. gektar yerlarning atigi 20,7 foizi sug‘oriladigan yerlardir. Mamlakatimiz suv resurslarining qariyb 80 foizi transchegaraviy suv havzalari hisobiga shakllanadi. Jahon resurslari institutining prognoziga ko‘ra, 2040-yilga borib O‘zbekiston suv tanqisligi eng yuqori bo‘lgan 33 ta mamlakatning biriga aylanadi. Ikkinchi tomondan esa aholi soning ko‘payishi qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish hajmini oshirishni talab etadi. Shuni inobatga olgan holda mamlakatimiz hukumati tomonidan qishloq xo‘jaligida tomchilatib sug‘orish texnologiyasini joriy etishga alohida e’tibor berilmoqda.

Mamlaktimizda tejamkor sug‘orish usullarini qo‘llash orqali mavjud suv resurslaridan samarali foydalanish, shu orqali sug‘oriladigan ekin maydonlarini ko‘paytirishga erishish maqsad qilib qo‘yilgan. 2019-yildan boshlab suv tejovchi sug‘orish texnologiyalarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning yangi tizimi joriy qilindi. Natijada 77470 gektar maydonda tomchilatib, 1123 gektar maydonda yomg‘irlatib, 2000 gektar maydonda esa diskret usulda sug‘orish texnologiyalari joriy qilindi.

Shu bilan birgalikda ushbu zamonaviy sug‘orish texnologiyasi joriy qilingan maydon ulushi pastligicha (6 foiz) qolmoqda. Natijada, bir gektar maydonga to‘g‘ri keladigan suv sarfi miqdori 10 690 kub metrni tashkil qilib, rivojlangan mamlakatlarga nisbatan yuqoriligicha qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6024-sonli farmoniga binoan O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasi qabul qilindi. Unga ko‘ra zamonaviy suv tejovchi sug‘orish texnologiyalardan foydalanish ko‘lamini kengaytirish yo‘nalishida qishloq xo‘jalik ekinlarini sug‘orishda suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalarini joriy qilish 175 ming gektardan 2025-yilgacha 1 million gektarga, 2030-yilga kelib 2 million gektargacha, shu jumladan, tomchilatib sug‘orish texnologiyasi 77,4 mingdan 2025-yilgacha 300 ming gektargacha va 2030-yilga kelib 600 ming gektargacha yetkazilishi nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-sonli farmoniga muvofiq tasdiqlangan dasturda mahalliy suv tejovchi texnologiyalarni ishlab chiqaruvchilar va xaridorlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish belgilangan. O‘z faoliyatiga tomchilatib sug‘orish texnologiyalarini joriy etgan qishloq xo‘jalik korxonalariga bojxona bojlari va soliqlar bo‘yicha imtiyozlar berilmoqda, subsidiyalar orqali qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish uchun soliq imtiyozlari suvni tejaydigan texnologiyalarning boshqa turlarini o‘z ichiga olgan holda kengaytirilmoqda. 2021-yilning 1-yanvarigacha soliq imtiyozidan faqat tomchilatib sug‘orish tizimidan foydalangan soliq to‘lovchilar

foydalanishi mumkin edi. 2021-yilning 1-yanvaridan boshlab, suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalari (suv purkagich, diskret va boshqalar) joriy qilingan yerlar ham ushbu texnologiyalar joriy qilingan oydan boshlab soliqdan besh yilgacha ozod qilinadi.

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida mulkiy va tarkibiy islohotlar, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish.

Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida sobiq ittifoq davrida asosan davlat mulki va qisman jamoa mulki mavjud bo‘lgan. Lekin jamoa mulkiga asoslangan jamoa xo‘jaliklarida ham davlatning ta’siri kuchli bo‘lib, ushbu xo‘jaliklarning mulki tom ma’noda jamoa mulki bo‘lmagan. Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida tub islohotlar amalga oshirila boshlandi. Shu jumladan, tarmoqda ko‘p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishga alohida e’tibor berildi. Chunki davlat mulki bozor munosabatlari talablariga to‘liq javob bermaydi, ya’ni iqtisodiyot subyektlarida o‘z faoliyatlarini rivojlantirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish, mahsulot sifatini oshirish kabi jarayonlarga undovchi mexanizm mavjud emas. Shu sababdan mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida mustaqillikning ilk davridan boshlab davlat mulkini xususiylashtirishga va bozor munosabatlari sharoitiga mos mulk va tadbirkorlik shakllarini joriy etishga alohida e’tibor berildi. Shu maqsadda mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida jamoa mulkiga va xususiy mulkchilikka asoslangan tadbirkorlik shakllantirishga ustuvorlik berildi.

Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida o‘tgan asrning 80-yillari oxiri va 90-yillari boshida 887 ta jamoa xo‘jaligi faoliyat ko‘rsatib, respublikada yetishtirilayotgan yalpi qishloq xo‘jalik mahsulotining 35 foizini berar edi. Ularning iqtisodiy negizini jamoa mulki tashkil etgan. Lekin mulkchilikning bu shakli uning haqiqiy mazmuni, mohiyatiga mos emas edi, chunki amalda ular davlat tasarrufida edi. Bunday hol bozor munosabatlari talablariga to‘g‘ri kelmaydi. Shu bois bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiy tizimga o‘tish munosabati bilan tarmoqdagi davlat xo‘jaliklari negizida jamoa xo‘jaliklari bosqichma-bosqich yangicha ko‘rinishda tashkil etila boshlandi.

Oliy Majlis tomonidan 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan “Qishloq xo‘jalik kooperativlari (shirkatlar) to‘g‘risida”gi Qonun, uning hayotga tatbiq etilishini ta’minlash maqsadida Respublika Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 15-iyuldagi 229-sonli qarori qabul qilingan edi.

Shirkat xo‘jaligi - qishloq xo‘jalik tovar mahsulotlari ishlab chiqarish va xizmatlarni bajarish maqsadida fuqarolarning paychilikka asoslangan oilaviy pudrat asosida uyushib, erkin, mustaqil faoliyat ko‘rsatadigan, yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan xo‘jalik yuritish subyektidir. Ular o‘tish davrida qishloq xo‘jaligida tadbirkorlikning yirik tovar ishlab chiqaruvchi shakli sifatida namoyon bo‘ldi.

Mamlakatimizda tashkil etilgan shirkat xo‘jaliklari dehqonlarning moddiy manfaatdorligini oshirgan bo‘lsada, bozor munosabatlari talablariga to‘liq javob bera olmadi. Ayrim holatlarda esa shirkat xo‘jaliklarini tashkil etishda tashkiliy-iqtisodiy tomondan ma’lum kamchiliklarga yo‘l qo‘yildi.

Shundan so‘ng qishloq xo‘jaligi tarmog‘iga xususiy mulkka asoslangan tadbirkorlik shakllarini joriy etishga e’tibor berildi. Chunki xususiy mulk tarmoqda faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlarining moddiy manfaatdorligini ta’minlaydi, ularda haqiqiy mulkdorlik hissini ta’minlaydi. Moddiy manfaatdorlik yuqori bo‘lgan joyda esa resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish, mahsulot miqdori va sifatini oshirish, iqtisodiy samaradorlikni oshirishga rag‘bat bo‘ladi.

1998-yil 30-aprelda O‘zbekiston Respublikasining “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilingan bo‘lib, ushbu qonunning yangi tahriri 2004-yil 26-avgustda qabul qilindi. “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonunning 3-moddasida fermer xo‘jaligiga quyidagicha ta’rif berilgan: fermer xo‘jaligi - ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqarishi bilan shug‘ullanuvchi, mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyektdir.

Mamlakatimizda fermer xo‘jaliklarini bosqichma-bosqich ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklariga aylantirish bo‘yicha dastur qabul qilingan. Tasdiqlangan dasturga ko‘ra, 2017-yilning o‘zida 23800 ta fermer xo‘jaligi ko‘p tarmoqli xo‘jalik turiga o‘tdi. Faoliyat yuritayotgan ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari asosan go‘sht, sut mahsulotlarini qayta ishlash, sovitgich, omborxona va issiqxonalarni tashkil etish, shuningdek aholiga xizmat ko‘rsatish kabi yo‘nalishlarni o‘z ichiga qamrab oladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 10-11-mart kuni xalq bilan muloqot qilish hamda joylarda amalga oshirilayotgan islohotlar bilan tanishish maqsadida Buxoro viloyatiga tashrifi chog‘ida “Paxta va to‘qimachilik klasteri” loyihasini tashkil etish fikrini ilgari surdi. Unda O‘zbekistonda klaster tizimi asosida ishlab chiqarishni tashkil etishning ilmiy asoslari ko‘rsatib berildi.

Klasterlarni shakllantirishdan maqsad – shahar, tuman va viloyat ichida joylashgan bir xil soha korxonalarini va ular bilan yagona texnologik zanjirda bo‘lgan ta’lim, ilmiy, injiniring, konsalting, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va boshqa xizmatlarni uyg‘unlashtirish – innovatsion ishlab chiqarishni tashkil etish asosida raqobatbardosh tovarlar yaratishga yo‘naltirishdan iboratdir. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida klaster tizimi yaxshi samara bermoqda. Xususan, shuning natijasida paxtachilikka yangi texnologiyalar kirib keldi, moddiy manfaatdorlik oshdi. 2020-yil holatiga paxta ekin maydonlarining 908 ming gektari yoki 88 foizida klasterlar faoliyat yuritmoqda. Bundan tashqari, meva-sabzavotchilik, g’allachilik, va chorvachilikda ham 500 ga yaqin klaster va kooperatsiyalar faoliyati yo’lga qo’yildi.

Qishloq xo‘jaligini moliyalashtirish va kreditlash sohasidagi islohotlar.

Mamlakatimizda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini davlat ehtiyojlari uchun yetishtirishni moliyalashtirish mexanizmi takomillashtirilib borildi. 2002-yilgacha qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtiruvchilarga tayyorlov korxonalari tomonidan bo‘nak berilar edi. 2003-2004-yillarda ayrim viloyatlarda fermer xo‘jaliklarini bo‘naklashning amaldagi mexanizmi o‘rniga, xizmat ko‘rsatuvchi tijorat banklarining imtiyozli kreditlash mexanizmi sinov tariqasida joriy etildi. 2005-yil hosilidan boshlab paxta, 2006-yil hosilidan boshlab esa g‘alla yetishtirish xarajatlarini to‘liq hajmda imtiyozli kredit ajratish orqali moliyalashtirish yo‘lga qo‘yildi.

Davlat ehtiyojlari uchun topshiriladiga paxta xomashyosi va g‘alla yetishtirishni bo‘naklash ayrim kamchiliklardan xoli emas edi, ular quyidagilar:

- bo‘nak mablag‘lari texnologik xaritaga muvofiq barcha xo‘jaliklarga bir vaqtda ajratiladi va bunda mahalliy sharoit, rentabelli faoliyat yuritayotgan, o‘z aylanma mablag‘iga ega bo‘lgan aksariyat xo‘jaliklarning moddiy-texnik resurslarga bo‘lgan ehtiyoji inobatga olinmaydi;
- xo‘jaliklarni moliyaviy va moddiy resurslardan samarali foydalanishga rag‘batlantirmaydi va ayrim xo‘jalik rahbarlarida boqimandalik kayfiyatini vujudga keltiradi;
- fermerlar o‘z xo‘jaliklarining moliyaviy mablag‘lar oqimini mustaqil belgilab borish imkoniyatiga ega bo‘lmaydilar va bu o‘z navbatida

fermerlarda haqiqiy mulkdorlik hissining to‘liq shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi;

- fermer xo‘jaliklari soni ko‘payishi va bu orqali davlat ehtiyojlari uchun mahsulot topshiruvchi xo‘jaliklar soni keskin oshib borishi natijasida ajratilayotgan transh mablag‘larini tayyorlov korxonalari tomonidan har bir xo‘jalikka o‘z vaqtida yetkazib berishda qiyinchiliklar vujudga keladi;
- qishloq joylarda bank amaliyotlari, ayniqsa kredit operatsiyalari rivojlanishi sekinlik bilan o‘tadi;
- qishloq xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar orasida raqobat tegishli darajada rivojlanmaydi.

2005-yil 11-avgustda Adliya vazirligida 1508-raqam bilan ro‘yxatdan o‘tgan “Qishloq xo‘jaligi korxonalarining davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g‘alla yetishtirish xarajatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash tartibi” to‘g‘risidagi Nizomga asosan:

- kreditlar davlat ehtiyojlariga sotiladigan mahsulot qiymatining 60 foizigacha miqdorlarda yillik 3 foizlik ustama haq to‘lash sharti bilan (2 foizlik qismi bank marjasi) g‘alla uchun 12 oygacha, paxta xomashyosi uchun 18 oygacha bo‘lgan muddatga berilgan. Bunda kreditlar agrotexnik tadbirlar muddatidan kelib chiqqan holda quyidagi tartibda ajratilgan:

a) paxta xomashyosi uchun yilning 1-yanvariga qadar paxta xomashyosi qiymatining 10 foizigacha, 1-aprelga qadar 25 foizigacha, 1-iyulga qadar 50 foizigacha, 1-sentabrga qadar 60 foizigacha;

b) g‘alla uchun yilning 1-yanvariga qadar g‘alla qiymatining 35 foizigacha, 1-aprelga qadar 50 foizigacha, 1-iyunga qadar 60 foizigacha.

- kreditlar ish haqi va unga tegishli ajratmalarni to‘lash, MTPlar, Suvdan foydalanuvchilar uyushmalari va qishloq xo‘jalik texnikasi mavjud bo‘lgan boshqa xo‘jalik subyektlarining xizmatlari va olingan urug‘lik uchun to‘lovlarni amalga oshirish, lizingga olingan texnika vositalarining lizing va sug‘urta to‘lovlari, foydalanilgan elektr energiyasi, yagona yer solig‘i to‘lovlariga, mineral o‘g‘it va o‘simliklarni biologik va kimyoviy himoya qilish vositalarini, xo‘jalik ixtiyoridagi texnikalarga ehtiyot qismlar va boshqalarni xarid qilish uchun ajratilgan.

Xo‘jaliklarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri imtiyozli kreditlash mexanizmining afzalliklari quyidagilardan iborat:

- mablag‘lar fermer xo‘jaliklariga ularning o‘z ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ajratib boriladi, bu esa o‘z navbatida mablag‘larning

muvaqqat hisob raqamlarida ishlatilmasdan qolib ketilishi hollariga chek qo‘yadi;

- moliyaviy mablag‘larni mustaqil ishlatish imkonining yaratilishi olingan kreditlardan samarali foydalanishga olib keladi. Fermer xo‘jaliklarining paxta xomashyosi va g‘alla yetishtirish xarajatlarining ayrim turlari bo‘yicha to‘lovlarga ehtiyoji bo‘lmagan holda, ular mazkur mablag‘larni texnologik xaritalarda belgilangan boshqa xarajatlarga ishlatishi mumkin;

- moddiy-texnik resurslarga ehtiyoji bo‘lmagan holda asossiz oldindan to‘lovlarni amalga oshirish holatlariga chek qo‘yiladi, buning natijasida xizmat ko‘rsatuvchi tarmoq korxonalarining qishloq xo‘jalik korxonalari oldida katta miqdorda kreditorlik qarzlari vujudga kelishi oldi olinadi;

- xo‘jaliklar tomonidan kredit mablag‘laridan mustaqil va oqilona foydalanishi natijasida yonilg‘i-moylash materiallari va mineral o‘g‘itlarni samarali ishlatish bo‘yicha manfaatdorlikni oshiradi;

- tijorat banklari va xo‘jaliklarning ajratilgan kredit mablag‘larini o‘z vaqtida qaytarilishida mas’uliyatini va manfaatdorligini yanada oshiradi.

Mamlakatimizda joriy etilgan davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarilishini imtiyozli kreditlar orqali moliyalash tartibi fermerlarimizda moliyaviy resurslardan unumli foydalanish imkonini bergan edi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-martdagi “Paxtachilik sohasida bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4633-sonli qaroriga muvofiq, paxta xomashyosi yetishtirish va qayta ishlashni kreditlashning yangi mexanizmi joriy etiladi. 2020-yil 15-martdan boshlab:

a) paxta xom ashyosi yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish uchun tijorat banklari tomonidan Moliya vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan 12 oy muddatgacha yetishtiriladigan paxta umumiy qiymatining 50 foizigacha bo‘lgan miqdorda moliyalashtirilganda yillik 8 foiz, 60 foizgacha bo‘lgan miqdorda moliyalashtirilganda yillik 10 foiz stavkadan (shundan bank marjasi 2 foiz) oshmagan miqdorda kreditlar ajratiladi. Bunda kredit oluvchi agrotexnik tadbirlardan kelib chiqib, kredit mablag‘laridan erkin foydalanadi hamda moddiy resurslar yetkazib beruvchilarni ixtiyoriy tanlaydi; paxta yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirishga ajratilgan

kredit mablag‘larining muddatida qaytarilmagan qismi tijorat krediti sifatida qayta rasmiylashtiriladi.

b) yetishtirilgan paxta xomashyosini xarid qilish uchun tijorat banklari tomonidan 12 oy muddatga paxta yig‘im-terimi hamda yakuniy hisob-kitob uchun tijorat kreditlari ajratiladi. Bunda:

- milliy valyutada ajratiladigan tijorat kreditlari bo‘yicha foiz stavkasining Markaziy bankning asosiy stavkasidan oshadigan, lekin 10 foiz punktidan ko‘p bo‘lmagan qismiga;
- xorijiy valyutada ajratiladigan kreditlar bo‘yicha tijorat banklari tomonidan belgilangan foiz stavkasining 30 foizigacha, lekin 3 foiz punktidan ko‘p bo‘lmagan qismiga Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi hisobidan kompensatsiya beriladi.

Yuqoridagi qarorga ko‘ra, 2021-yil hosilidan boshlab paxta xomashyosi yetishtirishni kreditlash tartibi fermer xo‘jaliklari tomonidan mustaqil ravishda aniqlanashi belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-martdagi “G‘alla yetishtirish, xarid qilish va sotishga bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4634-sonli qaroriga muvofiq 2020-yil 1-iyundan boshlab:

a) fermer xo‘jaliklari, g‘allachilik klasterlari va Urug‘chilikni rivojlantirish markazi tarkibidagi elita urug‘chilik xo‘jaliklarining g‘alla yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish uchun tijorat banklari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan 12 oy muddatgacha g‘alla yalpi hosili umumiy qiymatining 40 foizigacha bo‘lgan miqdorda moliyalashtirilganda yillik 10 foiz, 50 foizgacha bo‘lgan miqdorda moliyalashtirilganda esa yillik 12 foiz stavkadan (shundan bank marjasi 2 foiz) oshmagan miqdorda kreditlar ajratiladi.

Bunda:

- fermer xo‘jaliklari, g‘allachilik klasterlari va Urug‘chilikni rivojlantirish markazi tarkibidagi elita urug‘chilik xo‘jaliklari agrotexnik tadbirlarni o‘tkazish xususiyatidan kelib chiqib kredit mablag‘laridan erkin foydalanish hamda moddiy resurslar yetkazib beruvchilarni ixtiyoriy tanlaydi;
- g‘allachilik klasterlari tomonidan fermer xo‘jaliklarining g‘alla yetishtirish bilan bog‘liq xarajatlarini bo‘naklash pul mablag‘lari shaklida amalga oshiriladi;

- g‘alla yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirishga ajratilgan kredit mablag‘larining muddatida qaytarilmagan qismi tijorat krediti sifatida qayta rasmiylashtiriladi;

b) mulkchilik shaklidan qat’i nazar, faqat donni qayta ishlovchi korxonalar hamda donni qayta ishlash quvvatiga ega bo‘lgan g‘allachilik klasterlari tomonidan respublikada yetishtirilgan g‘allani xarid qilish uchuntijorat banklari tomonidan 12 oy muddatga 50 milliard so‘mgacha miqdorda tijorat kreditlari ajratiladi.

Bunda:

- milliy valyutada ajratiladigan tijorat kreditlari bo‘yicha foiz stavkasining O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy stavkasidan oshadigan, lekin 10 foiz punktidan ko‘p bo‘lmagan qismiga;

- xorijiy valyutada ajratiladigan kreditlar bo‘yicha tijorat banklari tomonidan belgilangan foiz stavkasining 30 foizigacha, lekin 3 foiz punktidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda foiz xarajatlarini qoplash Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi hisobidan kompensatsiya beriladi;

- g‘allani xarid qilish uchun ajratilgan kredit mablag‘larining muddatida qaytarilmagan qismiga Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi hisobidan kompensatsiya berilmaydi.

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini moliyalashtirishda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi ham muhim ahamiyatga ega. 2021-yil 26-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi faoliyatini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. Unga ko‘ra quyidagilar jamg‘armaning asosiy vazifalari etib belgilandi:

- paxta xomashyosi va bug‘doy yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish;

- asosiy maydonlarda ekiladigan sabzavot mahsulotlarini yetishtirishni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash;

- ichki bozorda don va non mahsulotlari narxlari barqarorligini ta’minlash uchun zarur bug‘doyni bozor narxlarida xarid qilish va birja savdolariga qo‘yish;

- fermer xo‘jaliklari va boshqa qishloq xo‘jaligi tashkilotlariga zamonaviy, yuqori samarali qishloq xo‘jaligi texnikasini yetkazib berishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash;

- qishloq xo‘jaligini moliyalashtirish va hisob-kitob tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;
- rivojlangan davlatlarning agrar sohasini moliyalashtirish bo‘yicha tajribasini o‘rganish hamda ularni respublikada joriy qilish.
Ushbu farmonga ko‘ra:
a) agrotexnik tadbirlarni, jumladan, kuzgi shudgorlashni va ekin maydonlariga mineral o‘g‘itlarni solishni o‘z vaqtida ta’minlash maqsadida 2022-yil hosilidan boshlab paxta xomashyosini yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish tegishli moliya yilidan oldingi yilning 1-noyabridan boshlanadi;
b) paxta yig‘im-terimi uchun tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar bo‘yicha foiz stavkasining bir qismini qoplash uchun kompensatsiya to‘lash jamg‘arma hisobidan amalga oshiriladi.
Bunda:
- milliy valyutada ajratiladigan tijorat kreditlari bo‘yicha foiz stavkasining Markaziy bankning asosiy stavkasidan oshadigan, lekin 10 foiz punktidan ko‘p bo‘lmagan qismini;
- xorijiy valyutada ajratiladigan kreditlar bo‘yicha tijorat banklari tomonidan belgilangan foiz stavkasining 30 foizigacha, lekin 3 foiz punktidan ko‘p bo‘lmagan qismini qoplash uchun kompensatsiya kreditning dastlabki 9 oyi uchun to‘lanadi.

Ushbu farmonga ko‘ra, sabzavot yetishtirish faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida shunday tartib o‘rnatilmoqdaki, unga muvofiq 2021-yilda:
- sabzavotchilik klasterlari, fermer xo‘jaliklari va boshqa sabzavot yetishtiruvchilarga tijorat banklari tomonidan 9 oy muddatga yillik foiz stavkasi Markaziy bankning asosiy stavkasida (shundan, bank marjasi 2 foiz) yetishtiriladigan sabzavot qiymatining 40 foizigacha miqdorda kredit ajratiladi;
- sabzavot yetishtirish xarajatlarini kreditlash uchun jamg‘arma tomonidan 9 oy muddatga yillik foiz stavkasi Markaziy bankning asosiy stavkasidan ikki foiz punkt kamaytirgan holda tijorat banklariga joylashtiriladi.

2022-yil hosilidan boshlab, asosiy maydonlarda sabzavot yetishtirish uchun ajratiladigan tijorat kreditlari bo‘yicha foiz stavkasining Markaziy bankning asosiy stavkasidan oshadigan qismi uchun kompensatsiya to‘lash tizimi joriy etiladi.

Hozirgi vaqtda hukumatimiz tomonidan qishloq xo‘jaligini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida tarmoqqa **subsidiyalar**

ko‘rinishidagi moliyaviy ko‘mak berishga alohida e’tibor berilmoqda. Jumladan, suv ta’minoti yomon hududlarda artezian quduqlar qazish uchun, qishloq xo‘jaligi texnikalari sotib olish uchun, tejamkor sug‘orish texnologiyalarini joriy etish uchun va boshqalar uchun subsidiyalar berilmoqda. Bundan tashqari, chorvachilikni rivojlantirish maqsadida xorijiy mamlakatlardan naslli chorva mollari va baliqlarni olib kelayotgan tadbirkorlarga xarajatlarining bir qismi subsidiya shaklida qoplab berilmoqda. 2020-yil 29-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chorvachilik tarmog‘ini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4576-sonli Farmoni qabul qilindi va unga muvofiq 2020-2022 yillarda:

a) chorvachilik mahsulotlari yetishtiruvchi xo‘jaliklarga davlat tomonidan quyidagi tartibda subsidiya ajratiladi:

- respublika hududida faoliyat yuritayotgan naslchilik xo‘jaliklaridan sotib olingan nasldor qoramolning har bir boshiga 1 million so‘m miqdorida;
- xorijiy davlatlardan import qilingan nasldor qoramolning har bir boshiga 2 million so‘m, nasldor qo‘y va echkining har bir boshiga 400 ming so‘m miqdorida;

b) “O‘zbekbaliqsanoat” uyushmasiga a’zo bo‘lgan intensiv usulda baliq yetishtiruvchi xo‘jaliklarga davlat tomonidan quyidagi tartibda subsidiya ajratiladi:

- intensiv usulda etishtirilgan bir tonna baliq mahsuloti uchun 1 million so‘m miqdorida;
- O‘zbekiston Respublikasi hududiga import qilingan 1 dona nasldor ona baliqning 3,5 million so‘mgacha bo‘lgan xarajatlarining 50 foizi miqdorida;

d) “Parrandasanoat” uyushmasiga a’zo bo‘lgan parrandachilik xo‘jaliklariga har bir bosh 1 kunlik nasldor jo‘jani import qilish bilan bog‘liq xarajatlarning 9 ming so‘mini qoplash uchun davlat tomonidan subsidiya ajratiladi.

Qorako‘lchilik, ipakchilikni rivojlantirish va boshqa ko‘plab sohalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida subsidiyalar ajratilmoqda. Subsidiya shaklida ajratilayotgan ushbu mablag‘lardan samarali foydalanishni tashkil etish, mablag’lardan maqsadli foylanish ustidan nazorat qilish tizimini yanada takomillashtirish lozim.

Bundan tashqari, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishni rag‘batlantirish maqsadida “Yoshlar kelajagimiz”, “Har bir oila tadbirkor” va boshqa shu kabi davlat dasturlari doirasida issiqxonalar tashkil etish,

chorva mollari, parrandalar boqish va baliqchilik bilan shug‘ullanish uchun imtiyozli shartlar asosida kreditlar berilmoqda.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarining narxi shakllanishini va uni erkinlashtirish bo‘yicha islohotlar.

Agrar sohada amalga oshirilayotgan narx shakllanishi va uning erkinlashtirilishi bo‘yicha islohotlar qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga narx belgilashda erkin bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich joriy etishga yo‘naltirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 20-avgustdagi “Paxta narxini shakllantirish mexanizmi to‘g‘risida”gi PF-3114-sonli farmoniga asosan davlat tomonidan sotib olinayotgan paxta xomashyosining narxini jahon bozoridagi narxlar darajasidan kelib chiqqan holda belgilash tizimi joriy etilgan. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 29-dekabrdagi PQ-1024-sonli qaroriga muvofiq 2009-yilda davlat budjeti parametrlarida eksportga sotiladigan paxta tolasi bo‘yicha 20 foizli qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) to‘lashdan paxta tozalash korxonalari ozod etildi, natijada shu miqdorda fermerlarga paxta uchun to‘lanadigan xarid narxlari ko‘tarildi. Shu orqali davlatimiz tomonidan paxta yetishtiruvchi fermer xo‘jaliklarini va tayyorlov korxonalarini rag‘batlantirish ko‘zda tutilgan bo‘lib, paxta tolasining ichki narxlarini jahon bozoridagi narxlarga tenglashtirish choralari ko‘rilmoqda.

Jahon bozorida paxta tolasi narxlarining o‘sganligini inobatga olgan holda 2010-yil paxta hosilidan narx bo‘yicha yuzaga kelgan ijobiy farqning 25 foizini fermer xo‘jaliklariga to‘lab berish bo‘yicha tegishli tadbirlar amalga oshirildi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan 2020-yil hosilidan boshlab paxta xomashyosi va g‘allaga davlat buyurtmasi bekor qilindi va ushbu islohot qishloq xo‘jaligida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari faoliyatining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-martdagi “Paxtachilik sohasida bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4633-sonli qaroriga muvofiq, 2020-yil hosilidan boshlab:

- paxta xomashyosining xarid narxlarini belgilash amaliyotidan voz kechildi;

- jahon bozori narxlari tahlilidan kelib chiqib har yili 1-dekabrga qadar kelgusi yil hosili uchun kutilayotgan (indikativ) narxlar e’lon qilinishi hamda bozorlardagi narxlar o‘zgarishidan kelib chiqib har chorakda ushbu narxga tuzatishlar kiritish amaliyoti joriy etildi;

- paxta yetishtiruvchilarning daromad olishlarini ta’minlash maqsadida paxta yig‘im-terimi mavsumidan oldin qo‘lda terilgan 1 kg paxta xomashyosini terish haqining tavsiyaviy miqdorining ommaviy axborot vositalarida e’lon qilib borilishi ta’minlanadi;

- paxta tolasi Respublika tovar-xomashyo birjasida boshlang‘ich birja narxida erkin sotiladi, bunda birjada boshlang‘ich narx shakllanishida 10% chegirma qo‘yish bekor qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-martdagi “G‘alla yetishtirish, xarid qilish va sotishga bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4634-sonli qaroriga muvofiq:

a) 2020-yil hosilidan boshlab:

- davlat buyurtmasi asosida boshoqli don yetishtirish amaliyoti bosqichma-bosqich bekor qilinadi.

- ichki bozorda don va non mahsulotlari narxlari barqarorligini ta’minlash tadbirlarini amalga oshirish uchun davlat tomonidan xarid qilinadigan bug‘doy mulkchilik shaklidan qat’i nazar barcha korxonalarning donni saqlash talablariga mos keladigan omborlarida shartnoma asosida saqlanadi. Ushbu qarorning 1-ilovasi bo‘lgan “G‘alla yetishtirishga davlat buyurtmasi bosqichma-bosqich bekor qilinishi hamda sohaga bozor tamoyillari keng joriy etilishini tashkil etish bo‘yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar dasturi”da “O‘zdonmahsulot” AK tarkibidagi don korxonalarni 2020-2021-yillarda belgilangan tartibda bosqichma-bosqich xususiy sektorga sotish chora-tadbirlarini belgilash hamda don saqlashga talabgor bo‘lgan mulkchilik shaklidan qat’i nazar barcha don qabul qilish korxonalarining laboratoriyalari va tarozilarini xatlov va attestatsiyadan o‘tkazish, ruxsatnomalar berish, don saqlashga ruxsat etilgan korxonalar ro‘yxati hamda ularning don saqlash quvvatlarini ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish belgilab qo‘yilgan.

b) 2021-yil hosilidan boshlab:

- davlat tomonidan g‘alla xarid narxini belgilash amaliyotidan voz kechiladi;

- davlat xaridi to‘liq bekor qilinadi hamda fermerlar va boshqa korxonalar tomonidan yetishtiriladigan g‘alla barcha iste’molchilarga,

shu jumladan donni qayta ishlovchi korxonalar, g‘allachilik klasterlari va treyderlarga birja savdolari orqali yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar (fyuchers, forvard va boshqalar) asosida erkin narxlarda sotiladi;

- ichki bozorda don va non mahsulotlari narxlari barqarorligini ta’minlash tadbirlarini amalga oshirish uchun zarur miqdorda don O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tomonidan fyuchers, forvard shartnomalari asosida yoki birja savdolari orqali erkin narxlarda xarid qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi bilan birgalikda jahon bozori, mintaqaviy birjalar narxlarini tahlil qilgan holda, har yili 1-avgustga qadar kelgusi yil g‘alla hosili uchun kutilayotgan minimal narxlarni e’lon qiladi hamda bozorlardagi narxlardan kelib chiqib har chorakda ushbu narxga tuzatishlar kiritib, ommaviy axborot vositalarida e’lon qilib boradi.

Respublika ichki bozorida don va non mahsulotlari narxlari barqarorligini ta’minlash tadbirlarini amalga oshirish Moliya vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi zimmasiga yuklatilgan. Ichki bozorda don va non mahsulotlari narxlari barqarorligini ta’minlash tadbirlarini amalga oshirish uchun Moliya vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tomonidan xarid qilinadigan don Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi va Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi bilan kelishilgan holda, Bosh vazirning agrar va oziq-ovqat sohalarini rivojlantirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari tomonidan tasdiqlangan oylik grafik asosida Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tomonidan birja savdolariga sotuvga qo‘yiladi.

Don va non mahsulotlari narxlari barqarorligini ta’minlash uchun zarur miqdordagi bug‘doyni xarid qilish bilan bog‘liq xarajatlar (sotib olish, tashish, saqlash), xarid qilish va sotish narxlari orasida yuzaga kelgan tafovut (ijobiy, salbiy) Moliya vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi moliyaviy faoliyati yakunlariga olib boriladi hamda zarur holatlarda yuzaga kelgan salbiy tafovut jamg‘armaga respublika budjetidan qoplab beriladi.

Qishloq xo‘jaligida soliqqa tortish va to‘lash mexanizmini soddalashtirish bo‘yicha islohotlar.

Soliqqa tortish va soliq to‘lash mexanizmini soddalashtirish maqsadida Respublika Prezidentining farmoni bilan, fermer xo‘jaliklari tomonidan to‘lanadigan to‘qqizta soliq turi o‘rniga 1999-yilning 1-yanvaridan boshlab qishloq xo‘jaligi korxonalari uchun yagona yer solig‘i joriy qilingan bo‘lib, u har tomonlama qulaylikka ega. Shungacha bo‘lgan muddatda qishloq xo‘jalik korxonalari ko‘pgina turdagi soliqlarni to‘laganlar. Yagona yer solig‘ining joriy etilishi ushbu soliqni hisoblash va to‘lashni ancha soddalashtirdi. Bundan tashqari yagona yer solig‘ini hisoblashda korxonaga ajratib berilgan yer uchastkasining ball boniteti, qanday turdagi ekinlar ekilganligi, tuman markazidan uzoq-yaqinligi, sug‘orishtizimlari bilan ta’minlanganligini inobatga oluvchi tuzatish koeffitsiyentlari qo‘llaniladi. Bu ijtimoiy adolatni ta’minlovchi soliq turi hisoblanadi, ya’ni unumdor tuproqqa egalik qiluvchi, qiymati qimmatroq mahsulotlar yetishtiruvchi, tuman markaziga yaqinroq, suv bilan yaxshi ta’minlangan xo‘jaliklar ko‘proq soliq to‘laydi va aksincha.

2019-yil 9-dekabrdagi “2020-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonunga ko‘ra yagona yer solig‘ining nomlanishi yer solig‘i shaklida o‘zgartirildi, lekin uni hisoblash va to‘lash tartiblari o‘zgarmagan.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida qishloq xo‘jaligi sohasida bir qator soliq va bojxona imtiyozlari qo‘llaniladi:

- yangidan tashkil etilgan paxta, g‘alla, sabzavot, poliz, kartoshka va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaruvchi fermer xo‘jaliklari 2 yil muddatga, bog‘dorchilik va uzumchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari 5 yil muddatga yagona yer solig‘i to‘lashdan ozod etilgan;
- fermer loyiha asosida o‘z hisobidan o‘zlashtirgan yer uchun 5 yil davomida yagona yer solig‘i to‘lashdan ozod qilindi;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 17-martdagi 304-sonli qaroriga asosan chet el texnikalari olib kelishda qo‘shilgan qiymat solig‘i va bojxona to‘lovlari hamda chet el texnikalari uchun ehtiyot qismlar olib kelishda qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod etilgan;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 25-martdagi 308-sonli qaroriga muvofiq chet ellardan chorva mollari olib kelishda qo‘shimcha qiymat solig‘i to‘lovlaridan ozod etilgan.

2021-yil 1-yanvardan boshlab jismoniy va yuridik\ shaxslar uchun yer solig‘ini hisoblash va to‘lash tartibi, shuningdek, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar bo‘yicha qishloq xo‘jaligi ekinzorlarining normativ

qiymatiga nisbatan belgilangan 0,95 foiz soliq stavkasi saqlab qolingan. Bunda meva-sabzavotchilik qishloq xo‘jaligi korxonalari uchun meva-sabzavot mahsulotlari egallagan yerlar bo‘yicha, shuningdek, dehqon xo‘jaliklari uchun soliqni sug‘oriladigan va sug‘orilmaydigan qishloq xo‘jaligi yerlari uchun yer solig‘ining bazaviy stavkasi va yer uchastkasining sifat xarakteristikasini hisobga oladigan tuzatish koeffitsiyentlaridan kelib chiqib hisoblash tartibi bekor qilinmoqda. Ushbu toifadagi soliq to‘lovchilar qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar uchun belgilangani kabi soliq stavkasini belgilash bilan soliqni qishloq xo‘jaligi ekinzorlarining normativ qiymatidan kelib chiqib to‘lashga o‘tkazilmoqda.

2021-yilda suv resursidan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash va to‘lash tartibi saqlab qolinmoqda. Soliq stavkalari 15 foizga, iqtisodiyotning alohida tarmoqlari uchun esa 30 foizga indeksatsiya qilinishini hisobga olgan holda Soliq kodeksida belgilanmoqda. Qishloq xo‘jalik yerlarini sug‘orish uchun foydalanilgan suv hajmi va baliqlarni o‘stirish, shu jumladan, dehqon xo‘jaliklari uchun yagona soliq stavkasi 1 kub metr uchun 40 so‘m miqdorida belgilandi. Qishloq xo‘jaligida, shu jumladan, baliqchilik xo‘jaliklarida suvdan foydalanuvchilar uchun soliq bazasini aniqlash tartibi quyidagilarni nazarda tutgan holda o‘zgartirildi:

• suvdan foydalanish va suv iste’moli sohasidagi vakolatli organ har yili quyidagilar tomonidan ishlatilishi kutilayotgan suv resurslari hajmi to‘g‘risida ma’lumotlar taqdim etadi;

• joriy soliq davrining 10-dekabridan kechiktirmay qishloq xo‘jaligida, shu jumladan, baliqchilik xo‘jaligida suv resurslaridan foydalanuvchi yuridik shaxslarga soliq bazasini aniqlash uchun;

• dehqon xo‘jaliklari bo‘yicha soliqni hisoblash uchun soliq organlariga suvdan foydalanish va suvni iste’mol qilish joyi bo‘yicha hisobot yilidan keyingi yilning 20-yanvaridan kechiktirmay.

Sun’iy suv havzalarida baliq yetishtiruvchi baliqchilik xo‘jaliklari soliq bazasini tabiiy va sun’iy suv obyektlaridan olingan va ushbu suv obyektlariga qaytarib quyiladigan suv hajmi, bundan kollektor-drenaj tarmoqlariga qaytarib quyiladigan suv hajmi mustasno, o‘rtasidagi farqdan kelib chiqib aniqlaydilar.

Qishloq xo‘jaligida, shu jumladan, baliq yetishtirishda suv resurslarini hisobga olish vositalari mavjud emasligi va foydalaniladigan suv resurslarining haqiqiy hajmini aniqlashning imkoni bo‘lmagan taqdirda, soliq bazasi suvdan foydalanish va suvni iste’mol qilish

sohasidagi vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan suv resurslari iste'molining normativlariga ko‘ra aniqlanadi. Qishloq xo‘jaligi yerlarini sug‘orish va baliq yetishtirish, shu jumladan, dehqon xo‘jaliklarida suv o‘lchash uskunalari mavjud bo‘lganda, soliq stavkasiga 0,7 kamaytiruvchi koeffitsiyentni hisobga olgan holda, suv o‘lchash uskunalari asosida aniqlanadigan, foydalanilgan suv hajmiga qo‘llaniladi.

Qishloq xo‘jaligida raqamli iqtisodiyotni shakllantirish hamda resurs tejamkor innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha islohotlar.

Mamlakatimizda so‘nggi paytlarda iqtisodiyot tarmoqlariga zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2018-yil 28-dekabrdagi Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalasiga ham urg‘u berib, “Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilanishini ko‘zda tutadigan Raqamli iqtisodiyot milliy konsepsiyasini ishlab chiqishimiz kerak. Shu asosda “Raqamli O‘zbekiston-2030” dasturini hayotga tatbiq etishimiz zarur”, – deb ta'kidlagan edi. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning me'yoriy-huquqiy asoslari yaratilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3832 sonli qarorida raqamli iqtisodiyotning maqsad va vazifalarini belgilab berilgan.

Dunyo miqyosida qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi vaqtda “elektron qishloq xo‘jaligi” (e-agriculture) va “aqlli qishloq xo‘jaligi” (smart agriculture) tushunchalari ham paydo bo‘ldi va ushbu tushunchalar zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash orqali qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga qaratilgan yangicha yondoshuvlardir. Xususan, elektron qishloq xo‘jaligi tarmoqda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning innovatsion usullarini konsepsiyalash, loyihalash, ishlab chiqish, baholash va qo‘llashni o‘z ichiga oladi.

2019-yil 23-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853 sonli farmoni qabul qilindi. Ushbu farmon asosida qabul qilingan

strategiyada mamlakatimizda “aqlli qishloq xo‘jaligi”ni rivojlantirish davlat dasturini ishlab chiqish vazifasi belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Makamasining 2020-yil 15-dekabrdagi “Agrar ta’lim tizimining 2030-yilgacha innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 788-sonli qaroriga ko‘ra qishloq xo‘jaligida “Aqlli qishloq xo‘jaligi” va raqamli texnologiyalar joriy etilishi belgilab berilgan.

2019-yil 23-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-sonli farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-dekabrdagi “Qishloq xo‘jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada jadal tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4919-sonli qarori va boshqa me’yoriy hujjatlarga muvofiq qishloq xo‘jaligida resurs tejamkor texnologiyalardan foydalanishga alohida e’tibor berilmoqda. Qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirishda tomchilatib va yomg‘irlatib sug‘orish tizimlarini hamda yerni lazerli uskuna yordamida tekislangan holda diskretli sug‘orish usulini joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4699-sonli qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash doirasida 2020-yil 17-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi agrosanoat majmui va qishloq xo‘jaligida raqamlashtirish tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 794-qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra agrar sohani raqamlashtirishning ustuvor yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

- qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan, suv resurslaridan samarali foydalanish va ekinlar holatini nazorat qilishning idoraviy va idoralararo axborot tizimlarini joriy etish;
- agrosanoat majmuidagi tashkilotlar tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarni, shu jumladan davlat xizmatlarini to‘liq elektron shaklga o‘tkazish;
- qishloq xo‘jaligi sohasida zamonaviy AKTni joriy etish uchun maqsadli loyihalarni amalga oshirish;
- suv omborlari va sug‘orish tizimlarida suv resurslaridan foydalanishni onlayn rejimda nazorat qilish texnologiyalarini joriy etish;

- suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish, suvdan foydalanish va suv iste’moli hisobini yuritish hamda ma’lumotlar bazasini shakllantirish;
- biznes-startap loyihalarni amalga oshirish va innovatsion loyihalar natijalarini tijoratlashtirish uchun korxonalarga ko‘maklashish.

Ushbu qarorga ko‘ra Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzurida “Agrosanoatni raqamlashtirish markazi” davlat muassasasi tashkil etilishi belgilangan. Markaz agrosanoat majmuida “Raqamli qishloq xo‘jaligi” axborot tizimi yuritilishi uchun mas’ul hisoblanadi. “Raqamli qishloq xo‘jaligi” axborot tizimi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilar, ta’minotchilar hamda qayta ishlash tashkilotlari o‘rtasida o‘zaro iqtisodiy hamkorlikni amalga oshirish imkoniyatini beruvchi platforma bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbi qaror bilan “Aqlli qishloq xo‘jaligi” texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasi ham tasdiqlandi. Strategiya “Aqlli qishloq xo‘jaligi” texnologiyalarini rivojlantirishning quyidagi uzoq muddatli asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradi:

- qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanishda raqamli va geoaxborot texnologiyalarini joriy etish;
- zamonaviy kompyuter texnologiyalarini tatbiq etish orqali suv resurslarini boshqarish va undan foydalanish;
- intensiv bog‘larni tashkil etish va bog‘dorchilik mahsulotlarini yetishtirishda avtomatlashtirilgan boshqarish texnologiyalarini joriy etish;
- issiqxona xo‘jaliklarida avtomatlashtirilgan, kompyuterlashtirilgan intellektual texnologiyalarni joriy etish;
- chorvachilik va parrandachilik sohasiga avtomatlashtirilgan texnologiyalarni tatbiq etish;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangan logistika va savdo markazlarini tashkil etish;
- qishloq xo‘jaligining barcha yo‘nalishlari uchun “Aqlli qishloq xo‘jaligi” texnologiyalari bo‘yicha malakali kadrlar tayyorlash va kadrlar malakasini oshirib borish.

Qishloq xo‘jaligida bozor munosabatlarini takomillashtirish sohasidagi islohotlar.

Yaqin yillargacha qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida bozor iqtisodiyoti tamoyillariga mos kelmaydigan holatlar, jumladan, paxta xomashyosi va g‘allaning davlat buyurtmasi asosida yetishtirilishi, shu sababli fermerlar o‘zlariga uzoq muddatga ijaraga berilgan yer maydoniga nima ekishni o‘zlari mustaqil hal qila olmasligi, yetishtirilgan paxta xomashyosi va g‘allaning erkin bozor natxida emas, balki davlat xarid narxida sotib olinishi, fermerlarning ayrim ishlab chiqarish resurslari (mineral o‘g‘it, yoqilg‘i-moylash materiallari va hokazolar)ni erkin sotib olmasdan, tegishli tashkilotlar tomonidan monopol tarzda yetkazib berilishi, mahalliy hokimiyatlar tomonidan fermerlar bilan yer ijarasi bo‘yicha tuzilgan shartnoma shartlarining bir tomonlama buzilishi kabi holatlar mavjud edi. Bu esa, o‘z navbatida tarmoqda erkin tadbirkorlik muhitining shakllanishi, tarmoqning investitsion jozibadorligi va umuman tarmoqning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatib kelayotgan edi.

Ushbu holatlarni inobatga olgan holda prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida bozor munosabatlarini takomillashtirishga alohida e’tibor berilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-martdagi “Paxtachilik sohasida bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, 2020-yil hosilidan boshlab davlat tomonidan paxta xomashyosi ishlab chiqarish va sotish rejasini belgilash amaliyoti bekor qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-martdagi “G‘alla yetishtirish, xarid qilish va sotishga bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4634-sonli qaroriga muvofiq, 2020-yil hosilidan boshlab davlat buyurtmasi asosida boshoqli don yetishtirish amaliyoti bosqichma-bosqich bekor qilinishi, 2021-yil hosilidan boshlab esa davlat tomonidan g‘alla xarid narxini belgilash amaliyotidan voz kechilishi, davlat xaridi to‘liq bekor qilinishi hamda fermerlar va boshqa korxonalar tomonidan yetishtiriladigan g‘alla barcha iste’molchilarga, shu jumladan donni qayta ishlovchi korxonalar, g‘allachilik klasterlari va treyderlarga birja savdolari orqali yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar (fyuchers, forvard va boshqalar) asosida erkin narxlarda sotilishi belgilab qo‘yilgan.

2021-yil 25-may kuni Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev o‘simliklarni himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazdi. “O‘zagrokimyohimoya” aksiyadorlik jamiyatini

tugatib, uning vakolat va vazifalarini boshqa tuzilmalarga o‘tkazish taklifi bildirildi. Bunda, mineral o‘g‘itlar va kimyoviy vositalar bilan ta’minlash erkin bozor tamoyillari asosida to‘liq xususiy sektorga berilishi ta’kidlandi.

4. Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha islohotlarning istiqbolli yo‘nalishlari.

Mamlakatimizda agrar tarmoqni yanada rivojlantirish bo‘yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar quyidagi muhim yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

1. Agrar sohada iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, mulkiy munosabatlar va xo‘jalik yuritish shakllarini takomillashtirib borish.
2. Qishloq xo‘jaligida yerdan foydalanish mexanizmini takomillashtirish va samarali foydalanishni rag‘batlantirish. Bunda tuproq unumdorligini oshirish va meliorativ holatini yaxshilash borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida barcha hududlarda qishloq xo‘jaligi yerlari unumdorligini oshirish, unumdorligi past yer maydonlari salmog‘ini kamaytirish. Ushbu maqsadda o‘z mablag‘lari hisobidan irrigatsiya-melioratsiya tadbirlarini amalga oshirgan fermerlarni iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmini joriy etish.
3. Suv xo‘jaligi tizimini takomillashtirish, yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash maqsadida suv xo‘jaligi tizimida moddiy va ma’naviy eskirgan irrigatsiya-melioratsiya tizimini yangilash, uning samaradorligini oshirish, yangi sug‘orish texnologiyalari va suvdan foydalanish mexanizmlarini joriy etish, yer maydonlari meliorativ holatini yaxshilash, drenaj tarmoqlarini qurish va ta’mirlash tadbirlarini amalga oshirish.
4. Qishloq xo‘jaligi ekinlari navlarini viloyatlar va tumanlarning tabiiy-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda joylashtirish, mahsulotlar sifati va ekinlar hosildorligini oshirishga alohida e’tibor qaratish. Qishloq xo‘jaligi ekinlarining yuqori hosilli, tezpishar, kasallik va zararkunandalarga chidamli, yangi va istiqbolli, mahsulot sifati bozor talablariga javob beruvchi navlarini mintaqalar bo‘yicha optimal joylashtirishga erishish lozim.
5. Chorvachilik tarmog‘ini kompleks rivojlantirish, bunda asosan chorva mollarining naslini yaxshilash hisobiga ularning mahsuldorligini oshirish. Buning uchun:

- chorvachilik tarmog‘ining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;
- naslchilikni tubdan yaxshilash;
- tarmoqda servis, jumladan, zooveterinariya xizmatlari ko‘rsatish sifati va assortimentini oshirish;
- parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik va pillachilik sohalarini rivojlantirish;
- chorva mollarining yuqumli kasalliklariga qarshi kurash tizimini yanada takomillashtirish;
- ozuqa ekinlarini joylashtirishning maqbul darajalariga erishish, bunda lalmi yerlardan chorva ozuqasi yetishtirish uchun foydalanishni kengaytirish.

6. O‘rmon xo‘jaligini kompleks rivojlantirish borasida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhit muhofazasi nuqtai nazaridan:
- qo‘riqlanadigan hududlar davlat kadastrini joriy etish;
- o‘rmon xo‘jaligida mevali, manzarali daraxt ko‘chatlarini yetishtirishni yanada rivojlantirish dasturini ishlab chiqish;
- hududlarning ekologik holati bo‘yicha geografik-axborot tizimini ishlab chiqish.

7. Qishloq xo‘jaligi xomashyosini qayta ishlash tarmog‘ini rivojlantirish, agrar sohaning eksport salohiyatini oshirish. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlashga ixtisoslashgan korxonalarni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlash, xomashyoni qayta ishlash quvvatlarini ishga tushirish, mavjud korxonalarni modernizatsiya qilish, ho‘l meva-sabzavot va tayyor mahsulot eksport qiladigan subyektlar uchun imtiyozlar tizimini ishlab chiqish.

8. Qishloq joylarda servis xizmatlari ko‘rsatish tizimini takomillashtirish, agrar tarmoqda servis xizmatlari ko‘rsatish sohasini rivojlantirish, bozorga tez moslashuvchi subyektlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash.

9. Qishloq xo‘jaligida moliya-kredit, soliq va sug‘urta tizimini takomillashtirish:
- qishloq joylariga kichik sanoatni jalb qilishda soliq imtiyozlari va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tadbirlarini amalga oshirish;
- mahalliy ishlab chiqaruvchilarni iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida proteksionizm siyosatini doimiy ravishda amalga oshirish;
- unumdorligi past bo‘lgan, shuningdek, nasoslar bilan sug‘oriladigan maydonlarda davlat ehtiyojlari uchun paxta va g‘alla yetishtiruvchi

fermer xo‘jaliklarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirib borish.

10. Agrar fanini rivojlantirish va ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish. Bu sohada:

- tarmoqda resurs tejamkor innovatsion texnologiyalarni qo‘llashni yanada kengaytirish;
- qishloq xo‘jaligining amaliy muammolarini hal etish bo‘yicha innovatsion loyihalarni yanada kengaytirish, ularni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, ajratilayotgan mablag‘lardan samarali foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish;
- tarmoqni yanada rivojlantirish va samaradorligini oshirish imkoniyatlarini izlash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishni yanada kengaytirish;
- ilmiy tadqiqot institutlari va qishloq xo‘jaligi korxonalari o‘rtasida o‘zaro manfaatdorlik asosidagi aloqalarni yo‘lga qo‘yish.

Qisqacha xulosalar

Mamlakatimizda mustaqillikka erishilgandan so‘ng bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiy tizimga o‘tish bo‘yicha islohotlar amalga oshirila boshlandi. Mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida bo‘lgani singari qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida ham keng qamrovli islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Amalga oshirilayotgan ushbu islohotlar natijasida qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida ham bozor munosabatlari shakllanib, mulkiy munosobatlar takomillashdi, bozor iqisodiyoti shatroitiga mos yangicha tadbirkorlik shakllari paydo bo‘ldi.

Mamlakatimiz hukumati tomonidan qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada takomillashtirishga alohida e’tibor berib kelinmoqda.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Qishloq xo‘jaligida islohotlarni amalga oshirishning zarurligi nimadan iborat?
2. Qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan agrar islohotlarda davlatning roli qanday?

3. Qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan agrar islohotlarning asosiy yo‘nalishlari qaysilar?
4. Qishloq xo‘jaligida yer resurslaridan foydalanish bo‘yicha qanday islohotlar amalga oshirilmoqda?
5. Qishloq xo‘jaligida suv resurslaridan foydalanish bo‘yicha qanday islohotlar amalga oshirilmoqda?
6. Qishloq xo‘jaligida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish borasida qanday islohotlar amalga oshirildi?
7. Qishloq xo‘jaligida qanday tarkibiy islohotlar amalga oshirildi?
8. Qishloq xo‘jaligini moliyalash va kreditlash sohasidagi qanday islohotlar amalga oshirilmoqda?
9. Qishloq xo‘jaligini soliqqa tortish bo‘yicha qanday islohotlar amalga oshirilmoqda?
10. Qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada takomillashtirish yo‘llari nimalardan iborat?

BOB YUZASIDAN AMALIY TOPSHIRIQLAR:

1-topshiriq:

Zinama-zina usuli yordamida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan agrar islohotlarning bosqichlarini ko‘rsatib berish. Bunda guruh talabalari 4 ta kichik guruhlarga bo‘linadi va har bir guruhga qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan agrar islohotlarning bitta bosqichini yoritib berish vazifasi beriladi. Kichik guruhlar alohida ishlab, o‘zlariga berilgan vazifaning javobini qog‘ozga yozishadi va kichik guruhdan bir kishi chiqib uni taqdimot qiladi hamda shu tariqa barcha guruhlar ketma-ketlikda taqdimot qiladilar. Bunda guruhlar tomonidan qog‘ozlarga yozib tayyorlangan javoblar mos ketma-ketlikda doskaga joylashtirib boriladi. Natijada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan agrar islohotlarning barcha bosqichlari yoritib beriladi.

1-bosqich (1991-1995-yillar)
2-bosqich (1996-2007-yillar)
3-bosqich (2008-2016-yillar)
4-bosqich (2017-yildan - hozirgi vaqtgacha)

2-topshiriq:

Klaster usuli yordamida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan agrar islohotlarning asosiy yo‘nalishlarini ko‘rsatib bering.



3-topshiriq:

“Baliq skeleti” texnologiyasi asosida **“Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida amalga oshirilayotgan yer va suv islohotlarining asosiy yo‘nalishlari nimalardan iborat?”** savoliga javob beriladi. Ushbu texnologiya katta muammolarning yechimini topishga qaratilgan. Yuqori qismida sinflarga ajratilsa, pastki qismida esa ularning farqlarini tasdiqlovchi dalillar yoziladi.



Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan islohotlarda davlatning roli.
2. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan agrar islohotlarning asosiy bosqichlari.
3. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan agrar islohotlarning asosiy yo‘nalishlari.
4. Qishloq xo‘jaligida yer resurslaridan foydalanish bo‘yicha islohotlar.
5. Qishloq xo‘jaligida suv resurslaridan foydalanish bo‘yicha islohotlar.
6. Qishloq x’jaligida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish borasidagi islohotlar.
7. Qishloq xo‘jaligini moliyalash va kreditlash sohasidagi islohotlar.
8. Qishloq xo‘jaligini soliqqa tortish bo‘yicha islohotlar.

3-BOB: AGROSANOAT MAJMUASINING MOHIYATI, TARKIBI VA VAZIFALARI

1. Agrosanoat majmuasining mohiyati va ahamiyati.
2. Agrosanoat majmuasining tarkibi.
3. Agrosanoat majmuasining asosiy vazifalari.

Tayanch iboralar: agrosanoat integratsiyasi, tarmoqlararo mehnat taqsimoti, agrosanoat majmuasi, oziq-ovqat xavfsizligi, agrosanoat majmuasi samaradorligi.

1. Agrosanoat majmuasining mohiyati va ahamiyati.

Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiyot tarmoqlarining, shu jumladan, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining samaradorligi ko‘p jihatdan boshqa tarmoqlar ishlab chiqarish faoliyatiga chambarchas bog‘liq. Sababi, bir tarmoqning pirovard mahsuloti boshqa bir tarmoq uchun ishlab chiqarish vositasi yoki xom-ashyosi bo‘lib xizmat qiladi va uning tarmoq uchun birlamchi qayta ishlash yoki mahsulotni iste’molchiga yetkazib berish xizmatini vujudga keltiradi.

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘i ham iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanadi. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘i sanoat korxonalaridan ishlab chiqarish vositalarini oladi va yetishtirilgan mahsulotlar sanoat korxonalari uchun xomashyo hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida ishlab chiqarish jarayonining bir maromda kechishi uchun xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar xizmatidan ham foydalanadi. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining samaradorligi ushbu tarmoqlar bilan bo‘ladigan aloqalari qanchalik yaxshi yo‘lga qo‘yilganligiga bevosita bog‘liq.

Agrosanoat integratsiyasi – sanoat va qishloq xo‘jaligining bir-biri bilan uzviy bog‘lanishi, bir butun tizimga aylanishidir. Agrosanoat integratsiyasi ijtimoiy mehnat taqsimoti va kooperatsiyasi rivojlanishining natijasidir. Tarmoqlarning bir-biridan ajralib, alohida rivojlanishi ularda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni ayriboshlashning kuchayishiga olib keldi. Bir tarmoqda ishlab chiqariladigan mahsulotga

talab asosan boshqa tarmoqda vujudga keladi. Natijada bir tarmoq ikkinchisisiz barqaror rivojlana olmaydi. Bu ularning integratsiyalashuvi zaruratini keltirib chiqaradi. Sanoat va qishloq xo‘jaligining rivoji ular o‘rtasida aloqalarning murakkablashuviga olib keldi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sanoat tarmog‘ida qayta ishlanadi. Buning natijasida qishloq xo‘jaligi sanoat uchun xomashyo yetkazib beruvchi tarmoqqa aylanib, qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining oxirgi iste’molchi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqasi kamayib boradi. Bu esa o‘z navbatida tarmoqlararo integratsiyani kuchaytiradi.

Keyingi yillarda ishlab chiqarish shu darajada yuksalib bormoqdaki, iqtisodiyotning turli tarmoqlari bir-biri bilan juda chambarchas bog‘lanib qolmoqda. Ularning bog‘lanishi, ayniqsa, texnologik jihatidan bir-birini to‘ldiruvchi tarmoqlarda kuchlidir. Agrosanoat majmuasiga kiruvchi tarmoqlarda bu jarayon juda yorqin namoyon bo‘lmoqda.

Bugungi kunda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi, uni tayyorlovchi, qayta ishlovchi, saqlovchi va tayyor mahsulotni iste’molchilarga yetkazib beruvchi sohalar iqtisodiyotini bir-biridan alohida holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu tarmoqlar yagona bir tizimni tashkil etadi va ularning birgalikda mutanosib ishlashi pirovard natijaning samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

Agrosanoat integaratsiyasining yanada chuqurlashib borishi obyektiv jarayondir. Bu albatta, qishloq xo‘jaligining va umuman agrosanoat majmuasi iqtisodiyotining rivojlanishiga olib keluvchi jarayondir. Agrosanoat integratsiyasining va kooperatsiyasining mahsuli sifatida o‘tgan XX asrning 60-yillaridan boshlab mamlakatimizda agrosanoat majmuasi yagona tizim sifatida shaklana boshladi.

Agrosanoat majmuasi – qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, ularni tayyorlash, qayta ishlash, saqlash va tayyor mahsulotni iste’molchilarga yetkazib beruvchi, yagona maqsadlarga bo‘ysundirilgan, texnologik jihatdan bir-biri bilan bog‘langan tarmoq va xizmatlar yig‘indisidir. Agrosanoat majmuasining quyidagi turlari mavjud:

- mamlakat agrosanoat majmuasi;
- hudud agrosanoat majmuasi;

• ixtisoslashgan (go‘sht, sut, don, sabzavot va poliz kabi mahsulot turlarini yetishtirish bilan shug‘illanuvchi) agrosanoat majmualaridan iborat.

Mamlakat agrosanoat majmuasiga agrosanoat majmuasi tarmoqlari uchun ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi tarmoqlar (qishloq xo‘jaligi texnikalari ishlab chiqaruvchi zavodlar, omuxta yem, mineral o‘g‘itlar tayyorlovchi zavodlar va hokazo), qishloq xo‘jaligi tarmog‘i, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlovchi, tayyorlovchi, qayta ishlovchi va tayyor mahsulotlarini iste’molchilarga yetkazib beruvchi tarmoqlar hamda qishloq xo‘jaligiga turli xizmatlarni ko‘rsatuvchilar kiradi.

Hudud agrosanoat majmuasi esa ma’lum, bir hudud (iqtisodiy hududlar, viloyatlar, vohalar, ba’zan tumanlar) doirasida amal qiladi. Samarqand viloyatida tamaki yetishtiruvchi xo‘jaliklar va tamakini qayta ishlash sanoati o‘rtasida itegratsiya mavjud bo‘lib, bu hududiy agrosanoat majmuasiga misol bo‘ladi. Qorako‘lchilik sohasidagi agrosanoat integratsiyasini ham hududiy agrosanoat majmuasiga kiritish mumkin, chunki, qorako‘lchilik mamlakatimizning ayrim hududlarida rivojlangan.

Ixtisoslashgan agrosanoat majmualari ikkiga bo‘linadi. Birinchisi, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi agrosanoat majmuasi. Ikkinchisi, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi agrosanoat majmuasi. Bu agrosanoat majmualarining har ikkalasi ham alohida olingan tovarlar (mahsulotlar) bo‘yicha agrosanoat majmualarini tashkil etadi.

Mamlakatimizda aholi soni hamda sanoat korxonalari soni va ularning ishlab chiqarish quvvatlari yil sayin oshib bormoqda. Bu esa mamlakatimizda qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirilishini taqozo etmoqda. Ushbu muammolarni yechish uchun eng avvalo tarmoqlararo mehnat taqsimotini rivojlantirgan holda qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishini va u bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan xizmat ko‘rsatish hamda qayta ishlash tarmoqlarining mutanosib ravishda rivojlanishini ta’minlashga erishish, so‘ngra tayyor oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi va ularni iste'molchilarga yetkazuvchi

tarmoqlarning tashkiliy, texnikaviy, texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy bog`lanishini ta'minlash lozim.

Ko‘rinib turibdiki, qishloq xo‘jaligini barqaror ravishda rivojlantirish, samaradorligini yuksaltirish uchun uni yangi qishloq xo‘jalik mashinalari, texnikalari, transport va kimyoviy vositalar, mineral o‘g‘itlar, yoqilg‘i hamda yog‘lovchi materiallar, qurilish materiallari, ozuqa moddalari bilan to‘liq va mutanosib ravishda ta’minlab, mustahkam moddiy-texnika bazasini barpo etish kerak. Demak, qishloq xo‘jaligining kelajakdagi rivoji dastavval uning uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlari faoliyatiga bevosita bog‘liqdir.

Aholining oziq-ovqat va boshqa turdagi iste’mol tovarlari bilan ta’minlash qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida yetishtirilgan xomashyolardan aholining barcha talablarini qondira oladigan oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlarining serqirrali faoliyatiga ham bog‘liq.

Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiyot tarmoqlarining, shu jumladan, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining samaradorligi ko‘p jihatdan boshqa tarmoqlar ishlab chiqarish faoliyatiga chambarchas bog‘liq. Sababi, bir tarmoqning pirovard mahsuloti boshqa bir tarmoq uchun ishlab chiqarish vositasi yoki xom-ashyosi bo‘lib xizmat qiladi va uning tarmoq uchun birlamchi qayta ishlash yoki mahsulotni iste’molchiga yetkazib berish xizmatini vujudga keltiradi.

Qishloq xo‘jaligi bir tomondan, texnika, qishloq xo‘jaligi mashinalari, yonilg‘i-moylash materialllari, kimyoviy vositalar, mineral o‘g‘itlar, qurilish materiallari va transport vositalari yetkazib beruvchi sanoat bilan, ikkinchi tomondan, ta’mirlovchi, saqlovchi, yetkazib beruvchi, ya’ni xizmat qiluvchi tarmoqlar va ishlab chiqaruvchilar bilan bog‘langan.

Bundan tashqari, qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridan xom-ashyo sifatida foydalanuvchi, sanoatning oziq-ovqat, yengil, to‘qimachilik kabi tarmoqlari bilan ham mustahkam aloqa mavjud.

Sanoat va qishloq xo‘jaligi tarmoqlari o‘rtasida bunday aloqadorlik ular bazasida, o‘zaro chambarchas aloqador bo‘lgan va yagona pirovard

maqsadga qaratilgan agrosanoat majmui shakllanishuvini vujudga keltiradi.

Shunday qilib, agrosanoat majmuasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bilan, uning ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini iste’molchilarga yetkazib berish bilan bog‘langan iqtisodiyot tarmoqlarining to‘plamidan iboratdir. Uning faoliyati minimal xarajatlar hisobiga mamlakat aholisini oziq-ovqat mahsulotlari va sanoatni xom ashyo bilan to‘laroq qondirishga qaratilgan.

Agrosanoat majmuining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy maqsadi quyidagilardan iborat:

- mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash;
- aholining qishloq xo‘jaligi xom-ashyosidan tayyorlanadigan nooziq-ovqat tovarlarga bo‘lgan talabini qondirish;
- agrosanoat majmui korxonalarini rivojlantirishning intensiv shakliga o‘tkazish va shu asosda pirovard mahsulot ishlab chiqarishni o‘stirishni ta’minlash;
- barcha tarmoq va korxonalarda mavjud resurslar salohiyatidan foydalanishni yaxshilash va shu asosda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish.

2. Agrosanoat majmuasining tarkibi.

Iqtisodchi olimlar tomonidan agrosanoat majmuasining tarkibi bo‘yicha turli fikrlar keltirilgan. Agrosanoat majmuasining tashkiliy-iqtisodiy masalalariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarda ayrim olimlar agrosanoat majmuasining tarkibi 3 ta, ayrimlari esa 4 ta va boshqalar 5 ta sohadan iborat ekanligini ta’kidlashgan. Ularning har biri agrosanoat majmuasi tarkibini ilmiy izlanishning maqsadi bo‘yicha izohlagan. Agrosanoat majmuasining tarkibini ilmiy asarlarda belgilangan tasnifining birortasini inkor qilmagan holda uning tarkibini 4 ta sohaga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bu sohalar quyidagilardir:



3.1-rasm. Respublika agrosanoat majmuasi tarkibi.

Respublika agrosanoat majmuasining 1-sohasiga agrosanoat majmuasi tarmoqlari uchun ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchi soha kiradi. Ular tarkiban qishloq xo‘jalik mashinasozlik, traktorsozlik sanoati; kimyo sanoati; neft mahsulotlari sanoati, mikrobiologiya sanoati; stanoksozlik sanoati; qurilish materiallari sanoati va boshqalardan tashkil topadi.

Qshloq xo‘jaligi tarmog‘i uchun zarur bo‘lgan qishloq xo‘jalik texnikalari ishlab chiqarish to‘g‘risidagi ma’lumotlar 3.1-jadvalda keltirilgan.

3.1-jadval

Asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi texnikalari ishlab chiqarish

	2016	**2017**	**2018**	**2019**
Traktorlar, dona	720	1182	3926	2257
Traktor kultivatorlari, ming dona	2,2	1,2	1,2	3,8
Boronalar, dona	3310	912	1010	54
G‘alla o‘ruvchi kombaynlar, dona	232	312	574	307
Seyalkalar, dona	1410	1260	1026	1288
O‘rgichlar, dona	201	187	172	104

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, mamlakatimizda 2019-yilda traktorlar ishlab chiqarish hajmi 2016-yilga nisbatan 3,1 barobarga oshgan, lekin 2018-yilga nisbatan 57,5 foizni tashkil etgan. Mamlakatimizda mavjud fermer xo‘jaliklari va agroklasterlar soni hamda ularning qishloq xo‘jalik texnikalari bilan haqiqiy ta’minlanganlik darajasini inobatga olganda ishlab chiqarilayotgan traktorlar soni ancha kamdir. Shu sababli mahalliy tuproq va iqlim sharoitlarimizga mos, arzon, zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalarni inobatga olga holda traktorlar ishlab chiqarishni yanada oshirish lozim. Shu bilan birga, fermer xo‘jalikarining traktorlarni sotib olish imkoniyatlarini ham inobatga olish lozim. Tarmoqda bozor munosabatlarini yanada chuqurlashtirish orqali fermer xo‘jaliklarining daromadlarini oshirish, shu orqali ularda qishloq xo‘jalik texnikalari

sotib olishlari uchun imkoniyatlar yaratish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda davlatning qishloq xo‘jaligida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarini faol qo‘llab-quvvatlashi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu orqali qishloq xo‘jaligida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarining moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlashga erishish mumkin. Boronalar va o‘rgichlar ishlab chiqarish hajmi esa keskin kamayganligini ko‘rishimiz mumkin. Mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarish hajmi to‘g‘risidagi ma’lumotlar 3.2-jadvalda keltirilgan.

3.2-jadval

Mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarish, ming tonna

	2016	**2017**	**2018**	**2019**
Mineral o‘g‘itlar (100 foiz ta’sir qiluvchi modda hisobida)	1225,7	1141,9	1170,8	1216,9
shu jumladan:				
azotli	944,7	854,8	848,0	898,3
kaliyli	138,0	168,0	182,4	199,1
fosfatli	143,0	119,1	140,4	119,5

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda 2019-yilda mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarish hajmi 2016-yilga nisbatan 99,3 foizni tashkil etgan. Faqat kaliyli o‘g‘itlar ishlab chiqarish hajmi o‘sish tendensiyasida, azotli va fosfatli o‘g‘itlar ishlab chiqarish hajmi esa kamaygan. Qishloq xo‘jaligini intensiv rivojlantirish uchun mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish lozim.

Agrosanoat majmuaning 2-sohasiga qishloq xo‘jaligi tarmog‘i kirtiladi. Bu soha agrosanoat majmuasining negizini tashkil etadi. Qishloq xo‘jaligi o‘z navbatida o‘simlikchilik, chorvachilik, pillachilik, asalarichilik, baliqchilik, o‘rmonchilik (tabiiy holda o‘suvchi oziq-ovqat va dorivor o‘simliklar yetishtirish) kabi tarmoqlardan tashkil topadi. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish bilan fermer xo‘jaliklari, dehqon xo‘jaliklari, agroklasterlar va boshqa qishloq xo‘jalik korxonalari shug‘ullanib kelmoqdalar.

3.3-jadval

Qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishning tarkibi, foizda

Yillar	Barcha toifadagi xo‘jaliklar	Shu jumladan		
		Fermer xo‘jaliklari	Dehqon xo‘jaliklari	Qishloq xo‘jalik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar
Jami				
2016	100,0	29,7	68,0	2,3
2017	100,0	29,3	68,4	2,3
2018	100,0	26,0	71,2	2,8
2019	100,0	27,9	68,3	3,8
Dehqonchilikda				
2016	100,0	52,0	46,4	1,6
2017	100,0	49,2	49,1	1,7
2018	100,0	45,3	52,2	2,5
2019	100,0	49,2	46,8	4,0
Chorvachilikda				
2016	100,0	3,9	92,9	3,2
2017	100,0	3,7	93,1	3,2
2018	100,0	4,6	92,3	3,1
2019	100,0	5,1	91,2	3,7

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Ushbi jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2019-yil holatiga mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi tarkibida dehqon xo‘jaliklarining ulushi 68,3 foizni, fermer xo‘jaliklarining ulushi 27,9 foizni va qishloq xo‘jalik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning ulushi esa 3,8 foizni tashkil etgan. Bundan ko‘rinadiki, hozirgi vaqtda mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda dehqon xo‘jaliklarining ulushi yuqori. Ayniqsa chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda dehqon xo‘jaliklarining ulushi yuqori salmoqni egallaydi.

Agrosanoat majmuasini tashkil etishdan ko‘zlangan asosiy maqsad – ular o‘rtasidagi aloqalarni integratsiyalash orqali qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini yuksaltirish va shu orqali aholining oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlariga hamda sanoatning xomashyoga bo‘lgan talabini qondirishdir. Agrosanoat majmuasi faoliyatini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida o‘sish ta’minlanmoqda.

3.4-jadval

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining asosiy ko‘rsatkichlari

	2016	**2017**	**2018**	**2019**
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsuloti hajmi, mlrd. so‘m	119726,7	154369,4	195095,6	224265,9
Shundan:				
Dehqonchilik	61755,1	83303,4	98406,4	111904,8
Chorvachilik	53844,1	64895,9	89019,2	104378,3
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi o‘sish sur’ati, o‘tgan yilga nisbatan foizda	106,1	101,2	100,3	103,1
Shu jumladan:				
Dehqonchilikda	105,7	98,2	95,8	104,8
Chorvachilikda	107,0	104,1	105,7	101,6

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Agrosanoat majmuaning 3-sohasiga qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining bir maromda faoliyat yuritishi va rivojlanishiga xizmat ko‘rsatuvchi sohalar kiritiladi. Jumladan, ekinlarni suv bilan ta’minlaydigan, yerlarning meliorativ holati yaxshilanishini ta’min etuvchi chora-tadbirlar tizimini amalga oshiradigan suv xo‘jaligi tarmog‘i; qishloq xo‘jaligida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlariga yerlarni shudgorlash, ekinlarni ekish, ularga ishlov berish, yetishtirilgan hosilni yig‘ishtirib olish bilan bog‘liq bo‘lgan texnik xizmatlarni ko‘rsatuvchilar (muqobil mashina-traktor parklari); tarmoqqa zooveterinariya xizmatini ko‘rsatuvchilar; xasharotlarga, zararkurandalarga, begona o‘tlarga qarshi kimyoviy kurashish xizmatini ko‘rsatuvchilar; qishloq xo‘jaligida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik

subyektlarini yoqilg‘i-moylash materiallari bilan ta’minlovchilar (neft bazalari tarkibidagi fermerlarni yoqilg‘i-moylash materiallari bilan ta’minlovchi shaxobchalar); qishloq xo‘jaligida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlari elektr energiyasi bilan ta’minlovchi (“Hududiy elektr tarmoqlari”) korxonalar; ishchi-xizmatchilar uchun mehnat va dam olish sharoitlarini ta’minlovchi ijtimoiy sohalar va boshqa shu kabi sohalarni o‘z ichiga oladi.

2016-yil 24-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘simliklarni himoya qilish va qishloq xo‘jaligiga agrokimyoviy xizmatlarni ko‘rsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2640-sonli qarori qabul qilingan edi. Ushbu qarorga ko‘ra, qishloq xo‘jaligini mineral o‘g‘itlar, o‘simliklarni himoya qilishning kimyoviy va biologik vositalari bilan ta’minlashning yaxlit tizimini yaratish, qishloq xo‘jaligi ekinlariga agrotexnik xizmat ko‘rsatish hamda zararkunandalar va kasalliklardan saqlash bo‘yicha xizmatlar sifatini yaxshilash maqsadida “O‘zagrokimyohimoya” aksiyadorlik jamiyati tashkil etilgan edi. Ushbu aksiyadorlik jamiyati zimmasiga quyidagi asosiy vazifalar yuklatilgan edi:

- qishloq o‘jaligini mineral o‘g‘itlar, o‘simliklarni kimyoviy va biologik himoya qilish vositalarini ta’minlash, chigirtka, zararkunandalar, o‘simliklar kasalliklari va yovvoyi o‘tlarga qarshi kurashish bo‘yicha yagona texnik va texnologik siyosatni olib borish;
- o‘simliklarni himoya qilish, zararkunandalar, o‘simliklar kasalliklari va yovvoyi o‘tlar bilan kurashish sohasida fermerlar va dehqon xo‘jaliklari, boshqa tashkilotlar hamda aholiga kompleksli agrokimyo xizmatlarini ko‘rsatish, shakllantirilgan buyurtmalar va kafolat shartnomalariga muvofiq qishloq xo‘jaligini mineral o‘g‘itlar bilan ta’minlash va boshqalar.

“O‘zagrokimyohimoya” aksiyadorlik jamiyati “Qishloqxo‘jalikkimyo” hududiy aksiyadorlik jamiyati, Respublika o‘simliklarni himoya qilish va agrokimyo markazi hamda uning hududiy bo‘limlari, chigirtkaga qarshi kurashish bo‘yicha xizmatlar (“Chigirtka va qizil kapalakka qarshi kurashish xizmati” MChJ), O‘zbekiston o‘simliklarni himoya qilish ilmiy-tadqiqot instituti, Respublika agrokimyo stansiyasi va uning hududiy bo‘limlari, Respublika o‘quv-ishlab chiqarish biolaboratoriyasining huquq va majburiyatlari bo‘yicha huquqiy voris sifatida tashkil etilgan edi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan qishloq xo‘jaligi tarmog‘iga bozor munosabatlarini joriy etishga alohida e’tibor berib

kelinmoqda. Jumladan, qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlariga mineral o‘g‘itlarning “O‘zagrokimyohimoya” aksiyadorlik jamiyati tomonidan yetkazib berilishi bozor tamoyillariga mos kelmas edi.

2021-yil 25-may kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘simliklarni himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazdi. O‘simliklar himoyasi – oziq-ovqat mahsulotlari sifati va xavfsizligini ta’minlash, eksport hajmlarini oshirishda juda muhim tizimdir. Ilgari bu ishlar birgina “O‘zagrokimyohimoya” aksiyadorlik jamiyatiga yuklatilgan edi. Oxirgi yillarda mineral o‘g‘it va kimyoviy vositalar yetkazib berish bilan tadbirkorlik subyektlari ham erkin shug‘ullanmoqda. “O‘zagrokimyohimoya” xizmatlariga talab kundan-kunga kamayib bormoqda. Shu bois yig‘ilishda o‘simliklarni himoya qilish bo‘yicha yangi tizim tashkil etish, hududlarda bu boradagi xizmatlarni kengaytirish masalalari muhokama qilindi. “O‘zagrokimyohimoya” aksiyadorlik jamiyatini tugatib, uning vakolat va vazifalarini boshqa tuzilmalarga o‘tkazish taklifi bildirildi. Bunda, o‘simliklarni himoya qilish va chigirtkaga qarshi kurashish vazifasi O‘simliklar karantini davlat inspeksiyasiga o‘tkazildi. Tut parvonasiga qarshi kurashish Ipakchilik uyushmasi va uning tarkibidagi klasterlar hamda tuman hokimlariga yuklatiladi. Mineral o‘g‘itlar va kimyoviy vositalar bilan ta’minlash erkin bozor tamoyillari asosida to‘liq xususiy sektorga berilishi ta’kidlandi. Shuningdek, prezidentimiz biolaboratoriya va “o‘simliklar klinikalari”ni tashkil etib, malakali agronom va entomologlarni jalb etib, dalagacha yetib boradigan xizmatlar tizimini yo‘lga qo‘yish zarurligini ta’kidladi. Bunda har bir hududning iqlimi va sharoitidan kelib chiqib, ish tutish talabi qo‘yildi. Masalan, Surxondaryoda “beda qandalasi”, Buxoroda “vilt”, boshqa viloyatlarda “pomidor kuyasi” tarqalgan. Shuningdek, o‘simliklarni himoya qilish bo‘yicha xorij tajribasini o‘rganish muhimligi aytildi.

Soha rivojini moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga “Agrobank” mas’ul etib belgilandi. Zamonaviy laboratoriyalar tashkil etish, uskuna va texnikalar sotib olish hamda xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarning aylanma mablag‘i uchun birinchi bosqichda 150 mlrd. so‘mlik kredit liniyasi ochish vazifasi qo‘yildi.

O‘simliklarni himoya qilish sohasida xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash masalasiga ham to‘xtalib o‘tildi. Tadbirkorlar xarid qiladigan laboratoriya jihozlari va boshqa uskunalar bo‘yicha kredit

foizining asosiy stavkadan oshgan qismi budjetdan qoplab berilishi hamda Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasidan 50 foizgacha bo‘lgan qismiga kafillik ajratilishi qayd etildi. Shuningdek, tadbirkorlar tomonidan tuproq tarkibi va o‘simliklarni laboratoriyalarda tahlil qilish bo‘yicha fermer va dehqonlarga ko‘rsatilayotgan xizmatlar qiymatining 30 foizi budjetdan qoplab beriladi. Biologik va kimyoviy xizmat ko‘rsatadigan tadbirkorlarga amaldagi soliq stavkalari 50 foizga kamaytiriladi. Prezidentimiz sohada ilm-fanni rivojlantirish va kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e’tibor qaratish lozimligini ta’kidladi.

2021-yil 3-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko‘rsatishni yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi PF-6159-sonli farmoni qabul qilindi.

Farmonga ko‘ra, quyidagilar tashkil etilishi nazarda tutilgan:

- 2021-2022-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzurida tashkil etilgan Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar Milliy markazining Respublika agroxizmatlar markazi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar agroxizmatlar markazlari;
- 2022-yildan boshlab bosqichma-bosqich qishloq tumanlarida Milliy markazning tuman agroxizmatlar markazlari.

Farmon bilan Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar tizimini 2021-2025-yillarda ustuvor rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Konsepsiya doirasida, Milliy markaz huzurida 100 dan ortiq xizmatlarni ko‘rsatish tizimini yo‘lga qo‘yish nazarda tutilgan.

Respublika ASMning 4-sohasiga qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlovchi, qayta ishlovchi va iste’molchilarga yetkazib beruvchilar kiradi. Mulkchilik va xo‘jalik yuritish shaklidan qat’i nazar qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash va tayyor mahsulotni iste’molchilarga yetkazib berish bilan shug‘ullanuvchilar agrosanoat majmuasining to‘rtinchi sohasiga kiradi. Jumladan, “O‘zdonmahsulot” hissadorlik jamiyati tarkibiga kiruvchi donni qabul qiluvchi va saqlovchi korxonalar, donni qayta ishlovchi zavodlar va un tegirmonlari, non va non mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar hamda tayyor mahsulotni sotuvchilar agrosanoat majmuasining to‘rtinchi bo‘g‘iniga kiradi.

Agrosanoat majmuasi ko‘rinishida integratsiyani tashkil etishdan ko‘zlangan asosiy maqsad qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berish, shu orqali qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish va uning samaradorligini oshirishdir. O‘z navbatida, qishloq xo‘jaligi

mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmining ko‘payishi tarmoqda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish imkonini beradi hamda mos ravishda ishlab chiqarish vositalariga bo‘lgan talabni oshiradi, xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarning xizmatlariga talab ortadi hamda pirovard mahsulotni tayyorlash, saqlash, tashish, qayta ishlash va sotish bo‘yicha tarmoqlarni rivojlantirishni talab qiladi.

3. Agrosanoat majmuasining asosiy vazifalari.

Respublika agrosanoat majmuasi o‘z maqsadiga erishishi uchun quyidagi asosiy vazifalarni yechilishini taqozo etadi:

- respublika agrosanoat majmuasining maqsadini to‘liq va samarali bajarilishini taminlay olish qobilyatiga ega bo‘lgan tarkibning (ya’ni tarmoqlarni) maqsadga muvofiq holda tashkiliy, texnologik, texnikaviy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan o‘zaro uzviy bog‘lanishini ta’minlash;
- majmua tarkibidagi korxonalarni barcha omillarni e’tiborga olgan holda maqsadga muvofiq oqilona joylashtirish hamda ularning ixtisoslashtirilishi va integratsiyalashuvini ta’minlash;
- samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash maqsadida barcha korxonalarni zamonaviy texnikalar bilan jihozlash, ularda ilg‘or, innovatsion texnologiyalarni joriy etish;
- agrosanoat majmuasi tarkibidagi korxonalar ixtiyoridagi barcha resurslardan (tabiiy, kapital, mehnat) tadbirkorlik bilan oqilona foydalanib, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, mexanizatsiyalash, elektrlashtirish va kimyolashtirish orqali doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlarni kamaytirib, ekologik talablarga javob beradigan mahsulotlarni zarur miqdorda ishlab chiqarish, ularni iste’molchilarga yetkazib berib, ko‘proq foyda olishni ta’minlash;
- agrosanoat majmuasi tarkibidagi korxonalar o‘rtasida ular ishlab chiqarayotgan mahsulotlarini o‘zaro samarali ayriboshlanishini ta’minlaydigan narxlarning bozor tamoyillari asosida maqsadga muvofiq shakllanishini ta’minlash;
- majmuada faoliyat ko‘rsatayotgan rahbar, ishchi va xizmatchilarning malakalarini oshirish, ular mehnatlarining miqdoriga, pirovard natijasiga ko‘ra rag‘batlantirilishini rivojlantirish va boshqalar.

U yoki bu tarmoqni agrosanoat majmuiga tegishli deyish ancha murakkab masala bo‘lib, sanoatning ayrim tarmoqlari qishloq xo‘jaligi yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatadi. Ularning ko‘pchiliklari esa qishloq xo‘jaligi uchun qisman mahsulot ishlab chiqaradi. Agrosanoat majmuini

yagona bir tizim shaklida xarakterlab shuni ta’kidlash lozimki, qishloq xo‘jaligi sanoat, qurilish, transport, savdo va xalq xo‘jaligining boshqa tarmoqlari bilan doimo mustahkam aloqada bo‘lib kelgan. Lekin, agrosanoat majmuining tashkil topishi qishloq xo‘jaligining yagona takror ishlab chiqarish jarayonida birlashgan aralash tarmoqlar bilan aloqasining sifat jihatdan yangi darajadagi ko‘rinishidir.

Agrosanoat majmui shakllanishining asosi bo‘lib agrosanoat integratsiyasi hisoblanadi. U qishloq xo‘jaligi, unga xizmat qiluvchi va uning mahsulotini iste’molchiga yetkazib berish bilan shug‘ullanadigan boshqa tarmoqlar bilan aloqalarini kuchaytirish jarayonini ifodalaydi. Agrosanoat integratsiyasi ijtimoiy mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanishining natijasi hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligining tarmoqlararo mustahkam aloqasi ham shu asosda o‘rnatiladi. Ana shundan, ishlab chiqarish-texnikaviy, agrokimyo xizmati, meliorativ ishlar, veterinariya xizmati kabi faoliyatlar bilan shug‘ullanuvchi tarmoq va korxonalarning vazifasi kelib chiqadi. Qishloq xo‘jaligining agrosanoat majmuining boshqa tarmoqlari bilan mahsulotni sotish va qayta ishlash sohasidagi aloqalari yanada kuchayadi.

Asosiy fondlarni ishlab chiqaruvchi tarmoqlar, o‘z mahsulotlarini qishloq xo‘jaligiga va qayta ishlovchi korxonalarga yetkazib beradilar. Ularning e’tibori nafaqat majmuaning har bir bo‘g‘inining talabini qondirishga, balki ularning agrosanoat ishlab chiqarishining bosqichlari bo‘yicha nisbatlarining optimalligini ta’minlashga ham qaratilgandir. Aks holda, agrosanoat majmui rivojlanishida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tashish, saqlash va iste’molchiga yetkazib berish jarayonida katta yo‘qotishlarga olib keluvchi nomutanosiblikni (disproporsiyani) keltirib chiqaradi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tayyorlashni, saqlashni va qayta ishlashni amalga oshiruvchi agrosanoat majmuining uchinchi sohasi tarmoqlari moddiy-texnika bazasini takomillashtirish zarurdir. Bu soha, fond etkazuvchi tarmoqlar bilan, shuningdek o‘simlikchilik va chorvachilik tarmoqlari bilan tarmoqlararo aloqalarida optimal nisbatga rioya qilishi zarur.

Agrosanoat majmui tarmoqlari o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar mahsulot va xizmatlarga o‘rnatiladigan narxlarning optimal darajasi yordamida amalga oshiriladi. Ko‘pincha sanoat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari narxlari o‘rtasidagi farq iqtisodiy aloqani qiyinlashtiradi va ishlab chiqarish hajmini o‘stirishga va samaradorlikni yuksaltirishga

imkon bermaydi. Ma’lumki qishloq xo‘jaligi korxonalari yil davomida ayrim aylanma vositalarga bo‘lgan talabini qondirish uchun mineral o‘g‘itlarga, neft mahsulotlariga, elektr energiyasi ta’minotiga va boshqa shu kabilarga ehtiyoj sezadi va shu sababdan “O‘zkimyosanoat”, “O‘zneftmahsulot”, “O‘zagromashservis”, “O‘zbekenergo” kabi kompaniyalar tizimidagi tashkilotlar bilan ishlab chiqarish-iqtisodiy aloqalarni amalga oshiradilar.

Agrosanoat majmuiga kiruvchi barcha tarmoqlarning eng asosiy vazifasi –pirovard mahsulotga ketgan jami harajat sarfini pasaytirish. Qishloq xo‘jaligida pirovard mahsulot deganda, tarmoqdan tashqari bevosita iste’molchiga yoki sanoatda qayta ishlash uchun sotiladigan mahsulot tushuniladi.

Agrosanoat majmuasi mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Oziq-ovqat xavfsizligi – tibbiy me’yorlar darajasida aholini muhim iste’mol mahsulotlari bilan uzluksiz ravishda kafolatli ta’minlash imkoniyatidir. Oziq-ovqat xavfsizligi keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va ekologik omillarga bog‘liq bo‘lib, mamlakat rivojlanishining asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar – oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va yetishmayotgan qismini import qilish bilan bog‘liq bo‘lgan hamda aholining barcha qatlamlarini u bilan ta’minlash bilan bog‘liq masalalarni qamrab oladi. Ekologik omil atrof-muhitni saqlash va aholi sog‘ligi uchun xavfsiz bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni ta’minlaydigan tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

Oziq-ovqat xavfsizligining to‘rtta tarkibiy qismlari mavjud:

- oziq-ovqatning mavjudligi;
- aholining xarid qilish qobiliyati;
- oziq-ovqatdan foydalanish;
- oziq-ovqat bilan ta’minlashning barqarorligi.

Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligining barcha tarkibiy qismlari bo‘yicha davlat siyosati ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda.

Aholi sonining o‘sishi, yer, suv va energiya resurslariga bo‘lgan talabning ortishi, shuningdek, iqlimning keskin o‘zgarishi oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga ta’sir etuvchi asosiy omillardir. So‘nggi yillarda mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash bo‘yicha bir qator choralar amalga oshirilishi natijasida O‘zbekiston dunyoda egallagan o‘rnini mustahkamlashga erishdi va bosqichma-bosqich global reytinglarda o‘z mavqeyini yaxshilab oldi. O‘zbekiston

Respublikasi 2018-yilda Global ochlik indeksi bo‘yicha 119 mamlakat orasida 52-o‘rinni egallab, 12,1 ko‘rsatkich bilan “mo‘tadil” darajaga erishdi. Biroq, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami uchun oziq-ovqat mahsulotlari ta’minoti barqarorligiga erishish, kam daromadli oilalarning xarid qobiliyatini oshirish, mahsulotlar narxi va miqdori keskin o‘zgarishining oldini olish hal etilishi zarur bo‘lgan muammolardan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-sonli farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi”da ta’kidlanishicha 2018-yil holatiga mamlakatimizda aholi o‘rtasida to‘yib ovqatlanmaydiganlar ulushi 6,3 foizni tashkil etgan va ushbu ko‘rsatkichni 2030-yilga qadar to‘liq bartaraf etish nazarda tutilgan. O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishi sifatida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va iste’mol ratsionini yaxshilash, talab etiladigan miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni nazarda tutuvchi oziq-ovqat xavfsizligi davlat siyosatini ishlab chiqish va joriy etish belgilangan.

Mazkur ustuvor yo‘nalishning asosiy maqsadi – respublikaning barcha aholisi oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan davlat siyosatini ishlab chiqish va uni samarali amalga oshirishdan iborat.

Ustuvor yo‘nalish aholini barqaror narxlardagi xavfsiz va sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashga qaratilgan. Bu esa mamlakatimizda BMTning 2- Barqaror rivojlanish maqsadlari (Sustainable Development Goals) “Ochlikka barham berish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, iste’molni yaxshilash va barqaror qishloq xo‘jaligini targ‘ib qilish”da belgilangan maqsadlarga erishishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan:

- aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini oziq-ovqat bilan ta’minlash mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarini ijtimoiy obyektlar bilan integratsiyalash;
- boshoqli don yetishtirishda davlat intervension xaridlar tizimini joriy qilish, qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari narxlarini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmidan bosqichma-bosqich voz

kechish hamda boshoqli donni kvota asosida bozor narxlarida sotib olish mexanizmini joriy etish;

- xalqaro darajada tan olingan uslubiyatlar va ilg‘or tajribalar asosida oziq-ovqat xavfsizligini baholash tizimini joriy qilish hamda doimiy monitoring qilish;
- ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulot turlari ishlab chiqarishni intensivlashtirishga doir tarmoq dasturlarini ishlab chiqish;
- chorvachilikda mahsuldorlikni oshirish, baliq va parranda go‘shti, shuningdek, sut ishlab chiqarishni barqaror intensivlashtirishga qaratilgan tadqiqot ishlarini olib borish.

O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasidagi aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash yo‘nalishidagi chora-tadbirlarda boshoqli donning o‘rtacha hosildorligini 2021-yilda 60 sentner/gektarga, 2025-yilda 70 sentner/gektarga va 2030-yilda 75 sentner/gektarga oshirish rejalashtirilgan. Sigirlarning o‘rtacha sut mahsuldorligini esa 2021-yilda 2 700 kg/ bosh, 2025-yilda 3100 kg/ bosh va 2030-yilda 3500 kg/ boshga oshirish nazarda tutilgan. Ushbu ko‘rsatkich 2018-yilda 2320 kg/ boshni tashkil etgan edi.

Qisqacha xulosalar

Mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, ya’ni aholining iste'mol tovarlariga nisbatan o‘sib borayotgan talabini qondirish muhum ahamiyatga egadir. Aholining oziq-ovqat hamda nooziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘liq ta’minlanishi natijasida ularning farovon hayot kechirishlari uchun asos yaratiladi. Bu muammoni hal etishda agrosanoat majmuasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiyot tarmoqlarining, shu jumladan, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining samaradorligi ko‘p jihatdan boshqa tarmoqlar ishlab chiqarish faoliyatiga chambarchas bog‘liq. Sababi, bir tarmoqning pirovard mahsuloti boshqa bir tarmoq uchun ishlab chiqarish vositasi yoki xom-ashyosi bo‘lib xizmat qiladi va uning tarmoq uchun birlamchi qayta ishlash yoki mahsulotni iste’molchiga yetkazib berish xizmatini vujudga keltiradi.

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini rivojlantirish, qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini yanada oshirishda agrosanoat majmuasining ahamiyati kattadir.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Agrosanoat majmuasining mohiyati nimadan iborat?
2. Agrosanoat majmuasini tashkil etishning zarurligi nimadan iborat?
3. Agrosanoat majmuasining maqsadi nimadan iborat?
4. Agrosanoat majmuasining vazifalari nimadan iborat?
5. Agrosanoat majmuasining tarkibiy tuzilishi qanday?
6. Agrosanoat majmuasining tarkibiga kiruvchi sohalar o‘rtasida qanday aloqalar mavjud?
7. Agrosanoat majmuasining ijtimoiy samaradorligi qanday aniqlanadi?
8. Agrosanoat majmuasining iqtisodiy samaradorligi qanday aniqlanadi?
9. Agrosanoat majmuasining ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari nimalardan iborat?
10. Oziq-ovqat xavfsizligining mohiyati nimadan iborat?
11. Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda agrosanoat majmuasining o‘rni qanday?
12. Mamlakatimiz agrosanoat majmuasini yanada rivojlantirish borasida qanday tadbirlar amalga oshirilmoqda?

BOB YUZASIDAN AMALIY TOPSHIRIQLAR:

1-topshiriq:

Klaster usuli yordamida mamlakatimiz agrosanoat majmuasining tarkibini ko‘rsatib berish.



2-topshiriq:

SWOT tahlil usuli yordamida mamlakatimiz agrosanoat majmuasining hozirgi rivojlanish holatini tahlil qilish. Bunda doskaga SWOT tahlil jadvali chiziladi va har bir talaba alohida ushbu tahlilni amalga oshiradi.

Mamlakatimiz agrosanoat majmuasining hozirgi rivojlanish holati

S (strength)	W (weakness)
O (opportunity)	T (threat)

3-topshiriq:

FSMU texnologiyasi yordamida "Mamlakatimizda agrosanoat majmuasining samaradorligini yanada oshirish qanday omillarga bog‘liq?" ekanligini aniqlash.

Yo‘naltiruvchi so‘zlar: Xizmat ko‘rsatish sohalari jihatidan, vaqt va resurslarni tejash, o‘zaro aloqalarni integratsiyalash jihatdan.

	Mamlakatimizda agrosanoat majmuasining samaradorligini yanada oshirish qanday omillarga bog‘liq?
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating	
(M) Ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Agrosanoat majmuasining mohiyati, tarkibi va vazifalari.
2. Agrosanoat majmuasining ijtimoiy samaradorligi.
3. Agrosanoat majmuasining iqtisodiy samaradorligi.
4. Oziq-ovqat xavfsizligining mohiyati va uni ta’minlashda agrosanoat majmuasining o‘rni.

4-BOB: QISHLOQ XO‘JALIGIDA YER RESURSLARI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

1. Yer resurslarining qishloq xo‘jaligidagi ahamiyati va o‘ziga xos xususiyatlari.
2. Yerdan foydalanish holati va samaradorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar, ularni aniqlash tartibi.
3. Yer to‘g‘risidagi me’yoriy hujjatlar. Yer monitoringi va davlat yer kadastri.
4. Qishloq xo‘jaligida yer resursidan foydalanish samaradorligini yanada oshirish yo‘llari.

Tayanch iboralar: yer resursi, yer toifalari, qishloq xo‘jaligi yerlari, yer unumdorligi, yer monitoringi, davlat yer kadastri, yerning me’yoriy qiymati, rekultivatsiya.

1. Yer resurslarining qishloq xo‘jaligidagi ahamiyati va o‘ziga xos xususiyatlari.

Yer tabiat mahsuli bo‘lib, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida muhim ahamiyatga ega. Chunki u mazkur tarmoqning asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi. Yerga urug‘, ko‘chat ekib, ishlov berish natijasida turli xildagi mahsulotlar yetishtiriladi. Demak, tarmoqda yetishtiriladigan barcha turdagi mahsulotlar yerdan, suvdan foydalangan holda olinadi. Ingliz iqtisodchisi Uilyam Petti yer resursiga “yer barcha boyliklarning onasidir” - deb ta’rif bergan.

Yerdan foydalanishda uning quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarini e’tiborga olish maqsadga muvofiqdir:

a) yerning tabiat mahsuli ekanligi. Boshqa asosiy vositalar, ya’ni binolar, inshootlar, kombaynlar, traktorlar va boshqalar inson mehnatining mahsulidir. Zaruriyat bo‘lganda ular inson tomonidan ishlab chiqarilishi mumkin, lekin yerni inson yarata olmaydi;

b) yer maydonining cheklanganligi va takror ishlab chiqarilmasligi. Ona zamin tabiatan cheklangan, uning maydonini inson kengaytira olmaydi. Chunki u tabiat mahsuli hisoblanadi. Boshqa asosiy vositalarni, masalan traktorlarni, mashinalarni talabni qondirish maqsadida ko‘plab ishlab chiqarish mumkin;

d) yer – qishloq xo‘jaligining abadiy ishlab chiqarish vositasidir. Respublika hududida mavjud bo‘lgan yerlardan qishloq xo‘jalik

mahsulotlari yetishtirishda bizdan oldingi avlodlar foydalangan, hozirgi davrda biz foydalanmoqdamiz, kelajakda esa avlodlarimiz foydalanadi. Jamiyat rivojlanishi natijasida ayrim ishlab chiqarish vositalari takomillashtirilishi natijasida o‘z o‘rnini boshqasiga bo‘shatib beradi. Masalan, bir paytlar yerni shudgorlashda qoramollar va omochdan foydalanilgan bo‘lsa, keyinchalik fan-texnika taraqqiyoti natijasida qudratli traktorlar va pluglar ularning o‘rnini egalladi. Lekin yer qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish vositasi sifatida abadiy qolaveradi, chunki uni boshqa vosita bilan almashtirib bo‘lmaydi;

e) yerni qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish maqsadida bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirib bo‘lmasligi. Yerdan joylashgan o‘rnida oqilona foydalanish mumkin. Lekin ishlab chiqarish vositalari bo‘lgan mashina va traktorlarni talab etilgan joyga olib borib, turli xildagi ishlarni amalga oshirish, bino-inshootlarni ham talab etilgan joyga qurish mumkin;

f) yerning yuqori qatlami hisoblangan tuproq unumdorligining mavjudligi. Asrlar davomida tashqi ta’sirlar, ya’ni quyosh nuri, yog‘ingarchilik, chirindilar tushishi va boshqalar ta’sirida yerning tabiiy unumdorligi shakllanadi. Tuproqning tabiiy unumdorligi - tabiat mahsulidir. U tabiatning ta’siri natijasida uzoq yillar mobaynida shakllanadi. Uning holati quyosh nuri hamda yog‘ingarchilik miqdoriga, shamol va suvlarning ta’siriga bog‘liqdir. Sayyoramizdagi yerlarning tabiiy unumdorlik darajasi turlicha bo‘ladi. Agar tuproqqa vaqtida ishlov berilsa, o‘g‘itlansa, uning unumdorlik darajasi ortib borish xususiyatiga ega. Lekin boshqa asosiy vositalar ishlab chiqarish jarayonida qatnashishi oqibatida jismoniy jihatdan eskiradi. Ular vaqt o‘tishi bilan fan-texnika taraqqiyoti natijasida ma’naviy jihatdan ham eskiradi. Lekin yerdan oqilona, samarali foydlanilsa, u yaroqsiz holga kelmaydi, unumdorligi oshib borishi mumkin. Ammo bu, uning unumdorligi cheksiz oshib borishini anglatmaydi. Shunday ekan, yerning unumdorligidan tadbirkorlik bilan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

1998-yil 30-aprelda qabul qilingan Yer Kodeksining 8-moddasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasida yer fondi yerlardan foydalanishning belgilangan asosiy maqsadiga ko‘ra quyidagi toifalarga bo‘linadi:

1) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar - qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yoki ana shu maqsadga mo‘ljallangan yerlar. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar sug‘oriladigan va sug‘orilmaydigan (lalmikor) yerlar, haydaladigan yerlar, pichanzorlar, yaylovlar, ko‘p yillik mevali dov-daraxtlar va tokzorlar egallagan yerlarga bo‘linadi;

2) aholi punktlarining (shaharlar, posyolkalar va qishloq aholi punktlarining) yerlari - shaharlar va posyolkalar, shuningdek qishloq aholi punktlari chegarasi doirasidagi yerlar;

3) sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar - ko‘rsatilgan maqsadlarda foydalanish uchun yuridik shaxslarga berilgan yerlar;

4) tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish, rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar - alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar egallagan, tabiiy davolash omillariga ega bo‘lgan yerlar, shuningdek ommaviy dam olish va turizm uchun foydalaniladigan yerlar;

5) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar - tarixiy-madaniy yodgorliklar joylashgan yerlar;

6) o‘rmon fondi yerlari - o‘rmon bilan qoplangan, shuningdek o‘rmon bilan qoplanmagan bo‘lsa ham, o‘rmon xo‘jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yerlar;

7) suv fondi yerlari - suv obyektlari, suv xo‘jaligi inshootlari egallagan yerlar va suv obyektlarining qirg‘oqlari bo‘ylab ajratilgan mintaqadagi yerlar;

8) zahira yerlar.

O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy chegarasidagi yer maydoni 44896,9 ming gektarni tashkil qiladi. 2020-yil 1-yanvar holatiga qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan shug‘ullanuvchilar ixtiyoridagi yer maydoni 20761,6 ming gektarni tashkil etgan (4.1-jadval).

4.1-jadval

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan shug‘ullanuvchilar ixtiyorida bo‘lgan yerlar tarkibi, 2020-yil 1-yanvar holatiga, ming gektar

	Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan shug‘ullanuv-chilar ixtiyorida bo‘lgan jami maydon	Shundan:		
		Qishloq xo‘jaligi yerlari	Tomorqa sifatida foydalanila-digan yerlar	Boshqalar (o‘rmonzor va boshqalar)
O‘zbekiston Respublikasi	20761,6	16025,6	644,6	4091,4
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	3260,3	2200,0	40,4	1019,9
Andijon	363,7	249,7	43,4	70,6
Buxoro	3441,7	2582,0	56,9	802,8
Jizzax	1400,7	1139,1	31,1	230,5
Qashqadaryo	2322,7	1944,1	73,8	304,8
Navoiy	4501,8	3988,7	24,3	488,8
Namangan	490,0	279,6	47,4	163,0
Samarqand	1476,4	1201,6	79,5	195,3
Surxondaryo	1357,1	1000,3	58,4	298,4
Sirdaryo	370,2	281,6	17,3	71,3
Toshkent	778,2	584,5	55,7	138,0
Farg‘ona	561,1	313,8	65,0	182,3
Xorazm	437,7	260,6	51,4	125,7

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

O‘zbekiston Respublikasining yer fondi Kadastr agentligi tomonidan har yili 1-yanvar holati bo‘yicha korxona, muassasa va tashkilotlarning yerlaridagi barcha o‘zgarishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar, xo‘jaliklar tomonidan yer hisobi hujjatlari asosida tuzilgan hamda tuman, shahar va viloyat hokimlarining qarorlari bilan tasdiqlangan yillik yer hisobotlarini respublika bo‘yicha umumlashtirish natijasida tuziladi.

2020-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi korxonalari va tashkilotlari yerlarning umumiy maydoni mamlakatimiz yer fondining 46,2 foizini tashkil qiladi.

4.2-jadval

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan shug‘ullanuvchi yerdan foydalanuvchilar ixtiyoridagi yerlarning tarkibi (1 yanvar holatiga, ming gektar)

	Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan shug‘ullanuvchi yerdan foydalanuvchilar ixtiyoridagi yer maydoni	shu jumladan:			
		haydala-digan yerlar	ko‘p yillik o‘simlik-lar	pichanzor va yaylovlar	boshqa yerlar
2017	20174,0	4014,8	371,2	11020,6	4767,4
2018	20261,6	3999,0	376,8	11091,5	4794,3
2019	20236,3	3988,5	383,1	11028,3	4836,4
2020	20761,6	3998,5	388,7	11559,7	4814,7

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2020-yilda 2017-yilga nisbatan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan shug‘ullanuvchi yerdan foydalanuvchilar ixtiyoridagi yer maydoni 587,6 ming gektarga ko‘paygan. Shu davrda haydaladigan yerlar 16,3 ming gektarga kamaygan, ko‘p yillik o‘simliklar maydoni 17,5 ming gektarga, pichanzor va yaylovlar maydoni 539,1 ming gektarga, boshqa yerlar esa 47,3 ming gektarga ko‘paygan.

Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida sug‘oriladigan yerlar muhim ahamiyatga ega. Chunki mamlakatimiz iqlim sharoitida dehqonchilik asosan sug‘oriladigan maydonlarda amalga oshiriladi. Turli mavsumlarda yog‘ingarchiliklar ko‘rinishida tushadigan tabiiy namgarchilik darajasi o‘simliklarning butun vegetatsiya davri davomida suvga bo‘lgan ehtiyojini to‘liq qondirmaydi. Shu sababli mamlakatimizda dehqonchilik mahsulotlari asosan sug‘oriladigan ekin maydonlaridan olinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2020-yil holatiga mamlakatimizda 4210,1 ming

gektar sug‘oriladigan yerlar mavjud bo‘lib, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning 20,3 foizini tashkil etadi. So‘nggi 15 yil mobaynida aholi jon boshiga sug‘oriladigan yerlar 24 foizga (0,23 gektardan 0,16 gektarga) kamaygan. Mazkur holat aholi sonining o‘sishi, suv ta’minoti hajmining qisqarishi va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning boshqa yer toifalariga o‘tishi natijasida yuzaga kelgan. Bu mamlakatimizda mavjud sug‘oriladigan maydonlardan samarali foydalanish lozimligini anglatadi. 2020-yil holatiga jami qishloq xo‘jaligi yerlari tarkibida sug‘oriladigan yerlarning ulushi ko‘rsatkichi bo‘yicha Farg‘ona (95,1 foiz), Sirdaryo (93,4 foiz), Andijon (92,6 foiz), Xorazm (84,2 foiz) va Namangan (83,2 foiz) viloyatlari yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lsa, Buxoro (8,8 foiz) va Navoiy (2,7 foiz) viloyatlari eng past ko‘rsatkichga ega. Surxondaryo viloyatida esa ushbu ko‘rsatkich 27,0 foizni tashkil etgan. Buxoro va Navoiy viloyatlaridagi qishloq xo‘jalik yerlari tarkibida yaylovlar asosiy salmoqni egallaydi.

Mamlakatimizda sug‘oriladigan yerlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar 4.3-jadvalda keltirilgan.

4.3-jadval

Sug‘oriladigan yerlar, barcha toifadagi xo‘jaliklarda, ming gektar

	2016	**2017**	**2018**	**2019**
Sug‘oriladigan yerlar, jami	4205,8	4198,9	4191,2	4210,1
Sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yerlari	3708,8	3702,4	3694,6	3694,8
Sh.j.: qishloq xo‘jaligi ekinlari ekin maydoni	3381,1	3143,4	3095,5	2984,7
Shundan:				
donli ekinlar	1440,3	1397,5	1400,2	1331,1
texnik ekinlar	1293,3	1225,6	1137,1	1078,0
kartoshka va sabzavotlar	346,2	318,5	353,5	358,5
ozuqa ekinlari	301,3	201,8	204,7	217,1

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan shug‘ullanuvchi yerdan foydalanuvchilar ixtiyorida bo‘lgan sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yerlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar 4.4-jadvalda keltirilgan.

4.4-jadval

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan shug‘ullanuvchi yerdan foydalanuvchilar ixtiyorida bo‘lgan sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yerlari, 1-yanvar holatiga, ming gektar

	2017	**2018**	**2019**	**2020**	**2020-yilda 2017-yilga nisbatan o‘zgarish, +,-**
O‘zbekiston Respublikasi	3708,8	3702,4	3694,6	3694,8	-14,0
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	468,5	467,1	466,5	466,3	-2,2
Andijon	233,4	232,5	232,0	231,1	-2,3
Buxoro	226,4	226,0	226,0	226,6	+0,2
Jizzax	276,3	275,8	274,4	277,6	+1,3
Qashqadaryo	457,9	457,5	457,3	456,3	-1,6
Navoiy	107,0	106,9	107,0	107,1	+0,1
Namangan	235,1	234,5	233,5	232,7	-2,4
Samarqand	309,3	309,4	308,5	308,5	-0,8
Surxondaryo	270,1	269,9	269,6	269,6	-0,5
Sirdaryo	265,5	264,9	263,1	263,0	-2,5
Toshkent	338,9	338,7	337,9	338,4	-0,5
Farg‘ona	299,3	298,5	298,3	298,3	-1,0
Xorazm	220,7	220,6	220,4	219,3	-1,4
Toshkent shahri	0,4	0,1	0,1	-	-0,4

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan shug‘ullanuvchi yerdan foydalanuvchilar ixtiyorida bo‘lgan sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yerlari miqdori 2020-yilda 2017-yilga nisbatan 14,0 ming gektarga kamaygan. Mamlakatimiz miqyosida faqatgina Jizzax (1300 gektar), Buxoro (200 gektar) va Navoiy (100 gektar) viloyatlarida sug‘oriladigan maydonlar 2020-yilda 2017-yilga nisbatan ko‘paygan. Qolgan barcha viloyatlarda sug‘oriladigan maydonlar kamayganligini ko‘rishimiz mumkin. Ayniqsa Sirdaryo (2500 gektar) va Namangan (2400 gektar) viloyatlarida ushbu ko‘rsatkich yuqori bo‘lgan. Mamlakatimizda aholi sonining ko‘payishi evaziga oziq-ovqat mahsulotlariga va sanoat tarmoqlarida xomashyoga bo‘lgan talabning ortib borayotganligini inobatga olgan holda ushbu holatga e’tibor berilishi lozim.

Qishloq xo‘jaligida foydalanilayotgan sug‘oriladigan ekin maydonlari hajmini monitoring qilib borish, uning boshqa maqsadlarga

ilmiy asoslanmagan holda ajratilishi ustidan nazoratni kuchaytirish lozim. Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash uchun mavjud suv resurslaridan samarali foydalanish va tejamkor sug‘orish texnologiyalarini joriy etish evaziga sig‘oriladigan ekin maydonlarini ko‘paytirish maqsadga muvofiq.

Mamlakatimizda ekin maydonlarining boshqa maqsadlarga ajratilishi natijasida ularning umumiy maydonida kamayish kuzatilgan. 2016-yilda barcha turdagi xo‘jaliklarda umumiy ekin maydoni 3706,7 ming gektarni tashkil etgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich 2019-yilda 3309,4 ming gektarni tashkil etgan (4.5-jadval).

4.5-jadval

Jami ekin ekilgan maydonlar tarkibi (barcha toifadagi xo‘jaliklar)

	2016	**2017**	**2018**	**2019**
Jami ekin ekilgan maydon	3706,7	3474,5	3396,0	3309,4
Donli ekinlar	1689,4	1655,6	1643,2	1578,3
shu jumladan :				
boshoqli don	1549,2	1512,6	1495,4	1409,9
shundan: bug‘doy	1446,1	1411,1	1386,3	1316,1
makkajo‘xori don uchun	39,9	37,8	40,8	44,1
sholi	72,8	73,1	46,8	71,0
dukkakli don	23,7	28,0	56,1	49,2
Texnik ekinlar	1333,9	1253,3	1150,5	1099,5
shu jumladan: g‘o‘za	1265,1	1201,2	1108,2	1050,6
Kartoshka	84,6	78,8	86,8	89,6
Sabzavotlar	206,0	189,7	219,0	220,0
Poliz	58,8	52,3	52,6	53,4
Ozuqa ekinlari	333,5	243,4	242,7	267,6

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

Ushbu jadval ma’lumotlaridan so‘nggi yillarda mamlakatimizda kartoshka va sabzavotlar ekin maydonlari ko‘payganligini ko‘rishimiz mumkin.

Ekin maydonlarining kamayishiga ikki turdagi omillar sabab bo‘lmoqda:

- obyektiv omillar. Bunda mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi yerlarining boshqa toifaga o‘tishi obyektiv zaruriyat yuzasidan yuz bermoqda, ya’ni urbanizatsiya jarayonining amalga oshishi, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish korxonalari qurilishi, magistral yo‘llar

o‘tishi, ijtimoiy infratuzilma obyektlari barpo etilishi natijasida ekin maydonlarining miqdori kamaymoqda.

- subyektiv omillar. Bunda joylardagi mutasaddilarning aybi bilan qishloq xo‘jaligi yerlari aholiga tomorqa sifatida noqonuniy berilishi, turli obyektlarning ekin maydonlarida ilmiy asoslanmagan holda joylashtirilishi natijasida ham ekin maydonlari kamayishiga olib kelgan.

Aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirish va mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirish uchun sabzavotlar va poliz ekin maydonlarini, chorvachilikni barqaror rivojlantirish uchun esa ozuqa ekinlari maydonini ko‘paytirish maqsadga muvofiq.

2. Yerdan foydalanish holati va samaradorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar, ularni aniqlash tartibi.

Yerning qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishidagi ahamiyatini inobatga olib, ulardan foydalanishning holati va samaradorligi ustidan nazorat qilib borish zarur. Bunda quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalanish mumkin:

a) umumiy yer fondidan foydalanish koeffitsiyenti. Uning darajasini aniqlash uchun qishloq xo‘jaligida haqiqatda foydalanilgan yer maydonini foydalanish mumkin bo‘lgan yer maydoniga taqsimlash lozim. Buni quyidagi tenglik yordamida aniqlash mumkin:

$$YFK = \frac{FY}{FMY}$$

Bunda: *YFK* - umumiy yer fondidan foydalanish koeffitsiyenti (foizi);

FY - qishloq xo‘jaligida foydalanilgan yer maydoni, ga;

FMY - foydalanilishi mumkin bo‘lgan yer maydoni, ga.

Bu ko‘rsatkichni aniqlash natijasida yerdan foydalanishning to‘liqlik darajasi aniqlanadi. Uning darajasi 1 dan ortiq bo‘lmaydi, imkon qadar 1 ga teng yoki 1 ga yaqin bo’lishi maqsadga muvofiq. Bu ko‘rsatkichni aniqlash natijasida tarmoqda (xo‘jalikda) qancha yerdan foydalanilgan va qanchasidan foydalanilmaganligi aniqlanadi. Shundan so‘ng bunday holning sabablari aniqlanib, ularni bartaraf etish chora-tadbirlari ishlab chiqiladi.

b) yer maydonidan foydalanishlar soni. Uni aniqlash uchun haqiqatda urug‘ ekilgan maydonni mavjud ekin maydoniga taqsimlanadi. Bunda quyidagi tenglikdan foydalanish mumkin:

$$YFS = \frac{UEM}{UM}$$

Bunda: *YFS* - yerdan foydalanishlar soni, ya’ni xo‘jalikda mavjud yer maydonlaridan foydalanishlar soni;

UEM - bir yil mobaynida urug‘ ekilgan maydon, ga;

UM - umumiy ekin maydoni, ga;

Bu ko‘rsatkich yordamida bir maydonga necha marta ekin ekib, foydalanilganlik darajasi, ya’ni soni aniqlanadi. Demak, uning soni birdan ko‘p bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Buning uchun mavjud bo‘lgan yerlardan bir necha marta ekin ekib, hosil olishga intilish lozim.

d) ekin maydonlarining mahsuldorligi. Bu ko‘rsatkich asosan ekin turlari hamda umumiy maydon bo‘yicha, natura va qiymat ko‘rinishlarida aniqlanadi, ya’ni ular yordamida 1 gektar foydalanilgan maydondan qancha miqdorda (sentner, tonna) hamda necha so‘mlik mahsulot yoki foyda olinganligi aniqlanadi. Buning uchun quyidagi tenglikdan foydalanish mumkin:

$$EMM = \frac{YH}{EM}$$

Bunda: *EMM* - ekin maydonlarining mahsuldorligi, sentner/ga.

YH - ekin maydonidan olingan yalpi hosil miqdori, sentner yoki tonnada;

EM - ekin ekilgan haqiqiy maydon, ga.

Bu ko‘rsatkich yordamida 1 gektar ekin ekilgan maydondan qancha miqdorda hosil olinganligi ekin turlari bo‘yicha alohida-alohida aniqlanadi. Jami ekin maydonlari mahsuldorligini aniqlashda quyidagi qiymat ko‘rsatkichlaridan ham foydalanish mumkin:

$$YM = \frac{YMQ}{QXY}; \frac{YD}{QXY}; \frac{SF}{QXY}$$

Bunda: *YM* - foydalanilgan yerlarning mahsuldorligi, ya’ni, bir gektar qishloq xo‘jalik yer maydonidan necha so‘mlik yalpi mahsulot, yalpi daromad hamda sof foyda olinganligi aniqlanadi;

YMQ - olingan yalpi mahsulot qiymati, ming so‘mda;

QXY - qishloq xo‘jalik yerlari, ga;

YD - olingan yalpi daromad summasi, ming so‘mda;

SF - olingan sof foyda summasi, ming so‘mda.

Yer mahsuldorligi ko‘rsatkichi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, agrar sohani intensiv rivojlantirish uchun ushbu ko‘rsatkichga alohida e’tibor berish lozim.

3. Yer to‘g‘risidagi me'yoriy hujjatlar. Yer monitoringi va davlat yer kadastri.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan agrar-iqtisodiy islohotlar natijasida bozor tamoyillariga asoslangan yer munosabatlari shakllanmoqda. Uning asosiy qoidalari qonunchilik hujjatlarida o‘z ifodasini topgan. Bosh qomusimiz hisoblangan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida “Yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir” - deb belgilab qo‘yilgan. Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida yerdan foydalanish ijara usuliga asoslangan bo‘lib, yer ijara mexanizmi orqali bozor munosabatlariga kiritiladi. Shuni ta’kidlash zarurki, agrar islohotlar jarayonida qishloqda turli toifadagi yerdan foydalanuvchilar soni keskin ko‘paydi va bu hozir ham davom etmoqda. Shu bilan birga, har yili qishloq xo‘jaligi yerlari noqishloq xo‘jalik maqsadlari uchun ajratilishi davom etmoqda. Ushbu vaziyatlarda davlatning yer resurslaridan foydalanishni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish katta ahamiyatga ega. Bunda rivojlangan xorij davlatlarida to‘plangan tajribalarni hisobga olish samarali yo‘llardan biridir.

1998-yil 30-aprelda O‘zbekiston Respublikasining Yer Kodeksi qabul qilingan. Ushbu Kodeks 14 bob, 91 moddadan iborat bo‘lib, yer resursining toifalari va undan faydalanish bo‘yicha barcha qoidalar yoritib berilgan. Ushbu Kodeksning 1-moddasida “Yer umummilliy boylikdir, O‘zbekiston Respublikasi xalqi hayoti, faoliyati va farovonligining asosi sifatida undan oqilona foydalanish zarur va u davlat tomonidan muhofaza qilinadi” - deb ta’kidlangan.

Respublikamizda ekin maydonlarining aholiga shaxsiy tomorqa xo‘jaligi va turar joylarni qurish uchun, sanoat, sug‘orish inshootlarini barpo etish uchun ajratilishi oqibatida ekin ekiladigan maydon kamaymoqda. Bu obyektiv jarayon kelajakda ham davom etadi. Shuning uchun mavjud yerlardan yil davomida oqilona, samarali foydalanish zarur. Respublikamizning jami ekin maydoni 2019-yilda 2016-yilga nisbatan 397,3 ming gektarga qisqargan. Shu davrda donli ekinlar maydoni 111,1 ming gektarga, shundan bug‘doy maydoni 130,0 ming gektarga, g‘o‘za maydoni esa 214,5 ming gektarga kamaygan. Ayrim ekin turlari bo‘yicha ekin maydonlari ko‘payganini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, dukkakli don maydoni 25,5 ming gektarga, sabzavotlar ekin

maydoni 14 ming gektarga ko‘paygan. Shu davrda ozuqa ekinlari ekiladigan maydon esa 65,9 ming gektarga qisqargan. Ozuqa ekinlari maydonlarining qisqartirilishi o‘z navbatida almashlab ekish tizimining buzilishiga olib keldi hamda chorvachilikning mustahkam ozuqa bazasini barpo etishga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois kelajakda yerdan foydalanish samaradorligini yuksaltirish uchun almashlab ekishni joriy etishga alohida e’tibor qaratish zarur.

Mamlakatimiz hukumati tomonidan aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘liq ta’minlash, eksport hajmini oshirish, tarmoqda ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash maqsadida qishloq xo‘jaligidagi ekin maydonlarini optimallashtirishga e’tiborni kuchaytirmoqda.

2008-yil 20-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oziq-ovqat ekinlari ekiladigan maydonlarni optimallashtirish va ularni yetishtirishni ko‘paytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4041-sonli Farmoni e’lon qilindi va unga ko‘ra mamlakatimizda oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishni ko‘paytirish maqsadida paxta ekib kelinayotgan maydonlarning bir qismi g‘alla va boshqa ekinlar uchun ajratib berildi. Ushbu farmon ijrosini ta’minlash bo‘yicha Surxondaryo viloyati Hokimining 2008-yil 23-oktabrda 169-sonli qarori qabul qilingan va ushbu qarorda 2009-yil hosili uchun avval paxta ekib kelingan 3400 gektar yerning 3000 gektariga g‘alla, 115 gektariga sabzavot, 30 gektariga kartoshka va 255 gektariga moyli ekinlar ekish rejalashtirilgan edi.

Ekinlar ekiladigan yerlardan to‘liq va samarali foydalanishga barcha xo‘jaliklar alohida e’tibor bermoqdalar. Bu harakat ijobiy natijalar bermoqda va so‘nggi yillarda barcha turdagi ekinlarning hosildorlik darajasi ortib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligining suv resurslariga bo‘lgan talabi so‘nggi yillarda 49,4 mlrd. m^3 ni tashkil etmoqda. Suv resurslaridan unumli foydalangan holda xo‘jaliklar g‘alla, paxta ekilgan maydonlardan yuqori hosil olib, yerdan samarali foydalanmoqdalar. Buning uchun ular ekin ekiladigan yerlarni vaqtida sifatli haydab, sara urug‘larni yangi texnologiyalar asosida ekib, parvarishlashga aloqador boshqa tadbirlarni e’tibor bilan o‘tkazmoqdalar. Ekinlarga agrotexnik muddatlarda suv, o‘g‘it berish, yetishtirilgan hosilni qisqa muddatda sifatli qilib yig‘ishtirib olishga e’tibor bermoqdalar. Bu jarayonda xo‘jalik rahbarlari, mutaxassislari barcha imkoniyatlardan to‘liq va samarali foydalanmoqdalar.

Hozirgi davrda fermer va dehqon xo‘jaliklarida yerlardan foydalanish samaradorligi yil sayin yaxshilanmoqda. Bunga asosan mulk va unga egalikning o‘zgarishi, ya’ni manfaatdorlikning ortishi ta’sir ko‘rsatgan. Qishloq xo‘jalik ekinlari hosildorligining oshishi yerdan foydalanish samaradorligi yuksalishini ta’minlaydi. Lekin erishilgan natijalar o‘sib borayotgan talab darajasida emas. Yer va suv resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun bir qancha tashkiliy, iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirish lozim. Yerlarning meliorativ holatini tubdan yaxshilashni ta’minlovchi tadbirlarni kompleks amalga oshirishni rivojlantirish juda muhim hisoblanadi. 2020-yilning 1-oktabr holatiga sug‘oriladigan yerlarning 44,7 foizi turli darajada, jumladan, 31,0 foizi kuchsiz, 11,9 foizi o‘rtacha va 1,9 foizi esa kuchli darajada sho‘rlangan, 24,4 foiz maydonda esa yer osti suv sathi 2 metr va undan yuqorida joylashgan. Yerlarning sho‘rlanish darajasiga ayrim joylarda irrigatsiya tizimining yaroqsiz holga kelganligi, suvdan tejab-tergab samarali foydalanish qoidalarining buzilishi, ekinlarni sug‘orish texnologiyasining takomillashmaganligi, yerdan foydalanuvchi subyektlar sonining ko‘payishi, ularga ijaraga berilayotgan yer uchastkalarining maydalashib ketganligi va ularning meliorativ tadbirlarni amalga oshirishga mablag‘lari yetishmasligi sabab bo‘lmoqda.

Bu muammoni yechishda davlatning bevosita ko‘magi lozim. Bu muhim tadbirni qishloq xo‘jalik korxonalarining o‘zlari bajara olmasligi mumkin, chunki ularning texnik-iqtisodiy quvvati yetmaydi. Shu sabali mamlakatimiz hukumati tomonidan ushbu masalaga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. Mazkur soha bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlarning huquqiy asoslari yaratilgan bo‘lib, ular jumlasiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 29-oktabrdagi “Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-3932 sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 31-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-718 sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 21-dekabrdagi “O‘zmeliomashlizing” davlat lizing kompaniyasini tashkil etish to‘g‘risida”gi 266-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 19-martdagi “2008-2012-yillarda sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash

Davlat dasturi to‘g‘risida”gi PQ-817-sonli Qarori va boshqalarni kiritish mumkin.

Bundan tashqari “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” Davlat dasturida belgilab berilgan chora tadbirlarning to‘rtinchi yonalishi - 2008-2012-yillarda sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash davlat dasturida ko‘zda tutilgan chora-tadbirlar tizimining izshil amalga oshirilishiga, ya’ni ekin maydonlarining meliorativ ahvolini yaxshilash, faoliyat ko‘rsatayotgan irrigatsiya-melioratsiya obyektlarining tegishli texnik holatini ta’minlash, ixtisoslashgan suv xo‘jaligi, qurilish va ekspluatatsiya tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni zamonaviy texnika bilan jihozlash masalalariga alohida e’tibor qaratishdir. Bundan tashqari mazkur dasturda sug‘orishning tejamli usullarini, jumladan, tomchilatib sug‘orishni joriy qilishga ham alohida e’tibor qaratilgan edi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 19-martdagi PQ-817-sonli “2008-2012-yillarda sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash Davlat dasturi to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq 2008-yilda mazkur Davlat dasturi doirasida jami 92,9 mlrd. so‘m mablag‘ maqsadli o‘zlashtirildi. Jumladan, rekonstruksiya qilish va qurish bo‘yicha 47 ta loyiha (22,4 mlrd. so‘m) hamda 243 ta obyekt bo‘yicha (38,6 mlrd. so‘m) ta’mirlash-tiklash ishlari amalga oshirildi va 31,9 mlrd. so‘mlik meliorativ texnikalar xarid qilindi. Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash maqsadida 266,5 kilometr masofadagi kollektor-drenaj tarmoqlari rekonstruksiya qilindi va qurildi, uzunligi 11052,7 kilometr magistral, tumanlararo va xo‘jaliklararo kollektorlar tozalandi, jami 896,2 kilometr masofada yopiq-yotiq zovur tarmoqlari ta’mirlandi hamda lizing asosida 144 dona gidravlik zanjirli ekskavatorlar keltirilib, shundan 112 tasi yangi tashkil etilgan Davlat unitar korxonalariga yetkazib berildi.

2013-yil 19-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1958-sonli qarori bilan tasdiqlangan “2013-2017 yillar davrida sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish Davlat dasturi” qabul qilingan va u bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Mamlakatimizda yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va unumdorligini oshirishga yo‘naltirilayotgan investitsiyalar hajmi yil sayin oshirib borilmoqda. Ayni paytda ushbu maqsadlar uchun yo‘naltirilayotgan katta miqdordagi mablag‘lardan foydalanish

samaradorligini oshirish va ularni maqsadli ishlatish, zamonaviy texnologiyalar va texnikani joriy etishga e’tibor berish lozim.

2019-yil 30-dekabrda O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi yangi tahrirda qabul qilindi. Mazkur Kodeksning 61-bobi yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘iga bag‘ishlangan bo‘lib, 424-moddasida yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun budjetga to‘lovlar yer solig‘i yoki yer uchun ijara to‘lovi tarzda amalga oshirilishi belgilab qo‘yilgan. 425-moddasida mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yer uchastkalariga ega bo‘lgan yuridik shaxslar, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lovchilar deb e’tirof etilishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Soliq Kodekdsining 427-moddasiga ko‘ra, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar bo‘yicha soliq solinadigan baza – ushbu Kodeksning 428-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq soliq solinmaydigan yer uchastkalari chegirib tashlangan holda, yer uchastkalarining qonun hujjatlariga muvofiq aniqlangan normativ qiymatidir.

Mazkur Kodeksning 428-moddasida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar uchun yer solig‘i bo‘yicha quyidagi imtiyozlar belgilab berilgan:

• suvni tejaydigan (tomchilatib, yomg‘irlatib, diskret va boshqa) sug‘orish texnologiyalari joriy etilgan yerlar – suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalari joriy etilgan oyning boshidan e’tiboran besh yil muddatga. Ushbu imtiyoz suvdan foydalanish va suv iste’moli sohasidagi vakolatli organning xulosasi asosida beriladi. Agarda suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalari joriy etilgan oyning boshidan boshlab besh yil davomida foydalanishga yaroqsiz bo‘lgan yoki demontaj qilingan bo‘lsa, soliq imtiyozi butun soliq davri uchun soliqni to‘lash bo‘yicha majburiyatlarning tiklanishi bilan bekor qilinadi;

• qishloq xo‘jaligi maqsadlari uchun yangi o‘zlashtirilayotgan yerlar – vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan loyihaga muvofiq, ularni o‘zlashtirish ishlari bajariladigan davrda va ular o‘zlashtirilgan vaqtdan e’tiboran besh yil mobaynida;

• melioratsiya ishlari amalga oshirilayotgan mavjud sug‘oriladigan yerlar – vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan loyihaga muvofiq, ishlar boshlanganidan e’tiboran besh yil muddatga;

• yangi barpo etilayotgan bog‘lar, tokzorlar va tutzorlar egallagan yerlar, daraxtlarning qator oralaridan qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekish uchun foydalanilishidan qat’i nazar, uch yil muddatga. Kuzda

o‘tqazilgan yangi ko‘chatlar uchun beriladigan soliq imtiyozi muddatini hisoblab chiqarish keyingi yilning 1-yanvaridan e’tiboran boshlanadi, bahorda o‘tqazilgan ko‘chatlar uchun esa joriy soliq davrining 1-yanvaridan e’tiboran boshlanadi;

• ilmiy tashkilotlarning, qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligi sohasidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlari hamda o‘quv yurtlariga qarashli tajriba, eksperimental va o‘quv-tajriba xo‘jaliklarining bevosita ilmiy hamda o‘quv maqsadlari uchun foydalaniladigan qishloq xo‘jaligi ahamiyatiga molik bo‘lgan yerlar va o‘rmon fondining yerlari. Ushbu bandga muvofiq ilmiy tajribalar, eksperimental ishlar, yangi navlarning seleksiyasi o‘tkazilishi uchun hamda mavzulari tasdiqlangan boshqa ilmiy va o‘quv maqsadlari uchun foydalaniladigan ekinlar hamda daraxtzorlar egallagan yer uchastkalari soliq to‘lashdan ozod qilinadi.

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlar uchun soliq stavkalari qishloq xo‘jaligi ekinzorlarining normativ qiymatiga nisbatan 0,95 foiz miqdorda belgilanadi.

Yer uchastkasi mulkdorining, yer egasining, yerdan foydalanuvchining yoki ijarachining aybi bilan qishloq xo‘jaligi yerlarining sifati yomonlashgan (bonitet bali pasaygan) taqdirda, soliq yuridik shaxslar tomonidan yerning sifati yomonlashguniga qadar mavjud bo‘lgan bonitent balidan kelib chiqkan holda to‘lanadi.

Qishloq xo‘jaligi yerlarining sifati yaxshilangan taqdirda (bonitet bali oshganda), soliq yuridik shaxslar tomonidan tuproq bonitirovkasi o‘tkazilgan yildan keyingi yilning boshidan yangi bonitet balidan kelib chiqqan holda, qishloq xo‘jaligi yerlarining normativ qiymati bo‘yicha, agrotexnik tadbirlar tugagan davrlarda qayta hisob-kitob qilinmasdan to‘lanadi.

Soliq har bir soliq davrining 1-yanvariga bo‘lgan holatga ko‘ra hisoblab chiqariladi va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar bo‘yicha soliq hisoboti yer uchastkasi joylashgan yerdagi soliq organiga joriy soliq davrining 1-mayiga qadar taqdim etiladi.

Soliq to‘lovchilar soliqni ushbu Kodeksning 427-moddasiga muvofiq aniqlangan soliq bazasidan va tegishli soliq stavkasidan kelib chiqqan holda mustaqil ravishda hisoblab chiqaradi.

Soliq Kodeksining 432-moddasiga ko‘ra, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar uchun hisobot yilining 1-sentabriga qadar – yillik soliq summasining 30 foizi, hisobot yilining 1-dekabriga qadar – soliqning qolgan summasi to‘lanishi lozim.

Yer - xalqimiz hayoti, faoliyati va farovonligining asosidir. Undan faqat bugunni emas, kelajak avlodlarning ham manfaatlarini ko‘zlab, ilmiy asoslangan holda, oqilona, samarali foydalanish, uni muhofaza etish umummilliy dolzarb masala hisoblanadi. Mamlakatimiz hududidagi barcha boyliklardan, shu jumladan, yer resurslaridan ham oqilona, samarali foydalanish lozim. Bunda yerlarning holatini kuzatib borish, ya’ni yer monitoring muhim ahamiyat kasb etadi. O‘ta muhim bu vazifa hal etilishini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2000-yilning 23-dekabrida “Yer monitoringi to‘g‘risidagi Nizom”ni tasdiqladi va shu kuni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida yer monitoringi to‘g‘risida”gi 496-sonli Qarori qabul qilindi. Yer monitoringi respublika yer fondidagi barcha o‘zgarishlarni o‘z vaqtida ilmiy asoslangan holda aniqlash, yerlarga to‘liq baho berish (sifat hamda iqtisodiy jihatdan), ularga ta’sir etuvchi salbiy jarayonlarning oldini olish va oqibatlarini izchil tugatish maqsadida yerning holatini kuzatib borish bilan bog‘liq bo‘lgan axborotlar tizimidan iboratdir. Respublikamizning barcha yerlari monitoring obyekti hisoblanadi.

Nizomda vazirliklar va idoralar faoliyatini va yer monitoringi ma’lumotlarini umumlashtirishdek muhim vazifa O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi zimmasiga yuklatilgan. Demak, yuksak davlat ahamiyatiga molik bo‘lgan vazifani muvaffaqiyatli hal etishda vazirlik tarkibidagi barcha idoralar, tashkilotlar faol qatnashishlari zarur. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda “O‘zdavyerloyiha” instituti yer monitoringi amalga oshirilishini ta’minlashga quyidagi yirik masalalarni hal etish bilan hissa qo‘shishi rejalashtirilgan: qishloq xo‘jalik yerlari tuproq monitoringini amalga oshirish uchun tuproqshunoslik tadqiqotlariga oid to‘plangan barcha ma’lumotlarni umumlashtirib, monitoring tadqiqotlarini olib borish maqsadida respublika, viloyatlar hamda tumanlar hududida asosiy maydonlarni tanlash va ularni asoslash; vaqt o‘tishi bilan tuproqlarning asosiy xususiyatlari o‘zgarganligini isbotlovchi ma’lumotlarni teran va to‘liq tahlil etish; tadqiqot olib boriladigan asosiy hamda ekologik maydonlarda tuproqlarning holatini isbotlovchi ko‘rsatkichlar majmuasini asoslash, tuproqning holatini kuzatish, unga oid ma’lumotlarni sifatli to‘plash hamda ularga o‘zgartirishlar kiritishi kerak. Buning uchun qishloq xo‘jalik yerlari tuproqlarini suv va shamol erroziyasi ta’siri oqibatida o‘zgarishi monitoringi; qishloq xo‘jalik yerlari tuproqlari sho‘rlanganlik darajasining o‘zgarish jarayoni

monitoringi; qishloq xo‘jalik yerlari tuproqlari og‘ir metallar bilan zararlanganlik darajasining o‘zgarishi monitoringi; qishloq xo‘jalik yerlari tuproqlarining texnogen o‘zgarishi monitoringi; neft mahsulotlari salbiy ta’siri natijasida tuproqlarning ifloslanishi monitoringi; barcha o‘simliklarning og‘ir metallar bilan zaharlanish darajasi monitoringi; qishloq xo‘jalik yerlari tuproqlarining gerbitsid va pestitsidlar bilan zaharlanish darajasi monitoringi; mineral o‘g‘itlardan foydalanish natijasida tuproqlar tarkibidagi o‘zgarishlar monitoringi amalga oshiriladi.

Respublikamiz bo‘yicha yerlar sifatini tavsiflovchi ma’lumotlar 4.6-jadvalda keltirilgan.

4.6-jadval

Respublikamiz bo‘yicha sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yerlarining sifat bahosi

Viloyatlar	Qishloq xo‘jaligi yerlarining o‘rtacha ball boniteti
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	41
Andijon	57
Buxoro	50
Jizzax	51
Qashqadaryo	51
Navoiy	52
Namangan	59
Samarqand	57
Surxondaryo	56
Sirdaryo	51
Toshkent	59
Farg‘ona	56
Xorazm	53
Respublika bo‘yicha o‘rtacha:	55

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Kadastr agentligi ma’lumotlari.

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, respublikamizda yerlarning o‘rtacha ball boniteti 55 ballni tashkil etadi. Namangan, Toshkent, Andijon va Samarqand viloyatlari yerlarining o‘rtacha ball boniteti boshqa viloyatlar ko‘rsatkichiga nisbatan yuqori ko‘rsatkichga ega. Mamlakatimizda eng past ball bonitetga ega yerlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Sirdaryo, Jizzax va Qashqadaryo viloyatlarida joylashgan.

Yer monitoringi O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, viloyatlardagi Yer resurslari va davlat kadastri boshqarmalari, respublikadagi boshqa manfaatdor vazirliklar, idoralar va tashkilotlarning bevosita ishtirokida amalga oshiriladi.

Yer monitoringi – yer tarkibidagi o‘zgarishlarni o‘z vaqtida aniqlash, yerlarga baho berish, salbiy jarayonlarining oldini olish va oqibatlarini tugatish uchun yer fondining holatini kuzatib turish tizimidan iborat. Davlat yer kadastri yuritishni, yerdan foydalanishni, yer tuzishni, yer fondidan belgilangan maqsadda va oqilona foydalanish ustidan davlat nazoratini amalga oshirishni, yerlarni muhofaza qilishni axborot bilan ta’minlash yer monitoringi asosida amalga oshiriladi.

2020-yil 7-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6061-sonli farmoni qabul qilindi. Unga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri qo‘mitasi negizida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi qoshida Kadastr agentligi tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri qo‘mitasining qishloq xo‘jaligi yerlari va ekinlarini monitoring qilish, qishloq xo‘jaligi ekinlarini joylashtirish, qishloq xo‘jaligi yerlarini muhofaza qilish bo‘yicha davlat nazoratini amalga oshirish, tuproq bonitirovkasini o‘tkazish, qishloq xo‘jaligi yerlarining me’yoriy qiymatini aniqlash, tuproq unumdorligini oshirish, tuproqshunoslik, geobotanikaga oid tadqiqotlarni amalga oshirishga doir vazifalari, funksiyalari hamda vakolatlari Qishloq xo‘jaligi vazirligiga o‘tkazildi. Ushbu farmonga ko‘ra 2021-yil 1-oktabrdan boshlab yer uchastkalariga bo‘lgan

huquqlarning vujudga kelishi, o‘zgarishi, boshqa shaxsga o‘tishi, cheklanishi va bekor bo‘lishini nazarda tutuvchi qarorlar, auksion va tanlov bayonnomalari, notarial tasdiqlangan bitimlar hamda boshqa hujjatlar Milliy geografik axborot tizimida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgandan keyin kuchga kiradi. Bundan tashqari, 2021-yil 1-yanvardan boshlab:

- yer turi, konturi, chegarasi va huquq egalari haqidagi barcha ma’lumotlar Kadastr agentligining onlayn geoportaliga kiritiladi;
- onlayn geoportal Milliy geoaxborot tizimiga integratsiya qilinadi;
- yer balansi va uning hisoboti, tuman (shahar) yer kadastri daftari faqat Milliy geoaxborot tizimida yuritiladi;
- Davlat kadastrlari yagona tizimi Milliy geoaxborot tizimida shakllantiriladi.

Davlat yer kadastri – yerlarning tabiiy, xo‘jalik va huquqiy rejimi, ularning toifalari, sifat ko‘rsatkichlari va bahosi, yer uchastkalarining joylashgan manzili va o‘lchamlari, ularni yer egalariga, yerdan foydalanuvchilarga taqsimlash to‘g‘risidagi zarur, ishonchli ma’lumotlar va hujjatlar tizimidan iborat.

1998-yil 28-avgustda O‘zbekiston Respublikasining “Davlat Yer kadastri to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilingan. Davlat yer kadastri yer munosabatlarini tartibga solish, yerdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish, yer tuzishni tashkil etish, yer uchun to‘lanadigan haq miqdorini asoslash, xo‘jalik faoliyatiga baho berish maqsadida barcha tashkilot, korxonalarda fuqarolarni yer to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan ta’minlashga mo‘ljallangan. Davlat yer kadastri yerning qiymat bahosini aniqlashni taqozo etdi va uni tarkibiga olgan bo‘ladi. Davlat yer kadastrining ma’lumotlari yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilishda, yer uchastkalari berish va ularni olib qo‘yishda, yer uchun to‘lanadigan haq miqdorini belgilashda, yer tuzish ishlarini o‘tkazishda, xo‘jalik faoliyatiga baho berishda hamda yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish yuzasidan boshqa tadbirlarni amalga oshirishda majburiy tartibda tatbiq etiladi. Davlat yer kadastri butun respublika uchun yagona tizim asosida davlat budjeti mablag‘lari hisobidan davlat yer kadastri va yer tuzish xizmati organlari tomonidan yuritiladi.

Davlat yer kadastri quyidagilardan tashkil topadi:

- yerdan foydalanuvchilar;
- yer maydoni, uning tarkibi, sifati;
- yerni iqtisodiy baholash.

Yerlarni iqtisodiy baholash bir qancha iqtisodiy muhim masalalarni hal etishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Eng avvalo, yer umumxalq, davlat mulki sifatida baholanishi maqsadga muvofiqdir. Shunda mamlakat milliy boyligining tarkibi - yerning qiymatini, ulushini aniqlash imkoniyati yaratiladi. Shuning bilan birgalikda yerning asosiy vosita sifatida baholanishi ham hal etilishi lozim.

Respublikamizda qishloq xo‘jalik yerlarining qiymatini baholash tartibini belgilash maqsadida iqtisodchi olimlar F.Q.Qayumov, A.Abdug‘aniyev, V.T.Frolov, J.M.Maqsudov, G.G.Nagayev, I.A.Akramov va A.A.Tursunovlar tomonidan “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarini sifatiy, iqtisodiy va qiymat bahosini aniqlashning muvaqqat uslubi” ishlab chiqilgan va u Yer resurslari davlat qo‘mitasining ilmiy-texnik Kengashi tomonidan 1998-yil 6-avgustda tasdiqlangan. Bu muvaqqat uslubiyatda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning qiymat bahosini (me’yoriy bahosini) aniqlash tartibi ko‘rsatilgan. Bunda sug‘oriladigan yerlar, bahorikor yerlar va yaylov yerlarning me’yoriy bahosini aniqlash tartiblari ko‘rsatilgan.

Sug‘oriladigan yerlarning me’yoriy bahosini aniqlashning negizida qishloq xo‘jalik ekinlari rivojlanishi uchun yerlarning ahamiyatliroq bo‘lgan tabiiy xususiyatlari (tuproq bonitirovkasi) va me’yoriy sof foydasi qiymatini ko‘rsatuvchi sifatlari bo‘yicha shu yerlarning solishtirma bahosi yotadi. Bonitirovkalashda tuproqning quyidagi asosiy xususiyatlari va tabiiy sharoitlari hisobga olinadi: tuproqning tipi, mexanik tarkibi, sug‘orib kelinayotganlik muddati, termik resurslar bilan ta’minlanganligi, tuproq hosil qiluvchi jins, yer osti suvining chiqib ketishi, sho‘rlanish, erroziyalanish, tosh va gipslanish darajalari. Eng yuqori baho 100 ball bilan eng yuqori mahsuldorlikka ega, eng yaxshi tuproqlar baholanadi.

Qishloq xo‘jaligi yerlarining me’yoriy qiymati banklardan ipoteka qarzlari berishda, xususiy turarjoylar qurish uchun yer ajratib berish va dehqon xo‘jaliklariga me’yordan ortiqcha yer ajratib berishda, yer solig‘i miqdorini aniqlash, kimoshdi savdolari orqali yer uchastkalarini sotish va qonunchilikda ko‘zda tutilgan boshqa hollarda shu yerning dastlabki bahosini belgilash uchun qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2006-yil 19-aprelda ro‘yxatga olingan O‘zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri Davlat qo‘mitasi raisining “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining qishloq xo‘jalik yerlari me’yoriy qiymatini aniqlash bo‘yicha vaqtinchalik yo‘riqnomani tasdiqlash to‘g‘risida”gi buyrug‘i 2006-yil 29-apreldan kuchga kirgan.

2014-yil 18-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarining me’yoriy qiymatini aniqlash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 235-sonli qarori qabul qilingan. Ushbu qarorga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarining me’yoriy qiymatini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi Nizom tasdiqlangan.

Mazkur qarorga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasiga 2015-yil 1-iyungacha ushbu qaror bilan tasdiqlangan Nizom talablariga muvofiq qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarining me’yoriy qiymatini aniqlash vazifasi yuklatilgan edi. Bundan tashqari, tasdiqlangan Nizomga muvofiq aniqlangan qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarining me’yoriy qiymatidan kelib chiqqan holda yagona yer solig‘ini hisoblab chiqarish 2016-yil 1-yanvardan boshlab amalga oshirilishi belgilangan.

Har bir qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchisining qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarining me’yoriy qiymati qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar uchun yer solig‘ini hisoblab chiqish uchun va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa maqsadlarda aniqlanadi.

Qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarining me’yoriy qiymatiga yer bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan obyektlar (sug‘orish va kollektor-drenaj tarmog‘i, yo‘llar) qiymati kiritilmaydi. Me’yoriy qiymatni aniqlash

me’yoriy ko‘rsatkichlarni, yer kadastri va statistik hisobga olish ma’lumotlarini hisobga olgan holda foydani kapitallashtirish asosidagi daromadli yondashuvdan foydalanib bajariladi. Me’yoriy qiymatni aniqlash natijalari davlat yer kadastriga kiritiladi.

Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining qishloq xo‘jaligi ekin maydonlari me’yoriy qiymatni aniqlash obyekti hisoblanadi. Me’yoriy qiymatni aniqlash davri har yili o‘tkaziladi.

Qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarining me’yoriy qiymatini aniqlash “O‘zdaverloyiha” davlat yer tuzish ilmiy-loyihalash instituti tomonidan amalga oshiriladi. “O‘zdaverloyiha” davlat yer tuzish ilmiy-loyiha institutining hududiy bo‘linmalari tomonidan ma’muriy tumanlarning har bir qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchisining qishloq xo‘jaligi ekin maydonlari me’yoriy qiymatini aniqlash natijalari bo‘yicha hisobot quyidagi tarkibda tuziladi:

- tushuntirish xati;
- qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari bo‘yicha qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarining me’yoriy qiymati va tuman bo‘yicha o‘rtacha me’yoriy qiymat to‘g‘risidagi ma’lumotlar.

Me’yoriy qiymat ishlab chiqarish resursi sifatida qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarining sifatini hisobga olgan holda aniqlanadi. 1 gektar qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarining me’yoriy qiymatini aniqlashda quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalaniladi:

- tuproqning sifatini va tabiiy yem-xashak ekin maydonlari (pichanzorlar va yaylovlar)ni baholash ko‘rsatkichlari;
- asosiy qishloq xo‘jaligi ekinlari tuzilmasi;
- qishloq xo‘jaligi ekinlari va yem-xashakbop ekin maydonlarining me’yoriy hosildorligi;
- qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarining me’yoriy unumdorligi;
- qishloq xo‘jaligi ekinlarining asosiy turlari bo‘yicha qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining hisoblab chiqilgan foyda olishi;
- dehqon bozorlarida sotiladigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari asosiy turlarining o‘rtacha yillik narxlari hamda paxta xomashyosi va boshoqli don ekinlarining o‘rtacha xarid narxlari;

- foydaning kapitallashuvi foizi.

Me’yoriy qiymatni aniqlashda qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarining individual renta hosil qiluvchi omillari – qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining intensivligi, tuproqning sifati, ekin maydonlari tuzilmasi va sug‘orish uchun suv chiqarish usuli (oqar suv yoki mashina usuli) hisobga olinadi.

Asosiy qishloq xo‘jaligi ekinlarining me’yoriy hosildorligi tuproqlar o‘rtacha bonitet bali bilan qishloq xo‘jaligi ekinlari tuproq bonitetining bir bonitet baliga mos me’yoriy hosildorlikning yig‘indisi sifatida hisoblab chiqiladi.

4.5-jadval

Asosiy qishloq xo‘jaligi ekinlari, bog‘lar va tokzorlarning tuproqlarining bir bonitet baliga nisbatan hisoblangan me’yoriy hosildorligi

Qishloq xo‘jaligi ekinlari va ko‘p yillik daraxtlar	**Tuproqning bir bonitet baliga nisbatan me’yoriy hosildorligi, sentner/ga**
Sug‘oriladigan yerlarda	
G‘o‘za	0,4
Boshoqli don ekinlari	0,6
Tamaki	0,45
Sholi	0,7
Bir yillik o‘tlar (yashil yem-xashak)	3,0
Sabzavotlar	3,0
Poliz mahsulotlari	2,7
O‘tgan yillardagi beda	2,0
Don uchun makkajo‘xori	0,75
Yem-xashakbop ildizmevali o‘simliklar	9,0
Kartoshka	2,0
Bog‘lar (o‘rta hisobda)	0,6
Tokzorlar (o‘rta hisobda)	0,8
Lalmi yerlarda	
Kuzgi bug‘doy	0,25
Kuzgi arpa	0,20
Bahorgi no‘xat	0,12

Manba: qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarining me’yoriy qiymatini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi Nizom.

1 gektar maydondagi asosiy qishloq xo‘jaligi ekinlarining me’yoriy unumdorligi tegishli ma’muriy mintaqadagi me’yoriy qiymatni aniqlash davridan oldin yuzaga kelgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini realizatsiya qilishning o‘rtacha yillik narxlariga bog‘liq ravishda qiymat ifodasida quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$Um = Hm * No‘y$$

Bunda: *Um* – 1 ga qishloq xo‘jaligi ekinlarining me’yoriy unumdorligi, ming so‘m;

Hm – qishloq xo‘jaligi ekinlarining me’yoriy hosildorligi, sentner/gektar;

No‘y – dehqon bozorlarida sotiladigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tegishli turiga o‘rtacha yillik narx, ming so‘m/sentner, paxta xomashyosi va boshoqli don ekinlarining xarid narxi ming so‘m/sentner;

Sug‘oriladigan 1 gektar haydov yerdan olinadigan hisoblab chiqilgan foydani aniqlashda har bir qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchisi bo‘yicha qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarining me’yoriy qiymatini aniqlashning shu yildan oldingi yilda shakllangan ekin maydonlari tuzilmasi qo‘llaniladi.

Har bir qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchisi bo‘yicha oldingi yil uchun qishloq xo‘jaligi ekin maydonlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar davlat statistika ma’lumotlari asosida aniqlanadi. Ma’lumotlar statistika organlari tomonidan “Yergeodezkadastr” davlat qo‘mitasiga har yili 1-aprelgacha taqdim etiladi. O‘tgan yildagi ekin maydonlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar mavjud bo‘lmagan taqdirda O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining mintaqaviy bo‘linmalari tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlari bo‘yicha joriy yilda qishloq xo‘jaligi ekinlarini joylashtirish rejasiga muvofiq ekin maydonlari tuzilmasi qo‘llaniladi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining asosiy turlari bo‘yicha foydaning hisoblab chiqilgan miqdori qishloq xo‘jaligi ekin maydonlari sifatidan kelib chiqib foizlarda mahsulot qiymatiga va tuman bo‘yicha o‘rtacha tuproqlarning har bir klassi bo‘yicha mahsulotlarni yetishtirishga o‘rtacha xarajatlarga bog‘liq ravishda O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Moliya vazirligi tomonidan hisoblab chiqiladi.

Mahsulot qiymati to‘g‘risidagi o‘rtacha ma’lumotlar va biror-bir o‘simlik bo‘yicha qishloq ho‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda o‘rtacha xarajatlar mavjud bo‘lmagan taqdirda boshoqli don ekinlari bo‘yicha hisoblab chiqilgan ma’lumotlar qo‘llaniladi.

Sifati turlicha bo‘lgan yerlar bo‘yicha 1 gektar sug‘oriladigan haydov yerdan olinadigan foydaning hisoblab chiqilgan miqdori quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$Fh..ch. = \frac{\frac{Umqxe_1 * EM_1}{100} * FMe_1 + ... + \frac{Umqxe_n * EM_n}{100} * FMe_n}{EM_1 + ... + EM_n}$$

Bunda: *Fh.ch.* – 1 gektar sug‘oriladigan haydov yerdan olinadigan hisoblab chiqiladigan foyda, ming so‘m;

$Umqxe_{1,...,}Umqxe_n$ – qishloq xo‘jaligi ekinlarining me’yoriy unumdorligi, ming so‘m/gektar;

$EM_{1,...,}EM_n$ – ekin maydonlari, ga

$FMe_{1,...,}FMe_n$ – tuproq sifati turlicha bo‘lgan yerlarda turli xil ekinlardan olinadigan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi foydasining hisoblab chiqilgan miqdori, foizlarda.

1 gektar sug‘oriladigan haydov yerning me’yoriy qiymati quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$YQm = \frac{Fh.ch. * K_1 * K_2 * K_3}{P} * 100$$

Bunda: *YQm* – sug‘oriladigan haydov yerning me’yoriy qiymati, ming so‘m/gektar;

Fh.ch. – sug‘oriladigan haydov yerdan olinadigan hisoblab chiqilgan foyda, ming so‘m/gektar;

P – hisoblab chiqiladigan foydaning kapitallashuvi foizi. Hisoblab chiqilgan foydaning kapitallashuvi foizi 5% miqdorida qabul qilinadi.

K_1 – xo‘jalik yuritish va qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi intensivligi darajasi hisobga olinadigan mintaqaviy koeffitsiyent;

K_2 – sug‘orish uchun suv chiqarish usuli hisobga olinadigan koeffitsiyent;

K_3 – hosilning nobud bo‘lish foizi hisobga olinadigan koeffitsiyent;

4.6-jadval

Surxondaryo viloyatida xo‘jalik yuritish va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi intensivligi darajasi hisobga olingan mintaqaviy koeffitsiyentlar (K_1)

Ma’muriy-hududiy tuzilmalar va mintaqalar	Mintaqaviy koeffitsiyentlar
Surxondaryo vohasi (Sariosiyo, Uzun, Denov, Sho‘rchi, Qumqo‘rg‘on, Jarqo‘rg‘on, Angor, Termiz, Oltinsoy tumanlari)	1,3
Cho‘l mintaqasi (Qiziriq, Muzrabot, Sherobod tumanlari)	1,1
Boysun tumani	0,8

Manba: qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarining me’yoriy qiymatini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi Nizom.

Yerning me’yoriy qiymatini aniqlashda foydalaniladigan sug‘orish uchun suv chiqarish usuli hisobga olinadigan koeffitsiyentlar 4.7-jadvalda keltirilgan.

4.7-jadval

Sug‘orish uchun suv chiqarish usuli hisobga olinadigan koeffitsiyentlar (K_2)

Oqar suv ulushi, %	Koeffitsiyent
0 – 9	0,883
10 – 19	0,893
20 – 29	0,904
30 – 39	0,915
40 – 49	0,926
50 – 59	0,938
60 – 69	0,950
70 – 79	0,962
80 – 89	0,974
90 – 99	0,987
100	1

Manba: qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarining me’yoriy qiymatini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi Nizom.

4.8-jadval

Hosil nobud bo‘lishini hisobga olish koeffitsiyentlari (K_3)

Bonitet bali	Zaharli kimyoviy dorilarni qo‘llash cheklangan hududlar ulushi, %									
	1-10	11-20	21-30	31-40	41-50	51-60	61-70	71-80	81-90	91-100
31-40	0,948	0,895	0,843	0,790	0,738	0,685	0,633	0,580	0,528	0,475
41-50	0,959	0,918	0,878	0,837	0,796	0,755	0,714	0,674	0,633	0,592
51-60	0,967	0,933	0,900	0,866	0,833	0,800	0,766	0,733	0,699	0,666
61-70	0,972	0,943	0,915	0,887	0,859	0,830	0,802	0,774	0,745	0,717
71-80	0,976	0,951	0,927	0,902	0,878	0,853	0,829	0,804	0,780	0,755
81-90	0,978	0,957	0,935	0,914	0,892	0,870	0,849	0,827	0,806	0,784
91-100	0,981	0,961	0,949	0,923	0,904	0,884	0,865	0,846	0,826	0,807

Manba: qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarining me’yoriy qiymatini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi Nizom.

1 gektar bog‘lar va tokzorlarning me’yoriy qiymati sug‘oriladigan haydov yerlarning me’yoriy qiymatiga o‘xshash tartibda aniqlanadi.

Issiqxonalar bo‘yicha 1 gektar yerning me’yoriy qiymati sug‘oriladigan haydov yerlar qiymatiga o‘xshash tartibda tuman, shahar bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich asosida 2,2 koeffitsiyentini qo‘llash bilan aniqlanadi.

4.9-jadval

Ozuqa ekinlarining ozuqa birligida ifodalangan me’yoriy unumdorligi

Qishloq xo‘jaligi ozuqa ekinlari	Qishloq xo‘jaligi ekinlarining bir kilogramm mahsulotidagi ozuqa birliklari tarkibi (kg)
Boshoqli don ekinlari	1,2
Bir yillik o‘tlar (yashil yem-xashak)	0,17
O‘tgan yillardagi beda (yashil yem uchun)	0,21
Xashaki beda	0,49
Don uchun makkajo‘xori	1,34
Yem-xashakbop ildizmevali o‘simliklar	0,12

Manba: qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarining me’yoriy qiymatini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi Nizom.

1 gektar lalmi haydov yerning me’yoriy hosildorligi, me’yoriy unumdorligi, hisoblab chiqilgan miqdori va me’yoriy qiymatini

aniqlanashda xo‘jalik ichki sug‘orish tizimiga suv chiqarish usulini hisobga olingan holda koeffitsiyent me’yoriy qiymatni aniqlashda qo‘llanilmaydi.

Tabiiy yem-xashakbop ekin maydonlari (pichanzorlar va yaylovlar)ning me’yoriy qiymati yaylovlarning tiplaridan va ozuqa birligida ifodalangan hosildorlikdan kelib chiqib, ularni bug‘doyning ekvivalenti hosildorligiga tegishli ravishda qayta hisoblab chiqqan holda hisoblab chiqiladi.

1 gektar ozuqa ekin maydonlarining me’yoriy mahsuldorligi bug‘doy hajmiga qayta hisoblab chiqilgan ozuqa birliklaridagi o‘rtacha hosildorligi va me’yoriy qiymatini aniqlash davridan oldingi yildagi o‘rtacha xarid narxining hosilasi sifatida aniqlanadi.

4.10-jadval

O‘zbekistonning tabiiy ozuqa ekin maydonlarini yaylovlarning ayrim turlari bo‘yicha sifat jihatidan baholash

Yaylovlarning turlari	**Ozuqa birliklarida hosildorligi, kg/ga**	**Bug‘doyning ekvivalent hosildorligi, sentner/ga**
Yaxshi yaylovlar		
Bug‘doyiqli yaylov	230	1,92
Yirik o‘tli-shashirli yaylov	300	2,50
Archalar orasidagi har xil bug‘doyiq yaylov	260	2,17
O‘rtacha yaylovlar		
Har xil o‘tli-betagali yaylov	320	2,67
Qamishzor	200	1,67
Qashshoqlashgan yaylovlar		
Har xil o‘tli-adirdagi shuvoqli yaylov	170	1,42
Har xil o‘tli, butazorlar orasidagi yaylov	180	1,50
Ko‘ng‘irbosh-toifalashgan yaylov	140	1,17
Oq saksovulzor	100	0,83
Yantoqzor	180	1,50

Yaylovlarning turlari	Ozuqa birliklarida hosildorligi, kg/ga	Bug‘doyning ekvivalent hosildorligi, sentner/ga
Sho‘rali-toifalashgan yaylov	130	1,08
Qashshoq yaylovlar		
Bir yillik sho‘razor yaylov	130	1,08
Pastak har xil o‘tli-boshoqdoshli o‘simliklar o‘sadigan yaylov	120	1,00
Har xil o‘tli to‘qayzor	90	0,75
Qizilmiya o‘sadigan yaylov	100	0,83

Manba: qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarining me’yoriy qiymatini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi Nizom.

1 gektar ozuqa ekin maydonlarining me’yoriy qiymati haydov yerga o‘xshash tarzda aniqlanadi, bunda ozuqa ekin maydonlarining unumdorligi ular bilan bog‘liq bo‘lgan balandlik mintaqalarida joylashganligiga qarab foydaning hisoblab chiqilgan miqdori quyidagi miqdorlarda qabul qilinadi:

cho‘l mintaqasida – 3,2 foiz;

tog‘oldi mintaqasida – 4,1 foiz;

tog‘ mintaqasida – 7,0 foiz.

Baliqchilik hovuzlari, imoratlar, inshootlar va xonadonlar bilan band bo‘lgan yerlarning me’yoriy qiymati faqat belgilangan mezonlarga muvofiq yer solig‘ining to‘lovchilari hisoblangan qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari bo‘yicha aniqlanadi. Bunda imoratlar, inshootlar va xonadonlar deganda ularning faoliyat ko‘rsatishi va xizmat ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan imoratlar, inshootlar, omborlar, dala shiyponlari, bostirmalar, xonadonlar va maydonlar tushuniladi.

Baliqchilik hovuzlari bilan band bo‘lgan yerlarning me’yoriy qiymati tuman bo‘yicha sug‘oriladigan haydov yerlarning o‘rtacha me’yoriy qiymati bo‘yicha aniqlanadi.

Imoratlar, inshootlar va xonadonlar bilan band bo‘lgan yerlarning me’yoriy qiymati joylashgan mintaqasi va ixtisoslashuviga qarab asosiy qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarining me’yoriy qiymati bo‘yicha 2 koeffitsiyentini qo‘llagan holda aniqlanadi.

Tuman bo‘yicha hisobotlar yer-kadastr axboroti sifatida har bir qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchisi bo‘yicha elektron shaklda me’yoriy qiymat taqdim etilgan holda tuman yer resurslari va davlat kadastrining tegishli bo‘limlariga topshiriladi. Har bir qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchisi bo‘yicha qishloq xo‘jaligi ekin maydonlari va boshqa baholangan yerlarning me’yoriy qiymati to‘g‘risida ma’lumotnoma tuziladi. Ma’lumotnoma qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchisiga topshirish uchun tuman yer resurslari va davlat kadastri bo‘limlariga taqdim etiladi.

Tumanlar bo‘yicha dehqon bozorlarida sotiladigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining asosiy turlariga o‘rtacha yillik narxlar va sotish hajmlari, shuningdek paxta xomashyosi va boshoqli don ekinlariga o‘rtacha xarid narxlar davlat statistika kuzatishlari ma’lumotlari asosida O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan aniqlanadi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining asosiy turlarini yetishtirish natijalari bo‘yicha olingan foydaning miqdori O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Moliya vazirligi tomonidan oldingi yil yakunlariga binoan tumanlar bo‘yicha yalpi daromadga nisbatan foizlarda aniqlanadi.

Qishloq xo‘jaligi ekinlari hosilini yig‘ishtirib olish davomida foyda miqdori o‘rtacha yillik narxlar va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining asosiy turlarini yetishtirishga me’yoriy xarajatlar hisobga olingan holda belgilanadi. Tumanlar bo‘yicha qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining asosiy turlarini yetishtirishga me’yoriy xarajatlar bonitet baliga bog‘liq ravishda o‘simliklarni o‘stirishning agrotexnologik xaritalari asosida hisoblab chiqiladi, bunda issiqxonalarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish xarajatlari hisobga olinmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Moliya vazirligi har yili 1-aprelgacha qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining asosiy turlarini yetishtirish natijalari bo‘yicha olinadigan foyda miqdorlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligiga yuboradi.

Qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarining me’yoriy qiymatini aniqlashning texnologik sxemasi quyidagicha:

1. Tayyorgarlik ishlari.

1.1. Ishlar mazmuni va dasturini ishlab chiqish.

1.2. Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining hamda me’yoriy qiymatni aniqlash obyektlarining ro‘yxatini va joylashish chizmasini tuzish.

1.3. Me’yoriy qiymati aniqlanadigan obyektlar bo‘yicha dastlabki yer-hisobga olish va statistik hamda natijali yer-baholash axborotlarini to‘plash, tahlil qilish va tayyorlash.

1.4. Qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarining me’yoriy qiymatini aniqlashda dastlabki va qiymat ko‘rsatkichlarining avtomatlashtirilgan hisob-kitobi dasturini o‘rganish va o‘zlashtirish.

2. Tuproq unumdorligi, tabiiy ozuqa ekin maydonlarining unumdorligi, sug‘orish uchun suv berish usuli bo‘yicha birlamchi ma’lumotlar bazasini tayyorlash va me’yoriy qiymatini aniqlash obyektlarining ko‘rsatkichlarini hisob-kitobi.

2.1. Me’yoriy qiymatni aniqlash obyekti tuproq unumdorligining o‘rtacha ko‘rsatkichini aniqlash.

2.2. Asosiy qishloq xo‘jaligi ekinlari bo‘yicha mahsulot yetishtirishdan foizlarda hisoblab chiqilgan foydani aniqlash.

2.3. Me’yoriy qiymatni aniqlash obyekti yaylovlarining ozuqa qimmatliligi ko‘rsatkichlarini aniqlash.

2.4. Sug‘orishning ichki tizimida sug‘orish uchun suv berish usuli ko‘rsatkichini aniqlash.

2.5. Zaharli kimyoviy dorilarni qo‘llash cheklangan maydonlarni aniqlash.

3. Qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarining me’yoriy qiymatining avtomatlashtirilgan hisob-kitobi.

3.1. Birlamchi ko‘rsatkichlarni kompyuter dasturiga kiritish.

3.2. Qishloq xo‘jaligi ekinlarining me’yoriy qiymati: me’yoriy unumdorlik, hisoblangan foyda va me’yoriy qiymat ko‘rsatkichlari hisob-kitobi.

4. Qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarining me’yoriy qiymatini aniqlash materiallarini rasmiylashtirish.

4.1. Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining qishloq xo‘jaligi ekin maydonlari me’yoriy qiymatini aniqlashning hisob-kitob (jadval) va matnli qismini rasmiylashtirish hamda ma’muriy tumanlar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va respublika bo‘yicha qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarining me’yoriy qiymatini aniqlash materiallarini umumlashtirish.

4.2. Qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarining me’yoriy qiymatini aniqlash materiallarining jadvalli qismini rasmiylashtirish.

4.3. Ma’lumotnomalarni tayyorlash va qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga taqdim etish.

2020-yil 24-avgustda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portali bo‘lgan regulation.gov.uz saytiga O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ID raqami 21157 bo‘lgan Vazirlar Mahkamasining “Qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarining normativ qiymatini aniqlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori loyihasi muhokama etish uchun e’lon qilingan edi. Loyiha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-5953-sonli farmoniga muvofiq tayyorlangan. Ushbu loyihaga ko‘ra, Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasiga 2020-yil 1-oktabrgacha Nizom talablariga muvofiq qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarining normativ qiymatini aniqlash vazifasi topshirilgan edi.

Barcha xorijiy mamlakatlarda davlat mulkdorlarning yerdan maqsadli foydalanishi va huquqiy rejimga mos kelishini qattiq nazorat qiladi. Masalan, Fransiyaning fuqarolik kodeksi yerga ishlov bermaydigan, tuproq unumdorligi pasayishiga yo‘l qo‘ygan yoki jamiyat manfaatlariga zarar yetkazuvchi mulkdorlardan yerni olib qo‘yilishi mumkin bo‘lgan holatlarni ko‘zda tutgan. Germaniyada barcha qishloq xo‘jalik yerlari mulkdorlari ulardan yerni tortib olinishi xavfi borligi tufayli yerga ishlov berishga majburdirlar.

Mamlakatimiz hukumati tomonidan degradatsiyaga uchragan qishloq xo‘jalik yerlarini konservatsiya qilishga ham alohida e’tibor berilmoqda. Degradatsiyaga uchragan yerlar deganda tabiiy va antropogen omillar, xo‘jalik va boshqa faoliyatning salbiy ta’sirlari natijasida tuproq sifati yomonlashgan qishloq xo‘jaligi yerlari nazarda tutiladi. Yerlarni konservatsiya qilish esa degradatsiyaga (sho‘rlanishga, cho‘llanishga, botqoqlashishga uchrashi hamda yaylov va pichanzorlarda tuproq-o‘simlik qoplami jiddiy tanazzulga) uchragan, kam mahsuldor, hosildorligi juda pasaygan va tabiiy xususiyatlari bo‘yicha salbiy tavsiflarga ega tuproqlar, yuqori darajada zaharli sanoat chiqindilari, radioaktiv moddalar, og‘ir metallar va boshqa kimyoviy elementlar bilan ifloslangan qishloq xo‘jalik yerlarining unumdorlik va tabiiy xususiyatlarini tiklash, buzilgan yerlarning atrof-muhitga salbiy ta’sirini va degradatsiya sur’atlarini pasaytirish hamda oldini olish

chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun besh yildan kam bo‘lmagan muddatga maqsadli foydalanishdan chiqarishdir. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 17-dekabrdagi 791-sonli qarori bilan “Qishloq xo‘jaligi yerlarini konservatsiya qilish tartibi to‘g‘risidagi Nizom” tasdiqlandi. Ushbu Nizom degradatsiyaga uchragan, kam mahsuldor hamda zaharli sanoat chiqindilari va radioaktiv moddalar bilan ifloslangan qishloq xo‘jaligi yerlarini konservatsiya qilish tartibini belgilaydi.

Ushbu Nizomga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi yerlarini xatlovdan o‘tkazish va konservatsiya qilinadigan qishloq xo‘jaligi yerlarini aniqlash Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarori bilan tasdiqlangan Yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizomga muvofiq har besh yilda umumiy ko‘rikdan o‘tkazish, agrokimyoviy va geobotanik tadqiqotlar asosida amalga oshiriladi.

Yer uchastkasidan foydalanuvchi (egalik qiluvchi) va tumanlar hokimliklari (qishloq xo‘jaligi yerlariga nisbatan foydalanish yoki egalik huquqi rasmiylashtirilmagan yerlar uchun) qishloq xo‘jaligi yerlarini konservatsiya qilish maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi va viloyatlar qishloq xo‘jaligi boshqarmalariga konservatsiya qilish zarurati va sabablarini asoslantirgan holda tegishli ariza bilan murojaat qiladi hamda ular besh ish kuni ichida yerlarni joyiga chiqqan holda ko‘rikdan o‘tkazish va ularni konservatsiya qilishning maqsadga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa tayyorlash uchun komissiya tuzish haqida qaror chiqaradi.

Komissiya tarkibiga yer uchastkasidan foydalanuvchi (egalik qiluvchi), Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Suv xo‘jaligi vazirligi, O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi (o‘rmon xo‘jaligi yerlarida), Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining hududiy bo‘linmalari hamda Tuproqshunoslik va agrokimyo ilmiy-tadqiqot institutidan mas’ul xodimlar kiritiladi. Komissiya o‘n besh ish kunida joyiga chiqqan holda ko‘rikdan o‘tkazib, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi va viloyatlar qishloq xo‘jaligi boshqarmalari tomonidan yerlarni konservatsiya qilishning maqsadga muvofiqligi va konservatsiya qilishga sabab bo‘lgan omillar to‘g‘risida hisobot va xulosa tayyorlaydi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi va viloyatlar qishloq xo‘jaligi boshqarmalari o‘n ish kuni ichida taqdim etilgan materiallar va xulosalarni ko‘rib chiqib, konservatsiya

qilish to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Qabul qilingan qarorga muvofiq ishchi yer tuzish loyihasi ishlab chiqiladi va unda yerlarni konservatsiya qilish usullari, konservatsiya qilish muddati, yerlardan foydalanish yo‘nalishi belgilanadi.

Qishloq xo‘jaligi yerlarini konservatsiya qilish ishlarini amalga oshirish muddati yerlarni konservatsiya qilish loyihasida belgilanadi va ushbu muddat besh yildan yigirma besh yilgacha belgilanadi. Konservatsiya davrida yer uchastkasidan foydalanuvchining (egalik qiluvchining) yerga nisbatan ijara (egalik) huquqlari saqlab qolinadi va Yer uchastkalari qishloq xo‘jaligi foydalanishidan chiqariladi. Yer uchastkasidan foydalanuvchining (egalik qiluvchining) xohishiga ko‘ra konservatsiya qilinayotgan yerlar zahira yerlar tarkibiga o‘tkazilishi mumkin.

Ushbu Nizomning 4-bobiga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi yerlarini konservatsiya qilish tadbirlari O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti va viloyatlar mahalliy budjetlari, yer uchastkasidan foydalanuvchi (egalik qiluvchi) mablag‘lari hamda qonun hujjatlarida ta’qiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi.

Yer uchastkasi jismoniy va yuridik shaxslar foydalanishida yoki egaligida bo‘lsa, qishloq xo‘jaligi yerlarini konservatsiya qilish yer uchastkasidan foydalanuvchi (egalik qiluvchi) tashabbusiga ko‘ra amalga oshiriladi. Bunda, qishloq xo‘jaligi yerlarini konservatsiya qilishgacha bo‘lgan hujjatlarni tayyorlash xarajatlari yer uchastkasidan foydalanuvchi (egalik qiluvchi) hisobidan moliyalashtiriladi. Ammo, yer uchastkasidan foydalanuvchi (egalik qiluvchi)ning aybi bilan yer uchastkalari degradatsiyaga uchraganda, yerlarni konservatsiya qilish bo‘yicha barcha tadbirlar yer uchastkasidan foydalanuvchi (egalik qiluvchi) hisobidan moliyalashtiriladi. Agar qishloq xo‘jaligi yerlariga nisbatan foydalanish yoki egalik huquqi rasmiylashtirilmagan bo‘lsa, yerlarni konservatsiya qilish tumanlar hokimliklari tashabbusiga ko‘ra amalga oshiriladi.

Bu jarayonda davlat budjeti hisobidan quyidagilar moliyalashtiriladi:

- tuproq unumdorligini oshirish, yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish bo‘yicha davlat dasturlarida nazarda tutilgan yerlarni konservatsiya qilish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish;
- alohida qimmatga ega bo‘lgan unumdor sug‘oriladigan yerlarni konservatsiya qilish loyihalarini ishlab chiqish;

- qishloq xo‘jaligi yerlarini konservatsiya qilish doirasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish;

- konservatsiya qilingan qishloq xo‘jaligi yerlari monioringini olib borish.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti va viloyatlar mahalliy budjetlari mablag‘lari hisobidan yerlardan foydalanish va muhofaza qilish bo‘yicha hududiy dasturlarida nazarda tutilgan yerlarni konservatsiya qilish tadbirlari moliyalashtiriladi.

Fermerlar faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan holatlardan biri – tuman hokimliklari va fermer xo‘jaliklari o‘rtasida qishloq xo‘jaligi yerlarini ijaraga berish yuzasidan tuzilgan shartnoma shartlarining buzilishidir. Bu natijasida fermer xo‘jaliklarida o‘z faoliyatini rivojlantirish, yerlarning holatini yaxshilash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, uzoq muddatli investitsiyalar sarflashga bo‘lgan motivatsiya yo‘qolmoqda.

Fuqarolik Kodeksining 382-moddasiga muvofiq shartnoma taraflarning kelishuviga muvofiq o‘zgartirilishi va bekor qilinishi mumkin. Yer Kodeksining 24-moddasi, hamda “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonunning 13-moddasiga ko‘ra yer uchastkalarini ijaraga olish shartnmasini muddatidan oldin bekor qilish taraflarning kelishuvi bilan, bunday kelishuvga erishilmagan taqdirda esa sudning hal qiluv qarori bilan amalga oshiriladi. Bundan tashqari, “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi qonunning 9-moddasida ma’muriy organ manfaatdor shaxsga ma’muriy hujjatni qabul qilish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan barcha holatlar yuzasidan o‘z fikrini bildirish imkoniyatini berishi shart. Lekin, fermer xo‘jaliklariga shartnoma asosida uzoq muddatli ijaraga berilgan yerlar tuman hokimliklari tomonidan asossiz ravishda olib qo‘yilish hollari kuzatilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy sudlari tomonidan mahalliy hokimliklarning qarorlarini haqiqiy emas deb topishga doir 2019-yilda jami 3 mingga yaqin ishlar ko‘rilgan bo‘lib, ularning 42 foizi qanoatlantirilgan.

Bu kabi holatlarni inobatga olgan holda, mamlakatimiz hukumati tomonidan yerga nisbatan mulkchilik munosabatlarini takomillashtirishga alohida e’tibor berilmoqda. Jumladan, 2021-yil 8-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta’minlash, yerga bo‘lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi pf-6243-sonli farmoni qabul qilindi. Unga ko‘ra, mahalliy davlat hokimiyati organlarining yer munosabatlariga oid quyidagi

vakolatlari, ular yuzasidan qaror, farmoyish yoki boshqa turdagi hujjat qabul qilish huquqi 2021-yil 1-avgustdan bekor qilindi:

- yer uchastkalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ajratish, foydalanishga berish, kelgusida ajratish uchun zahiralash, biriktirish, obodonlashtirish uchun berish yoki yerlarni boshqacha yo‘l bilan tasarruf qilish. Bundan mazkur Farmonga muvofiq yer uchastkalarini davlat tashkilotlariga doimiy foydalanishga ajratish, ochiq tanlov yakunlarini tasdiqlash, ijara shartnomasini imzolash, yer uchastkalarini xususiylashtirish natijalarini rasmiylashtirish bo‘yicha vakolatlar mustasno;
- tuman va shahar mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni belgilash, e’tirof etish, o‘zgartirish, bekor qilish;
- sug‘oriladigan yerlarni sug‘orilmaydigan yerlar toifasiga yoki boshqa yer toifasiga, sug‘orilmaydigan qishloq xo‘jaligi yerlarini boshqa yer toifasiga o‘tkazish;
- jamoa bog‘dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligi hamda yordamchi qishloq xo‘jaligini yuritish uchun yer berish;
- xususiylashtiriladigan yer uchastkalariga nisbatan investitsiya majburiyatlari yoki xususiy mulkni erkin tasarruf etishni cheklaydigan boshqa majburiyatlarni belgilash.

Bundan ko‘rishimiz mumkinki, hokimlarning yerni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ajratish vakolati bekor qilindi.

Ushbu farmonga muvofiq, 2021-yil 1-avgustdan boshlab:

- yer uchastkalari xususiy sektorga – mulk va ijara huquqi asosida, davlat organlari, muassasalari, korxonalari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga – doimiy foydalanish huquqi asosida ajratiladi;
- meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik, doimiy egalik, vaqtincha foydalanish huquqi bilan yer ajratish tartibi bekor qilinadi, bunda ilgari ajratilgan yer uchastkalariga bo‘lgan bunday huquqlar ularning egalarida amaldagi tartibda saqlanib qoladi;
- ijaraga olingan yer uchastkasida qonunchilikda belgilangan tartibda qurilgan ko‘chmas mulk obyektiga mulk huquqi boshqa shaxsga o‘tgan taqdirda, ushbu obyektga mulk huquqi bilan birgalikda u joylashgan yer uchastkasiga bo‘lgan ijara huquqi ham yangi mulkdorga o‘tadi;
- qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar barcha turdagi qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari ishtirok eta oladigan, natijalari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va

Toshkent shahar hokimlarining qarori bilan tasdiqlanadigan ochiq elektron tanlov yakunlariga koʻra, faqat ijara huquqi asosida ajratiladi;

- qishloq xoʻjaligiga moʻljallanmagan yerlar mulk huquqi va ijara huquqi asosida elektron onlayn-auksion orqali realizatsiya qilinadi;
- davlat tashkilotlariga yer uchastkalari davlat va jamoat ehtiyojlari uchun Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining qarori bilan doimiy foydalanish huquqi bilan ajratiladi;
- barcha hollarda yer uchastkalari faqat boʻsh turgan va zahiraga olingan yerlardan ajratiladi, ayni bir hujjat bilan yoki bir vaqtning oʻzida yer uchastkasini olib qoʻyish, zahiraga olish, boshqa shaxsga ajratish yer berish tartibini buzish hisoblanadi va qonunga muvofiq javobgarlikka tortish uchun asos boʻladi.

Mazkur farmonga koʻra, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2021-yil 1-avgustdan boshlab, istisno tariqasida, faqat quyidagi hollarda yer uchastkalarini toʻgʻridan-toʻgʻri ijaraga berishga haqli:

- qishloq xoʻjaligi sohasida ilmiy tadqiqot va tajriba sinovlar amalga oshirish uchun davlat ilmiy-tadqiqot va ta’lim muassasalariga – Qishloq xoʻjaligi vazirligining taklifiga asosan;
- agrosanoat klasterlariga – yer uchastkasi normativ qiymatining ikki baravari miqdoridagi pul mablagʻi depozitga qoʻyilganda, Qishloq xoʻjaligi vazirligi, Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat hokimlarining taklifiga asosan;
- eng yaxshi taklifni tanlash orqali aniqlanadigan, qiymati kamida 10 million AQSh dollari ekvivalentida (yer maydoni hajmiga koʻra ortib boradi) boʻlgan yirik investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun – loyiha qiymatining kamida 10 foiziga teng mablagʻ avvaldan maxsus hisobraqamga joylashtirilganda;
- chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarga, xalqaro birlashmalar va tashkilotlarga, chet ellik yuridik va jismoniy shaxslarga – ijaraga olish huquqini olganlik uchun bozor qiymatida haq toʻlagan holda.

4. Qishloq xo‘jaligida yer resursidan foydalanish samaradorligini yanada oshirish yo‘llari.

Mamlakatimiz aholisining soni so‘nggi yillarda 600-650 ming kishiga oshayotganligi, shu bilan birga sanoat korxonalari soni va ishlab chiqarish quvvatlarining ko‘payishi qishloq xo‘jalik mahsulotlariga bo‘lgan talabni oshirmoqda. Ushbu talabni qondirish va mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash uchun mavjud qishloq xo‘jalik yerlaridan samarali foydalanish talab etiladi.

Yer resursidan foydalanishni yanada takomillashtirishda rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qishloq xo‘jaligida yerdan foydalanish sohasida Xitoy tajribasi.

Xitoy Xalq Respublikasining hayratlanarli iqtisodiy o‘sishi aynan qishloq xo‘jaligidan boshlangan. 1978-yilning dekabr oyida Xitoyning Anxuey provinsiyasidagi Syaogang nomli qishlog‘ida 21 ta oila yashar edi. Boshqa qishloqlar kabi bu yerda ham ocharchilik hukm surmoqda edi. Qishloq faollari tajriba o‘tkazishadi: jamoa bo‘lib ishlatilayotgan umumiy yerlarni o‘sha 21 oilaga bo‘lib berishga qaror qilishadi – har bir oila o‘ziga biriktirilgan yerda dehqonchilik qilishi uchun.

Kichkina qishloqda o‘tkazilgan mazkur kichkina islohot yaxshi natija berdi. Bu ijobiy natija xabari hokimiyat tepasiga kelgan va “Islohot va ochiqlik siyosati”ni e’lon qilgan Den Syaopinga yetib boradi. 1979-yilda mamlakat rahbarlari o‘rtasida turli fikr va qarashlar to‘qnashadi va natijada hamma narsani jamoalashtirish, davlatlashtirish siyosatidan chekinib, qishloqlarda oilaviy dehqon va hunarmandchilik xo‘jaliklarini tiklash, shaxsiy manfaatdorlik omilini kuchaytirish tarafdorlari ustun keladi – islohot o‘tkazishga qaror qilinadi. Kichkinagina Syaogang qishlog‘i tajribasi dastlab Xitoyning bir provinsiyasida sinab ko‘rilib, yaxshi natijaga guvoh bo‘lingandan keyin uni butun Xitoy miqyosida qo‘llashga kirishiladi. 180 million oilaga avvaliga 1-3 yilga, keyin 50 yil va undan uzoq muddatga ijaraga yer ajratib beriladi. Natijada, 180 million oila iqtisodiy faol qatlamga aylana boshladi. Aynan shu omil barchasidan yuqori qo‘yildi.

Saldan keyin “dehqon xo‘jaliklari mas’uliyati siyosati” deb nom olgan tadbirlar amalga oshirildi. Bu tadbirlar doirasida dehqonlar o‘zi yetishtirgan mahsulotning bir qismini erkin narxda sotishi mumkin qilindi. Qishloqlarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorlari vujudga keldi. Biroq bu boshlanishi edi. 1981-yilga kelib, 98 foiz ekin yerlari

dehqon oilalari tasarrufida edi. Xitoy Konstitutsiyasida fuqarolarning xususiy mulkchilik huquqlari biriktirildi, bu ham qishloqlarda xususiy tashabbusni qo‘llab-quvvatlovchi omil bo‘ldi.

Dehqonlar o‘z manfaatlarini ko‘zlab, o‘z ixtiyorlari bilan kichik kooperativlarga, keyin esa assotsiatsiyalarga birlasha boshlashdi. 1985-yilda Xitoy o‘zining ko‘p sonli aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlab, don eksport qila boshladi.

Xitoy dehqonlari boyigani sayin o‘z ehtiyojlari uchun moddiy-texnika resurslarini, sanoat mollarini sotib ola boshlashdi. Sanoat mollariga talab orta boshladi va bu sanoat rivojiga turtki berdi. Xususan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ko‘paygani qayta ishlash sanoati rivojini ta’minladi – “zanjir” ishga tushdi. Umuman olganda, Xitoy qishloqlarida o‘tkazilgan islohot kichik xo‘jaliklarni har tomonlama rivojlantirish zamirida ulkan salohiyat borligining yorqin namunasidir. Biz o‘rganayotgan holatda, agrar sohasi islohoti boshqa barcha sohalarning rivojiga xizmat qildi, Xitoyning og‘ir kunlarida siyosiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minladi. 2004-yilga kelib Xitoy qishloqlarida 22 milliondan oshiq korxonalar yuzaga keldi, 138 million odam bu korxonalarda ish bilan band bo‘ldi.

Xitoydagi qishloq xo‘jaligi islohotidan olinadigan muhim xulosalar bor va aynan shu xulosalarni anglash biz uchun muhimdir. Xitoy qishloq xo‘jaligida amalga oshirilgan ushbu islohot, ya’ni jamoa bo‘lib ishlatilgan yerlarning oilalarga bo‘lib berilishi ulkan o‘zgarishlarni keltirib chiqardi – “zanjirli reaksiya”ni paydo qildi. Yana shuni aytish kerakki, Xitoy hukumatidan qishloqlarni isloh qilish deyarli hech narsa talab qilmadi, shunchaki jamoa xo‘jaliklariga barham berilib, yerlar oilalarga bo‘lib berildi. Sohada ijobiy o‘zgarishlar esa o‘z-o‘zidan keldi – moddiy manfaatdorlikning yuksalishi hisobiga dehqonlarning faollashuvi orqali.

Bu kabi islohot O‘zbekistonning yaqin tarixida ham amalga oshirilgan. Mustaqillikning ilk davrida yuzaga kelgan qiyin iqtisodiy vaziyatdan chiqib ketish uchun qishloq aholisiga shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarini yo‘lga qo‘yish uchun tomorqa sifatida yer ajratib berildi, jamoa va davlat xo‘jaliklari yerlari oilaviy pudrat asosida oilalarga berildi. Aynan shu islohot natijasida iqtisodiy tang holatdan chiqib ketishga muvaffaq bo‘lingan edi. Chunki bir necha million oila o‘z yerida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtira boshladi, yetishtirgan mahsulotlarini o‘z iste’moli uchun sarfladilar, ortiqchasini mamlakat ichki bozorlarida sotdilar. Ayrim oilalar esa o‘zlari yetishtirgan qishloq

xo‘jaligi mahsulotlarini MDH mamlakatlari bozorlariga olib borib sota boshladilar. Qishloqlarda iqtisodiy hayot “qaynadi”, mamlakatga valyuta kira boshladi. Bu holat davlat tomonidan hech qanday mablag‘ sarflanmasdan, shunchaki yerda ishlashga xohish bildirgan oilalarga yer berish orqali amalga oshirildi. Tabiiyki, moddiy ahvoli yaxshilangan qishloq ahli o‘zlariga kerakli tovarlarni sotib ola boshladi, xizmatlardan foydalandilar. Bu esa iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari – sanoat va xizmat ko‘rsatishning rivojlanishiga turtki berdi. Xuddi Xitoydagi kabi zanjirli reaksiya ishga tushayotgan edi. Biroq, keyinchalik O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida faoliyat yuritayotgan tovar xo‘jaliklarini mustaqil dehqonlarga aylantirib borish, yer egalari sonini ko‘paytirish o‘rniga, aksincha, davlat buyurtmasi asosida faoliyat yurituvchi xo‘jaliklarga aylantirish yo‘lidan borildi.

So‘nggi yillarda prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan qishloq aholisiga yerlarni ijara asosida berishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, fermer xo‘jaliklari yerlaridan “Yoshlar daftari” va “Ayollar daftari”ga kiritilgan kam ta’minlangan oilalarga yerlar qisqa muddatli ijaraga berilmoqda. Bundan tashqari, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev 2021-yil 1-2-iyun kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrifi chog‘ida Surxondaryoda boshlanayotgan tajriba asosida ishsiz aholiga qishloq xo‘jaligi yerlarini 10 yil muddatga dehqonchilik qilish bilan shug‘ullanish uchun ijaraga berish tartibi joriy qilinishi, 2021-yildan boshlab qariyb 100 ming gektar g‘alladan bo‘shagan yer maydonlari aholiga dehqon xo‘jaligi tashkil etish uchun berilishini ma’lum qildi. Bu kabi islohotlar yerdan foydalanish bo‘yicha rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalariga mos keladi va kelgusida o‘zining ijobiy natijalarini beradi.

Ba’zi mamlakatlarda yer huquqlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri cheklovlardan tashqari bilvosita xarakterga ega, lekin undan kam bo‘lmagan samaraga ega chora-tadbirlar ham muvaffaqiyat bilan qo‘llanilmoqda. Masalan, ushbu maqsadlarda Angliyada quyidagi tartibga solish vositalari ishlatiladi: yer oldi-sotdi bitimlariga yuqori soliq stavkalari; yer sotib olishda kredit uchun yuqori foizlar; yerni sotib olish uchun kredit rasmiylashtirishda sezilarli byurokratik to‘siqlar va hokazo.

Xorij mamlakatlarining yer resurslaridan foydalanish jarayonlarini boshqarish tajribalarini umumlashtirish quyidagi xulosalarni keltirib chiqarishga imkon beradi:

• dunyoning hech bir mamlakatida yerga cheklanmagan mulkchilik mavjud emas, har qanday mulk shaklining amal qilishi jamiyat va davlat manfaatlarining ustunligini ta’minlashni inobatga oladi;

• barcha rivojlangan mamlakatlarda davlat yer munosabatlarini huquqiy va iqtisodiy tartibga solish, yer resurslaridan foydalanish va ularni saqlash bo‘yicha nazoratni amalga oshirish orqali yer munosabatlariga faol aralashadi;

• yer bozori (ayniqsa qishloq xo‘jalik yerlariga nisbatan) davlat tomonidan qat’iy chegaralanadi va nazorat qilinadi, bu yer uchastkalari bozori aylanmasi tezligida namoyon bo‘ladi;

• rivojlangan xorijiy mamlakatlarda yer resurslarini boshqarishda davlatning yetakchilik rolini saqlash uchun mulkchilikdan yer uchastkalari ijarasiga o‘tish ustuvorligiga erishish tendensiyasi shakllanmoqda;

• dunyoning barcha mamlakatlarida unumli qishloq xo‘jaligi yerlarining noqishloq xo‘jalik ehtiyojlari uchun ajratilishidan himoyalash maqsadida qishloq xo‘jalik yer egaligi va yerdan foydalanishning ustuvorligi tamoyillari rasman e’lon qilingan va qat’iyan amalga oshiriladi.

Qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanishni yanada takomillashtirish bo‘yicha davlat siyosatini ishlab chiqishda rivojlangan davlatlarning ilg‘or tajribalari, xalqimizning milliy mentaliteti va mahalliy sharoitlarni inobatga olish yuqori samaraga erishish imkonini beradi.

Respublika hududi o‘ziga xos tuproq va iqlim sharoitiga ega bo‘lib, tabiiy drenajning yetishmasligi, yer osti suvlari minerallashuvi darajasining yuqoriligi natijasida bir qator hududlar “birlamchi sho‘rlangan”. Shu bilan birga, suv resurslaridan oqilona foydalanmaslik va boshqa antropogen omillarning salbiy ta’siri natijasida ayrim hududlarda yerlarning “ikkilamchi sho‘rlanishi” kuzatilib, 45,7 foiz sug‘oriladigan yer maydoni turli darajada sho‘rlangan. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda yer resurslaridan samarali foydalanish talab etiladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2020-yilda 91 ming gektar yer maydoni qaytadan foydalanishga kiritildi.

Yer resurslaridan to‘liq va samarali foydalanish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- yer islohotlarini doimiy takomillashtirib borish;
- meliorativ holati yomonlashgan yerlarda irrigatsiya va melioratsiya tadbirlarini o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish;

- zamonaviy, samarali texnikalarni, ilg‘or texnologiyalarni qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishiga joriy etish;
- ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan almashlab ekishni yo‘lga qo‘yish;
- ekologiyaga salbiy ta’sir ko‘rsatmagan holda mahalliy va mineral o‘g‘itlardan oqilona foydalanish;
- agrotexnik tadbirlarni sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish;
- ishchi va xizmatchilarni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni hal etish;
- yer munosabatlarini takomillashtirish va erkinlashtirish.

Qishloq xo‘jaligi yerlaridan oqilona foydalanish tadbirlarini quyidagi to‘rtta guruhga ajratish mumkin:

1) tashkiliy tadbirlar, bunga quyidagilar kiradi:
- ilmiy asoslangan yer tuzish;
- hududlar bo‘yicha ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirish;
- yagona yer monitoringi tizimini olib borish;
- davlat yer kadastrini to‘liq amalga oshirish;
- davlat va jamoat ekspertizasini yo‘lga qo‘yish;
- yerdan foydalanish va uni muhofazalash nazoratini kuchaytirish va hokazo.

2) huquqiy tadbirlar, bunga quyidagilar kiradi:
- tabiatni muhofaza qilish qonunchiligi normalarini takomillashtirish;
- tabiiy resurslar qonunchiligi normalarini takomillashtirish;
- yerdan foydalanish normalarini takomillashtirish;
- ekologik huquqiy mexanizmni takomillashtirish;
- yer huquqbuzarligiga nisbatan jazoning muqarrarligini ta’minlash va hokazo.

3) iqtisodiy tadbirlar, bunga quyidagilar kiradi:
- holati yomon yerlarni imtiyozli soliqqa tortish;
- tuproq muhofazasi tadbirlarini kreditlash;
- qishloq xo‘jaligida faoliyat yurituvchi tadbirkorlarning yer va suvdan samarali foydalanish bo‘yicha manfaatdorligini oshirish;
- yerlarni rekultivatsiya qilish(qayta tiklash) va meliorativ holatini yaxshi-lashga davlat tomonidan beriladigan ko‘makni takomillashtirish va hokazo.

4) texnologik tadbirlar, bunga quyidagilar kiradi:
- yerlarni tubdan rekultivatsiyalash va meliorativ holatini yaxshilash texnologiyalarini ishlab chiqish;
- almashlab ekish tizimini joriy etish va unga qat’iy amal qilish;

- noqishloq xo‘jalik va sanoat o‘zlashtirishning yagona texnologiyasini yaratish;
- yerlarni qayta tiklash texnologiyalarini joriy etish;
- talab etiladigan joylarda ixotazorlar tashkil etish;
- erroziyaga qarshi kurash tadbirlari va sellarning salbiy oqibatlari oldini olish inshootlarini barpo etishni yanada rivojlantirish va hokazo.

Qisqacha xulosalar

Yer qishloq xo‘jaligining asosiy ishlab chiqarish vositasidir. Chunki qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish bevosida yerda amalga oshadi. Yer resurslaridan yil davomida to‘liq va samarali foydalanish tarmoqda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Yer resurslaridan to‘liq va samarali foydalanganlik darajasini ma’lum bir ko‘rsatkichlar tizimi yordamida tahlil etish lozim.

Kelajakda yer resurslaridan foydalanish darajasini hamda iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun tuproq unumdorligini, sug‘orish tizimini yaxshilashga qaratilgan barcha tadbirlar o‘z vaqtida, sifatli bajarilishini ta’minlash zarur. Mamlakat miqyosida yer monitoringi va kadastri talab darajasida amalga oshirilishini ta’minlash kerak.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Yer resurslarining qishloq xo‘jaligidagi ahamiyati nimadan iborat?
2. Yer resursining o‘ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?
3. Yer resursining tarkibi nimalardan iborat?
4. Yer resurslaridan foydalanish holati hamda samaradorligiga baho berishda qanday ko‘rsatkichlardan foydalaniladi?
5. Davlat yer kadastri, uning tarkibi, amalga oshirilishi haqida nimalarni bilasiz?
6. Yer resurslari bo‘yicha mamlakatimizda qanday me’yoriy hujjatlar qabul qilingan?
7. Yer monitoringining mazmuni nima?
8. Yerning me’yoriy qiymatini aniqlash tartibi qanday?
9. Yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishning qanday yo‘llari bor?

BOB YUZASIDAN AMALIY TOPSHIRIQLAR:

1-topshiriq:

“Baliq skeleti” usuli yordamida qishloq xo‘jaligida yer resurslarining o‘ziga xos xususiyatlarini yoritib berish.



2-topshiriq:

Nilufar guli usuli yordamida qishloq xo‘jalik yerlarining meliorativ holati yomonlashuviga ta’sir etuvchi omillar va ularni bartaraf etish yo‘llarini tahlil qilish.

	B	

	C	

	D	

	I	

B	**C**	**D**
I	**A**	**E**
H	**G**	**F**

	E	

	H	

	G	

	F	

Nilufar guli - muammoni yechish yo‘llarini ko‘rsatib beruvchi usuldir. O‘zida nilufar guli ko‘rinishini namoyon qiladi. Uning asosini to‘qqizta to‘g‘ri to‘rtburchak tashkil etadi. Bunda A – qo‘yilayotgan asosiy muammo, ya’ni qishloq xo‘jalik yerlarining meliorativ holati yomonlashuvi; B,C,D,E,F,G,H,I – esa ushbu muammoga ta’sir etuvchi

omillar, har bir omil alohida olinib, uni hal etish yo‘llari yozib chiqiladi. Ushbu usul tizimli fikrlash, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi va faollashtiradi.

3-topshiriq:

Klaster usuli yordamida yer va suv resurslaridan foydalanish holati va samaradorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar va ularni aniqlash tartibini ko‘rsatib berish.



Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Yer resursining qishloq xo‘jaligidagi ahamiyati va o‘ziga xos xususiyatlari.
2. Qishloq xo‘jaligida yer resursidan foydalanish holati va samaradorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar hamda ularni aniqlash tartibi.
3. Yer monitoringi va davlat yer kadastri.
4. Qishloq xo‘jaligida yer solig‘ini hisoblash va to‘lash tartibi.
5. Yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish va uni rag‘batlantirish tizimi.

5-BOB: QISHLOQ XO‘JALIGIDA SUV RESURSLARI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

1. Suv resurslarining qishloq xo‘jaligidagi ahamiyati.
2. Mamlakatimizda suv xo‘jaligini boshqarish tizimi.
3. Suvdan foydalanish holati va samaradorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar, ularni aniqlash tartibi.
4. Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini yanada oshirish yo‘llari.

Tayanch iboralar: suv resursi, suv xo‘jaligi, suv manbalari, sug‘orish tizimi, kollektor-zovur suvlari, melioratsiya tadbirlari, irrigatsiya tizimlari, sug‘orishning tejamkor usullari.

1. Suv resurslarining qishloq xo‘jaligidagi ahamiyati.

Tabiat boyliklari orasida suv alohida o‘rin tutadi. Chunki barcha tirik organizmlar hayotining asosiy manbai suvdir. Yer sharining 72 foizi dunyo okeani bilan band bo‘lsada, chuchuk suvlar miqdori juda cheklangan. Yer usti chuchuk suvlari miqdori 360 ming km^3 bo‘lib, bu gidrosferaning atigi 0,25 foizini tashkil etadi. Suv tiriklik manbaidir, uni e’zozlash, undan tejab-tergab foydalanish kerak.

Mamlakatimizning iqlim sharoitiga ko‘ra tabiiy namlik darajasi dehqonchilik bilan shug‘ullanish va chorvachilikni ozuqa bazasi bilan to‘liq ta’minlash uchun yetarli emas. Shu sababli qishloq xo‘jaligida suv resursining ham ahamiyati juda katta.

O‘zbekiston Respublikasi Orol dengizi havzasida joylashgan bo‘lib, uning asosiy suv manbai Amudaryo va Sirdaryo daryolari, shuningdek, ichki daryo va ko‘llar hamda yer osti suvlaridir. Orol dengizi havzasidagi barcha manbalarning o‘rtacha ko‘p yillik suv oqimi 116 km^3ni tashkil etadi, shundan 67,4 foizi Amudaryo havzasida va 32,6 foizi Sirdaryo havzasida shakllanadi. Jumladan, yer osti suvlarining umumiy zahirasi 31,2 km^3ni tashkil etib, uning 47,2 foizi Amudaryo havzasiga, 52,8 foizi esa Sirdaryo havzasiga to‘g‘ri keladi.

O‘zbekiston hududini ikkita yirik daryo: Amudaryo va Sirdaryo kesib o‘tadi, ularning suv olish havzalari Tyan-Shan va Pomir-Oloy tizimi tog‘larida joylashgan. O‘zbekiston hududidan oqib o‘tuvchi eng yirik daryo Amudaryo hisoblanadi. Uning tog‘ qismida suv oluvchi havzasi 227 ming km^2, uning havzasidan har yili o‘rtacha 79 km^3 suv

oqib o‘tadi. Shundan respublikamiz hududida taxminan 6 km^3 (7,5 %) suv oqimi vujudga keladi. Sirdaryoning tog‘li qismidagi suv oluvchi havzasi maydoni 150 ming km^2, ushbu havzada har yili o‘rtacha 38 km^3 suv oqib o‘tadi. Shundan taxminan 4 km^3 (qariyb 10 %) suv O‘zbekistonda vujudga keladi. Ushbu daryolar transchegaraviy daryolar bo‘lib, ularning suvidan qo‘shni respublikalar ham foydalanadi. Mamlakatimiz suv resurslarining qariyb 80 foizi transchegaraviy suv havzalari hisobiga shakllanadi. Mazkur holat Markaziy Osiyoda, xususan O‘zbekiston Respublikasida suv resurslarini barqaror boshqarish uchun mintaqaviy hamkorlikning muhimligini belgilaydi.

Orol havzasida aholining ko‘pligi va ular sonining barqaror oshib borishi sug‘oriladigan dehqonchilikni muttasil rivojlantirishni talab etadi. Bu hol daryolardan ko‘p miqdorda suv olinishiga olib keladi. 1960-yilga kelib Markaziy Osiyoda salkam 5 mln. gektar maydonni sug‘orish uchun 40,4 km^3 suv olingan holda, 1986-yil oxirida qariyib 7 mln. gektar maydonni sug‘orish uchun 86 km^3 suv olingan. Sug‘orish maydoni 2 mln. gektarga ortgan holda sug‘orish uchun sarf qilingan hajm ikki baravardan ham ortiq bo‘lgan. Binobarin, ekinlarni suv bilan ta’minlash uchun juda ko‘p suv olinganligi ayon bo‘ladi. Ko‘p miqdordagi suvning sug‘orish va boshqa maqsadlarga sarflanishi o‘lkada suv tanqisligini kuchaytira boshladi. Shu vaqtga kelib Markaziy Osiyoda yirik suv omborlari: To‘xtog‘ul, Andijon, Chorvoq, Chordara, Qayroqqum, Nurek, Janubiy Surxon, Hovuzxon, Tuyamo‘yin va boshqalar qurildi. Ularda ko‘plab suv g‘amlab olina boshlandi. Bu hol, ayniqsa, Orol dengizi suv rejimida yanada kuchliroq sezila boshlanishi tufayli uning gidrologik xususiyatlarida o‘zgarishlar kuchaydi. Mutaxassislarning ma’lumotiga ko‘ra, 1911-1960 yillar davomida Orol dengiziga har yili o‘rtacha 52 km^3 suv quyilib kelgan va uning sathi muntazam ravishda 53 m balandlikda bo‘lgan, dengiz maydoni 66 ming km^2, suv hajmi 1061 km^3 ga teng edi. Ushbu yillar mobaynida dengizga kelgan suv bilan uning suv sarfi deyarli teng bo‘lgan. Orol sathining 1961 yildan boshlab pasayishi turli yillarda turlicha sodir bo‘lgan. 1961-1970 yillar mobaynida pasayish o‘rtacha 21 sm, 1971-1980 yillarda 58 sm, 1981-1985 yillarda 80 sm, 1986-1995 yillarda 46 smni tashkil qildi. Ayrim yillarda suv sathining pasayishi hatto bir metrdan ham ziyod edi. Orol dengizi qurigan qismining (maydoni 3,8 mln. gektardan ortiq) tabiiy sharoiti o‘ziga xos bo‘lib, bu yerlar asosan barxan qumlari va tuzlar bilan band. Ushbu global ekologik muammoni hal etish borasida mamlakatimiz hukumati zarur choralarni amalga oshirmoqda va xalqaro

hamjamiyatning e’tiborini ushbu masalaga qaratmoqda. Mazkur muammoni yechishda mintaqadagi mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar hamkorlikda harakat qilishi yuqori samara beradi.

Respublikamizda sug‘oriladigan yerlar maydoni 4,2 mln. gektardan ortiq bo‘lib, jami suv resurslarining 90-91 foizi qishloq xo‘jaligida, 4,5 foizi kommunal-maishiy xo‘jalik sohalarida, 1,4 foizi sanoatda, 1,2 foizi baliqchilikda, 0,5 foizi issiqlik energetikasida, 1 foizi esa iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida foydalaniladi.

Iqtisodiyot tarmoqlari, jumladan, qishloq xo‘jaligini suv bilan ishonchli ta’minlash, shuningdek, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash maqsadida respublikamizda suv xo‘jaligi tizimi barpo qilingan. Suv xo‘jaligi tizimida 28,4 ming km irrigatsiya tizimi va ulardagi 54432 ta har xil gidrotexnika inshootlaridan, shuningdek, umumiy hajmi 19,4 km^3 bo‘lgan 70 ta suv ombori va sel omboridan foydalanib kelinmoqda.

Suv resurslarining nomutanosib taqsimlanishi va sug‘oriladigan yerlarning murakkab relyefga ega ekanligi natijasida sug‘oriladigan yerlarning 60 foiziga yaqin qismiga 1687 ta nasos stansiya yordamida suv yetkazib berilib, ularning yillik elektr energiyasi iste’moli 8 mlrd kVt.s ni tashkil etadi. Bundan tashqari, suv iste’molchilari uyushmalari, fermer xo‘jaliklari va klasterlar tomonidan jami 155,2 ming km sug‘orish tarmog‘i va 10280 tadan ziyod nasos agregatlari ishlatilmoqda. Sug‘orish ehtiyojlari uchun jami 12,4 mingta, jumladan suv xo‘jaligi tizimida 4153 ta sug‘orish quduqlaridan foydalanilmoqda.

Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash uchun umumiy uzunligi 142,9 ming km, shundan 106,2 ming km ochiq va 36,7 ming km yopiq gorizontal kollektor-drenaj tarmog‘i, shuningdek 172 ta meliorativ nasos stansiyasi, 3897 ta vertikal drenaj quduq ishlatilmoqda.

1993-yil 6-mayda O‘zbekiston Respublikasining “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilingan bo‘lib, suv resurslaridan foydalanishni tartibga solib boruvchi asosiy me’yoriy hujjatlardan biri hisoblanadi. Ushbu qonun 29 bob, 119 moddadan iborat. Ushbu qonunning 3-moddasida “Suv O‘zbekiston Respublikasining davlat mulki – umummillliy boylik hisoblanadi, suvdan oqilona foydalanish lozim bo‘lib, u davlat tomonidan qo‘riqlanadi” – deb belgilangan.

Suvdan foydalanish tartibi suv xo‘jaligi organlari tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, suv maxsus foydalanish ruxsatnomasi bo‘lganlarga limit bo‘yicha beriladi. Suv olish va uning hisob-kitobini qilish suv

xo‘jaligi organi bilan tuzilgan shartnomaga binoan amalga oshiriladi. Sug‘orish va suv bilan ta’minlashni magistral kanallar, suv omborlari va boshqa suv xo‘jaligi obyektlari bajaradi. Suvdan foydalanish ishlari ichki xo‘jalik va suv tizimi rejalariga asosan amalga oshiriladi.

Qishloq xo‘jaligidagi foydalaniladigan suvni monitoring qilish orqali salbiy jarayonlarning sabablari va oqibatlari o‘rganilib, ularni bartaraf etish va suvdan foydalanish samaradorligini oshirishga erishiladi. Suvdan samarali foydalanishda suvning aniq hisob-kitobini yo‘lga qo‘yish, suv o‘lchash qurilmasi, ya’ni gidropostlar qurishni tashkil etish, xo‘jalik ichki ariqlarini tozalash, suv sarfi isrofgarchiligini bartaraf etish muhim ahamiyatga ega.

Qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan suvlarning sifati ham barcha viloyatlarda bir xilda bo‘lmay, bir-birlaridan farq qiladi. Masalan, Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlarining aksariyat hududlarida ekinlarni sug‘orishda foydalaniladigan suvlarning sifati yaxshi, ya’ni ularning tarkibida hosildorlikka salbiy ta’sir etuvchi turli xildagi minerallar kam, lekin Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm viloyati hududlarida foydalanilayotgan suvlarning tarkibida xlor va boshqa moddalar ko‘p. Shuning uchun ham ularning sifati nihoyatda yomon. Bunday hol qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish hajmiga, sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Kelajakda yerlarning unumdorligini oshirish, suvlarning sifatini yaxshilashga qaratilgan barcha tadbirlar majmuasini samarali amalga oshirish orqali zarur qishloq xo‘jalik mahsulotlari miqdorini ko‘paytirishga va sifatini yaxshilashga erishish mumkin.

Kollektor-zovur suvlarining bir yillik oqimi butun Orol havzasida hozirgi vaqtda o‘rtacha 33 km^3ni tashkil etadi, shundan 17 km^3 Amudaryo, 13 km^3 Sirdaryo, 3 km^3 kichik daryo havzalarida vujudga keladi, 20 km^3 zovur suvi Amudaryo va Sirdaryoga qaytadan tashlanadi, qolgan qismi Qoraqum va Qizilqumdagi bekiq botiqlaridagi ko‘llarga yuboriladi. Kollektor-zovur suvlarini daryolarga qaytadan tashlanishi ularning suv hajmini oshiradi, boshqacha aytganda suvni tejashga erishiladi, ko‘llarga tashlangan suv esa bug‘lanishga sarf bo‘ladi. Bu bir jihatdan foydali. Lekin kollektor-zovur suvlarining XX asrning 60-yillaridan boshlab daryolarga tashlanishi ularning suvini asta-sekin ifloslanishiga olib keldi. Yaqin vaqtlargacha daryo suvlari asosiy ichimlik manbai bo‘lib kelgan. Endilikda, ulardan ichimlik suvi sifatida foydalanish darajasi pasayib bormoqda.

Kollektor-zovur suvlarining 8-10 km^3 qismi respublika hududida turli kattalikdagi botiqliklarga markaziy kollektorlar orqali yuboriladi.

Buning oqibatida ko‘plab sun’iy ko‘llar paydo bo‘ldi (Arnasoy, Aydarko‘l, Dengizko‘l, Katta Sho‘rko‘l, Oyoqog‘itma, Ayozko‘l, Axchako‘l, Sariqamish va boshqalar). Ularda hozirgi kunda katta hajmda suv to‘plangan. Aydarko‘lda jamg‘arilgan suv miqdori 30 km^3 dan ziyod. Sariqamishda esa bundan ham ko‘p. Gap shundaki, suvning asosiy qismi bekorga bug‘lanishga sarf bo‘lmoqda. Ularning ba’zilaridan baliqchilikda foydalaniladi, lekin bu hol suvdan oqilona foydalanish tamoyiliga to‘liq javob bermaydi. Iqtisodiy jihatdan zarari shundaki, botiqlar bundan avval mahsuldor yaylov sifatida foydalanilgan, endilikda yaylovlar maydoni qisqardi. Bundan tashqari tevarak atrofida grunt suv sathining ko‘tarilishi yaylov mahsuldorligining kamayishiga ta’sir etdi. Chunonchi, Aydarko‘l 1969-yilgacha Forish tumanining asosiy yaylov maydoni hisoblangan, hozir esa yaylov maydoni 600 ming gektarga qisqardi.

2. Mamlakatimizda suv xo‘jaligini boshqarish tizimi.

Mustaqil rivojlanish yillarida hukumatimiz tomonidan suv xo‘jaligini boshqarishni takomillashtirishga alohida e’tibor berilmoqda. Suv xo‘jaligini davlat tomonidan boshqarishni takomillashtirish va samaradorligini oshirish, mas’uliyat sohalarini aniq chegaralash va oydinlashtirish, ushbu sohada dolzarb va muayyan muammolarni hal etish uchun mavjud kuch va vositalar bilan oqilona ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-fevraldagi “Qishloq va suv xo‘jaligini davlat tomonidan boshqarish tizimini tubdan takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5330-sonli farmoniga binoan O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi negizida O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligining Suv xo‘jaligi bosh boshqarmasi suv resurslaridan foydalanishni tartibga solish hamda respublika iqtisodiyoti va aholisini suv bilan ta’minlashga doir zarur tadbirlarni amalga oshiradi. Uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- suvdan foydalanishda bozor islohotlarini joriy etish, suvdan maqsadli va samarali foydalanishni tashkil etish;
- suv xo‘jaligiga suvni tejovchi ilg‘or texnologiyalarni joriy etish;
- iste’molchilarni suv bilan uzluksiz o‘z vaqtida ta’minlash;

- suvdan foydalanish hisobi va hisobotini yuritishni ta’minlash;
- suv xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, mulkchilikning turli shakllarini rivojlantirish ishlarini muvofiqlashtirish va ular amalga oshirilishining monitoringini yuritish;
- mavjud me’yoriy hujjatlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish, qonun buzilishi hollarida belgilangan tartibda chora ko‘rilishini ta’minlash;
- suv xo‘jaligi uchun yangi inshootlar qurilishini va mavjudlarining rekonstruksiya qilinishini ta’minlash;
- suvdan foydalanish uchun maxsus ruxsatnomalar berishni va suv inshootlarini ro‘yxatga olish, suvdan foydalanuvchilar uyushmalari va ularning boshqa birlashmalarini tashkil etish va rivojlantirishda, ichki xo‘jalik suv hisobini tashkil etishda uslubiy va amaliy yordam ko‘rsatish;
- suv resurslarini tartibga solish va ulardan foydalanish, suv xo‘jaligini va yerlarni melioratsiyalash bo‘yicha davlatlararo masalalarni muhokama qilish va hal qilishda respublika nomidan ishtirok etish.

Mamlakatimizdagi mavjud suv xo‘jalik tashkilotlari va xizmat ko‘rsatuvchi tuzilmalar hamda ularning hududiy bo‘linmalari negizida Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi tuzilgan. Uning vazifasi xalq xo‘jalik tarmoqlari hamda qishloq xo‘jalik korxonalarida mahsulot yetishtirish uchun suv bilan ta’minlash va suv xo‘jaliklariga servis xizmat ko‘rsatishdan iboratdir. Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligining suv xo‘jaligi sohasidagi hududiy organi hisoblanib, suv resurslarini tartibga solish va foydalanishni amalga oshiradi.

Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasining asosiy vazifalari – suvdan foydalanishning bozor mexanizmlarini joriy etish asosida suv resurslaridan maqsadli va samarali foydalanilishini tashkil etish; suvni tejash, ilg‘or texnologiyalarni joriy etish asosida suv xo‘jaligida yagona texnika siyosatini yuritish; iste’molchilarni suv bilan uzluksiz va o‘z vaqtida ta’minlashni tashkil etish; suv inshootlarining texnik ishonchliligini ta’minlash; suv resurslarini oqilona boshqarish va tezkorligini oshirish; suv iste’molchilari o‘rtasida yillik hisobotini ta’minlashdan iborat.

Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasining asosiy funksiyalari – suvdan foydalanish bashoratini umumlashtirib, O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligiga suv olish limitlari bo‘yicha takliflar kiritib, tasdiqlangan limitlar asosida magistral kanallar, suv

xo‘jaligi obyektlari, irrigatsiya tizimlari, viloyat va tumanlar bo‘yicha suv olish limitlarini belgilaydi, nasos stansiyalari ish rejimini belgilaydi.

Magistral kanallar boshqarmasi Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasining tashkiliy bo‘linmasi hisoblanib, suv resurslarini tartibga solish bo‘yicha faoliyat yuritadi. Magistral kanallar boshqarmasining asosiy vazifalari quyidagilar:

- magistral kanallar, inshootlar va suv resurslarini oqilona boshqarish, uning tezkorligini oshirish;
- suv inshootlarining texnik ishonchliligini ta’minlash, ishonchli foydalanish uchun ish holatida saqlash;
- suv bo‘yicha hisob-kitob yuritish;
- suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish, ajratilgan mablag‘lar, moddiy-texnika resurslari, asbob-uskunalardan samarali foydalanish.

Ayrim yillarda yog‘ingarchilik miqdori kam bo‘lishi natijasida suv resurslari taqchilligi kuzatilmoqda. Shu sababli mamlakatimizdagi sug‘orish tizimlarining holatini yaxshilash, mavjud suvdan oqilona foydalanish va sug‘orishning zamonaviy usullarini amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir.

3. Suvdan foydalanish holati va samaradorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar, ularni aniqlash tartibi.

Suvning qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishidagi ahamiyatini inobatga olib, ulardan foydalanishning holati va samaradorligi ustidan nazorat qilib borish zarur. Bunda quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalanish mumkin:

a) suvdan foydalanish koeffitsiyenti. Ushbu ko‘rsatkich haqiqatda sug‘orilgan maydonni shu suv bilan sug‘orilishi mumkin bo‘lgan maydonga taqsimlash natijasida aniqlanadi. Buning uchun quyidagi tenglikdan foydalanish mumkin:

$$SFK = \frac{SM}{SMM}$$

Bunda: *SFK* - suvdan foydalanish koeffitsiyenti yoki foizi;

SM - haqiqatda sug‘orilgan maydon, ga;

SMM - sug‘orilishi mumkin bo‘lgan maydon,ga.

Buni aniqlash natijasida suvdan foydalanish darajasi belgilanadi. Bu ko‘rsatkichni aniqlashda ekinlarga suv berish me’yoriga alohida e’tibor berish maqsadga muvofiqdir. Chunki unga rioya qilinsa, albatta, suvdan foydalanish darajasi yuqori bo‘ladi. Demak, uning darajasi, ya’ni

koeffitsiyenti 1 ga yoki 100 foizga imkon qadar yaqin bo‘lishi kerak. Agarda past yoki yuqori bo‘lsa, unda ekin maydonlari sifatli sug‘orilmagan bo‘ladi.

b) suvdan foydalanish samaradorligi. Bu ko‘rsatkich yordamida har 1 m^3 suv evaziga olingan yalpi mahsulot miqdori, qiymati, daromad va sof foyda summasi quyidagi tengliklar yordamida aniqlanadi:

$$SFS = \frac{YH}{FSM};\frac{YMQ}{FSM};\frac{YD}{FSM};\frac{SF}{FSM}$$

Bunda: *SFS* - suvdan foydalanish samaradorligi;

FSM - foydalanilgan suv miqdori, m^3

Bu natural hamda qiymat ko‘rinishida aniqlanadi. Bunda 1 m^3 suvdan foydalanish natijasida qancha miqdorda mahsulotlar yetishtirilganligi hamda necha so‘mlik yalpi mahsulot va yalpi daromad, sof foyda olinganligi aniqlanadi.

d) sug‘orish tizimidan foydalanish koeffitsiyenti. Uning darajasini aniqlash uchun shu tizimning oxirida ekinlarni sug‘orish maqsadida berilgan suv miqdorini shu tizim boshida olingan suv miqdoriga taqsimlash zarur. Bunda quyidagi tenglikdan foydalanish mumkin:

$$STfk = \frac{TOS}{TBS}$$

Bunda: *STfk* - sug‘orish tizimidan foydalanish koeffitsiyenti;

TOS - sug‘orish tizimining oxirida ekinlarga berilgan suv miqdori;

TBS - sug‘orish tizimining boshida olingan suv miqdori.

Bu ko‘rsatkich sug‘orish tizimining holatini ham ifodalaydi va uning darajasi yoki koeffitsiyenti 1 ga intilishi kerak. Chunki sug‘orish tizimining boshida olingan suv ekin maydonlariga to‘liq yetkazilishi lozim. Agar uning darajasi past bo‘lsa, demak, suvning ma’lum miqdori tizim davomida yerga singib ketgan yoki samarasiz foydalanilgan bo‘lishi mumkin. Keyingi yillarda qishloq xo‘jaligida foydalanilayotgan xo‘jaliklararo sug‘orish kanallarining eskirganligi hamda ayrim xo‘jaliklarda ariqlarning o‘z vaqtida va sifatli tozalanmasligi sababli ularda suv resursining bir qismi behuda yerga singib ketmoqda. Bu esa suv resursidan samarasiz foydalanishga va yerlarning meliorativ holati yomonlashishiga olib kelmoqda. Sug‘orish tizimlarining holati suv resursidan foydalanish samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Suv iste’molchilari uyushmalari va fermer xo‘jaliklarining 77 foiz sug‘orish tarmog‘i tuproq o‘zanli bo‘lib, 44 foiz tarmoq ta’mirlash va tiklashga, 10 foiz tarmoq esa rekonstruksiya qilishga muhtoj. Mavjud

lotok tarmoqlarining asosiy qismi 30 yildan ziyod xizmat ko‘rsatib ularni o‘z vaqtida ta’mirlash ishlari amalga oshirilmaganligi, shuningdek, xizmat muddatlarini o‘tib ketganligi natijasida ularning 70 foizi rekonstruksiya qilish va almashtirishni talab qiladi. Suv iste’molchilarining suv olish joylari esa aksariyat holda suvni boshqarish va hisobga olish vositalari bilan jihozlanmagan.

Natijada irrigatsiya tizimi va sug‘orish tarmoqlarining foydali ish koeffitsiyenti o‘rtacha 0,63, bir qator hududlarda esa undan ham past bo‘lib, asosiy manbalardan olinadigan suvning 35-40 foizi sug‘orish tarmoqlarida yo‘qotilmoqda.

Demak, mamlakatimiz miqyosida 37 foiz suv sug‘orish tizimlarida isrof bo‘lmoqda, ularning asosiy qismi yerga singib ketadi. Agar xo‘jaliklar ichidagi sug‘orish tarmoqlarining o‘zanlarini suv o‘tkazmaydigan material bilan qoplashga erishilsa, ularning foydali ta’sir koeffitsiyentini 0,85 gacha yetkazish mumkin bo‘ladi. Bu ancha suvni tejashga imkon beradi. Ushbu tejalgan suvlardan foydalanish orqali sug‘oriladigan yerlar maydonini ko‘paytirish imkoni vujudga keladi. Shu sababli sug‘orish tizimini doimiy ravishda takomillashtirib borish lozim.

4. Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llari.

Global iqlim o‘zgarishlari ta’sirida O‘zbekistonda suv tanqisligi yildan-yilga ko‘proq sezilmoqda. Markaziy Osiyoda so‘nggi 50-60 yil davomida muzliklar maydoni taxminan 30 foizga qisqargan. Taxminlarga ko‘ra, harorat 2^0Cga ortganda muzliklar hajmi 50 foizga, 4^0Cga isiganda esa 78 foizga kamayadi. Natijada mavjud suv resurslari hajmi ham qisqarmoqda. Masalan, O‘zbekiston tomonidan foydalanilayotgan suvning yillik hajmi so‘nggi yillarda o‘rtacha yillik 51-53 km^3ni tashkil qiladi, bu esa o‘tgan asrning 80-yillariga taqqoslaganda 20 foizga kamdir. Shu bilan birga, mamlakat aholisi ushbu muddat ichida deyarli 2 baravar o‘sgan. Hisob-kitoblarga ko‘ra, 2050-yilgacha suv resursi Sirdaryo havzasida 5 foizga, Amudaryo havzasida esa 15 foizgacha kamayishi kutilmoqda. O‘zbekistonda 2015-yilgacha bo‘lgan davrda suvning umumiy taqchilligi 3 km^3dan ortiqni tashkil qilgan bo‘lsa, 2030-yilga borib 7 km^3ni, 2050-yilga borib esa 15 km^3ni tashkil qilishi mumkin.

Jahon resurslari institutining prognoziga koʻra, 2040-yilga borib Oʻzbekiston suv tanqisligi eng yuqori boʻlgan 33 ta mamlakatning biriga aylanadi.

Tahlillar iqlim oʻzgarishi Oʻzbekistonda suv taqchilligini yanada keskinlashtirishini, 2000, 2008, 2011, 2014 va 2018-yillardagi kabi qurgʻoqchilikning davomiyligi va davriyligi koʻpayishiga olib kelishini hamda iqtisodiyotning suv resurslariga boʻlgan ehtiyojini qondirishda jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkinligini koʻrsatmoqda. Keyingi 15 yil ichida aholi jon boshiga suv ta'minoti 3048 kub metrdan 1589 kub metrga qisqardi.

Shu bilan birgalikda, respublikada aholi soni yiliga oʻrtacha 600-650 ming nafarga oshib, 2030-yilga borib 39 mln. nafarga yetishi, ularning sifatli suvga boʻlgan talabi 2,3 km^3dan 2,7-3,0 km^3ga (18-20 foiz) yetishi kutilmoqda. Bu esa kommunal sohani yildan yilga suvga boʻlgan talabini ortishiga olib keladi.

Soʻnggi yillarda sanoat va energetika sohalari faol rivojlanib, ularning suvga boʻlgan talabi yil sayin oshib bormoqda. Hisob-kitoblarga koʻra bu sohalarning yillik umumiy suv iste'moli 1,9 km^3dan 2030-yilga borib 3,5 km^3ga (1,8 barobar) yetadi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda suv resurslaridan samarali foydalanish talab etiladi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda yogʻingarchilik miqdori kamayishi munosabati bilan suv resurslari tanqisligi sezilmoqda. Shu sababli respublikamiz hukumati tomonidan suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish va suv resurslaridan foydalanishning zamonaviy, tejamli usullaridan foydalanishga e'tibor kuchaytirilmoqda. Hozirgi vaqtda sugʻoriladigan yerlarning faqatgina 1,7 foizida tomchilatib sugʻorish joriy etilgan. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-sonli farmoni asosida tasdiqlangan "Oʻzbekiston Respublikasi qishloq xoʻjaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga moʻljallangan strategiyasi"da 2030-yilgacha mamlakatimizda 1 gektar maydonni sugʻorish uchun ishlatiladigan suv sarfini 20 foizga kamaytirish hamda suv tejovchi texnologiyalarni ishlab chiqaruvchi mahalliy korxonalar va xaridorlarni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish kabi vazifalar belgilangan.

Mamlakatimizning ayrim hududlarida ilmiy asoslangan holda sel suvlarini saqlab qoluvchi inshootlarni barpo etish orqali ham suv resursi bilan ta'minlanganlikni yaxshilash va sugʻoriladigan yerlar maydonini oshirishga erishish mumkin.

Suv resurslaridan unumli foydalanish ustidan qat’iy nazorat o‘rnatish va sug‘orishning zamonaviy usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Mamlakatimizda avvaldan an’anaviy sug‘orish sifatida egat oralatib sug‘orish foydalanib kelinadi. Bu sug‘orish usulining bir qator kamchiliklari mavjud. Avvalo, sug‘oriladigan suvning o‘rtacha 25-36 foiz (ayrim joylarda 60 foizgacha) qismi yerga singadi, yerning tekisligi talabga nihoyatda javob berishi zarur, ma’lum qiyalik saqlanishi e’tiborga olinadi. Shu jihatdan qaraganda sug‘orishning tejamkor usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Joylarning tabiiy-meliorativ sharoitlarini hisobga olgan holda yomg‘irlatib, tuproq ostidan, tomchilatib sug‘orish usullarini qo‘llash katta amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu usullarni qo‘llash natijasida ekinzorlarni bir yo‘la katta hududlarda sug‘orishga erishiladi. Shuningdek, sug‘orish me’yori kamida 50-60 foizga qisqaradi, hosildorlik oshadi, begona o‘tlarning o‘sishi juda ham kamayadi, grunt suvlarining sathi ko‘tarilmaydi va hokazo.

Mamlakatimiz aholisining sonining oshayotganligi, shu bilan birga sanoat korxonalari soni va ishlab chiqarish quvvatlarining ko‘payishi qishloq xo‘jalik mahsulotlariga bo‘lgan talabni oshirmoqda. Ushbu talabni qondirish va mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash uchun mavjud suv resurslaridan samarali foydalanish talab etiladi.

2020-yil 11-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada jadal tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4919-sonli qarori qabul qilindi. Qarorga ko‘ra, qishloq o‘jaligi ekinlarini yetishtirishda tomchilatib va yomg‘irlatib sug‘orish tizimlarini hamda yerni lazerli uskuna yordamida tekislangan holda diskretli sug‘orish usulini joriy qilish sur’ati besh barobarga oshirilishi belgilangan. Shunga ko‘ra, 2021-yilda respublika bo‘yicha jami 430 ming gektar maydonda suvni tejaydigan texnologiyalar joriy qilinadi. Shundan sug‘oriladigan 200 ming gektar maydonni lazerli uskuna yordamida tekislash orqali suvdan foydalanish samaradorligi oshiriladi.

Tomchilatib sug‘orishning quyidagi afzalliklari mavjud:

- hosil miqdori ko‘payadi va sifati yaxshilanadi. Tomchilatib sug‘orish ekinning ildizi rivojlanadigan tuproq qatlamida (ayniqsa, o‘simlikning amal davrida) optimal suv-fizik rejimni birday ushlab

turish imkoniyatini yaratadi. Natijada yuqori hosil olish uchun qulay sharoit yaratiladi.

Sug‘orishning an’anaviy usullari (egatlar, polosalar va yomg‘irlatish) qo‘llanilganda sug‘orishlar orasidagi muddat kamida ikki hafta va undan ortiqni tashkil qiladi. An’anaviy sug‘orish usullarida sug‘orishdan keyingi dastlabki davrda tuproq namligi keragidan ortiq bo‘lsa, sug‘orishlar orasidagi vaqtning oxirida esa namlik yetishmasligi kuzatiladi. Bunda o‘simlik ildizi avval ortiqcha namdan, keyinchalik namlik yetishmasligidan aziyat chekadi va bunday o‘zgaruvchan sharoitlarda o‘simlik suv va oziq moddalarni o‘zlashtirish uchun ko‘p energiya sarflashga majbur bo‘ladi. Energiya behudaga sarflanishi o‘simlikning rivojlanishida salbiy rol o‘ynaydi. Tomchilatib sug‘orishda esa sugo‘rishlar soni aniq boshqariladi va me’yori ekinning suv iste’moliga mos bo‘lishi ta’minlanadi. O‘simlik ildiz qatlamida optimal namlikni ta’minlash esa o‘simlikning o‘ziga zarur bo‘lgan vaqtda suv va oziq moddalarni olishiga doimiy imkoniyat yaratadi. Natijada o‘simlikning energiyasi to‘laligicha o‘zining rivojlanishi va o‘sishi, pirovardida esa hosilini ko‘paytirishga yo‘naltiriladi. Optimal sug‘orish va oziqlanish hisobiga bog‘ va tokzorlarda hosildorlik 20-40 foizgacha, sabzavot ekinlarida esa 50-80 foizgacha oshishi tajribalarda tasdiqlangan. Bundan tashqari sabzavotlarni pishib yetilishi ham 10-15 kunga avvalroq bo‘ladi.

- mehnat sarfi kamayadi. Tomchilatib sug‘orish tizimlarida suv o‘simlikka quvur va shlanglar vositasida yetkazib berilishi va tizim bir joyda doimiy turishi tufayli sug‘orish va oziqlantirish jarayonlarini to‘liq avtomatlashtirish imkoniyati yaratiladi. Dalaning faqat ekinlar joylashgan qismigina namlanadi. Bunda dala tuprog‘i qotmaydi, natijada tuproqni yumshatish(kultivatsiya) va undan keyin yana ariq olishga hojat qolmaydi. O‘g‘it suv bilan birga berilganligi bois, o‘g‘itlash uchun texnika ishlatishning zarurati yo‘qoladi. Natijada mehnat va yonilg‘i-moylash materiallari sarfi kamayadi. Bundan tashqari suvchilarning dalada ketmon ko‘tarib ariq to‘g‘irlab yurishi hamda suv tarashiga zaruriyat yo‘qligi bois sug‘orishdagi qo‘l mehnati ham yengillashadi.
- suv tejaladi. Tomchilatib sug‘orish tizimlarining eng asosiy afzalligi mavjud suvdan samarali foydalanish imkoniyatini yaratishidir. Tomchilatib sug‘orish tizimlari qo‘llanilganda sug‘orishga ishlatiladigan suv miqdori boshqa usullardagiga nisbatan 20 foizdan 80 foizgacha kam bo‘ladi. Tejaladigan suv miqdori joyning tabiiy-iqlim va tuproq

sharoitlari, yetishtirilayotgan ekin turi va qo‘llanilayotgan tomchilatib sug‘orish tizimining texnik ko‘rsatkichlariga bog‘liq bo‘ladi.

Tomchilatib sug‘orishda suvni tejashga odatda quyidagilar hisobiga erishiladi:

- sug‘orish rejimining o‘ziga xosligi (sug‘orish me’yorining o‘simlikning suvga bo‘lgan talabiga mosligi);
- sug‘oriladigan (namlanadigan) maydonning cheklanganligi (suv to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘simlikning ildizi rivojlanadigan qatlamga yetkazib beriladi);
- tuproqdan bug‘lanadigan suv miqdorining kamligi (dalaning ko‘p qismi quruq qolishi tufayli begona o‘tlar rivojlanishi cheklanishi (mazkur o‘tlar bo‘lmaganligi tufayli barcha suv ekinga tegishli bo‘ladi);
- sug‘orishga berilayotgan suvning dala bo‘ylab tarqalib ketmasligi va tuproqqa singib ketmasligi;
- daladan tashlamaga suv tashlanmasligi.

Tomchilatib sug‘orishda faqat o‘simlikning ildizi atrofi namlanganligi tufayli sug‘orishning foydali ish koeffitsiyenti 90-95 foizga teng bo‘ladi. Egatlab va yomg‘irlatib sug‘orish usullarida bu ko‘rsatkich 70-75 foizdan ortmaydi.

Qayd etilgan uchta asosiy afzallikdan (hosil miqdori va sifati yaxshilanishi, mehnat sarfi kamayishi va suv tejalishidan) tashqari tomchilatib sug‘orish tizimlarining yana bir qancha ijobiy tomonlari mavjud bo‘lib, ular quyidagilardir:

- tomchilatib sug‘orish ozuqani (o‘g‘itni) o‘simlik rivojining turli fazalarida o‘simlik ehtiyojiga mos ravishda sug‘orish suviga qo‘shib berish imkoniyatini yaratadi. Bunda mehnat sarfi va beriladigan o‘g‘it miqdori 50 foizgacha kamayishi mumkin;
- tomchilatib sug‘orish tizimi suv va ozuqani ekin maydoni bo‘yicha bir tekis taqsimlanishini ta’minlaydi. Bunda o‘simliklar bir xil rivojlanadi va hosili ham bir vaqtda pishadi. Natijada hosilni yig‘ib olish osonlashadi;
- ekin dalasini cheklangan ravishda namlanishi dalaga mexanizmlar kirishiga imkoniyat qoldiradi. Dala qurishini kutishga hojat yo‘qligi bois agrotexnik tadbirlarni sug‘orish bilan bir vaqtda olib borish mumkin, ya’ni mehnatni to‘g‘ri tashkil etishga imkoniyat yaratiladi;
- sug‘orish vaqtida daladan oqava chiqmaganligi bois tuproq eroziyasi butkul bartaraf etiladi. Ushbu jihat katta nishabli va

tekislanmagan maydonlarda tomchilatib sug‘orishni qo‘llash ayniqsa katta samara berishini ko‘rsatadi;

- suvni tuproqqa shimilishining cheklanganligi yer osti suvlari sathining ko‘tarilib ketishiga imkoniyat qoldirmaydi, demak dala botqoqlanmaydi va sho‘rlanmaydi;
- sug‘orishga bir vaqtda beriladigan suv sarfining kichikligi kam debetli suv manbalaridan (quduqlardan) foydalanishga, yoki ushbu kam suv bilan katta maydonlarni sug‘orishga imkoniyat yaratadi;
- egatlar oralig‘idagi tuproq doimo quruq bo‘lganligi tufayli begona o‘tlarni chopib yo‘qotish osonlashadi. Bundan tashqari gerbitsidlarni suv bilan birga berish imkoniyati ham yaratiladi;
- o‘simlik ildiz qatlami atrofi doimo nam bo‘lganligi bois, u yerda tuz yig‘ilishiga sharoit qolmaydi;
- sabzavotlar va poliz ekinlarini tomchilatib sug‘orilganda ular hosilini suv ichida qolib ketishi xavfi yo‘qoladi, ya’ni hosil sifatining buzilishi yuz bermaydi;
- tomchilatib sug‘orishda dalani bo‘laklarga (sektorlarga) bo‘lib sug‘orilishi quvurlardagi bosimning o‘ta baland bo‘lishini talab etmaydi. Ushbu jihat nasos narxini va sug‘orish davridagi ekspluatatsion xarajatlarni kamaytirishga imkoniyat yaratadi.

2020-yilda 133 ming gektar yoki o‘tgan yilga nisbatan 2 barobar ko‘p maydonda suvni tejaydigan texnologiyalar joriy etildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida 2021-yilda suvni tejaydigan texnologiyalar joriy etiladigan yer maydonlari 5 barobarga ko‘paytirilib, 430 ming gektarga yetkazilishi ta’kidlangan.

2021-yildan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda davlat tomonidan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilariga suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha xarajatlarning bir qismini qoplash uchun subsidiyalar beriladi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan lazerli qurilmaga ega avtomatlashtirilgan yer tekislagich agregatlarni sotib olgan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilariga sotib olingan yer tekislagich agregatlari qiymatining 30 foizi davlat budjetidan qoplab beriladi. Subsidiya mablag‘lari joriy qilingan suvni tejaydigan texnologiyalar kamida 5 yil ishlatilishi sharti bilan ajratiladi hamda bunday texnologiyalar joriy qilingan yer maydonlari kamida 5 yil mobaynida maqbullashtirilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-iyuldagi “Suv ta’minoti og‘ir hududlardagi aholi tomorqalari va qishloq xo‘jaligida foydalanilmayotgan yer maydonlariga suv chiqarish ishlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 459-sonli qaroriga ko‘ra, suv ta’minoti og‘ir hududlardagi aholi tomorqalari va qishloq xo‘jaligida foydalanilmayotgan yer maydonlarini sug‘orish uchun vertikal sug‘orish quduqlarini burg‘ulash, daryolar, kanallar va boshqa suv obyektlaridan suv chiqarish vositalarini sotib olish va o‘rnatish xarajatlarining bir qismini qoplashga quyidagi shartlarda subsidiyalar ajratiladi:

• qishloq xo‘jaligida foydalanilmayotgan har bir gektar yerni foydalanishga kiritish bilan bog‘liq xarajatlarning 50 foizi, biroq bazaviy hisoblash miqdorining 50 barovaridan oshmagan miqdorda;

• aholi tomorqa yerini sug‘orish uchun chuqurligi 10 metrdan ortiq bo‘lgan har bir vertikal sug‘orish qudug‘ini burg‘ulash va ishga tushirish bilan bog‘liq xarajatlarni qoplashga quduqning har bir metr chuqurligi uchun 100 ming so‘mdan, biroq bazaviy hisoblash miqdorining 50 barovaridan oshmagan miqdorda;

• kamida 30 ta aholi tomorqa yerlarini sug‘orish uchun vertikal sug‘orish quduqlarini burg‘ulash va ishga tushirish bilan bog‘liq xarajatlarning 70 foizi, biroq 120 million so‘mdan oshmagan qismi qoplanadi.

Subsidiyalar O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi bilan birgalikda tasdiqlanadigan ro‘yxatga asosan 2020-yilda Inqirozga qarshi kurashish jamg‘armasi hisobidan, 2021-yilda O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan hamda 2022-yildan boshlab – O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaligi va tomorqa yer egalari kengashi huzuridagi Fermer, dehqon xo‘jaligi va tomorqa yer egalarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilishi belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6024-sonli farmoniga binoan O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasi qabul qilindi. Ushbu Konsepsiyani amalga oshirish natijasida 2030-yilgacha sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash yo‘nalishida:

a) sho‘rlangan maydonlar 1948 ming gektardan 1722 ming gektarga, o‘rta va yuqori sho‘rlangan yerlarni 607 ming gektardan 430 ming gektargacha qisqartirilishi;

b) sizot suvlar sathi muammoli darajada (0-2 metr) bo‘lgan sug‘oriladigan yer maydonlari 1051 ming gektardan 773 ming gektargacha kamaytirilishi;

d) foydalanishdan chiqqan 298,5 ming gektar sug‘oriladigan yerlar 2025-yilga kelib qishloq xo‘jaligida foydalanishga kiritilishi nazarda tutilgan.

Ushbu farmoniga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligiga Konsepsiyada belgilangan ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish orqali 2030-yilga qadar quyidagi ko‘rsatkichlarga erishishni ta’minlash vazifasi yuklatilgan:

- sug‘orish tizimlarining foydali ish koeffitsiyentini 0,63 dan 0,73 gacha oshirish;
- suv ta’minoti past darajada bo‘lgan sug‘oriladigan yer maydonlarini 560 ming gektardan 190 ming gektargacha kamaytirish;
- sho‘rlangan sug‘oriladigan yer maydonlarini 226 ming gektarga kamaytirish;
- Suv xo‘jaligi vazirligi tizimidagi nasos stansiyalarining yillik elektr energiyasi iste’molini 25 foizga kamaytirish;
- barcha irrigatsiya tizimi obyektlariga “Smart Water” (“Aqlli suv”) suv o‘lchash va nazorat qilish qurilmalari o‘rnatilib, suv hisobini yuritishda raqamli texnologiyalarni joriy etish;
- 100 ta yirik suv xo‘jaligi obyektlarida suvni boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirish;
- qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orishda suvni tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olingan yerlarning umumiy maydonini 2 mln gektargacha, shu jumladan tomchilab sug‘orish texnologiyasini 600 ming gektargacha yetkazish;
- suv xo‘jaligida davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida 50 ta loyihani amalga oshirish.

2021-yil 24-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2021-2023 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Strategiya mamlakatning suv resurslarini barqaror boshqarish va irrigatsiya sektorini takomillashtirishni qamrab oladigan bir qator infratuzilmaviy,

siyosiy, institutsional va salohiyatni rivojlantirish choralarini o‘z ichiga oladi, uning doirasida:

- irrigatsiya tizimi kanallarining beton qoplamali qismi 35 foizdan 38 foizgacha oshishi, irrigatsiya tizimi va sug‘orish tarmoqlarining foydali ish koeffitsiyenti 0,63 dan 0,66 gacha oshishi;

- suv ta’minoti darajasi past bo‘lgan sug‘oriladigan maydonlar 526 ming gektardan 424 ming gektargacha kamaytirilishi;

- Suv xo‘jaligi vazirligi tizimidagi nasos stansiyalaridagi 518 ta nasos agregati va 807 ta elektrodvigatel zamonaviy energiya tejamkorlariga almashtirilishi, ularning yillik elektr energiyasi iste’moli 7,6 milliard kVt.sdan 7,15 milliard kVt.s gacha kamaytirilishi;

- suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalarini joriy qilish 308 ming gektardan 1,1 million gektargacha, shu jumladan tomchilatib sug‘orish texnologiyasi 121 ming gektardan 822 ming gektargacha yetkazilishi;

- sho‘rlangan maydonlar 1926 ming gektardan 1888 ming gektarga, shu jumladan o‘rtacha va kuchli darajada sho‘rlangan yerlar 581 ming gektardan 532 ming gektargacha qisqartirilishi;

- yer osti suv sathi muammoli holatda (0–2 metr) bo‘lgan sug‘oriladigan yer maydonlari 988 ming gektardan 900 ming gektargacha kamaytirilishi;

- qishloq xo‘jaligida foydalanishdan chiqib ketgan jami 232 ming gektar sug‘oriladigan yer maydonlari qayta foydalanishga kiritilishi;

-daryo va soylarda 6 ta gidrologik post qurilishi va qayta tiklanishi, 6 ta gidrologik post raqamli texnologiyalar asosida avtomatlashtirilgan uskunalar bilan jihozlanishi;

-“Smart Water” (“Aqlli suv”) raqamli texnologiyasi asosida suvning hisobi yuritiladigan suv xo‘jaligi obyektlari soni 18576 tagacha yetkazilishi;

-60 ta yirik suv xo‘jaligi obyekti raqamli texnologiyalar asosida avtomatlashtirilgan boshqaruvga o‘tkazilishi;

-Suv xo‘jaligi vazirligi tizimidagi 1688 ta nasos stansiyasidagi 5231 ta nasos agregatining elektr energiyasi iste’moli va suv sarfi hisobining monitoringi “onlayn” rejimda olib borilishi;

-mavjud meliorativ kuzatuv quduqlarining 2100 tasida raqamli texnologiyalar orqali monitoring olib borilishi;

-suv xo‘jaligida davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida jami 124 ta loyiha amalga oshirilishi, sug‘orish uchun suv yetkazib berish xarajatlarining 9 foizi suv iste’molchilari tomonidan qoplanishi ta’minlanadi.

Bundan tashqari, ushbu strategiyada sug‘orishning tejamkor usullarini qo‘llashni yanada rivojlantirish maqsadida 2021-yil 1-oktabrga qadar etilen polimerlari va propilen polimerlarini olib kirishda bojxona bojining nol stavkasi belgilash hamda respublikada ishlab chiqarilayotgan polietilen mahsulotining eksportini 40 ming tonnaga qisqartirish evaziga uning ichki bozorda birja savdolari orqali sotilayotgan qismini oshirish belgilab berilgan.

Mamlakatimiz hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan bu kabi islohotlar suv resurslaridan foydalanish holati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Suv resurslaridan foydalanish sohasidagi asosiy muammolardan biri – qishloq xo‘jaligi korxonalarida foydalanilgan suvning hisobi yuritilmayotganligi va buning natijasida suv resursidan foydalanganlik uchun to‘lovning aniq hisob-kitobga asoslanmagan holda amalga oshirilmayotganligidir. 2019-yil 31-dekabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi Soliq Kodeksining 444-moddasiga ko‘ra, qishloq xo‘jaligida, shu jumladan baliq yetishtirishda suv resurslarini hisobga olish vositalari mavjud emasligi va foydalaniladigan suv resurslarining haqiqiy hajmini aniqlashning imkoni bo‘lmagan taqdirda, suv resurslaridan foydalanganlik uchun to‘lanadigan soliq bazasi suvdan foydalanish va suvni iste’mol qilish sohasidagi vakolatli organ (Suv xo‘jaligi vazirligi) tomonidan tasdiqlangan suv resurslari iste’molining normativlariga ko‘ra aniqlanadi. Soliq Kodeksining 445-moddasiga muvofiq, qishloq xo‘jalik yerlarini sug‘orish va baliqlarni o‘stirish (yetishtirish) uchun foydalanilgan suv hajmi qismi, shu jumladan dehqon xo‘jaliklari yer osti manbalari va yer usti manbalaridan olingan 1 kub metr suv uchun soliq stavkasi 2020-yilda 40 so‘m etib belgilangan va bu stavka 2021-yilda ham o‘zgarishsiz qoldirilgan.

Hozirgi vaqtda qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarining asosiy qismida foydalanilgan suvni o‘lchash asboblari mavjud emas. Bu esa suv resurslaridan foydalanganlik uchun to‘lanadigan soliq bazasi suvdan foydalanish va suvni iste’mol qilish sohasidagi vakolatli organ (Suv xo‘jaligi vazirligi) tomonidan tasdiqlangan suv resurslari iste’molining normativlariga ko‘ra aniqlanishini anglatadi. Odatda, bunday vaziyatlarda suvdan foydalanishning holati yaxshi bo‘lmaydi. Chunki, suvdan foydalanuvchilar o‘zlari foydalangan suvning miqdoridan kelib chiqib haq to‘lasalar, suvdan tejab foydalanishga harakat qiladilar. Yil sayin tanqis bo‘lib borayotgan suv resursidan tejab foydalanishni yo‘lga

qo‘yish uchun qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida imkon qadar tezroq suv o‘lchash asboblarini o‘rnatishga erishish lozim.

Suv resurslaridan to‘liq va samarali foydalanish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- suv xo‘jaligining huquqiy asoslari va normativ-huquqiy hujjatlarini takomillashtirib borish;
- xo‘jaliklararo va ichki xo‘jalik sug‘orish tizimlarini modernizatsiya qilish;
- suv xo‘jaligi sohasida amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlari ko‘lamini kengaytirish, innovatsiyalar, ilmiy yutuqlar va nou-xaularni joriy qilish;
- suv resurslarini boshqarish sohasida bozor mexanizmlarini joriy etish;
- zamonaviy suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish, qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirishda suv tejovchi sug‘orish texnologiyalarining joriy qilinishini yanada kengaytirish va davlat tomonidan rag‘batlantirib borish, ushbu sohaga xorijiy investitsiyalar va grantlarni jalb qilish;
- suv xo‘jaligi inshootlarida real vaqt rejimida suvni nazorat qilish va uning hisobini yuritish uchun “aqlli” texnologiyalar tizimini joriy etish
- yerlarni lazerli tekislash orqali suv isrofgarchiligining oldini olish;
- suv xo‘jaligi sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirishni yo‘lga qo‘yish va hokazo.

Qisqacha xulosalar

Mamlakatimizning iqlim sharoitida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida suv resursining ham ahamiyati katta. So‘nggi yillarda suv resurslaridan samarali foydalanish, suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish, suv xo‘jaligi obyektlarini modernizatsiya qilish va rivojlantirish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, global iqlim o‘zgarishi, aholi sonining va iqtisodiyot tarmoqlarining o‘sishi, ularning suvga bo‘lgan talabi yil sayin oshib borishi tufayli suv resurslarining taqchilligi yildan-yilga kuchayib bormoqda.

Kelajakda suv resurslaridan foydalanish darajasini hamda iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun sug‘orish tizimini yaxshilashga qaratilgan barcha tadbirlar o‘z vaqtida, sifatli bajarilishini ta’minlash, suv xo‘jaligida bozor iqtisodiyoti tamoyillarini joriy etish, suv xo‘jaligi

obyektlarini o‘z vaqtida sifatli ta’mirlash, raqamli texnologiyalarni joriy qilish hamda samarali boshqarishga yo‘naltirish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Suv resurslarining qishloq xo‘jaligidagi ahamiyati nimadan iborat?
2. Suv resurslaridan foydalanish holati hamda samaradorligiga baho berishda qanday ko‘rsatkichlardan foydalaniladi?
3. Mamlakatimizda suv xo‘jaligini boshqarish tizimi qanday tashkil etilgan?
4. Suv resurslari bo‘yicha mamlakatimizda qanday me’yoriy hujjatlar qabul qilingan?
5. Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishning qanday yo‘llari bor?

BOB YUZASIDAN AMALIY TOPSHIRIQLAR:

1-topshiriq:

SWOT tahlil usuli yordamida mamlakatimizda suv resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilish. Bunda doskaga SWOT tahlil jadvali chiziladi va har bir talaba alohida ushbu tahlilni amalga oshiradi.

Mamlakatimizda suv resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlari

S (strength)	W (weakness)
O (opportunity)	T (threat)

2-topshiriq:

FSMU texnologiyasi yordamida “Mamlakatimizda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini yanada oshirish qanday omillarga bog‘liq?” ekanligini aniqlash.

Yo‘naltiruvchi so‘zlar: yerlarning meliorativ holatni yaxshilash, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, resurs tejamkor texnologiyalardan foydalanish.

	Mamlakatimizda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini yanada oshirish qanday omillarga bog‘liq?
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating	
(M) Ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

3-topshiriq:

Nilufar guli usuli yordamida mamlakatimizda suv resursidan foydalanishda mavjud muammolar va uni hal etish yo‘llarini tahlil qilish.

	B	

	C	

	D	

	I	

B	**C**	**D**
I	**A**	**E**
H	**G**	**F**

	E	

	H	

	G	

	F	

Nilufar guli - muammoni yechish yo‘llarini ko‘rsatib beruvchi usuldir. O‘zida nilufar guli ko‘rinishini namoyon qiladi. Uning asosini to‘qqizta

to‘g‘ri to‘rtburchak tashkil etadi. Bunda A – qo‘yilayotgan asosiy muammo, ya’ni mamlakatimizda suv resursidan foydalanishda mavjud muammolar; B,C,D,E,F,G,H,I – esa ushbu muammolarga ta’sir etuvchi omillar, har bir omil alohida olinib, uni hal etish yo‘llari yozib chiqiladi. Ushbu usul tizimli fikrlash, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi va faollashtiradi.

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Suv resursining qishloq xo‘jaligidagi ahamiyati.
2. Qishloq xo‘jaligida suv resursidan foydalanish holati va samaradorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar hamda ularni aniqlash tartibi.
3. Suvdan foydalanishda qo‘llaniladigan tejamkor texnologiyalar va ularni amaliyotga joriy etish yo‘llari.
4. Qishloq xo‘jaligida suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llari.

6-BOB: QISHLOQ XO‘JALIGIDA MEHNAT RESURSLARI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

1. Mehnat resurslarining qishloq xo‘jaligidagi ahamiyati va o‘ziga xos xususiyatlari.
2. Qishloq xo‘jaligida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi.
3. Qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligini oshirish yo‘llari.

Tayanch iboralar: aholi soni, mehnat resursi, iqtisodiy faol aholi, urbanizatsiya darajasi, ish bilan bandlik, mehnat unumdorligi.

1. Mehnat resurslarining qishloq xo‘jaligidagi ahamiyati va o‘ziga xos xususiyatlari.

Mamlakatimizning qishloq xo‘jalik mahsulotlariga bo‘lgan barcha talablarini qondirishda mehnat resurslarining ahamiyati katta. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish uchun moddiy, mehnat va moliyaviy resurslari mavjud bo‘lishi shart. Ushbu resurslar ichida mehnat faol resurs bo‘lib, qolgan ikkita resursni bir-biri bilan bog‘laydi va uning darajasi ishlab chiqarish jarayonining natijalariga ta’sir ko‘rsatadi.

Mehnat - bu insonning ongli, maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatidir. Ishlab chiqarish jarayoni inson mehnati, mehnat predmetlari va vositalari, tabiiy sharoitlarning samarali uyg‘unlashishini talab etadi. Inson shu ishlab chiqarish vositalarini ma’lum hududda, davrda ishga solib, ishlab chiqarish jarayonini amalga oshiradi. Jumladan, ekinlar ekiladigan yerlarni shudgorlash, ekishga tayyorlash, ekish, suv berish, ishlov berish, hosilni terib olish va boshqalar. Ishlab chiqarish jarayonining samarasi, avvalo, mehnat resursining bilimiga, malakasiga, mehnatga munosabatiga, qolaversa, fan-texnika taraqqiyotiga, ishlab chiqarish vositalarining sifatiga, holatiga va nihoyat, tabiiy sharoitga bog‘liq. Demak, inson o‘z faoliyatini ularning barchasini oqilona, uddaburonlik bilan samarali ishga solishga qaratishi kerak. Shunday mehnat iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Uning tabiati ishlab chiqarish munosabatlari bilan belgilanadi. Demak, talabni qondira olish qobiliyatiga ega bo‘lgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish, xizmatlarni bajarish insonning ongli faoliyati, ya’ni mehnatiga bevosita bog‘liqdir.

Qishloq joylarda istiqomat qilayotgan aholining turmush farovonligi mazkur tarmoqda amalga oshirilayotgan islohotlarning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligiga bevosita bog‘liq. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘i qanchalik rivojlansa, qishloq joylarda istiqomat qiluvchi aholining bandligini ta’minlash, ularning daromadlarini oshirish imkoniyatlari shunchalik ortadi.

Qishloq xo‘jaligida mehnat resurslari tarkibiga mehnat qobiliyatiga ega bo‘lgan 16 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan erkaklar, 16 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lgan xotin-qizlar hamda o‘z xohishiga ko‘ra mehnat faoliyati bilan shug‘ullanayotgan o‘smirlar va nafaqaxo‘rlar kiradi. Qishloq xo‘jaligida o‘smirlar asosan mavsumiy ishlarga jalb etilishi mumkin.

Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatimizda 2019-yilda mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi soni 19837,2 ming kishini tashkil etgan bo‘lib, 2018-yilda ushbu ko‘rsatkich 19791,7 ming kishini tashkil etgan. 2019-yilda 2018-yilga nisbatan mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi soni 45,5 ming kishiga yoki 0,2 foizga oshgan.

Qishloq xo‘jaligida mehnat resurslarining tarmoq xususiyatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi o‘ziga xos xususiyatlari mavjud:

- mehnat va uning samarasi tabiiy sharoit bilan bog‘liq;
- mehnat resursidan foydalanishga qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining mavsumiyligi katta ta’sir ko‘rsatadi;
- qishloq xo‘jaligidagi mehnat jarayoni tirik organizmlar bilan uzviy bog‘langan;
- qishloq xo‘jaligida mehnat jarayonining mexanizatsiyalashganlik va avtomatlashganlik darajasi past;
- tarmoqda mehnat jarayoni tor doirada ixtisoslashmagan;
- qishloq xo‘jaligida mehnat sharoitlari boshqa tarmoqlardagiga nisbatan past darajada bo‘lib, quyosh radiatsiyasi, chang va boshqa omillar mehnat resurslarini o‘ziga yuqori darajada jalb etmaydi;
- qishloq joylarida mehnat resurslari sonining o‘sish sur’ati nisbatan yuqori va hokazo.

Ta’kidlangan xususiyatlar tarmoqda sarflanadigan mehnatning miqdoriga, sifatiga va samarasiga bevosita ta’sir etadi. Tabiiy sharoitlar, ya’ni iqlim va yerning holati mehnat resursining samaradorligiga bevosita ta’sir qiladi. Qish oylarida mehnat resursiga bo‘lgan talab keskin kamayib, bahorda va hosilni yig‘ib olishda esa unga bo‘lgan talab ortadi. Shu davrda mavsumiy ishchilarni shartnoma asosida jalb qilish talab etiladi. Dehqonchilik va chorvachilikda mehnat qilayotgan

xodimlar o‘simliklarning hamda chorva mollarining xususiyatlarini bilishlari lozim. Tarmoqning yangi, unumli texnikalar bilan talab darajasida ta’minlanmaganligi ayrim ish jarayonlarini (sug‘orish, yagonalash, hosilni yig‘ib olish, chorva hayvonlarini oziqlantirish, sog‘ish va boshqalar) to‘liq mexanizatsiyalashtirish imkonini bermaydi, natijada jonli mehnat xarajatlari yuqori bo‘ladi. Qishloq xo‘jaligida mehnat jarayonini amalga oshirishda uning samarali bo‘lishini ta’minlash uchun barcha xususiyatlarni e’tiborga olish maqsadga muvofiqdir.

2020-yil 1-yanvar holatiga respublikamizning doimiy aholisi soni 33905,8 ming kishini tashkil etgan bo‘lib, 2019-yil 1-yanvar holatiga nisbatan 650,3 ming kishiga yoki 1,9 foizga oshgan.

2020-yil 1-yanvar holatiga hududlar bo‘yicha shahar va qishloq aholisi soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar 6.1-jadvalda keltirlgan.

6.1-jadval

2020-yil 1-yanvar holatiga hududlar bo‘yicha shahar va qishloq aholisi soni, ming kishi

	Jami aholi soni	shu jumladan:	
		shahar aholisi	qishloq aholisi
O‘zbekiston Respublikasi	**33905,2**	**17144,1**	**16761,1**
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1898,3	930,5	967,8
Andijon	3127,7	1633,9	1493,8
Buxoro	1923,9	709,5	1214,4
Jizzax	1382,1	648	734,1
Qashqadaryo	3280,4	1410,4	1870
Navoiy	997,1	487,7	509,4
Namangan	2810,8	1815,1	995,7
Samarqand	3877,4	1438,3	2439,1
Surxondaryo	2629,1	954	1675,1
Sirdaryo	846,3	361,3	485
Toshkent	2941,9	1446,7	1495,2
Farg‘ona	3752,0	2117,7	1634,3
Xorazm	1866,5	619,3	1247,2
Toshkent sh.	2571,7	2571,7	0

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2020-yil 1-yanvar holatiga mamlakatimiz aholisining 49,4 foizi yoki 16761,1 ming nafari qishloq joylarda istiqomat qiladi.

Mamlakatimizda urbanizatsiya jarayonlarini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 13-martdagi 68-sonli “O‘zbekiston Respublikasi aholi punktlarining ma’muriy-hududiy tuzilishini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga binoan respublikamizdagi 965 ta aholi punktlari shahar posyolkalari toifasiga kiritilib, ularni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni yanada kuchaytirish borasida chora-tadbirlar belgilandi. Shu kabi chora-tadbirlar natijasida mamlakatimiz jami aholisi tarkibida qishloq aholisining ulushi sezilarli darajada pasaydi. 2009-yilgacha bo‘lgan davrda mamlakatimizda jami aholi tarkibida qishloq aholisining ulushi 63,0 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2020-yil 1-yanvar holatiga kelib ushbu ko‘rsatkich 49,4 foizni tashkil etmoqda. Respublikamiz hukumati tomonidan urbanizatsiya darajasini yanada rivojlantirish bo‘yicha islohotlar izchil amalga oshirilmoqda va buning natijasida kelajakda jami aholi tarkibida qishloq aholisining ulushi yanada pasayishi tabiiy jarayondir.

Mamlakatimizda mehnat resurslari va uning tarkibi to‘g‘risidagi ma’lumotlar 6.2-jadvalda keltirilgan.

6.2-jadval

Mehnat resurslari va uning tqrkibi, ming kishi

	2016	**2017**	**2018**	**2019**
Jami mehnat resurslari	18488,9	18666,3	18829,6	18949,0
shahar	9843,3	9949,5	10032,5	10052,7
jamiga nisbatan foizda	53,2	53,3	53,3	53,1
qishloq	8645,6	8716,8	8797,1	8896,3
jamiga nisbatan foizda	46,8	46,7	46,7	46,9
Iqtisodiy faol aholi	14022,4	14357,3	14641,7	14876,4
shahar	7565,5	7474,4	7682,0	7838,2
jamiga nisbatan foizda	54,0	52,1	52,5	52,7
qishloq	6456,9	6882,9	6959,7	7038,2
jamiga nisbatan foizda	46,0	47,9	47,5	47,3

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2019-yil holatiga mamlakatimizda mehnat resurslari soni 18949,0 ming kishini tashkil etgan bo‘lib, jami aholiga nisbatan 55,9 foizni tashkil etgan. 2019-yilda jami mehnat resurslarining 8896,3 ming nafari yoki 46,9 foizi qishloq joylardagi mehnat resurslari tashkil etgan.

2019-yilda O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha iqtisodiy faol aholi, bandlar va ishsizlar soni 6.3-jadvalda keltirilgan.

6.3-jadval

2019-yilda O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha iqtisodiy faol aholi, bandlar va ishsizlar soni

	Iqtisodiy faol aholi soni jami, ming kishi	ulardan:		Aholining iqtisodiy faollik darajasi[2)], foizda	Aholining bandlik darajasi[3)], foizda	Ishsizlik darajasi, foizda
		iqtiso-diyotda bandlar	ishsiz-lar[1)]			
O‘zbekiston Respublikasi	**14876,4**	**13541,1**	**1335,3**	**75,0**	**68,3**	**9,0**
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	782,2	711,3	70,9	69,2	63,0	9,1
Andijon	1413,9	1284,5	129,4	77,2	70,2	9,2
Buxoro	875,4	797,1	78,3	76,2	69,3	8,9
Jizzax	590,3	536,2	54,1	74,0	67,2	9,2
Qashqadaryo	1345,3	1220	125,3	70,7	64,1	9,3
Navoiy	450,9	412,7	38,2	75,9	69,5	8,5
Namangan	1214,7	1104,6	110,1	73,2	66,5	9,1
Samarqand	1604,2	1455,8	148,4	72,1	65,4	9,3
Surxondaryo	1128,8	1024,2	104,6	74,0	67,2	9,3
Sirdaryo	385,9	350,1	35,8	76,1	69,0	9,3
Toshkent	1353,5	1232,9	120,6	78,5	71,5	8,9
Farg‘ona	1644,8	1492,6	152,2	74,5	67,6	9,3
Xorazm	810	736,5	73,5	72,8	66,2	9,1
Toshkent sh.	1276,5	1182,6	93,9	86,9	80,5	7,4

[1)] ishga joylashtirishga muhtoj mehnat bilan band bo‘lmagan aholi

[2)] Iqtisodiy faol aholi sonini mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soniga nisbati

[3)] Band aholi sonini mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soniga nisbati

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2019-yilda mamlakatimizda aholining iqtisodiy faollik darajasi 75 foizni, bandlik darajasi 68,3 foizni, ishsizlik darajasi esa 9,0 foizni tashkil etgan.

2019-yilda iqtisodiyotda band bo‘lganlar soni 13541,1 ming kishini tashkil etgan bo‘lib, 2018-yilda ushbu ko‘rsatkich 13273,1 ming kishini tashkil etgan. 2019-yilda 2018-yilga nisbatan iqtisodiyotda band bo‘lganlar soni 268,0 ming kishiga yoki 2,0 foizga oshgan.

Mamlakatimizda qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida bandlar soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar 6.4-jadvalda keltirilgan.

6.4-jadval

Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida bandlar soni, ming kishi

	2016	**2017**	**2018**	**2019**
O‘zbekiston Respublikasi	3646,7	3671,3	3537,2	3544,6
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	190,9	191,5	192,5	195,0
Andijon	348,4	349,1	339,5	341,0
Buxoro	246,0	254,8	252,1	245,2
Jizzax	195,3	195,7	190,5	194,5
Qashqadaryo	336,8	342,3	300,9	302,0
Navoiy	94,0	95,8	91,9	85,0
Namangan	255,5	256,5	259,5	263,3
Samarqand	427,7	428,9	403,6	405,5
Surxondaryo	363,2	363,5	357,2	358,8
Sirdaryo	169,2	169,5	156,2	156,0
Toshkent	335,1	338,4	322,9	322,2
Farg‘ona	416,0	416,3	406,1	408,8
Xorazm	258,3	258,6	255,7	258,9
Toshkent shahri	10,3	10,4	8,6	8,4

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2019-yilda qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarmog‘ida band bo‘lganlar soni 3544,6 ming kishini tashkil etgan bo‘lib, 2016-yilga nisbatan 102,1 ming kishiga kamaygan.

Qishloq xo‘jaligida band bo‘lganlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar 6.5-jadvalda keltirilgan.

6.5-jadval

Qishloq xo‘jaligida band bo‘lganlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar

	2016	**2017**	**2018**	**2019**
Iqtisodiyotda band bo‘lganlar soni, ming kishi	13298,4	13520,3	13273,1	13541,1
Shu jumladan: qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida	3646,7	3671,3	3537,2	3544,6
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligining ulushi, foizda	27,4	27,2	26,6	26,2

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarmog‘ida band bo‘lganlarning iqtisodiyotda band bo‘lganlar jami soni tarkibidagi ulushi keyingi yillarda pasaymoqda. Ushbu ko‘rsatkich 1995-yilda 40,9 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2001-yilda 36,1 foizni, 2016-yilda 27,4 foizni, 2017-yilda 27,2 foizni, 2018-yilda 26,6 foizni va 2019-yilga kelib 26,2 foizni tashkil etgan. Tarmoqda band bo‘lgan mehnat resurslari miqdori va salmog‘ining pasayishi respublikada amalga oshirilayotgan agrar-iqtisodiy siyosatning ma’lum darajadagi ijobiy natijasidir. Qishloq joylardagi vujudga kelgan ortiqcha mehnat resurslarini ish bilan ta’minlash maqsadida sanoat, xizmat ko‘rsatish, savdo va boshqa shu kabi tarmoqlarni qishloq joylarda rivojlantirish zarur. Shu maqsadda aholi zich joylashgan tumanlarda yirik sanoat korxonalari qurilib, ishga tushirilmoqda va ular qishloq aholisining ish bilan ta’minlanishiga katta hissa qo‘shib kelmoqda. Hozirgi vaqtda mamlakatimizdagi barcha tumanlarda klasterlar tarkibida sanoat korxonalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishga e’tibor berilmoqda. Shu kabi sanoat korxonalarining ishga tushirilishi natijasida qishloqlarda yashayotgan mehnat resurslarining sezilarli qismi ish bilan ta’minlanmoqda. Bundan tashqari, qishloq hududlarida xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirish ham qishloq aholisining bandligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yuqoridagi ijobiy natijalarga asoslangan holda mamlakatimizning qishloq hududlarida sanoat korxonalari va boshqa turdagi tadbirkorlik

shakllarini barpo etish va rivojlantirish ishlari izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Bu jarayon qishloq hududlarida ishlab chiqarish kuchlari oqilona joylashishini ta’minlashga ham ijobiy hissa qo‘shadi. Natijada mehnat resurslaridan foydalanish koeffitsiyentining oshishi ham ta’minlanmoqda.

Mazkur ko‘rsatkich bo‘yicha qishloq xo‘jaligi intensiv rivojlangan davlatlardan biri bo‘lgan Niderlandiyadagi holatni ko‘radigan bo‘lsak, aholisining 8,7 foizi qishloq joylarda istiqomat qiladi va iqtisodiyot tarmoqlarida band bo‘lganlarning atigi 2,3 foizi qishloq xo‘jaligi tarmog‘i hissasiga to‘g‘ri keladi.

Mamlakatimiz hukumati tomonidan bandlik Dasturi qabul qilingan bo‘lib, qishloq joylardagi mehnat resurslarini ish bilan ta’minlashga juda katta e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 23-martdagi “Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklarida chorva mollarini ko‘paytirishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-308-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 21-apreldagi “2006-2010-yillar davrida shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklarida chorva mollari, birinchi navbatda qoramollar sonini ko‘paytirishni rag‘batlantirish dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 67-sonli qarori asosida kam ta’minlangan oilalarga qoramol sotib olish uchun tijorat banklarining kredit liniyalari orqali ish bilan ta’minlashga ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘laridan imtiyozli kreditlar berilmoqda va shu orqali ularning ish bilan bandligiga erishilmoqda.

2. Qishloq xo‘jaligida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi.

Mehnat resurslari qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda faol ishlab chiqarish resursi sifatida katta ahamiyatga ega. Chunki ular boshqa ishlab chiqarish omillarini bir-biri bilan bog‘laydi. Ishlab chiqarishning pirovard natijasi mehnat resursiga bevosita bog‘liqdir. Shunday ekan, ulardan yil davomida to‘liq, samarali foydalanishga erishish lozim. Buning uchun mehnat resurslaridan foydalanishning holati va samaradorligini aniqlash va unga ko‘ra tegishli choralar ko‘rib borilishi kerak.

Qishloq xo‘jaligida mehnat resurslaridan foydalanish holati va samaradorligiga baho berishda quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalaniladi:

a) mehnat resurslari bilan ta’minlanganlik darajasi. Ushbu ko‘rsatkichni aniqlash uchun xo‘jalikda mavjud bo‘lgan mehnat resurslari soni qishloq xo‘jalik yerlari miqdoriga bo‘linadi. Uni aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$MRtd = \frac{MRus}{QXY}$$

Bunda: *MRus* – mehnat resurslari umumiy soni, kishi;
QXY – qishloq xo‘jalik yerlari, ga.

Ushbu ko‘rsatkich qishloq xo‘jalik korxonasi ixtisoslashuvidan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan me’yorlar darajasiga imkon qadar yaqin bo‘lishi kerak.

b) mavjud mehnat resurslaridan foydalanish koeffitsiyenti. Ushbu ko‘rsatkichni aniqlash uchun mehnat resurslarining o‘rtacha yillik soni mehnat resurslarining umumiy soniga bo‘linadi. U quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$MRfk = \frac{MRo'ys}{MRus}$$

Bunda: *MRo ‘ys* – mehnat resurslarining o‘rtacha yillik soni, kishi;
MRus – mehnat resurslarining umumiy soni, kishi.

Bu ko‘rsatkichning darajasi birga yaqin bo‘lgani maqsadga muvofiqdir. Shunda mavjud mehnat resurslaridan foydalanish darajasi yuqori bo‘lganligidan dalolat beradi.

d) mehnat resurslarining xo‘jalik faoliyatida qatnashishi. Ushbu ko‘rsatkich xo‘jalik faoliyatida jami sarflangan vaqtni mehnat resurslarining umumiy soniga taqsimlash orqali aniqlanadi, bunda quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$MRxfq = \frac{MRsv}{MRus}$$

Bunda: *MRsv* – mehnat resurslarining jami sarflagan vaqti, kishi-kuni, kishi-soat.

Bu ko‘rsatkichning mutlaq miqdori aniqlanayotgan davrdagi (oyda, yilda) bir kishining ish vaqti fondidan yuqori bo‘lmaydi. Mehnat resurslarining har bir guruhi uchun amaldagi qonunlarda yillik yoki oylik ish vaqti fondi belgilanadi. Uning miqdorini bir yildagi kalendar kunlar miqdoridan barcha turdagi bayram (agar u qonun bo‘yicha dam olish kuni hisoblansa), dam olish hamda ta’til kunlarini ayirish orqali aniqlanadi. Respublikamizda bir xodimning yillik o‘rtacha ish vaqti fondi 285 kun miqdorida belgilangan. Bu iqtisodiy faol mehnat resurslarining yillik ish vaqti fondi hisoblanadi. O‘smirlar uchun bu fond

ularni ijtimoiy jihatdan himoya qilgan holda belgilangan. Xuddi shunday imtiyozlar inson salomatligi uchun zararli ishlarni bajaruvchilar uchun ham o‘rnatilgan. Mehnat resurslarining xo‘jalik faoliyatida qatnashishi ko‘rsatkichi imkon qadar ushbu me’yorga yaqin bo‘lishi kerak.

e) belgilangan ish vaqti fondidan foydalanish koeffitsiyenti. U bir ishchi yoki xizmatchining ishlab chiqarishda haqiqatda ishlagan vaqtini (kishi-kuni, kishi-soat) qonunda belgilangan miqdorda ishlashi lozim bo‘lgan vaqtga taqsimlash natijasida aniqlanadi. Bunda quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$Vfk = \frac{Ih}{\mathrm{Im}}$$

Bunda: *Ih* – mehnat resurslarining bir yilda haqiqatda ishlagan vaqti, kishi-kuni, kishi-soat;

Im – mehnat resurslarining qonunda belgilangan me’yor bo‘yicha ishlashi lozim bo‘lgan vaqti, kishi-kuni, kishi-soat.

Bu koeffitsiyentning miqdori birga yaqin bo‘lishi kerak. Agar uning darajasi qanchalik past bo‘lsa, bu mehnat resurslari foydali mehnat jarayonida kam qatnashganligidan dalolat beradi.

f) mehnatning mavsumiylik koeffitsiyenti. Ushbu ko‘rsatkichni aniqlash uchun ma’lum davr (bir yil, bir oy) mobaynida eng ko‘p sarflangan kunlik mehnat sarfi shu davrdagi eng kam sarflangan kunlik mehnat sarfiga taqsimlanadi. Bunda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$Mmk = \frac{\mathrm{Imax}}{\mathrm{Imin}}$$

Bunda: *Imax* – ma’lum davrdagi eng ko‘p sarflangan kunlik mehnat sarfi, kishi-kuni, kishi-soat;

Imin – ma’lum davrdagi eng kam sarflangan kunlik mehnat sarfi, kishi-kuni, kishi-soat;.

Ushbu koeffitsiyentning miqdori 1-1,2 ga teng bo‘lgani maqsadga muvofiqdir. Hozirgi vaqtda mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida uning miqdori belgilangan me’yordan yuqoriroq bo‘lmoqda. Bu mehnat resurslarining ishlab chiqarish jarayonida bir me’yorda qatnashmayotganligidan dalolat beradi. Bu holni yumshatish zarur, buning uchun kam mehnat sarflanadigan oylarda ishlab chiqarishning boshqa sohalarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bu masalani har bir korxona o‘zining ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda hal etishi mumkin.

g) mehnat unumdorligi darajasi. Ushbu ko‘rsatkichni aniqlash uchun haqiqatda sarflangan jami mehnat sarfi miqdorini shu davrda ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga yoki qiymatiga taqsimlash zarur:

$$Mu = \frac{MS}{YM}$$

Bunda: *MS* – ma’lum davrda sarflangan mehnat, kishi-kuni, kishi-soat;

YM – ushbu davr mobaynida yetishtirilgan mahsulot miqdori yoki qiymati.

Bu ko‘rsatkich yetishtirilgan bir birlik (sentner, tonna, so‘m) mahsulot uchun qancha mehnat sarflanganligini ifodalaydi. Ushbu ko‘rsatkich mehnat sig‘imi ham deyiladi va mehnatni tejash iqtisodiy qonunining talabidir.

Amaliyotda esa mehnat unumdorligi haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulotning, bajarilgan ishning miqdori yoki qiymatini unga sarflangan ish vaqtiga taqsimlash orqali aniqlanadi:

$$Mu = \frac{YM}{MS}$$

Mazkur ko‘rsatkich sarflangan bir birlik (kishi-kuni, kishi-soat) mehnat sarfi evaziga qancha mahsulot yetishtirilganligining, xizmatlar bajarilganligining darajasini ifodalaydi. Bu ikki usul bir-birini inkor etmaydi, balki to‘ldiradi. Mahsulot birligiga sarflangan mehnat miqdori kamaysa yoki sarflangan bir birlik mehnat sarfi evaziga yetishtirilgan mahsulot birligi ko‘paysa, mehnat unumdorligi oshganligidan dalolat beradi.

Mehnat unumdorligi ko‘rsatkichi qishloq xo‘jaligida ayrim mahsulot turlari bo‘yicha hamda xo‘jalik miqyosida natural hamda qiymat ko‘rinishida aniqlanadi. Uning darajasini qiymat ko‘rinishida bir necha yillar davomida aniqlashda qiyosiy baholardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shunda qishloq xo‘jalik mahsulotlari baholari o‘zgarishining mehnat unumdorligi o‘zgarishiga ta’siri bartaraf etiladi. Yuqorida keltirilgan ko‘rsatkichlar yordamida qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishida qatnashayotgan mehnat resurslaridan qanday foydalanilayotganlik hamda sarflanayotgan mehnatning unumdorlik darajasi aniqlanib, chuqur tahlil etiladi.

Shunga asoslangan holda kelajakda mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash va sarflanishi zarur bo‘lgan mehnatning unumdorligini oshirish uchun qanday tadbirlarni ishlab chiqish kerakligi belgilanadi.

h) qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida band bo‘lgan mehnat resurslarining salmog‘i. Ushbu ko‘rsatkichni aniqlash uchun tarmoqda band bo‘lgan mehnat resurslari soni mamlakat miqyosida band bo‘lgan mehnat resurslari soniga taqsimlanadi va natija 100 ga ko‘paytiriladi. Uni aniqlashda quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$TMRs = \frac{TBMR}{MMRus} x100$$

Bunda: *TBMR* – tarmoqda band bo‘lgan mehnat resurslarining umumiy soni;

MMRus – mamlakat miqyosida mehnat resurslarining umumiy soni.

Ushbu ko‘rsatkichlar yordamida qishloq xo‘jalik tarmog‘ida band bo‘lgan mehnat resurslarining mamlakat mehnat resurslari umumiy sonidagi salmog‘i aniqlanib, tahlil qilinishi mumkin. Mazkur ko‘rsatkich tarmoqdagi mehnat resurslarining mehnat unumdorligiga baho berishda ham foydalanilishi mumkin. Masalan, 2020-yil 1-yanvar holatiga mamlakatimiz aholisining 49,5 foizi qishloq joylarda istiqomat qiladi va 2019-yilda iqtisodiyotda band bo‘lganlar jami soni tarkibida qishloq xo‘jaligining ulushi 26,2 foizni tashkil etgan. Niderlandiyada esa aholining 8,7 foizi qishloq joylarda istiqomat qiladi va iqtisodiyot tarmoqlarida band bo‘lganlarning atigi 2,3 foizi qishloq xo‘jaligi tarmog‘i hissasiga to‘g‘ri keladi. Niderlandiya qishloq xo‘jalik mahsulotlari eksporti bo‘yicha dunyoda ikkinchi o‘rinni egallaydi. Bu Niderlandiyada qishloq xo‘jaligi tarmog‘i intensiv rivojlanganligidan, qishloq xo‘jaligi tarmog‘i moddiy-texnika bazasining mustahkamlanganligi, zamonaviy texnika va texnologiyalar, innovatsiyalardan foydalanilishi natijasida mehnat unumdorligining yuqori bo‘lishiga erishilganligidan dalolat beradi. Ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha AQSh, Isroil, Germaniya va boshqa shu kabi qishloq xo‘jaligi intensiv rivojlangan mamlakatlarda ham yuqori natijalarga erishilgan.

Intensiv texnologiyalar qo‘llanilishi natijasida qishloq xo‘jaligi tarmog‘idan bo‘shayotgan mehnat resurslarini ish bilan ta’minlash uchun qishloq joylarda tadbirkorlikning boshqa shakllarini, sanoat va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini rivojlantirish lozim.

Mehnat resurslarining ish bilan ta’minlanmagan qismi ishsizlar hisoblanadi. Qonuniy jihatdan ishsiz hisoblanishi uchun ular o‘zlari istiqomat qiladigan hududdagi bandlikka ko‘maklashish markazlariga murojaat etishi zarur. Bandlikka ko‘maklashish markazi murojaat etgan ishsizlarni belgilangan tartibda ro‘yxatga olib, ularga mutaxassisligi

bo‘yicha ish topib bera olmasa, ularga ishsiz maqomini beradi. Ishsiz maqomini olgan fuqaro esa ijtimoiy jihatdan himoyalanishi uchun unga belgilangan miqdordagi mablag‘ ma’lum davr mobaynida berib boriladi.

Bandlikka ko‘maklashish markazlari ish bilan ta’minlanmaganlarga tumandagi imkoniyatlarni e’tiborga olgan holda malakasini oshirish yoki kasblarini o‘zgartirish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshiradi. Shular natijasida ularning ish bilan ta’minlanishi yaxshilanadi. Bu esa mehnat resurslaridan foydalanish koeffitsiyenti yuksalishini ta’minlaydi.

Qishloq hududlarida ishlab chiqarish kuchlarining rivojlantirilishi tarmoqdagi mehnat resurslarining ma’lum bir qismini sanoat va boshqa tarmoqlarga o‘tishiga ta’sir etmoqda. Shu orqali qishloq joylardagi mehnat resurslarining ish bilan ta’minlanganlik darajasi oshirilmoqda.

Tarmoqda mavjud bo‘lgan mehnat resurslarini ishlab chiqarishga jalb etish, ularning mehnatlari unumdorligini yuksaltirishda moddiy hamda ma’naviy rag‘batlantirishning, ya’ni ularning mehnatlariga yarasha haq to‘lash, yaxshi ishlaganlarni esa rag‘batlantirishning ahamiyati ulkan. Hozirgi bozor munosabatlari sharoitida mamlakatimiz miqyosida mehnatga to‘lanadigan ish haqining eng kam miqdori belgilanadi. Uning yuqori darajasi esa xo‘jaliklarning iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda hamda ishchi-xizmatchilarning qobiliyatlariga, imkoniyatlariga va tashabbuskorligiga qarab belgilanadi.

3. Qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligini oshirish yo‘llari.

Qishloq hududlarida mavjud bo‘lgan mehnat resurslaridan to‘liq va samarali foydalanish, ularning mehnatlari unumdorligini yuksaltirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan himoyalash eng dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu vazifani muvaffaqiyatli hal etilsh uchun quyidagilarga e’tibor berish lozim:

- qishloq hududlarida mavjud bo‘lgan mehnat resurslarining umumiy sonini va istiqbolda uning o‘zgarish darajasi monitoringini o‘tkazib borish;
- qishloq hududlaridagi barcha tadbirkorlik shakllarida qisqa va uzoq muddatga mutaxassislik turlari bo‘yicha mehnat resursiga bo‘lgan talabni aniqlash;
- qisqa va uzoq muddatga bo‘sh bo‘lgan ish joylarini ishlovchilar bilan ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni asoslangan holda ishlab

chiqish (kadrlar tayyorlash, malakasini oshirish, ularni qayta tayyorlash);

- ish bilan ta’minlanmaganlarning umumiy sonini aniqlash, ularni ijtimoiy himoyalash bo‘yicha me’yoriy tadbirlarni ishlab chiqish, ularni amalga oshirish va boshqalar.

Ta’kidlangan tadbirlarning samarali hal etilishi mehnat qilish qobiliyatiga ega bo‘lganlar bilan ish beruvchi subyektlar hamda ijtimoiy himoyalashni amalga oshiruvchi tashkilotlar o‘rtasida munosabatlar amalga oshirilishini taqozo etadi. Bu masalalarni hal etishda bandlikka ko‘maklashish markazlari muhim ahamiyatga ega.

Erkin bozor munosabatlari sharoitida o‘z mehnat qilish qobiliyatini taklif etayotgan fuqaro mehnat bozorini o‘rganib chiqadi. U yerda mavjud bo‘lgan talablarni o‘rganib, o‘zining intellektual va jismoniy qobiliyatlarini taklif etadi. Ish beruvchilar esa mehnat bozoridan o‘zlari uchun eng ma’qul bo‘lgan taklifni tanlab olishga harakat qiladilar. Ular bir-biriga mos kelganda shartnomalar tuzilib, xodim ishga yollanadi. O‘zbekiston Respublikasida ham shunday tartib joriy etilgan bo‘lib, bu vazifani qishloq hududlarida bandlikka ko‘maklashish markazlari amalga oshirmoqda.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat bozorining nazariy asoslari shotlandiyalik iqtisodchi A.Smit, ingliz iqtisodchisi D.Rikardo, Nobel mukofoti laureati, amerikalik iqtisodchi Paul A.Samuelson va boshqa olimlar tomonidan yetarli darajada asoslangan. Yaratilgan nazariyani hayotga tatbiq etish yo‘llari ham hal etilgan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat shu bozorda erkin sotilishi lozim. Shundagina u qiymatga ega bo‘ladi, ya’ni tovar shaklida ayirboshlanadi. Mehnat bozori erkin raqobat asosida amalga oshirilishi zarur. Bu bozorda mehnat munosabatlari iqtisodiy, ijtimoiy qonunlar, talab va taklif qonunlari talablari asosida amalga oshirilishi lozim. Mehnat bozorida inson o‘zini emas, balki mehnat qilish (jismoniy, aqliy) qobiliyatini taklif etadi. Iste’molchi, ya’ni ish beruvchi shu qobiliyatni sotib oladi. Demak, oldi-sotdi jarayonidagi iqtisodiy munosabat predmeti insonning mehnat qilish qobiliyati hisoblanadi. Insonning mehnat qilish qobiliyatiga to‘lanayotgan ish haqi shu mehnatning qiymati, ya’ni bahosi ekanligidan dalolat beradi.

Qishloq hududlaridagi mehnat bozorini samarali shakllantirishda quyidagi holatlarni e’tiborga olish zarur:

- respublika aholisining yarmi qishloq hududlarida yashayotganligi;

- qishloq hududlarida aholi sonining o‘sish sur’ati shaharlardagiga nisbatan yuqori ekanligi, bu hol kelajakda mehnat resurslarining yuqori sur’atlarda o‘sishiga ta’sir etishi;
- qishloq hududlarida sanoat korxonalari talab darajasida rivojlanmaganligini va barcha resurslarni e’tiborga olgan holda joylashmaganligi;
- hozirgi davrda qishloq hududlarida ish bilan ta’minlanmagan iqtisodiy faol mehnat resurslarining shaharlarga ish qidirib ketayotganligi;
- qishloq hududlarida xususiy mulkchilikka asoslangan ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik shakllari talab darajasida rivojlanmaganligini, shuningdek, madaniy, maishiy, kommunal va boshqa xizmatlarni amalga oshiruvchi infratuzilma subyektlari ko‘lamining torligi.

Mehnat bozorlari yuqorida ta’kidlangan barcha xususiyatlarni e’tiborga olgan holda erkin shakllanishi uchun quyidagilarga e’tibor berilishi lozim:

- qishloq hududlaridagi (jumladan, qishloq xo‘jalik korxonalaridagi) mehnat resurslarining umumiy miqdorini, tarkibini aniqlash;
- mehnat resurslarining taklifini va hududdagi barcha tadbirkorlik subyektlarining ularga bo‘lgan talabini tarkibi bo‘yicha aniqlash;
- erkin mehnat bozorini shakllantirish hamda ularning samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlovchi ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarni ishga solish;
- qishloqda mehnat resurslarining maqsadga muvofiq bandligini ta’minlashga hissa qo‘shish;
- mehnat bilan band bo‘lmagan fuqarolar sonini aniqlash, ularning malakasini oshirish, qayta tayyorlash hamda ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan himoyalash;
- erkin mehnat bozori amalga oshirilishini ta’minlovchi turli yarmarkalar va boshqa tadbirlarni tashkil etish, ularning samarali o‘tkazilishiga erishish;
- mehnat bozorining rivojlanishini ta’minlovchi barcha resurslarni topib, samarali sarflash kabi vazifalarni bozor talablari darajasida amalga oshirish lozim.

Qishloqlarda mehnat bozorini oqilona tashkil etib, samarali boshqarish uchun hududlarning xususiyatlarini e’tiborga olish lozim.

Respublikamizning mehnat resurslari soni ko‘p bo‘lgan hududlari, avvalo, Andijon, Farg‘ona, Namangan, Toshkent, Samarqand viloyatlari uchun mazkur bozorni tartibga solishning ancha samarali quyidagi ikkita usuli mavjud:

a) ishchi kuchiga talabni oshirish usuli;

b) ishchi kuchlariga taklifni kamaytirish usuli.

Fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari va intensiv texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish hisobiga ish o‘rinlarining bir qismi qisqarishi kuzatiladi.

Ishchi kuchiga bo‘lgan talabni oshirishni rag‘batlantirish usullarini tadqiq etish mehnat resurslarining oqilona bandligini ta’minlashga hamda mazkur hududlar uchun samarali tarmoqlarni rivojlantirishga qaratilgan.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash va xarid qilish hamda agroservis xizmati ko‘rsatish va shaxsiy mehnat faoliyati bo‘yicha ish joylarini yaratish, ishlab chiqarish kuchlari va bandlikning noan’anaviy shakllarini rivojlantirish, agrar sektordagi ishdan vaqtincha bo‘shatilayotgan shaxslar uchun mavjud korxonalarni kengaytirish va qayta tashkil etish hamda yangi ish o‘rinlarini yaratish maqsadida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish lozim.

Ishchi kuchlariga talabni oshirishni agrosanoat majmuining mehnat resurslarini qayta taqsimlashdan manfaatdor tarmoqlarida ish joylarini yaratish va yangi, zamonaviy kasblarni egallashga sarmoyalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri jalb qilish orqali tartibga solish mumkin. Investitsiya va kreditlarni agrosanoat majmui korxonalarini, ayniqsa, qayta ishlash korxonalarini qurish, texnik jihatdan qayta qurollantirish va rekonstruksiyalashga, shaxsiy mehnat faoliyatini rivojlantirish yo‘li bilan xizmat ko‘rsatish sohasini kengaytirishga, shuningdek, ko‘p bolali ayollar, mehnatga layoqatli nafaqaxo‘rlar, nogironlar, o‘smirlar va hokazolarga mos ish joylarini vujudga keltirishga yo‘naltirish maqsadga muvofiqdir. Shu tariqa ortiqcha mehnat resurslarini yuqorida aytib o‘tilgan tarmoqlarga va ayrim maxsus ish joylariga jalb etish, ayni paytda ishchi kuchlarining kasbiy malaka tarkibiga bevosita ta’sir o‘tkazish mumkin.

Ishchi kuchlari taklifini kamaytirishga ish vaqti va mavjud ish joylarini ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo‘lganlar o‘rtasida qayta taqsimlash orqali samarali ta’sir etish mumkin. Ayollarga bola parvarishi uchun to‘lanadagin nafaqalar va beriladigan ta’til muddatini ko‘paytirish, mehnat stajini hisoblashda ularga imtiyoz berish;

pensionerlar, nogironlarni parvarishlaydigan shaxslarning nafaqalarini oshirish mehnat bozoriga ishchi kuchlarining oqib kelishini kamaytirish chora-tadbirlari hisoblanadi.

Ish bilan bandlar orasida ish vaqti va ish joylari ishchi kuchlariga bo‘lgan taklifni kamaytirish maqsadlarida qayta taqsimlanadi. Aholi bandligining xususiy va vaqtinchalik shakllariga o‘tishini rag‘batlantirishga ularga ham ish bilan to‘la band shaxslarga mo‘ljallangan ijtimoiy muhofaza turlarini, ta’tillar va boshqa ijtimoiy kafolatlarning miqdorlarini o‘rnatish, kafolatlangan eng kam miqdordagi ish haqi bilan ta’minlash, har yili beriladigan ta’tillarni o‘z vaqtida berish, ish kuni va ish haftasi davomiyligini qisqartirish orqali erishish mumkin.

Mamlakatimizning mehnat resurslari yetishmaydigan mintaqalarida (Jizzax, Sirdaryo, Navoiy viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi) ishchi kuchlariga taklifini ko‘paytirish mehnat bozorini tartibga solishning maqsadga muvofiq usulidir. Respublika qishloq xo‘jaligidagi mavjud bo‘lgan mehnat resurslaridan yil davomida to‘liq va samarali foydalanish lozim.

Qishloq hududlarida, jumladan, qishloq xo‘jaligi korxonalarida mavjud bo‘lgan mehnat resurslarining real miqdorini aniqlash lozim. Shu bilan birga, aholi sonining mutlaq o‘sishini e’tiborga olgan holda mehnat resurslarining ko‘payish jarayonini aniqlash kerak. Mehnat qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan aholining harakatini ham hisobga olish zarur. Shundan so‘ng qishloq xo‘jaligida mavjud bo‘lgan ish joylarining hozirgi hamda istiqboldagi sonini real aniqlashga alohida e’tibor berish kerak. Shularga asoslangan holda mehnat balansi ishlab chiqilishi zarur.

Yuqoridagilarga asoslanib, mehnat resurslarining ish bilan ta’minlanganlik darajasi, shu orqali qishloq hududlarida mavjud bo‘lgan mehnat resurslarining ish bilan ta’minlanganlik darajasi aniqlanadi. Uning darajasi birga yaqin bo‘lishi lozim, aks holda mehnat resurslarini ish bilan ta’minlash chora-tadbirlari asoslangan holda ishlab chiqilishi kerak. Buning uchun qishloq xo‘jalik korxonalarida yangi ish joylarini tashkil etish imkoniyatlarini rejalashtiriladi. Mehnat resurslaridan foydalanishni rivojlantirish maqsadida ularni takror ishlab chiqarish jarayonlarini, ya’ni malakalarini oshirish, tayyorlash va qayta tayyorlash tadbirlarini ham belgilab olib, amalga oshirilishiga e’tibor berish zarur.

Korxonalarda mehnat unumdorligi darajasini yuksaltirishga alohida e’tibor berish lozim. Bu masalaning hal etilishida eng ta’sirchan

omil moddiy manfaatdorlik hisoblanadi. Darhaqiqat, bozor iqtisodiyoti sharoitida kim yaxshi, sifatli ishlasa koʻp haq oladi. Shunday ekan, qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishida samarali mehnat qilayotgan ishchi-xizmatchi oʻz mehnatiga yarasha koʻproq haq olishi lozim. Shu bilan birga mehnatkashlarni ma'naviy ragʻbatlantirishni amalga oshirishni ta'minlash kerak. Eng avvalo, mehnatlari natijalarini e'tiborga olgan holda mukofotlash va taqdirlash lozim. Unvonlar ham ma'lum darajada fuqarolarning mablagʻlar bilan ta'minlanishiga olib keladi. Jumladan, respublikada xizmat koʻrsatgan iqtisodchi, agronom, irrigator unvonlarini olganlarning asosiy ish haqlariga eng kam oylik ish haqining 60 foizi miqdorida ustama beriladi. Eng asosiysi, ma'naviy ragʻbatlantirish insonlarning kayfiyatiga ijobiy ta'sir koʻrsatadi va ularning mehnatga munosabatini yaxshilaydi, yaxshiroq mehnat qilishga undaydi.

Qishloq xoʻjaligidagi mehnat jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish, elektrlashtirish natijasida sarflanayotgan mehnatning unumdorligi oshishini ta'minlash mumkin. Buning uchun xoʻjaliklar ixtiyoridagi barcha mashinalar, traktorlarning ishga yaroqliligini oshirish hamda ulardan yil davomida toʻliq foydalanishga erishish tadbirlarini shakllantirish lozim. Eng avvalo, ularni malakali kadrlar, ta'mirlash ustaxonalari bilan ta'minlash kerak. Xoʻjaliklarning ishlab chiqarish resurslari bilan ta'minlanganligini ham talab darajasiga yetkazish zarur. Buning uchun esa moliyaviy resurslar bilan ta'minlash choralarini aniqlab, ularning bajarilishini ta'minlash kerak.

Qishloq xoʻjaligida ishlab chiqarishning mavsumiyligi tufayli yilning ma'lum davrida tarmoqdagi mehnat resurslarining bir qismi boʻsh turib qoladi, bu esa mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligiga salbiy ta'sir koʻrsatadi. Ushbu holatning oldini olish uchun qishloq xoʻjalik korxonalarida xodimlarni mehnat resursiga talab kam boʻladigan qish oylarida ham ish bilan band qilish choralarini koʻrish lozim. Bunda dehqonchilikka ixtisoslashgan fermer xoʻjaliklarida chorvachilikni ham yoʻlga qoʻyish, issiqxonalar tashkil etish, turli sexlar, ustaxonalar faoliyatini tashkil etish va boshqa tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Demak, qishloq xo‘jaligida mehnat resurslaridan yil davomida to‘liq va samarali foydalanish hamda ularning mehnatlari unumdorligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta’minlash maqsadga muvofiqdir:

- qishloq joylarda tadbirkorlik shakllarini rivojlantirish;
- tarmoqning rivojlanishini e’tiborga olgan holda qo‘shimcha ish joylarini tashkil etish;
- qishloq xo‘jaligiga yangi texnikalarni, samarali texnologiyalarni izchillik bilan tatbiq etish;
- tarmoqning ishlab chiqarish tarkibini takomillashtirish va moddiy-texnika ta’minotini yuksaltirish;
- qishloqda yashash va ishlash uchun barcha sharoitlarni yaratish;
- mehnatni tashkil etishning samarali turlarini tashkil etish va rivojlantirish;
- kadrlarni tayyorlash, malakalarini oshirish, ularni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirishni takomillashtirish va boshqalar.

Bu kabi chora-tadbirlarning qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishiga joriy etilishi tarmoqdagi mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilab, mehnat unumdorligi oshishiga ijobiy ta’sir etadi.

Qisqacha xulosalar

Belgilangan yosh chegarasidagi mehnat qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan aholi mehnat resursi hisoblanadi. Ularning ongli ravishda, aniq maqsadni ko‘zlab sarflagan mehnatlari natijasida ishlar bajariladi, mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Qishloq xo‘jaligida mehnat resurslaridan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Jumladan, mehnat va uning samarasi tabiiy sharoit bilan bog‘liq, mehnat resursidan foydalanishga qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining mavsumiyligi katta ta’sir ko‘rsatadi, qishloq xo‘jaligidagi mehnat jarayoni tirik organizmlar bilan uzviy bog‘langan va boshqalar. Tarmoqda mehnatni tashkil etishda ushbu xususiyatlarni inobatga olish lozim.

Kelajakda mehnat resurslaridan foydalanishni yanada yaxshilash va mehnat unumdorligini oshirish maqsadida yangi ish joylarini barpo etish, takror ishlab chiqarish sohalarini rivojlantirish, moddiy va ma’naviy rag‘batlantirishni takomillashtirib borish lozim. Qishloq xo‘jaligida mehnat bozorini ham rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Mehnat va mehnat resurslari haqida tushuncha bering.
2. Qishloq xo‘jaligida mehnat resursining qanday o‘ziga xos xususiyatlari mavjud?
3. Mehnat unumdorligi qanday aniqlanadi?
4. Mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi qaysi ko‘rsatkichlar orqali aniqlanadi?
5. Mehnat resurslari to‘g‘risidagi qanday me’yoriy hujjatlar qabul qilingan?
6. Mehnat bozori, uning maqsadi, tashkil etilish shakllari va vazifalari nimalardan iborat?
7. Mehnat bozorini tartibga solishning qanday usullari bor?
8. Mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash, mehnat unumdorligini oshirishning qanday yo‘llari bor?

BOB YUZASIDAN AMALIY TOPSHIRIQLAR:

1-topshiriq:

“Baliq skeleti” usuli yordamida “Qishloq xo‘jaligida mehnat resurslarining o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?” savoliga javob berish.



2-topshiriq:

Nilufar guli usuli yordamida qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligi darajasining pastligiga ta’sir etuvchi omillar va ularni bartaraf etish yo‘llarini tahlil qilish.

	B	

	C	

	D	

	I	

B	**C**	**D**
I	**A**	**E**
H	**G**	**F**

	E	

	H	

	G	

	F	

Nilufar guli - muammoni yechish yo‘llarini ko‘rsatib beruvchi usuldir. O‘zida nilufar guli ko‘rinishini namoyon qiladi. Uning asosini to‘qqizta to‘g‘ri to‘rtburchak tashkil etadi. Bunda A – qo‘yilayotgan asosiy muammo, ya’ni qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligi darajasining pastligi; B,C,D,E,F,G,H,I – esa ushbu muammoga ta’sir etuvchi omillar, har bir omil alohida olinib, uni hal etish yo‘llari yozib chiqiladi. Ushbu usul tizimli fikrlash, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi va faollashtiradi.

3-topshiriq:

Tushunchalar mazmuni usuli orqali qishloq xo‘jaligida mehnat resurslari to‘g‘risidagi asosiy tushunchalarga ta’rif bering.

Tushunchalar	Mazmuni
Mehnat	
Mehnat resursi	
Mehnat unumdorligi	
Mehnat sig‘imi	
Mehnat qaytimi	

4-topshiriq:

Quyidagi ma’lumotlardan foydalanib:

- mehnat resurslari bilan ta’minlanganlik darajasi;
- mehnat resurslarining xo‘jalik faoliyatida qatnashishi;
- mehnatning mavsumiylik koeffitsiyentini;
- mehnat unumdorligini aniqlang, ularni yillar bo‘yicha qiyoslab, o‘z fikr va xulosangizni yozing.

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	2019-yil	2020-yil
Jami ekin maydoni	gektar	120	135
Mehnat resurslari umumiy soni	kishi	32	369
Mehnat resurslarining jami sarflagan vaqti	kishi-soat	2752	3194
Yil mobaynida eng ko‘p sarflangan kunlik mehnat sarfi	kishi-soat	32	36
Yil mobaynida eng kam sarflangan kunlik mehnat sarfi	kishi-soat	12	10
Yalpi mahsulot qiymati	mln. so‘m	576,3	612,8

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Qishloq xo‘jaligida mehnat resursining mohiyati, ahamiyati va o‘ziga xos xususiyatlari.
2. Qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligi va unga ta’sir qiluvchi omillar.
3. Qishloq xo‘jaligida mehnat resurslaridan foydalanish holati va samaradorligiga baho beruvchi ko‘rsatkichlar.
4. Qishloq xo‘jaligida mehnat bozori, uning maqsadi, tashkil etilish shakllari va vazifalari.

7-BOB. QISHLOQ XO‘JALIGIDA MULK VA XO‘JALIK YURITISH SHAKLLARINING SAMARADORLIGI

1. Qishloq xo‘jaligida mavjud mulk shakllari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari.
2. Qishloq xo‘jaligida mavjud tadbirkorlik shakllari, ularning tashkil etilishi va rivojlanishi.
3. Qishloq xo‘jaligida mulkiy munosabatlarni yanada takomillashtirish yo‘llari.

Tayanch iboralar: qishloq xo‘jaligida mulkiy munosabatlar, xususiy mulk, jamoa mulki, davlat mulki, aralash mulk, tadbirkorlik, qishloq xo‘jaligida tadbirkorlik shakllari.

1. Qishloq xo‘jaligida mavjud mulk shakllari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari.

Bozor munosabatlari sharoitida barcha sohalarda bo‘lgani singari qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida ham tadbirkorlik faoliyatining negizini mulk tashkil etadi. A.Smit “Xalqlar boyliklarining mohiyati va sabablarini tadqiq etish” kitobida (1776) tadbirkorlikning ta’rifiga alohida e’tibor bergan. Uning fikricha, tadbirkor kapital egasidir va u muayyan tijorat g’oyasini amalga oshirib, daromad olish uchun tavakkalchilik bilan ish boshlaydi. Tadbirkorlikdan olingan daromad, A.Smit fikricha, shaxsiy tavakkalchilik uchun olingan mukofotdir.

Mashhur fransuz iqtisodchisi J.B.Sey “Siyosiy iqtisod risolasi” kitobida (1803) tadbirkorlik faoliyatini ishlab chiqarishning uch mumtoz omillari – yer, kapital, mehnatning yaxlitligi deb ta’riflagan edi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining IX bob 36-moddasida har bir shaxs mulkdor bo‘lishga haqli ekanligi ko‘rsatilgan. XII bobning 53-moddasida esa “Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste’molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi. Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin” – deb ta’kidlangan. Ushbu bobning 54-moddasida mulkdor mulkiga o‘z

xohishicha egalik qilishi, undan foydalanishi va uni tasarruf etishi ko‘rsatib qo‘yilgan. Bundan tashqari ushbu moddada mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar yetkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shartligi ta’kidlab o‘tilgan.

1990-yil 31-oktabrda qabul qilingan va 1993-yil 7-mayda o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan “O‘zbekiston Respublikasida mulkchilik to‘g‘risida”gi qonunning 1-moddasiga binoan mulkdor o‘z mol-mulkiga nisbatan qonunga zid bo‘lmagan har qanday hatti-harakatlarni qilishga haqlidir. U mulkdan qonun hujjatlari bilan ta’qiqlanmagan har qanday xo‘jalik yoki boshqa faoliyatni amalga oshirishda foydalanishi mumkin. Ushbu qonunning 5-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida, shu jumladan qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida quyidagi mulk shakllari mavjud:

- *xususiy mulk.* Bu shakldagi mulk egasi o‘z mol-mulkiga xususiy tarzda egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqlariga ega. Xususiy mulk mulkdorning ishlab chiqarish jarayonida o‘z mehnati va yollanma mehnatni qo‘llashi orqali shakllanadi.
- *jamoa mulki*. Bu mulk fuqarolarning va yuridik shaxslarning mol-mulkini kooperativlar va boshqa xo‘jalik jamiyatlarini tuzish uchun ixtiyoriy birlashishi orqali shakllanadi. Uyushmalar va ularga kiruvchi birlashmalarning shu uyushmaga qarashli mol-mulkdan foydalanish va tasarruf etish sohasidagi vakolatlari uyushmalar va birlashmalarning ustavlari bilan belgilanadi.
- *davlat mulki*. O‘zbekiston Respublikasining, shuningdek ma’muriy-hududiy tuzilmalarning budjet yoki boshqa mablag‘lari yoxud ular ixtiyoridagi korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning mablag‘lari hisobiga hosil qilinadigan yoki sotib olinadigan mulk tegishli ravishda davlat mulki bo‘ladi. Bunga asosan davlat ahamiyatiga molik korxonalar, ijtimoiy-madaniy soha obyektlari kiradi. Davlat mulki bo‘lgan va davlat korxonasiga biriktirib qo‘yilgan mol-mulk to‘la xo‘jalik yuritish huquqi asosida unga tegishlidir. Korxona o‘z mol-mulki bilan to‘la xo‘jalik yuritish huquqini amalga oshirar ekan, mazkur mulkka egalik qiladi, undan foydalanadi va tasarruf etadi, unga nisbatan o‘z xohishi bilan qonunga zid kelmaydigan har qanday harakatlarni amalga oshiradi.
- *aralash mulk.* Bu mulk ikki yoki undan ortiq turdagi mulkchilik shakllarining o‘zaro manfaatli uyg‘unlashishi natijasida shakllanadi. Jumladan, davlat va jamoa mulkining o‘zaro birikishi natijasida aralash

mulk tashkil bo‘ladi. Aralash mulk mulkdorlarning moddiy va pul mablag‘larini birlashtirish yo‘li bilan hosil qilinadi. Aralash mol-mulkka egalik qilish hissaviy ishtirok etish tamoyili asosida ham, shuningdek o‘z mablag‘larini birlashtirgan mulkdorlar o‘rtasida daromadlarni qo‘shgan ulushiga qarab taqsimlash asosida va tomonlarning kelishuvi bilan ham amalga oshirish mumkin. Aralash mulkning o‘z mablag‘larini birlashtirayotgan mulkdorlarning maqomi bilan belgilanadigan har xil turlari bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarning, turli yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkini birlashishidan aralash mulk shakllanadi.

- *boshqa davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar yuridik va jismoniy shaxslarining mulki*. Chet el fuqarolari O‘zbekiston Respublikasi hududidagi mulklariga egalik qilish huquqiga egadirlar. Davlat bu mulkning daxlsizligini va boshqa davlatlarga erkin o‘tkazilishini kafolatlaydi. Chet el yuridik shaxslari O‘zbekiston Respublikasi hududida xo‘jalik faoliyatlarini va O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida man etilmagan boshqa faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘ladigan o‘z mulklariga ega bo‘lishga haqlidirlar. Chet el yuridik shaxslarining mulki davlat tomonidan muhofaza etiladi. Shuningdek, mulkni ko‘paytirish va boshqa davlatlarga o‘tkazish qonunan ta’minlanadi. Bundan tashqari, xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar O‘zbekiston Respublikasi hududida xalqaro shartnomalarda hamda O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan hollarda va tartibda diplomatik, konsullik, ijtimoiy-madaniy, xayriya va boshqa xalqaro munosabatlarni amalga oshirish uchun zarur mol-mulkka egalik qilishga haqlidir.

Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida sobiq ittifoq davrida asosan davlat mulki va qisman jamoa mulki mavjud bo‘lgan. Lekin jamoa mulkiga asoslangan jamoa xo‘jaliklarida ham davlatning ta’siri kuchli bo‘lib, ushbu xo‘jaliklarning mulki tom ma’noda jamoa mulki bo‘lmagan. Mustaqillikka eishganimizdan so‘ng mamlakatimiz iqtisodiyotida tub islohotlar amalga oshirila boshlandi. Shu jumladan, qishloq xo‘jaligida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishga alohida e’tibor berildi. Chunki davlat mulki bozor munosabatlari talablariga javob bermaydi, ya’ni iqtisodiyot subyektlarida o‘z faoliyatlarini rivojlantirish, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish, mahsulot sifatini oshirish kabi jarayonlarga undovchi mexanizm mavjud emas. Shu sababdan mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida mustaqillikning ilk davridan boshlab davlat mulkini xususiylashtirishga va bozor

munosabatlari sharoitiga mos mulk shakllarini joriy etishga alohida e’tibor berildi. Shu maqsadda mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida jamoa mulki va xususiy mulkchilikka ustuvorlik berildi.

2. Qishloq xo‘jaligida mavjud tadbirkorlik shakllari, ularning tashkil etilishi va rivojlanishi.

Qishloq xo‘jaligida tadbirkorlik – foyda olish maqsadida tavakkalchilikka asoslangan holda mavjud me’yoriy hujjatlar asosida mulkchilik subyektlarining qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish, ularni qayta ishlash va sotish hamda xizmatlar ko‘rsatish sohalarida faoliyat ko‘rsatishidir. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida tadbirkorlik faoliyati yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Bu jarayonda ular O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “O‘zbekiston Respublikasida mulkchilik to‘g‘risida”gi, “Korxonalar to‘g‘risida”gi va “Tadbirkorlik faoliyati to‘g‘risida”gi qonunlar talablariga rioya etishlari zarur.

Mustaqillikning ilk davridan boshlab amalga oshirilayotgan agrar-iqtisodiy islohotlarda respublikamiz qishloq xo‘jaligida davlat mulkini uning tasarrufidan chiqarishga, uning negizida jamoa va xususiy mulkchilikni hamda ularga asoslangan tadbirkorlik shakllarini tashkil etishga asosiy e’tibor qaratilmoqda. Bunda yerga umummilliy boylik sifatidagi umumxalq mulkchiligi saqlab qolinmoqda. Boshqa mulklar esa davlat tasarrufidan bosqichma-bosqich chiqarilib, xususiylashtirilmoqda. 1990-yilda davlat mulkchiligiga asoslangan xo‘jaliklar, ya’ni davlat xo‘jaliklari 1038 ta edi. Ular O‘zbekistonda XX asrning 30-yillarida tashkil etila boshlangan. Respublikaning Qarshi va Mirzacho‘l, Surxon-Sherobod, Markaziy Farg‘ona hududlarida yangi yerlarni o‘zlashtirish natijasida keng miqyosda davlat xo‘jaliklari tashkil etildi. Davlat xo‘jaliklarining tashkil etilishida davlat budjetidan ajratilgan mablag‘ evaziga ishlab chiqarishni tashkil etish hamda yuritish uchun zarur bo‘lgan barcha ishlab chiqarish vositalarini davlat tomonidan o‘rnatilgan baholarda sotib olinar edi. Ulardan foydalangan holda faoliyat yuritib, ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarini davlat tomonidan belgilangan xarid narxlarida davlatga qarashli tayyorlov tashkilotlariga sotar edilar va olingan daromad davlat moliya organlari tomonidan o‘rnatilgan tartibda taqsimlanar edi. Bunda asosiy e’tibor davlat manfaatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, davlat xo‘jaliklariga iqtisodiy erkinlik berilmagan edi. Shuning uchun ular

yuqori tashkilotlar tomonidan belgilangan qonun-qoidalarga bo‘ysungan holda qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish bilan shug‘ullanar edilar. Ular asosan paxtachilik, g‘allachilik, chorvachilikka ixtisoslashgan bo‘lib, respublikada yetishtirilayotgan mahsulotlarning sezilarli qismini ishlab chiqarar edilar. Bu xo‘jaliklarning respublikada yetishtirilgan yalpi qishloq xo‘jalik mahsulotidagi ulushi 1990-yilda 37,5 foizni tashkil etgan. Lekin ular iqtisodiy negizi, faoliyat yuritish mazmuni bo‘yicha erkin bozor munosabatlari talablariga javob bermas edi. Shuning uchun ham davlat mulkchiligiga asoslangan xo‘jaliklar negizida tashkiliy, iqtisodiy islohotlar amalga oshirilishi zarur bo‘ldi. Islohotlar jarayonida ularning negizida dastavval jamoa xo‘jaliklari, keyinchalik shirkatlar hamda hozirgi vaqtda mustaqil fermer xo‘jaliklari tashkil etildi.

Respublika hukumati qishloq xo‘jaligi oldidagi muhim vazifalarni e’tiborga olgan holda bir qancha muammolarni o‘z zimmasiga olgan. Bunda davlat bosh islohotchi vazifasini bajarmoqda. Hozirgi davrda respublikamiz hukumati agrar siyosatning strategik yo‘nalishlarini belgilab, uni ta’minlash bilan bog‘liq tadbirlarni amalga oshirish choralarini ko‘rmoqda. Hukumatning asosiy e’tibori qishloq xo‘jaligining barcha sohalari yagona fan-texnika siyosatiga asoslangan holda rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan. Bu nihoyatda muhim masala hisoblanadi. Chunki faqat ilm-fan, yangi, samarali texnika hamda ilg‘or texnologiya barcha yutuqlarning asosiy negizidir. Bu masalani hal etish maqsadida qishloq xo‘jaligida davlat mulkiga asoslangan xo‘jaliklar qisman saqlab qolingan. Ular asosan qishloq xo‘jaligida davlat ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasining tajriba xo‘jaliklari, urug‘chilik va naslchilik xo‘jaliklari ko‘rinishida saqlab qolingan. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda 100 ga yaqin tajriba xo‘jaliklari faoliyatini davom ettirib kelmoqda. Ular asosan davlat budjetidan ajratilayotgan mablag‘lar evaziga qishloq xo‘jaligining rivojlanishini ta’minlaydigan ilmiy g‘oyalarni yaratish, sinash asosida qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish bilan shug‘ullanmoqdalar. Ular faoliyatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilar:

- urug‘chilik, naslchilik va ko‘chatchilikni rivojlantirish, yangi, serhosil, tezpishar navlar hamda mahsuldor zotlarni yaratish;
- qishloq xo‘jaligiga fan yutuqlarini joriy etishni tashkillashtirish;
- iqtisodiyotda erkin bozor munosabatlarini yaratish va ularni chuqurlashtirish;

- yangi texnika, ilg‘or texnologiyalarni yaratish, agrotexnika tadbirlarini takomillashtirish va boshqalar.

Ilmiy-tadqiqot institutlarida yaratilayotgan ilmiy g‘oyalar va yangiliklar eng avvalo tajriba xo‘jaliklarida sinalib, so‘ngra amaliyotga tatbiq etish uchun tavsiya qilinadi. Hozirgi vaqtda qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarilayotgan yalpi mahsulotning 1 foizini mazkur tajriba xo‘jaliklari bermoqda. Fan yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etishdagi o‘rnini e’tiborga olgan holda ularni saqlab qolish va faoliyatini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida XX asrning 80-yillari oxiri va 90-yillari boshida 887 ta jamoa xo‘jaligi faoliyat ko‘rsatib, respublikada yetishtirilayotgan yalpi qishloq xo‘jalik mahsulotining 35 foizini berar edi. Ularning iqtisodiy negizini jamoa mulki tashkil etgan. Lekin mulkchilikning bu shakli uning haqiqiy mazmuni, mohiyatiga mos emas edi, chunki amalda ular davlat tasarrufida edi. Bunday hol bozor iqtisodiyoti talablariga to‘g‘ri kelmaydi. Shu bois erkin bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiy tizimga o‘tish munosabati bilan tarmoqdagi davlat xo‘jaliklari negizida jamoa xo‘jaliklari bosqichma-bosqich yangicha ko‘rinishda tashkil etila boshlandi.

Bu o‘rinda eslatib o‘tish kerakki, jamoa xo‘jaliklari 1990-yillargacha qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga ma’lum darajada o‘z hissalarini qo‘shganlar. Ular o‘sha yillarda tarmoqda yetishtirilayotgan paxtaning 41 foizini, g‘allaning 37 foizini, sutning 36 foizini berar edi. Lekin ularning faoliyatlari ham davlat xo‘jaliklari kabi to‘liq davlat tomonidan boshqarilardi, ya’ni ularda mahsulotlar yetishtirish jarayoni davlat mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilib, yetishtirilgan mahsulotlarni davlat o‘z tashkilotlari yordamida hukumat tomonidan belgilangan xarid baholarida sotib olar edi. Olingan daromad esa hukumat tomonidan belgilangan tartibda taqsimlanar edi. Bunda jamoaning erki, huquqi to‘liq e’tiborga olinmas edi. Demak, u xo‘jaliklarda amalga oshirilgan iqtisodiy munosabatlar bozor iqtisodiyoti munosabatlari talablariga mos emas edi. Bunday hollarni bartaraf etish maqsadida avvalo jamoa mulkchiligiga asoslangan jamoa xo‘jaliklarida haqiqiy bozor iqtisodiyoti munosabatlarini barpo etishga alohida e’tibor berildi. Bunda respublikada amalga oshirilayotgan yer islohotiga asoslangan holda mavjud jamoa xo‘jaliklariga davlat mulki hisoblangan yer foydalanish uchun ijaraga berildi. Ular yerdan foydalanganlik uchun belgilangan muddatda ijara haqi to‘laydigan bo‘lishdi. Ijara haqi 1999-yildan boshlab yagona yer solig‘i shaklida to‘lanadigan bo‘ldi. Shu bilan

birga “Mulk to‘g‘risida”gi qonun talabiga muvofiq u xo‘jaliklarda haqiqiy jamoa mulkchiligi tashkil etishga e’tibor berildi. Mulkchilikning bu shakli jamoa xo‘jaliklari negizida shirkat xo‘jaliklari tashkil etish orqali shakllantirildi. Uning huquqiy asoslari yaratildi. Oliy Majlis tomonidan 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan “Qishloq xo‘jalik kooperativlari (shirkatlar) to‘g‘risida”gi qonun, uning hayotga tatbiq etilishini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 15-iyuldagi 229-sonli qarori qabul qilingan edi.

Shirkat xo‘jaligi - qishloq xo‘jalik tovar mahsulotlari ishlab chiqarish va xizmatlarni bajarish maqsadida fuqarolarning paychilikka asoslangan oilaviy pudrat asosida uyushib, erkin, mustaqil faoliyat ko‘rsatadigan, yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan xo‘jalik yuritish subyektidir. Ular o‘tish davrida qishloq xo‘jaligida tadbirkorlikning yirik tovar ishlab chiqaruvchi shakli sifatida namoyon bo‘ldi. Ularning ixtiyoriga qishloq xo‘jalik yerlarining asosiy qismi uzoq muddatga ijaraga foydalanishga berildi. Shirkat xo‘jaliklarining iqtisodiy negizini, ya’ni mulkini pay (ulush) asosida tashkil etilgan paychilarning jamoaviy mulki tashkil etar edi. Shirkat xo‘jaliklarining barcha mulki (yerlarning qiymatini ham qo‘shib) a’zolariga pay shaklida bo‘lib berildi. Shuning natijasida shirkat a’zolari mulk egasi bo‘ldilar. Bu hol ularga barcha mulkka birgalikda egalik qilish, foydalanish imkoniyatini berdi.

Shirkat xo‘jaliklarini faoliyat ko‘rsatib turgan jamoa xo‘jaliklari zaminida qayta tashkil etish nazarda tutilgan edi. Faoliyat ko‘rsatib turgan jamoa xo‘jaligini shirkat xo‘jaligiga aylantirish xo‘jalik a’zolarining umumiy majlisi qaroriga asosan amalga oshirilgan. Ushbu qaror o‘zgartirilayotgan xo‘jalikning kreditorlariga ham yozma ravishda yetkazilishi nazarda tutilgan. Shu qarorga asosan shirkat xo‘jaligiga aylantirilayotgan xo‘jalik rahbarlari, mutaxassislari va a’zolaridan iborat komissiya tuziladi. Tuman hokimining qarori bilan komissiya ishida tuman hokimligi, moliya va soliq idoralari, banklar, kasaba uyushmasi vakillari ishtirok etadilar. Komissiya zimmasiga nihoyatda muhim masalalar yuklatilgan edi. Shu jumladan mazkur komissiya yangi tashkil etilayotgan shirkat xo‘jaligining Nizomi loyihasini ham tayyorlagan.

Mamlakatimizda tashkil etilgan shirkat xo‘jaliklari dehqonlarning moddiy manfaatdorligini oshirgan bo‘lsada, bozor munosabatlari talablariga to‘liq javob bera olmadi. Ayrim holatlarda esa shirkat xo‘jaliklarini tashkil etishda tashkiliy tomondan ayrim kamchiliklarga yo‘l qo‘yildi. Ya’ni, samarasiz faoliyat yuritayotgan jamoa xo‘jaliklarini

shirkat xo‘jaliklariga aylantirishda qonunda belgilangan tartibda tashkil etish, jamoa xo‘jaliklarida mavjud bo‘lgan kamchilikni bartaraf etish maqsadida shirkat a’zolarida mulkdorlik hissini uyg‘otish, ularning shirkat xo‘jaligi mulkidagi ulushini tasdiqlovchi pay guvohnomalarini rasmiylashtirish va berish kabi holatlarda kamchiliklarga yo‘l qo‘yildi. Shuning natijasida qishloq xo‘jaligi kooperativlari, ya’ni shirkat xo‘jaliklari ham ko‘zlangan natijani bermadi.

Shu sababli mamlakatimiz hukumati tomonidan qishloq xo‘jaligiga samarali, dehqonlarda haqiqiy mulkdorlik hissini uyg‘otadigan, ularning iqtisodiy erkinligini ta’minlaydigan xo‘jalik yuritish shakllarini joriy etishga e’tibor qaratildi. Avvalo, dehqonning ishlab chiqarishga va mulkka egalik hissining ortishi, erkin iqtisodiy faoliyat yuritishi, daromad olishi, uni o‘z xohishiga ko‘ra mustaqil taqsimlash hamda tasarruf etish imkoniyati yaratildi. Respublika agrar sohasida faoliyat yuritayotgan fermer xo‘jaliklari boshqa subyektlarga nisbatan amaliyotda o‘zining bir qancha ijobiy ustunliklarini ko‘rsatdi va shu sababli fermer xo‘jaliklariga istiqbolli xo‘jalik yuritish shakli sifatida katta e’tibor qaratildi. 1998-yil 30-aprelda O‘zbekiston Respublikasining “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilingan bo‘lib, u 36 moddadan iborat. Ushbu qonunning yangi tahriri 2004-yil 26-avgustda qabul qilindi. “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonunning 3-moddasida fermer xo‘jaligiga quyidagicha ta’rif berilgan: fermer xo‘jaligi - ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqarishi bilan shug‘ullanuvchi, mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyektdir.

Fermer xo‘jaligi o‘ziga uzoq muddatga ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda tovar qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan shug‘ullanuvchi fermer xo‘jaligi a’zolarining birgalikdagi faoliyatiga asoslangan, yuridik shaxs huquqlariga ega mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyektdir. Fermer xo‘jaliklari tanlov asosida zahira va maxsus respublika fondi hisoblangan hamda mehnat resurslari ortiqchaligi sezilmagan yerlarda va hududlarda tashkil etiladi.

Fermer xo‘jaligini shu xo‘jalikning o‘n sakkiz yoshga to‘lgan, qishloq xo‘jaligida tegishli bilim, malaka va ish tajribasiga, yaxshi muomala qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan barkamol a’zolaridan biri boshqarishi mumkin. Fermer xo‘jaligining Nizom fondida ko‘rsatilgan quyidagi vositalar, mablag‘lar uning mulki hisoblanadi:

- uy-joylar, xo‘jalik inshootlari, qishloq xo‘jalik ekinlari va ko‘chatzorlari, ko‘p yillik daraxtlar, mahsuldor chorva mollari,

parrandalar, qishloq xo‘jalik texnikasi, asbob-uskuna, transport vositalari, pul mablag‘lari, intellektual mulk obyektlari;

- ishlab chiqarish faoliyati natijasida yetishtirilgan mahsulotlar;
- ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotishdan, ish va xizmatlar ko‘rsatishdan tushgan pul mablag‘lari, olingan foyda;
- olingan kredit mablag‘lari;
- a’zolarining qimmatli qog‘ozlari, ular evaziga olingan dividendlar;
- yuridik va jismoniy shaxslarning beg‘araz xayriya, homiylik mablag‘lari va boshqalar.

Shu mulklardan samarali foydalanish natijasida xo‘jalikni rivojlantirish uning a’zolari shaxsiy mehnatiga bog‘liq. Fermer xo‘jaliklari faoliyat ko‘rsatish jarayonida mehnat shartnomasiga asoslangan holda ishchi-xizmatchilarni yollashi mumkin.

Fermer xo‘jaligini yuritish uchun yer uchastkalarini ajratish tartibi Yer Kodeksi, “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonun va “Yer uchastkalarini fermer xo‘jaliklariga uzoq muddatli ijaraga berish tartibi to‘g‘risidagi Nizom” asosida amalga oshiriladi.

Yer Kodeksida fermer xo‘jaliklariga yer uchastkalari ochiq tanlov asosida o‘ttiz yildan ellik yilgacha bo‘lgan muddatga zahira yerlari yoki qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan ajratilishi nazarda tutilgan.

Fermer xo‘jaliklariga yer ajratish fermer xo‘jaligining ma’lum bir faoliyat yo‘nalishiga ixtisoslashganini inobatga olgan holda amalga oshiriladi. Xususan, chorvachilik mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo‘jaligi xo‘jalikning biznes rejasida nazarda tutilgan kamida 30 shartli bosh chorva mollarini boqish shartlari bilan beriladi. Bunda fermer xo‘jaligiga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o‘lchami har bir shartli bosh chorva moliga hisoblaganda:

- Andijon, Namangan, Samarqand, Toshkent, Farg‘ona va Xorazm viloyatlarida sug‘oriladigan yerlarda – kamida 0,3 gektarni (nasldor chorvachilik fermer xo‘jaliklari uchun 0,5 gektarni);
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Qashqadaryo, Jizzax, Navoiy, Surxondaryo va Sirdaryo viloyatlaridagi sug‘oriladigan yerlarda – kamida 0,45 gektarni (nasldor chorvachilik fermer xo‘jaliklari uchun 0,6 gektarni);

- sug‘orilmaydigan (lalmikor) yerlarda – kamida 2 gektarni tashkil etadi.

Dehqonchilik mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashayotgan fermer xo‘jaliklariga ijaraga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o‘lchami quyidagicha belgilangan:

- paxtachilik va g‘allachilik uchun – kamida 30 gektar;
- g‘allachilik va sabzavotchilik uchun – kamida 10 gektar;
- bog‘dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik va boshqa ekinlar yetishtirish uchun – kamida 1 gektarni hamda ko‘pi bilan 5 gektar.

Fermer xo‘jaligi yuritish uchun yer uchastkalari ajratish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- tuman hokimi yuridik va jismoniy shaxslarga berilmagan qishloq xo‘jaligi maqsadidagi yerlardan va (yoki) zahiradagi yerlardan yer uchastkalari ajratish to‘g‘risida, shuningdek ushbu yerlarni fermer xo‘jaliklariga berish bo‘yicha tanlov o‘tkazish to‘g‘risida qaror abul qiladi (e’londa yer uchastkasining o‘lchami, joylashgan joyi, sifati va boshqa tavsiflari, tashkil etilayotgan fermer xo‘jaligining mo‘ljallanayotgan ixtisoslashuvi, tanlovning o‘tkazilish vaqti va joyi ko‘rsatilishi lozim);
- yer uchastkalari berish to‘g‘risidagi ariza tashkil etilayotgan xo‘jalikning biznes rejasi yoki faoliyat dasturi ilova qilingan holda tanlov e’lon qilingan kundan boshlab bir oy mobaynida tuman hokimiga beriladi;
- tuman hokimi arizalarni tuman fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari Kengashiga yuboradi. Kengash ikki kun mobaynida arizalarni ko‘rib chiqadi va ularni ko‘rib chiqish natijajari bo‘yicha xulosa chiqarib, xulosani arizalar bilan birgalikda yer maydonlarini berish (realizatsiya qilish) masalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha tuman komissiyasiga yuboradi. Xulosa asosida, komissiya fermer xo‘jaligiga yer uchastkalarini berish bo‘yicha tanlov o‘tkazadi;
- yer maydonlarini berish (realizatsiya qilish) masalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha tuman komissiyasi qarori protokol bilan rasmiylashtiriladi va barcha hujjatlar, shu jumladan tuman fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari Kengashining xulosasi bilan

birgalikda ko‘rib chiqish uchun xalq deputatlari tuman Kengashiga yuboriladi;

- xalq deputatlari tuman Kengashi eng yaqindagi sessiyada tuman komissiyasi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni ko‘rib chiqadi va tegishli qaror qabul qiladi, ushbu qaror tuman hokimiga yuboriladi;
- tuman hokimi xalq deputatlari tuman Kengashining ijobiy qarori asosida uch kun mobaynida fermer xo‘jaligi yuritish uchun yer uchastkasi berish to‘g‘risida qaror chiqaradi va uch kun muddatda ushbu qarorni tasdiqlash uchun viloyat hokimi boshchilik qiladigan yer maydonlarini berish (realizatsiya qilish) masalalrini ko‘rib chiqish bo‘yicha viloyat komissiyasiga yuboradi;
- viloyat hokimi boshchilik qiladigan viloyat komissiyasi taqdim etilgan hujjatlarni ko‘rib chiqadi va tuman hokimining fermer xo‘jaligi yuritish uchun yer uchastkasi berish to‘g‘risidagi qarorini tasdiqlash (yoki tasdiqlashni rad etish) haqida qaror qabul qiladi

Tuman hokimi tomonidan fermer xo‘jaligiga ijaraga yer uchastkasi berish to‘g‘risidagi qaror qabul qilingandan keyin tuman yer resurslari va davlat kadastri bo‘limi tomonidan besh kun muddatda namunaviy shaklga muvofiq yer uchastkasini ijaraga berish shartnomasi tayyorlanadi. Yer uchastkasini ijaraga olish shartnomasi fermer xo‘jaligining boshlig‘i va tuman hokimi tomonidan imzolanadi.

Fermer xo‘jaliklari faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari 7.1-jadvalda keltirilgan.

7.1-jadval

Fermer xo‘jaliklari faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari

	2016	**2017**	**2018**	**2019**
Biriktirilgan yer maydoni, ming gektar	5806,2	6207,6	6310,2	6313,5
Qishloq xo‘jaligi mahsuloti (amaldagi narxlarda), mlrd. so‘m	34271,1	43358,1	48667,0	60394,7
Jami ekin ekilgan maydon, ming gektar	3137,8	2911,4	2773,9	2623,2
Shu jumladan:				
donli ekinlar	1442,4	1410,7	1398,7	1334,1

texnik ekinlar	1312,2	1234,3	1099,1	1009,5
shundan: g‘o‘za	1255,6	1192,1	1068,7	972,9
kartoshka	18,1	9,6	12,5	11,0
sabzavotlar	75,3	55,0	60,9	53,7
poliz	31,7	23,4	23,4	23,9
ozuqa ekinlari	257,7	178,2	178,6	190,4
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, ming tonna:				
don	6640,4	5733,1	5155,9	6257,5
paxta	2944,3	2837,8	2198,0	2491,8
kartoshka	544,0	429,3	411,6	499,8
sabzavotlar	3328,8	2995,2	2598,3	3179,7
poliz	1013,5	953,4	673,6	884,6
meva va rezavorlar	1017,1	963,2	1037,0	1072,6
uzum	815,2	740,7	692,0	683,7
pilla	24,9	11,4	14,3	15,7
go‘sht	62,2	69,3	109,5	125,7
sut	352,7	337,7	397,3	462,0
tuxum, mln dona	656,7	695,3	1079,5	1142,8
jun, tonna	2963	2190	2785	3241
Chorva mollari bosh soni (yil oxiriga), ming bosh:				
qoramollar	575,8	615,9	662,2	708,3
shu jumladan sigirlar	193,9	210,3	230,1	249,6
qo‘y va echkilar	1518,9	2166,9	2461,7	2691,8

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Ushbu jadval ma’lumotlariga ko‘ra, fermer xo‘jaliklariga biriktirilgan yer maydoni keyingi yillarda ko‘payganligiga qaramasdan, ulardagi ekin maydonlari qisqargan. Ekin maydonlari qisqarishi barcha

turdagi qishloq xo‘jaligi ekinlarining maydonlari qisqarishiga olib kelgan. Bu esa o‘z navbatida meva va rezavorlardan tashqari barcha turdagi dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 2019-yilda 2016-yilga nisbatan qisqarishiga olib kelgan. Fermer xo‘jaliklarida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining kam bo‘lishiga qaramasdan, ularda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o‘sishi kuzatilmoqda.

Mamlakatimizda asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda fermer xo‘jaliklarining ulushi to‘g‘risidagi ma’lumotlar 7.2-jadvalda keltirilgan.

7.2-jadval

Asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda fermer xo‘jaliklarining ulushi, barcha toifadagi xo‘jaliklarga nisbatan foizda

Mahsulotlar	2016	2017	2018	2019
Don	80,4	78,7	78,9	84,2
Paxta	99,5	99,4	96,2	92,6
Kartoshka	19,5	15,4	14,1	16,2
Sabzavotlar	32,7	29,3	27,0	31,1
Meva va rezavorlar	38,9	36,8	38,3	38,9
Go‘sht	2,9	3,0	4,5	5,1
Sut	3,6	3,4	3,8	4,3
Tuxum	10,7	11,0	14,5	14,7
Jun	8,0	6,0	8,0	9,2
Qorako‘l teri	5,5	5,6	7,9	7,9
Pilla	94,5	91,4	79,7	73,3

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda so‘nggi yillarda paxta xomashyosi ishlab chiqarishda fermer xo‘jaliklarining ulushi pasaymoqda. Bu so‘nggi yillarda patachilik sohasida ham klasterlarning tashkil etilayotganligi bilan izohlanadi. 2019-yilda yalpi paxta hosilining 92,6 foizi fermer xo‘jaliklari

tomonidan yetishtirilgan bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich 2018-yilda 96,2 foizni tashkil etgan edi. Chorvachilik mahsulotlari yetishtirishda fermer xo‘jaliklarining ulushi ancha past darajada saqlanib qolmoqda. Masalan, 2019-yilda fermer xo‘jaliklarining ulushi go‘sht ishlab chiqarishda 5,1 foiz va sut ishlab chiqarishda 4,3 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2018-yilda ushbu ko‘rsatkichlar mos ravishda 4,5 va 3,8 foizni tashkil etgan edi. Ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, fermer xo‘jaliklarining chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi so‘nggi yillarda o‘smoqda. 2015-yilda ushbu ko‘rsatkichlar mos ravishda 2,5 va 2,8 foizni tashkil etgan edi. Fermer xo‘jaliklarida chorvachilik mahsulotlari yetishtirishni yanada ko‘paytirishni izchil davom ettirish lozim.

Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirishni ko‘paytirish va uning samaradorligini oshirishdagi afzalliklari bilan bugungi bozor munosabatlari sharoitiga mos kelishini inobatga olib, fermer xo‘jaliklarini tashkil etish va ularni rivojlantirishning huquqiy asoslari yaratildi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 5-yanvardagi 8-sonli “Qishloq xo‘jalik korxonalarini fermer xo‘jaliklariga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinib, unda zarar ko‘rib ishlayotgan shirkat xo‘jaliklari negizida fermer xo‘jaliklarini tashkil etish ko‘zda tutilgan edi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 24-martdagi “Qishloq xo‘jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi PF-3226-sonli farmonida fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish ustuvor yo‘nalish qilib belgilandi. Farmonni amaliyotga tatbiq qilish bo‘yicha fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish ko‘zda tutildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 27-oktabrdagi PF-3342-sonli “2004-2006 yillarda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi Farmoniga asosan, Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 30-oktabrdagi 476-sonli “2004-2006 yillarda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2004-yil 24-dekabrdagi 607-sonli “2005-2007-yillarda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari qabul qilindi. Ushbu qarorlar bilan fermer xo‘jaliklari faoliyatini yanada rivojlantirish yo‘nalishlari belgilab berildi.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov joylardagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, amalga oshirilayotgan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari bilan tanishish maqsadida 2009-yil 25-avgustdagi Surxondaryo viloyatiga tashrifi chog‘ida ham mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda fermerlik

harakatining ahamiyatiga to‘xtalib, fermerlar mamlakat ravnaqi, xususan qishloq taraqqiyoti va farovonligini ta’minlashda hal qiluvchi kuchga aylanganini ta’kidlab o‘tdi. “Fermer nafaqat dehqon, balki iqtisodchi, menejer, agronom, sanoatchi bo‘lishi lozim. Bugunning talabi – shu. Fermer o‘zi yetishtirgan mahsulotni o‘zi qayta ishlashi, shu orqali qishloqqa sanoatni olib kirishi va aholi farovonligini oshirishga, yoshlarni ish bilan ta’minlashga o‘zining faol hissasini qo‘shishi lozim”, - deb ta’kidlagan edi.

Fermer xo‘jaliklarining rivojlanishida hukumatimiz tomonidan ularga yaratib berilgan sharoit va turli imtiyozlarning ham ahamiyati katta. Fermerlarga quyidagi imtiyozlar belgilangan:

- fermer xo‘jaligi tashkil etilgan kundan boshlab ikki yilgacha yagona yer solig‘idan ozod qilinadi;
- tugatilayotgan shirkatlar o‘rnida tashkil etilgan bog‘dorchilik va uzumchilikka ixtisoslashtirilgan fermer xo‘jaliklari 5 yil davomida yagona yer solig‘ini to‘lashdan ozod etiladi;
- fermer xo‘jaligi faoliyatini Respublika muvofiqlashtirish Kengashining ruxsatisiz tekshirish ta’qiqlanadi;
- fermer xo‘jaliklari faoliyatini tekshirish muvofiqlashtirish Kengashining ruxsati bilan 4 yilda bir marta o‘tkaziladi;
- yangi faoliyat boshlagan fermer xo‘jaliklariga boshlang‘ich sarmoya uchun eng kam ish haqining 300 barobari miqdorida imtiyozli kredit beriladi;
- xorijiy texnologiyalarni respublikaga olib kirgan fermer xo‘jaliklari bojxona to‘lovlaridan ozod qilinadi;
- fermer xo‘jaligi tegishli loyihada nazarda tutilgan yerni o‘z hisobidan o‘zlashtirayotgan davrda va yer o‘zlashtirib bo‘lingandan keyin 5 yil davomida yerning mazkur o‘zlashtirilgan qismi uchun yagona yer solig‘i to‘lashdan ozod qilinadi.

Mamlakatimizda dehqon va fermer xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi faoliyat yuritmoqda. Mazkur jamg‘arma Fermer xo‘jaliklari uyushmasiga a’zo bo‘lgan fermerlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki ba’zi yirik tijorat banklari orqali 3 yilgacha bo‘lgan muddatga imtiyozli kredit beradi. Fermer xo‘jaligi tashkil etilib, davlat ro‘yxatidan o‘tgandan so‘ng 6 oy ichida tegishli buyurtmanomalar bilan o‘zlariga xizmat qiluvchi banklarga murojaat qilishi mumkin. Dastlabki sarmoya uchun beriladigan kreditlarning yillik ustama foizi imtiyozli bo‘lib, Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining oltidan bir qismi miqdorida belgilangan. Dastlabki sarmoya uchun kredit fermer

xo‘jaliklariga 3 yilgacha bo‘lgan muddatga, eng kam oylik ish haqining 300 baravari miqdorigacha, foizlar to‘lashni 12 oyga kechiktirish va asosiy qarzni kredit olingandan so‘ng 18-24 oy o‘tgach qaytarishni boshlash shartlarida beriladi.

Mamlakatimizda fermer xo‘jaliklari yer maydonlarini maqbullashtirish hamda qishloq xo‘jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanishga ham alohida e’tibor berilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 6-oktabrdagi “Fermer xo‘jaliklari faoliyatini yuritishda yer uchastkalari miqdorini maqbullashtirish choralarini ko‘rish yuzasidan takliflar ishlab chiqish bo‘yicha maxsus komissiya tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoyishiga ko‘ra jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida fermer xo‘jaliklarining iqtisodiy salohiyatini yanada oshirish maqsadida ularning yer maydonlarini yiriklashtirishga e’tibor berilgan edi.

2015-yil 15-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Fermer xo‘jaliklarini yuritish uchun berilgan yer uchastkalari maydonlarini maqbullashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 362-sonli qarori bilan qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish bo‘yicha Respublika komissiyasi tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va tumanlar hokimliklari bilan birgalikda ishlab chiqilgan, xalq deputatlari tuman va viloyatlar Kengashlari tomonidan ko‘rib chiqilgan va tasdiqlangan fermer xo‘jaliklarini yuritish uchun berilgan yer uchastkalari maydonlarini yanada maqbullashtirishning yakunlari tasdiqlangan. Ushbu qarorga muvofiq optimallashtirishgacha bo‘lgan davrda, ya’ni 2015-yil 1-oktabr holatiga mamlakatimizda 83514 ta fermer xo‘jaliklari va har bir fermer xo‘jaligi ixtiyorida o‘rtacha 43,9 gektar yer maydoni bo‘lgan bo‘lsa, optimallashtirishdan keyin, ya’ni 2015-yil 1-dekabr holatiga fermer xo‘jaliklari soni 101070 tani va har bir fermer xo‘jaligi ixtiyorida o‘rtacha yer maydoni 36,1 gektarni tashkil etgan. Ushbu qarorning 1-1-ilovasiga ko‘ra, paxtachilik va g‘allachilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarining yer maydonlari maqbullashtirilishi natijasida bir fermer xo‘jaligiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha yer maydoni 65,1 gektardan 52,7 gektarga o‘zgargan. 1-2-ilovasiga ko‘ra, sabzavot va polizchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarining yer maydonlari maqbullashtirilishi natijasida bir fermer xo‘jaligiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha yer maydoni 12,5 gektardan 8,1 gektarga o‘zgargan. 1-3-ilovasiga ko‘ra esa meva va uzumchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarining yer maydonlari maqbullashtirilishi natijasida bir fermer

xo‘jaligiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha yer maydoni 9,5 gektardan 6,8 gektarga o‘zgargan. Bundan ko‘rinadiki, ushbu qarorga ko‘ra fermer xo‘jaliklari yer maydonlarini ixchamlashtirilgan.

2019-yil 9-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Fermer xo‘jaliklari va boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalari yer maydonlarini maqbullashtirish hamda qishloq xo‘jaligi ekin yer maydonlaridan samarali foydalanishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 14-sonli qaroriga ko‘ra Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va tumanlar hokimlari rahbarligida fermer xo‘jaliklari va boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalariga faoliyat yuritish uchun berilgan yer uchastkalari maydonlarini maqbullashtirish bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va tumanlardagi hududiy ishchi guruhlar tashkil etildi. Ushbu qarorga ko‘ra fermer xo‘jaliklari va boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalariga faoliyat yuritish uchun berilgan yer uchastkalari maydonlarini maqbullashtirishga qo‘yiladigan talablar tasdiqlandi. Ushbu talablar quyidagilardan iborat etib belgilangan:

1. Fermer xo‘jaliklari va boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalarining (keyingi o‘rinlarda qishloq xo‘jaligi korxonalari deb ataladi) yer uchastkalari maydonlarini maqbullashtirishda, ularning oxirgi uch yillik faoliyati to‘liq tahlil qilinadi va natijasi bo‘yicha har bir qishloq xo‘jaligi korxonasi kesimida tahliliy ma’lumot tayyorlanadi.

2. Qishloq xo‘jaligi korxonalarining yer uchastkalari maydonlarini maqbullashtirish jarayonida quyidagi holatlarda qishloq xo‘jaligi korxonalari bilan tuzilgan uzoq muddatli yer ijara shartnomasi bekor qilinadi:

- yer uchastkasidan qonun hujjatlarida, ijaraga olish shartnomasida ko‘rsatilgan talablar va qishloq xo‘jaligi ekinlarini joylashtirish shartlari buzilganda hamda maqsadli, samarali va oqilona foydalanilmaganda;
- yer uchastkasini saqlash shartlariga va suvdan foydalanish tartibiga rioya etilmaganda, yerning meliorativ holatini yaxshilash, tuproq unumdorligini oshirish chora-tadbirlari ko‘rilmaganda, shuningdek ushbu maqsadlar uchun o‘z mablaґlarini ajratmaganda;
- yer uchastkalari maydonlari uzoq muddatli yer ijara shartnomasida belgilangan o‘lchamlarga nisbatan kamaytirib yuborilganda, sug‘oriladigan maydonlarga asossiz ravishda bino-inshootlar qurilganda yoki boshqa turdagi zarar yetkazilganda;

- qishloq xo‘jaligi ekinlarini parvarishlashda agrotexnika tadbirlari o‘z vaqtida amalga oshirilmaganda yoki belgilangan talablarga rioya etilmaganda va normativ kadastr bahosidan past hosil olinganda;
- davlat xaridi uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetkazib berish yuzasidan tuzilgan kontraktatsiya shartnomalari shartlari so‘nggi uch yilda bajarilmaganda, xo‘jalik faoliyati samarasiz yoki past rentabellik bilan yuritilganda;
- mehnat munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan qonun hujjatlari talablariga rioya etilmaganda, ishchi-xodimlar, shu jumladan fermer xo‘jaligida mehnat qiladigan oila a’zolari, vaqtincha (mavsumiy) yollanadigan fuqarolar uchun mehnat xavfsizligi shartlari ta’minlanmaganda;
- soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar, shuningdek yetkazib berilgan moddiy-texnika resurslar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lovlar o‘z vaqtida amalga oshirilmaganda, so‘nggi uch yil davomida yetishtirilgan mahsulotlarni sotishdan tushadigan mablag‘lar bank hisobvaraqlarida aylanishi ta’minlamaganda;
- fermer xo‘jaligini yuritish uchun yer uchastkasini berish bo‘yicha o‘tkazilgan ochiq tanlovda ko‘rsatilgan mol-mulk, texnika va pul mablag‘lari xo‘jalikning ustav fondiga kiritilmaganda.

3. Qishloq xo‘jaligi korxonalari yer uchastkalarining hajmlari ularning faoliyat yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda quyidagicha belgilanadi:

- paxtachilik va g‘allachilik yo‘nalishidagi qishloq xo‘jaligi korxonalari yer uchastkalari maydonlarining eng kam o‘lchami – 100 gektar;
- g‘allachilik va sabzavotchilik yo‘nalishidagi qishloq xo‘jaligi korxonalari yer uchastkalari maydonlarining eng kam o‘lchami – 20 gektar;
- bog‘dorchilik va uzumchilik yo‘nalishidagi qishloq xo‘jaligi korxonalari yer uchastkalari maydonlarining eng kam o‘lchami – 10 gektar;
- sabzavotchilik va polizchilik yo‘nalishidagi qishloq xo‘jaligi korxonalari yer uchastkalari maydonlarining eng kam o‘lchami – 5 gektar.

4. Qishloq xo‘jaligi korxonalari yer uchastkalarining o‘lchami mazkur talablarning 3-bandida nazarda tutilgan miqdorlardan kam bo‘lgan taqdirda, ularni maqbullashtirishga asos bo‘ladi.

Ushbu qaror talablariga muvofiq fermer xo‘jaliklariga yer uchastkalarini ajratish uchun o‘tkaziladigan ochiq tanlov barcha tartib-taomillar bilan birga o‘n kundan oshmasligi lozim.

Tanlovda asosiy e’tibor quyidagilarga qaratiladi:

- talabgor yuridik va jismoniy shaxsning hisobvarag‘idagi majburiyatlardan ozod bo‘lgan mavjud pul mablag‘lari mavjudligiga;
- talabgorga yoki uning oila a’zolariga tegishli yaroqli qishloq xo‘jaligi texnikalari mavjudligiga;
- talabgorning yetishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining eksportga yo‘naltirganligiga;
- yaratiladigan yangi ish o‘rinlari soniga;
- so‘nggi uch yil davomida mahsulot yetkazib berish bo‘yicha shartnomalarning bajarilishiga qaratilishi lozim;

b) yer uchastkalari:

- bir gektar yer maydoni uchun paxta-g‘allachilik loyihasiga 2 ming AQSh dollari ekvivalenti miqdorida;
- sabzavot-g‘allachilik, bog‘dorchilik-uzumchilik, sabzavot-polizchilik loyihalariga 5 ming AQSh dollari ekvivalenti miqdorida to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiya kiritadigan talabgorlarga va klaster korxonalariga mablag‘lar bankdagi hisobvarag‘ida ko‘ringanidan so‘ng, joriy yilda maqsadli ishlatish sharti bilan hamda tuman sektor rahbarining tavsiyasiga ko‘ra tanlov o‘tkazmasdan tuman hokimining qaroriga asosan ajratilishi belgilab qo‘yilgan.

Mamlakatimizda fermer xo‘jaliklariga ajratib berilgan yer maydonlarini maqbullashtirish jarayonida ayrim tumanlardagi mutasaddilar tomonidan yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar natijasida ayrim fermerlardan yer uchastkalarining qonunga xilof ravishda olib qo‘yilishi holatlari ham oz bo‘lsada kuzatilmoqda. Bu esa o‘z navbatida fermerlar tomonidan o‘z faoliyatlariga uzoq muddatli investitsiyalarni jalb etishlariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli, maqbullashtirish jarayonlarida belgilangan me’yoriy hujjatlar talablariga qat’iy rioya etilishi ustidan nazoratni kuchaytirish lozim.

Mahsulotlarni sotish jarayonini yanada takomillashtirish, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlashni tashkil etish uchun fermer xo‘jaliklari birikib, agrofirmalar tashkil etishi va marketing tizimini yo‘lga qo‘yishlari maqsadga muvofiqdir. Bozor talabini chuqur o‘rgangan holda mahsulot yetishtirishni tashkil etishlari lozim. Shunda hamma fermer xo‘jaligi bir xil mahsulotni yetishtirmaydi va mahsulot

taklifi kopayishi natijasida narxlarning keskin tushib ketishi oldi olinadi. Bundan tashqari fermer xo‘jaliklari zamonaviy mini texnologiyalarni o‘z faoliyatiga joriy etishlari lozim va meva-sabzavotlarning ehtiyojdan ortiqchasi murabbo, konserva yoki boshqa mahsulotlar ko‘rinishida qayta ishlansa, qishloq xo‘jalik mahsulotlari nobudgarchiligining oldi olinadi, fermerlarning daromadi yanada ortadi, qishloq joylarda yangi ish o‘rinlari barpo etiladi.

Dehqon xo‘jaliklari ham qishloq xo‘jaligida tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchi subyekt hisoblanadilar. Dehqon xo‘jaliklari shaxsiy yordamchi xo‘jaliklari zaminida vujudga kelgan xo‘jalik yuritish shaklidir.

Dehqon xo‘jaliklari – shaxsiy yordamchi xo‘jaliklari zaminida vujudga kelgan xo‘jalik yuritish shaklidir. Qishloq xo‘jaligida xo‘jalik yuritish shakllaridan biri bo‘lgan aholining shaxsiy yordamchi xo‘jaliklari XX asrning 30-yillaridan boshlab vujudga kela boshlagan. O‘sha davrda qishloq xo‘jaligining asosini tashkil etgan jamoa xo‘jaliklari va davlat xo‘jaliklari qishloq aholisining oziq-ovqatga bo‘lgan talabini to‘liq qondira olmas edi. Shuni e’tiborga olib, qishloq aholisi uchun cheklangan miqdordagi tomorqa uchastkasi va chorva hayvonlariga ega bo‘lgan shaxsiy yordamchi xo‘jalik yuritishga imkon berildi. Garchi aholining shaxsiy yordamchi xo‘jaliklari mamlakat aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash va ularda o‘ziga xos bo‘lgan turmush tarzini shakllantirishga muhim hissa qo‘shgan bo‘lishiga qaramay, sobiq sho‘ro tizimida ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatiga yetarli e’tibor berilmay, jamoa va davlat xo‘jaliklarini rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida qarab kelindi.

O‘zbekistonda aholining shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarini rivojlantirish tomon dastlabki tadbirlar o‘tgan asrning 80-yillari oxirlaridan boshlab amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Ministrlar Kengashining 1989-yil 15-avgustdagi “Ishchilarning shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarini va yakka tartibda uy-joy qurishni yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi qarori va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1990-yil 17-maydagi “Jumhuriyat aholisining shaxsiy yordamchi xo‘jaliklaridagi mol va parrandalarni yem-xashak bilan ta’minlash hamda ularda chorvachilik mahsulotlari yetishtirishni ko‘paytirish to‘g‘risida”gi farmoni respublikamizda shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarni rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qildi. Buning natijasida aholining tomorqa yer maydonlarini sezilarli darajada kengaytirish, yakka tartibda uy-joy qurishga bo‘lgan ehtiyojni qondirish

va ko‘pgina qishloqda yashayotgan oilalar chorva mollarini sotib olish hamda yem-xashak yetishtirish imkoniyatlarini oshirishga erishildi. Xususan, 1989-1990-yillar davomida 1,5 milliondan ziyod oilalarning tomorqa uchastkalari hajmi kengaytirildi, ilgari tomorqa uchastkasiga ega bo‘lmagan 580 ming oila esa yer uchastkasi bilan ta’minlandi. Aholiga 183 ming gektardan ko‘proq sug‘oriladigan yer maydonlari ajratib berildi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan amalga oshirilgan ushbu islohot natijasida nafaqat qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi oshirish va qishloq aholisining daromadlarini oshirish, balki qishloq aholisining uy-joyga bo‘lgan ehtiyojini qondirish va ish bilan bandligini ta’minlash kabi muhim ijtimoiy masalalarning ham hal etilishiga sharoit yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991-yil yanvar oyida e’lon qilingan “Ishchilar va qishloq joylarda yashovchi boshqa fuqarolarning shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi va “Shaxsiy tomorqa xo‘jaliklarining egalari bo‘lmish dehqonlarga moliyaviy yordam berish va ular uyushmasi moddiy-texnika negizini mustahkamlash to‘g‘risida”gi farmonlariga asosan o‘sha yili shaxsiy yordamchi xo‘jaliklari uchun yana qo‘shimcha ravishda 108,5 ming gektar sug‘oriladigan yerlar ajratib berildi va 1991-yil oxiriga kelib shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarida foydalaniladigan maydonlar qariyb 500 ming gektarga yetdi.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan so‘ng aholining shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarini har tomonlama rivojlantirish tomon qat’iy chora-tadbirlar amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil mart oyida qabul qilingan “Shaxsiy yordamchi va dehqon xo‘jaliklarini davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash hamda mamlakatni oziq-ovqat bilan ta’minlashda ularning rolini kuchaytirish borasidagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonida aholining shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarini rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash hamda ularning manfaatlarini himoya qiluvchi uyushma faoliyatini yanada takomillashtirish masalalari belgilab berildi.

1998-yil 30-aprelda O‘zbekiston Respublikasining “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi bilan aholi shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarining maqomini aniqlashtirish, ularning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishini ta’minlashning qonuniy mexanizmlari takomillashtirildi. Birinchidan, aholining shaxsiy yordamchi xo‘jaliklari

dehqon xo‘jaligi sifatida qayta nomlandi va uning tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy asoslari mustahkamlab qo‘yildi. Ikkinchidan, dehqon xo‘jaligining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, maqomi, tashkiliy-iqtisodiy asoslari va uning qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyekti sifatidagi xususiyatlari aniq belgilab berildi. Uchinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 15-iyuldagi 300-sonli qarori bilan faoliyat ko‘rsatayotgan shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarni dehqon xo‘jaliklariga o‘zgartirish tartibi tasdiqlandi. To‘rtinchidan, “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonunda ularni davlat yo‘li bilan va boshqa tarzda qo‘llab-quvvatlash hamda ularning faoliyatini tartibga solish mexanizmi belgilab berildi.

2021-yil 1-aprelda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonunning 3-moddasida dehqon xo‘jaligiga quyidagicha ta’rif berilgan: dehqon xo‘jaligi meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo‘jaligi boshlig‘iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo‘jaligi a’zolarining shaxsiy mehnati asosida amalga oshiruvchi xo‘jalikdir. Dehqon xo‘jaliklari o‘zlari yetishtirgan mahsulotlarni dastavval o‘z talablarini qondirish uchun ishlatib, ortiqchasini realizatsiya qiladi. Dehqon xo‘jaligidagi faoliyat tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi hamda dehqon xo‘jaligi a’zolarining istagiga ko‘ra yuridik shaxs tashkil etgan holda va yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshirilishi mumkin. Dehqon xo‘jaligi o‘z faoliyatida yollanma mehnatdan doimiy asosda foydalanishi mumkin emas.

Dehqon xo‘jaligi a’zolariga birgalikda yashayotgan va dehqon xo‘jaligini birgalikda yuritayotgan oila boshlig‘i, uning turmush o‘rtog‘i, bolalari, shu jumladan, farzandlikka olingan bolalari, tarbiyaga olgan bolalari, ota-onalari, mehnatga qobiliyatli yoshga yetgan boshqa qarindoshlari kiradilar.

Dehqon xo‘jaligini yuritishdan ko‘zda tutilgan maqsad ichki iste’mol uchun va tovar mahsuloti yaratish, shuningdek boshqa faoliyat turlari orqali o‘zi va oilasining moddiy farovonligini ta’minlashdan iboratdir. Dehqon xo‘jaligining asosiy vazifasi qishloq aholisini foydali mehnat va tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish orqali ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanishga erishish hamda shu asosda eng kam sarf-xarajat evaziga mahsulot yetishtirishni har tomonlama ko‘paytirishdan iborat. Shuningdek, yer resurslaridan unumli

foydalanish, mamlakat aholisining oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda hissa qo‘shish, o‘zi joylashgan hududning ijtimoiy rivojlanishini ta’minlashda ishtirok etish kabi bir qator vazifalarni yechishda ham dehqon xo‘jaliklari o‘z hissalarini qo‘shishlari lozim.

Dehqon xo‘jaligi qishloq xo‘jaligi sohasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik shakllaridan biri sifatida bir qator afzalliklarga ega:

- ishlab chiqarish hajmining kichikligi bozor konyunkturasiga tez moslashish va ko‘p mablag‘ sarflamay o‘z faoliyati yo‘nalishlarini qayta shakllantirish imkonini beradi;
- oila mehnatiga tayanish uy bekalari va bolalar mehnatidan, qariyalar tajribasidan unumli foydalanish hamda asrlar davomida shakllanib kelgan dehqonchilik madaniyatini avloddan-avlodga o‘tkazib borishga sharoit yaratadi;
- xususiy mulk egaligi hamda yerning meros qilib qoldirilish huquqi bilan umrbod egalikka berilishi moddiy manfaatdorlikni oshiradi va mulkdan oqilona foydalanishga yo‘l ochadi.

Dehqon xo‘jaliklari tarkibiga tomorqa yerlariga ega bo‘lgan oila xo‘jaliklari ham kiradi va ularning asosiy maqsadi - shaxsiy mehnatlari, mol-mulklaridan foydalangan holda o‘z talablarini hamda boshqalarning talablarni qondirish uchun qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirishdir. Oila xo‘jaliklari chorvachilik, sabzavot, poliz mahsulotlari bilan iste’mol bozorini to‘ldirishda faol qatnashmoqdalar. Aholi iste’mol qilayotgan mahsulotlarning aksariyat qismini dehqon xo‘jaliklari yetkazib bermoqda. Ular hozirgi vaqtda respublikada yetishtirilayotgan jami go‘sht va go‘sht mahsulotlarining, sut mahsulotlari, kartoshka, sabzavot va poliz mahsulotlarining asosiy qismini yetishtirmoqdalar.

Dehqon xo‘jaliklari agrar sohada yangi xo‘jalik yuritish shakli sifatida shakllanib borishi bir tomondan haqiqiy mulk egaligining vujudga kelishiga imkon yaratsa, ikkinchi tomondan mulkchilikning boshqa turlariga asoslangan korxonalar bilan ma’lum darajada raqobat kurashi muhitini yaratishga yo‘l ochadi.

Dehqon xo‘jaligi – oila a’zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo‘jaligi boshlig‘iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtiradigan va realizatsiya qiladigan oilaviy mayda tovar xo‘jaligidir. Dehqon xo‘jaliklaridagi faoliyat tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi hamda dehqon xo‘jaligi a’zolarining istagiga ko‘ra yuridik shaxs tashkil etgan holda yoki yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshirilishi mumkin.

Dehqon xo‘jaligi o‘z faoliyati yo‘nalishlarini, ishlab chiqarish tuzilishi va hajmlarini mustaqil ravishda belgilaydi. Ushbu tadbirkorlik shakli moddiy manfaatdorlikning yuqori darajada bo‘lishi bilan ajralib turadi. Mamlakatimizda dehqon xo‘jaliklarini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar o‘zining ijobiy natijalarini bermoqda.

Dehqon xo‘jaliklari faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari 7.3-jadvalda keltirilgan.

7.3-jadval

Dehqon xo‘jaliklari faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari

	2016	**2017**	**2018**	**2019**
Tasarrufidagi qishloq xo‘jaligi yerlari, ming gektar	500,5	500,8	500,9	524,7
Qishloq xo‘jaligi mahsuloti (amaldagi narxlarda), mlrd. so‘m	78658,6	101376,3	133534,3	147625,9
Jami ekin ekilgan maydon, ming gektar	480,2	472,5	472,9	472,9
Shu jumladan:				
donli ekinlar	210,6	201,7	179,4	162,2
texnik ekinlar	6,1	5,4	5,1	5,5
kartoshka	65,7	68,1	73,1	76,5
sabzavotlar	127,4	129,8	150,5	158,0
poliz	25,9	26,4	26,7	27,0
ozuqa ekinlari	44,3	40,7	38,1	43,6
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, ming tonna:				
don	1514,0	1436,6	1216,6	879,8
kartoshka	2232,2	2347,6	2464,3	2539,8
sabzavotlar	6790,9	7090,9	6931,7	6815,4
poliz	999,3	1059,1	1147,6	1153,7
meva va rezavorlar	1539,7	1604,0	1619,5	1603,2
uzum	783,4	862,1	868,9	887,0
go‘sht	2051,3	2145,9	2236,5	2230,9
sut	9278,8	9641,8	9995,8	10156,5
tuxum, mln dona	3528,2	4020,8	4335,1	4491,6
jun, tonna	31687	32433	30543	30445
Chorva mollari bosh soni (yil oxiriga), ming bosh:				
qoramollar	11461,2	11675,4	11983,3	12071,7
shu jumladan sigirlar	3983,5	4085,0	4351,2	4366,4
qo‘y va echkilar	16516,5	17369,9	18034,7	18064,1

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Ushbu jadval ma’lumotlariga ko‘ra, dehqon xo‘jaliklari tasarrufidagi qishloq xo‘jaligi yerlari miqdori so‘nggi yillarda oshmoqda. Dehqon xo‘jaliklarida 2019-yilda 2016-yilga nisbatan donli, texnik va ozuqa ekinlari maydoni qisqargan, boshqa turdagi asosiy qishloq xo‘jaligi ekinlari maydoni esa ortgan. Donli ekinlar maydoni qisqargani hisobiga dehqon xo‘jaliklarida don ishlab chiqarish hajmi qisqargan, boshqa barcha qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi esa oshgan.

Mamlakatimizda asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda dehqon xo‘jaliklarining ulushi to‘g‘risidagi ma’lumotlar 7.4-jadvalda keltirilgan.

7.4-jadval

Asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda dehqon xo‘jaliklarining ulushi, barcha toifadagi xo‘jaliklarga nisbatan foizda

Mahsulotlar	**2016**	**2017**	**2018**	**2019**
Don va dukkakli don	18,3	19,7	18,6	11,8
Kartoshka	80,0	84,0	84,6	82,2
Sabzavotlar	66,7	69,4	71,8	66,7
Meva va rezavorlar	58,9	61,3	59,8	58,2
Go‘sht	94,4	93,9	92,0	90,2
Sut	95,6	95,9	95,5	94,8
Tuxum	57,3	63,5	58,1	57,8
Jun	85,4	89,2	88,3	86,7
Qorako‘l teri	83,7	84,3	83,3	84,8

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, dehqon xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi keyingi yillarda kamaymoqda.

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning tarkibi 7.5-jadvalda keltirilgan.

7.5-jadval

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning tarkibi, foizda

Yillar	Barcha toifadagi xo‘jaliklar	Shu jumladan:		
		Fermer xo‘jaliklari	Dehqon xo‘jaliklari	Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar
Jami				
2016	100,0	29,7	68,0	2,3
2017	100,0	29,3	68,4	2,3
2018	100,0	26,0	71,2	2,8
2019	100,0	27,9	68,3	3,8
Dehqonchilik				
2016	100,0	52,0	46,4	1,6
2017	100,0	49,2	49,1	1,7
2018	100,0	45,3	52,2	2,5
2019	100,0	49,2	46,8	4,0
Chorvachilik				
2016	100,0	3,9	92,9	3,2
2017	100,0	3,7	93,1	3,2
2018	100,0	4,6	92,3	3,1
2019	100,0	5,1	91,2	3,7

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishning tarkibida dehqon xo‘jaliklari yuqori salmoqqa ega bo‘lmoqdalar. Jumladan, 2019-yil holatiga mamlakatimizda yetishtirilgan jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 68,3 foizi dehqon xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelgan. Ayniqsa, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda dehqon xo‘jaliklarining ulushi juda yuqori. 2019-yilda chorvachilik mahsulotlarining 91,2 foizi dehqon xo‘jaliklari tomonidan

yetishtirilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, qishloq o‘jalik mahsulotlari yetishtirishda, ayniqsa chorvachilik mahsulotlari yetishtirishning tarkibini takomillashtirish lozim. Fermer xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda ham chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish maqsadga muvofiqdir. Chunki, qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishda yirik ishlab chiqaruvchilar quyidagi ustunliklarga ega bo‘ladi:

- ish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish va shu orqali mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot tannarxini pasaytirish hamda mahsulot sifatini yanada yaxshilash mumkin;
- ishlab chiqarish jarayoniga fan yutuqlarini joriy etish, ilmiy tadqiqotlar (R&D – Research and Development) bilan shug‘ullanish uchun mablag‘lar ajratish hamda shu orqali o‘z faoliyatini takomillashtirish, innovatsiyalarni joriy etish imkoniyatining mavjudligi;
- chorvachilik tarmog‘ida chorva mollarini ilmiy asoslangan ratsionlar asosida ozuqa bilan ta’minlash uchun zarur miqdordagi ozuqani g‘amlash imkoniyatining mavjudligi va boshqalar.

So‘nggi yillarda mamlakatimiz hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda fermer xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning ulushi o‘sish tendensiyasidadir.

Turli tadbirkorlik shakllarida qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosildorlik darajasi 7.6-jadvalda keltirilgan.

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, dehqon xo‘jaliklarida deyarli barcha turdagi qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosildorlik darajasi boshqa turdagi xo‘jaliklarga nisbatan yuqori. Chunki ushbu tadbirkorlik shaklida mulkka egalik hissi va moddiy manfaatdorlik ancha yuqori, ular o‘z mehnatlari natijalariga o‘zlari egalik qiladi. Shuning uchun ham mamlakatimizda barcha turdagi tadbirkorlik shakllarida moddiy manfaatdorlikni oshirish, mulkdorlik hissini rivojlantirish, faoliyat erkinligini ta’minlash kabi chora-tadbirlarni amalga oshirishga alohida e’tibor berilmoqda.

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, dehqon xo‘jaliklarida deyarli barcha turdagi qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosildorlik darajasi boshqa turdagi xo‘jaliklarga nisbatan yuqori. Chunki ushbu tadbirkorlik shaklida mulkka egalik hissi va moddiy manfaatdorlik ancha yuqori, ular o‘z mehnatlari natijalariga o‘zlari egalik qiladi. Shuning uchun ham mamlakatimizda barcha turdagi tadbirkorlik shakllarida moddiy manfaatdorlikni oshirish, mulkdorlik

hissini rivojlantirish, faoliyat erkinligini ta’minlash kabi chora-tadbirlarni amalga oshirishga alohida e’tibor berilmoqda.

7.6-jadval

Turli tadbirkorlik shakllarida qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosildorlik darajasi, sentner/gektar

	2016	**2017**	**2018**	**2019**
Fermer xo‘jaliklari				
Don va dukkakli don	43,7	37,9	37,0	43,4
Kartoshka	212,9	178,1	154,9	168,2
Sabzavotlar	258,9	212,0	178,9	200,5
Poliz	197,4	169,8	139,6	134,1
Dehqon xo‘jaliklari				
Don va dukkakli don	56,9	54,6	51,9	39,3
Kartoshka	228,7	225,3	238,2	237,9
Sabzavotlar	280,8	272,8	266,3	253,1
Poliz	226,7	233,3	243,3	229,4
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar				
Don va dukkakli don	27,7	27,1	25,9	35,8
Kartoshka	205,0	91,4	118,0	150,8
Sabzavotlar	171,6	206,4	106,0	125,3
Poliz	145,9	67,9	67,5	82,8

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida ***agrofirmalarning*** ham alohida o‘rni bor. Hozirgi vaqtda mamlakatimiz bo‘yicha 200 dan ortiq agrofirmalar faoliyat yuritmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 9-noyabrdagi “Surxondaryo viloyatida dehqon xo‘jaliklarining imkoniyatlaridan samarali foydalanishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 382-sonli qarorida Surxondaryo viloyatining har bir tumanida Kichik biznes subyektlari, xususiy tadbirkorlik va fermer xo‘jaliklari eksportini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi va “O‘zagroeksport” aksiyadorlik jamiyati ishtirokida mas’uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi agrofirmalar 2016-yilning 10-

dekabrigacha tashkil etilishi nazarda tutilgan edi. Ushbu qarorda yangidan tashkil etiladigan agrofirmalarning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan edi:

-dehqon xo‘jaliklarining yer va mehnat resurslaridan samarali foydalanishni ta’minlash maqsadida ular bilan o‘zaro hamkorlikni tashkil etish, eksport salohiyatini ko‘paytirish va qishloq aholisi bandligini oshirish;

- ichki va tashqi bozorlarda talab yuqori bo‘lgan meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirishga buyurtmalarni joylashtirish;

- dehqon xo‘jaliklarini urug‘lik fondi, ekish materiallari. mineral o‘g‘itlar va boshqa moddiy-texnika resurslari bilan ta’minlash;

- meva-sabzavot mahsulotlarini tayyorlash, saqlash, qayta ishlash, saralash, kalibrlash, o‘rab-joylash, shuningdek, eksportdan oldin tayyorlash;

- dehqon xo‘jaliklari bilan birgalikda issiqxonalar va sovutish kameralari, shuningdek qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi quvvatlarni tashkil etish;

- “O‘zbekoziqovqatxoding” xolding kompaniyasi bilan birgalikda respublika shaharlarida va tashqi sotish bozorlarida meva-sabzavot mahsulotlarini sotish tizimini tashkil etish.

Mazkur qarorda tashkil etilayotgan agrofirmalarning har biriga ular tashkil etilgandan keyin bir oy muddatda ularning samarali faoliyat ko‘rsatishi, shu jumladan aylanma mablag‘lar shakllantirilishi uchun TIF Milliy banki tomonidan ikki milliard so‘mdan kam bo‘lmagan miqdorda imtiyozli kredit ajratilishi nazarda tutilgan edi. Shuningdek, import bo‘yicha asbob-uskunalar, texnologiyalar xarid qilish va qo‘shimcha xizmatlar uchun haq to‘lashga kreditlar berish uchun hukumatlararo shartnomalar va davlat dasturlari doirasida O‘zbekiston Respublikasining davlat kafolatlari berilmasdan jalb etilgan xorijiy kredit liniyalari mablag‘larini yo‘naltirish mo‘ljallangan edi.

Qarorda O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi hamda Kichik biznes subyektlari, xususiy tadbirkorlik va fermer xo‘jaliklari eksportini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi birgalikda dehqon xo‘jaliklarida 2 sotixdan 10 sotixgacha maydonda yengil konstruksiyalardan foydalanib issiqxonalar tashkil etish bo‘yicha namunaviy biznes-rejani ikki oy muddatda ishlab chiqishi, unda Surxondaryo viloyatining tuproq-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda eksportga yo‘naltirilgan meva-sabzavot ekinlarini joylashtirishga, navlarni sifatli tanlashga e’tibor berish, urug‘lik va ekish materiali

yetishtirishning prognoz hajmlarini belgilash nazarda tutilishi ko‘rsatib o‘tilgan edi.

Viloyatda tashkil etilayotgan agrofirmalarga ularning ustav fondi miqdoridan qat’i nazar, meva-sabzavot va poliz mahsulotlari va uzum bilan ulgurji savdo qilish faoliyatini amalga oshirish huquqi berilgan bo‘lib, bu mintaqada qishloq xo‘jalik mahsulotlari narxi shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 10-11-mart kuni xalq bilan muloqot qilish hamda joylarda amalga oshirilayotgan islohotlar bilan tanishish maqsadida Buxoro viloyatiga tashrifi chog‘ida “Paxta va to‘qimachilik klasteri” loyihasini tashkil etish fikrini ilgari surdi. Unda O‘zbekistonda klaster tizimi asosida ishlab chiqarishni tashkil etishning ilmiy asoslari ko‘rsatib berildi.

Klasterlarni shakllantirishdan maqsad – shahar, tuman va viloyat ichida joylashgan bir xil soha korxonalarini va ular bilan yagona texnologik zanjirda bo‘lgan ta’lim, ilmiy, injiniring, konsalting, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va boshqa xizmatlarni uyg‘unlashtirish – innovatsion ishlab chiqarishni tashkil etish asosida raqobatbardosh tovarlar yaratishga yo‘naltirishdan iboratdir. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida klaster tizimi yaxshi samara bermoqda. Xususan, shuning natijasida paxtachilikka yangi texnologiyalar kirib keldi, moddiy manfaatdorlik oshdi. 2020-yil holatiga paxta ekin maydonlarining 908 ming gektari yoki 88 foizida klasterlar faoliyat yuritmoqda.

Respublikamizda mustaqillikkacha bo‘lgan davrda qishloq xo‘jalik tarmog‘ida xorijiy kapital asosida tashkil etilgan korxonalar va xorijiy investitsiya ishtirokidagi qo‘shma korxonalar mavjud bo‘lmagan. Mustaqillikka erishilgandan so‘ng erkin bozor munosabatlari barpo etilishi mulkchilikning shu turini va unga asoslangan tadbirkorlik shaklini tashkil etish hamda faoliyat yuritishi uchun huquqiy, iqtisodiy asoslar yaratib berildi. Ularda qo‘shma tadbirkorlik mulkdorlarning moddiy va pul mablag‘larini birlashtirish yo‘li bilan tashkil etilishi ta’kidlangan. Hozirgi vaqtda mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida qo‘shma korxonalarning tashkil etilishi va ularning faoliyat yuritishi talab darajasida emas. Vaholanki hukumatimiz tomonidan xorijiy investorlar uchun barcha huquqiy va iqtisodiy shart-sharoitlar yaratib berilgan. Jumladan, chet ellik tadbirkorlarning qonun doirasida erkin faoliyat yuritish va mulkiga egalik qilish kafolati ta’minlangan. Respublikamizda ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi chet ellik tadbirkorlarga

soliq hamda bojxona to‘lovlariga oid ko‘plab imtiyozlar ham joriy etilgan. Xorijiy investorlarni mazkur imkoniyat va shart-sharoitlar bilan tanishtirish orqali ularni mamlakatimiz qishloq xo‘jaligiga kengroq jalb etishga erishish lozim.

Kelajakda mamlakatimizda chet ellik tadbirkorlarga yanada qulay investitsion muhitni yaratib, ularni qishloq xo‘jaligi tarmog‘iga kengroq jalb etish va ularning sarmoyalari evaziga mazkur tarmoqqa zamonaviy texnologiyalarni jalb etish, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash hajmini keskin oshirish muhim vazifalardan biridir. Qishloq xo‘jaligik mahsulotlarini ishlab chiqarish va yetishtirilayotgan mahsulotlarni qayta ishlash, ularni iste’mol uchun tayyor bo‘lgan mahsulotlarga aylantirish uchun turli xildagi qo‘shma korxonalarni tashkil etish mumkin. Bu jarayon mamlakat qishloq xo‘jaligiga yangi texnikalar, ilg‘or, samarali texnologiyalar kirib kelishini ta’minlaydigan chet el valyutalari oqimini ko‘paytiradi. Natijada tarmoqning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanib, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va maqsadga muvofiq joylashishi ta’minlanadi. Qishloq xo‘jaligida qo‘shma korxonalarning tashkil etilishi xalqaro miqyosda mehnat taqsimotini rivojlantirishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ular tufayli qo‘shimcha ish joylari tashkil etilib, aholini ish bilan ta’minlash muammosi hal qilinishiga ma’lum darajada ulush qo‘shiladi. Bu korxonalarda faoliyat ko‘rsatayotganlarning moddiy sharoiti yaxshilanishini ta’minlaydi. Pirovard natijada aholini sifatli mahsulotlar bilan ta’minlanish darajasi yuksalib, turmush darajasi oshadi.

3. Qishloq xo‘jaligida mulkiy munosabatlarni yanada takomillashtirish yo‘llari.

Mustaqillikning ilk davridan boshlab mamlakatimiz hukumati tomonidan O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri bo‘lgan agrar sohani rivojlantirish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Qishloq xo‘jaligida turli mulkchilikka asoslangan erkin tovar ishlab chiqaruvchi subyektlar shakllandi. Dehqonlarning mulkka egalik hissining ortishini, erkin iqtisodiy faoliyat yuritishini, daromadlarini o‘z xohishiga ko‘ra mustaqil taqsimlash hamda tasarruf etish imkoniyatini beradigan xo‘jalik yuritish shakllarini mazkur tarmoqqa joriy etishga alohida e‘tibor qaratildi.

Mamlakatimizda davlat rahbarligida qishloq xo‘jaligini moliyalashtirish, kreditlash hamda soliqlar tizimlari ishlab chiqilib, ular

hayotga bosqichma-bosqich tatbiq qilinmoqda. Davlat tomonidan fan, texnika va ilg‘or, samarali texnologiyalar tizimlarini tarmoqqa joriy etish hamda qishloq aholisini ijtimoiy-iqtisodiy himoya qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Qishloq xo‘jaligida mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab davlatning bevosita rahbarligida agrar islohotlarning negizi hisoblangan yer va mulk islohotlari, mazmunan yangi fermer va dehqon xo‘jaliklari tashkil etildi va bu jarayon takomillashtirib borilmoqda.

Davlat qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq bo‘lgan tarmoqlarni ham (xizmat ko‘rsatuvchi, qayta ishlovchi, sotuvchi) isloh qilishga alohida e’tibor bermoqda. Natijada bu tarmoqlardagi davlat korxonalari davlat aksiyadorlik korxonalariga, tashkilotlariga aylantirildi. Masalan, paxta zavodlari, un, non, yog‘-moy, go‘sht kombinatlari, konserva zavodlari hissadorlik jamiyatlariga aylantirildi. Natijada shu tarmoqlarda bozor munosabatlarini erkin amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lgan turli shakldagi mustaqil korxonalar, birlashmalar, uyushmalar tashkil etildi. Ularning serqirra faoliyatlarini samarali boshqarishni ta’minlash qobiliyatiga ega bo‘lgan tarmoq tashkilotlari ham davlatning bevosita rahbarligida tashkil etilib, takomillashtirilmoqda. Hozirgi kunga kelib esa ushbu korxonalarni xususiylashtirish jarayonlari amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birgalikda “O‘zpaxtasanoat” uyushmasi, “O‘zdonmahsulot” hissadorlik kompaniyasi, Kadastr agentligi, “O‘zagrokimyohimoya” hissadorlik jamiyati, “O‘zagromashservis” uyushmasi, “O‘zagrosug‘urta” davlat aksiyadorlik kompaniyasi, “O‘zqishloqxo‘jalikmashlizing” hissadorlik kompaniyasi, O‘zbekiston fermerlar Kengashi va boshqalar tashkil etildi. Islohotlar faqat tarmoqlarda yangi vazirliklar, konsernlar, kompaniyalar tashkil etishgagina emas, balki qishloq xo‘jaligi va u bilan bog‘liq bo‘lgan xo‘jaliklar va tarmoqlarning boshqaruv tizimini bozor iqtisodi talablariga moslashtirishga qaratilmoqda. Davlat rahbarligida amalga oshirilayotgan islohotlar tarmoqqa ichki hamda chet el investitsiyalarini jalb etish uchun qulay sharoitlar yaratmoqda. Bular pirovard natijada qishloq xo‘jaligining yanada rivojlanishini, samaradorligi oshishini ta’minlaydi.

Respublikamiz qishloq xo‘jaligida amalga oshirilgan islohotlardan yana biri bu – tarmoqda yer va suv resurslaridan unumli foydalanish mexanizmlari ishlab chiqildi va hayotga tatbiq etildi. Chunonchi, yer va

suv resurslaridan foydalanishni tartibga soluvchi me’yoriy hujjatlar qabul qilindi. Ularda respublikamizda yer va suvga egalik qilish, ulardan maqsadga muvofiq hamda samarali foydalanish borasidagi munosabatlar tizimi va ularni amalga oshirish tartibi ko‘rsatilgan. Yer va suv resurslariga egalik qilishning huquqiy asosi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida “Yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir” - deb belgilab qo‘yilgan.

Respublikamiz jami yer maydoniga umummilliy boylik sifatida egalik qilish huquqi O‘zbekiston Oliy Majlisi zimmasiga yuklatilgan. Oliy Majlis o‘z vakolatidagi yer munosabatlarining ayrim masalalarini xalq deputatlari qishloq, shahar, tuman hamda viloyat kengashlari va ularning ijroiya qo‘mitalari zimmasiga yuklagan. Ular yuqorida keltirilgan me’yoriy hujjatlar talablaridan kelib chiqqan holda yerlarni ulardan oqilona, samarali foydalanish maqsadida foydalanuvchilarga ma’lum muddatga haq to‘lash evaziga foydalanish uchun bermoqdalar. Demak, ular yer islohotini amalga oshirishga mas’uldirlar. Chunki ular yerlarni samarali foydalanish uchun haqiqiy egasiga berish bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni hal etadilar.

Shu bilan birgalikda respublika fuqarolariga shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarini yuritish hamda yakka tartibdagi uy-joy qurilishi va uni obodonlashtirish uchun meros qilib qoldirish sharti va umrbod egalik qilish huquqi bilan belgilangan miqdorda yer berilmoqda. Demak, shu qoidaga muvofiq yerni avloddan-avlodga meros qilib qoldirish ta’minlangan, ya’ni shu yerlarga egalik qilish hamda ulardan foydalanish huquqi fuqarolarga umrbod berilgan. Bu respublikamiz yer islohotidagi eng muhim yutuq hisoblanadi. Lekin fuqarolar qonunlarda ko‘rsatilgan shartlarni buzsalar, ularning yerga merosxo‘r sifatida egalik qilish huquqi yuqoridagi tashkilotlar tomonidan bekor etilishi ham ko‘rsatilgan. Islohot natijasida respublika qishloq hududlarida yashayotgan fuqarolarga umrbod foydalanish uchun 1990-2002-yillar davomida 600 ming gektarga yaqin qishloq xo‘jalik yerlari berildi. Bu maydon Andijon viloyatining qishloq xo‘jalik yerlariga nisbatan 2,2

marta, Farg‘ona viloyatinikiga nisbatan 1,8 barobar ko‘pdir. Yerlarni berish natijasida 3,2 mln. dan ortiq oilaning yer bilan ta’minlanganlik darajasi hozirgi davrda qondirilgan. Hozirgi vaqtga kelib mamlakat aholisi ixtiyorida 625,8 ming gektar tomorqa yerlari bor edi. Aholi o‘zlariga berilgan yerga qonun doirasida egalik qilish hamda undan samarali foydalanish natijasida yurtdoshlarimizni qishloq xo‘jalik mahsulotlari bilan ta’minlashga ulkan hissa qo‘shmoqda.

Aholiga yer maydonlarining berilishi ularning uy-joyga bo‘lgan talabini qondirish, mahsulotlar yetishtirish orqali o‘z daromadlarini ko‘paytirish va eng asosiysi, ularning ish bilan bandligini ta’minlashga, turmush farovonligini oshirishga juda katta hissa qo‘shdi.

Bozor iqtisodiga o‘tish sharoitida mulkchilikning turli shakllari va erkin mulk munosabatlari mavjud bo‘lishi, bunda xususiy mulkchilikni rivojlantirishga alohida e’tibor berilishi lozimligini inobatga olib, hukumatimiz tomonidan ularning huquqiy asoslari yaratildi: “Mulk to‘g‘risida”, “Ijara to‘g‘risida”, “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida”gi qonunlar va ko‘pgina qarorlar, farmonlar qabul qilindi. Shularga asoslangan holda tarmoqda bosqichma-bosqich mulkchilikning turli shakllari tashkil etildi. Masalan, Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq 1992-yilda 224 ta davlat xo‘jaligi iqtisodiy ahvoli nochor bo‘lganligi uchun jamoa xo‘jaliklariga, ularning mulki esa jamoa mulkiga aylantirildi. Qishloq xo‘jaligida mulkni davlat tasarrufdan chiqarish va xususiylashtirish jarayoniga alohida e’tibor qaratildi. Xususiy mulkchilikni rivojlantirishga alohida e’tibor berildi. Chunki haqiqiy mulk egasiga aylangan qishloq ahli undan oqilona hamda samarali foydalanishi tabiiy.

Bu o‘rinda ta’kidlash kerakki, yangi yerlarni kompleks o‘zlashtirish, foydalanilayotgan yerlarning unumdorligini oshirish maqsadida amalga oshirilayotgan irrigatsiya va melioratsiya tadbirlari, yirik irrigatsiya-melioratsiya inshootlarini qurish, ta’mirlash va ulardan foydalanishda davlatning ko‘magi zarur. Qishloq hududlarida ekologik muhitni sog‘lomlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan tadbirlarga, qishloq xo‘jaligidagi urug‘chilik, seleksiya, naslchilik, veterinariya sohalarida ham davlatning ko‘magi muhim ahamiyatga ega. Ushbu sohalar davlat tomonidan

tartibga solib borilmasa, ko‘pgina muammolarni yuzaga keltirishi mumkin.

Mamlakatimiz agrar sohasida amalga oshirilgan mulkiy islohotlarning o‘ziga xos jihatlari quyidagilar:

- mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning bosqichma-bosqich amalga oshirilganligi;

- xususiylashtirishning to‘lovli tavsifga ega ekanligi;

- xususiylashtirishdan tushgan mablag‘lar tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, xususiylashtirilgan korxonalarni rivojlantirish uchun sarflanganligi;

- xususiylashtirishning aniq maqsadga yo‘naltirilganligi;

- xususiylashtirish jarayonida aholining ijtimoiy himoyalanganligi.

Tarmoqda mulkiy islohotlarni amalga oshirish natijasida qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirishning tarkibi ham tubdan o‘zgardi. Hozirgi vaqtda yetishtirilayotgan qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotining 99 foizi nodavlat sektor hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Qishloq xo‘jaligida turlicha mulk shakllari, turli-tuman xo‘jalik yuritish shaklidagi tadbirkorlik rivojlanmoqda. Bu esa tarmoqda raqobat muhitining shakllanishiga olib keladi.

Agrar sohada mulkiy islohotlarni amalga oshirish natijasida mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida quyidagi o‘zgarishlar amalga oshirildi:

- qishloq xo‘jalik obyektlari davlat tasarrufidan chiqarildi va xususiylashtirildi;

- qishloq xo‘jaligida ko‘p ukladli iqtisodiyot shakllantirildi;

- tarmoqda haqiqiy mulkdorlar sinfi shakllantirildi va bu jarayon izchil davom ettirilmoqda;

- qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish, ularni qayta ishlash va sotish jarayonlarida raqobat muhiti shakllantirildi va u qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Qishloq xo‘jaligida mulkiy islohotlarni amalga oshirishdan ko‘zlangan pirovard maqsad – tarmoqda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarda haqiqiy mulkdorlik hissini uyg‘otish hamda ularning o‘z faoliyatlari natijalaridan moddiy va ma’naviy manfaatdorligini

ta’minlashdir. Bugungi kunda qishloq xo‘jaligida mulkdorlarning yangi sinfi – fermerlar paydo bo‘ldi va ularning qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishdagi o‘rni tobora mustahkamlanib bormoqda.

Mamlakatimiz agrar sohasidagi mulkiy munosabatlarni yanada takomillashtirish uchun quyidagilarga e’tibor berish lozim:

- qishloq xo‘jaligi tarmog‘idagi mulkiy munosabatlarni tartibga solib turuvchi me’yoriy hujjatlarni takomillashtirib borish;

- qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida faoliyat yurituvchi tadbirkorlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirib borish va bunda rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribasidan unumli foydalanish;

- qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida faoliyat yurituvchi tadbirkorlarning biznes ko‘nikmalarini va huquqiy bilimlarini rivojlantirishga ko‘maklashish;

- qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish va ularni qayta ishlash jarayoniga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish va shu asosda tarmoqda xorijiy sarmoyadorlar ishtirokidagi mulk shaklini rivojlantirish. Shu asosida tarmoqqa zamonaviy texnologiyalar kirib kelishiga erishish mumkin.

Qisqacha xulosalar

Qishloq xo‘jaligida mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab davlatning bevosita rahbarligida agrar islohotlarning negizi hisoblangan yer va mulk islohotlari, mazmunan yangi fermer, dehqon xo‘jaliklari va qo‘shma korxonalar tashkil etildi va bu jarayon takomillashtirib borilmoqda.

Qishloq xo‘jaligida amalga oshirilgan agrar-iqtisodiy islohotlar natijasida jamoa, xususiy va aralash mulkchilik shakllari bosqichma-bosqich barpo etilib, muttasil rivojlantirilmoqda. Xususiy mulkchilik asosida fermer va dehqon xo‘jaliklari va tadbirkorlikning boshqa shakllari tashkil qilinib, taraqqiy ettirilmoqda.

Qishloq xo‘jaligida dehqonlarning moddiy manfaatdorligini ta’minlovchi, ularda haqiqiy mulkdorlik hissini uyg‘otuvchi xo‘jalik yuritish shakllarini joriy etishga ham alohida e’tibor berib kelinmoqda.

Qishloq xo‘jaligida davlat ahamiyatiga molik bo‘lgan ayrim masalalarni hal etish uchun tarmoqda davlat mulki va unga asoslangan xo‘jalik yuritish shakli ham saqlab qolingan. Kelajakda xususiy hamda qo‘shma mulkchilikka asoslangan korxonalarni rivojlantirishga e’tiborni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Tarmoqda mulkchilik munosabatlarining huquqiy asoslari qaysi qonunlarda o‘z aksini topgan?
2. Qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosqichlarini ko‘rsating.
3. Qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo‘nalishlarini ko‘rsating.
4. Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishning qanday o‘ziga xos jihatlari mavjud?
5. Qishloq xo‘jaligida mulkchilikning qanday shakllari mavjud?
6. Qishloq xo‘jaligida qanday xo‘jalik yuritish shakllari mavjud?
7. Agrofirmalar haqida tushuncha bering.
8. Fermer xo‘jaliklari ta’rifini izohlab bering.
9. Dehqon xo‘jaliklari ta’rifini izohlab bering.
10. Fermer xo‘jaliklarining tashkiliy-iqtisodiy asoslarini tushuntiring.
11. Mamlakatimiz hukumati tomonidan fermer xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash borasida qanday tadbirlar amalga oshirilmoqda?
12. Qishloq xo‘jaligida klasterlar haqida tushuncha bering.
13. Qishloq xo‘jaligida xorijiy investorlar ishtirokidagi tadbirkorlik shakllarini tashkil etish imkoniyatlarini tushuntiring.
14. Qishloq xo‘jaligida mulkiy munosabatlarni takomillashtirishning qanday yo‘nalishlari mavjud?

BOB YUZASIDAN AMALIY TOPSHIRIQLAR:

1-topshiriq:

Klaster usuli yordamida qishloq xo‘jaligida mavjud mulk shakllari va ularning o‘ziga xos jihatlarini ko‘rsatib bering.



2-topshiriq:

“Venn diagrammasi” usulidan foydalanib qishloq xo‘jaligi xususiy mulk va jamoa mulkining bir-biriga o‘xshash umumiy jihatlari va bir-biriga o‘xshamaydigan jihatlarini ifodalash.



Bunda X – xususiy mulkning o‘ziga xos xususiyatlari, Y – jamoa mulkining o‘ziga xos jihatlari, XY – xususiy va jamoa mulkining umumiy, o‘xshash jihatlari. Mazkur usul talabalarning mavzu bo‘yicha bilimlarni egallash jarayonidagi faolligini oshiradi, mavzuni tushuntirishning ko‘rgazmaliligi ortadi.

3-topshiriq:

“Baliq skeleti” usuli asosida qishloq xo‘jaligida mulkiy munosabatlarni yanada takomillashtirish yo‘llarini ko‘rsatib bering.



Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Qishloq xo‘jaligida mavjud mulk shakllari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari.
2. Qishloq xo‘jaligida mavjud tadbirkorlik shakllari, ularning tashkil etilishi va rivojlanishi.
3. Qishloq xo‘jaligida mulkiy munosabatlarni yanada takomillashtirish yo‘llari.

8-BOB: QISHLOQ XO‘JALIGIDA MODDIY-TEXNIKA RESURSLARI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

1. Qishloq xo‘jaligining moddiy-texnika resurslari va ularning turkumlanishi.
2. Qishloq xo‘jaligida moddiy-texnika resurslaridan foydalanish holati va samaradorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar.
3. Qishloq xo‘jaligida moddiy-texnika resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llari.

Tayanch iboralar: mehnat vositalari, mehnat predmetlari, moddiy-texnika resurslari, ishlab chiqarish vositalari, ishlarning mexanizatsiyalashganlik darajasi.

1. Qishloq xo‘jaligining moddiy-texnika resurslari va ularning turkumlanishi.

Moddiy ishlab chiqarish jarayonining muhim sharti – ishlab chiqarishning zaruriy omillari mavjud bo‘lishidir. Ushbu zaruriy omillarni ikki guruhga bo‘lish mumkin: subyektiv omil – inson mehnati va obyektiv omil – ishlab chiqarish vositalari. Ishlab chiqarish vositalari o‘z navbatida mehnat vositalari va mehnat predmetlaridan tashkil topadi. Mehnat vositalari – bu ishlab chiqarish jarayonining buyumlashgan elementlari bo‘lib, ular yordamida insonlar mahsulot ishlab chiqarish maqsadida mehnat predmetlariga ta’sir ko‘rsatadilar. Mehnat predmetlari – ishlab chiqarishning buyumlashgan elementi bo‘lib, inson mehnati unga qaratilgan bo‘ladi, unga ishlov beriladi va zarur bo‘lgan shaklga o‘zgartiriladi. Ishlab chiqarish jarayonida mehnat vositalari yordamida mehnat predmetlariga ta’sir qilinadi va insonlar tomonidan ishlab chiqarish ehtiyoji yoki o‘zlarining ehtiyojlari uchun zarur bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida ishlab chiqarish jarayonida mehnat vositalari va mehnat buyumlari bilan bir qatorda yer va suv ham muhim ahamiyat kasb etadi. Qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosildorligi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi jarayoning natijalari va samaradorligi yerning sifati, uning mahsuldorligi va suv bilan ta’minlanganligiga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Qishloq xo‘jaligida ishchi mehnat vositalari yordamida mehnat predmetiga va yerga ta’sir ko‘rsatadi hamda dehqonchilik

mahsulotlari yaratadi. Bu jarayon chorvachilik mahsulotlari yetishtirishning ham muhim sharti hisoblanadi (8.1-chizma).



8.1-chizma. Qishloq xo‘jaligida moddiy ishlab chiqarish jarayoni sxemasi.

Qishloq xo‘jaligining moddiy-texnika resurslari – bu mehnat vositalari va mehnat predmetlarining yig‘indisi bo‘lib, ular kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladi. Ular ishlab chiqarishning barcha buyumlashgan elementlarini qamrab oladi: tabiat ne’matlari, xomashyo va mehnat qurollari.

Qishloq xo‘jaligining moddiy-texnika resurslari tarkibida mehnat vositalari muhim o‘rinni egallaydi. Qishloq xo‘jaligining moddiy-texnika resurslari quyidagilardan tarkib topadi:

- ajratib berilgan yer maydoni;
- bino-inshootlar, texnikalar, mashinalar va boshqa ish qurollari;
- ko‘p yillik mevali daraxtlar va uzumzorlar;
- mahsuldor va ishchi hayvonlar;
- aylanma mablag‘lar (urug‘lik, o‘g‘itlar, yoqilg‘i-moylash materiallari, kimyoviy vositalar, hisob raqamidagi pul mablag‘lari, qimmatbaho qog‘ozlar);
- xo‘jaliklarning ta’sischiligi asosida tashkil qilingan mashina-traktor parklari, agrofirmalar hisobidagi mol-mulki.

Qishloq xo‘jaligining moddiy-texnika resurslari ishlab chiqarish jarayonida qatnashishiga ko‘ra, quyidagicha guruhlarga bo‘linadi:

- ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashadigan moddiy-texnika resurslari;
- ishlab chiqarishda bilvosita qatnashadigan moddiy-texnika resurslari.

Ishlab chiqarishda bevosita ishlatiladigan moddiy-texnika resurslari yordamida turli xildagi mahsulotlar ishlab chiqariladi, ishlar va xizmatlar bajariladi. Ularga ekin ekilgan yerlar, yaylov va pichanzorlar,

ekinlarni sug‘orish uchun sarflanayotgan suvlar, mashina, yer haydaydigan va ekinlarga ishlov beradigan traktorlar, kombaynlar, kimyoviy vositalar, o‘g‘itlar, hayvonlarga berilayotgan yem-xashaklar, chorva hayvonlari, mevali daraxtlar va boshqalar kiradi. Korxonalarning ombor, idora binolari, ayrim inshootlari, aloqa vositalari, kompyuterlari ishlab chiqarish jarayonida bilvosita qatnashadilar.

Qishloq xo‘jaligining moddiy-texnika resurslari iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridagi moddiy-texnika resurslaridan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi:

Birinchidan, yer qishloq xo‘jaligi moddiy-texnika resurslarining tarkibiy qismi hisoblanadi. Chunki qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi jarayonida yer muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, qishloq xo‘jaligi moddiy-texnika resurslari tabiiy sharoitlar ta’sirida bo‘ladi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi jarayoniga, shu jumladan moddiy-texnika resurslaridan foydalanishga tabiiy-iqlim sharoitlari ta’sir ko‘rsatadi.

Uchinchidan, qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish mavsumiy xususiyatga ega bo‘lib, bu moddiy-texnika resurslaridan unumli foydalanishga ta’sir etadi. Ishlab chiqarishning mavsumiyligi tarmoqda moddiy-texnika resurslaridan yil davomida to‘liq foydalanishga imkon bermayi.

To‘rtinchidan, moddiy-texnika resurslarining tarkibi va hajmi mamlakat hududlari bo‘yicha bir-biridan farq qiladi. Turli hududlarning tabiiy va iqtisodiy shart-sharoitlaridan kelib chiqan holda moddiy-texnika resurslarining tarkibi turlicha bo‘ladi. Masalan, tog‘li hududlarda moddiy-texnika resurslari tarkibida ishchi hayvonlar ham bo‘ladi.

Beshinchidan, qishloq xo‘jaligi moddiy-texnika resurslarining tarkibiga tirik organizmlar (o‘simliklar, hayvonlar) ham kiradi. Bu esa ulardan samarali foydalanish uchun o‘simliklarning biologik va chorva mollarining zoologik xususiyatlarini bilishni talab etadi.

Oltinchidan, qishloq xo‘jaligining moddiy-texnika resurslari sanoatda ishlab chiqarilgan va qishloq xo‘jaligida yetishtirilgan vositalardan tashkil topadi.

Moddiy-texnika resurslarining mahsulot yetishtirishda, qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda ahamiyati ulkan. Ular mehnatning xarakterini o‘zgartirib, unumdorligi yuksalishini ta’minlaydi. Masalan, ilmiy asoslangan ma’lumotlarga ko‘ra, paxta yig‘im-terimida 1 kishi-soat mexanizator mehnati 26 kishi-soat qo‘l mehnati o‘rnini bosadi.

Fan-texnika taraqqiyoti moddiy-texnika resurslarining sifatini, holatini yaxshilash, yangilarini yaratishga xizmat qiladi. Shuning natijasida o‘simliklarning serhosil, tezpishar navlari, chorva mollarining mahsuldor zotlari, har tomonlama qulay va samarali, yuqori unumli va tejamkor texnikalar, ilg‘or texnologiyalar yaratiladi.

Qishloq xo‘jaligining moddiy-texnika resurslari quyidagi belgilari bo‘yicha turkumlanadi:

- barpo etilishi bo‘yicha;
- ishlab chiqarishda qatnashishiga ko‘ra;
- foydalanish xususiyati bo‘yicha;
- takror ishlab chiqarilishi bo‘yicha.

Qishloq xo‘jaligining moddiy-texnika resurslari mulk sifatida tarmoqning, korxonalarning iqtisodiy negizini, asosini tashkil etadi. Korxonalarning moddiy-texnika bazasi mustahkam bo‘lsa, ularda iqtisodiy jihatdan rivojlanish uchun asos mavjudligidan dalolat beradi.

Qishloq xo‘jaligining moddiy-texnika resurslarini ularning iqtisodiy mazmuni, barpo etilishi va foydalanilishi bo‘yicha 8.2-chizmadagi tartibda turkumlash mumkin.



8.2-chizma. Qishloq xo‘jaligida moddiy-texnika resurslarining turkumlanishi.

Moddiy-texnika resurslarining qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishidagi o‘rni va ahamiyati juda ulkan. Chunki takror ishlab chiqarish jarayonida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari talab darajasida yetishtirilishi hamda ish va xizmatlar talab darajasida bajarilishi barcha resurslarning miqdoriga hamda sifatiga bog‘liq. Tarmoqning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanishi, ishlab chiqarish jarayonlarining amalga oshirilishi asosan moliyaviy resurslar bilan bog‘langan. Shunday ekan, kelajakda qishloq xo‘jaligining moddiy-texnika resurslari talab darajasida barpo etilishiga alohida e’tibor berish zarur.

Xo‘jaliklarning moddiy-texnika bazasi qanchalik mustahkam, ya’ni zamonaviy mashinalar, traktorlar, kombaynlar, mexanizmlar bilan yaxshi ta’minlangan bo‘lsa, barcha ishlar shu texnika vositalari yordamida bajarilishi ta’minlanadi. Mehnatning mexanizatsiyalashgan-ligini ko‘rsatuvchi bunday sharoit natijasida qo‘l kuchi bilan bajariladigan ishlar kamayadi. Mehnat unumdorligi oshadi va mahsulot tannarxi pasayishiga, pirovard natijada daromadlarning oshishiga olib keladi. Bu mehnatning xarakteri o‘zgarayotganligidan dalolat beradi, ayni paytda ishchi-xizmatchilarning bilimi, malakasi oshirilishini ham talab etadi.

Qishloq xo‘jaligi moddiy-texnika resurslari tarkibida chorva hayvonlari va mevali daraxtlarning ham kirishi tarmoqning muhim xususiyati ekanligiga alohida e’tibor berish, shuningdek, sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarilgan moddiy-texnika vositalari, traktorlar, mashinalar, mexanizmlar, dastgohlar, kimyoviy vositalar, yoqilg‘i, yog‘lovchi materiallar va boshqalarning ishtirokini ham e’tiborga olish lozim. Ulardan foydalanish samaradorligiga tarmoq ishlab chiqarishining mavsumiyligi ham ta’sir etadi.

Qishloq xo‘jaligining mustahkam moddiy-texnika bazasini yaratishda yuqorida ta’kidlangan xususiyatlarni e’tiborga olish, shuningdek, ishlab chiqarishning joylashganligi hamda ixtisoslashganligiga alohida ahamiyat berish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga ilg‘or texnologiyalarning joriy etilishini hamda texnologik jarayonlarda bajariladigan barcha ishlarni mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish imkonini yaratish lozim.

Qishloq xo‘jaligida moddiy-texnika resurslari asosan quyidagi manbalar hisobiga barpo etiladi:

- korxonaning o‘z mablag‘lari;
- chetdan jalb etiladigan mablag‘lar.

Birinchi manbaga korxonaning mahsulotlar sotish, ish va xizmatlar bajarish natijasida olayotgan pul daromadlari, taqsimlanmagan foydadan ajratilayotgan mablag‘, amortizatsiya fondi mablag‘lari, foydalanilmayotgan ayrim asosiy vositalarini sotishdan, ijaraga berishdan tushgan pul tushumi va boshqa manbalardan olingan mablag‘lar kiradi.

Ikkinchi manbaga irrigatsiya-melioratsiya tadbirlari, ekologiya hamda ijtimoiy sohalar uchun davlat budjetidan ajratilayotgan mablag‘lar, banklarning kredit mablag‘lari, korxona tomonidan aholi va boshqa korxonalar ixtiyoridagi bo‘sh pul mablag‘larini jalb etish maqsadida qimmatli qog‘ozlarni muomalaga chiqarib sotishdan tushgan tushum, turli manbalardan jalb etilayotgan investitsiyalar, homiylarning mablag‘lari va boshqa manbalardan jalb etiladigan mablag‘lar kiradi.

Bu manbalardan jalb etilgan mablag‘lar hisobiga qishloq xo‘jalik korxonalari moddiy-texnika vositalarini ishlab chiqaruvchilarning bevosita o‘zlaridan yoki birjalardan, ko‘rgazmalardan, auksionlardan shartnomalar asosida sotib olib, moddiy-texnika bazalarini mustahkamlashlari, ayrim hollarda foydalanish uchun ijaraga olishlari mumkin. Qishloq xo‘jalik korxonalari moddiy-texnika resurslarini shakllantirishda lizingdan ham keng foydalanishlari lozim. Shunday tartibda shakllantirilgan moddiy-texnika resurslaridan xo‘jaliklar yil mobaynida to‘liq va samarali foydalanishsa, barcha turdagi tadbirlarni vaqtida, sifatli amalga oshirishga erishadilar.

Agrofirma, fermer xo‘jaliklari va boshqa xo‘jalik subyektlarining moddiy texnika bazasini mustahkamlash, ularni zarur texnikalar, minitexnologiyalar va ixcham uskunalar bilan ta’minlashda mamlakatimizda o‘tkazilayotgan turli ko‘rgazmalar ham muhim ahamiyatga ega. Jumladan, an’anaviy tarzda o‘tkazib kelinayotgan qishloq xo‘jaligi uchun minitexnologiyalar va ixcham uskunalarning Xalqaro ixtisoslashtirilgan “Uzbekistan Agrominitech Expo” ko‘rgazma savdolari, qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarining “Food Week Uzbekistan” hamda mazkur sohaga oid zamonaviy texnologiyalarning “Agri Tech Uzbekistan” xalqaro ixtisoslashgan ko‘rgazmalari ham qishloq xo‘jalik korxonalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Shu kabi ko‘rgazmalar mazkur sohada faoliyat yurituvchi xorijlik tadbirkorlar bilan hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish va shu orqali sohaga investitsiyalar oqimini ko‘paytirish imkonini beradi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarining moddiy-texnika resurslari bilan ta’minlanganlik darajasini yaxshilashda davlatning o‘rni katta. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tomonidan qishloq xo‘jaligi texnikalari xaridi uchun subsidiyalar ajratib kelinmoqda. Jamg‘arma tomonidan 2 xil yo‘nalishda subsidiya ajratilmoqda. Jumladan:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyuldagi 578-son qaroriga asosan, xarid qilingan texnikaning (traktorlar, aylanma pluglar, pnevmatik va mexanik ekish seyalkalar) kredit yoki lizing foiz xarajatlarining 10 foizlik punkti miqdorigacha;
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 26-noyabrdagi 952-son qaroriga asosan, mahalliylashtirish darajasi 20 foizdan kam bo‘lmagan texnika xaridi uchun texnika qiymatining 15 foiz miqdorida.

2020-yilda jami 681 dona texnika uchun 11,2 mlrd. so‘m subsidiya, shundan 540 dona texnikaning kredit va lizing foiz xarajatini qoplab berishga 8,8 mlrd.so‘m, mahalliylashtirish darajasi 20 foizdan kam bo‘lmagan 141 dona texnika qiymatining 15 foizini qoplab berishga 2,4 mlrd.so‘m ajratilgan. “O‘zavtosanoat” AJ ma’lumotiga ko‘ra, “Toshkent qishloq xo‘jaligi texnika zavodi” AJ tomonidan 2020-yilda jami 900 dona texnikalar sotilgan, shundan 340 dona (38%) texnika (170 dona “XUM MX-1,8” paxta terish mashinasi, 170 dona “TTZ-811” traktor) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 15-sentabrdagi PQ-4828-son qaroriga asosan imtiyozli kredit asosida sotilgan.

2. Qishloq xo‘jaligida moddiy-texnika resurslaridan foydalanish holati va samaradorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar.

Qishloq xo‘jalik korxonalarini moddiy-texnika resurslari bilan talab darajasida ta’minlashga doimo katta e’tibor berilmoqda. Chunki bu sarflanadigan mehnat hamda mablag‘ xarajatlari kamayishi, mehnat unumdorligi yuksalib, foyda summasi ko‘payishi uchun imkoniyat yaratadi. Shunday ekan, qishloq xo‘jalik korxonalarining moddiy-texnika vositalari bilan ta’minlanganlik holati va ulardan foydalanish samaradorligini tahlil qilib borish talab etiladi. Buning uchun quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalanish mumkin:

a) qishloq xo‘jalik korxonalarining moddiy-texnika resurslari bilan ta’minlanganlik darajasi. Uning darajasini quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$MTRtd = \frac{MTRq}{QXY}$$

Bunda: *MTRtd* – moddiy-texnika resurslari bilan ta’minlanganlik darajasi, so‘m/gektar;

MTRq – xo‘jalikdagi moddiy-texnika resurslarining qiymati, ming so‘m.

Bu ko‘rsatkich yordamida har bir xo‘jalik ixtiyoridagi foydalanilayotgan 1 gektar qishloq xo‘jalik yeriga yoki ekin maydoniga necha so‘mlik moddiy-texnika resurslari to‘g‘ri kelishi aniqlanadi. Uning miqdori me’yor darajasida bo‘lishi lozim. Bu umumiy ko‘rsatkich maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda boshqa aniq ko‘rsatkichlar yordamida yanada aniqlashtiriladi.

Ma’lumki, xo‘jaliklar o‘z faoliyatida amalga oshiradigan ishlarni tez va sifatli bajarishga intiladi, bu jarayonda texnika vositalari o‘rtasida mutanosiblikni ta’minlashga alohida e’tibor berilishi lozim. Chunki, traktorlar ko‘p, ularga tirkaladigan mexanizmlar kam yoki aksi bo‘lsa, kutilgan samaraga erishib bo‘lmaydi. Chorva hayvonlari ko‘p bo‘lib, yem-xashak kam bo‘lishi ham foydasizdir. Demak, korxonalar samarali muvozanatdagi moddiy-texnika resurslari bilan talab darajasida ta’minlangan bo‘lishlari kerak.

b) korxonalarning energetik resurslar bilan ta’minlanganlik darajasi. Uning miqdori xo‘jalikdagi jami energetik resurslar quvvatini (ot kuchi hisobida) foydalanilayotgan qishloq xo‘jalik yerlari yoki ekin maydoniga taqsimlab aniqlanadi. Bunda quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$Et = \frac{ERq}{Em(Qxy)}$$

Bunda: *ERq* – jami energetik resurslar quvvati (ot kuchida);

Em (Qxy) – jami ekin maydoni (qishloq xo‘jalik yerlari).

d) mehnatning energetik resurslar bilan qurollanganlik darajasi. U jami energetik resurslar quvvatini (ot kuchida) xodimlarning o‘rtacha yillik soniga taqsimlab aniqlanadi. Bunda ushbu formuladan foydalanish mumkin:

$$Eq = \frac{ERq}{Xs}$$

Bunda: *Xs* - xodimlarining o‘rtacha yillik soni (kishi).

e) ishlarning mexanizatsiyalashganlik darajasi. Bu ko‘rsatkichni aniqlash uchun traktor, mexanizmlar, mashinalar yordamida bajarilgan ish hajmi korxona bo‘yicha bajarilgan jami ishlar hajmiga taqsimlanadi va natija 100 ga ko‘paytiriladi. U quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Md = \frac{Mi}{Ji} x100$$

Bunda: *Md* – ishlab chiqarishning mexanizatsiyalashganlik darajasi, foizda;

Mi – mashina, traktorlar, mexanizmlar yordamida bajarilgan ish;

Ji – jami bajarilgan ish miqdori.

Bu ko‘rsatkich umumiy yoki ayrim ish, ekin turlari bo‘yicha aniqlanishi mumkin. Masalan, ekinlarni ekish, ularga ishlov berish, hosilini yig‘ishtirib olish, sigirlarni sog‘ish va hokazo.

f) yangi texnikalardan, texnologiyalardan foydalanish natijasida xarajatlarning tejalishi. Uning darajasini aniqlash uchun yangi texnika, texnologiya joriy etilmasdan avval qilingan xarajatlardan ular joriy etilganidan so‘ng qilingan xarajatlar miqdori, summasi ayrilib, aniqlangan raqam dastlabki xarajatlarga taqsimlanadi va natija 100 ga ko‘paytiriladi. Uni quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$Xt = \frac{X1 - X2}{X1} x100$$

Bunda: X_1 – yangi texnika, texnologiya joriy etilmasdan oldingi xarajatlar (so‘m);

X_2 – yangi texnika, texnologiya joriy etilgandan keyingi xarajatlar (so‘m).

g) mashina-traktor parkidan foydalanish koeffitsiyenti. Buni hisoblash uchun xo‘jalikda foydalanilgan mashina-traktorlar miqdorini unda mavjud bo‘lgan mashina-traktorlar miqdoriga taqsimlash lozim. Uni quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$MTPfk = \frac{Fs}{Ms}$$

Bunda: *MTPfk* – mashina-traktor parkidan foydalanish koeffitsiyenti.

Fs – foydalanilgan mashina-traktorlarning soni (dona).

Ms – mavjud bo‘lgan mashina-traktorlarning soni (dona).

h) moddiy-texnika resurslaridan foydalanish samaradorligi. Bunda 1 etalon gektarning, 1 tonna-kilometrning, 1 kilovat-soatning tannarxi aniqlanadi. Ular quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$EGt = \frac{Mx}{JI}$$

Bunda: *EGt* – 1 etalon gektar tannarxi;

Mx – mexanizatsiya yordamida bajarilgan ishlarga qilingan jami xarajat (ming so‘m);

JI – jami bajarilgan ish hajmi (etalon ga, tonna-kilometr, kilovatt-soat).

Yuqoridagi ko‘rsatkichlarni hisoblab, moddiy-texnika resurslarining holati, darajasi, foydalanish samaradorligi aniqlanadi va tahlil qilinadi. Natijada ulardan foydalanish holatini yanada yaxshilash chora-tadbirlari belgilanadi.

Qishloq xo‘jaligini ustuvor darajada rivojlantirish uchun uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash kerak. Tarmoqning moddiy-texnika resurslari shakllantirilishi, rivojlantirilishi, ulardan samarali foydalanish masalalari fan-texnika taraqqiyotiga va uning darajasiga, ilg‘or texnologiyalarning ishlab chiqarish jarayonlariga joriy etilishiga bevosita bog‘liq. Fan-texnika taraqqiyoti deganda qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq bo‘lgan barcha fanlarning rivojlanishi, taraqqiy topishi, bilimli, malakali kadrlar tayyorlanishi natijasida samarali yangi texnikalar yaratilishi, mavjudlari esa takomillashtirilishini nazarda tutish lozim. Buning uchun ta’lim va ixtirochilik tizimini yangi bosqichga ko‘tarish talab etiladi. Ular qishloq xo‘jaligi uchun zarur bo‘lgan qulay va samarali mashina, traktor, mexanizm, uskunalar yaratilishini, mavjudlari takomillashtirilishini, serhosil, tezpishar ekin navlari, sermahsul chorva zotlari, ilg‘or texnologiyalarni yaratadigan fanlarning rivojlanishini ta’minlaydi. Natijada moddiy-texnika resurslarining miqdori oshadi, sifati yaxshilanadi.

Mamlakatimizda fan yutuqlari va ilg‘or texnologiyalarni qishloq xo‘jaligiga joriy etishga alohida e’tibor berilmoqda. Jumladan, qishloq xo‘jalik mashinasozlik sanoati korxonalarida zamonaviy, tejamli, unumli haydov, ishlov beruvchi traktorlar, mashina va mexanizmlar ishlab chiqarilmoqda. Yomg‘irlatib, tomchilatib, tuproq ostidan sug‘orish uchun yangi samarali texnikalar barpo etilmoqda. Bu hol qishloq xo‘jaligida samarali, ilg‘or texnologiyalar joriy etilishini ta’minlaydi.

“Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” Davlat dasturida ham mamlakatimiz qishloq xo‘jaligiga tomchilatib sug‘orishni joriy etishga alohida e’tibor qaratilgan edi. Mazkur dasturning VII bo‘limida tegishli asbob-uskunalar va tizimlarni mamlakatimizning o‘zida ishlab chiqarishni tashkil etgan holda 2009-2020 yillarda tomchilatib sug‘orish tizimlarini joriy etish dasturini ishlab chiqish nazarda tutilgan edi. Tomchilatib sug‘orishni joriy etish uchun zarur asbob-uskunalar va tizimlarni mamlakatimizning o‘zida ishlab chiqarishni tashkil etish bo‘yicha ham ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan “Saniplast” O‘zbekiston-Isroil qo‘shma korxonasi mazkur yo‘nalishdagi tadbirlar natijasida tashkil etilgan bo‘lib, tomchilatib sug‘orish tizimlarini ishlab chiqarish, loyihalarni amalga oshirish, materiallarni yetkazib berish va montaj qilish, ehtiyot qismlarni yetkazish va servis xizmatini ko‘rsatish, ekinlarni sug‘orish va o‘g‘itlash bo‘yicha konsalting xizmatlari ko‘rsatish bilan shug‘ullanadi. Ular tomonidan ishlab chiqarilgan tizimlar g‘o‘zani, bog‘ va issiqxonalarni tomchilatib sug‘orishda qo‘llaniladi.

2018-yil holatiga mamlakatimizda tomchilatib sug‘orish tizimini ishlab chiqaruvchi va quruvchi atigi 10 ta korxona ro‘yxatga olingan edi. Bugungi kunda 37 ta mahalliy, xorijiy hamda suv xo‘jaligi pudrat korxonalari tomchilatib sug‘orish tizimini qurish va servis xizmatlarini ko‘rsatish bilan shug‘ullanmoqda.

Fan-texnika taraqqiyotini joriy etishda rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasidan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, Isroilda suv tanqis bo‘lgan adirlarda quyosh batareyalari o‘rnatilgan bo‘lib, unung yordamida elektr energiyasi hosil qilinadi va ushbu elektr energiyasi bilan ishlovchi nasoslar orqali yer osti suvlari chiqariladi. Ushbu suv yordamida ekinlar va bog‘lar sug‘oriladi.

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘idagi ilg‘or texnologiyalardan biri – biogaz olishdir. Biogaz – nisbatan arzon ekologik yoqilg‘i bo‘lib, u chorva mollari va parrandalarning qattiq hamda suyuq chiqindilari, o‘simlik qoldiqlari va hokazolardan olinadi. Biogazni nafaqat chorva yoki parranda soni ko‘p bo‘lgan yirik fermalarda, balki yakka tartibdagi xo‘jaliklarda ham ishlab chiqarish mumkin. Bir nechta kichik fermalar yoki yakka tartibdagi xo‘jaliklar chiqindilarni markazlashtirilgan holda qayta ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish iqtisodiy nuqtai nazaridan afzal bo‘lib, olingan biogaz quvurlar orqali ferma yoki xo‘jaliklarga uzatiladi.

Respublikamiz agrosanoat kompleksida ekologik toza va qayta tiklanadigan energiyadan samarali foydalanuvchi texnologiyalarni joriy

qilish maqsadida, biogaz qurilmalarini ekspluatatsiya qiluvchi va ishlab chiqaruvchi tashkilotlar uchun soliq va bojxona imtiyozlari hamda preferensiyalarni taqdim etishni nazarda tutuvchi me'yoriy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, 2015-yil 25-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Respublika chorvachilik va parrandachilik xo'jaliklarida biogaz qurilmalarini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 343-sonli qarori qabul qilingan. Qaror bilan, ATB "Hamkorbank", ATB "Turonbank", ATB "Qishloq qurilish bank", ATB "Xalq banki", AITB "Ipak yo'li", ATB "O'zsanoatqurilishbank"larga Global ekologik fond (GEF) grantlarini, shuningdek xalqaro kreditlarni respublikamizning qishloq xo'jaligi korxonalariga biogaz qurilmalarini qurish bo'yicha loyihalarning tashabbuskorlariga O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash stavkasidan yuqori bo'lmagan foiz stavkalarida ajratish nazarda tutilgan. Shunday tartib joriy qilindiki, unga binoan, biogaz qurilmalarini qurish loyihalari tashabbuskorlari talabnomalariga asosan yer uchastkalarini va qurilish-montaj ishlarini amalga oshirishga ruxsat berish vakolatli tashkilotlar tomonidan "bir darcha" tamoyili orqali amalga oshiriladi.

Biogaz oluvchi qurilmalarning qurilishi agrosanoat komplesini ekologik toza va qayta tiklanadigan energiya bilan barqaror ta'minlash, chorvachilik va parrandachilik xo'jaliklarining chiqindilarini utilizatsiya qilish masalalarini hamda tuproqning oksidlanishi, yer osti va yuzasidagi suvning ifloslanishi, atmosferaga issiqxona gazlari chiqishi kabi muammolarni hal qilishga o'z hissasini qo'shadi. Shu bilan birga, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (Sustainable Development Goals)ning 7-"Arzon va toza energiya" hamda 13-"Iqlim o'zgarishiga qarshi kurash" yo'nalishlari talablariga ham mos keladi.

Organik chiqindilardan olinadigan biogaz o'z tarkibida 70 foizgacha bo'lgan miqdorda metan gazini jamlaydi va undan issiqlik va elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun ishlatish mumkin. Biogaz ishlab chiqarishda hosil bo'lgan chiqindilar esa yuqori sifatli o'g'itlar hisoblanadi, ulardan qishloq xo'jaligida foydalanish mumkin.

Fan-texnika taraqqiyoti yagona davlat siyosati asosida kechishi hamda bu jarayonda qatnashuvchilarning tashabbuskorligi va tadbirkorligi ham uyg'unlashishi lozim.

Fan-texnika taraqqiyotining asosiy maqsadi yangi, samarali qishloq xo'jalik texnikalarini, ekologik talablarga javob beradigan kimyoviy vositalarni, yangi navlarni, zotlarni yaratish, mavjud

vositalarni takomillashtirish, mehnatning xarakterini o‘zgartirib, uning unumdorligini oshirish, ishlab chiqariladigan mahsulotlar miqdorini ko‘paytirish, sifatini yaxshilash, ularni qayta ishlab, iste’molchilarga yetkazib berish orqali aholi, korxonalar va nihoyat, davlatning iqtisodiyotini yuksaltirishdir.

Fan-texnika taraqqiyoti qishloq xo‘jaligida quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir:

- yangi yerlarni kompleks o‘zlashtirish, zax va sho‘rlangan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, suv bilan ta’minlanish tadbirlarini ta’minlaydigan ishlab chiqarish vositalarini yaratish, takomillashtirish;
- tezpishar, kam suv talab etadigan, sifatli va serhosil urug‘ navlarini, sermahsul chorva zotlarini yaratish;
- qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishida amalga oshiriladigan barcha ish jarayonlarini avtomatlashtirish, elektrlashtirish, kimyolashtirish hamda mexanizatsiyalashtirishni ta’minlaydigan vositalarni yaratish, mavjudlarini takomillashtirish;
- qishloq xo‘jaligiga servis xizmatlarini ko‘rsatish, tarmoqda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning zarur miqdorini qayta ishlab, sifatli saqlab, iste’molchilarga vaqtida, yaxshi holatda yetkazib berishni ta’minlashni joriy etish;
- fan-texnika taraqqiyoti natijalarini qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining barcha sohalariga o‘z vaqtida joriy etish qobiliyatiga ega bo‘lgan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, faoliyat ko‘rsatayotganlarning malakasini oshirish va rag‘batlantirishni takomillashtirish.

Fan-texnika taraqqiyotining shu yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirilishi natijasida qishloq xo‘jaligi uchun zarur bo‘lgan moddiy-texnika resurslarini yaratish, mavjudlarini esa takomillashtirish ta’minlanadi.

Fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini, samarali texnologiyalarni qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga joriy etib borish maqsadga muvofiqdir. Bu texnologiyalar ish jarayonlarining belgilangan muddatda, sifatli bajarilishiga, mehnat unumdorligi oshishiga va xarajatlar kamayishiga olib keladi. Bu borada ham mamlakatimizda ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Zamonaviy texnologiyalar vaqtni, mehnatni, mablag‘ni tejash imkoniyatini beradi. Natijada mahsulot hajmi, mehnat unumdorligi oshishi, tannarx pasayishi va nihoyat, sof foyda summasi ko‘payishini

ta’minlaydi. Shuning uchun samarali texnologiyalarni yaratishga, ularni hayotga tatbiq etishga doimo katta e’tibor berish lozim.

3. Qishloq xo‘jaligida moddiy-texnika resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llari.

Qishloq xo‘jaligining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash maqsadida kimyoviy vositalarni, jumladan, mineral o‘g‘itlarni sotib olishga alohida e’tibor berilmoqda. Chunki ular tuproq unumdorligini oshirib, ekinlar hosildorligi yuksalishini, yovvoyi o‘tlar hamda zararkunandalarni kamaytirib, mehnat va mablag‘ sarflari tejalishini, mahsulot sifati yaxshilanishini ta’minlaydi.

Korxonalar o‘zlariga kerak bo‘lgan moddiy-texnika resurslarini sotib olishlari, o‘zlari qurishlari hamda ta’mirlashlari mumkin. Masalan, bino-inshootlarni o‘zlari qurishlari yoki pudratchilar orqali qurishi, mashina, traktor, kombaynlarni o‘zlarida yoki ixtisoslashgan korxonalarda ta’mirlashlari mumkin. Yangi qishloq xo‘jalik texnikalari, kimyoviy vositalar, yoqilg‘i va ozuqalarni ishlab chiqaruvchi korxonalardan bevosita o‘zlari yoki birjalar, auksionlar orqali sotib olishlari mumkin.

Qishloq xo‘jaligi korxonalari o‘z mablag‘lari hamda chetdan jalb etilgan sarmoyalar hisobidan moddiy-texnika resurslarining ba’zi turlarini qurishlari, ta’mirlashlari, sotib olishlari, ijaraga olishlari, ayrimlarini esa parvarish qilib, barpo etishlari mumkin.

Hozirgi vaqtda fermer xo‘jaliklarining moddiy-texnika resurslari bilan ta’minlanganlik darajasini oshirishda asosiy muammolardan biri – iqtisodiy imkoniyatlarning cheklanganligidir. Ko‘pgina fermer xo‘jaliklarining moliyaviy holati o‘zlari uchun zarur bo‘lgan barcha turdagi moddiy-texnika resurslarini xarid qilish imkoniyatini bermaydi. Shu sababli ularning moddiy-texnika resurslari bilan ta’minlanganlik darajasi pastligicha qolmoqda. Buning natijasida ushbu xo‘jaliklarda ishlarning mexanizatsiyalanganlik darajasi va mehnat unumdorligi past bo‘lmoqda, agrotexnik tadbirlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilmasligi natijasida esa ishlab chiqarishning intensivlik darajasi yomonlashishiga olib kelmoqda.

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri – ishlab chiqarish davri bilan tayyor mahsulot olish davri bir-biriga mos kelmasligi natijasida mazkur tarmoqda faoliyat yurituvchi tadbirkorlik shakllarining moddiy-texnika resurslarini shakllantirishda o‘z

mablag‘lari odatda yetmaydi. Chunki, qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida tayyor mahsulot olingunga qadar uzoq muddat faqat xarajatlar amalga oshirilishi lozim. Shu sababli tarmoqda moddiy-texnika resurslarini shakllantirishda chetdan jalb qilinadigan mablag‘lar muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlariga o‘zlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashiga ko‘maklashish bo‘yicha ishlar izchil amalga oshirilmoqda. Davlatimiz tomonidan ko‘rsatilayotgan ana shunday e’tibor va amaliy yordam tufayli qishloq xo‘jalik korxonalarining moddiy-texnika bazasi mustahkamlanib bormoqda. Fermer xo‘jaliklari uchun qishloq xo‘jalik texnikalarini lizing asosida olish shartlarining qulay ekanligi, hukumatimiz tomonidan lizing muddatining 7 yildan 10 yilga uzaytirilganligi, boj to‘lovlari bo‘yicha imtiyozlar berilganligi ham ularning moddiy-texnika resurslari bilan ta’minlanganlik darajasining oshishiga olib kelmoqda.

2019-yil 12-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 578-sonli qarori qabul qilingan. Ushbu qarorning 1-ilovasiga muvofiq “Qishloq xo‘jaligi texnikasini kredit va lizing shartlarida xarid qilishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tartibi to‘g‘risida Nizom” tasdiqlangan. Mazkur Nizomga ko‘ra, subsidiya faqat lizing yoki kredit shartnomasi tuzilgan kunda ishlab chiqarilgan muddati ikki yildan oshmagan yangi qishloq xo‘jaligi texnikasi uchun ajratiladi.

Ushbu Nizomga ko‘ra, Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi lizing tashkiloti yoki tijorat bankining qishloq xo‘jaligi korxonasiga qishloq xo‘jaligi texnikasini lizing yoki kredit shartlarida xarid qilish shartnomasida belgilangan foiz va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy foiz stavkasi o‘rtasidagi farq miqdorida, lekin 10 foizlik punktdan ko‘p bo‘lmagan miqdorda subsidiya ajratadi. Bunda qishloq xo‘jaligi korxonasi lizing tashkiloti yoki tijorat bankiga qishloq xo‘jaligi texnikasini lizing yoki kredit shartlarida xarid qilish uchun ariza taqdim etadi. Lizing tashkiloti yoki tijorat banki 3 bank ish kunida qishloq xo‘jaligi korxonasi tomonidan qishloq xo‘jaligi texnikasini lizing yoki kredit shartlarida xarid qilish uchun taqdim etilgan arizani ko‘rib chiqadi. Lizing tashkiloti yoki tijorat banki tomonidan ijobiy xulosa qabul qilinganda xulosa qabul

qilingandan keyin 1 bank ish kunida qishloq xo‘jaligi korxonasiga qishloq xo‘jaligi texnikasini lizing yoki kredit shartlarida xarid qilish uchun lizing yoki kredit ajratadi. Lizing tashkiloti yoki tijorat banki hisobot davridan keyingi oyning 20-sanasiga qadar qishloq xo‘jaligi korxonasiga qishloq xo‘jaligi texnikasini lizing yoki kredit shartlarida xarid qilish uchun ajratgan lizing yoki kredit foizining 10 foiz punktigacha qoplash uchun subsidiya ajratish yuzasidan Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga buyurtmanoma taqdim etadi. Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi bosh bitimda belgilangan muddatda lizing tashkiloti yoki tijorat bankining qishloq xo‘jaligi korxonasiga qishloq xo‘jaligi texnikasini lizing yoki kredit shartlarida xarid qilish uchun ajratgan lizing yoki kredit foizining 10 foiz punktigacha qoplash uchun subsidiya ajratadi.

Hozirgi vaqtda qishloq xo‘jaligi texnikalarini lizing asosida olishda boshlang‘ich to‘lov 25 foiz, foiz stavkasi 16 foiz, va lizing muddati 5 yil etib belgilangan. Hukumatimiz tomonidan qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash maqsadida lizing boshlang’ich to’lovini 15 foizga, foiz stavkasini 7 foizga va lizing muddatini 7 yil etib belgilash rejalashtirilmoqda.

Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun uning moddiy-texnika bazasini talab darajasida shakllantirish lozim. Bu masalaga bozor munosabatlari sharoitida har bir korxonaning o‘zi katta e’tibor berishi kerak.

Qishloq xo‘jaligining mustahkam moddiy-texnika bazasini yaratish bilan birgalikda ulardan to‘liq va samarali foydalanishga erishish lozim. Demak, tarmoq korxonalarida ulardan foydalanilayotganlik darajasini aniqlash maqsadga muvofiq. Buning uchun yuqorida ta’kidlangan ko‘rsatkichlardan foydalanish mumkin. Lekin o‘tish davrining hozirgi bosqichida ulardan foydalanish talab darajasida emas. Chunki mashina, traktor, kombaynlarning ishga yaroqlilik holati yuqori darajada emas. Bunday holat mashina, traktor hamda kombaynlarning ishga yaroqliligini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan butlovchi vositalar yetishmasligi, baholarining yuqoriligi, ularni sotib olish uchun esa qishloq xo‘jalik korxonalari moliyaviy resurslarining kamligi tufayli sodir bo‘lmoqda.

2010-yil holatiga mamlakatimizdagi chopiq traktorlarining 55 foizdan ortig‘i va yer haydaydigan traktorlarning 46 foizi 15 yildan ortiq vaqt mobaynida ishlatilayotgan texnikalardir. Boshqacha aytganda, ular

belgilangan foydalanish muddatini allaqachon o‘tab bo‘lgan, quvvati, ish unumi va yoqilg‘i iste’mol qilish bo‘yicha zamonaviy standartlarga javob bermaydigan eski texnikalardir.

2021-yil 1-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligi mashinasozligi tarmog‘ida sog‘lom raqobat muhitini yaratishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4969-sonli qarori qabul qilindi. Qarorga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi mashinasozligi tarmog‘ida faoliyat yurituvchi mahalliy qishloq xo‘jaligi texnikasini ishlab chiqaruvchilar:

- O‘zbekistonda ishlab chiqarilmaydigan ehtiyot qismlar va butlovchi buyumlarni import qilishda belgilangan tartibda shakllantiriladigan ro‘yxatlar bo‘yicha 2022-yil 1-yanvargacha bojxona to‘lovlaridan (QQS va bojxona yig‘imidan tashqari) ozod qilinadi;
- qishloq xo‘jaligi texnikasini ishlab chiqarish va unga servis xizmatini ko‘rsatish uchun butlovchi buyumlar, xomashyo va materiallarni import qilishda tovarlar erkin muomalaga (importga) chiqarishning bojxona rejimiga joylashtirilgan sanadan boshlab QQSni 270 kun kechiktirib to‘lashi mumkin.

2020-yil 8-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qishloq xo‘jaligi mashinasozligi tashkilotlari faoliyati samaradorligini oshirishga oid qarori qabul qilingan edi. Unga muvofiq, Toshkent qishloq xo‘jaligi texnikasi zavodi, Agregat zavodi, Chirchiq qishloq xo‘jaligi texnikasi zavodi va “Texnolog” aksiyadorlik jamiyatlarining ustav kapitalidagi davlat ulushlari uch yil muddatga “O‘zavtosanoat” aksiyadorlik jamiyatiga ishonchli boshqaruvga berilgan edi. Tarmoq korxonalarining rentabelligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash va tannarxini pasaytirish vazifalari qo‘yilgan edi. O‘tgan davrda Toshkent qishloq xo‘jaligi texnikasi zavodidagi ishlab chiqarish maydonlari 68 foizga maqbullashtirilib, uskunalardan foydalanish samaradorligi oshirildi.Natijada mahsulot tannarxi 4 foizga pasaydi va qariyb 45 mlrd. so‘m iqtisod qilindi. Minsk traktor zavodi bilan hamkorlik o‘rnatildi. Bu sheriklik doirasida O‘zbekistonda har yili 3 mingta traktor ishlab chiqarish ko‘zda tutilmoqda. Erishilgan natijalarga qaramasdan, tarmoqda mavjud quvvatlardan foydalanish darajasi 19 foiz, mahalliylashtirish o‘rtacha 20 foiz ekanligi qoniqarli emas. Mahallliy texnikalar narxi import texnikalarga nisbatan 10-15 foiz qimmat. Shu bois, mamlakatimiz hukumati tomonidan qishloq xo‘jaligi mashinasozligi klasterini tashkil etish, quvvatlardan foydalanish va nahalliylashtirish darajasini ishirish chora-tadbirlari ko‘rilmoqda. Rejaga

ko‘ra, Toshkent va Chirchiqdagi qishloq xo‘jaligi texnikasi zavodlari, Agregat zavodi, “Texnolog” va “O‘zKlaas Agro” korxonalari sanoat klasteri usulida yagona maydonda joylashtiriladi. Natijada 1200 ta uskuna va jihoz, 28 turdagi texnika optimallashtirilib, ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish 85 foizga, mahalliylashtirish 50 foizga yetkaziladi. Shu orqali ishlab chiqarish tannarxi 20 foizga pasayib, korxonalarning rentabellik darajasi 10 foizga oshishi kutilmoqda.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarining moddiy-texnika ta’minotini yaxshilashning asosiy yo‘nalishlari quyidagilar:

- har bir qishloq xo‘jaligi mintaqasiga mos keladigan, iqtisodiy jihatdan samarali bo‘lgan texnikalar bilan kompleks mexanizatsiyalashtirishga asoslangan tizimni yaratish;
- ishlab chiqarishni avtomatlashtirish vositalaridan keng ko‘lamda foydalanish;
- qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida o‘g‘itlardan foydalanishni to‘g‘ri tashkil etish va ekologik jihatdan qulay bo‘lgan biologik vositalarga yondashish;
- hududda mavjud imkoniyatlardan kelib chiqqan holda bozor iqtisodiyoti talablariga mos keladigan qayta ishlash korxonalarini kengaytirish;
- ishlab chiqarish binolari va inshootlari qurishni keng ko‘lamda avj oldirish va qurilishni takomillashtirish;
- yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va qishloq xo‘jaligining suv bilan to‘liq ta’minlanishiga erishish hamda sug‘orishning ilg‘or texnologiyalarini qo‘llash;
- chorvachilikda mahsuldor zotli hayvonlar bilan ta’minlanganlik darajasini oshirish;
- qishloq xo‘jaligi ekinlarining kasalliklarga chidamli, yuqori hosilli, tezpishar urug‘ navlarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish;
- xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.

Qisqacha xulosalar

Qishloq xo‘jaligining ishlab chiqarish fondlari bilan ta’minlanishini yaxshilashda, jonli mehnat sarflari tejalishida, ekinlar hosildorligi, chorva hayvonlari mahsuldorligi oshishida, mahsulotlar sifatini yaxshilashda asosiy va aylanma vositalar muhim ahamiyatga ega.

Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda, uning samaradorligini yuksaltirishda moddiy-texnika resurslarining, fan-texnika

taraqqiyotining hamda ilg‘or texnologiyalarning ahamiyati beqiyos. Fan-texnika taraqqiyoti natijasida moddiy-texnika resurslarining zamonaviy, unumli, tejamli, sifatli turlari yaratiladi. Ulardan oqilona foydalanish tufayli yangi, samarali texnologiyalar qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga joriy etiladi. Ulardan foydalanish darajasini, samaradorligini tegishli ko‘rsatkichlar tizimi yordamida aniqlash lozim.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Moddiy-texnika resurslari deganda nimani tushunasiz?
2. Tarmoqni rivojlantirishda moddiy-texnika resurslarining o‘rni va ahamiyatini tushuntirib bering.
3. Qishloq xo‘jaligi moddiy-texnika resurslarining tarkibi nimalardan iborat, ular o‘ziga xos qanday xususiyatlarga ega?
4. Moddiy-texnika resurslaridan foydalanish darajasi va samaradorligi ko‘rsatkichlari deganda nimalarni tushunasiz?
5. Tarmoqning moddiy-texnika resurslaridan to‘liq va samarali foydalanish uchun nimalarga e’tibor berish kerak?
6. Hukumatimiz tomonidan tarmoqning moddiy texnika bazasini mustahkamlash bo‘yicha qanday tadbirlar amalga oshirilmoqda?
7. Modernizatsiyalash deganda nimani tushunasiz?
8. Qishloq xo‘jalik korxonalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashda fan-texnika taraqqiyoti va ilg‘or texnologiyalardan foydalanishning qanday yo‘nalishlari mavjud?

BOB YUZASIDAN AMALIY TOPSHIRIQLAR:

1-topshiriq:

“Baliq skeleti” usuli asosida “Qishloq xo‘jaligida moddiy-texnika resurslarini tashkil etishda qanday omillar ta’sir etadi?” savoliga javob beriladi.



2-topshiriq:

Klaster usuli yordamida qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining moddiy-texnika resurslarining shakllanish manbalarini ko‘rsatib bering.



3-topshiriq:

FSMU texnologiyasi yordamida “Qishloq xo‘jaligida moddiy-texnika resurslaridan foydalanish samaradorligini yanada oshirish nimalarga bog‘liq?” ekanligini yo‘naltiruvchi uslubiy tavsiyalar asosida yechish:

Yo‘naltiruvchi so‘zlar: Moddiy-texnika resurslarining o‘ziga xos xususiyatlari, moddiy-texnika resurslarini shakllantirish manbalari.

	Qishloq xo‘jaligida moddiy-texnika resurslaridan foydalanish samaradorligini yanada oshirish nimalarga bog‘liq?
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating	
(M) Ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

4-topshiriq:

SWOT tahlil usuli yordamida mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining moddiy-texnika resurslari bilan ta’minlanish holatini tahlil qilish. Bunda doskaga SWOT tahlil jadvali chiziladi va har bir talaba alohida ushbu tahlilni amalga oshiradi.

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining moddiy-texnika resurslari bilan ta’minlanish holati

S (strength)	W (weakness)
O (opportunity)	T (threat)

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Qishloq xo‘jaligida moddiy-texnika resurslarining mohiyati, ahamiyati va tarkibi.
2. Qishloq xo‘jaligida moddiy-texnika resurslarini shakllantirish manbalari.
3. Qishloq xo‘jaligida moddiy-texnika resurslaridan foydalanish holati va samaradorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar.
4. Qishloq xo‘jalik korxonalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashda innovatsiyalar va ilg‘or texnologiyalardan foydalanish yo‘nalishlari.

9-BOB: QISHLOQ XO‘JALIGIDA ASOSIY VA AYLANMA FONDLAR HAMDA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

1. Qishloq xo‘jaligining asosiy va aylanma fondlari to‘g‘risida tushuncha, ularning ahamiyati va turkumlanishi.
2. Bozor munosabatlari sharoitida asosiy va aylanma fondlarni shakllantirish manbalari.
3. Asosiy va aylanma fondlardan foydalanish holati va samaradorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar.
4. Asosiy va aylanma fondlardan foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llari.

Tayanch iboralar: ishlab chiqarish fondlari, asosiy fondlar, amortizatsiya, aylanma fondlar, fond sig‘imi, fond qaytimi, fond rentabelligi.

1. Qishloq xo‘jaligining asosiy va aylanma fondlari to‘g‘risida tushuncha, ularning ahamiyati va turkumlanishi.

Qishloq xo‘jalik korxonalarining fondlari ishlab chiqarish jarayonlarida qatnashishiga yoki foydalanilishiga ko‘ra ishlab chiqarish fondlari hamda noishlab chiqarish fondlaridan tashkil topadi. Ular ayrim hollarda ishlab chiqarish jarayonida bevosita va bilvosita qatnashadiganlarga ham bo‘linadi. Masalan, yer, suv, o‘g‘it, urug‘lik, yem-xashak, yer haydaydigan, ishlov beradigan traktorlar qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirishda bevosita qatnashadi. Chunki ular mahsulot yetishtirish hajmiga, sifatiga bevosita ta’sir etadi. Xo‘jaliklarning ma’muriy, madaniy va boshqa binolari, omborxonalar, xizmat ko‘rsatuvchi texnikalar, kompyuterlar va boshqa vositalar ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmiga, ularning sifatiga bilvosita ta’sir etadi. Lekin ularning mahsulotlarni ishlab chiqarishdagi umumiy ahamiyatini inkor etib bo‘lmaydi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish fondlari iqtisodiy mohiyatiga, ya’ni shakllantirilishi, mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish jarayonida qatnashishiga ko‘ra, asosiy hamda aylanma

fondlarga bo‘linadi. Ularning natural holdagi ko‘rinishi asosiy va aylanma vositalar deb ataladi.

Asosiy va aylanma fondlar mahsulot ishlab chiqarib, qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda juda katta ahamiyat kasb etadi. Chunki ularsiz talabni qondiradigan miqdorda, sifatli mahsulot ishlab chiqarish mumkin emas. Ulardan oqilona foydalanish natijasida mehnat va mablag‘ xarajatlari tejaladi. Demak, asosiy va aylanma fondlardan oqilona va samarali foydalanish tufayli qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti rivojlanadi. Natijada aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli yaxshilanadi. Shuning uchun bunday vositalarni yaratishga, qurishga, ta’mirlashga, ulardan yaxshi foydalanishga hukumatimiz alohida e’tibor berib kelmoqda.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish fondlarining katta qismini asosiy fondlar tashkil etadi. Ularga qishloq xo‘jaligida qatnashadigan barcha mehnat vositalari kiradi. Ular qishloq xo‘jalik korxonalarining doimiy kapitalini tashkil etadi.

Asosiy fondlar iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarish jarayonida ko‘p marotaba qatnashib, qiymatini ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga, bajarilayotgan xizmatlarga yillar davomida qismlarga bo‘lib o‘tkazib boradi. Ularga qishloq xo‘jaligi yerlari, mashinalar, mexanizmlar, traktorlar, binolar, inshootlar, qurilmalar, ishchi va mahsuldor hayvonlar, ko‘p yillik mevali daraxtlar va boshqalar kiradi.

Funksional vazifasiga qarab asosiy fondlar ishlab chiqarish va noishlab chiqarish vositalariga bo‘linadi. Ishlab chiqarish asosiy fondlari o‘z navbatida qishloq xo‘jaligi asosiy fondlari va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga taalluqli bo‘lmagan asosiy fondlarga bo‘linadi. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida faoliyat yurituvchi yirik fermer xo‘jaliklari va klasterlarda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan bir qatorda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat bo‘linmalari va qurilish brigadalari faoliyati ham yo‘lga qo‘yilishi mumkin. Ushbu bo‘linmalarning asosiy vositalari qishloq xo‘jaligiga taalluqli bo‘lmagan ishlab chiqarish asosiy vositalari hisoblanadi.

Noishlab chiqarish asosiy fondlariga esa xo‘jalikning klublari, madaniyat saroylari, maktablar, sog‘likni saqlash idoralari, bolalar bog‘chasi, hammom, ombor va hokazolarning asosiy fondlari kiradi. Ular mehnat resurslarini takror ishlab chiqarishda katta rol o‘ynaydi.

Asosiy fondlarning alohida turlari qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida bir xilda ishtirok etmaydi. Ulardan ba’zilari ishlab chiqarish bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘langan va qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ko‘paytirishda asosiy omil hisoblanadi. Ularga traktorlar, kombaynlar, transport vositalari, qishloq xo‘jaligi mashinalari, texnikalari va hokazolar kiradi. Boshqa asosiy fondlar qurilish, savdo va qishloq xo‘jalik korxonalaridagi umumiy ovqatlanishga va boshqalarga yo‘naltirilgan vositalardir. Shuning uchun asosiy fondlar qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida bevosita qatnashuvchi va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida qatnashmaydiganlarga bo‘linadi.

Qishloq xo‘jaligining asosiy fondlari tarmoq xususiyati bo‘yicha dehqonchilikka oid, chorvachilikka oid va umumiy fondlarga bo‘linadi. Bundan tashqari qishloq xo‘jaligida tor doirada foydalaniladigan asosiy fondlar borki, ulardan faqatgina bir mahsulotni ishlab chiqarishda foydalaniladi. Masalan, don kombaynlari, paxta teruvchi mashinalar, sut sog‘ish apparatlari va hokazo.

Tarmoqda mahsulot ishlab chiqarish jarayonida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida bevosita qatnashuvchi fondlar muhim ahamiyatga ega, chunki ular asosiy ishlab chiqarish fondlarining asosiy qismni tashkil qiladi. Bu fondlarga quyidagilar kiradi:

- qishloq xo‘jaligi yerlari;
- binolar va inshootlar;
- traktorlar va boshqa qishloq xo‘jalik texnikalari;
- mashina va mexanizmlar;
- transport vositalari;
- ishlab chiqarish va xo‘jalik inventarlari;
- mahsuldor va ishchi hayvonlar;
- ko‘p yillik mevali daraxtlar;
- yerlarning meliorativ holatini yaxshilash uchun qilingan xarajatlar;

- asbob-uskunalar va boshqa shu kabilar.

Qishloq xo‘jaligida asosiy fondlarning turkumlanishi 9.1-rasmda keltirilgan.



9.1-rasm. Qishloq xo‘jaligida asosiy fondlarning turkumlanishi.

Asosiy fondlar ishlab chiqarishning pirovard natijalariga bir xilda ta’sir etmaydi. Shuning uchun ular aktiv va passiv fondlarga ajratiladi. Aktiv fondlarga ishlab chiqarish jarayonida faol qatnashadigan traktorlar, kombaynlar, avtomobillar, qishloq xo‘jaligi texnikalari, transport vositalari, mahsulotlarni realizatsiya qilishda ishtirok etadigan vositalar va boshqalar kiradi. Passiv fondlarga esa qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida bevosita qatnashmaydigan binolar, inshootlar, melioratsiya obyektlari kiradi. Barcha asosiy vositalardan yil davomida to‘liq foydalanishga harakat qilish kerak.

Qishloq xo‘jalik korxonasidagi asosiy fondlarning tarkibi o‘zining moddiy xarakteriga va ishlab chiqarish jarayonida bajaradigan vazifasiga qarab quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

a) qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi asosiy fondlari (binolar, inshootlar, traktorlar, uzatuvchi moslamalar, mashina va mexanizmlar, mahsuldor hayvonlar, ko‘p yillik mevali daraxtlar va boshqalar);

b) qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga bog‘liq bo‘lmagan asosiy fondlar (sanoat ishlab chiqarishi vositalari, qurilish tashkiloti vositalari va boshqalar);

d) noishlab chiqarish asosiy fondlari (uy-joy kommunal xo‘jaligi, maishiy xizmat ko‘rsatish shaxobchalari, tibbiyot muassasalari, ta’lim muassasalari, maktabgacha ta’lim tashkilotlari, klublar, istirohat bog‘lari, savdo va umumiy ovqatlanish shaxobchalari, boshqa shu kabilarning vositalari).

Asosiy vositalardan yillar davomida foydalanilishi natijasida jismoniy jihatdan eskiradi. Fan-texnika taraqqiyoti natijasida yangi, zamonaviy texnikalarning yaratilishi, takomillashtirilishi tufayli ular ma’naviy jihatdan ham eskiradi. Bu esa ularning holatini foydalanish uchun yaroqli holatda saqlab turish va yangilab borishni talab etadi.

Asosiy fondlar amortizatsiyasi – asosiy fondlar balans qiymatining qismlarga bo‘lingan holda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va ko‘rsatilayotgan xizmatlar tannarxiga yillar davomida o‘tkazib borilishi hisobiga qoldiq qiymatining kamayib borishidir. Shu yo‘l bilan sotib

olingan yoki qurilgan asosiy vosita qiymati asta-sekin qoplanadi. Agar asosiy vosita sotib olingan yoki qurilgan yilning o‘zida ishlab chiqarilgan mahsulotlar yoki ko‘rsatilgan xizmatlar tannarxiga kiritiladigan bo‘lsa, mahsulot yoki xizmat tannarxi keskin oshib ketishiga olib keladi.

Asosiy vositalarning amortizatsiya summasi ularning amaldagi amortizatsiya me’yorlari yordamida aniqlanadi. Asosiy vositalarning amortizatsiya summasi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$As = \frac{Abq}{100} xAm$$

Bunda: *As* – asosiy vositaning amortizatsiya summasi (ming so‘m);

Abq – asosiy vositaning balans qiymati (ming so‘m);

Am – asosiy vositaning amortizatsiya me’yori, foizda.

Asosiy vositalarning amortizatsiya me’yori berilmaganda asosiy vositaning balans qiymatini uning xizmat qilish muddatiga taqsimlash natijasida amortizatsiya summasi aniqlanadi. Xo‘jalikda asosiy vositalar kapital ta’mirlangan bo‘lsa, ushbu summa ularning balans qiymatiga qo‘shiladi.

Amortizatsiya summasi yetishtirilayotgan mahsulotlar, ko‘rsatilayotgan xizmatlarning tannarxiga belgilangan tartibda o‘tkaziladi. Qishloq xo‘jaligi korxonasidagi asosiy vositalar uchun hisoblangan amortizatsiya summalari yig‘ilib amortizatsiya fondini tashkil etadi va u mavjud asosiy fondlarni ta’mirlash, ishga yaroqli holatda saqlab turish va yangilarini sotib olish maqsadlarida ishlatiladi. Amortizatsiya fondi mablag‘larini belgilangan maqsadlar uchun sarflash, uning boshqa maqsadlarga sarflanishiga yo‘l qo‘maslik lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 306-moddasiga ko‘ra yer uchastkalari va tabiatdan foydalanishga doir boshqa obyektlar (suv, yer osti boyliklari va boshqa tabiiy resurslar); mahsuldor chorva mollari; qiymati ilgari to‘liq xarajatlar jumlasiga kiritilgan mol-mulklar amortizatsiya qilinadigan aktivlar deb e’tirof etilmaydi va amortizatsiya qilinmaydi.

Bundab tashqari O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 306-moddasida amortizatsiyaning cheklangan normalari keltirilgan bo‘lib, u quyidagi 9.1-jadvalda keltirilgan.

9.1-jadval.

Amortizatsiya qilinadigan aktivlar guruhlari (kichik guruhlari) bo‘yicha amortizatsiyaning cheklangan me’yorlari

№	Asosiy vositalarning nomi	Amortizatsiyaning yillik eng yuqori me’yori, foizlarda
I	**Binolar, imoratlar va inshootlar**	
1.	Binolar, imoratlar	3
2.	Ko‘priklar	5
3.	Dambalar, to‘g‘onlar	
4.	Korxonalarning temir yo‘llari	
5.	Qirg‘oqni mustahkamlovchi, qirg‘oqni himoyalovchi inshootlar	
6.	Rezervuarlar, sisternalar, baklar va boshqa sig‘imlar	
7.	Ichki xo‘jalik va xo‘jaliklararo sug‘orish tarmog‘i	
8.	Yopiq kollektor-drenaj tarmog‘i	
9.	Sport-sog‘lomlashtirish inshootlari	
10.	Issiqxonalar va parniklar	
11.	Boshqa inshootlar	
II	**Uzatish qurilmalari**	
1.	Elektr uzatish hamda aloqa qurilmalari va liniyalari	8
2.	Ichki gaz quvurlari va boshqa quvurlar	
3.	Vodoprovod, kanalizatsiya va issiqlik tarmoqlari	
III	**Kuch mashinalari va asbob-uskunalar**	
1.	Issiqlik texnik asbob-uskunalari	8
2.	Turbina asbob-uskunalari va gaz turbinalari qurilmalari	
3.	Elektr dvigatellari va dizel-generatorlar	
4.	Kompleks qurilmalar	
5.	Boshqa kuch mashinalari va asbob-uskunalari (harakatlanuvchi transportdan tashqari)	
IV	**Faoliyat turlari bo‘yicha ish mashinalari va uskunalar (harakatlanuvchi transportdan tashqari)**	

№	Asosiy vositalarning nomi	Amortizatsiyaning yillik eng yuqori me’yori, foizlarda
1.	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga tegishli mashinalar va asbob-uskunalar	15
2.	Qishloq xo‘jaligi traktorlari, mashinalari va uskunalari	
3.	Yo‘ldosh, uyali aloqa, radiotelefon, peyjing va tranking aloqa asbob-uskunalari	
4.	Nasoslar	
5.	Yuk transporti, yuk ortish-tushirish mashinalari va uskunalari	
6.	Boshqa mashinalar va uskunalar	
V	**Harakatlanuvchan transport**	
1.	Avtomobil transportining harakatdagi tarkibi, ishlab chiqarish transporti	20
2.	Yengil avtomobillar	
3.	Sanoat traktorlari	
4.	Kommunal transport	
5.	Boshqa transport vositalari	
VI	**Kompyuter, periferiya qurilmalari, ma’lumotlarni qayta ishlash uskunalari**	
1.	Kompyuterlar	20
2.	Periferiya qurilmalari va ma’lumotlarga ishlov berish uskunalari	
3.	Nusxa ko‘chirish-ko‘paytirish texnikasi	
4.	Boshqalar	
VII	**Boshqa guruhlarga kiritilmagan asosiy vositalar**	15

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi.

Ko‘p yillik mevali daraxtlar ushbu jadvaldagi VII guruhga, ya’ni boshqa guruhlarga kiritilmagan asosiy vositalar tarkibiga kiritiladi va ular uchun amortizatsiya me’yori 15 foiz etib belgilangan.

Soliq solish maqsadlari uchun har bir kichik guruh bo‘yicha amortizatsiya me’yorini qo‘llash orqali, biroq ushbu Kodeksda belgilangan eng yuqori me’yordan oshmagan holda hisoblab chiqiladi. Soliq solish maqsadlari uchun amortizatsiyani ushbu Kodeksda

belgilanganidan pastroq va soliq to‘lovchining hisob siyosatida mustahkamlab qo‘yilgan me’yorlar bo‘yicha hisoblashga yo‘l qo‘yiladi.

Korxonadagi barcha asosiy vositalar uchun hisoblangan amortizatsiya ajratmalarining yig‘indisi amortizatsiya fondi deyiladi. Amortizatsiya fondi mablag‘lari korxonadagi asosiy fondlarni foydalanishga yaroqli holatda saqlab turish va yangilab borish maqsadida ishlatiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar fan-texnika taraqqiyoti natijasida yaratilgan zamonaviy, serunum texnika vositalarini sotib olishga intiladi. Xo‘jalikda ma’naviy jihatdan tez eskiradigan asosiy vositalar uchun tezkor amortizatsiya usulidan ham foydalaniladi. Lekin bu jarayon ular yordamida yetishtiriladigan mahsulotlarning tannarxlariga bevosita ta’sir etadi. Chunki bunda mahsulot tannnarxiga o‘tkaziladigan amortizatsiya summasi ko‘payadi. Shuning uchun bu usulni qo‘llashdan avval ularning o‘rindoshligini, sarf-xarajatlarini va boshqa jihatlarini e’tiborga olish lozim.

Qishloq xo‘jaligi fondlari tarkibida ***aylanma fondlar*** ham muhim ahamiyatga ega. Aylanma fondlar – mahsulot ishlab chiqarish, xizmatlarni bajarish jarayonida bir marta qatnashib, qiymatini shu mahsulotlarga to‘liq o‘tkazib, o‘z shaklini ham o‘zgartiradigan vositalardir. Qishloq xo‘jaligidagi aylanma fondlar turkumlanishi 9.2-rasmda keltirilgan.

Qishloq xo‘jaligida aylanma fondlarga urug‘liklar, yoqilg‘i, yog‘lovchi materiallar, kimyoviy vositalar, yem-xashaklar, kam qiymatli, tez to‘zuvchi materiallar, joriy va valyuta hisob raqamlaridagi, kassadagi mablag‘lar va boshqa shu kabilar kiradi. Aylanma fondlar ishlab chiqarish va realizatsiya jarayonining uzluksiz amalga oshishini ta’minlab turadi. Aylanma fondlar qishloq xo‘jalik ishlab chiqarish jarayonida bir marotaba qatnashib, o‘z shaklini o‘zgartiradi. Masalan, ekilgan urug‘ o‘simlikka, mineral o‘g‘itlar esa oziqa moddalarga aylanadi, yonilg‘idan foydalanish natijasida mashina-traktorlar ish bajaradi va hokazo.



9.2-rasm. Qishloq xo‘jaligi aylanma fondlarining turkumlanishi.

Aylanma fondlar ishlab chiqarish jarayonida bajarayotgan vazifalarini e’tiborga olgan holda uch guruhga bo‘linadi: ishlab chiqarish zahiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari va muomaladagi vosita va mablag‘lar.

Qishloq xo‘jaligida aylanma fondlar iqtisodiyot boshqa tarmoqlaridagi aylanma fondlardan farq qilib, quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

a) ishlab chiqarish siklining uzoq davom etishi munosabati bilan aylanma fondlar aylanishining sekinligi. Aylanma fondlarni tashkil etishda uning bu xususiyatini inobatga olish lozim;

b) qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining mavsumiyligi sababli yilning turli davrlarida aylanma fondlar sarfi tarkibining keskin o‘zgarib turishi. Qishda aylanma fondlar sarfi tarkibida yem-xashakning salmog‘i yuqori bo‘lsa, bahorda urug‘lik, yoqilg‘i-moylash materiallari, o‘g‘it, ehtiyot qism va boshqalarning sarfi keskin ortadi;

d) aylanma fondlarning bir qismi ichki xo‘jalik ehtiyoji uchun foydalaniladi. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarining bir qismi sotilmaydi, balki natural shaklida (urug‘lik, yem-xashak va hokazo) qaytadan ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladi.

Aylanma fondlarining aylanishi o‘zida uch bosqichni mujassamlashtiradi: ta’minot, ishlab chiqarish va realizatsiya (sotish).

Aylanma fondlarning tarkibi korxonalarning ixtisoslashuviga qarab turlicha bo‘ladi. Masalan, don mahsulotlari yetishtiruvchi korxonalarda aylanma fondlarning asosiy tarkibini urug‘lik, o‘g‘it, yoqilg‘i, ehtiyot qismlar, texnikalar band etgan bo‘lsa, chorvachilik korxonalarida bu tarkibni asosan ozuqa, boquvdagi hayvonlar band etadi.

Aylanma fondlar qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo‘jalik faoliyatining so‘nggi natijalariga bir xilda ta’sir etmaydi. Ta’sir etish darajasiga qarab aylanma fondlar:

- qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish jarayoniga va samaradorligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiluvchi;
- ishlab chiqarish jarayoniga va samaradorligiga bilvosita ta’sir qiluvchi aylanma fondlarga bo‘linadi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarida mahsulot tannarxini pasaytirish va olinadigan foyda summasini ko‘paytirish uchun aylanma fondlardan samarali foydalanishga alohida e’tibor berish lozim.

2. Bozor munosabatlari sharoitida asosiy va aylanma fondlarni shakllantirish manbalari hamda ulardan samarali foydalanish yo‘llari.

Qishloq xo‘jaligi uchun zarur bo‘lgan asosiy va aylanma fondlar bozor munosabatlari sharoitida turlicha yo‘llar bilan shakllantirilib, barpo etilmoqda. Qishloq xo‘jaligi korxonalari ayrim asosiy vositalarni (bino, inshootlarni) o‘zlari quradi, qishloq xo‘jalik texnikalarini ta’mirlaydi, bog‘lar barpo etadi, chorva hayvonlarini parvarish qiladilar. Ayrim asosiy vositalarni sotib oladi, ba’zi birlarini esa ijaraga oladilar.

Asosiy va aylanma fondlar quyidagi ikkita manbadan shakllantiriladi:

- korxonalarning o‘z mablag‘laridan;
- chetdan jalb etilgan mablag‘lar hisobiga.

Korxonalarning o‘z mablag‘lariga sof foydadan ajratilayotgan mablag‘, amortizatsiya fondi, asosiy vositalarni sotishdan, tugatishdan tushadigan mablag‘lar, asosiy vositalarni ijaraga berishdan tushgan mablag‘, qimmatli qog‘ozlar chiqarib sotishdan tushgan tushum va boshqa shu kabilar kiradi. Chetdan jalb qilingan mablag‘larga esa davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar, banklardan olingan kreditlar, jalb etilgan investitsiyalar va boshqalar kiradi.

Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishini rivojlantirish maqsadida davlat budjetidan ko‘plab mablag‘lar ajratilmoqda. Mazkur mablag‘lar asosan irrigatsiya inshootlarini (suv omborlari, kanallar) barpo etishga, qishloq xo‘jaligida yangi yerlarni o‘zlashtirishga, yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga, ekologiyani sog‘lomlashtirishga, qishloq xo‘jalik korxonalarini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilmoqda.

Bozor munosabatlari sharoitida qishloq xo‘jalik asosiy va aylanma fondlarini shakllantirishda lizing xizmatidan keng foydalanish lozim. Qishloq xo‘jalik korxonalarida o‘zlari uchun zarur bo‘lgan barcha texnikalarni sotib olish uchun mablag‘lari yetishmasligi mumkin. Bunday sharoitda ularni lizing asosida ijaraga olish va lizing muddati tugagandan so‘ng qoldiq qiymati bo‘yicha sotib olish maqsadga muvofiqdir. Mamlakatimiz hukumati tomonidan lizing faoliyati izchil qo‘llab-quvvatlanib kelinmoqda. Qishloq xo‘jalik korxonalari turli vositalarni lizing asosida jalb qilganda ularga boj to‘lovlari, soliqlar bo‘yicha ko‘plab imtiyozlar berilmoqda. Hozirgi vaqtda fermer xo‘jaliklari o‘zlarining asosiy fondlar bilan ta’minlanganlik darajasini oshirishda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan lizing kompaniyalarining xizmatlaridan keng foydalanmoqdalar.

Asosiy va aylanma fondlarni barpo etishda qishloq xo‘jalik korxonalari o‘zlari uchun zarur bo‘lgan vositalarni ishlab chiqaruvchilarning o‘zidan olishga harakat qilishi kerak. Bunday munosabatda vositachilar bo‘lmasligi sababli vositalarni arzonroq sotib olishga erishiladi. Shuning uchun xo‘jaliklar bu aloqaning doimiyligini ta’minlashga harakat qilishlari lozim.

Qishloq xo‘jalik korxonalari asosiy va aylanma vositalarni xizmat ko‘rsatuvchi tarmoqlarning tashkilotlaridan (yoqilg‘i, kimyoviy vositalar va boshqalar) va birjalardan sotib olmoqdalar. Bunda ishlab chiqarish

fondlarining bahosi vositachilik ustamasi evaziga yuqori bo‘lishiga olib keladi. Shu sababli korxonalar imkon qadar ishlab chiqarish fondlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlab chiqaruvchilardan olishga harakat qilishi kerak. Kelajakda qishloq xo‘jalik korxonalari ishlab chiqarish fondlarini barpo etish manbalari hamda shakllantirish yo‘llarini takomillashtirishga alohida e’tibor berishlari, ya’ni to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalarni rivojlantirishga erishishlari maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birga ichki va tashqi investitsiyalarni jalb etishga va ularning ko‘lamini kengaytirishga katta e’tibor berish lozim. Shu yo‘llar bilan tarmoq va xo‘jalikning asosiy va aylanma fondlarga bo‘lgan talabni qondirishga erishishlari mumkin.

Mustaqillikka erishilgandan keyingi dastlabki yillarda qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining asosiy va aylanma fondlar bilan ta’minlanganlik darajasi pasayganligi bizga ma’lum. Bunga asosiy va aylanma fondlar narxlarining tez sur’atlar bilan o‘sganligi ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Masalan, 1995-yilda 1 dona «MTZ-80» markali traktorning narxi 487 ming so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2002-yilga kelib, 19,3 martaga oshib, 9,4 mln. so‘mni tashkil etgan. Ayrim qishloq xo‘jalik texnikalarining narxlari juda yuqori sur’atlarda oshgan. Shu yillar ichda benzin yoqilg‘isining narxi 12,6 martaga, ammofos o‘g‘itining narxi esa 16,6 martaga qimmatlashgan. Lekin, so‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan tarmoqning asosiy va aylanma fondlar bilan ta’minlanganlik darajasini yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda tashkil etilayotgan turli ko‘rgazmalar qishloq xo‘jalik korxonalarining asosiy fondlar bilan ta’minlanganlik darajasini oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu ko‘rgazmalarda qishloq xo‘jaligi korxonalariga ular uchun zarur texnikalarni ishlab chiqaruvchilar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalarni o‘rnatish uchun juda qulay imkoniyat yaratib berilmoqda.

Qishloq xo‘jalik korxonalarida aylanma fondlarni shakllantirishda bank kreditlaridan keng foydalanilmoqda. Bu jarayonda hukumatimiz tomonidan keng imkoniyat va imtiyozlar yaratib berilgan.

3. Asosiy va aylanma fondlardan foydalanish holati va samaradorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar.

Qishloq xo‘jaligi korxonalari o‘zlarida mavjud bo‘lgan asosiy va aylanma fondlardan samarali foydalanishlari lozim, bu tarmoqning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Bunda bir qator ko‘rsatkichlardan

foydalanib asosiy va aylanma fondlardan foydalanish holati hamda samaradorligi tahlil qilinadi.

Asosiy fondlardan foydalanish holatini aniqlashda quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalaniladi:

a) asosiy fondlarning o‘sish koeffitsiyenti. Bu ko‘rsatkichni aniqlash uchun asosiy fondlarning yil oxiridagi qiymatini ularning yil boshidagi qiymatiga taqsimlanadi. Bunda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$Ko' = \frac{AFo}{AFb}$$

Bunda: *Ko‘* – asosiy fondlarning o‘sish koeffitsiyenti;

AFo – asosiy fondlarning yil oxiridagi qiymati (ming so‘mda);

AFb – asosiy fondlarning yil boshidagi qiymati (ming so‘mda).

b) asosiy fondlarning hisobdan chiqish koeffitsiyenti. Bu ko‘rsatkichni aniqlash uchun korxonada yil davomida hisobdan chiqarilgan asosiy fondlar qiymatini yil boshidagi asosiy fondlar qiymatiga taqsimlanadi. Bunda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$Kch = \frac{AFch}{AFb}$$

Bunda: *Kch* – asosiy fondlarning hisobdan chiqish koeffitsiyenti;

AFch – yil davomida hisobdan chiqarilgan asosiy fondlarning qiymati (ming so‘mda);

AFb – asosiy fondlarning yil boshidagi qiymati (ming so‘mda).

d) asosiy fondlarning yangilanish koeffitsiyenti. Bu ko‘rsatkichni aniqlash uchun korxonada yil davomida ishga tushirilgan asosiy fondlar qiymatini asosiy fondlarning yil oxiridagi qiymatiga taqsimlanadi. Bunda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$Ky = \frac{AFit}{AFo}$$

Bunda: *Ky* – asosiy fondlarning yangilanish koeffitsiyenti;

AFit – yil davomida ishga tushirilgan asosiy fondlarning qiymati (ming so‘mda);

AFo – asosiy fondlarning yil oxiridagi qiymati (so‘mda).

e) asosiy fondlarning eskirish koeffitsiyenti. Bu ko‘rsatkichni aniqlash uchun asosiy fondlar uchun hisoblangan amortizatsiya summasini ularning o‘rtacha yillik qiymatiga taqsimlanadi. Bunda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$Ke = \frac{A}{AFq}$$

Bunda: *Ke* – asosiy fondlarning eskirish koeffitsiyenti;

A – asosiy fondlar uchun hisoblangan amortizatsiya summasi (ming so‘mda);

AFq – asosiy fondlarning o‘rtacha yillik qiymati (ming so‘mda).

f) asosiy fondlarning yaroqlilik koeffitsiyenti. Bu ko‘rsatkichni aniqlash uchun asosiy fondlar boshlang‘ich qiymati va ular uchun hisoblangan amortizatsiya summasi orasidagi farqni ularning o‘rtacha yillik qiymatiga taqsimlanadi. Bunda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$Kya = \frac{AFbq - A}{AFbq}$$

Bunda: *Kya* – asosiy fondlarning yaroqlilik koeffitsiyenti;

A – asosiy fondlar uchun hisoblangan amortizatsiya summasi (ming so‘mda);

AFbq – asosiy fondlarning boshlang‘ich qiymati (ming so‘mda).

Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini aniqlashda quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalaniladi:

a) xo‘jalikning asosiy fondlar bilan ta’minlanganlik darajasi. Bu ko‘rsatkichni aniqlash uchun asosiy fondlarning o‘rtacha yillik qiymatini qishloq xo‘jalik yerlari maydoniga taqsimlanadi. Bunda quyidagi formuladan foydalanadi:

$$Ft = \frac{Afq}{Ym}$$

Bunda: *Ft* – asosiy fondlar bilan ta’minlanganlik darajasi (so‘m/ga);

Afq – asosiy fondlarning o‘rtacha yillik qiymati (ming so‘mda);

Ym – qishloq xo‘jaligi yerlari maydoni (ga).

b) mehnatning asosiy fondlar bilan qurollanganlik darajasi. Ushbu ko‘rsatkich asosiy fondlarning o‘rtacha yillik qiymatini xodimlarning o‘rtacha yillik soniga taqsimlash orqali aniqlanadi. Uni quyidagi formulalar yordamida aniqlash mumkin:

$$Fq = \frac{Afq}{Mr}$$

Bunda: *Fq* – mehnatning asosiy fondlar bilan qurollanganlik darajasi;

Afq – asosiy fondlarning o‘rtacha yillik qiymati (ming so‘mda);

Mr – mehnat resurslarining o‘rtacha yillik soni (kishi).

Bu ko‘rsatkichlar xo‘jaliklarning ixtisoslashishiga, mashina-texnikalar bilan ta’minlanganligiga ko‘ra farq qilishi mumkin. Ushbu ko‘rsatkichning yaxshilanishi ishlab chiqarishning mexanizatsiyalashtirilishini, avtomatlashtirilishini ta’minlab, jonli mehnat xarajatlarini tejab, mehnat unumdorligi yuksalishiga olib keladi.

d) fond qaytimi. Ushbu ko‘rsatkichni aniqlash uchun qishloq xo‘jaligida bir yilda ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot qiymatini asosiy fondlarning o‘rtacha yillik qiymatiga taqsimlash orqali aniqlanadi. Bunda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$Fq = \frac{YMq}{Afq}$$

Bunda: *YMq* – yalpi mahsulot qiymati (ming so‘m);

Afq – asosiy fondlarning o‘rtacha yillik qiymati (ming so‘m).

Fond qaytimini ko‘rsatkichi bir so‘mlik asosiy fond evaziga qancha qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtirilganligini ifodalaydi va uning darajasi yuqori bo‘lgani maqsadga muvofiqdir. Ushbu ko‘rsatkichni yalpi daromad va sof foyda orqali ham aniqlash mumkin.

e) fond sig‘imi. Uni aniqlash uchun asosiy fondlarning o‘rtacha yillik qiymatini yetishtirilgan qishloq xo‘jalik yalpi mahsuloti qiymatiga taqsimlash zarur. Buning uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$Fs = \frac{Afq}{YMq}$$

Fond sig‘imi ko‘rsatkichi bir so‘mlik qishloq xo‘jalik mahsulotini yetishtirish uchun necha so‘mlik asosiy fond sarflanganligini ko‘rsatadi.

f) fond rentabelligi. Ushbu ko‘rsatkich xo‘jalikda sarflangan ishlab chiqarish fondlarining bir birligi evaziga qancha foyda olinganligini bildiradi va foyda me’yori deb ham ataladi. Uni aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$Fm = \frac{SF}{Afq + Ofq} x100$$

Bunda: *Fm* – foyda me’yori, foizda;

SF – sof foyda summasi, ming so‘mda;

Ofq – aylanma fondlar qiymati, ming so‘mda.

Foyda me’yori ko‘rsatkichining darajasi yuqori bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

g) asosiy fondlarning qoplanish muddati. Ushbu ko‘rsatkichni aniqlash uchun asosiy fondlar qiymatini sof foyda summasiga taqsimlash lozim. Bunda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$T = \frac{Afq}{SF}$$

Bunda: T – asosiy fondlarning qoplanish muddati;

Afq – asosiy fondlarning o‘rtacha yillik qiymati, ming so‘mda;

SF – sof foyda summasi, ming so‘mda.

Asosiy fondlardan foydalanish holati va samaradorligini tahlil qilishda asosiy vositalarning alohida turlari bo‘yicha ham tahlil qilish mumkin. Masalan, bitta kombaynning bir yilda ishlagan kuni, hosilini yiqqan maydoni hamda yig‘ishtirgan hosili va hokazo.

Aylanma fondlardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalanish mumkin:

a) aylanma fondlarning aylanish koeffitsiyenti. Ushbu ko‘rsatkichni aniqlash uchun sotilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining, ko‘rsatilgan xizmatlarning, bajarilgan ishlarning umumiy qiymatiga asosiy podaga o‘tkazilgan yosh hayvonlarning qiymatini qo‘shib, undan asosiy podadagi hayvonlarni sotishdan tushgan mablag‘ni ayirgandan so‘ng qolgan summani aylanma fondlarning o‘rtacha yillik qiymatiga taqsimlash lozim. Bunda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$K = \frac{SMIq + YHq - APs}{Ofq}$$

Bunda: *SMIq* – sotilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining, bajarilgan ishlar, xizmatlarning qiymati (ming so‘m);

YHq – asosiy podaga o‘tkazilgan yosh hayvonlarning qiymati (ming so‘m);

APs – asosiy podadagi hayvonlarni sotishdan tushgan tushum (ming so‘m);

Ofq – aylanma fondlarning o‘rtacha yillik qiymati (ming so‘m).

Bu ko‘rsatkich xo‘jaliklardagi aylanma fondlarning bir yil davomida aylanish tezligini ko‘rsatadi. Ushbu ko‘rsatkich imkon qadar yuqori bo‘lgani ma’qul.

b) aylanma fondlarning aylanish davri. Bu ko‘rsatkichni aniqlash uchun bir yildagi kalendar kunlari umumiy sonini aylanma fondlarning aylanish koeffitsiyentiga taqsimlanadi. Bunda quyidagi tenglikdan foydalaniladi:

$$Ad = \frac{T}{K}$$

Bunda: Ad – aylanma fondlarning aylanish davri (muddati), kun;

T – bir yildagi kalendar kunlar soni, kun.

Yuqoridagi ko‘rsatkichlardan tashqari qishloq xo‘jalik korxonalarida aylanma fondlarning ayrim turlaridan foydalanilganlik darajasini ham aniqlash mumkin. Jumladan, mineral o‘g‘itlardan, yoqilg‘ilardan, chorva ozuqasidan va boshqalardan foydalanish samaradorligini aniqlanadi. Ularni natura yoki qiymat holida aniqlash imkoniyati mavjud. Bunda mineral o‘g‘itlardan foydalanishning samaradorlik darajasini quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$Smo' = \frac{YHm}{Mmo'} \quad ; \quad Smo' = \frac{YHq}{Mmo'}$$

Bunda: Smo' – mineral o‘g‘itlardan foydalanish samaradorligi;

YHm – olingan yalpi hosil miqdori (ekinlar turlari bo‘yicha), tonna;

YHq – olingan yalpi hosil qiymati, ming so‘m;

Mmo' – sarflangan mineral o‘g‘itlar miqdori, tonna.

Bu ko‘rsatkich yordamida sarflangan mineral o‘g‘it evaziga qancha yalpi hosil yoki necha so‘mlik mahsulot olinganligini aniqlash mumkin.

Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirishda mineral o‘g‘itlarning ahamiyati juda katta. Ko‘zlangan miqdordagi hosilni olish uchun qishloq xo‘jaligi ekinlariga ilmiy asoslangan me’yorlarga muvofiq mineral o‘g‘itlar berilishi talab etiladi. Asosiy qishloq xo‘jalik ekinlariga beriladigan mineral o‘g‘itlarning ilmiy asoslangan o‘rtacha me’yori 9.2-jadvalda keltirilgan.

Qishloq xo‘jalik korxonalari ekinlarga ilmiy asoslangan miqdordagi mineral o‘g‘itlarni berishga alohida e’tibor berishlari lozim. Shu orqali mahsulot ishlab chiqarish hajmini intensiv yo‘l bilan ko‘paytirishga erishiladi.

9.2-jadval

Asosiy qishloq xo‘jalik ekinlariga beriladigan mineral o‘g‘itlarning ilmiy asoslangan o‘rtacha me’yori (kg/ga, 100 foiz sof modda hisobida)

Ekin turlari	Mineral o‘g‘it sarfi		
	Azotli	Fosforli	Kaliyli
Boshoqli don ekinlari: a) sug‘oriladigan	150	100	50
b) lalmi	50	50	-
Don uchun makkajo‘xori	180-220	120-140	85-90
Sholi	200-220	140-145	150-180
G‘o‘za	215-240	145-165	95-110
Kanop	160-180	130-140	80-90
Tamaki	120-150	80-100	40-45
Kartoshka	120-150	85-100	60-75
Sabzavot	145-200	100-110	70-75
Poliz	50-75	100-110	45-50
Ozuqabop ildizmevali o‘simliklar	220	90	60
Silos uchun makkajo‘xori	200	90	60
Bedazorlar	100	90-100	50-60

Manba: Qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirishda talab etiladigan mehnat va moddiy resurslar me’yorlari, T.: O‘zBIITI, 1996

Chorvachilikda esa sarflangan ozuqa birligining samaradorlik darajasini quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$OBs = \frac{ChMm}{SOB}; \qquad OBs = \frac{ChMq}{SOB}$$

Bunda: *OBs* - sarflangan ozuqa birligining samaradorligi;

ChMm - yetishitirilgan chorvachilik mahsulotlarining miqdori (tonna);

ChMq - yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlarining qiymati, ming so‘m;

SOB - chorvachilik mahsulotlari yetishtirishga sarflangan ozuqa birligi.

Chorvachilikda 1 ozuqa birligi sifatida 1 kg sulining to‘yimlilik qiymati asos qilib olingan.

4. Asosiy va aylanma fondlardan foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llari.

Mamlakatimizda yaratilayotgan imkoniyatlar qishloq xo‘jaligida foydalanilayotgan asosiy va aylanma fondlarning iqtisodiy samaradorligi yuksalishiga xizmat qilmoqda. Kelajakda bu o‘sish sur’atini yanada oshirishga erishish uchun tarmoqda mavjud bo‘lgan barcha asosiy va aylanma fondlardan yil mobaynida to‘liq va maqsadga muvofiq samarali foydalanish zarur. Zamonaviy, serunum texnikalardan, samarali texnologiyalardan oqilona foydalanish natijasida dastavval mehnat unumdorligini oshirib, mehnat va mablag‘ sarflari tejalishini ta’minlab, yetishtiriladigan mahsulotlarning tannarxini pasaytirish evaziga olinadigan foyda summasini ko‘paytirishga erishish lozim.

Avvalo, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi bilan shug‘ullanuvchilarning asosiy va aylanma fondlardan samarali foydalanishdan moddiy va ma’naviy manfaatdorligini oshirish lozim. Shuningdek, ularda mulkka egalik hissini shakllantirish va mulkdan samarali foydalanishdan manfaatdorligini yuksaltirish kerak.

Qishloq xo‘jalik korxonalari ixtiyoridagi barcha asosiy va aylanma fondlardan yil davomida, oqilona hamda samarali foydalanishni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish lozim. Shuningdek, korxonalarning joylashishi, ixtisoslashishi va ishlab chiqarish vositalari bilan ta’minlanganligiga, ular o‘rtasidagi mutanosiblikka alohida e’tibor berish kerak. Agarda xo‘jaliklar barcha vositalar bilan talab darajasida yaxshi ta’minlanmagan bo‘lsa, bu masalani hal etish bilan bog‘liq tadbirlarni, yo‘llarni aniqlash zarur. Jumladan, asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun quyidagi tadbirlarning o‘z vaqtida, sifatli amalga oshirilishini ta’minlashga doimo e’tibor berish maqsadga muvofiqdir:

- korxonalarning asosiy vositalar bilan ta’minlanganlik darajasini yaxshilash, ular o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash, ya’ni qishloq xo‘jalik texnikasi uchun zarur bo‘lgan barcha mexanizmlar bo‘lishiga erishish;
- asosiy vositalarning holatini, ishga yaroqliligini yaxshilash;
- zarur bino va inshootlar bilan yetarli darajada ta’minlanishga erishish, bunda mahalliy qurilish materiallaridan oqilona foydalanish;

- sanoat korxonalari yetkazib beradigan qishloq xo‘jalik mashinalari va texnikalarini qulay usullarda sotib olish;
- qishloq xo‘jaligiga fan-texnika yutuqlari, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish va hokazo.

Aylanma fondlardan samarali foydalanish orqali qishloq xo‘jalik ekinlari hosildorligining o‘sishiga, chorva hayvonlari mahsuldorligining oshishiga, mahsulot sifatining yuksalishiga erishish lozim.

Aylanma fondlardan samarali foydalanishda quyidagi tadbirlarga e’tibor berish kerak:

- qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida foydalaniladigan aylanma fondlardan tejamkorlik bilan samarali foydalanish;
- aylanma fondlarni sotib olish tartibini takomillashtirish;
- aylanma fondlarning optimal tarkibini ta’minlash;
- aylanma fondlarning aylanish davrini qisqartirish;
- qishloq xo‘jaligida yetarli darajada mineral o‘g‘itlardan foydalanish;
- mamlakatimiz mintaqalarida urug‘chilikni yanada rivojlantirish;
- debitorlik qarzlari ko‘payishining oldini olish;
- mehnatni tashkil qilishni takomillashtirish va rag‘batlantirish tizimini rivojlantirish.

Yuqoridagi tadbirlarga e’tibor berish kelajakda qishloq xo‘jaligidagi asosiy va aylanma fondlardan yil davomida samarali foydalanilishini ta’minlaydi.

Qisqacha xulosalar

Qishloq xo‘jaligining ishlab chiqarish fondlari bilan ta’minlanishini yaxshilashda, jonli mehnat sarflari tejalishida, ekinlar hosildorligi, chorva hayvonlari mahsuldorligi oshishida, mahsulotlar sifati yaxshilashda asosiy va aylanma vositalar muhim ahamiyatga ega.

Asosiy va aylanma fondlardan foydalanish darajasini va ularning iqtisodiy samaradorligi holatini aniqlashda tegishli ko‘rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Hozirgi davrda asosiy va aylanma fondlardan foydalanish holati, samaradorligini oshirishga va qishloq xo‘jalik korxonalarining ular bilan ta’minlanganlik darajasini oshirishga alohida e’tibor berilmoqda. Ulardan foydalanish holatini va samaradorligini oshirish uchun xo‘jaliklarni bunday vositalar bilan to‘liq va mutanosib ravishda ta’minlash, asosiy fondlarning ishga yaroqliligini oshirish, ulardan yil davomida oqilona foydalanishga erishish, aylanma

fondlardan tejab foydalanish, ularni sotib olish usullarini takomillashtirish, ulardan unumli foydalanish, moddiy rag‘batlantirishni takomillashtirish zarur.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Asosiy va aylanma fondlar deganda nimani tushunasiz?
2. Asosiy va aylanma fondlarning qishloq xo‘jaligidagi ahamiyati qanday?
3. Asosiy va aylanma fondlar qanday turkumlanadi?
4. Asosiy va aylanma fondlarni barpo etishning qanday manbalarini bilasiz?
5. Ishlab chiqarish vositalari bozori deganda nimani tushunasiz?
6. Asosiy va aylanma fondlardan foydalanish darajasini, samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar, ularni aniqlash tartibini tushuntirib bering.
7. Asosiy vositalarning eskirish summasi qanday aniqlanadi?
8. Asosiy va aylanma fondlardan to‘liq va samarali foydalanish uchun qanday masalalarga e’tibor berish kerak?

BOB YUZASIDAN AMALIY TOPSHIRIQLAR:

1-topshiriq:

“Venn diagrammasi” usulidan foydalanib qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida asosiy va aylanma vositalarning bir-biriga o‘xshash umumiy jihatlari va bir-biriga o‘xshamaydigan jihatlarini ifodalash.



Bunda X – asosiy vositalarning o‘ziga xos xususiyatlari, Y – aylanma vositalarning o‘ziga xos jihatlari, XY – asosiy va aylanma vositalarning umumiy, o‘zshash jihatlari. Mazkur usul talabalarning

mavzu bo‘yicha bilimlarni egallash jarayonidagi faolligini oshiradi, mavzuni tushuntirishning ko‘rgazmaliligi ortadi.

2-topshiriq:

“Baliq skeleti” usuli yordamida “Qishloq xo‘jaligida asosiy va aylanma fondlarning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?” savoliga javob berish.



3-topshiriq:

Klaster usuli yordamida qishloq xo‘jaligidagi asosiy fondlarning tarkibini ko‘rsatib bering.



4-topshiriq:

Zinama-zina usuli yordamida aylanma fondlarning tarkibini ko‘rsatib berish. Bunda guruh talabalari 3 ta kichik guruhlarga bo‘linadi va har bir guruhga aylanma fondlarning bitta tarkibini yoritib berish vazifasi beriladi. Kichik guruhlar alohida ishlab, o‘zlariga berilgan vazifaning

javobini qog‘ozga yozishadi va kichik guruhdan bir kishi chiqib uni taqdimot qiladi hamda shu tariqa barcha guruhlar ketma-ketlikda taqdimot qiladilar. Bunda guruhlar tomonidan qog‘ozlarga yozib tayyorlangan javoblar mos ketma-ketlikda doskaga joylashtirib boriladi. Natijada qishloq xo’jaligi tarmog’ining aylanma fondlari tarkibi to’liq yoritib beriladi.

Ishlab chiqarish zahiralari
Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari
Muomaladagi mablag‘lar

5-topshiriq:

Quyidagi ma’lumotlardan foydalanib:

- xo‘jalikning asosiy fondlar bilan ta’minlanganlik darajasi;
- asosiy fondlar o‘sish koeffitsiyentini
- asosiy fondlar eskirish koeffitsiyentini;
- asosiy fondlar hisobdan chiqish koeffitsiyentini;
- asosiy fondlar yangillanish koeffitsiyentini yillar bo‘yicha aniqlab tahlil yozing.

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	2019-yil	2020-yil
Xo‘jalikning jami yer maydoni	gektar	134	134
Asosiy fondlarning yil boshiga qiymati	mln.so‘m	210	190
Yil davomida hisobdan chiqarilgan asosiy fondlar	mln.so‘m	16	21
Yil davomida ishga tushirilgan asosiy fondlar	mln.so‘m	18	36
Yil oxiriga asosiy fondlar qiymati	mln.so‘m	212	205
Asosiy fondlar eskirish summasi	mln.so‘m	22	19

6-topshiriq:

Quyidagi ma’lumotlardan foydalanib fond qaytimi va fond sig‘imini tahlil etib, xulosa yozing.

Ko‘rsatkichlar	2019-yil	2020-yil	Farqi (+/-)	O‘sish sur’ati, %
Yalpi mahsulot hajmi, mln. so‘m	875,4	1086,5		
Asosiy ishlab chiqarish fondlarini o‘rtacha yillik qiymati, mln. so‘m	350,8	410,0		
Fond qaytimi				
Fond sig‘imi				

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Qishloq xo‘jaligida asosiy fondlar va ularning turkumlanishi.
2. Qishloq xo‘jaligida aylanma fondlar va ularning turkumlanishi.
3. Qishloq xo‘jaligida asosiy va aylanma fondlarning shakllanish manbalari.
4. Qishloq xo‘jaligida asosiy fondlardan foydalanish holati va samaradorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar.
5. Qishloq xo‘jaligida aylanma fondlardan foydalanish holati va samaradorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar.
6. Qishloq xo‘jaligida asosiy va aylanma fondlardan foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llari.

10-BOB: QISHLOQ XO‘JALIGIDA INVESTITSIYALAR VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

1. Qishloq xo‘jaligida investitsiyaning mohiyati va ahamiyati.
2. Qishloq xo‘jaligiga investitsiyalarni jalb etish yo‘llari.
3. Investitsiyalardan foydalanish samaradorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi.
4. Qishloq xo‘jaligiga investitsiyalarni jalb etish ko‘lamini va samaradorligini oshirish yo‘llari.

Tayanch iboralar: investitsiya, investitsiya muhiti, kapital qo‘yilma, qishloq xo‘jaligida investitsiya manbalari, investitsiya samaradorligi.

1. Qishloq xo‘jaligida investitsiyaning mohiyati va ahamiyati.

Barcha tarmoqlarda bo‘lgani singari qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida ham biror yo‘nalishdagi tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yishda investitsiyalar muhim ahamiyatga ega. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun avvalo turli xarajatlarni amalga oshirish, ya’ni investitsiya mablag‘larini sarflash talab etiladi.

“Investitsiya” atamasi lotincha “invest” so‘zidan olingan bo‘lib, “pul sarf qilmoq”, “pul qo‘ymoq” kabi ma’nolarni anglatadi. Investitsiya faoliyati subyektlari investitsiya loyihalarining barcha qatnashchilari: investorlar, investitsiya faoliyati obyektlaridan foydalanuvchilar, banklar, sug‘urta kompaniyalari, vositachi tashkilotlar, investitsiya fondlari va boshqalar hisoblanadi.

Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish vositalariga sarflanadigan barcha mablag‘lar investitsiyalar deb ataladi. Ular qishloq xo‘jaligi korxonalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlaydi va ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish, kimyolashtirish, elektrlashtirish, avtomatlashtirish natijasida mehnat unumdorligi oshadi, xarajatlar esa tejaladi. Natijada yetishtiriladigan mahsulotlar hajmi ko‘payadi va sifati yaxshilanadi, olinadigan foyda summasi oshadi. Bu investitsiyalarni amalga oshirishning tub maqsadidir.

Shularni e’tiborga olgan holda respublikada barqaror investitsion siyosat ishlab chiqilgan. U O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi va “Chet el investitsiyalari to‘g‘risida”gi Qonunlari hamda boshqa me’yoriy hujjatlar asosida amalga oshirilmoqda.

Barcha sohalar singari qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda ham investitsiyalarning ahamiyati juda katta. Chunki tarmoqni ustuvor shaklda rivojlantirish uchun uning moddiy-texnika bazasini mustahkam ravishda barpo etish zarur. Buning uchun uni zamonaviy bino-inshootlar, barcha turdagi zarur texnikalar, qishloq xo‘jalik mexanizmlari, ichki irrigatsiya va melioratsiya inshootlari, serunum, tezpishar navlar, mahsuldor chorva mollari zotlari hamda aylanma vositalar va boshqa ishlab chiqarish vositalari bilan ta’minlash lozim.

Hozirgi davrda investitsion mablag‘lar yangi, samarali texnologiyaga hamda intellektual mulkni barpo etishga sarflanishi maqsadga muvofiqdir. Bu masalaning to‘g‘ri, samarali hal etilishi ma’lum miqdordagi investitsiyalar sarflanishini obyektiv ravishda talab etadi. Demak, investitsiya mablag‘lari tarmoqda doimiy va o‘zgaruvchan kapitalni hamda intellektni barpo etish va ularni rivojlantirish hamda yuksaltirish uchun sarflanadi. U uzoq hamda qisqa muddatlarga mo‘ljallab sarflanishi mumkin. Qishloq xo‘jaligining asosiy vositalarini sotib olishga, qurishga hamda ularni kapital ta’mirlashga sarflansa, unda bu sarflar uzoq muddatga mo‘ljallangan bo‘ladi. U asosiy kapitalga sarflangan investitsiyalar deb ataladi. Shu bilan birgalikda investitsiyalar qishloq xo‘jaligining aylanma vositalariga ham sarflanadi, ular odatda qisqa muddatga sarflanadi. Demak, investitsiyalar natijasida qishloq xo‘jaligining ishlab chiqarish vositalari barpo etilib, ularning ishga yaroqliligi tubdan yaxshilanadi.

Investitsiyalar maqsad va vazifalariga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

- kapital investitsiyalar;
- innovatsion investitsiyalar;
- ijtimoiy investitsiyalar.

Asosiy va aylanma fondlarni barpo etishga va ularni takror ishlab chiqarishga, shuningdek, moddiy ishlab chiqarishning barcha shakllarini rivojlantirishga sarflangan investitsiyalar kapital investitsiyalar deb ataladi.

Texnika va texnologiyalarning yangi avlodini yaratish, mavjudlarini takomillashtirish va ularni o‘zlashtirishga sarflangan investitsiyalar innovatsion investitsiyalardir.

Inson salohiyatini, malakasini va ishlab chiqarish tajribasini oshirishga, shuningdek, nomoddiy ne’matlarning boshqa shakllarini rivojlantirishga sarflanadigan mablag‘lar ijtimoiy investitsiyalar deb ataladi.

Investitsiyalarni real va moliyaviy investitsiyalarga ham bo‘lish mumkin. Moddiylashgan asosiy va aylanma vositalarga sarflangan mablag‘lar real investitsiyalarni tashkil etadi. Real investitsiyalar kapital qo‘yilmalar deb ham ataladi. Kapital qo‘yilmalar yalpi va sof kapital qo‘yilmalarga bo‘linadi. Real investitsiyalarning umumiy summasi yalpi kapital qo‘yilmalarni tashkil etadi. Real investitsiyalarni sarflash natijasida ishga tushirilgan qismi sof kapital qo‘yilmalardir. Sof kapital qo‘yilma yalpi kapital qo‘yilma summasiga teng yoki kam bo‘lishi mumkin. Qishloq xo‘jaligi, jumladan, korxonalar miqyosida yalpi kapital qo‘yilmani sof kapital qo‘yilmaga aylantirishga alohida e’tibor berilishi lozim. Sarflanayotgan real investitsiyalar moddiylashtirilishini, ya’ni ishga tushirilishini ta’minlash zarur.

Qimmatli qog‘ozlarni (aksiya, obligatsiya, sertifikat va hokazo) shakllantirishga sarflangan mablag‘lar esa moliyaviy investitsiyalar hisoblanadi.

Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida moliyaviy investitsiyalar ko‘lamini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, fermer xo‘jaliklari, agrofirmalarda qimmatli qog‘ozlar chiqarib, sotilishini yo‘lga qo‘yish lozim.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsion siyosatni shakllantirishda quyidagilarga alohida e’tibor berish kerak:

- tender asosida raqobatbardosh loyihalarni tanlash. Bu qishloq xo‘jaligida investitsion loyihalar bozori barpo etilishini ta’minlaydi;
- qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan investitsiyalarning iqtisodiy jihatdan asoslanganligi. Qishloq xo‘jaligi tabiiy-iqtisodiy omillarining xususiyatlarini hisobga olgan holda loyihalarning iqtisodiy-ijtimoiy natijalari aniqlangan bo‘lishi zarur. Chunki, ayrim hollarda loyihada belgilangan mablag‘lar ko‘zda tutilgan tadbirlarni bajarish uchun yetmaydi va oqibatda ko‘zlangan maqsadga erishilmaydi. Bu hol investitsion loyihalar uzoq muddatga cho‘zilishiga olib keladi;
- chet el investorlarini va ularning investitsiyalarini qishloq xo‘jaligiga jalb etish. Buning uchun xorijlik tadbirkorlarni mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida mavjud ishlab chiqarish imkoniyatlar va ular uchun yaratilgan imkoniyatlar bilan tanishtirish, reklamani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish hamda investitsion muhitni yanada yaxshilab borish lozim va boshqalar.

Barcha omillarni e’tiborga olgan holda sarflanadigan investitsiyalar qishloq xo‘jaligining mustahkam moddiy-texnika bazasini barpo etadi, qishloq xo‘jaligi zamonaviy mashinalar, traktorlar,

kombaynlar, bino-inshootlar bilan ta’minlanadi, bog‘lar, uzumzorlar barpo etiladi, chorva hayvonlarining mahsuldor zotlari yaratiladi va hokazo. Ular yangi ish o‘rinlari barpo etilishini ham ta’minlaydi, qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan tadbirkorlarning bilimlarini, malakalarini yuksaltiradi, bozor munosabatlarini shakllantiradi. Ularning uyg‘unlashishi natijasida tarmoqda yetishtiriladigan mahsulotlar hajmi ko‘payib, raqobatbardoshligi oshadi. Bu, o‘z navbatida, aholi va qayta ishlash tarmoqlarining talabi qondirilishini ta’minlaydi, fuqarolarning turmush darajasini yuksaltiradi. Bularning hammasi investitsiyalarning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati katta ekanligidan dalolat beradi.

Investitsiyalarning mamlakat iqtisodiyoti va qishloq xo‘jaligidagi ahamiyati ulkan.

Birinchidan, investitsiyalar jami xarajatlarning asosiy qismi hisoblanadi. Investitsiyalardagi o‘zgarishlar jami talabga yetarlicha ta’sir ko‘rsatadi, shuningdek aholining bandligi va yalpi milliy daromad hajmining ham o‘zgarishini ta’minlaydi.

Ikkinchidan, investitsiyalar korxonaning asosiy fondlari jamg‘arilishiga, ya’ni ko‘payishiga olib keladi. Bunda ishlab chiqarish kuchlarini kengaytirishga sarf qilingan pul mablag‘lari boshlang‘ich bosqichda korxona faoliyati natijalariga ta’sir etmasligi mumkin, lekin kelajakda iqtisodiy o‘sish uchun zarur bazani yaratadi.

Uchinchidan, investitsiyalarning noratsional sarf qilinishi ishlab chiqarish resurslari, xarajatlar o‘sishiga olib keladi, natijada yalpi milliy daromad qisqaradi. Misol uchun, tugallanmagan qurilishning ko‘payishi, moddiy resurslar sarfi oshishi, to‘lanadigan ish haqining ko‘payishi hamda ishlab chiqarishning qisqarishi shular jumlasidandir. Ular sarflanayotgan investitsiyalarning qiymati o‘sishiga hamda samaradorligi pasayishiga ta’sir etadi.

Investitsiyalarning miqdori, dinamikasi va samaradorligi quyidagi omillarga bog‘liq:

- investitsiya amalga oshirilayotgan loyihaga;
- mamlakatdagi va korxona faoliyatidagi iqtisodiy o‘zgarishlarga;
- davlatning soliq siyosati va banklarning foiz stavkasiga;
- tashqi savdo bo‘yicha yuritilayotgan siyosatga;
- valyuta kursi o‘zgarishiga;
- mamlakatning siyosiy hayotidagi barqarorlikka.

Investitsiyalar qishloq xo‘jaligining har tomonlama rivojlanishiga ko‘maklashadi, chunki ularning evaziga tarmoqning moddiy-texnika

bazasi mustahkamlanadi. Ulardan to‘liq va samarali foydalanish natijasida jonli mehnat xarajatlari qisqarib, mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi ko‘payadi, sifati yaxshilanadi. Bu hol qishloq xo‘jalik mahsulotlariga bo‘lgan talab yanada yaxshiroq qondirilishini ta’minlaydi. Shu bilan birgalikda sof foyda summasi ko‘payadi. Natijada qishloq xo‘jaligini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish asosida rivojlantirish imkoniyati paydo bo‘ladi, aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli yanada yuksaladi. Bular investitsiyalarning ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligi mavjudligidan dalolat beradi.

2. Qishloq xo‘jaligiga investitsiyalarni jalb etish yo‘llari.

Qishloq xo‘jaligining barqaror rivojlanishi tarmoqda mavjud bo‘lgan ishlab chiqarish vositalari oqilona tarzda takror ishlab chiqarilishini talab etadi. Bu jarayon ishlab chiqarish vositalarini sotib olish, ta’mirlash, qurish, innovatsion hamda ijtimoiy munosabatlar yig‘indisidan tashkil topadi.

Barcha investitsiyalar quyidagi yirik ikkita manbadan shakllantirilib, amalga oshiriladi:

- korxonaning o‘z mablag‘lari hisobidan;
- chetdan jalb qilingan mablag‘lar orqali.

Korxonaning investitsiyalarni shakllantirishda qo‘llaniladigan o‘z mablag‘lariga quyidagilar kiradi:

- korxonaning sof foydasidan ajratilayotgan mablag‘lar;
- amortizatsiya fondidagi mablag‘lar;
- asosiy vositalarni tugatishdan, sotishdan kelib tushgan mablag‘lar;
- asosiy vositalarni ijaraga berishdan tushgan mablag‘lar;
- qishloq xo‘jalik korxonalarining boshqa korxonalar qimmatli qog‘ozlarini sotib olishi natijasida oladigan dividendlardan ajratilayotgan mablag‘lar va boshqa shu kabilar.

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida ishlab chiqarish jarayonining mavsumiyligi mazkur tarmoqda faoliyat yurituvchi tadbirkorlarning investitsion imkoniyatlarini cheklab qo‘yadi. Tarmoqda ishlab chiqarish vositalari sifatida tirik organizmlarning ishtirok etishi, mahsulot ishlab chiqarish jarayonida ularning ma’lum vegetatsiya davrini o‘tishi lozomligi ishlab chiqarish jarayonining uzoq davom etishiga olib keladi. Masalan, kuzgi bug‘doy oktabr oyida ekiladi va kelgusi yilning may oyida tayyor mahsulot olinadi, ya’ni 7-8 oy o‘tgachgina tayyor mahsulot olinadi. Bunday holatda tarmoqda faoliyat yurituvchi tadbirkorlarning

uzoq muddat davomida investitsiyani amalga oshirish uchun mablag‘lari yetishmaydi.

Investitsiyalarni shakllantirishda chetdan jalb qilinadigan mablag‘larga quyidagilar kiradi:

- qishloq xo‘jaligi uchun davlat budjetidan ajratiladigan mablag‘lar;
- tijorat banklaridan olinadigan kreditlar;
- hamkorlardan olinadigan mablag‘lar;
- qimmatli qog‘ozlar chiqarib sotish orqali jalb etiladigan mahalliy va xorijiy korxonalar hamda fuqarolarning bo‘sh turgan mablag‘lari;
- xayriya fondlaridan, homiylar tomonidan ajratilayotgan mablag‘lar va boshqalar.

Chetdan jalb qilingan mablag‘lar orasida bank kreditlari alohida o‘rin tutadi. Ular ishlab chiqarish faoliyati natijalaridan qat’i nazar, alohida korxonalar ehtiyojlarini hisobga olgan holda investitsiyalarni amalga oshirishga imkon beradi. Bank kreditlari korxona o‘z mablag‘larining investitsiya uchun kerakli miqdorini yig‘masdan turib investitsiya jarayonini tezlashtiradi. Kreditlar investitsiya manbai sifatida nafaqat kapital qurilishda, balki yangi texnikani joriy qilishda ham ishlatiladi. Investitsiyalarning asosiy vazifasi – tarmoq mahsulotini ko‘paytirish va ishlab chiqarish samaradorligining o‘sish sur’atlari tezlashtirilishini ta’minlashdir.

Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligiga kiritilgan investitsiyalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar 10.1-jadvalda keltirilgan.

10.1-jadval

Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligiga kiritilgan investitsiyalar (mlrd. so‘m)

	2016	2017	2018	2019
Jami	4795,3	6110,6	7991,9	12199,1
Shu jumladan:				
respublika budjeti mablag‘lari	565,7	553,4	911,1	1935,6
korxona va tashkilotlar mablag‘lari	510,0	905,5	1768,8	1132,9
tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari	371,2	715,6	2328,1	2034,1

xorijiy investitsiya va kreditlar	171,8	189,8	1064,4	5050,6
boshqa moliyalashtirish manbalari	3176,6	3746,3	1919,5	2045,9

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligiga kiritilgan investitsiyalarning tarkibida moliyalashtirish manbalarining salmog‘i to‘g‘risidagi ma’lumotlar 10.2-jadvalda keltirilgan.

10.2-jadval

Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligiga kiritilgan investitsiyalarning tarkibida moliyalashtirish manbalarining salmog‘i (foizda)

	2016	2017	2018	2019
Jami	100,0	100,0	100,0	100,0
Shu jumladan:				
respublika budjeti mablag‘lari	11,8	9,1	11,4	15,9
korxona va tashkilotlar mablag‘lari	10,6	14,8	22,2	9,3
tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari	7,7	11,7	29,1	16,7
xorijiy investitsiya va kreditlar	3,6	3,1	13,3	41,4
boshqa moliyalashtirish manbalari	66,3	61,3	24,0	16,7

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligiga kiritilgan investitsiyalarning tarkibida korxona va tashkilotlarning mablag‘lari 2018-yildagi 22,2 foizdan 2019-yilda 9,3 foizga tushgan, tarmoqqa jalb etilgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi esa keskin oshgan, ya’ni 2018-yildagi 13,3 foizdan 2019-yilda 41,4 foizga yetgan.

Yuqori rentabellik darajasiga ega korxonalar ishlab chiqarish vositalarini yangilash maqsadida kapital qo‘yilmalarni amalga oshirishda ko‘proq imkoniyatga ega bo‘ladi.

Shuni ham aytib o‘tish kerakki, investitsiya qilishda korxona imkoni boricha o‘z mablag‘laridan foydalanishi ikkita ustunlikka olib keladi: korxonada tashqi qarzlar mavjud bo‘lmaydi (olingan kreditlar

bo‘yicha foiz, ijara haqi va hokazo), shuningdek, korxonani boshqarishda mustahkam pozitsiyani shakllantiradi.

Ayni paytda xo‘jaliklarga chetdan jalb qilinadigan mablag‘larning manbalaridan biri xo‘jalik a’zolarining vaqtincha bo‘sh turgan mablag‘larini jalb etish hisoblanadi. Bunday investitsiyani amalga oshirish uchun korxona o‘z ichida qisqa muddatli obligatsiyalarni chiqarib, ularni a’zolariga ishonchli tarzda tarqatishi (sotishi) yoki huquqiy kuchga ega bo‘lgan ishonchli dalolatnomalarni ham berishi mumkin. Xo‘jalik a’zolari esa muomalaga berilgan mablag‘larini ma’lum muddat o‘tgandan so‘ng belgilangan foizi bilan qaytarib olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu turdagi investitsiya imkoniyatlaridan qishloq xo‘jaligi korxonalarida unumli foydalanish kerak.

Xorijiy investitsiyalar chet mamlakatlardagi yuridik va jismoniy shaxslarning mablag‘laridan tashkil topadi. Chet ellik investorlar tomonidan foyda olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida ta’qiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat obyektlariga qo‘shadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlar, shu jumladan, intellektual mulkka doir huquqlar respublika hududida chet el investitsiyalari hisoblanadi. Ular O‘zbekiston Respublikasi hududida quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi:

- respublika qishloq xo‘jaligidagi yuridik hamda jismoniy shaxslarning Nizom jamg‘armalarida va boshqa mol-mulkida ulush qo‘shib qatnashish;
- tarmoqda chet ellik investorgarga to‘liq qarashli bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari va shirkatlari, bank, sug‘urta va boshqa korxonalarni barpo etish va rivojlantirish;
- mol-mulk, aksiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlarni, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan emissiya qilingan qarz mablag‘larini sotib olish;
- intellektual mullka, shu jumladan, mualliflik huquqlari, patentlar, firma nomlari va nou-xaularga, shuningdek, ishchanlik nufuziga (gudvillga) huquqlar kiritish va boshqalar.

Ularni chet davlatlar yoki bu davlatlarning quyidagi hududiy organlari amalga oshiradilar:

- davlatlararo bitimlar yoki boshqa shartnomalarga muvofiq tashkil topgan yoki xalqaro ommaviy huquq subyektlari bo‘lgan xalqaro tashkilotlar;

- chet davlatlarning qonun hujjatlariga muvofiq tashkil topgan va faoliyat ko‘rsatib kelayotgan yuridik shaxslar, shirkatlar, uyushma va tashkilotlar;
- chet el fuqarolari bo‘lmish jismoniy shaxslar va boshqalar.

Hozirgi davrda mamlakat qishloq xo‘jaligini boshqarishni takomillashtirishga va ishlab chiqarishini rivojlantirishga Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot bankining respublikamizdagi bo‘limlari hamda AQSh, Germaniya, Isroil, Gollandiya, Fransiya va boshqa davlatlarning vakolatxonalari investitsiyalarni joylashtirish, sarflash orqali muayyan darajada hissa qo‘shish ishlari bilan shug‘ullanmoqda. Lekin ularning investitsiyalari mavjud imkoniyatlar darajasidan ancha pastdir. Shuning uchun bu masalaga, ya’ni chet el investitsiyalarini jalb etish muammosiga kelajakda alohida e’tibor berish maqsadga muvofiqdir.

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘iga jalb etilgan xorijiy investitsiyaga misol tariqasida 2020-yil 11-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki hamda Xalqaro taraqqiyot uyushmasi ishtirokida “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4803-sonli qarori asosida jalb etilgan invstitsiyani keltirishimiz mumkin. Umumiy qiymati 659,3 mln. AQSh dollariga teng bo‘lgan ushbu loyiha 6 yilga (2020-2026-yillar) mo‘ljallangan. Loyiha doirasida Jahon banki tomonidan 30 yil muddatga quyidagi shartlar asosida 500 mln. AQSh dollar ajratilmoqda:

- 10 yillik imtiyozli davr bilan Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan 181 mln. AQSh dollari miqdoridagi qarz;
- 10 yillik imtiyozli davr bilan Xalqaro taraqqiyot uyushmasining 100 mln. AQSh dollari miqdoridagi kredit;
- 5 yillik imtiyozli davr bilan Xalqaro taraqqiyot uyushmasining 219 mln. AQSh dollari miqdoridagi imtiyozli kredit.

Loyihada O‘zbekistonning ulushi 159,3 mln. AQSh dollarini tashkil etadi, shu jumladan:

- soliq va bojxona to‘lovlari bo‘yicha imtiyozlar berish, investitsiya davrida moliyaviy xarajatlarni to‘lash shaklidagi ulush – 124,3 mln. AQSh dollarini;
- loyiha ishtirokchilarining ulushi esa 35 mln. AQSh dollari ekvivalentini tashkil etadi.

Qarorda Jahon banki tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihaning ustuvor yo‘nalishlari, etib quyidagilar belgilangan:

-qishloq o‘jaligida ilmiy-tadqiqot, ta’lim va maslahat xizmatlarining ishlab chiqarish bilan integratsiyalashgan samarali tizimini yaratish;
- qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish, statistik ma’lumotlarni to‘plash, tahlil qilish va tarqatishning ishonchli va shaffof usullarini joriy etish;
- oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirishda “daladan iste’molgacha” tamoyili asosida sifat nazoratini kuchaytirish, agrologistika, yo‘l va boshqa zarur infratuzilmani yaratish;
- eksportni rag‘batlantirish, xalqaro bozorlarda raqobatbardosh, eksportbop yuqori qo‘shilgan qiymatli qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish borasida qulay agrobiznes muhitini va qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish;
- qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘ini diversifikatsiyalash, sohada davlat ishtirokini kamaytirish, kooperatsiya tizimini rivojlantirish, hamda sohaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish;
- yer va suv resurslari, o‘rmon fondidan oqilona foydalanish;
-sohaga boshqaruvning zamonaviy tizimlarini joriy etish, xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish.

Qishloq xo‘jaligiga jalb etilayotgan investitsiyalarni boshqa tarmoqlar bilan taqqoslaganda ularning salmog‘i past darajani tashkil etadi. Shuni inobatga olgan mamlakatimiz hukumati tomonidan mazkur tarmoqqa jalb etiladigan investitsiyalar hajmini oshirishga alohida e’tibor berilmoqda. Bunda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan shug‘ullanuvchilarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, issiqxonalar tashkil etish, sug‘orishning zamonaviy tejamkor usullarini joriy etish, qishloqlarning qiyofasini zamonaviylashtirish, qishloq infratuzilmasini rivojlantirish va boshqa shu kabi maqsadlarga katta miqdordagi mablag‘lar sarflanmoqda va kelgusida ham bu jarayon davom etadi.

3. Investitsiyalardan foydalanish samaradorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi.

Qishloq xo‘jaligiga investitsiyalarni sarflashdan maqsad – tarmoqda ishlab chiqarishni rivojlantirish, qo‘shimcha foyda olish va fuqarolarning yashash sharoitini yaxshilashdir. Ularning darajasini loyihalar tuzishda hamda bu loyihalarni amalga oshirishda aniqlash mumkin. Buning uchun investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi aniqlanadi. Iqtisodiy samaradorlik xarajatlar bilan foyda summalari taqqoslanishi natijasida aniqlanadi.

Investitsiyalardan foydalanish samaradorligiga baho berishda quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalaniladi:

a) investitsiyalarning mutlaq iqtisodiy samaradorligi koeffitsiyenti. Uning darajasi sarflangan investitsiyalar natijasida yalpi ichki mahsulotning o‘sgan summasini shu o‘sishni ta’minlagan investitsiya summasiga nisbati bilan aniqlanadi. Bunda quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$Si = \frac{YaMo'}{Is} = \frac{YaDo'}{Is}$$

Bunda: *Si* – investitsiyalarning mutlaq iqtisodiy samaradorlik koeffitsiyenti;

YaMo‘ – ma’lum bir davr ichida yalpi mahsulotning o‘sgan summasi, so‘mda. Bunda qishloq xo‘jaligida yalpi daromadning o‘sgan summasi ham olinishi mumkin;

Is – sarflangan investitsiya summasi.

Bu ko‘rsatkich sarflangan 1 so‘mlik investitsiya mablag‘i evaziga necha so‘mlik yalpi ichki mahsulot yoki yalpi daromad olinganligini ifodalaydi. Uning mutlaq miqdori imkoni boricha yuqori bo‘lishi maqsadga muvofiq. Shunda investitsiyalarning mutlaq iqtisodiy samaradorlik darajasi yuqori bo‘ladi. Kam bo‘lsa, u iqtisodiy samaradorlik darajasi past bo‘lganligidan dalolat beradi, bunday holda investitsiyalarni sarflash maqsadga muvofiq hisoblanmaydi.

Investitsiyalar aksariyat hollarda uzoq muddatga mo‘ljallangan xarajatlardir. Shuning uchun ularning bir necha yillar davomidagi iqtisodiy samaradorligini aniqashda qiyosiy baholardan foydalanish lozim. Bunda inflyatsiya darajasi hisobga olinadi.

b) sarflangan investitsiyaning samaradorligi. Uni aniqlash uchun investitsiya sarflanishi natijasida sof foydaning o‘sgan summasini shu o‘sishni ta’minlagan investitsiya summasiga taqsimlanadi. Bunda quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$Si = \frac{SFo'}{O'TIS}$$

Bunda: *SFo‘* – investitsiyani amalga oshirish natijasida sof foydaning o‘sgan summasi;

O‘TIS - foydaning o‘sishini ta’minlagan investitsiya summasi.

Bu ko‘rsatkich yordamida sarflangan bir so‘mlik investitsiya necha so‘mlik yoki tiyinlik foyda keltirilganligi aniqlanadi. Shuning

uchun bu ko‘rsatkichning mutlaq miqdori yuqori bo‘lgani maqsadga muvofiqdir.

d) investitsiya sarflanishi natijasida xarajatlarning tejalishi. Qishloq xo‘jaligida sarflangan investitsiyalar ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish orqali mahsulot yetishtirish uchun qilingan o‘rtacha xarajatlar (mahsulot tannarxi)ni kamaytirishda ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu holatga baho berishda ularning iqtisodiy samaradorlik darajasi tejalgan mablag‘ qiymatini sarflangan investitsiya summasiga taqsimlab ham aniqlanadi. U quyidagi tenglik yordamida aniqlanishi mumkin:

$$Si = \frac{T_1 - T_2}{Is};$$

Bunda: T_1 – investitsiya sarflanishidan oldingi tannarx summasi, ming so‘mda;

T_2 – investitsiya sarflanganidan keyingi tannarx summasi, ming so‘mda.

Bu ko‘rsatkichning ham mutlaq darajasi yuqori bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

e) investitsiyaning qoplanish muddati. Bu ko‘rsatkich sarflangan investitsiya summasini olingan sof foydaning o‘sgan summasiga taqsimlash orqali aniqlanadi. Bunda quyidagi formulalardan foydalanish mumkin:

$$IQM = \frac{Is}{SFo'}$$

Investitsiyalarning qoplanish muddati imkon qadar qisqa bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

f) sarflangan investitsiyaning kelajakda keltiradigan foydasi. Bu ko‘rsatkich quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$F_k = S_o(1+i/100)^t$$

Bu yerda: F_k – investitsiyaning kelajakdagi foydasi;

S_o – boshlang‘ich summa;

i – inflyatsiya darajasi;

t – investitsiya muddati.

g) agrar sohaga sarflangan investitsiyalarning samaradorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlardan yana biri – agrar sohaga jalb qilingan 1 so‘mlik investitsiyaga to‘g‘ri keladigan qishloq xo‘jalik yalpi mahsuloti ko‘rsatkichidir. Ushbu ko‘rsatkichni aniqlash uchun qishloq xo‘jaligi

tarmog‘ida yaratilgan yalpi mahsulot hajmi ushbu tarmoqda sarflangan jami investitsiya summasiga taqsimlanadi:

$$Iym = \frac{YMqx}{Is};$$

Bunda: *Iym* – 1 so‘mlik investitsiyaga to‘g‘ri keluvchi qishloq xo‘jalik yalpi mahsuloti;

YMqx – qishloq xo‘jalik yalpi mahsuloti;

Is – tarmoqqa sarflangan investitsiya summasi.

Rivojlangan mamlakatlarda davlat narx siyosati orqali fermerlar daromadi barqarorligini qo‘llab-quvvatlaydi va shu orqali fermer xo‘jaligining investitsiya jamg‘armasini tashkil etuvchi daromadlarning minimal darajasini ta’minlashga harakat qilinadi. Ushbu mamlakatlar amaliyotida agrar sohadagi investitsiya faoliyatini boshqarishning ikkita zamonaviy modeli keng qo‘llanilmoqda: Amerika va Yevropa modellari. Agrar sohadagi investitsiya faoliyatini boshqarishning Amerika modeli AQSh va Kanada davlatlari uchun xos bo‘lib, ularda davlat budjeti mablag‘lari hisobidan qishloq xo‘jaligiga ajratiladigan assignatsiyalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri pul to‘lovi ko‘rinishida amalga oshiriladi. Bunda, ayniqsa, imtiyozli kreditlar, fermerlarga investitsiyalar uchun soliq imtiyozlari, kreditni qaytarish muddatlarini uzaytirish kabi usullardan samarali foydalaniladi. Soliq tizimidagi imtiyozlar qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmini oshirish, yerlarning mahsuldorligini oshiruvchi muhitni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

Ichki va tashqi bozorning qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirish eng dolzarb masaladir. Uni hal etish uchun investitsiyalarni sarflash zarur. Buning uchun esa siyosiy, mintaqaviy, iqtisodiy hamda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash darkor. Respublikada bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tish davrida yuqorida ta’kidlangan sharoitlar yaratilmoqda.

Qishloq xo‘jaligini yanada rivojlantirish uchun mazkur tarmoqqa sarflanadigan investitsiyalar hajmini oshirish lozim. Bunda o‘tkaziladigan turli ko‘rgazmalar ham muhim ahamiyatga ega. Bu borada ham mamlakatimiz hukumati tomonidan ko‘plab ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Toshkent shahrida “O‘zagroekspo” ko‘rgazmasi an’anaviy tarzda o‘tkazib kelinmoqda. Shu kabi ko‘rgazmalarda qishloq xo‘jaligi sohasida faoliyat yurituvchi subyektlar xorijlik tadbirkorlar bilan hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish va shu orqali sohaga investitsiyalar oqimini ko‘paytirish imkoniga ega bo‘lmoqdalar.

4. Qishloq xo‘jaligiga investitsiyalarni jalb etish ko‘lamini va samaradorligini oshirish yo‘llari.

Agrar sohaga jalb qilingan investitsiyalar samaradorligini oshirish qishloq infratuzilmasini rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va aholi turmush farovonligini oshirish imkonini beradi. Buning uchun agrar sohaga jalb qilinadigan investitsiyalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish talab etiladi. Mamlakatimizdagi va chet ellik iqtisodchi olimlar tomonidan agrar sohani investitsiyalash samaradorligini oshirish masalalari tadqiq qilingan. Agrar sohadagi investitsiyalarni moliyalashtirish mexanizmining ayrim nazariy va amaliy jihatlari iqtisodchi olimlarimizdan A.Vahabov, D.G‘ozibekov, S.Umarov, E.Shodmonovlarning ilmiy izlanishlarida tadqiq qilingan. A.Vahobov ilmiy tadqiqotlariga asoslangan holda, agrar sohani investitsiyalash jarayoni davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlanishi shart degan xulosaga kelgan. E.Shodmonov esa, qishloq xo‘jaligi korxonalari moliyaviy holatining beqarorligi, investitsion xarajatlarni moliyalashtirish manbalaridan foydalanish imkoniyatining cheklanganligi sharoitida lizing asosida investitsiyalarni moliyalashtirish amaliyotini kuchaytirish maqsadga muvofiqligini asoslab bergan. Xorijlik iqtisodchi olimlardan A.Yemelyanov agrar sohaga sarflangan investitsiyalar samaradorligiga salbiy ta’sir etuvchi asosiy omil sifatida baholar o‘rtasidagi nomutanosiblikni ko‘rsatadi. Uning fikriga ko‘ra, qishloq xo‘jalik mahsulotlari baholarining o‘sish sur’ati agrar soha ehtiyojlari uchun zarur bo‘lgan resurslar baholarining o‘sish sur’atidan sezilarli orqada qolayotganligi investitsiyalash uchun zarur bo‘lgan mablag‘larni jamg‘arish imkonini bermayapti.

Respublikamizdagi siyosiy-iqtisodiy barqarorlik qishloq xo‘jaligiga investitsiyalar jalb etilishiga imkoniyat bermoqda. Uning rivojlanishini ta’minlash maqsadida investitsion siyosatning huquqiy asoslari ham barpo etilgan. Ularning mavjudligi so‘nggi yillarda tarmoqqa ma’lum miqdorda investitsiyalar sarflanishini ta’minlamoqda.

So‘nggi yillarda respublika iqtisodiyotiga yo‘naltirilgan investitsiyalarning 3-4 foizi qishloq xo‘jaligiga sarflangan. Bu mavjud imkoniyatlarga nisbatan kam. Shuning uchun kelajakda bu investitsion holatni qishloq xo‘jaligi foydasiga o‘zgartirish maqsadga muvofiqdir. Xuddi shunday holatni xorijiy investitsiyalarni jalb etish jarayonida ham kuzatish mumkin. Chet el investitsiyalarini qishloq xo‘jaligiga jalb etish

bo‘yicha ham holat talab darajasida emas. Bu boradagi ishlarni jonlantirish va shu orqali qishloq joylarda zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar sonini ko‘paytirish maqsadga muvofiqdir. Bu orqali nafaqat mahsulot ishlab chiqarish hajmi ortadi, balki qishloq aholisini ish bilan ta’minlashga ham erishiladi.

Investitsiyalarni amalga oshirishda xo‘jaliklarning o‘zlari tomonidan sarflangan mablag‘lar ham muhim ahamiyatga ega. 2019-yilda ularning mablag‘lari hisobidan qishloq xo‘jaligiga sarflanayotgan investitsiyalarning 9,3 foizi amalga oshirilgan, vaholanki 2018-yilda ushbu ko‘rsatkich 22,2 foizni tashkil etgan edi. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarining investitsiyalarni amalga oshirish imkoniyatlarini oshirish lozim.

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida faoliyat yurituvchi tadbirkorlarning investitsion faolligiga salbiy ta’sir etayotgan omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish muhim ahamiyatga ega. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 6-oktabrdagi “Fermer xo‘jaliklari faoliyatini yuritishda yer uchastkalari miqdorini maqbullashtirish choralarini ko‘rish yuzasidan takliflar ishlab chiqish bo‘yicha maxsus komissiya tashkil etish to‘g‘risida”gi 3077-sonli farmoyishiga muvofiq fermer xo‘jaliklarining ekin maydonlari qayta ko‘rib chiqildi. Ushbu farmoyish asosida tashkil etilgan maxsus komissiyalar har bir fermer xo‘jaligini individual o‘rganib chiqib, yer uchastkalari miqdorini maqbullashtirish choralarini ko‘rish yuzasidan takliflar ishlab chiqishi nazarda tutilgan edi. Ya’ni, fermer xo‘jaligining mavjud imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda uning yer uchastkasini kengaytirish, o‘zgarishsiz qoldirish yoki kamaytirish bo‘yicha takliflar berishi lozim edi. Lekin, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etayotgan o‘sha paytda fermer xo‘jaliklarining yer uchastkalari miqdorini ko‘paytirish ularning iqtisodiy salohiyatini oshiradi degan fikrlar ilgari surildi. Shu sababli ushbu farmoyish bo‘yicha mamlakatimizdagi fermer xo‘jaliklari asosan yiriklashtirildi. Buning natijasida ko‘plab fermer xo‘jaliklaridan yer uchastkalari qaytarib olindi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 15-dekabrda “Fermer xo‘jaliklarini yuritish uchun berilgan yer uchastkalari maydonlarini maqbullashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 362-sonli hamda 2019-yil 9-yanvardagi “Fermer xo‘jaliklari va boshqa qishloq xo‘jaligi korxonalari yer maydonlarini maqbullashtirish hamda qishloq xo‘jaligi ekin yer maydonlaridan

samarali foydalanishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 14-sonli qarorlari ham qabul qilindi. Ushbu hukumat qarorlarining ijrosini ta’minlash jarayonida ham joylardagi ayrim mutasaddi rahbarlarning yo‘l qo‘ygan xatolari tufayli fermer xo‘jaliklaridan yer maydonlarining asossiz olib qo‘yilishi holatlari kuzatildi. Buning natijasida fermer xo‘jaliklari rahbarlarida o‘zlariga uzoq muddatga ijaraga berilgan yer uchastkalarining shartnomada ko‘rsatilgan muddat davomida daxlsiz bo‘lishiga ishonch susaydi. Bu esa fermerlar tomonidan o‘z faoliyatiga uzoq muddatli investitsiyalarni amalga oshirishga bo‘lgan ishtiyoqning pasayishiga olib keldi. Bundan ko‘rinadiki, bozor munosabatlarini yanada takomillashtirish qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida investitisiyalar ko‘lamining kengayishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Davlat budjetidan ham qishloq xo‘jaligini investitsiyalashga mablag‘lar sarflanmoqda. Bunda “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” davlat Dasturi, 2008-2012-yillarga mo‘ljallangan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash dasturi va boshqa shu kabi dasturlar shaklida budjetdan mablag‘lar ajratilmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat ahamiyatiga molik bo‘lgan yo‘nalishlarni rivojlantirishda davlat budjetidan ajratiladigan mablag‘larning ahamiyati katta. Masalan, hozirgi vaqtda respublikamiz bo‘yicha sug‘oriladigan yerlarning 45,3 foizi turli darajada turli darajada sho‘rlangan bo‘lib, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash uchun davlat budjetidan investitsiyalar ko‘lamini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Chunki, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash ko‘p miqdorda mablag‘lar sarflanishi talab etiladi va qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida faoliyat yuritayotgan fermer xo‘jaliklarida ushbu jarayonga investitsiyalarni amalga oshirish imkoniyatlari cheklangan.

Kelajakda qishloq xo‘jaligining moddiy-texnika bazasini talab darajasida barpo etish, mehnat resurslarining bilimlarini, malakalarini, tajribalarini oshirish uchun investitsiyalar sarflashni izchil davom ettirish lozim. Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun, avvalo, davlat hamda mahalliy budjetlardan ajratilayotgan investitsion mablag‘larni o‘z vaqtida o‘zlashtirishga erishish kerak. Shu bilan birga tarmoq, korxonalar iqtisodiyotini yuksaltirish orqali ularning faoliyatini kelajakda investitsiyalash uchun ko‘proq mablag‘ ajratilishini ta’minlashga alohida e’tibor berish maqsadga muvofiqdir. Bunda korxonalar ixtiyoridagi fondlarning mablag‘laridan ham oqilona

foydalanishga harakat qilish kerak. Chunki ular investitsiyalar ko‘lamini kengaytirishning real manbalari hisobanadi.

Qishloq xo‘jaligiga talabni qondiradigan darajada investitsiyalar sarflanishini kelajakda ishonchli ta’minlash uchun investitsiyalarni amalga oshiruvchi yuridik hamda jismoniy shaxslar ko‘lamini kengaytirish talab etiladi. Ular respublikamiz yoki chet davlatlardan bo‘lishi mumkin, ularni qishloq xo‘jaligidagi investitsion jarayonga faolroq jalb etishga alohida e’tibor berish lozim.

Ma’lumki, jahon andozalariga javob beradigan va dunyo bozorlarida xaridorgir mahsulot ishlab chiqarish uchun xorijiy investitsiyalarni, birinchi navbatda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha qulay shart-sharoitlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda esa erkin iqtisodiy zonalar yetakchi o‘ringa ega. Zero, bunday erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash, ilg‘or texnologiyalarni joriy qilish, eksport faoliyatini kengaytirish uchun qulay infratuzilma yaratish, transport va telekommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirishda ham ayni muddaodir. Shu boisdan bugungi kunda dunyoning aksariyat davlatlari, xususan Xitoy, AQSh, Fransiya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda hududiy-geografik va boshqa qulayliklardan kelib chiqqan holda, erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda jahonda 4000 dan ortiq erkin iqtisodiy zonalar faoliyat yuritmoqda. Bunday erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etishdan asosiy maqsad – mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el investitsiyasini, istiqbolli texnologiya hamda boshqaruv tajribasini jalb etish orqali uning sanoat salohiyatini, ishlab chiqarish, transport-tranzit va ijtimoiy sohani rivojlantirish barobarida, zamonaviy bozor infratuzilmalarini tashkil etishdan iboratdir.

Mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish va ular faoliyatiga doir munosabatlar esa 1996-yil 25-aprelda qabul qilingan “Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tartibga solinadi. Ushbu qonunga 2009-yil 23-sentabrda ayrim o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan. Mazkur qonunning “Erkin iqtisodiy zonani tuzish” deb nomlangan 3-moddasida erkin iqtisodiy zona O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tashkil etilishi, erkin iqtisodiy zonaning maqomi, shuningdek, uning qancha muddatga tashkil etilishi mazkur hujjat bilan belgilanishi, erkin iqtisodiy zonaning chegaralari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

tomonidan belgilanishi, erkin iqtisodiy zonaning faoliyat ko‘rsatish muddatini uzaytirish belgilangan muddat tugashidan kamida 3 yil oldin O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan amalga oshirilishi ko‘rsatib o‘tilgan. 4-moddaga binoan esa, erkin iqtisodiy zonaning maqomi uni tashkil etish to‘g‘risidagi qarorda belgilangan muddat tugaganda hamda unda nazarda tutilgan maqsad va vazifalar bajarilmaganda tugatilishi belgilangan. Ushbu qonunning 6-moddasiga muvofiq, erkin iqtisodiy zonalar mamlakatimizda erkin savdo zonalari, erkin ishlab chiqarish zonalari, erkin ilmiy-texnikaviy va boshqa zonalar tarzida tuziladi. Qonunning 7-moddasiga ko‘ra, erkin ishlab chiqarish zonalari – tadbirkorlikni rag‘batlantirish, iqtisodiyotning ustun tarmoqlariga chet el investitsiyalarini jalb etish, istiqbolli texnologiyalarni jalb etish maqsadida xo‘jalik-moliyaviy faoliyatning alohida tartiboti joriy etiladigan hududlar bo‘lib, u o‘z ichiga eksportga mo‘ljallangan ishlab chiqarish zonalarini, agropolislarni, tadbirkorlik zonalarini va boshqa erkin zonalarni qamrab oladi. Albatta, erkin ishlab chiqarish zonalarida iqtisodiyotning ustun tarmoqlariga chet el investitsiyalarini jalb qilish orqali istiqbolli texnologiyalar joriy etiladi, pirovardida mahalliy xomashyolar asosida eksportbop mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Mamlakatimizda ham erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etishga alohida e’tibor berilmoqda. 2019-yil holatiga mamlakatimizda 14 ta erkin iqtisodiy zona mavjud bo‘lib, ulardan ayrimlarining faoliyati ancha jadallashgan. Xususan, “Navoiy”, “Angren”, “Jizzax”, “Urgut”, “G‘ijduvon”, “Qo‘qon” va “Xazorasp” erkin iqtisodiy zonalarida umumiy qiymati 486 million AQSh dollariga teng 62 ta loyiha amaliyotga joriy etilib, 4600 dan ortiq ish o‘rinlari yaratilgan. Shuningdek, farmatsevtika sohasiga ixtisoslashgan 7 ta erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirish bo‘yicha ham chora-tadbirlar ko‘rilmoqda.

Investitsiyalarni amalga oshirishda banklarning ko‘lamini kengaytirishga erishish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun zarur barcha huquqiy, iqtisodiy shart-sharoitlar yaratib berilgan. Shu bilan birga qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan tuziladigan turli birlashmalar, jumladan agrofirmalar, kredit uyushmalari va boshqa shu kabilarning ham imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki, bir nechta fermer xo‘jaliklari birikib agrofirma tashkil etishi ularning investitsion imkoniyatlarini kengaytiradi.

Bundan tashqari, qishloq xo‘jaligini investitsiyalash jarayoniga turli xildagi banklarning, investitsiya, lizing va sug‘urta

kompaniyalarining, ishlab chiqarish konsernlarining, savdo va boshqa korxona hamda tashkilotlarning mablag‘larini jalb etish lozim. Buning uchun ularga davlat hamda qishloq xo‘jaligi tomonidan ma’lum darajada iqtisodiy imtiyozlar yaratilishi zarur. Shundagina ular o‘z mablag‘larini qishloq xo‘jaligiga yo‘naltirishi mumkin.

Mamlakatimiz hukumati tomonidan qishloq xo‘jaligiga investitsiyalarni jalb etishga alohida e’tibor berilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish, raqamlashtirish, yerning unumdorligini oshirish, zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish uchun 2021-yilda 600 million dollardan ziyod kredit va grant mablag‘lari jalb qilinishi ta’kidlandi.

Qishloq xo‘jaligiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda quyidagilarga e’tibor berish lozim:

- qishloq hududlarida investitsiya infratuzilmasini rivojlantirish – avtomobil va temir yo‘llari, uzluksiz elektr, gaz va suv ta’minoti, sifatli aloqa xizmati, banklar, sug‘urta kompaniyalari va boshqa shu kabilar faoliyatini rivojlantirish va investitsiya loyihalarini amalga oshirishda ularning ishtirokini samarali yo‘lga qo‘yish;
- qishloq xo‘jaligida faoliyat yurituvchi tadbirkorlarning biznes ko‘nikmalari, shu jumladan, investitsiya loyihalari bilan ishlash tajribasini shakllantirish va huquqiy bilimlarini oshirish – hududlarda konsalting, marketing va yuridik xizmat ko‘rsatuvchi markazlar tashkil etish va faoliyatini rivojlantirish;
- qishloq xo‘jaligida investitsiya takliflari va loyihalarining texnik-iqtisodiy asoslarini sifatli ishlab chiqishga e’tibor berish – tadbirkorlarga investitsiya loyihalarini ishlab chiqishda tijorat banklari, hududlardagi savdo-sanoat palatasi va boshqalar tomonidan amaliy yordam ko‘rsatilishini mahalliy hokimliklar tomonidan tashkil etish va doimiy nazoratga olish;
- xorijiy investorlarni mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi to‘g‘risida batafsil ma’lumotlar bilan ta’minlashni tashkil etish – xorijiy investorlarni to‘laqonli ravishda axborot (investitsiya loyihalari va biznes takliflar bazasi, turli bukletlar, hududiy matbuot nashrlari, xomashyo va mehnat salohiyati to‘g‘risidagi hamda yaratilgan imkoniyatlar haqidagi ma’lumotlar) bilan ta’minlash, maxsus veb-portal tashkil etish, shuningdek, investitsiya faoliyatiga oid konferensiyalar,

seminarlar va respublika hududida hamda xorijiy mamlakatlarda taqdimotlar o‘tkazish.

Barcha manbalardan shakllanayotgan investitsiya mablag‘larini qishloq xo‘jaligida quyidagilarga sarflash maqsadga muvofiqdir:

- foydalanilayotgan yerlarning unumdorligi yuksalishini ta’minlaydigan tadbirlar majmuasini bajarishga;
- yangi yerlarni kompleks o‘zlashtirishga;
- tarmoqda fan va samarali texnologiyalarni rivojlantirishga;
- irrigatsiya, melioratsiya inshootlarini qurishga, mavjudlarining ishga yaroqliligini ta’minlash maqsadida ta’mirlashga;
- sug‘orishning zamonaviy, tejamkor usullarini joriy etishga;
- yangi, samarali traktorlarni, mashinalarni, kombaynlarni sotib olish va mavjudlarini ta’mirlashga;
- ishlab chiqarish bino-inshootlarini qurishga, mavjudlarini ta’mirlashga;
- ko‘p yillik daraxtzorlar, bog‘zor, tokzorlar yaratishga;
- mahsuldor chorva hayvonlarini talab darajasida ko‘paytirishga;
- tarmoqni barcha ishlab chiqarish vositalari bilan ta’minlash, ishlab chiqarishni kompleks mexanizatsiyalashtirish, kimyolashtirishni hamda elektrlashtirishni ta’minlashga;
- mehnat resurslarining bilimini, malakasini yuksaltirishga;
- ijtimoiy sohalarni rivojlantirish va boshqa shu kabilarga.

Barcha yo‘nalishlar bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga sarflanayotgan investitsiyalarning maqsadga muvofiq yo‘naltirilishi ta’minlanishi kerak. Hozirgi vaqtda qishloq xo‘jaligi tarmog‘iga davlat budjetidan ham ko‘plab mablag‘lar yo‘naltirilmoqda. Jumladan, qishloq xo‘jaligining ayrim sohalarni rivojlantirish uchun subsidiyalar ajratilmoqda. Ushbu mablag‘lardan foydalanish ustidan davlat va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish lozim. Ulardan oqilona, samarali foydalanish natijasida qishloq xo‘jaligining yalpi mahsuloti, yalpi va sof daromadi ortadi. Bu investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi yuksalishini ta’minlaydi.

Qisqacha xulosalar

Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish fondlari uchun sarflangan mablag‘lar investitsiya deyiladi. Ma’lum belgilariga qarab investitsiyalar turlarga ajratiladi.

Qishloq xo‘jaligini ishlab chiqarish resurslari bilan talab darajasida ta’minlash, ularni takror ishlab chiqarish uchun investitsiyalar jalb etilmoqda.

Investitsiyalar tufayli tarmoqda fan-texnika taraqqiyoti jadallashmoqda, uning yutuqlaridan foydalanish jarayoni rivojlantirilib, ilg‘or texnologiyalar joriy etilmoqda. Investitsiyalar korxonalarning o‘z mablag‘lari hamda chetdan jalb etilayotgan mablag‘lar evaziga amalga oshirilmoqda. Mustaqillik yillarida qishloq xo‘jaligiga jalb etilayotgan mablag‘lar summasi ortib bormoqda.

Investitsiyalardan foydalanishning mutlaq hamda qiyosiy samaradorligini tarmoq, korxona va yo‘nalishlar bo‘yicha aniqlash maqsadida muayyan ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish lozim.

Qishloq xo‘jaligiga jalb etilayotgan investitsiyalar miqdori, iqtisodiy samaradorligi mavjud imkoniyatlar darajasida emas. Kelajakda investitsiyalarni talab darajasida jalb etish va ulardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun investitsiyalar manbalarini kengaytirishga erishish, investitsiyalar jalb etishda zarur infratuzilmani rivojlantirish, xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, investitsiyalardan maqsadga muvofiq, samarali foydalanishga erishish kerak.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Investitsiyaning mohiyati nimadan iborat?
2. Qishloq xo‘jaligida investitsiyaning qanday ahamiyati bor?
3. Investitsiyalar qanday turkumlanadi?
4. Investitsiyalarni jalb etishning qanday manbalari mavjud?
5. Investitsiyalar qanday maqsadlarga sarflanadi?
6. Investitsiyalardan foydalanish samaradorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar qaysilar?
7. Qishloq xo‘jaligida investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llari qanday?
8. Investitsiyalarni joriy etishda erkin iqtisodiy zonalarning qanday ahamiyati bor?
9. Investitsion muhit nima?
10. Investitsiyalarni qanday maqsadlarga yo‘naltirish maqsadga muvofiq?
11. Qishloq xo‘jaligiga investitsiyalarni ko‘proq jalb etish uchun nimalarga e’tibor berish lozim?

12. Mamlakatimiz hukumati tomonidan qishloq xo‘jaligiga investitsiyalarni ko‘proq jalb etish bo‘yicha qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

BOB YUZASIDAN AMALIY TOPSHIRIQLAR:

1-topshiriq:

“Baliq skeleti” usuli asosida “Qishloq xo‘jaligida investitsiyalarning tarkibiga nimalar kiradi?” savoliga javob berish.



2-topshiriq:

Klaster usuli yordamida qishloq xo‘jaligida investitsiyalarning manbalarini ko‘rsatib berish.

3-topshiriq:

Nilufar guli usuli yordamida qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida amalga oshirilayotgan investitsiyalar hajmining pastligiga ta’sir etuvchi omillar va ularni bartaraf etish yo‘llarini tahlil qilish.

	B	

	C	

	D	

	I	

B	**C**	**D**
I	**A**	**E**
H	**G**	**F**

	E	

	H	

	G	

	F	

Nilufar guli - muammoni yechish yo‘llarini ko‘rsatib beruvchi usuldir. O‘zida nilufar guli ko‘rinishini namoyon qiladi. Uning asosini to‘qqizta to‘g‘ri to‘rtburchak tashkil etadi. Bunda A – qo‘yilayotgan asosiy muammo, ya’ni qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida amalga oshirilayotgan investitsiyalar hajmining pastligi; B,C,D,E,F,G,H,I – esa ushbu muammoga ta’sir etuvchi omillar, har bir omil alohida olinib, uni hal etish yo‘llari yozib chiqiladi. Ushbu usul tizimli fikrlash, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi va faollashtiradi.

4-topshiriq:

FSMU texnologiyasi yordamida “Qishloq xo‘jaligida investitsiyalarni yanada ko‘paytirish uchun nimalarga e’tibor berish kerak?” ekanligini yo‘naltiruvchi uslubiy tavsiyalar asosida yechish:

Yo‘naltiruvchi so‘zlar: Tarmoqning o‘ziga xos xususiyatlari, investitsiyalarni amalga oshirishning manbalari.

	Qishloq xo‘jaligida investitsiyalarni yanada ko‘paytirish uchun nimalarga e’tibor berish kerak?
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating	
(M) Ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Qishloq xo‘jaligida investitsiyalarning mohiyati, ahamiyati va turlari.
2. Qishloq xo‘jaligida investitsiyalarni jalb etish manbalari.
3. Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligiga investitsiyalarni jalb etish ko‘lamini oshirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar.
4. Qishloq xo‘jaligida investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llari.

11-BOB: QISHLOQ XO‘JALIGIDA INNOVATSIYALAR VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

1. Qishloq xo‘jaligida innovatsiyaning mohiyati va ahamiyati.
2. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida qo‘llanilayotgan innovatsiyalarning turlari.
3. Qishloq xo‘jaligiga innovatsiyalarni joriy etish bo‘yicha ilg‘or xorijiy davlatlar tajribalari.
4. Qishloq xo‘jaligiga innovatsiyalarni jalb etish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llari.

Tayanch iboralar: innovatsiya, “aqlli qishloq xo‘jaligi”, qishloq xo‘jaligida innovatsiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, buyumlar interneti, qishloq xo‘jaligida resurs tejamkor texnologiyalar.

1. Qishloq xo‘jaligida innovatsiyaning mohiyati va ahamiyati.

Jamiyat va iqtisodiyot taraqqiyotining rivojlanishi fan va texnologiya yutuqlarining hayotga joriy etilishi bilan bog‘liqdir. Hozirgi vaqtda “innovatsiya” tushunchasi juda keng qo‘llanilmoqda. Innovatsiya atamasi inglizcha “innovation” so‘zidan olingan bo‘lib, “yangiliklarni joriy etsh” degan ma’nolarni anglatadi.

Innovatsiya tushunchasi iqtisodiyotga XX asr boshlarida kirib kelgan. Chexiyada tug‘ilib, Avstriya va AQShda faoliyat olib borgan iqtisodchi olim Y.Shumpeter birinchi marotaba innovatsiyaga oid masalalarni tadqiq etgan va innovatsion jarayonga ta’rif bergan. U o‘zining dinamik o‘sish nazariyasida tadbirkorlik innovatsiyasi iqtisodiy o‘sishni ta’minlab, yangi muvozanatini keltirib chiqarishi, bu esa hayot darajasining yanada yuqori standartlarga chiqishini ta’kidlagan. U “innovatsiya – iqtisodiyotni rivojlantiruvchi kuchdir”, degan fikrni ilgari surgan.

2020-yil 24-iyulda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi qonunida innovatsiyaga quyidagicha ta’rif berilgan: innovatsiya – fuqarolik muomalasiga kiritilgan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalaniladigan, qo‘llanilishi amaliyotda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta’minlaydigan yangi ishlanmadir.

Iqtisodiy adabiyotlarda “innovatsiya” tushunchasiga ko‘pchilik mualliflar tomonidan turlicha yondoshuvlar keltirilgan. Ko‘pchilik mualliflar yangilik kiritishni iqtisodiy tadbiq etish jihatidan nazarda

tutadi, ya’ni yangi resurslarni tashkil etish yoki mavjud bo‘lganlarini noan’anaviy holda yangicha ishlatilishini nazarda tutadilar. Ushbu ta’riflarni umumlashtirgan holda, quyidagi ta’rifni berish mumkin: *innovatsiya* – bu yuqori iqtisodiy va ijtimoiy samara olish maqsadida korxona faoliyatiga ilm-fan yutuqlarini joriy etishdir.

Yer sayyorasi aholisi yaqin 30 yil ichida 2 milliardga ko‘payib, hozirdagi 7,7 milliard kishidan 2050-yilda 9,7 milliardga, asr oxiriga esa 11 milliardga yetishi mumkin. Aholi sonining ko‘payishi qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni ham unga mutanosib ravishda ko‘paytirishni talab etadi. Ammo, ekologik vaziyatning yomonlashishi, suv taqchilligi va ekin maydonlarining cheklanganligi talab darajasidagi oziq-ovqat ishlab chiqarishda jiddiy to‘siq bo‘lishi ham ta’kidlanmoqda. Bu muammolarni esa qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini innovatsion usullar asosida boshqarish, zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yechimlar kiritish, bir so‘z bilan aytganda, “aqlli qishloq xo‘jaligi” orqali hal etish mumkin. Innovatsiyalar qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini intensiv rivojlantirish, sohaga resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish, yetishtirilayotgan mahsulotlar sifati va hajmini keskin oshirish imkonini beradi.

2017-yilning 29-noyabrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-5264 sonli farmoni qabul qilindi. Farmonda ushbu vazirlikning asosiy faoliyat yo‘nalishlaridan biri sifatida qishloq xo‘jaligiga innovatsiyalarni joriy etish, eng avvalo, mavjud yer, suv va boshqa tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, shuningdek, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash imkonini beruvchi innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni joriy etishga ko‘maklashish kabilar belgilandi.

2019-yil 23-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853 sonli farmoni qabul qilindi. Ushbu farmon asosida qabul qilingan strategiyada ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini amalga oshirish, qishloq xo‘jaligida intensiv innovatsion texnologiyalarni joriy qilishni rag‘batlantirish tizimini takomillashtirishga ham alohida e’tibor berilgan.

Mamlakatimizda korxona va tashkilotlarning innovatsion faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar 11.1-jadvalda keltirilgan.

11.1-jadval

Korxona va tashkilotlarning innovatsion faoliyati

	2016	2017	2018	2019
Innovatsiyalar joriy qilgan korxona va tashkilotlar soni:				
texnologik	893	975	982	1514
marketing	20	22	17	28
tashkiliy	20	26	25	45
Joriy qilingan innovatsiyalar soni:				
texnologik	1816	1946	2482	4427
marketing	51	62	42	128
tashkiliy	39	38	34	134
Ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar (tovarlar, ishlar va xizmatlar) hajmi, mlrd.so`m	10688,2	18543,3	28871,5	26811,4
Innovatsiyalarga qilingan xarajatlar, mlrd.so`m	2571,4	4162,3	4707,2	6603,5

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda korxona va tashkilotlar tomonidan innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanish hamda ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar (tovarlar, ishlar va xizmatlar) hajmi yil sayin ortib bormoqda.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan mamlakatimizda 2020-yilning “Ilm-ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb nomlanishi ham iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga raqamli texnologiyalarni, innovatsiyalarni joriy etishga alohida e’tibor berilayotganligidan dalolatdir.

2. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida qo‘llanilayotgan innovatsiyalarning turlari.

Dunyo miqyosida qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi vaqtda “Elektron qishloq xo‘jaligi” (E-agriculture) va “Aqlli qishloq xo‘jaligi” (Smart agriculture) tushunchalari paydo bo‘ldi va ushbu tushunchalar zamonaviy axborot-kommunikatsiya

texnologiyalarini qo‘llash orqali qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga qaratilgan yangicha yondoshuvlardir.

Hozirgi vaqtda qishloq xo‘jaligida quyidagi zamonaviy raqamli texnologiyalar qo‘llanilmoqda:

- sensorli texnologiyalar: tuproq tarkibini aniqlash va uni yaxshilash, suvdan foydalanishni nazorat qilish, yorug‘lik, namlik va haroratni boshqarish kabi maqsadlarda;
- dasturiy ta’minot: alohida fermer xo‘jaliklari uchun mo‘ljallangan yoki buyumlar interneti (IoT) platformalaridan foydalanish uchun mo‘ljallangan maxsus dasturiy yechimlar, mobil ilovalar va boshqalar. Buyumlar interneti (Internet of things) – bu uskunalarning internet orqali o‘zaro bog‘lanishini nazarda tutadigan konsepsiya bo‘lib, ma’lumotlar to‘plash va o‘zaro almashish, masofadan turib real vaqt rejimida (jumladan, avtomatik rejimda) jarayonlarni monitoring va nazorat qilish hamda buning asosida ularni boshqarishga imkon beradigan tizimdir.
- aloqa tizimlari: uyali, LoRa va boshqalar;
- joylashuvni aniqlash: GIS, GPS, sun’iy yo‘ldoshdan signallarni qabul qiluvchi vositalar va dasturlar.
- robototexnika: avtonom traktorlar, dronlar, agrotexnik tadbirlarni amalga oshirishda foydalaniladigan robotlar va boshqalar.
- katta hajmdagi ma’lumotlar (Big data) tahlilini amalga oshirishda qo‘llaniladigan texnologiyalar va dasturiy ta’minot: bu jarayon SPSS, STATA, Eviews kabi dasturiy ta’minot asosida kompyuterlarda amalga oshiriladi.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni rejalashtirish va uni sotishni tashkil etish muammosining innovatsion yechimlaridan biri – tarmoqqa zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishdir. Bunda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtiruvchilar, uni eksport qiluvchilar va iste’molchilarni, shuningdek logistika xizmatini ko‘rsatuvchilarni birlashtiruvchi elektron savdo platformalarini tashkil etish yuqori samara beradi.

Platformada quyidagi imkoniyatlar mavjud bo‘lishi mumkin:

- bozor konyunkturasini tahlil qilish uchun zarur axborotlar;
- taklif etilayotgan mahsulotlar uchun xaridorlarni qidirish;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining turlari bo‘yicha takliflar paketi va narxlari bo‘yicha ma’lumot olish;
- kelishuvni onlayn rejimida muhokama qilish;
- kelishilgan shartnomalarni tasdiqlash;

- qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar uchun o‘zaro fikr almashish uchun sharoit yaratish;
- logistika xizmatini ko‘rsatuvchi korxonalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar va ular bilan onlayn rejimda muloqot qilish;
- foydali interaktiv xizmatlar.

Qishloq xo‘jaligida zamonaviy raqamli texnologiyalarning qo‘llanishiga yana bir misol – bu yer maydonlarining mahsuldorligini aniqlashda raqamli texnologiyalardan foydalanishdir va bu “aniq dehqonchilik” termini bilan atalmoqda. Bunda sensorli texnologiyalar yordamida ekin maydonining “hosildorlik xaritasi”ni tuzish va shu orqali yerlarning unumdorligini oshirish bo‘yicha amalga oshiriladigan tadbirlarning aniqligini oshirish asosiy maqsad qilib qo‘yilgan.

Odatda, qishloq xo‘jalik ekin maydonlari mahsuldorligi ko‘rsatkichini aniqlashda ushbu maydondan yig‘ishtirib olingan umumiy hosil ekin maydoniga taqsimlanadi. Masalan, 20 gektardan yig‘ishtirib olingan jami hosilni 20 ga taqsimlash orqali har bir gektar yerdan qancha hosil olinganligini, ya’ni ekin maydonimizning mahsuldorligini aniqlaymiz. Bu ko‘rsatkich bizga ma’lum ma’noda ekin maydonining mahsuldorligiga baho berish imkonini bersada, kamchiliklardan xoli emas. Ushbu ekin maydonining hamma qismida mahsuldorlik darajasi, tuproq tarkibi bir xil bo‘lmaydi, qaysidir qismi unumdor, boshqa qismida esa unumdorlik darajasi past bo‘lishi mumkin. Biz qo‘llayotgan usulda ushbu holatga baho berishning imkoni yo‘q, o‘rtacha mahsuldorlik darajasi aniqlanadi xolos. Ekin maydonining mahsuldorligini oshirish, tuproq unumdorligini yaxshilash uchun amalga oshiriladigan tadbirlarda yer maydonining aynan qaysi qismiga alohida e’tibor berish kerakligini aniqlashning iloji yo‘q, shu sababli ushbu tadbirlar ekin maydonining barcha qismi uchun bir xilda amalga oshiriladi. Bunda ekin maydoning qaysidir qismida tuproq unumdorligi talab darajasida bo‘lishi, unga qo‘shimcha mineral va mahalliy o‘g‘itlar berish kabi choralarni amalga oshirishni talab etmasligi mumkin. Buning natijasida samarasiz xarajatlarning amalga oshirilishiga olib keladi. Yoki aksincha, ekin maydonining ma’lum qismiga yetarli miqdorda ishlov berilmasdan, tuproq unumdorligi pastligicha qolaverishi mumkin. Ushbu muammoni hal etish uchun hosilni yig‘ib oluvchi kombaynlarga sensorli texnologiya o‘rnatiladi va ekin maydonining har bir qismidan qancha hosil olinayotganligi qayd etib boriladi va maxsus kompyuterga ma’lumotlarni uzatadi. Ushbu texnologiya bizga ekin maydonimizning hosildorlik xaritasini tuzib

beradi, xaritada hosildorlik darajasiga qarab ekin maydoni o‘tkir yoki och ranglarda belgilanadi. Ushbu xarita orqali ekin maydonining qaysi qismida hosildorlik darajasi qanday ekanligini bilib olamiz.

Mamlakatimiz hukumati tomonidan qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini raqamlashtirishga alohida e’tibor berilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4699-sonli qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash doirasida 2020-yil 17-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi agrosanoat majmui va qishloq xo‘jaligida raqamlashtirish tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 794-sonli qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra agrar sohani raqamlashtirishning ustuvor yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

- qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan, suv resurslaridan samarali foydalanish va ekinlar holatini nazorat qilishning idoraviy va idoralararo axborot tizimlarini joriy etish;
- agrosanoat majmuidagi tashkilotlar tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarni, shu jumladan davlat xizmatlarini to‘liq elektron shaklga o‘tkazish;
- qishloq xo‘jaligi sohasida zamonaviy AKTni joriy etish uchun maqsadli loyihalarni amalga oshirish;
- suv omborlari va sug‘orish tizimlarida suv resurslaridan foydalanishni onlayn rejimda nazorat qilish texnologiyalarini joriy etish;
- suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish, suvdan foydalanish va suv iste’moli hisobini yuritish hamda ma’lumotlar bazasini shakllantirish;
- biznes-startap loyihalarni amalga oshirish va innovatsion loyihalar natijalarini tijoratlashtirish uchun korxonalarga ko‘maklashish.

Ushbu qarorga ko‘ra Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzurida “Agrosanoatni raqamlashtirish markazi” davlat muassasasi tashkil etilishi belgilangan. Markaz agrosanoat majmuida “Raqamli qishloq xo‘jaligi” axborot tizimi yuritilishi uchun mas’ul hisoblanadi. “Raqamli qishloq xo‘jaligi” axborot tizimi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilar, ta’minotchilar hamda qayta ishlash tashkilotlari o‘rtasida o‘zaro iqtisodiy hamkorlikni amalga oshirish imkoniyatini beruvchi platforma bo‘lib xizmat qiladi. 2021-yil 1-mayga qadar yirik gidrouzel va irrigatsiya tizimini raqamli texnologiyalar asosida avtomatlashtirish bo‘yicha tajriba loyihasi amalga oshiriladi.

Ushbu qaror bilan “Aqlli qishloq xo‘jaligi” texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasi ham tasdiqlandi. Strategiya “Aqlli qishloq xo‘jaligi” texnologiyalarini rivojlantirishning quyidagi uzoq muddatli asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradi:

- qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanishda raqamli va geoaxborot texnologiyalarini joriy etish;
- zamonaviy kompyuter texnologiyalarini tatbiq etish orqali suv resurslarini boshqarish va undan foydalanish;
- intensiv bog‘larni tashkil etish va bog‘dorchilik mahsulotlarini yetishtirishda avtomatlashtirilgan boshqarish texnologiyalarini joriy etish;
- issiqxona xo‘jaliklarida avtomatlashtirilgan, kompyuterlashtirilgan intellektual texnologiyalarni joriy etish;
- chorvachilik va parrandachilik sohasiga avtomatlashtirilgan texnologiyalarni tatbiq etish;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangan logistika va savdo markazlarini tashkil etish;
- qishloq xo‘jaligining barcha yo‘nalishlari uchun “Aqlli qishloq xo‘jaligi” texnologiyalari bo‘yicha malakali kadrlar tayyorlash va kadrlar malakasini oshirib borish.

Qishloq xo‘jaligida raqamli iqtisodiyotni shakllantirishning asosiy shartlaridan biri – zarur infratuzilmani shakllantirishdir. Qishloq hududlarida ham zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanishni yo‘lga qo‘yish uchun sifatli aloqa va internet xizmatini yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyatga ega.

3. Qishloq xo‘jaligiga innovatsiyalarni joriy etish bo‘yicha ilg‘or xorijiy davlatlar tajribalari.

Qishloq xo‘jaligini innovatsion rivojlantirish bo‘yicha yuqori natijalarga erishgan davlatlardan biri Niderlandiyadir. Ushbu mamlakat qishloq xo‘jalik mahsulotlari eksporti bo‘yicha dunyoda ikkinchi o‘rinni egallaydi va 2018-yilda 102 milliard AQSh dollari hajmida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilgan. Birinchi o‘rinni AQSh egallagan bo‘lib, uning ekin maydoni Niderlandiyadagi ekin maydonidan 205 marotaba kattadir.

Niderlandiyada issiqxonalar faoliyati ham juda yaxshi yo‘la qo‘yilgan bo‘lib, iqlimi nisbatan salqin hudud bo‘lishiga qaramasdan pomidor kabi issiqsevar mahsulot eksporti bo‘yicha dunyoda peshqadam hisoblanadi. Bundan tashqari, piyoz va kartoshka eksporti bo‘yicha ham mamlakat dunyoda birinchi o‘rinni egallaydi. Qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘lari savdosi bo‘yicha dunyoda tuziladigan shartnomalarning uchdan biri Niderlandiyada hissasiga to‘g‘ri keladi.

Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash natijasida Niderlaniyalik fermerlar suv sarfini 90 foizga kamaytirishdi, issiqxonalarda kimyoviy o‘g‘itlarni ishlatishdan esa to‘liq voz kechildi, parrandachilikda antibiotiklarni ishlatish 60 foizga kamaydi.

Niderlandiya aholisining soni 17,1 million kishi bo‘lib, aholisining 8,7 foizi qishloq joylarda istiqomat qiladi va iqtisodiyot tarmoqlarida band bo‘lganlarning atigi 2,3 foizi qishloq xo‘jaligi tarmog‘i hissasiga to‘g‘ri keladi. 2017-yil holatiga qishloq xo‘jaligida mehnat qilayotgan bitta xodim hisobiga 83534 AQSh dollari miqdorida mahsulot yaratilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich AQShda 79108, O‘zbekistonda esa 2147 AQSh dollarini tashkil etgan. Ushbu ko‘rsatkich mamlakatimizda 2018-yilda 3960 AQSh dollarni tashkil etgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida 2021-yilda 4300 AQSh dollariga, 2025-yilda 5200 AQSh dollariga va 2030-yilga borib 6500 AQSh dollariga yetkazish nazarda tutilgan.

E’tiborli jihatlaridan biri – Niderlandiyada qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar (fermerlar, ishlab chiqarish vositalari bilan ta’minlovchilar, qayta ishlovchi korxonalar va savdo kompaniyalari), ilmiy-tadqiqot muassasalari (oliy ta’lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlari) hamda mamlakat hukumati o‘rtasida mustahkam hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, gollandlar buni “oltin uchburchak” deb atashadi. Fan ushbu “oltin uchburchak”ning muhim elementi hisoblanadi. Amaliy ilmiy-tadqiqot dasturlari hukumat tomonidan moliyalashtiriladi. Yangi navlarini yaratish, mahsulot sifatini yaxshilash, ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish, savdo belgilarini yaratish va ularni tanitish, shu bilan bir qatorda tarmoqda suv va elektr sarfini qisqartirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar uchun xususiy sektor tomonidan ham qo‘shimcha mablag‘lar yo‘naltiriladi. Tadqiqot natijalari fermerlar va firmalarga taqdim etiladi hamda ushbu innovatsiyalar ular tomonidan ishlab chiqarish jarayoniga joriy etiladi. Ushbu tadqiqot natijalaridan barcha foydalanishi uchun sharoit yaratilgan bo‘lib, undan

barcha xohlovchilar bahramand bo‘lishlari mumkin. Bu holat ham fan yutuqlari, innovatsiyalarni qishloq xo‘jaligiga joriy etishni tezlashtirishga xizmat qiladi.

Yana bir e’tiborli jihati – Amsterdamdan janubi-sharqda 50 km masofada qishloq xo‘jaligiga oid ilmiy izlanishlar markazi tashkil etilgan va u “Oziq-ovqat vodiysi” (“Food Valley”) nomi bilan ham mashhurdir. AQShdagi Stanford Universiteti “Kremniy vodiysi”ning intellektual o‘zagi bo‘lgani singari, Wageningen University & Research (WUR) ham mazkur “Oziq-ovqat vodiysi”ning asosiy ilmiy-tadqiqot markazi hisoblanadi. 2004-yilda tashkil etilganidan buyon “Oziq-ovqat vodiysi”da oziq-ovqat sanoatining muammolarini samarali hal qilishga yordam beradigan kompaniyalar va ilmiy-tadqiqot institutlarining keng tarmoqlarini yaratildi. Bu yerda oziq-ovqat sanoatiga oid ko‘plab innovatsion ishlanmalar yaratilgan va amaliyotga joriy qilingan. Jumladan, avtonom traktorlar, skaner dronlari, LED issiqxona lampalari va boshqalar.

“Oziq-ovqat vodiysi” nafaqat ekinlarni yetishtirish usullarini takomillashtirish uchun yangi texnologiyalarni o‘rganish va rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar olib boriladigan markaz bo‘libgina qolmay, balki ko‘plab startaplarni jalb qilish orqali tadbirkorlik muhitini rivojlantirishga ham katta hissa qo‘shib kelmoqda.

Qishloq xo‘jaligini intensiv rivojlantirish bo‘yicha yuqori natijalarga erishgan davlatlardan yana biri – Isroildir. Ilmiy tadqiqotlar va rivojlanish (R&D) uchun ajratilgan mablag‘ning YaIMdagi ulushi bo‘yicha Isroil dunyoda yetakchi mamlakatlardan biri hisoblanadi. The Global Economy nashrining ma’lumotlarga ko‘ra, 2018-yilda ushbu ko‘rsatkich Isroilda – 4,54 foizni tashkil etgan. Mazkur ko‘rsatkich Janubiy Koreyada – 4,55, Shvetsiyada – 3,33, O‘zbekistonda – 0,16 foizni tashkil etgan.

Ilmiy tadqiqotlarga qaratilayotgan e’tibor tufayli Isroilda qishloq xo‘jaligiga oid ko‘plab innovatsiyalar yaratilgan. Shulardan biri – tomchilatib sug‘orish texnologiyasidir. Bizga ma’lumki, har qanday taraqqiyot zaruriyat natijasidir. Isroil davlatining 95 foiz qismi quruq va qurg‘oqchil iqlimga ega. Mamlakatning 60 foiz hududi Negav cho‘lidan iborat. Shuning uchun ham Isroilda suvdan tejamkorlik bilan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu texnologiyani O‘zbekiston sharoitida qo‘llash hozirgi kunda dolzarb masalalardan biridir. Chunki, mamlakatimiz iqlim sharoitida dehqonchilik asosan sug‘oriladigan yerlarda amalga oshadi.

Sug‘oriladigan yerlarning qishloq xo‘jaligi jami yerlaridagi ulushi 2019-yil 1-yanvar holatiga atigi 23,9 foizni tashkil etadi va so‘nggi vaqtlarda suv tanqisligi yil sayin keskinlashib bormoqda.

Mamlakatimiz suv resurslarining qariyb 80 foizi transchegaraviy suv havzalari hisobiga shakllanadi. Jahon resurslari institutining prognoziga ko‘ra, 2040-yilga borib O‘zbekiston suv tanqisligi eng yuqori bo‘lgan 33 ta mamlaktning biriga aylanadi. Ikkinchi tomondan esa aholi soning ko‘payishi qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish hajmini oshirishni talab etadi. Ushbu muammolarning yechimilaridan biri – tejamkor sug‘orish usullarini qo‘llash orqali mavjud suv resurslaridan samarali foydalanish, shu orqali sug‘oriladigan ekin maydonlarini ko‘paytirishdir.

Mutaxassislarning ma’lumotiga ko‘ra, tomchilatib sug‘orish texnologiyasi qo‘llanilganda o‘rtacha suv sarfi 40-50 foizga, yonilg‘i sarfi esa 60 foizga tejaladi, mineral o‘g‘itlar samaradorligi 30 foizga ortib, hosildorlik 5-10 sentnergacha ko‘payadi. Ko‘chma egiluvchan quvurlardan foydalanish suvni 10-15 foizga tejash imkonini beradi. Lekin hozirgi vaqtda mamlakatimizda tomchilatib sug‘orish tizimi juda kam maydonlarda joriy etilgan. Sug‘oriladigan yerlarning faqatgina 1,7 foizida tomchilatib sug‘orish joriy etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasiga muvofiq, mahalliy suv tejovchi texnologiyalarni ishlab chiqaruvchilar va xaridorlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish belgilangan.

2018-yil oxiriga qadar mamlakatimizda tomchilatib sug‘orish tizimini ishlab chiqaruvchi va quruvchi atigi 10 ta korxona ro‘yxatga olingan edi. Bugungi kunda 37 ta mahalliy, xorijiy hamda suv xo‘jaligi pudrat korxonalari tomchilatib sug‘orish tizimini qurish va servis xizmatlarini ko‘rsatish bilan shug‘ullanmoqda.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida iqtisodiy jarayonlarga internetning tadbiq etilishi tobora kengayib, hayotiy zaruriyatga aylanib bormoqda. Dunyoning eng boy odamlaridan biri bo‘lgan Bill Geyts biznesda internetning o‘rni haqida o‘z fikrlarini bildirib, “XXI asrda sizning biznesingiz internetda yo‘qmi, demak siz biznesda yo‘qsiz”, degan edi. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida ham internet imkoniyatlaridan keng foydalanish yuqori samara beradi. Internet orqali savdo eng rivojlangan davlatlardan biri – Xitoydir. So‘nggi yillarda Xitoydagi ijtimoiy tarmoqlarda qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq kontent katta

sur’atlarda mashhurlikka erishmoqda. Douyin (TikTok’ning mahalliy muqobili) platformasining bloger fermerlari bir yil ichida 15 baravar ko‘p pul topa boshladi, deb xabar beradi Esquire. Fermerlar va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetkazib beruvchilar alohida provinsiyalarda o‘z mahsulotlarini shahardagi iste’molchilarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri translyatsiya va kichik videoroliklar yordamida sotmoqda. Jumladan, Szin Gouey ismli fermer Liszyan ko‘chalarida meva sotish bilan shug‘ullanib kelgan va bu faoliyatidan deyarli daromad ololmagan. Bugungi kunda u Gouey Brother Pomegranate nomli kanal yuritadi – uning 7,3 million obunachisi bo‘lib, 2020-yil davomida u 46 million dollarga yaqin pul ishlab topgan. “Qishloqdagi eng qiyin ishlar ham qiziqarli visual kontent manbai bo‘la oladi. Bu shahar aholisiga yetishmayotgan narsa va ular buni tomosha qilishni istaydi”, - deydi Szin Gouey.

Go Chenchen ismli fermerning esa 2,5 million obunachisi bor. U o‘z roliklarida o‘zi yetishtirayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari to‘g‘risida ma’lumotlar berib boradi. Avvallari Chenchen WeChat’dagi Tencent Holdings Ltd. dasturi orqali savdo qilgan va kuniga yuzga yaqin buyurtmalarni qabul qilgan. Hozirda esa bitta to‘g‘ridan-to‘g‘ri translyatsiyaning o‘zida 50 minggacha buyurtma olib, oyiga 1,38 million dollardan ortiq pul ishlaydi.

Bu kabi ilg‘or tajribalardan unumli foydalanish maqsadga muvofiq, buning uchun esa eng avvalo zarur infratuzilma (sifatli uyali aloqa, yuqori tezlikdagi internet xizmati, onlayn to‘lov tizimi va hokazo) yo‘lga qo‘yilishi talab etiladi.

4. Qishloq xo‘jaligiga innovatsiyalarni jalb etish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llari.

2019-yil holatiga mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida ilmiy-tadqiqotlar uchun davlat tomonidan amalga oshirilayotgan investitsiyalar qishloq xo‘jaligi umumiy budjetining 0,2 foizini tashkil etadi. Ilm-fan va ishlab chiqarish o‘rtasida o‘zaro aloqalarning samarali mexanizmi mavjud emasligi davlat tomonidan moliyalashtiriladigan ilmiy-tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishni sezilarli darajada cheklamoqda.

Mamlakatimiz hukumati tomonidan qishloq xo‘jaligi tarmog‘iga raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etishga alohida e’tibor berilmoqda. Jumladan, 2021-yil 17-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun

shart-sharoit yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4996-sonli qarori qabul qilindi. Qaror bilan sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha 2021-2022-yillarda amalga oshiriladigan tajriba-sinov loyihalari ro‘yxati tasdiqlandi. Unga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi sohasida yerni masofadan turib zondlash ma’lumotlari asosida tuproq va qishloq xo‘jaligi ekinlari holatini, shuningdek, qishloq xo‘jaligi texnikasi, shu jumladan kombaynlar ishini monitoring qilishda sun’iy intellekt texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan.

2021-yil 3-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko‘rsatishni yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi PF-6159-sonli farmoni qabul qilindi. Farmonga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzurida Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar Milliy markazi tashkil etildi. Milliy markaz barcha turdagi davlat ilmiy va oliy ta’lim muassasalarining qishloq xo‘jaligi sohasida amalga oshiriladigan ilmiy-tadqiqot faoliyatini muvofiqlashtiradi. Ushbu farmonga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi sohasida ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarishning uzviy integratsiyasini ta’minlash bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi kengash faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligini innovatsion rivojlantirish uchun quyidagilarga e’tibor berish lozim:

- qishloq xo‘jaligida innovatsion faoliyatni tashkil etish va uni rivojlantirishning huquqiy-me’yoriy asoslarini takomillashtirib borish;
- qishloq xo‘jaligida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlarining ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalarini kuchaytirish, ular o‘rtasidagi munosabatlarda o‘zaro manfaatdorlik tamoyillari amal qilishiga erishish. Bunda ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish uchun barcha huquqiy-me’yoriy asoslarni yaratish muhim ahamiyatga ega.
- qishloq xo‘jaligida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlarining o‘z faoliyatiga innovatsiyalarni joriy etishdan moddiy manfaatdorligini oshirish, ularning o‘z daromadlarini oshirib borishiga turtki beruvchi iqtisodiy erkinligini ta’minlash. Shunday sharoit ta’minlansa qishloq xo‘jaligida faoliyat yurituvchi tadbirkorlar innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanishga, resurslarni tejovchi va unumdorlikni oshiruvchi texnologiyalarni o‘z faoliyatiga joriy etishga harakat qiladilar. Innovatsiyalarni joriy etish bo‘yicha tashabbus tarmoqda faoliyat yurituvchi tadbirkorlar tomonidan chiqishi yuqori samara beradi. Bunda tadbirkorlar o‘z faoliyatini intensivlashtirish, faoliyatiga innovatsiyalarni

joriy etish maqsadida ilmiy tadqiqot istitutlariga buyurtma berishilari lozim, shunda ilmiy yangiliklar va innovatsiyalarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlab chiqarishga joriy etiladi.

- davlat tomonidan qishloq xo‘jaligi sohasida amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqotlarni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish, shu maqsadda davlat budjetidan sarflanayotgan mablag‘lardan samarali foydalanish ustidan doimiy monitoring yuritish;
- qishloq xo‘jaligiga innovatsiyalarni joriy etish bo‘yicha yuqori natijalarga erishgan rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalarini o‘rganish va ularni mamlakatimiz agrar sohasiga joriy etish chora-tadbirlarni amalga oshirib borish;
- qishloq xo‘jaligiga innovatsiyalarni joriy etish uchun zarur infratuzilmani rivojlantirish. Innovatsion texnologiyalarni qishloq xo‘jaligiga joriy etish sifatli aloqa va internet xizmati mavjud bo‘lishini, zamonaviy bilimlarni egallagan yuqori malakali kadrlar bo‘lishini, konsalting xizmatlari yo‘lga qo‘yilishini talab etadi. Shu va boshqa zaruriy infratuzilmani tashkil etib, ularning faoliyatini rivojlantirish lozim.
- agrosanoat majmuida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar (qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar, tarmoqni ishlab chiqarish vositalari bilan ta’minlovchilar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalar va savdo kompaniyalari), ilmiy-tadqiqot muassasalari (oliy ta’lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlari) hamda mamlakat hukumati o‘rtasida innovatsiyalarni joriy etish bo‘yicha mustahkam hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish lozim.

Qisqacha xulosalar.

Hozirgi vaqtda dunyo mamlakatlari tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, barqaror va yuqori o‘sish sur’atlariga erishish uchun innovatsiyalarga e’tibor berish lozim. Mamlakatimiz aholisi soni va sanoat ishlab chiqarish quvvatlarining yil sayin o‘sib borayotganligini inobatga oladigan bo‘lsak, qishloq xo‘jaligini ham innovatsion rivojlantirishimiz zarur. Qishloq xo‘jaligiga innovatsiyalarni joriy etish tarmoqni intensiv rivojlantirish imkonini beradi. Bu jarayonda mazkur soha bo‘yicha yuqori natijalarga erishib kelayotgan rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini ham o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Qishloq xo‘jaligiga innovatsiyalarni keng joriy etish va ularning samaradorligini oshirish

uchun zarur chora-tadbirlarni tizimli amalga oshirib borish muhim ahamiyatga ega.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Innovatiyaning mohiyati nima?
2. Qishloq xo‘jaligida innovatsiyalarning ahamiyati nimadan iborat?
3. Hozirgi vaqtda qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida qo‘llanilayotgan qanday innovatsiyalarni bilasiz?
4. Qishloq xo‘jaligiga innovatsiyalarni joriy etish bo‘yicha yuqori natijalarga erishayotgan qaysi davlatlarni bilasiz?
5. “Raqamli qishloq xo‘jaligi” deganda nimani tushunasiz?
6. “Elektron qishloq xo‘jaligi” deganda nimani tushunasiz?
7. Buyumlar interneti (Internet of things) deganda nimani tushunasiz?
8. Qishloq xo‘jaligida innovatsiyalarning iqtisodiy samaradorligi nimalarda namoyon bo‘ladi?
9. Mamlakatimiz hukumati tomonidan qishloq xo‘jaligida innovatsiyalarni rivojlantirish bo‘yicha qanday me’yoriy hujjatlar qabul qilingan?
10. Qishloq xo‘jaligida innovatsiyalarni yanada rivojlantirish uchun nimalarga e’tibor berish kerak?

BOB YUZASIDAN AMALIY TOPSHIRIQLAR:

1-topshiriq:

“Baliq skeleti” texnologiyasi asosida **Qishloq xo‘jaligida qo‘llanilayotgan innovatsiyalarning turlarini** ko‘rsatib bering.



2-topshiriq:

Klaster usuli yordamida qishloq xo‘jaligida Buyumlar interneti (Internet of thing) tizimining foydalanish yo‘nalishlarini ko‘rsatib bering.



3-topshiriq:

“Charxpalak” texnologiyasidan foydalanib O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligiga innovatsiyalarni jalb etishni yanada rivojlantirish yo‘llarini muhokama qilish.

“Charxpalak” usuli qoidasi.

4 ta kichik guruhda talabalar ish olib boradi. Har bir guruhga tugallanmagan fikrlardan iborat savollar yozilgan qog‘oz va to‘rt xil rangli ruchka yoki qalam beriladi. Savollar aylanib har bir guruhdan o‘tadi, javoblar to‘ldiriladi va savol o‘z guruhiga kelgach to‘xtatiladi. So‘ng javoblar yig‘ib olingach, doskaga yopishtiriladi va muhokama qilinadi. Har bir guruhdan vakil chiqib o‘zlarining javoblarini o‘qib beradi. Eng asosli javob bergan guruh g‘olib hisoblanadi.

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Qishloq xo‘jaligida innovatsiyalarning mohiyati, ahamiyati va turlari.
2. Qishloq xo‘jaligiga innovatsiyalarni joriy etish bo‘yicha rivojlangan xorijiy davlatlar tajribalari.
3. Qishloq xo‘jaligida innovatsiyalarning iqtisodiy samaradorligi.
4. Mamlakatimiz hukumati tomonidan qishloq xo‘jaligida innovatsiyalarni rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan me’yoriy hujjatlar.
5. Qishloq xo‘jaligida resurs tejamkor texnologiyalar va ularni amaliyotga joriy etish yo‘llari.
6. Qishloq xo‘jaligida raqamli iqtisodiyotni shakllantirishning mohiyati va ahamiyati.

12-BOB: QISHLOQ XO‘JALIGIDA INFRATUZILMA VA UNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

1. Infratuzilmaning mohiyati va ahamiyati.
2. Qishloq xo‘jaligida infratuzilmaning turlari va ularning tashkil etilishi.
3. Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar.

Tayanch iboralar: infratuzilma, xizmat ko‘rsatish, ishlab chiqarish infratuzilmasi, ijtimoiy infratuzilma, bozor infratuzilmasi, qishloq aholisi turmush farovonligi.

1. Infratuzilmaning mohiyati, ahamiyati va turkumlanishi.

Infratuzilma so‘zi lotincha “infrastructure” so‘zidan olingan bo‘lib, “infra” - quyi, asos va “structure” - tuzilish, joylashish kabi ma’nolarni anglatadi. Jahon tajribasida infratuzilma tushunchasi XX asr boshlarida birinchi bor “zarur yordamchi obyektlar va inshootlar majmuasi” sifatida muomalaga kiritilgan bo‘lsa, 1940-yillarga kelib g‘arb davlatlarida infratuzilma “ishlab chiqarish sohalarining faoliyatiga zaruriy shart-sharoitlar yaratuvchi subyektlarning yaxlit bir tarkibi” sifatida qo‘llanila boshlandi.

Infratuzilma subyektlari har qanday iqtisodiy tizimning asosiy tarkibi hisoblanib, ko‘rsatayotgan turli yo‘nalishdagi xizmatlari bilan barcha tarmoq va sohalarning iqtisodiy barqaror rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Infratuzilma subyektlari ishlab chiqarish, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarni to‘la qamrab olib, tashkiliy-iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, axborot, ekologik, boshqaruv va boshqa turdagi xizmatlar ko‘rsatish faoliyatini o‘z ichiga oladi, eng asosiysi ishlab chiqarish jarayoniga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Infratuzilma tizimi mamlakatimiz iqtisodiyoti tayanadigan poydevordir. Iqtisodiyot tarmoqlari ishining uyg‘unligi, ularning samaradorligi, shuningdek, chet el sarmoyalarini jalb qilish va o‘zlashtirish imkoniyati infratuzilma tizimi rivojining holati va darajasiga bog‘liqdir.

Infratuzilma sohalari mustaqil ravishda pirovard mahsulot ishlab chiqarmasada, ishlab chiqrish jarayoniga xizmat ko‘rsatish orqali

yakuniy natijalarga ta’sir ko‘rsatadi.

Infaruzilma sohalarini ma’lum belgilari bo‘yicha guruhlash muhim ahamiyatga ega. Infratuzilma sohalarini guruhlash quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- infratuzilma alohida elementlari va sohalarining ijtimoiy ishlab chiqarishdagi o‘rnini aniqlash;
- tarmoqlararo aloqalarni o‘rganish va shu asosida asosiy ishlab chiqarish va unga xizmat ko‘rsatuvchi sohalar o‘rtasida optimal mutanosiblikni o‘rnatish;
- tarmoqlarning boshqaruv jarayonini takomillashtirish va shu orqali yuqori samaradorlik darajasiga erishish.

Qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotining hajmi tarmoqning ishlab chiqarish fondlari, mehnat resurslari bilan ta’minlanganlik darajasi bilan birga xizmat qiluvchi sohalarning rivojlanganlik darajasiga ham bevosita bog‘liq. Infratuzilma qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirish va samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Xomashyo, material va tayyor mahsulotning o‘z vaqtida olib kelinishi xo‘jalik aylanmasida bo‘lgan resurs hajmini belgilaydi. Elektrlashtirish, kimyolashtirish, melioratsiya va ishlab chiqarishning boshqa asosiy omillari tez sur’atda o‘sishiga nafaqat qishloq xo‘jaligi uchun ishlab chiqarish mablag‘larining miqdoran o‘sishi hisobiga, balki mablag‘ resurslaridan samarali foydalanishni ta’minlaydigan xizmat tizimi tashkil etilishi hisobiga ham erishiladi. Bozor munosabatlari rivojlangan shart-sharoitda infratuzilmaning tarmoq va ishlab chiqarish vazifalari ham o‘zgaradi.

Qishloq xo‘jaligi infratuzilmasining asosiy maqsadi tarmoq korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatiga shart-sharoit yaratish va qishloq aholisining turmush farovonligini yaxshilashga xizmat qilishdir. Infratuzilmaga kiradigan sohalar ishlab chiqarish jarayoniga bir xilda ta’sir ko‘rsatmaydi va ishlab chiqarish jarayonida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Shu tufayli infratuzilma tarmoqlarini asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha turkumlash muhim ahamiyatga ega. Infratuzilma turkumlanishi alohida elementlari bilan birga butun sohaning jamiyat ishlab chiqarish tizimidagi o‘rinlarini belgilashga yordam beradi. U tarmoqlararo aloqalarni o‘rganishga va asosiy ishlab chiqarish bilan xizmat ko‘rsatish tarmoqlari orasida optimal muvozanatni belgilashda ko‘maklashadi.

Qishloq xo‘jaligi infratuzilmasining turkumlanishi 12.1-rasmda keltirilgan.



12.1-rasm. Qishloq xo‘jaligi infratuzilmasining turkumlanishi.

Qishloq xo‘jaligida infratuzilma quyidagi to‘rtta belgisiga ko‘ra turkumlanadi:

- ishlab chiqarish jarayoniga ta’sir darajasiga ko‘ra;
- hududiy xususiyatiga ko‘ra;
- tarmoq xususiyatiga ko‘ra;
- funksional yo‘nalishiga ko‘ra.

Ishlab chiqarish jarayoniga ta’sir darajasiga ko‘ra qishloq xo‘jaligi infratuzilmasi uch guruhga bo‘linadi: ishlab chiqarish, ijtimoiy va bozor infratuzilmasi. Ishlab chiqarish infratuzilmasi bevosita ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko‘rsatuvchi sohalar majmuasidan iborat bo‘lib, korxonada ishlab chiqarishning muntazam va bir maromda davom etishi hamda barqaror rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratib beradi. Ijtimoiy infratuzilma korxonada xodimlar uchun munosib mehnat

sharoitlari yaratib berish hamda fuqarolarning madaniy, maishiy, ma’rifiy va boshqa ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan shug‘ullanuvchi sohalardan tashkil topadi. Bozor infratuzilmasi esa jamiyatda bozor munosabatlarini shakllantiruvchi va uning rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratib beruvchi sohalar majmuidir. Butun jamiyat miqyosida, shu jumladan qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi uchun bozor infratuzilmasi yaxshi faoliyat yuritishi lozim.

Hududiy xususiyatiga ko‘ra qishloq xo‘jaligi infratuzilmasi uch guruhga bo‘linadi: xalq xo‘jaligi, mintaqaviy va mahalliy infratuzilmalar. Xalq xo‘jaligi infratuzilmasi butun xalq xo‘jaligining samarali ishlashiga xizmat qiladigan soha va xizmatlardan iborat. Unga energetika, transport, aloqa tizimlarini misol tariqasida keltirish mumkin. Mintaqaviy infratuzilma alohida iqtisodiy hududlarning rivojlanishi va mintaqaviy ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi sohalar majmui shakllanishi bilan bog‘liq. Mahalliy infratuzilma esa alohida korxonalarning faoliyatiga xizmat ko‘rsatuvchi sohalardan iborat.

Tarmoq xususiyatiga ko‘ra qishloq xo‘jaligi infratuzilmasi ikki guruhga bo‘linadi: tarmoqlararo va tarmoq ichidagi infratuzilma. Infratuzilmaning ko‘pgina sohalari tarmoqlararo xusuiyatga ega bo‘ladi. Ular xalq xo‘jaligining ko‘pgina tarmoqlariga xizmat ko‘rsatadi. Bular – transport, aloqa, elektr ta’minoti va boshqalar. Tarmoq ichidagi infratuzilma esa u yoki bu tarmoqning faoliyat yuritishi uchun xizmat ko‘rsatuvchi sohalardir. Masalan, dehqonchilikda o‘simliklarni kimyoviy himoyalash xizmati, chorvachilikda veterinariya xizmati va hokazo.

Funksional yo‘nalishiga ko‘ra qishloq xo‘jaligi infratuzilmasi ikki guruhga bo‘linadi: bevosita qishloq xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatuvchi va tayyor mahsulotni iste’molchilarga yetkzaib berishga xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilma. Birinchi guruhga transport, texnik ta’mirlash, melioratsiya, suv ta’minoti, agrotexnik, veterinariya xizmatlari kabi bevosita qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi jarayoniga xizmat ko‘rsatuvchi sohalar kiradi. Ikkinchi guruhga esa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tayyorlash, ombor xo‘jaligi, tashish, sotish kabi xizmatlarni ko‘rsatuvchilar kiradi.

Infratuzilma subyektlarining samarali faoliyati iqtisodiy tizimning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, ular tomonidan ko‘rsatiladigan turli yo‘nalishdagi xizmatlar tufayli barcha tarmoq hamda korxonalarning o‘zaro hamkorligi mustahkamlanadi.

Mustaqillikka erishilgandan so‘ng barcha turdagi infratuzilma subyektlarining samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash maqsadida davlat tomonidan iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash tizimi amaliyotga joriy qilinib, u davr talablariga muvofiq ravishda takomillashtirilib borilmoqda. Mamlakatimizda bevosita shakllangan ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma subyektlarini saqlab qolgan holda bozor munosabatlariga xos bo‘lgan infratuzilma subyektlarini shakllantirish va rivojlantirish iqtisodiy islohotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

2. Qishloq xo‘jaligida infratuzilmaning turlari va ularning tashkil etilishi.

Qishloq xo‘jaligi infratuzilmasi – tarmoqdagi korxonalarning samarali faoliyatini ta’minlash, qishloq xo‘jaligining pirovard mahsulotini ko‘paytirish va sifatini yaxshilashga yo‘naltirilgan sohalar majmuidir. Qishloq xo‘jalik korxonalarining faoliyatida infratuzilma sohalari, jumladan elektr energiyasi ta’minoti, transport xizmati, aloqa xizmati, mahsulotni saqlash joylari, ta’mirlash va texnik xizmat, moddiy-texnika ta’minoti tashkilotlari, muhandislik, zooveterinariya, agrokimyo xizmati, mahsulotlarni iste’molchiga yetkazib berishni ta’minlaydigan tashkilotlar va boshqa shu kabilarning rivojlanishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ishlab chiqarish jarayoniga ta’sir darajasiga ko‘ra qishloq xo‘jaligi infratuzilmasi ishlab chiqarish, ijtimoiy va bozor infratuzilmalaridan tashkil topadi.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish infratuzilmasi. Qishloq xo‘jaligining ishlab chiqarish infratuzilmasi tarkibiga bevosita qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish jarayoniga xizmat qiluvchi sohalar kiradi: ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan transport, yo‘l xo‘jaligi, ta’mirlash ustaxonalari, ombor xo‘jaliklari, kommunikatsiya tizimi va telegraf, aloqa, elektroenergiya uzatish liniyalari, texnik xizmat stansiyalari, ilmiy-ishlab chiqarish laboratoriyalari, o‘simliklar muhofazasi, veterinariya xizmati va boshqa shu kabi xizmatlar ko‘rsatuvchilar kiradi (12.2-rasm).



12.2-rasm. Ishlab chiqarish infratuzilmasining tarkibi

Ishlab chiqarish infratuzilmasining shakllanishiga ko‘pgina omillar ta’sir etadi. Ularning ichida tuproq-iqlim sharoiti, hudud relyefi, suv bilan ta’minlanishi, yo‘llar holati, korxonaning joylashishi, ishlab chiqarish obyektlarining joylashishi, qo‘llanilayotgan texnologiyalar, ishlab chiqarish ixtisoslashishi va konsentratsiyalashish darajasiga alohida e’tibor beriladi.

Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish infratuzilmasini tashkil etishda agrosanoat majmuasining ham o‘rni katta. Chunki agrosanoat majmuasining uchinchi bo‘g‘iniga qishloq xo‘jaligiga turli xizmatlarni ko‘rsatuvchi sohalar kirsa, to‘rtinchi bo‘g‘iniga esa qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash, tayyorlash va qayta ishlash bilan shug‘ullanuvchilar kiradi. Demak, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishda agrosanoat majmuasi faoliyatini

takomillashtirish va unga kirivchi sohalar korxonalari bilan qishloq xo‘jalik korxonalarining aloqalarini mustahkamlash ham muhim ahamiyatga ega.

Qishloq xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatuvchi ishlab chiqarish infratuzilmasi sohalarining ayrimlari davlat tasarrufida qolgan bo‘lib, bular qatoriga elektr uzatish, yo‘l xo‘jaligi, aloqa va boshqa shu kabi tarmoqlar kiradi. Bu tarmoqlar rivojlangan davlatlardagi kabi davlat tasarrufida bo‘lib qolishi maqsadga muvofiqdir. Chunki bozor munosabatlari sharoitida mazkur tarmoqlarda faoliyat yurituvchi yirik korxonalar soni kam bo‘ladi va ular xususiylashtirilsa, yirik monopolistlar paydo bo‘lishi mumkin.

Qishloq xo‘jaligi korxonalari faoliyatida ishlab chiqarish infratuzilmasining bir turi bo‘lgan aloqa xizmatining o‘rni va ahamiyati juda muhimdir. Chunki, qishloq xo‘jalik korxonalarida operativ hisobni yuritishda aloqa xizmati muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda xo‘jalikning ichki tizimida bo‘layotgan barcha jarayonlardan operativ hisob orqali xabardor bo‘lib turish hamda yuzaga kelgan muammolarni o‘z vaqtida hal etish imkoni yaratiladi. Bundan tashqari, yetishtirilgan mahsulotlarni sotishda bozor konyunkturasini o‘rganish va baholarning o‘zgarib turishidan xabardor bo‘lish jarayonida ham aloqa xizmati zarur bo‘ladi. Aloqa tizimining eng zamonaviy uskunalaridan foydalanish qishloq xo‘jalik korxonasida ishlab chiqarish jarayonini to‘g‘ri tashkil etish va xarajatlarni tejashga ko‘maklashadi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasining asosiy sohalaridan biri yo‘l xo‘jaligidir. Qishloq xo‘jaligida eng ko‘p tarqalgan va asosiy tarmoq avtomobil yo‘llari hisoblanadi. Tarmoqlararo xarakterga ega bo‘lgan yo‘llar qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni iste’molchilargacha yetkazish kabi keng ko‘lamli va salmoqli vazifalarni bajaradi. Xo‘jalik ichidagi yo‘llar mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha faoliyatlarga xizmat qiladi. Qishloq xo‘jaligida yo‘llarning joylashishi, asfaltlanganlik darajasi va tekisligi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasining muhim turlaridan biri – temir yo‘l transportidir. Temir yo‘l transporti barcha davlatlar iqtisodiyotining asosiy qon tomiri hisoblanadi. Ayni vaqtda mamlakatimizda yuk tashishning qariyb 70 foizi, eksport va import uchun yuk tashish umumiy hajmining esa 80 foizi temir yo‘l orqali amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda temir yo‘l tizimini rivojlantirish bo‘yicha ham izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Ishlab chiqarish infratuzilmasining muhim sohalaridan yana biri elektr ta’minoti tizimidir. Xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlaridagi kabi qishloq xo‘jaligida ham elektr energiyasi bilan ta’minlanganlik va undan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Qishloq xo‘jaligida elektr energiyasi asosan yoritish, isitish, suv ko‘tarib beruvchi nasos stansiyalarni elektrlashtirish, statsionar va ko‘chma sug‘orish agregatlarini elektrlashtirish, inkubatorlarda, issiqxonalarda hamda chorvachilik fermalarida mikroiqlim hosil qilish va boshqalar uchun ishlatiladi.

Elektr uzatish tarmoqlari va tarqatuvchi hamda ishlab chiqaruvchi obyektlar qurilishi qanchalik mustahkam va kafolatli darajada bo‘lsa, nafaqat qishloq xo‘jaligi, balki, xalq xo‘jaligining barcha sohalari samarali faoliyat ko‘rsatishi ta’minlanadi. Bu tarmoqning qishloq xo‘jaligidagi o‘rni juda muhimligi shundaki, u birinchidan, ekinlarni sug‘orish bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarda suv ko‘tarish qurilmalari uzluksiz ishlashi, ikkinchidan, yetishtirilgan ayrim mahsulot turlarini omborxonalar va sovutgichlarda buzilmasdan saqlanishini ta’minlaydi. Bundan tashqari, elektr uzatish tarmog‘i chorvachilik sohasi yoki parrandachilik tarmoqlarida elektr energiyasidan foydalanish jarayonida yetishtiriladigan mahsulot miqdori va sifatini oshirishda o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish jarayonini elektrlashtirish korxonalarning xo‘jalik faoliyati keskin rivojlanishiga olib keladi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini elektrlashtirish mehnat unumdorligini oshiradi, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi. Masalan, g‘allachilikda elektr energiyasidan foydalanish mehnat unumdorligini oshiradi. G‘allani tozalashda «OS-1», «OS-3», «OB-10» markali g‘alla tozalash mexanizmlaridan foydalanish mehnat sarfini 20-25 foiz, mahsulot tannarxini esa 15-35 foiz kamaytiradi.

Chorvachilikda elektr energiyasidan foydalanish mehnat sarfini keskin kamaytirishga olib keladi. Elektr energiyasidan foydalanish fermadagi bir qator ishlar, shu jumladan, suv bilan ta’minlash, ozuqalarni hayvonlarga berish, sigirlarni sog‘ish, yuklarni tashish, qo‘y junlarini qirqish, sutga dastlabki ishlov berish, inkubatsiya va hokazo ishlarni mexanizatsiyalar yordamida bajarish imkonini beradi.

Yem-xashakni molga berish oldidan tayyorlash ishlarida elektr energiyasidan foydalanish mehnat sarfini 75-90 foizga kamaytiradi, ozuqa sifatini yaxshilaydi. Chorva mollarini sog‘ishni elektrlashtirish katta ahamiyatga ega. Sigir sog‘ish apparatlari yordamida sog‘ilganda

mehnat sarfigina tejalib qolmay, balki sog‘uvchilarning mehnati ham yengillashadi. 1 sentner sut qo‘lda sog‘ilganda 4,4 kishi-soat sarflangani holda, sog‘ish apparati yordamida sog‘ilganda 2,5 kishi-soat, sog‘ish zalida sog‘ilganda esa 1,8 kishi-soat sarflanadi. Chorvachilikda elektr energiyasidan foydalanish sut sog‘ib olish mehnatini tejabgina qolmay, balki sog‘iladigan sutning tozalik darajasini ham oshiradi.

Qo‘y junini mexanizmlar bilan qirqish mehnat unumdorligini 3-4 barobar oshiradi. Qirqib olingan jun sifati ham ancha yuqori bo‘ladi.

Parrandachilik fermalarini tunda elektr energiyasi bilan yoritish natijasida tovuq va o‘rdaklardan olinadigan tuxum 25-30 foizga ko‘payadi. Elektr energiyasidan xo‘jalikdagi yordamchi tarmoqlarda, jumladan, ustaxona, tegirmon, yog‘och arralash va hokazo ishlarda foydalanish katta iqtisodiy samara beradi.

Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish infratuzilmasining yirik tarmoqlaridan yana biri transport xo‘jaligi hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligida transport xizmati yordamida korxonalar bir-biri bilan bog‘lanib, ishlab chiqarish jarayoni uzluksiz davom etishi uchun barcha sharoitlar yaratiladi. Transport vositalaridan foydalanish mahsulot ishlab chiqarish va uni realizatsiya qilish uchun sarflanadigan xarajatlarni kamaytiradi, vaqtni qisqartiradi, mehnat unumdorligini oshiradi va pirovard natijada mahsulot tannarxini pasaytiradi.

Transport vositalaridan unumli foydalanish qishloq xo‘jaligida yo‘llar qurish, ularning yuk tashish qobiliyatini oshirish, ta’mirlash ishlarini muntazam ravishda olib borish, yo‘l xo‘jaligi ixtiyoridagi texnikani takomillashtirish va ulardan unumli foydalanishni talab etadi. Kuzatishlar avtomobilning yuk ko‘tarish qobiliyati qattiq qoplamali yo‘llarda qattiq qoplamasiz yo‘llardagiga nisbatan 25-80 foiz, tezligi 2-3 marta oshishini, yonilg‘i sarfini esa 2 marta kamayishini ko‘rsatadi. Shuning uchun xo‘jaliklararo va xo‘jalik ichidagi yo‘llarni rekonstruksiyalash va o‘z muddatida ta’mirlash, yo‘l qurilishini kengaytirish va qishloq xo‘jaligini yanada intensiv rivojlantirish uchun real sharoitlar yaratadi.

Qishloq xo‘jaligida transport vositalaridan foydalanish xalq xo‘jaligining boshqa tarmoqlariga nisbatan o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlarga quyidagilar kiradi:

- qishloq xo‘jaligi mahsulotlari keng hududda yetishtirilishi tufayli ularni tashish bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi;
- qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining mavsumiyligi tufayli yuk tashishni yil mobaynida bir me’yorda amalga oshirib bo‘lmaydi, ayrim

hollarda katta miqdordagi yuklarni qisqa vaqt ichida tashish zarurati paydo bo‘ladi;

- turli xil transport vositalari talab etiladi;
- tashiladigan yuklar turi, hajmi, xususiyatiga ko‘ra turlicha bo‘ladi;
- yuk tashish masofasi odatda uzoq bo‘ladi.

Qishloq xo‘jaligida transport vositalaridan foydalanishning bu xususiyatlari qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tannarxida transport xarajatlari miqdorining oshishiga olib keladi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, transport xarajatlari don mahsulotlari tannarxida 26 foizni, makkajo‘xori tannarxida 15 foizni tashkil etadi.

Yetishtiriladigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini iste’molchilargacha bo‘lgan uzluksizligini ta’minlashga ishlab chiqarish infratuzilmasining yana bir yirik tarmog‘i - mahsulotlarni saralash, tayyorlash, saqlash va sotish bilan bog‘liq bo‘lgan sohalar xizmat qiladi. Xo‘jaliklarda mahsulot ishlab chiqarilgandan so‘ng uni saralash va tayyorlash ishlari olib boriladi. Bu esa, o‘z navbatida, mahsulotlarni saqlash uchun tayyorgarlik ko‘rishga imkon yaratadi. Chunki saralash jarayonida mahsulotning pishish darajasi, navi va turiga qarab, saqlash dasturi ishlab chiqiladi. Mahsulotning bir qismini qayta ishlashga topshirish, ikkinchi bir qismini esa saqlash masalasi hal etiladi. Mahsulotlarni saralash ishlari olib borilmasa yoki saralash jarayonidagi e’tiborsizlik va kamchiliklar tufayli isrofgarchilikka yo‘l qo‘yilishi mumkin. Saralangan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tayyorlash ishlari ularning sifatiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Qishloq xo‘jaligining ayrim mahsulotlariga, ayniqsa, meva va sabzavotlarga tez va soz xizmat ko‘rsatilsa, ma’lum qismi tayyorlov tashkilotlariga sotilsa, nobudgarchilikka yo‘l qo‘yilmaydi. Qishloq xo‘jaligi korxonalarida yetishtiriladigan meva, sabzavot va don mahsulotlarini saqlash, birinchidan, xo‘jaliklar moliyaviy holatining yaxshilanishiga ta’sir ko‘rsatsa, ikkinchidan, iste’molchilarning ushbu mahsulotlarga bo‘lgan talabini yil davomida doimiy qondirish imkonini beradi. Chunki, ushbu mahsulotlar insonlarning oziq-ovqatga va turli vitaminlarga bo‘lgan ehtiyojini qoplashda juda muhim ahamiyatga egadir.

Meva va sabzavotlarni saqlashda maxsus omborlarni tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Omborlarda faol ventilyatsiya tizimi mavjud bo‘lganda mahsulot yaxshi saqlanadi. Hozirgi paytda meva va sabzavotlarning gaz muhitini boshqarib saqlash Niderlandiya, AQSh, Germaniya, Xitoy va boshqa shu kabi rivojlangan mamlakatlarda keng

qo‘llaniladi. Bundan tashqari, asrlar davomida ajdodlarimizning qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash bo‘yicha tajribalaridan ham unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Chorvachilik mahsulotlarining ko‘pgina turlari ham tez buziluvchi bo‘lib, ularni ma’lum muddat maxsus sovutiladigan inshootlarda saqlashni talab etadi. Masalan, sut, go‘sht, tuxum va boshqa shu kabi mahsulotlarni maxsus inshootlarda saqlab, uni sotishni yo‘lga qo‘yish qishloq xo‘jalik korxonasining daromadlari ko‘payishiga xizmat qiladi. Chunki ularning tez buziluvchanligi sababli qishloq xo‘jaligi korxonalari ushbu mahsulotlarni arzon baholarda bo‘lsa ham tezroq sotishga harakat qiladi, ayrim hollarda esa ushbu mahsulotlarning sifati buzilishi katta miqdordagi zararlarni keltirib chiqaradi. Shu sababli chorvachilik tarmog‘ida ham tayyorlash va saqlash xizmatini ko‘rsatuvchilarga ehtiyoj mavjud.

Qishloq xo‘jaligi ijtimoiy infratuzilmasi. Qishloq xo‘jaligi korxonalarining samarali faoliyati ishchi-xodimlarga zarur shart-sharoitlar yaratishni talab etadi. Ijtimoiy infratuzilma sohalari bu vazifani bajarishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Maqsadli yo‘nalishi, shakllanish manbai, hududiy joylashuvi va ishlab chiqarish jarayonida qatnashishiga ko‘ra ijtimoiy infratuzilma sohalarini ikki guruhga ajratish mumkin: korxonada faoliyat yurituvchi bo‘limlar va sohalar hamda aholiga xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot va muassasalar.

Birinchi guruhga korxonalar hisobidan barpo etilgan, xo‘jalik bo‘limlarida joylashgan hamda mehnat sharoitlari, texnika xavfsizligi va ishlab chiqarish jarayonida ishchilarning hordiq olishi hamda boshqa shart-sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan obyektlar tegishlidir. Bu guruh tarkibiga korxonadagi umumiy ovqatlanish punktlari (bufetlar, oshxonalar, tamaddixonalar), sog‘liqni saqlash va hordiq obyektlari (profilaktoriylar, dam olish xonalari, yuvinish xonalari va boshqalar), yong‘in xavfsizligi punktlari kiradi.

Ikkinchi guruhga esa qishloq xo‘jaligi korxonalarining aholi punktlarida joylashgan, aholining talablarini qondirish uchun mo‘ljallangan va asosan davlat resurslari, agrosanoat uyushmalari,

agrofirmalar mablag‘lari hisobidan va xususiy tadbirkorlar tomonidan tashkil etiladigan ijtimoiy infratuzilma obyektlari kiradi. Ular jumlasiga kommunal xo‘jaligi korxonalari, sog‘liqni saqlash, sport, ta’lim va maktabgacha tarbiya muassasalari, madaniyat uylari va klublar, savdo korxonalari hamda maishiy xizmat korxonalari taalluqlidir. Maishiy xizmat turlariga quyidagilar kiradi: poyabzal ta’mirlash, kiyim-kechak tikish, to‘qish va ta’mirlash, teleradio, video, audio apparatlari va ro‘zg‘or jihozlarini ta’mirlash, metall buyumlarini tayyorlash va ta’mirlash, avtomobillarga texnik xizmat ko‘rsatish, mebel yasash va ta’mirlash, kiyimlarni kimyoviy tozalash va bo‘yash, uy-joylarni ta’mirlash va qurish, suratxona, hammom, sartarosh va kosmetolog xizmati, buyumlarni ijaraga berish xizmati va boshqa shu kabilar. Ijtimoiy infratuzilmaning ushbu sohalari mehnat sohasi va ijtimoiy ahvolidan qat’i nazar qishloq joylaridagi aholining hammasiga xizmat ko‘rsatishga yo‘naltirilgan bo‘ladi va mehnat resurslarini qayta tiklashga xizmat ko‘rsatadi.

Ikkinchi guruhga esa qishloq xo‘jaligi korxonalarining aholi punktlarida joylashgan, aholining talablarini qondirish uchun mo‘ljallangan va asosan davlat resurslari, agrosanoat uyushmalari, agrofirmalar mablag‘lari hisobidan va xususiy tadbirkorlar tomonidan tashkil etiladigan ijtimoiy infratuzilma obyektlari kiradi. Ular jumlasiga kommunal xo‘jaligi korxonalari, sog‘liqni saqlash, sport, ta’lim va maktabgacha tarbiya muassasalari, madaniyat uylari va klublar, savdo korxonalari hamda maishiy xizmat korxonalari taalluqlidir. Maishiy xizmat turlariga quyidagilar kiradi: poyabzal ta’mirlash, kiyim-kechak tikish, to‘qish va ta’mirlash, teleradio, video, audio apparatlari va ro‘zg‘or jihozlarini ta’mirlash, metall buyumlarini tayyorlash va ta’mirlash, avtomobillarga texnik xizmat ko‘rsatish, mebel yasash va ta’mirlash, kiyimlarni kimyoviy tozalash va bo‘yash, uy-joylarni ta’mirlash va qurish, suratxona, hammom, sartarosh va kosmetolog xizmati, buyumlarni ijaraga berish xizmati va boshqa shu kabilar. Ijtimoiy infratuzilmaning ushbu sohalari mehnat sohasi va ijtimoiy ahvolidan qat’i nazar qishloq joylaridagi aholining hammasiga xizmat

ko‘rsatishga yo‘naltirilgan bo‘ladi va mehnat resurslarini qayta tiklashga xizmat ko‘rsatadi.



12.3-rasm. Qishloq xo‘jaligida ijtimoiy infratuzilmaning tarkibi.

Qishloq xo‘jaligida ijtimoiy infratuzilma obyektlariga kommunal uy xo‘jaliklari, tibbiyot muassasalari, ta’lim va maktabgacha tarbiya muassasalari, umumiy ovqatlanish tashkilotlari, sport-sog‘lomlashtirish tashkilotlari, o‘quv markazlari, mehnat muhofazasi bo‘yicha xizmat sohalari, aholiga transport hamda aloqa xizmati ko‘rsatuvchilar va boshqa shu kabilar kiradi.

Ijtimoiy infratuzilma ishchilarning mehnat jarayonida samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga yo‘naltirilgan sohalar majmuidir. Ijtimoiy infratuzilmaning asosiy vazifasi qishloq aholisining madaniy-maishiy sharoitlarini yaxshilash hisoblanadi. Ijtimoiy infratuzilma sohalari yakuniy mahsulot yaratishda bevosita ishtirok etmaydi, lekin ular ishlab chiqarish jarayonining normal davom etishi uchun shart-sharoitlarni ta’minlaydilar. Bu o‘rinda xalqimizning “Yaxshi dam - mehnatga hamdam” maqolini misol keltirish mumkin. Qishloq xo‘jaligi mehnatkashlarining yashash sharoiti, madaniy dam olishi, ularga ko‘rsatiladigan maishiy xizmatlar qanchalik yaxshi bo‘lsa, ularning mehnat unumdorligi ham shunga yarasha bo‘ladi.

Ijtimoiy infratuzilma bo‘limlari nafaqat korxona ishchilari, balki ularning oila a’zolari kommunal-maishiy talablarini qondirish uchun ham shart-sharoitlarni yaratishda qatnashadi.

Mamlakatimizda ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash uchun qilingan xarajatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar 12.1-jadvalda keltirilgan.

12.1-jadval

Mamlakatimizda ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash uchun qilingan xarajatlar

	2018		2019	
	mlrd. so‘m	xarajatlarga nisbatan foizda	mlrd. so‘m	xarajatlarga nisbatan foizda
Xarajatlar (maqsadli jamg‘armalarsiz) - jami	79736,1	100,0	118008,6	148,0
shundan:				
Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlari	39026,9	48,9	63542,3	79,7
shundan:				
ta’lim	20631,9	25,9	33536,1	28,4
sog‘liqni saqlash	9585,9	12,0	14977,4	12,7

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlari 2019-yilda 2018-yilga nisbatan keskin oshgan. 2018-yilda ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlari jami xarajatlar tarkibida 48,9 foizni tashkil etgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich 2019-yilda 79,7 foizni tashkil etgan.

Ijtimoiy infratuzilma qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining xususiyatlarini aks ettiradigan o‘ziga xos jihatlarga ega. Ijtimoiy infratuzilma obyektlari qishloq xo‘jaligi korxonalarining moliyaviy resurslari va tadbirkorlarning pul mablag‘lari hisobiga yoki davlat investitsiyalarini qishloqlarda turar-joylar, bolalar bog‘chalari, maktablar, poliklinikalar, aloqa tarmoqlari va boshqalar qurilishiga samarali sarflash orqali barpo etiladi. Qishloq joylardagi ijtimoiy infratuzilma sohalari nafaqat qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida band ishchilarga, balki qishloq xo‘jaligi korxonasi hududida yashovchi aholining boshqa qismiga ham xizmat ko‘rsatadi.

Ijtimoiy infratuzilma obyektlarining tashkil etilishi va maqsadga muvofiq ishlab turishi ular joylashgan qishloq xo‘jaligi korxonasining iqtisodiy rivojlanganlik darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Xo‘jaliklar ijtimoiy infratuzilma bo‘limlarini shakllantirishga zarur moddiy-pul va mehnat resurslarini ajratadilar. Qishloq joylarda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga hukumatimiz tomonidan alohida e’tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda xizmat ko‘rsatish tarmoqlari asosan shahar va tuman markazlarida ko‘proq joylashgan bo‘lsa, endi uni shahar atrofidagi aholi punktlari, qishloqlarda tashkil etish zarurati ortmoqda. Xizmat ko‘rsatish sohalarining rivojlanganlik darajasi mamlakatning taraqqiy etganligi, jamiyatning rivojlanganligi va aholining turmush farovonligini ko‘rsatuvchi muhim mezondir.

Qishloq xo‘jaligida bozor infratuzilmasi. Bozor infratuzilmasi mamlakatda bozor munosabatlarini barpo etish va rivojlantirishga xizmat ko‘rsatuvchi sohalar majmui bo‘lib, bozor xizmati tarmoqlarini shakllantirish va rivojlantirish maqsadida tijorat banklari tarmog‘i, zamonaviy moliya va soliq tizimi, audit, sug‘urta, birjalar faoliyati, kredit uyushmalari, konsalting firmalari, bojxona tizimi va boshqa shu kabilarni o‘z ichiga oladi.

Qishloq xo‘jaligida bozor infratuzilmasi subyektlari tarkibiga kiradigan tashkilotlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni samarali yo‘lga qo‘yish asosida iqtisodiyotda bozor munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirish mumkin. Ushbu tadbir bozor infratuzilmasi subyektlarini

qishloq hududlari bo‘yicha joylashtirish bilan bir qatorda ular tomonidan yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga ham asos bo‘ladi.

12.4-rasm. Qishloq xo‘jaligida bozor infratuzilmasi subyektlari.

Bozor infratuzilmasi subyektlari tarkibiga quyidagi tashkilot, idora va muassasalar kiradi: monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi; iqtisodiy nochor korxonalar ishlari qo‘mitasi; birjalar va ularning tarkibida ish yuritadigan brokerlar, maklerlar va agentlar xizmatlari; savdo-tijorat markazlari, savdo uylari, savdo-sanoat palatalari, tashqi savdo firma va birlashmalari; ulgurji, chakana savdo va boshqa turdagi barcha savdo tashkilotlari; kim oshdi savdosi o‘tkazuvchi idora va yarmarka; markaziy va tijorat banklari; lizing va injiniring bo‘yicha muassasa va tashkilotlar; marketing maslahati va menejment markazlari; mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash muassasalari, markazlar; mehnat bandligi bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar; tijorat va ilmiy-texnika axborotlari markazlari; reklama byurolari; sug‘urta xizmatini ko‘rsatuvchi muassasalari; soliq tizimi idoralari va inspeksiyalari; bojxona tizimi idoralari; auditorlik xizmati firmalari; konsalting xizmati muassasalari; kasaba uyushma tashkilotlari; loyihalash institut va tashkilotlari; vositachilik xizmati muassasalari; notarial idoralari; advokatura idorasi; tadbirkorlik uyushmasi; investitsiya jamg‘arma kompaniyalari; lombardlar; agrofirma; kredit uyushmalari; iste’molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari va shunga o‘xshash barcha xo‘jalik yuritish

subyektlari va jismoniy shaxslar o‘rtasida sodir bo‘ladigan bozor munosabatlarini tashkil etuvchi va muvofiqlashtiruvchi muassasalar hisoblanadi.

Qishloq xo‘jaligida bozor infratuzilmasining ham o‘rni beqiyosdir. Qishloq xo‘jaligida bozor infratuzilmasining bir subyekti bo‘lgan lizing kompaniyalari tarmoqni yuqori samarali zamonaviy texnika vositalari bilan ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Qishloq xo‘jaligiga yetkazib berilayotgan traktorlar va o‘rim-yig‘im texnikasi sonini oshirish hamda ular uchun hisob-kitob qilish mexanizmini takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 2-noyabrdagi “Qishloqni lizing shartlarida qishloq xo‘jaligi texnikasi bilan ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 424-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur hujjatga asosan “O‘zqishloqxo‘jalikmashlizing” kompaniyasi tashkil etildi va uning tuzilmasi tasdiqlandi. Bundan tashqari “O‘zqishloqxo‘jalikmashxolding” kompaniyasi zavodlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan qishloq xo‘jaligi mashinalarini (birinchi navbatda traktorlar va o‘rim-yig‘im texnikasini) mashina-traktor parklariga va fermer xo‘jaliklariga lizingga berishning tashkiliy, iqtisodiy hamda texnikaviy mexanizmlari belgilab qo‘yildi. Hozirgi vaqtda hukumatimiz tomonidan qishloq xo‘jaligining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashda lizing imkoniyatlaridan keng foydalanishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

3. Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar.

Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va aholi bandligini oshirishning muhim omili sifatida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirishga alohida e’tibor berib kelinmoqda. Mazkur ustuvor vazifaga alohida e’tibor qaratishning bir qator sabablari mavjud.

Birinchidan, infratuzilmani rivojlantirish yangi korxonalarni joylashtirish va butun iqtisodiyotni taraqqiy ettirish uchun zarur qulay shart-sharoitlar yaratadi, mamlakatimizning boy mineral-xomashyo resurslarini o‘zlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ikkinchidan, ishlab chiqarish infratuzilmasi, avvalambor, avtomobil va temir yo‘llarning rivojlangan tizimi, ularning samarali faoliyati ishlab chiqarishdagi umumiy xarajatlarni kamaytirishning muhim sharti va

omilidir. Bu esa, o‘z navbatida, ishlab chiqarilayotgan mahsulot va butun iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini oshiradi.

Uchinchidan, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, aholini toza ichimlik suvi, energiya bilan ta’minlash, ijtimoiy soha obyektlarini barpo etish, pirovard natijada aholining turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, infratuzilmani rivojlantirish ko‘p mehnat talab qiladigan keng ko‘lamli soha hisoblanadi. Bu yangi ish o‘rinlarini tashkil etish, aholining, ayniqsa, yoshlarning ish bilan bandligini ta’minlash, odamlarning daromadi va farovonligini oshirish imkonini beradi.

Bundan ko‘rinadiki, mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, iqtisodiyotning real sektorini yanada rivojlantirish ko‘p jihatdan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish infratuzilmasi bilan ta’minlanganlik darajasiga bog‘liq.

Mamlakatimizda transport infratuzilmasini, birinchi navbatda avtomobil va temir yo‘llarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Umumiy foydalanishda bo‘lgan avtomobil yo‘llarini rivojlantirish dasturining amalga oshirilishi bugungi kunda respublikamizning barcha mintaqalari o‘rtasida yil davomida ishonchli transport aloqasini ta’minlamoqda. Buning natijasida mamlakatimizdagi korxona va tashkilotlar ishlab chiqarish faoliyatining rivoji va uzluksizligi ta’minlandi.

Iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va xalqimiz farovonligini oshirishda mamlakatimiz hududlarida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mustaqillikning ilk davridan mamlakatimiz hududi bo‘ylab, qolaversa jahonning turli nuqtalari bilan tutashtiruvchi, qulay, samarali va eng muhimi, ishonchli avtomobil yo‘llar tizimining barpo etishga alohida e’tibor berilmoqda. Shunga ko‘ra, hozirda yuqori darajadagi xalqaro standartlarga javob beradigan, mamlakatimizning barcha hududlarini o‘zaro ishonchli bog‘laydigan va mintaqaviy hamda jahon bozorlariga chiqishni ta’minlaydigan O‘zbekiston milliy avtomagistralini qurish va rekonstruksiya qilish bo‘yicha keng ko‘lamli dastur amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari, mamlakatimizning barcha mintaqalarini yagona temir yo‘l tizimi bilan bog‘lash, jahon bozorlariga chiqish maqsadida temir yo‘llar qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish, elektrlashtirishga katta e’tibor berilmoqda.

“Navoiy-Uchquduq-Sulton Uvaystog‘-Nukus” temir yo‘li orqali shimoliy mintaqalarni mamlakatimizning markaziy hududlari bilan bog‘lashga erishildi. Amudaryo uzra bunyod etilgan mahobatli ko‘prik Qoraqalpog‘iston va Xorazm vohasini mamlakatimizning boshqa viloyatlari bilan tutashtirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Mustaqillikning 16 yilligi arafasida qurib bitkazilgan “Toshguzar-Boysun-Qumqo‘rg‘on” temir yo‘l liniyasi yagona milliy temir yo‘l tizimini yaratish borasida amalga oshirilgan navbatdagi muhim bosqichdir. Qashqadaryo viloyatining Toshguzar qishlog‘idan boshlanib Surxondaryo viloyatining Qumqo‘rg‘on tumani markazigacha davom etadigan, dengiz sathidan 1800 metr balandlikdagi Hisor tog‘ tizmalarini kesib o‘tgan bu yangi temir yo‘lning loyiha qiymati 447 mln. AQSh dollariga teng bo‘lib, uni rejalashtirish va amalga oshirishda Yaponiyalik hamkorlar yaqindan yordam berdilar.

Uzunligi 223 kilometrdan iborat bu temir yo‘l qisqa davrda, hammasi bo‘lib 33 oyda, muddatidan ikki oy oldin ishga tushirildi va mazkur temir yo‘l mamlakatimizning janubiy mintaqalari va poytaxtimiz orasidagi yuk va yo‘lovchi tashish masofasini 170 kilometrga qisqartirdi.

Mazkur temir yo‘lning mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun quyidagi ijobiy ta’sirlari bor:

- respublikamizning janubiy mintaqasi – Qashqadaryo va Surxondaryo vohalarini boshqa hududlar bilan bog‘laydi. Vatanimizning janubiy hududlarini har tomonlama keng qamrovli va ishonchli, mustahkam va samarali yo‘l bilan bog‘laydi;
- Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining chetda qolib kelayotgan boy gaz, rangli metall, ko‘mir, kaliy tuzi, qurilish materiallari va boshqa foydali qazilmalarini o‘zlashtirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi;
- temir yo‘l qatnovining yo‘lga qo‘yilishi bu yerda iqtisodiyot boshqa sohalari va infratuzilma obyektlari rivojlanishiga imkon yaratadi. Tog‘-kon sanoati, qurilish va boshqa sohalarda yuzaga keladigan ijobiy o‘zgarishlar hisobiga tegishli mintaqalarning ishlab chiqarish quvvatlarini izchil rivojlantiradi;
- bunday ulkan loyihaning amalga oshirilishi shu mintaqada yashaydigan aholini ish bilan ta’minlashga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Temir yo‘l transporti tizimida, uning korxona va tashkilotlarida, joylarda tashkil etilayotgan infratuzilma obyektlarida ko‘plab yangi ish o‘rinlari ochish imkoni yuzaga keladi;

- bu yo‘l O‘zbekistonning chet davlatlarga, avvalo Transafg‘on temir yo‘l koridori orqali yaqin kelajakda to‘g‘ridan-to‘g‘ri Hind okeani, Janubiy va Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari portlariga chiqish va eksport imkoniyatini, shu bilan birga, yurtimizning tranzit rolini kengaytirish borasidagi salohiyatini keskin oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 18-iyundagi “Angren-Pop elektrlashtirilgan temir yol liniyasi qurilishini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risidaga”gi qarori asosida elektrlashtirilgan Angren-Pop temir yo‘li qurildi. Mazkur temir yo‘l belgilangan muddatidan 4 oy oldin, ya’ni atigi 32 oy ichida 123,2 kilometrlik Angren-Pop temir yo‘li va uning tarkibida 19,2 kilometrlik Qamchiq tunneli qurilib, foydalanishga topshirildi. “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati tomonidan bunyod etilgan mazkur temir yo‘l liniyasi va Xitoylik hamkorlar bilan birgalikda qurilgan Qamchiq tunneli dunyo miqyosida noyob loyihalardan hisoblanadi. Ushbu qurilish obyektida jami 43 million kub metr tuproq, 16,3 million kub metr burg‘ulash-portlatish ishlari bajarildi. Bundan tashqari 285 ta sun’iy inshoot va suv o‘tkazish quvurlari, umumiy uzunligi 2,1 kilometrlik 15 ta temir yo‘l ko‘prigi, 6 ta yo‘l o‘tkazgich, 4 ta stansiya, 4 ta razyezd va 2 ta vokzal qurib bitkazildi. Qurilgan ko‘priklar orasida Markaziy Osiyoda yagona hisoblangan balandligi 57 metr, uzunligi 500 metrni tashkil etuvchi yoysimon ko‘rinishdagi ko‘prik ham mavjud. 123,2 kilometrlik temir yo‘l to‘liq elektrlashtirilib, 2 ta elektr tortish stansiyasi qurildi.

Angren-Pop elektrlashtirilgan temir yol liniyasi qurilishi natijasida yurtimizda yagona milliy temir yol tarmog‘i vujudga keldi.

Aholi turmush darajasini oshirish va farovonligini yuksaltirishda ijtimoiy infratuzilma xizmatlarining ham roli beqiyosdir. Shunga ko‘ra, mamlakatimizda ushbu sohani rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Keyingi yillarda respublikamizda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish borasida ahamiyatli yutuq va muvaffaqiyatlarga erishilmoqda.

Ma’lumki, 2008-yil 5-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 16 yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan tantanali yig‘ilishda 2009-yil “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” deb e’lon qilindi. Mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha chora-tadbirlarni izchil va tizimli amalga oshirish maqsadida “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” Davlat dasturi ishlab chiqildi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 26-yanvardagi PQ-

1046 sonli Qarori asosida kuchga kiritildi. Ushbu dasturda amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan chora-tadbirlarning prinsipial ahamiyatga ega bo‘lgan asosiy yo‘nalishlaridan biri – qishloqlarda hayot sifatini tubdan yuksaltirish, qishloq joylarda infratuzilma tarmoqlarini yanada rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish belgilab berildi.

Aholi turmush farovonligini oshirishning muhim ko‘rsatkichlaridan biri sifatida uy-joylarni qurish va foydalanishga topshirish ishlarining jadallashuvi natijasida yillar davomida umumiy uy-joy fondi hajmi oshib bormoqda.

Qishloq joylarda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va shu asosida qishloqlarimiz qiyofasini tubdan o‘zgartirish maqsadida 2009-yilning yanvar oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qishloqlarimizning zamonaviy arxitektura nuqtai nazaridan rejalashtirilishi, qishloq joylarda uy-joy va ijtimoiy obyektlar qurilishini loyihalashtirish va bunyod etish tizimini takomillashtirish, “Qishloqqurilishloyiha” institutini tashkil etish bo‘yicha qarori qabul qilindi.

Qurilish ishlarini amalga oshirish maqsadida “Qishloq qurilish invest” injiniring kompaniyasi, ularni moliyalashtirish uchun zarur mablag‘larni jalb etish, qishloq joylarda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish, uy-joy qurilishini uzoq muddatli imtiyozli kreditlash tizimini keng joriy etish maqsadida 2009-yil 30-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga muvofiq “G‘allabank” aksiyadorlik tijorat banki negizida “Qishloq qurilish bank” aksiyadorlik tijorat banki tashkil etildi.

Bunday keng ko‘lamli ishlarni bajarish uchun mamlakatimizda ixtisoslashtirilgan qurilish-ta’mirlash tashkilotlari tuzildi va ular yuqori malaka va tajribaga ega bo‘lgan mutaxassis kadrlar bilan ta’minlandi.

Qishloqdagi qurilish sarf-xarajatlarining bir qismi uy-joylarning bo‘lg‘usi egalari mablag‘lari hisobiga, aksariyat qismi aholiga “Qishloq qurilish bank” tomonidan beriladigan uzoq muddatli (15 yilgacha) imtiyozli kredit hisobidan qoplanadi.

Shuningdek, qishloqlarda bolalar bog‘chalari, umumta’lim va musiqa maktablari, sport inshootlari, tibbiyot muassasalari, maishiy xizmat obyektlari, ravon yo‘llar, zamonaviy turar-joy mavzelarini kompleks barpo etish rejalashtirilgan.

Qurilish ishlarini o‘z vaqtida va samarali amalga oshirish ko‘p jihatdan qurilish materiallariga bog‘liq. Shunga ko‘ra, 2009-yilda

qurilish materiallari ishlab chiqaradigan 31 ta ishlab chiqarish quvvati, jumladan, 2 million kvadrat metr zamonaviy tom yopish materiallari ishlab chiqaradigan 6 ta korxona, shuningdek, gips, alebastr, gipsokarton kabi qurilish va pardozlash materiallari, yig‘ma konstruksiyalar tayyorlaydigan yangi korxonalar foydalanishga topshirildi. Shular qatorida yiliga 81 million dona g‘isht ishlab chiqarish quvvatiga ega bo‘lgan 12 ta yangi zavod ishga tushirildi.

Uy-joy qurilishi ishlarini jadallashtirish, ularni izchil amalga oshirish maqsadida xususiy qurilish uyushmalari faoliyatini tashkil etishni yo‘lga quyish muhim tadbirlardan hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Uy-joy fondini foydalanishga tayyor holda topshirish shartlarida rekonstruksiya qilish va ta’mirlash bo‘yicha pudrat ishlarini kengaytirishni rag‘batlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2009-yil 29-yanvardagi 1051-sonli qarorini bajarish yuzasidan aholiga hamda foydalanishga tayyor holda topshirish shartlarida uy-joy fondi obyektlarini rekonstruksiya qilish, qurish va ta’mirlash ishlarini amalga oshirayotgan ta’mirlash-qurilish tashkilotlariga qulay sharoitlar yaratish, bozorni yanada kengaytirish hisobiga arzon narxlardagi qurilish materiallariga bo‘lgan talabni qondirish maqsadida 2009-yil 28-martda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Turar joy va kichik biznes obyektlari uchun qurilish materiallari sotish bo‘yicha firma do‘konlari tarmog‘ini tashkil etish to‘g‘risida”gi 87-sonli qarori qabul qilindi. Mahalliy xomashyolardan sifatli va arzon qurilish materiallari ishlab chiqaradigan korxonalar tashkil etishga katta e’tibor berilmoqda. Shu asosda qishloq joylarda bajariladigan qurilish-ta’mirlash ishlarining tannarxini arzonlashtirishga erishish, aholining ish bilan bandligini oshirish ko‘zlangan.

2009-2016-yillarda namunaviy loyihalar asosida qurilgan uy-joylar to‘g‘risidagi ma’lumotlar 12.2-jadvalda keltirilgan.

12.2-jadval

2009-2016-yillarda namunaviy loyihalar asosida qurilgan uy-joylar

Yillar	Massivlar soni	Uy-joylar soni
2009	42	847
2010	225	6 800
2011	355	7 400

2012	272	8 510
2013	352	10 000
2014	330	11 000
2015	293	12 000
2016	300	13000

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida qurilgan uy-joylar soni 2009-2016-yillar mobaynida ortib borgan. 2009-2016-yillarda 2169 ta qishloq massivlarida 69557 ta namunaviy loyihalar asosida uy-joylar qurilgan.

2009-2016-yillarda namunaviy loyihalar asosida uy-joylar qurish uchun yo‘naltirilgan mablag‘lar to‘g‘risidagi ma’lumotlar 12.3-jadvalda keltirilgan.

12.3-jadval

2009-2016-yillarda namunaviy loyihalar asosida uy-joylar qurish uchun yo‘naltirilgan mablag‘lar

Yillar	Qurilishning umumiy qiymati, mlrd.so‘m	shu jumladan, imtiyozli kreditlar, mlrd. so‘m
2009	50,7	31,4
2010	428,9	254,5
2011	576,5	365,0
2012	905,5	535,4
2013	1 385,4	740,3
2014	1 772,5	1 038,5
2015	2 071,4	1 229,1
2016	2600,0	1693,1

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2009-2016 yillarda namunaviy loyihalar asosida uy-joylar qurilishi uchun 9790,9

mlrd. so‘m mablag‘ sarflangan, uning 5887,3 mlrd. so‘mi imtiyozli kreditlardir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 22-dekabrdagi PQ-1245-sonli qaroriga asosan “Qishloq qurilish invest” injiniring kompaniyasi bilan namunaviy loyihalar asosida yakka tartibdagi uy-joylarning qurilishi uchun “tayyor holda topshirish” shartlarida shartnoma tuzgan barcha pudratchi tashkilotlar Pensiya jamg‘armasidan tashqari soliqlarning barcha turlarini to‘lashdan ozod etilganligi ham ularning faoliyatini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Hukumatimiz tomonidan namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan uy-joylarni yanada takomillashtirishga e’tibor berilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 17-iyunda qabul qilingan “Qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida xususiy uy-joy qurilishini kengaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, uy-joylarning namunaviy loyihalariga o‘zgartirish va tuzatishlar kiritildi. Jumladan, qishloq joylarda har bir imorat quruvchiga shu paytgacha ajratib kelinayotgan 4 sotix o‘rniga 6 sotix hajmida yer uchastkasi ajratish belgilandi. Davlatimiz rahbarining taklif va tavsiyalari asosida ilgari ishlab chiqilgan namunaviy loyihalar “Qishloqqurilishloyiha” loyiha-qidiruv instituti tomonidan har tomonlama tahlil qilindi. E’tibordan chetda qolgan tabiiy omillar – shamol yo‘nalishi, quyosh nurining tushishi kabi muhim imoratsozlik talablari yangi loyihalarda inobatga olindi. Shuningdek, xonalarning joylashtirilishi qayta ko‘rib chiqildi, xonalar kengaytirildi, devorlar balandligi 3 metrdan 3,2 metrga oshirildi. Takomillashtirilgan loyihada keksalar va bolalar uchun ham tegishli qulayliklar, darvozaxonada shaxsiy yengil mashinalar uchun maxsus joy nazarda tutilgan, xavfsizlik nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, uyga taqab qurilgan suv isitish – qozonxona qurilmasi hovlining chetiga ko‘chirilgan.

Mamlakatimizda qishloq infratuzilmasini rivojlantirish borasida ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Bu mamlakatimiz agrar sohasi rivoji va aholi turmush farovonligini oshirishga xizmat qilishi muqarrardir.

Qisqacha xulosalar

Infratuzilma – xizmat ko‘rsatuvchi sohalar majmuidir. Infratuzilma jamiyat ishlab chiqarish kuchlarining bo‘linmas qismi bo‘lib, ishlab chiqarish jarayonining bir maromda kechishini ta’minlab beradi. Bundan tashqari, infratuzilmaning ayrim turlari aholining turmush farovonligini

oshirish, ishchilarga munosib mehnat sharoiti yaratib berishda muhim ahamiyatga ega. Ishlab chiqarish infratuzilmasi ishlab chiqarish jarayonining tashkil etilishiga xizmat qiladi. Ijtimoiy infratuzilmaning asosiy vazifasi qishloq aholisining madaniy-maishiy sharoitlarini yaxshilash hisoblanadi. Ijtimoiy infratuzilma obyektlarini tashkil etish va ularning maqsadga muvofiq ishlab turishi ular joylashgan qishloq xo‘jaligi korxonasining iqtisodiy rivojlanganlik darajasiga bog‘liq. Bozor infratuzilmasi esa jamiyatda bozor munosabatlarini barpo etish va uni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda infratuzilma sohalarini rivojlantirishga juda katta e’tibor berilmoqda. Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo‘llab-quvvatlash, ularning barqaror faoliyatini ta’minlashga va eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan bir qator me’yoriy hujjatlarda qishloq xo‘jaligida infratuzilma sohalarini rivojlantirish yo‘nalishlari belgilab berilgan hamda bu borada ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Infratuzilmaning mohiyati nimadan iborat?
2. Qishloq xo‘jaligida infratuzilma qanday ahamiyatga ega?
3. Qishloq xo‘jaligida infratuzilma qanday xususiyatlariga ko‘ra turkumlanadi?
4. Qishloq xo‘jaligida infratuzilma qanday turlarga bo‘linadi?
5. Ishlab chiqarish infratuzilmasining vazifalari nimalardan iborat?
6. Ijtimoiy infratuzilmaning vazifalari nimalardan iborat?
7. Qishloq xo‘jaligida bozor infratuzilmasining mohiyati va vazifalari nimalardan iborat?
8. Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha qanday tadbirlar amalga oshirilmoqda?

BOB YUZASIDAN AMALIY TOPSHIRIQLAR:

1-topshiriq:

Klaster usuli yordamida qishloq xo‘jaligi infratuzilmasining tarkibini ko‘rsatib bering.



2-topshiriq:

FSMU texnologiyasi yordamida “Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini rivojlantirishda infratuzilmaning ahamiyati qanday?” ekanligini yo‘naltiruvchi uslubiy tavsiyalar asosida yechish:

Yo‘naltiruvchi so‘zlar: Qishloq xo‘jaligining rivojlanishida xizmat ko‘rsatuvchi sohalarning o‘rni, xarajatlarning tejalishi.

	Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini rivojlantirishda infratuzilmaning ahamiyati qanday?
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating	
(M) Ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

3-topshiriq:

Qishloq xo‘jaligida infratuzilma sohalarining hozirgi rivojlanish holatida mavjud muammolar va ularni hal etish yo‘llarini “Muammo” texnologiyasi yordamida tahlil qiling.

Muammoning turlari	Muammolarning kelib chiqish sabablari	Muammolarni yechish yo‘llari
1.		
2.		
…		

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Qishloq xo‘jaligida infratuzilma tarmoqlarining ahamiyati, tashkil etilishi va ularni yanada rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar.
2. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida infratuzilmaning turkumlanishi.
3. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish infratuzilmasining mohiyati, ahamiyati va tashkil etilishi.
4. Qishloq xo‘jaligi ijtimoiy infratuzilmasining mohiyati, ahamiyati va tashkil etilishi.
5. Qishloq xo‘jaligida bozor infratuzilmasining mohiyati, ahamiyati va tashkil etilishi.

13-BOB: QISHLOQ XO‘JALIGIDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI VA MAHSULOT TANNARXI

1. Qishloq xo‘jaligida qilinadigan xarajatlar va ularning turkumlanishi.
2. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tannarxi haqida tushuncha, uning turlari va aniqlanish tartibi.
3. Qishloq xo‘jaligida xarajatlarni tejash va mahsulotlar tannarxini pasaytirish yo‘llari.

Tayanch iboralar: qishloq xo‘jaligida xarajatlar, doimiy xarajatlar, o‘zgaruvchan xarajatlar, qishloq xo‘jalik mahsulotlari tannarxi, ishlab chiqarish tannarxi.

1. Qishloq xo‘jaligida qilinadigan xarajatlar va ularning turkumlanishi.

Qishloq xo‘jalik korxonalari turli mahsulotlar ishlab chiqarish, xizmatlarni bajarish uchun moddiy, pul va mehnat xarajatlarini amalga oshiradilar. Masalan, urug‘lik, mineral va mahalliy o‘g‘itlar, kimyoviy vositalar, yoqilg‘i, ehtiyot qismlar, yem-xashaklar, xodimlarning mehnatlariga to‘langan haqlar, soliqlar, mahsulotlarni sotish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar va boshqalar.

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida xarajatlarning turkumlanishi 1999-yil 5-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom asosida amalga oshiriladi.

Qishloq xo‘jaligida amalga oshiriladigan xarajatlar o‘zgaruvchan va doimiy xarajatlarga bo‘linadi (13.1-rasm). Doimiy xarajatlar ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmiga bog‘liq bo‘lmagan holda amalga oshiriladi. Mahsulot hajmi ko‘payishi yoki kamayishi bilan doimiy xarajatlar miqdori o‘zgarmaydi. Masalan, ijaraga olingan asosiy vositalarga to‘lanadigan ijara haqi, asosiy vositalarning amortizatsiya summasi va boshqalar doimiy xarajatlar tarkibiga kiradi. O‘zgaruvchan xarajatlar ishlab chiqariladigan mahsulot hajmining o‘zgarishi bilan bevosita bog‘liqdir. Ishlab chiqariladigan mahsulotlar miqdorining ko‘payishi o‘zgaruvchan xarajatlar ko‘proq sarflanishini taqozo etadi. Ularga urug‘liklar, mineral va mahalliy o‘g‘itlar, yoqilg‘i, ozuqa,

mehnatga to‘lanadigan ish haqi, elektroenergiya xarajatlari va boshqa xarajatlar kiradi.



13.1-rasm. Qishloq xo‘jaligida xarajatlar turlari.

Qishloq xo‘jaligida qilinadigan xarajatlarning o‘zgarishi tarmoqda yangi texnikalarni, samarali texnologiyalarni joriy etish, sermahsul chorva hayvonlarini yaratish, shakllantirish hamda ilg‘or tajribalarni amalga oshirish bilan bevosita bog‘liq.

Sarflanayotgan xarajatlarni tahlil etish jarayonida ularning qanchasi mahsulot yetishitirishga oid agrotexnik jarayonlar bo‘yicha sarflanganligiga ham alohida e’tibor beriladi. Bundan maqsad - fan-texnika, texnologiya yangiliklarini ishlab chiqarishning u yoki bu jarayoniga tatbiq etish natijasida xarajatlarni tejash imkoniyatini aniqlashdir. Shuning uchun ham xarajatlarni mahsulot yetishtirish agrotexnik jarayonlari bo‘yicha ham turkumlashtirish mumkin (13.2-chizma).

Xarajatlarning bunday tartibda turkumlanishi ularning dehqonchilik mahsulotlari yetishtirish davrlari bo‘yicha qilinadigan miqdorini, qiymatini aniqlash imkoniyatini yaratadi. Shunga asoslangan holda ularning samarali amalga oshirishlishini ta’minlash, mablag‘lar bilan ta’minlanish masalalari ham hal etilishi imkoniyati yaratiladi.



13.2-rasm. Xarajatlarning agrotexnik jarayonlar bo‘yicha turkumlanishi.

Qishloq xo‘jaligida moddiy, mablag‘ va mehnat sarflarini amalga oshirishda ularning o‘rindoshligini hisobga olish hamda mahsulot tannarxini pasaytirish talab etiladi.

Qishloq xo‘jaligida sarflanayotgan xarajatlardan foydalanish samaradorligini oshirish zarur. Buning uchun fan-texnika yutuqlarini, yangi texnologiyalarni, ilg‘or tajribalarni imkoniyat doirasida ishlab chiqarishga tatbiq etish lozim.

Xarajatlarni maqsadga muvofiq sarflash natijasida olinadigan foyda summasi oshadi va natijada xo‘jalikning rentabellik darajasi ortadi. Foyda summasining oshishi xo‘jalikni kengaytirilgan takror ishlab chiqarish asosida rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi. Shuning uchun ham bu masalaga respublikamiz hukumati, qishloq xo‘jaligida faoliyat yurituvchi tadbirkorlar alohida e’tibor bermoqdalar.

Iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra, bir xil xarajatlar xarajat elementlarini, bir nechta turdosh xarajat elementlari xarajat moddalarini tashkil etadi. Demak, xarajat moddalari xarajat elementlariga nisbatan kengroqdir.

Qishloq xo‘jaligida xarajatlar mahsulot yetishtirish jarayonida bevosita hamda bilvosita sarflanadigan xarajatlarga ham turkumlanadi. Bevosita xarajatlar mahsulotlarni yetishtirishda bevosita qatnashadi. Masalan, urug‘lik, o‘g‘it, yoqilg‘i va boshqalar. Bilvosita xarajatlar esa qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtirishda bevosita ishtirok etmasada, tarmoqda mahsulot yetishtirish uchun zarur hisoblanadi. Masalan, korxonani boshqarish xarajatlari, ombor xo‘jaligi xarajatlari va hokazo.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirishda (ishlarni bajarish va xizmatlarni ko‘rsatishda) qilinadigan xarajatlar quyidagi turlarga bo‘linadi:

1) mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar.

Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxiga kiruvchi xarajatlar iqtisodiy mazmuniga ko‘ra quyidagi elementlarga ajratiladi:

- ishlab chiqarish moddiy xarajatlari;
- ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan mehnatga haq to‘lash xarajatlari;
- ijtimoiy sug‘urta ajratmalari;
- asosiy fondlar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;
- ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan boshqa xarajatlar.

Ishlab chiqarish bilan bog‘liq moddiy xarajatlar tarkibiga quyidagi moddalar kiritiladi:

♦ ishlab chiqariladigan mahsulotning asosini tashkil etib, uning tarkibiga kiradigan yoki mahsulot tayyorlashda (ishlarni bajarishda, xizmatlarni ko‘rsatishda) zarur tarkibiy qism hisoblangan, chetdan sotib olinadigan xomashyo va materiallar;

♦ normal texnologik jarayonni ta’minlash va mahsulotlarni o‘rash uchun mahsulot (ishlar, xizmatlar) yoki boshqa ishlab chiqarish ehtiyojlariga sarflanadigan (asbob-uskunalar, binolar, inshootlar va boshqa asosiy vositalar sinovini o‘tkazish, nazorat qilish, saqlash, tuzatish va ulardan foydalanish) uchun ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan, xarid qilinadigan materiallar, shuningdek, asbob-uskunalarni tuzatish uchun ehtiyot qismlar, asboblar, moslamalar,

inventar, jihozlar, laboratoriya asbob-uskunalari va asosiy fondlarga kirmaydigan boshqa mehnat vositalarining eskirishi, maxsus kiyim va arzonbaholi boshqa ashyolarninig eskirishi;

♦ sotib olinadigan, kelgusida ushbu xo‘jalik yurituvchi subyektlarida montaj qilinadigan yoki qo‘shimcha ishlov beriladigan butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar;

♦ tashqi yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek, xo‘jalik yurituvchi subyektning ichki tarkibiy bo‘linmalari tomonidan bajariladigan, faoliyatning asosiy turiga tegishli bo‘lmagan, ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan ishlar va xizmatlar.

Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan ishlar va xizmatlarga mahsulot tayyorlash bo‘yicha ayrim operatsiyalarni bajarish, xomashyo va materiallarga ishlov berish, iste’mol qilinayotgan ashyo va materiallar sifatini aniqlash uchun sinovlar o‘tkazish, belgilangan texnologik jarayonlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish, asosiy ishlab chiqarish fondlarini tuzatish va boshqalar tegishli bo‘ladi. Xo‘jalik yurituvchi subyekt ichida tashqi huquqiy shaxslarning transport xizmatlari (xomashyo, materiallar, asboblar, detallar, tovarlar, yuklarning boshqa turlarini markaziy ombordan quyi bo‘g‘inlarga, ya’ni sexga va tayyor mahsulotni saqlash uchun omborga keltirish) ham ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan xizmatlarga tegishlidir;

- tabiiy xomashyo (yer rekultivatsiyasiga ajratmalar, ixtisoslashtirilgan huquqiy shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan yerni rekultivatsiya qilish ishlariga haq to‘lash), ildizi bilan beriladigan daraxtga haq to‘lash, sanoat korxonalari tomonidan suv xo‘jaligi tizimidan belgilangan limitlar doirasida va undan ortiqcha olinadigan suv uchun haq to‘lash. Sanoatning xomashyo tarmoqlari uchun yog‘och, taxta materiallaridan yoki foydali qazilmalardan (rudadan) foydalanish huquqlarining amortizatsiya qilinadigan qiymati yoki atrof-muhitni tiklash xarajatlari;

- texnologik maqsadlarda energiyaning barcha turlarini ishlab chiqarishga, binolarni isitishga sarflanadigan yonilg‘ining chetdan sotib olinadigan barcha turlari, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning transporti tomonidan bajariladigan, ishlab chiqarishga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha transport ishlari;

- xo‘jalik yurituvchi subyektning texnologik, transport va boshqa ishlab chiqarish va xo‘jalik ehtiyojlariga sarflanadigan barcha turdagi xarid qilinadigan energiya (xo‘jalik yurituvchi subyektning o‘zi tomonidan ishlab chiqariladigan elektr energiyaga va energiyaning

boshqa turlariga, shuningdek, xarid qilinadigan energiyani iste’mol joyigacha transformatsiya qilish va uzatish xarajatlari tegishli xarajat elementlariga kiritiladi);

- ishlab chiqarish sohasida moddiy boyliklarning tabiiy yo‘qotish me’yorlari doirasida va ulardan ortiqcha yo‘qotilishi, yaroqsizlanishi va kam chiqishi;

- xo‘jalik yurituvchi subyektning trasporti va xodimlari tomonidan moddiy resurslarni yetkazish bilan bog‘liq xarajatlar (yuklash va tushirish ishlari ham shu jumlaga kiradi) ishlab chiqarish xarajatlarining tegishli elementlariga kirishi kerak (mehnatga haq to‘lash xarajatlari, asosiy fondlar amortizatsiyasi, moddiy xarajatlar va boshqalar);

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan moddiy resurslarni yetkazib beruvchilardan olinadigan idishlar ham moddiy resurslar qiymatiga kiritiladi;

- mahsulot tannarxiga kiritiladigan moddiy resurslar xarajatlaridan qaytariladigan chiqitlar qiymati, idish va o‘rash-joylash materiallari qiymati. Ular amaldagi sotilishi, foydalanilishi yoki omborga kirim qilinishi narxi bo‘yicha chiqarib tashlanadi;

- “moddiy xarajatlar” elementi bo‘yicha aks ettiriladigan moddiy resurslar qiymati sotib olish narxidan, shu jumladan, barter bitimlarida, qo‘shimcha narx (ustama)dan, ta’minot, tashqi iqtisodiy tashkilotlar tomonidan to‘lanadigan vositachilik taqdirlashlaridan, tovar birjalari xizmatlari qiymatidan, shu jumladan, brokerlik xizmatlaridan, bojlar va yig‘imlardan, transportda tashishga haq to‘lashdan, tashqi yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan saqlash va yetkazib berishga haq to‘lashdan kelib chiqib shakllanadi.

Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan mehnatga haq to‘lash xarajatlari tarkibiga quyidagi moddalar kiritiladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektda qabul qilingan mehnatga haq to‘lash shakllari va tizimlariga muvofiq bajarilgan narxnomalar, tarif stavkalariga va lavozim maoshlaridan kelib chiqib hisoblangan, amalda bajarilgan ish uchun ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan, hisoblangan ish haqi, shu jumladan, bajarilgan ishni hisobga olish bo‘yicha dastlabki hujjatlarda nazarda tutilgan rag‘batlantiruvchi tusdagi to‘lovlar;
- kasb mahorati va murabbiylik uchun tarif stavkalariga va okladlariga ustamalar;
- ish rejimi va mehnat sharoitlari bilan bog‘liq bo‘lgan kompensatsiya tusidagi to‘lovlar;

•texnologik jarayon jadvalida nazarda tutilgan tungi vaqtda, ishdan tashqari vaqtda, dam olish va bayram (ishlanmaydigan) kunlarida ishlaganlik uchun tarif stavkalari va okladlarga ustamalar va qo‘shimcha haq;

•kun, smenali rejimda ishlaganlik, kasblarni birga qo‘shib olib borganlik va xizmat ko‘rsatish hududlarini kengaytirganlik uchun ustamalar;

•hukumat tomonidan tasdiqlangan kasblar va ishlar ro‘yxati bo‘yicha og‘ir, zararli, alohida zararli mehnat va tabiiy-iqlim sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar, shu jumladan, ushbu sharoitlardagi uzluksiz ish staji uchun ustamalar;

•qurilishda, rekonstruksiya qilishda va mukammal ta’mirlashda bevosita band bo‘lgan, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda vaxta usuli bilan ishlarni bajargan xodimlar uchun ishning ko‘chma va qatnov xususiyati uchun ustama;

•mehnatga haq to‘lashning hududlar bo‘yicha tartibga solinishiga, shu jumladan, hudud koeffitsiyentlari va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq cho‘l, suvsiz va yuqori tog‘ joylarida ishlaganlik uchun koeffitsiyentlar bilan belgilangan to‘lovlar;

•ish vaxta usulida tashkil etilganda, ish vaqti jamlanib hisoblanganda va qonun hujjatlari bilan belgilangan boshqa hollarda xodimlarga ularga ish vaqtining normal davom etishidan ortiq ishlaganligi munosabati bilan beriladigan dam olish (ortiqcha ishlagan ish vaqti uchun dam olish) kunlari uchun haq to‘lash;

• amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq navbatdagi (har yili) va qo‘shimcha ta’tillar, navbatdagi (har yili) foydalanilmagan va qo‘shimcha ta’tillar uchun kompensatsiyalar, o‘smirlarning imtiyozli soatlari, bolani ovqatlantirish uchun onalar ishidagi tanaffuslar, shuningdek, tibbiy ko‘riklardan o‘tish bilan bog‘liq vaqt uchun haq to‘lash;

• majburiy ta’tilda bo‘lgan xodimlarga, asosiy ish haqini qisman saqlab qolgan holda haq to‘lash;

• donor xodimlarga qonni tekshirish, topshirish kunlari uchun va qon topshirilgan har bir kundan keyin beriladigan dam olish kunlari uchun haq to‘lash;

• davlat vazifalarini bajarganlik uchun (harbiy yig‘inlar, favqulodda vaziyatlar bo‘yicha yig‘inlar va boshqalarda qatnashganlik uchun) mehnat haqi to‘lash;

- xo‘jalik yurituvchi subyekt shtatida turmaydigan xodimlar mehnatiga ular tomonidan fuqarolik-huquqiy tusda tuzilgan shartnomalar bo‘yicha ishlar bajarilganligi uchun haq to‘lash, agar bajarilgan ish uchun xodimlar bilan hisob-kitob xo‘jalik yurituvchi subyektning o‘zi tomonidan amalga oshirilsa, pudrat shartnomasi ham shu jumlaga kiradi;
- belgilangan tartibga muvofiq ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvchi xodimlar mehnatiga haq to‘lash fondiga kiritiladigan to‘lovlarning boshqa turlari.

Ijtiomiy sug‘urta xarajatlari tarkibiga quyidagi moddalar kiritiladi:

- qonun xujjatlari bilan belgilangan normalar bo‘yicha mehnatga haq to‘lash fondiga ijtimoiy tusdagi majburiy ajratmalar;
- nodavlat pensiya jamg‘arlariga, ixtiyoriy tibbiy sug‘urtaga va ixtiyoriy sug‘urtaning boshqa turlariga ajratmalar;

Ijtimoiy sug‘urta to‘lovlari 2019-yil 30-dekbrda qabul qilingan yangi tahrirdagi Soliq Kodeksiga ko‘ra ijtimoiy soliq deb nomlangan. Ish beruvchining xodimlar mehnatiga haq to‘lashga doir xarajatlari ijtimoiy soliq solish obyektidir. Ushbu Kodeksning 403-moddasiga ko‘ra, paxta yig‘im-terimi bo‘yicha mavsumiy qishloq xo‘jaligi ishlariga jalb qilingan jismoniy shaxslarning bu ishlarni bajarganligi uchun mehnat haqi to‘lashga doir xarajatlar soliq solish obyekti hisoblanmaydi.

2020-yil 1-yanvardan ijtimoiy soliq stavkasi 12 foiz etib belgilangan. Fermer xo‘jaliklari tomonidan to‘lanadigan ushbu mablag‘lar davlat maqsadli jamg‘armalari hamda Kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashi o‘rtasida belgilangan tartibga muvofiq quyidagi miqdorlarda taqsimlanadi:

- budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi – 98,4 foizi;
- Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi – 0,8 foizi;
- Kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashi jamg‘armasi – 0,8 foizi.

Asosiy vositalar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi bo‘yicha xarajatlari tarkibiga quyidagi moddalar kiritiladi:

- asosiy ishlab chiqarish fondlarining dastlabki (tiklash) qiymatidan kelib chiqib hisoblangan amortizatsiya summasi (hisoblangan eskirish). Lizing bo‘yicha va belgilangan tartibda tasdiqlangan me’yorlar, qonun hujjatlarida amalga oshiriladigan jadallashtirilgan amortizatsiya ham shu jumlaga kiradi;

- ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan nomoddiy aktivlar eskirishi har oyda xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan dastlabki qiymati va ulardan foydali foydalanish muddatidan (biroq xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyati muddatidan ortiq emas) kelib chiqib hisoblanadigan mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga tegishli bo‘ladi. Foydali foydalanish muddatini aniqlash imkoni bo‘lmagan nomoddiy aktivlar bo‘yicha eskirish me’yori besh yil hisobiga belgilanadi, biroq xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyati muddatidan ortiq emas.

Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlar tarkibiga quyidagi moddalar kiritiladi:

- ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko‘rsatish xarajatlari;

- ishlab chiqarishni xomashyo, materiallar, yonilg‘i, elektr energiyasi, asboblar, moslamalar va boshqa mehnat vositalari va buyumlari bilan ta’minlash xarajatlari;

- asosiy ishlab chiqarish fondlarini ish holatida saqlash xarajatlari (texnik qo‘riq va qarov, o‘rtacha, joriy va mukammal tuzatish xarajatlari). Asosiy vositalarni barcha turda (joriy, o‘rtacha, mukammal) tuzatishlarni xo‘jalik yurituvchi subyektning o‘z kuchi bilan o‘tkazish ishlab chiqarish xarajatlarining tegishli elementlari (moddiy xarajatlar, mehnat haqi to‘lash xarajatlari va boshqalar) bo‘yicha mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritiladi. Zarurat bo‘lganda, ayrim tarmoqlarning xo‘jalik yurituvchi subyektlari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining ro‘yxati bilan mukammal tuzatish ishlarini o‘tkazish uchun mablag‘lar zahirasini tashkil qilishlari mumkin. Ushbu zahiraga ajratmalar “Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlar” elementi tarkibida aks ettiriladi va ko‘zda tutilayotgan xarajatlar qiymati hamda asosiy vositalar har bir obyekti mukammal tuzatishlarning davriyligidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Zahiraga ajratmalar me’yori har bir hisobot yili oxirida qayta ko‘rib chiqiladi va zarurat bo‘lganda yangi moliya yili uchun ajratmalar miqdori ko‘paytirilishi yoki kamaytirilishi mumkin. Agar mukammal tuzatishga zahira mablag‘lari summasi ushbu obyektni tuzatishga qilingan haqiqiy xarajatlar summasidan oshib ketsa, oshib ketgan summa bo‘yicha tuzatish kiritilishi kerak, agar haqiqiy xarajatlar oshib ketsa, u holda oshib ketgan summa “Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlar” elementi tarkibida aks ettiriladi.

- yong‘indan saqlash va qo‘riqlashni hamda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning texnika xavfsizligi qoidalari bilan nazarda tutilgan boshqa maxsus talablarini ta’minlash, ular faoliyatini nazorat qilish xarajatlari.

Yuqoridagilardan tashqari qo‘riqlash xarajatlari bunday qo‘riqlash mavjud bo‘lishini talab qiluvchi mazkur ishlab chiqarishga maxsus talablar mavjud bo‘lgan taqdirda mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritilishi mumkin.

2) davr xarajatlari. Ular mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayoniga bevosita bog‘liq bo‘lmay, balki xo‘jalikning faoliyatini sohalar bo‘yicha tashkil etish va ularni boshqarish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlardan iboratdir.

Bu xarajatlar o‘z navbatida maqsad va vazifalariga ko‘ra, quyidagi turlarga bo‘linadi:

- mahsulotlarni sotish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha xarajatlar;
- ma’muriy xarajatlar, ularga tarmoqni, korxonani boshqarish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha xarajatlar, jumladan, boshqaruv tizimlarining faoliyati, boshqaruv sohasidagi vositalar bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar;
- boshqa operatsion xarajatlar, jumladan, kadrlar tayyorlash, loyihalarni tuzish, xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish bilan bog‘liq xarajatlar;
- hisobot davrining kelgusida soliq solinadigan bazadan chiqariladigan xarajatlar.

3) moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar. Ularga barcha turdagi kreditlar bo‘yicha, mol-mulkning ijara haqi to‘lovlari hamda qimmatli qog‘ozlarni chiqarish, sotish, tarqatish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar kiradi.

4) favqulodda xarajat va zararlar. Ularga korxonalarning odatdagi faoliyatidan chetga chiquvchi hodisalar yoki operatsiyalar natijasida vujudga keladigan va ro‘y berishi kutilmagan odatdan tashqari xarajatlar kiradi. Masalan, zilzila, sel kabi tabiiy ofatlar natijasida ko‘rilgan zararlar.

2. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tannarxi haqida tushuncha, uning turlari va aniqlanish tartibi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tarmoqlar, korxonalar miqyosida umumiy qiymat ko‘rsatkichlari bilan birgalikda o‘rtacha xarajatlar, ya’ni ***tannarx*** ko‘rsatkichi ham mavjud. Tannarx bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Uning yordamida qishloq xo‘jaligida yetishtirilayotgan mahsulotlar, bajarilayotgan ishlar va ko‘rsatilayotgan xizmatlarning bir birligi xo‘jalik uchun necha so‘mga tushganligi aniqlanadi. Uning darajasi baho bilan taqqoslanishi natijasida olinadigan

foyda yoki ko‘riladigan zararlar aniqlanadi. Bu ko‘rsatkich xo‘jaliklar uchun juda muhimdir.

Tannarx deganda bir birlik mahsulot ishlab chiqarish, ish va xizmatlarni bajarish uchun sarflangan xarajatlar nazarda tutiladi. Uning mutlaq darajasini aniqlash uchun barcha xarajatlarning umumiy summasi shu xarajatlar yordamida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga taqsimlanadi.

Qishloq xo‘jaligida tannarx quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$T = \frac{\sum X}{YM};$$

Bunda: T – mahsulot, ish yoki xizmatning tannarxi;

ΣX – qilingan xarajatlarning summasi;

YM – yalpi yetishtirilgan mahsulot, jami bajarilgan ish, ko‘rsatilgan xizmatlar miqdori.

Qishloq xo‘jaligida mahsulotlar tannarxining quyidagi turlari aniqlanadi:

- reja tannarxi;
- ishlab chiqarish tannarxi;
- to‘liq tannarxi.

Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini aniqlash uchun ishlab chiqarish xarajatlari yig‘indisini yalpi yetishtirilgan mahsulot miqdoriga taqsimlash orqali aniqlanadi. To‘liq tannarx esa barcha xarajatlarning yetishtirilgan yalpi mahsulot miqdoriga yoki sotiladigan mahsulot miqdoriga nisbati bilan aniqlanadi. To‘liq tannarx tijorat tannarxi deb ham ataladi, chunki u asosan sotilgan mahsulotlar uchun hisoblanadi.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlari (ishlar va xizmatlar)ning reja tannarxi ham aniqlanadi. Reja tannarxi ilmiy-tadqiqot institutlari tomonidan ishlab chiqilgan me’yorlar asosida aniqlanib, qishloq xo‘jalik korxonasi tomonidan yil boshida tuziladigan “Biznes reja”da aks ettiriladi. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarining reja tannarxini aniqlash yil boshida amalga oshiriladi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad – ishlab chiqarilishi ko‘zda tutilgan mahsulotlarning ilmiy asoslangan me’yorlar asosida reja tannarxini aniqlab olish va shu asosida tannarxni nazorat qilib borishdir. Bunda xarajatlar ilmiy asoslangan me’yorlar darajasida amalga oshirilayotganligi kuzatib boriladi. Agar ilmiy asoslangan me’yorlardan ortiqcha xarajatlarga yo‘l qo‘yilsa, uni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish imkonini yaratib beradi.

Qishloq xo‘jaligida barcha xarajatlarni amalga oshirish natijasida asosiy va turli xildagi qo‘shimcha mahsulotlar olinadi. Jumladan,

paxtachilikda paxta xomashyosi asosiy mahsulot hisoblansa, g‘o‘zapoya qo‘shimcha mahsulot sanaladi. G‘alla yetishtirishda don asosiy, somoni (poyasi) qo‘shimcha mahsulotdir. Sut yo‘nalishidagi qoramolchilikda sut asosiy, buzoq va go‘sht qo‘shimcha mahsulot hisoblanadi. Lekin tarmoqdagi barcha xarajatlar asosiy mahsulotni yetishtirishga qaratilgan bo‘ladi.

Qishloq xo‘jaligida yetishtiriladigan asosiy va qo‘shimcha mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxini aniqlashda xarajatlar asosiy va qo‘shimcha mahsulotlar o‘rtasida koeffitsiyentlar orqali taqsimlanadi. Masalan, donchilikda qo‘shimcha mahsulot hisoblangan somon belgilangan koeffitsiyentlar yordamida asosiy mahsulotga aylantiriladi. Ularni asosiy mahsulotlarning miqdoriga qo‘shib, yalpi don mahsulotining shartli miqdori aniqlanadi. Jami shartli mahsulot tarkibidagi asosiy hamda qo‘shimcha mahsulotlarning salmoqlari aniqlanadi. Shundan so‘ng jami ishlab chiqarish xarajatlari aniqlab olingan salmoqqa mutanosib ravishda asosiy va qo‘shimcha mahsulotlarga taqsimlanadi. Asosiy mahsulot hissasiga to‘g‘ri keladigan ishlab chiqarish xarajatlarini asosiy mahsulotning haqiqiy miqdoriga taqsimlab, asosiy mahsulotning tannarxi aniqlanadi. Qo‘shimcha mahsulot hissasiga to‘g‘ri keladigan ishlab chiqarish xarajatlarini qo‘shimcha mahsulotning haqiqiy miqdoriga taqsimlash orqali esa qo‘shimcha mahsulotning tannarxi aniqlanadi.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishda olinadigan qo‘shimcha mahsulotlarni shartli asosiy mahsulotga aylantirish koeffitsiyentlari 13.1-jadvalda keltirilgan.

13.1-jadval

Qishloq xo‘jaligida olinadigan qo‘shimcha mahsulotlarni shartli asosiy mahsulotga aylantirish koeffitsiyentlari

№	Mahsulot turlari	Koeffitsiyentlar
1.	G‘o‘zapoya	0,05
2.	Somon	0,08
3.	Makkajo‘xori poyasi	0,17

4.	Bir yillik beda urug‘i	0,9
5.	Bir yillik o‘tlardan ko‘k massa	0,25
6.	Ko‘p yillik o‘tlardan ko‘k massa	0,3
7.	Qo‘y va echkidan olingan sut	0,22
8.	Jun	5
9.	Sigir suti	0,9
10.	Buzoq	0,1

Qilingan xarajatlarni qishloq xo‘jaligidagi asosiy va qo‘shimcha mahsulotlar o‘rtasida taqsimlash tartibini aniq misol yordamida ko‘rib chiqamiz. Masalan, fermer xo‘jaligida 500 tonna bug‘doy va 450 tonna somon yetishtirilgan bo‘lsa, ishlab chiqarish xarajatlarini asosiy va qo‘shimcha mahsulotlarga taqsimlash quyidagicha amalga oshiriladi:

a) somon massasini 0,08 ga ko‘paytirib, shartli bug‘doyga aylantirib olamiz (450x0,08=36);

b) shartli bug‘doy massasini yetishtirilgan bug‘doy massasiga qo‘shib, bug‘doyning shartli yalpi hosilini aniqlab olamiz (500+36=536);

d) bug‘doy massasining bug‘doyning shartli yalpi hosilidagi salmog‘i aniqlab olinadi, bizning misolimizda 36 soni 536 ning necha foizini tashkil etishi aniqlanadi (3600:536=6,7);

e) jami xarajatning 6,7 foizini somon massasiga taqsimlash, qolgan qismini esa bug‘doy massasiga taqsimlash orqali asosiy va qo‘shimcha mahsulotlarning tannarxi aniqlanadi.

Boshqa qishloq xo‘jalik mahsulotlari bo‘yicha ham xarajatlar asosiy va qo‘shimcha mahsulotlar o‘rtasida yuqoridagi usul yordamida taqsimlanadi.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarining tannarxini aniqlashda tannarx obyektlari 13.3-rasmda aks ettirilgan.



13.3-rasm. Qishloq xo‘jaligida mahsulot tannarxi obyektlari

Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini va tannarxini o‘rganish boshqaruv hisobining muhim bo‘limlaridan biridir. Korxonada moliyaviy va boshqaruv hisobining yaxshi yuritilishi xarajatlarni to‘g‘ri hisobga olish va shu orqali ularning sarflanishini nazoratga olish imkonini yaratib beradi.

Xarajatlarni kalkulyatsiyalash - qilingan xarajatlarni aniq xarajat obyektlariga taqsimlash jarayonidir. Xarajatlarni kalkulyatsiyalash orqali mahsulot tannarxi tarkibida har bir xarajat elementining salmog‘ini aniqlash va tegishli choralarni ko‘rish imkoni yaratiladi.

Barcha tarmoqlarda bo‘lgani singari qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida ham qat’iy tejamkorlik tizimini joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag‘batlantirish hisobidan korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish muhimdir.

3. Qishloq xo‘jaligida xarajatlarni tejash va mahsulotlar tannarxini pasaytirish yo‘llari.

Keyingi yillarda qishloq xo‘jalik mahsulotlarining tannarxi tarkibida moddiy xarajatlar salmog‘i ortib bormoqda. Shu sababli mamlakatimizda korxonalarni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash orqali mahsulot tannarxini pasaytirishga alohida e’tibor berilmoqda. Bundan tashqari, mahsulot ishlab chiqarish jarayonida qo‘llanilayotgan me’yorlarning ko‘pchiligi sobiq ittifoq davrida ishlab chiqilgan bo‘lib, tejamkorlik talablariga to‘liq javob bermaydi. Shu sababli mazkur dasturda ushbu me’yorlarni qayta ko‘rib chiqishga ham e’tibor berilmoqda.

Qishloq xo‘jaligida har bir so‘mni oqilona, maqsadga muvofiq sarflashga harakat qilish, ya’ni moddiy, pul va mehnat xarajatlarini tejash, shu orqali yetishtiriladigan mahsulotlarning, bajariladigan ish va xizmatlarning tannarxlarini pasaytirishga erishish lozim. Buning uchun:

- dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlarida mavjud bo‘lgan barcha ishlab chiqarish vositalaridan yil davomida tadbirkorlik bilan oqilona, samarali foydalanib, barcha ishlarning vaqtida, sifatli bajarilishini ta’minlash;
- ekinlarning tezpishar, yuqori hosilli navlarini, urug‘chilikni, chorva hayvonlarining mahsuldor zotlarini ishlab chiqarish jarayoniga tatbiq etishni ta’minlash;
- xarajatlarni tejaydigan yangi texnika, samarali texnologiyalarni joriy etish natijasida ishlab chiqarish jarayonlarining yuqori darajada mexanizatsiyalashganlik, avtomatlashganlik darajasini oshirib, mehnat unumdorligini oshirish;
- qishloq xo‘jalik korxonalarining texnik va texnologik jihatdan ta’minlanganlik darajasini oshirish;
- yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va sug‘orishning zamonaviy, tejamkor usullarini qo‘llash;
- qishloq xo‘jalik mahsulotlari tayyor bo‘lganda o‘z vaqtida yig‘ishtirib olish, saqlash va tashishni to‘g‘ri tashkil etish;
- mehnatni tashkil etishning samarali shakllarini joriy etish va rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish;
- ekinlar hosildorligini, chorva hayvonlarining mahsuldorligini oshirishga erishish lozim.

Qisqacha xulosalar

Barcha tarmoqlarda bo‘lgani singari qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida ham mahsulot ishlab chiqarish uchun turli arajatlar qilinadi. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining o‘ziga xos xususiyatlari xarajatlar qilinishida ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Bunda tabiiy omillarning ta’siri, ishlab chiqarishning mavsumiyligi kabi o‘ziga xos xususiyatlari xarajatlar hajmi va tarkibiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Qishloq xo‘jalik korxonalari faoliyatiga baho berishda mahsulot tannarxi ham muhim ahamiyatga ega. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlarining faoliyati samaradorligini oshirish uchun mahsulot tannarxini arzonlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Qishloq xo‘jaligida amalga oshiriladigan xarajatlar qanday turkumlanadi?
2. Jami va o‘rtacha xarajatlari deganda nimani tushunasiz?
3. Qanday xarajatlarni doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlar deb atash mumkin?
4. Xarajatlar elementlari va moddalari haqida qanday tushunchaga egasiz?
5. Qishloq xo‘jalik mahsulotlari tannarxi deganda nimani tushunasiz?
6. Qishloq o‘jaligida mahsulot tannarxining qanday turlari mavjud?
7. Qishloq xo‘jalik mahsulotlari tannarxi tarkibiga qanday xarajatlar kiradi?
8. Qishloq xo‘jaligida mahsulot tannarxini pasaytirishga qanday chora-tadbirlar yordamida erishish mumkin?

BOB YUZASIDAN AMALIY TOPSHIRIQLAR:

1-topshiriq:

Klaster usuli yordamida qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida xarajatlarning turkumlanishini ko‘rsatib berish.



2-topshiriq:

Zinama-zina usuli yordamida qishloq xo‘jaligida mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxiga kiruvchi xarajatlar tarkibini ko‘rsatib berish. Bunda guruh talabalari 5 ta kichik guruhga bo‘linadi va har bir guruhga qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ishlab chiqarish tannarxiga kiruvchi bitta xarajat elementini yoritib berish vazifasi beriladi. Kichik guruhlar alohida ishlab, o‘zlariga berilgan vazifaning javobini qog‘ozga yozishadi va kichik guruhdan bir kishi chiqib uni taqdimot qilinadi hamda shu tariqa barcha guruhlar ketma-ketlikda taqdimot qilishadilar. Bunda guruhlar tomonidan qog‘ozlarga yozib tayyorlangan javoblar mos ketma-ketlikda doskaga joylashtirib boriladi. Natijada qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish tannarxiga kiruvchi xarajatlarning barcha tarkibiy qismlari yoritib beriladi.

Mahsulot tannarxi tarkibiga kiruvchi moddiy xarajatlar
Mahsulot ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan mehnatga haq to‘lash xarajatlari
Ijtimoiy sug‘urta xarajatlari
Asosiy fondlar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi xarajatlari
Mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa xarajatlar

3-topshiriq:

“Baliq skeleti” usuli yordamida “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tannarxi shakllanishiga qanday omillar ta’sir etadi?” savoliga javob beriladi.



4-topshiriq:

FSMU texnologiyasi yordamida “Qishloq xo‘jalik mahsulotlari tannarxini pasaytirish uchun qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim?” savoliga javob berish.

Yo‘naltiruvchi so‘zlar: Jami xarajatlar, xarajat elementlari, moddalari, xarajatlarni turkumlashtirilishi, mahsulot tannarxi.

	Qishloq xo‘jalik mahsulotlari tannarxini pasaytirish uchun qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim?
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating	
(M) Ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

5-topshiriq:

Quyidagi ma’lumotlardan foydalanib fermer xo‘jaligida yetishtirilgan bug‘doy tannarxini aniqlang, o‘z fikr va xulosalaringizni yozing.

Ko‘rsatkichlar	2019-yil	2020-yil	Farqi (+/-)	O‘sish sur’ati, %
Ishlab chiqarilgan bug‘doy miqdori, tonna	250	264		
Ishlab chiqarish tannarxiga kiruvchi xarajatlar, ming so‘m	216750	332658		
Davr xarajatlari, ming so’m	120375	157820		
Moliyaviy faoliyat xarajatlari, ming so’m	87300	93500		
Favqulodda xarajatlar va zararlar, ming so’m	35000	45000		
Bug‘doy tannarxi, so‘m/kg				

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Qishloq xo‘jaligida xarajatlar va ularning turkumlanishi.
2. Qishloq xo‘jalik mahsulotlari tannarxi va uning tarkibiga kiruvchi xarajatlar.
3. Qishloq xo‘jalik mahsulotlari tannarxini pasaytirish imkoniyatlari.

14-BOB. QISHLOQ XO‘JALIGIDA NARX VA NARXLARNI SHAKLLANTIRISH

1. Qishloq xo‘jaligida narxning iqtisodiy mohiyati va shakllanishi.
2. Qishloq xo‘jaligida qo‘llaniladigan narx turlari.
3. Bozor munosabatlari sharoitida qishloq xo‘jalik mahsulotlari narxlarining shakllanishini takomillashtirish yo‘llari.

Tayanch iboralar: narx, bozor muvozanati, talab qonuni, taklif qonuni, bozor konyunkturasi, marketing, qishloq xo‘jaligida qo‘llaniladigan narxlar.

1. Qishloq xo‘jaligida narxning iqtisodiy mohiyati, shakllanishi va turlari.

Bozor iqtisodiyoti erkin tovar-pul munosabatlariga asoslangan bo‘lib, bu munosabatlar narxlar yordamida amalga oshadi. Narx tovar qiymatining puldagi ifodasidir. Uning darajasi bozor munosabatlari sharoitida samarali, cheklangan xarajatlarga asoslanadi, ya’ni ular narxning iqtisodiy asosini tashkil etadi. Har qanday xarajatlar ham samarali hisoblanmaydi. Shuning uchun ma’lum bir miqdorgacha bo‘lgan, ya’ni maqsadga muvofiq sarflangan xarajatlargina e’tiborga olinadi. Narx shakllanishida ushbu maqsadga muvofiq xarajatlarga asoslaniladi, undan yuqori xarajatlarni bozor tan olmaydi. Ya’ni, ishlab chiqaruvchi o‘z mahsulotining tannarxi yuqoriroq bo‘lganligi uchun uni bozorda shakllangan narxga nisbatan yuqoriroq narxda sota olmaydi. Bozor munosabatlari sharoitida talab va taklif o‘rtasidagi munosabat ham narx shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omil hisoblanadi. Talab qonuniga ko‘ra, bozorda taklif o‘zgarmagan holda mahsulotga bo‘lgan talab ortsa, mahsulotning narxi oshadi (14.1-rasm).



a) b)

14.1-rasm. Narx shakllanishiga talab (a) va taklif (b) qonunlarining ta’siri

Taklif qonuniga ko‘ra esa bozorda mahsulotga bo‘lgan talab o‘zgarmagan holda mahsulotning taklifi oshsa, narx arzonlashadi. Bozordagi biror mahsulotning narxi ushbu mahsulotlarga bo‘lgan talab va ushbu mahsulotning taklifi o‘rtasidagi muvozanatli nuqtada shakllanadi.

Raqobatli bozorda talab va taklifning o‘zgarishi narxlar darajasi o‘zgarishiga bevosita ta’sir etadi. Shuning uchun korxonalar bozor talabini hamda taklifini chuqur o‘rgangan holda qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirishlari lozim. Bunda ular imkoniyat doirasida ishlab chiqarish xarajatlarini tejashga alohida e’tibor berishlari kerak. Buning uchun mahsulot yetishtirish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirishga, ilg‘or texnologiyalarni joriy etishga hamda mavjud bo‘lgan barcha tabiiy va iqtisodiy resurslardan yil davomida oqilona va samarali foydalanishga alohida e’tibor berishlari lozim.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talab hozirgi davrda quyidagi omillarga bog‘liq: iste’molchilarning soni, daromadi, didi, o‘rindosh tovarlarning narxi va boshqalar. Mahsulotlarga bo‘lgan talabni o‘rganishda xalqimizning milliy urf-odatlarini ham inobatga olish kerak. Jumladan, xalqimizning non va non mahsulotlarini, guruchni ko‘proq iste’mol etishga moyilligini inobatga olish lozim. Qishloq xo‘jalik korxonalari o‘z mahsulotlarini xaridorlarning talabini e’tiborga olgan holda taklif etishlari shart. Bunda ular yetishtiriladigan mahsulotlar uchun ishlatiladigan resurslar narxiga, qo‘llanilayotgan texnologiyalar

darajasi va samarasiga, raqobatchi ishlab chiqaruvchilarning soniga va boshqalarga asoslanishlari lozim.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari narxining shakllanishiga mahsulotlarning naflilik darajasi ham ta’sir ko‘rsatadi. Agar mahsulot insonlar ehtiyojini qondirishda qanchalik yuqori naflilik darajasiga ega bo‘lsa, uning narxi shunchalik yuqoriroq shakllanadi va aksincha bo‘lsa narx pastroq shakllanadi. Mahsulotlarning naflilik darajasi mavsumlar bo‘yicha ham o‘zgarib turadi. Masalan, yoz oylarida salqin icimlikning bizga keltiradigan nafliligi yilning boshqa fasllariga nisbatan ancha ortadi. Bu esa o‘z navbatida yoz oylarida salqin ichimliklarga bo‘lgan talabni oshiradi va uning narxi ko‘tarilishiga olib keladi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining narxi shakllanishiga tarmoqning quyidagi o‘ziga xos xusuiyatlari ham ta’sir ko‘rsatadi:

- qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishning mavsumiyligi. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish jarayoni tabiiy omillar bilan chambarchas bog‘liq ekanligi, o‘simliklar va chorva mollari ishlab chiqarish vositasi sifatida qatnashishi, o‘simliklarning hosil bergunicha ma’lum vegetatsion davrni bosib o‘tishi lozimligi yilning ma’lum davriga kelib barcha ishlab chiqaruvchilarning mahsuloti deyarli bir vaqtda tayyor bo‘lisiga olib keladi. Bu esa bozorda qishloq xo‘jalik mahsulotlarining taklifi keskin ortishi va o‘z navbatida narxning pasayishiga olib keladi;

- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining saqlash uchun noqulayligi. O‘zida qayta ishlovchi korxonalari bo‘lmagan qishloq xo‘jaligi korxonalari yetishtirgan mahsulotlarini tezroq sotishga harakat qiladi. Bu ham qishloq xo‘jalik mahsulotlari narxining pasayishiga olib keladi. Bu ayniqsa ho‘l meva, sabzavot, go‘sht va sut mahsulotlari yetishtirishda kuchli seziladi;

- turli tabiiy-iqlim sharoitlari ham narx shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, 2007-yilning qish oylarida haroratning keskin pasayib ketishi natijasida ayrim o‘simliklar va chorva mollari nobud bo‘ldi. Bu esa qishloq xo‘jalik mahsulotlari taklifini kamaytiradi va narxning ko‘tarilishiga olib keladi. 2008-yilda suv taqchilligi oqibatida mamlakatimizda sholi hosili keskin kamaydi, bu hol bozorlarda guruch narxining 3-4 barobar oshib ketishiga olib keldi.

Qishloq xo‘jaligida shakllanayotgan muvozanatli narxlar xo‘jalik nuqtai nazaridan quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:

- qishloq xo‘jalik korxonasining ishlab chiqarish xarajatlarini qoplash;

- qishloq xo‘jalik korxonasining davr va moliyaviy xarajatlarini hamda tasodifiy zararlarini qoplash;

- xo‘jalikka kelajakda rivojlanishini ta’minlaydigan miqdorda foyda keltirish.

Qishloq xo‘jaligida shakllangan narxlar yuqorida keltirilgan xarajatlarni qoplash imkonini bermasa, oxir-oqibat qishloq xo‘jalik korxonasining faoliyatida salbiy oqibatlarga olib keladi. Shu sababli xarajatlarni tejash orqali tannarxni pasaytirish, mahsulot sifatini yaxshilash orqali narxning yuqoriroq shakllanishiga erishish natijasida olinadigan yuqoriroq daromad olishni ta’minlash lozim.

Iqtisodiy jihatdan asoslangan muvozanatli narxlarni shakllantirishda qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talab va taklifni e’tiborga olish lozim. Aksariyat qishloq xo‘jalik mahsulotlarining bir vaqtda tayyor bo‘lishi va saqlash uchun noqulayligi ma’lum muddatda ularning taklifi keskin oshib ketishiga olib keladi va natijada ularning narxi keskin pasayadi. Shu sababli qishloq xo‘jalik korxonalarida marketing faoliyatini rivojlantirish orqali bozor talabidan kelib chiqqan holda mahsulot yetishtirish, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlovchi inshootlarni ko‘paytirish maqsadga muvofiqdir.

Ichki bozordagi narxlarni barqarorlashtirish maqsadida eksportga cheklovlarning o’rnatilishi mamlakat iqtisodiyoti va aholisi farovonligi uchun salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Buni ayrim mamlakatlar tajribasi ham isbotlaydi. Narx shakllanishiga davlat tomonidan bevosita aralashuvning oqibatlarini Argentina misolida ko’rib chiqishimiz mumkin (B.Hoshimov, “Tarix saboqlari yoxud Argentinada go’sht narxiga davlat aralashuvi qanday oqibatlarga olib kelgani xususida”, kun.uz. sayti, 2017-yil 27-iyul). Argentina har doim yuqori sifatli, mahalliy fermerlar va aholining faxri bo‘lgan mol go‘shti bilan taniqli bo‘lib kelgan. 2005-yilda Argentina jahonda mol go‘shtini eksport qilish bo‘yicha uchinchi o‘rinda bo‘lgan. Mollarning bosh soni muttasil oshib borayotgan, chorvachilik sohasiga investitsiyalar yuqori sur’atlarda kengaya borayotgan edi. AQSh qishloq xo‘jaligi vazirligi (USDA) prognozlariga ko‘ra, go‘sht yetishtiruvchilarning bunday o‘sishi va samaradorligi hisobga olinadigan bo‘lsa, bir necha yildan so‘ng Argentina mol go‘shti yetishtirish va eksport qilish bo‘yicha jahonda mutlaq birinchi o‘ringa chiqib olishi kerak bo‘lgan. Bu sohaga investitsiyalarning ortishi tufayli boshqa sohalar ham shiddat bilan rivojlana boshlaydi: yem ishlab chiqarish, transport logistikasi, kushxonalarning innovatsion usullari, sovutkichlar sanoati, bug‘langan

go‘sht va kolbasalar ishlab chiqarish, hattoki konservalash uchun jez bankalar ishlab chiqarish sanoati ham ravnaq topadi. Hamma ushbu sohada yuqori sur’atlardagi taraqqiyotni kutayotgandi, investitsiyalar esa bir zum to‘xtamayotgan edi.

Lekin 2006-yilning 8-martida Argentina prezidenti Nestor Kirshner narxlarning doimiy oshib borayotganini oldini olish uchun mol go‘shti eksportini 180 kunga ta’qiqlash haqida qat’iy chora qabul qiladi. Ta’qiq “Go‘shtni eksport sektoridan mahalliy bozorga qaytarib, uni oddiy argentinaliklar bemalol xarid qila oladigan darajaga tushirish” maqsadida joriy etildi, deb yozgandi o‘shanda The Economist jurnali. Bu ta’qiq birdaniga ro‘y bermadi, avvaliga hukumat “Go‘sht hamma uchun” deb nomlangan dastur doirasida go‘sht narxi oshib ketishi oqibatlarini yumshatish maqsadida Buenos-Ayresda mol go‘shtining o‘ndan ziyod nomdagi mashhur bo‘laklarini past narxlarda taklif eta boshlaydi. Dasturga ko‘ra, eksport qilinayotgan har 2,5 tonna go‘shtga, mahalliy bozor uchun eksport narxining 50 foizi miqdorida 1 tonna go‘sht chiqarilishi kerak bo‘lgan. Shunday qilib, fermerlar ichki bozorga imtiyozlar taqdim eta boshlashgan. Kutilganidek, bu dastur mutlaqo samarasiz bo‘lib chiqadi. Bu choralar bilan birgalikda hukumat eksport bojini 5 foizdan 15 foizga ko‘tarib qo‘yadi, buning oqibatida argentinaliklarning go‘shti eksport boji to‘lanmaydigan Mercosur’dagi hamkorlariga nisbatan raqobatbardosh bo‘lmay qoladi. Mercosur – janubiy Amerika savdo bloki bo‘lib, 1991-yil 26-martda Paragvayning Asunsion shahrida asos solingan, uning to‘liq a’zolari Argentina, Braziliya, Paragvay va Urugvay.

Narxlar prezident kutgan darajaga tushmaydi va 2006-yilning oxirida hukumat va go‘sht ishlab chiqaruvchilar (shu jumladan, sotuvchilar) o‘rtasida uzoq muzokaralar boshlanadi. Hukumat yetarli darajada siyosiy va axborot bosimi o‘tkazib, 2006-yilda 2005-yilga nisbatan eksport hajmini 20 foizga qisqartirish haqidagi bitimga erishadi, biroq amalda bu yuz bermaydi. Ayanchli oqibatlardan so‘ng hukumat ta’qiqni yumshata boshlaydi va 26 mayga borib (78 kundan so‘ng) eksportga ta’qiq olib tashlanadi, buning o‘rniga kvotalar joriy etiladi. 2005–2013 yillar oralig‘ida ta’qiq va keyin joriy etilgan kvotalar natijasida mol go‘shti eksporti hajmi 76 foizga qisqarib ketadi. O‘z-o‘zidan tushunarliki, bu sektorga investitsiyalar tiklab bo‘lmas darajada to‘xtaydi, 2006-yildan 2010-yilgacha qoramollar soni 28 foizga qisqaradi. 2017-yil holatiga berilgan ma’lumotlarga ko’ra, eksportga ta’qiq olib tashlanganidan 11 yil o‘tib, qoramollar soni 2006 yildagidan

ancha past. Yirik shoxli qoramollar sonining qisqarishi go‘sht narxining keskin oshishiga olib keladi. Bozor oshib borayotgan talabni qondirishga tayyor emas edi va narxlarning yanada o‘sishi bilan javob qaytaradi. Boz ustiga, qandaydir vaqt oralig‘ida Argentina hattoki go‘sht import qila boshlaydi.

Investitsiyalarning to‘xtashi, korxonalarning yopilishi, ish o‘rinlarini yo‘qotilishi, yo‘ldosh sanoatlarning barbod bo‘lishi – prezident va hukumat tomonidan qo‘llanilgan, “ijtimoiy yo‘nalgan” ana shunday choralar oqibatlarining qisqacha ro‘yxati. Sociedad Rural Argentina iqtisodiy tadqiqotlar instituti rahbari Luis Migel Etcheverening so‘zlariga ko‘ra, so‘nggi o‘n yil “yo‘qotilgan o‘n yillik” bo‘lgan, bu davrda sun’iy arzonlashtirilgan mol go‘shti sohaning raqobatbardoshligiga putur yetkazgan va yirik shoxli qoramollar sonining 12 million boshga qisqarishiga sabab bo‘lgan. 2017-yil holatiga ko’ra, Argentinada go‘sht prezident istaganidek arzon bo‘lib qolmadi, aksincha, bir vaqtlar jahondagi eng yirik go‘sht eksportchisi esa ro‘yxatda 12-o‘ringa tushib ketdi.

Argentinadagi ushbu intervensiyaning iqtisodiy oqibatlari mutlaqo halokatli bo‘ldi: faqatgina mol go‘shti eksportidan yo‘qotishlar milliardlab dollar bilan o‘lchanmoqda. Iste'molchilarning yo‘qotishlari, ishsizlik va yopilgan korxonalar tufayli ro‘y bergan yo‘qotishlarni hisoblash qiyinroq. Bu mavzuda bir necha ilmiy maqolalar e'lon qilingan va ulardagi xulosalar aslo optimistik emas: umumiy iqtisodiyotga yetkazilgan zarar juda ulkan va tiklanish uchun juda uzoq vaqtni talab etadi. Bu avantyuraning nufuzga daxl qiluvchi chiqimlari (shartnomalarni bajara olmaslik va investorlarning puli havoga sovurilishi) ni qoplash uchun argentinaliklarning yana bir necha avlodi tovon to‘lashadi.

Ushbu keysni misol tariqasida keltirishdan ko‘zlangan maqsad shundan iboratki, qandaydir cheklovlar, davlatning aralashuvi yoki narxlarning nazorat qilinishi (bu misolimizda go‘sht ishlab chiqaruvchilar uchun) mamlakat farovonligi uchun uzoq yillar ayanchli oqibatlarga sabab bo‘lishi mumkin. Mamlakatimizda ham so‘nggi vaqtda go‘sht narxining oshib borayotganiga guvoh bo‘layapmiz va Argentina sabog‘i bu yerda juda muhim. Undan o’zimiz uchun zarur xulosalarni chiqarishimiz maqsadga muvofiqdir.

Narxlarni davlat tomonidan tartibga solishda bilvosita usllardan foydalanish maqsadga muvofiqdir, bevosita usullardan foydalanish salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

2. Qishloq xo‘jaligida qo‘llaniladigan narx turlari.

Qishloq xo‘jaligida barcha talablarni qondirish maqsadida turli xildagi dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari yetishtiriladi, ishlar hamda xizmatlar bajariladi. Ularni sotishda turli narxlardan foydalaniladi. Narxlar mahsulotlarni ayriboshlash maskaniga, maqsadiga, vazifasiga ko‘ra, bir qancha turlarga bo‘linadi. Hozirgi vaqtda qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida qo‘llanilayotgan narx turlari 14.2-rasmda keltirilgan.



14.2-rasm. Qishloq xo‘jaligida qo‘llaniladigan narx turlari

Qishloq xo‘jaligi korxonalari o‘z mahsulotini ushbu mahsulotlarni tayyorlovchi, saqlovchi va qayta ishlovchi korxonalarga tuzilgan shartnomalarga muvofiq sotadilar. Ushbu narx mahsulot sotuvchi va uni sotib oluvchilar o‘rtasida, ularning iqtisodiy manfaatlari hamda bozordagi talab va taklif o‘rtasidagi munosabat asosida shakllanadi. U tarmoqlarning mahsulot oldi-sotdi munosabati bo‘yicha tuzilgan shartnomalarida o‘z aksini topadi. Shuning uchun ushbu narx shartnomaviy narxlar deb ham ataladi.

Mahsulotlar ayrim hollarda vositachilarga yoki boshqa xaridorlarga ko‘p miqdorda, katta partiyalarda ham sotiladi, bunda qo‘llaniladigan erkin shakllanuvchi narx ulgurji narx deb ataladi. Ulgurji narx qishloq xo‘jaligi mahsulotlari birjalar orqali sotilganda ham qo‘llaniladi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalari o‘zlari yetishtirgan mahsulotlarni dehqon bozorlarida yoki o‘zlarining ichki sotish tizimi orqali sotganda chakana narxlar qo‘llaniladi.

Transfert narxlar – korxonaning ishlab chiqarish bo‘linmalari yoki korxonalar tomonidan tashkil etilgan kooperatsiya ichidagi o‘zaro hisob-kitobda qo‘llaniladigan narxlardir.

Indikativ narxlar – qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining kelgusi yil hosili uchun yoki kelgusida kutilayotgan narxi bo‘lib, qishloq xo‘jaligi korxonalari faoliyatini rejalashtirishda ishlatiladi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalari o‘z ishlab chiqarishini rivojlantirish maqsadida yetishtirilgan mahsulotlarning ma’lum bir qismini o‘z ehtiyojlari uchun (urug‘lik, yem-xashak, umumiy ovqatlanishga va hokazo) ishlatadilar. Bu jarayonda qatnashadigan mahsulotlarni xo‘jalikda hisobga olishda tannarxlari bo‘yicha baholanadi. Shuning uchun bunday narxlar tannarx narxlari ham deyiladi.

Qiyosiy narxlar - korxonalar faoliyatining ma’lum davr oralig‘idagi ko‘rsatkichlarini tahlil qilishda foydalaniladigan narxdir.demak, ushbu narx mahsulotlarning oldi-sotdisida emas, balki korxonalar faoliyatini tahlil qilishda qo‘llash uchun tanlab olinadigan biror yildagi haqiqiy narxlaridir. Qiyosiy narxlar asosida mamlakat miqyosida yoki korxonalarda biror qiymat ko‘rsatkichining o‘zgarishiga obyektiv baho berish imkoniyati paydo bo‘ladi. Chunki tahlil jarayonida qiyosiy narxlar qo‘llanilganda biror qiymat ko‘rsatkichining o‘zgarishiga narx o‘zgarishining ta’siri yo‘qqa chiqariladi.Bu holatga real baho berishda muhim ahamiyatga egadir. Uzoq yillar mobaynida qiyosiy (taqqoslama) narx sifatida 1996-yildagi qishloq xo‘jalik mahsulotlarining haqiqiy narxlari olingan. Inflyatsiya darajasi va boshqa iqtisodiy omillarni e’tiborga olgan holda qiyosiy narx sifatida boshqa yilning haqiqiy narxi tanlab olinishi mumkin.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlari xorijiy xaridorlarga jahon bozori narxlarida ham sotilmoqda. Uning mutlaq miqdori jahondagi ixtisoslashgan yirik birjalarda belgilanib, mahsulot eksporti va importi shartnomalarida aks ettiriladi. Qishloq xo‘jalik mahsulotarining jahon bozori narxlari shakllanishida xalqaro savdo bo‘yicha qo‘yiladigan talablar ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Bunda tovarni yetkazib berish shartlari, sug‘urtalash kabi xarajatlarning kim tomonidan qoplanishi inobatga olinadi. Shu bilan birga narx darajasiga dunyo miqyosidagi siyosiy va iqtisodiy barqarorlik ham ta’sir etadi.

2020-yilgacha qishloq xo‘jalik korxonalarida yetishtirilayotgan paxta xomashyosi va bug‘doy mahsulotlari davlat buyurtmasi asosida davlatga qarashli tayyorlov korxonalariga tuzilgan kontraktatsiya shartnomalari asosida davlat xarid narxlarida sotilgan. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida bozor munosabatlarini yanada takomillashtirish bo‘yicha izchil islohotlar olib borilmoqda. Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-martdagi “Paxtachilik sohasida bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4633-sonli qaroriga muvofiq, 2020-yil hosilidan boshlab paxta xomashyosining xarid narxlarini belgilash amaliyotidan voz kechildi. Bundan tashqari jahon bozori narxlari tahlilidan kelib chiqib har yili 1-dekabrga qadar kelgusi yil hosili uchun kutilayotgan (indikativ) narxlar e’lon qilinishi hamda bozorlardagi narxlar o‘zgarishidan kelib chiqib har chorakda ushbu narxga tuzatishlar kiritish amaliyoti joriy etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-martdagi “G‘alla yetishtirish, xarid qilish va sotishga bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4634-sonli qaroriga muvofiq 2020-yil hosilidan boshlab davlat buyurtmasi asosida boshoqli don yetishtirish amaliyoti bosqichma-bosqich bekor qilinishi belgilandi, davlat xaridi to‘liq bekor qilinishi belgilandi hamda fermerlar va boshqa korxonalar tomonidan yetishtiriladigan g‘alla barcha iste’molchilarga, shu jumladan donni qayta ishlovchi korxonalar, g‘allachilik klasterlari va treyderlarga birja savdolari orqali yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar (fyuchers, forvard va boshqalar) asosida erkin narxlarda sotilishi belgilab qo‘yildi. Bundan tashqari, ichki bozorda don va non mahsulotlari narxlari barqarorligini ta’minlash tadbirlarini amalga oshirish uchun zarur miqdorda don O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tomonidan fyuchers, forvard shartnomalari asosida yoki birja savdolari orqali erkin narxlarda xarid qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi bilan birgalikda jahon bozori, mintaqaviy birjalar narxlarini tahlil qilgan holda, har yili 1-avgustga qadar kelgusi yil g‘alla hosili uchun kutilayotgan minimal narxlarni e’lon qiladi hamda bozorlardagi narxlardan kelib chiqib har chorakda ushbu narxga tuzatishlar kiritib, ommaviy axborot vositalarida e’lon qilib boradi.

Respublika ichki bozorida don va non mahsulotlari narxlari barqarorligini ta’minlash tadbirlarini amalga oshirish Moliya vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi zimmasiga yuklatilgan. Ichki bozorda don va non mahsulotlari narxlari barqarorligini ta’minlash tadbirlarini amalga oshirish uchun Moliya vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tomonidan xarid qilinadigan don Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi va Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi bilan kelishilgan holda, Bosh vazirning agrar va oziq-ovqat sohalarini rivojlantirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari tomonidan tasdiqlangan oylik grafik asosida Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tomonidan birja savdolariga sotuvga qo‘yiladi.

Don va non mahsulotlari narxlari barqarorligini ta’minlash uchun zarur miqdordagi bug‘doyni xarid qilish bilan bog‘liq xarajatlar (sotib olish, tashish, saqlash), xarid qilish va sotish narxlari orasida yuzaga kelgan tafovut (ijobiy, salbiy) Moliya vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi moliyaviy faoliyati yakunlariga olib boriladi hamda zarur holatlarda yuzaga kelgan salbiy tafovut jamg‘armaga respublika budjetidan qoplab beriladi.

2020-yilga qadar davlat xarid narxlari Moliya vazirligi huzuridagi maxsus komissiya tomonidan belgilanib kelingan. Bunda ushbu mahsulotlarning jahon bozoridagi narxi, uning o‘zgarish dinamikasi, mamlakatdagi inflyatsiya darajasi va boshqa omillar e’tiborga olingan. Lekin ushbu xarid narxlari ushbu mahsulotlarning erkin narxlariga nisbatan ancha past bo‘lgan va bu tarmoqda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Bundan tashqari, davlat xarid narxlarining belgilanishi qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida bozor munosabatlarining takomillashuviga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. (11.1-jadval). Ushbu jadval ma’lumotlaridan mamlakatimizda davlat xarid narxlari ushbu mahsulotlarning ichki bozordagi narxlaridan ancha past shakllangan. Ayniqsa, 2008-yilda bug‘doyning ichki bozordagi narxi uning davlat xarid narxidan 3,64 barobar qimmat bo‘lgan. Bunday holat bir tomondan tarmoqda paxta xomashyosi va bug‘doy ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchilarning oladigan daromadlarini kamaytirsa, ikkinchi tomondan, ularda o‘z faoliyatini yanada rivojlantirishga rag‘batlantirmaydi. Shu nuqtai nazardan, prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan paxta xomashyosi va bug‘doyni davlat buyurtmasi asosida yetishtirishning

bekor qilinishi tarmoqda bozor munosabatlarining takomillashishiga, qishloq xo‘jaligida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarining faoliyat erkinligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

11.1-jadval

2005-2013 yillarda bug‘doyning davlat xarid narxi va ichki bozorlardagi o‘rtacha narxlari dinamikasi (1 tonna uchun ming so‘m).

	2005	**2006**	**2007**	**2008**	**2009**	**2010**	**2011**	**2012**	**2013**
Davlart xarid narxi	82,0	98,4	118,0	169,0	206,0	237,0	291,8	338,0	380,0
Ichki bozor narxi	182,0	195,5	352,3	615,5	448,2	456,1	957,8	827,8	907,9
Farq (marta)	2,22	1,99	2,99	3,64	2,18	1,92	3,28	2,45	2,39

Manba: kun.uz/Iqtisodiyot, 30.03.2019-yil.

Hozirgi bozor munosabatlari sharoitida qishloq xo‘jalik korxonalari o‘z mahsulotlarini sotishni to‘g‘ri tashkil etishlari lozim. Mamlakatimizda yetishtiriladigan qishloq xo‘jalik mahsulotlari o‘zining sifati, vitaminlarga boyligi va ta’mi bilan butun dunyoga mashhurdir. Shu sababli ularni xorijiy mamlakatlarga ham eksport qilish imkoniyatlaridan unumli foydalanish lozim. Bunda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlovchi va qayta ishlovchi infratuzilmani rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarining narxlari ma’lum omillar ta’sirida, shu jumladan talab va taklif muvozanatining buzilishi natijasida o‘zgarib turadi. Masalan, qurg‘oqchilik, qahraton sovuq, yog‘ingarchilikning me’yordan ko‘p bo‘lish va boshqa tabiiy ofatlar yuz berishi natijasida biror turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotini ishlab chiqarish hajmi keskin kamayib ketishi mumkin. 2008-yilda mamlakatimizda bahor oylarida yog‘ingarchilikning ancha kam bo‘lishi mamlakatimizda g‘alla yetishtirishning ancha kamayishi, buning natijasida esa bug‘doy, sholi kabi mahsulotlarning narxi ko‘tarilishiga olib keldi. 2007-yilda qishning juda sovuq kelishi esa mamlakatimizda uzum, anor, xurmo kabi

mahsulotlarni yetishtirishning keskin kamayishiga olib kelgan edi. Bu esa ularning narxiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmaydi. Xuddi shunday holatni jahon bozorida ham kuzatish mumkin. Bu esa mamlakatimizga chetdan olib kelinadigan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining narxi keskin oshishiga olib kelishi, mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shuni e’tiborga olgan holda mustaqillikning ilk davridan boshlab hukumatimiz tomonidan o‘zimizni eng muhim oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘liq ta’milashga qaratilgan tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Bunda mamlakatimizda qabul qilingan Don mustaqilligi dasturi, qishloq xo‘jalik ekinlari tarkibining takomillashtirilishi, oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni ko‘paytirish bo‘yicha qabul qilingan me’yoriy hujjatlar hamda ular asosida amalga oshirilayotgan tadbirlarni alohida ta’kidlab o‘tish lozim.

3. Bozor munosabatlari sharoitida qishloq xo‘jalik mahsulotlari narxlarining shakllanishini takomillashtirish yo‘llari.

Bozor munosabatlari sharoitida talab va taklif o‘zgarishini e’tiborga olgan holda narxlarning shakllanishini takomillashtirib borish lozim. Bu nihoyatda muhim masala. Uning ijobiy hal etilishi juda ko‘p omillarga bog‘liq. Respublika miqyosida bu masalani hal etishda davlatning roli ancha ulkan. Shuning uchun bu jarayonda agrosanoat majmuasini rivojlantirishda qo‘llanilayotgan narx va moliya-kredit siyosati quyidagi vazifalarni yechishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak:

- davlatning iste’mol mollari bilan o‘zini-o‘zi ta’minlashini tezlashtirish;
- qishloq xo‘jaligi va sanoat mahsulotlari narxlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlashga erishish;
- qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida bozor munosabatlarini yanada takomillashtirib borish;
- qishloq xo‘jaligi tarmogida yetishtirilayotgan mahsulotlarni sotish jarayoniga axborot-kommunikatsiyalarni keng jalb etish va shu orqali

qishloq xo‘jalik mahsulotlari sotiladigan platformalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

- qishloq xo‘jalik mahsulotlari eksporti uchun zarur infratuzilmani rivojlantirish;
- qishloq xo‘jalik mahsulotlarining eksportini qo‘llab-quvvatlash va ularning narxlari shakllanishini takomillashtirish uchun xalqaro sertifikatlash tizimlarini keng joriy etish va hokazo.

Bozor munosabatlari sharoitida narx munosabatlari quyidagi tamoyillarga asoslanishi kerak:

- narx shakllanishi jarayonlariga bozor munosabatlarini joriy etish;
- tovar ishlab chiqaruvchilarning daromad olishlarini ta’minlash;
- ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish va samaradorlikni oshirish;
- narx va moliya-kredit munosabatlarining o‘zaro aloqasini optimallashtirish;
- talab va taklif ta’siri natijasida muvozanatli narxlarni shakllantirish;
- fan-texnika taraqqiyotini, ilg‘or texnologiyalarni rag‘batlantirish va boshqalar.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining narxlari shakllanishini takomillashtirishda quyidagilarga e’tibor berish lozim:

- qishloq xo‘jaligi va sanoat mahsulotlari narxlari o‘rtasida mutanosiblikni ta’minlash;
- tarmoqda yetishtirilayotgan mahsulotlar bozorini rivojlantirish, erkin sotish imkoniyatlarini kengaytirish, jahon bozoriga chiqishni rag‘batlantirish;
- qishloq xo‘jaligida marketing faoliyatini rivojlantirish;
- qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlovchi inshootlarni ko‘paytirish va ular faoliyatini rivojlantirish.

Ma’lumki, qishloq xo‘jalik mahsulotlari bir vaqtda pishib yetiladi va ko‘pgina turlari saqlash va tashish uchun noqulaydir. Shu sababli mahsulot pishib yetilgan paytda taklif miqdori keskin ortib, ularning narxi past darajada shakllanishiga olib keladi. Bunda narxning keskin tushib ketishiga asosiy sabab bozorda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari taklifining ortib ketishidir. Bu vaziyatdan iste’molchillar naf ko‘rishi

mumkin, lekin qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarning me’yor darajasida daromad olmasligi yoki zarar ko‘rishi ushbu mahsulotni ishlab chiqarishning qisqarishiga va natijada ushbu mahsulot bilan aholining ta’minlanishi izdan chiqishi yoki narxining keskin oshib ketishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli narxning qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarini qanoatlantiradigan darajada shakllanishi uchun bozordagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining taklifini qisqartirish lozim (14.3-rasm).



14.3-rasm. Taklif qisqarishi hisobiga mahsulot narxining o’sishi.

Buning uchun mahsulot pishib yetilgan paytda mahsulotning bir qismini saqlash uchun yo‘naltirish lozim. Natijada pishiqchilik paytida qishloq xo‘jalik mahsulotlari narxi ishlab chiqaruvchilarni qanoatlantiradigan darajada shakllanadi va shu bilan birga ushbu mahsulotlarni ma’lum muddat saqlab, keyin sotish natijasida qo‘shimcha daromad olishga ham erishish mumkin. Bundan tashqari, yil davomida aholini qishloq xo‘jalik mahsulotlari bilan ta’minlash, qishloq xo‘jalik mahsulotlari narxining yil mavsumlari bo‘yicha keskin farq qilishining ham oldi olinadi. Saqlanayotgan mahsulotlarni qish va bahor oylarida chiqarib sotish orqali bozorlardagi ushbu mahsulotlarning taklifi oshiriladi va taklif qonuniga ko‘ra, ularning narxi keskin oshib

ketishining oldi ham olinadi, aholining xarid qobiliyatini oshirish va ularni yil mobaynida qishloq xo‘jalik mahsulotlari bilan ta’minlashga erishiladi. Pishiqchilik paytida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining bozordagi taklifini kamaytirish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari narxining shakllanishini takomillashtirishda yetishtirilgan mhasulotning bir qismini sanoat korxonalarida qayta ishlashga yo‘naltirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bilan shug‘ullanuvchi zamonaviy texnologiyalarga asoslangan korxonalarni barpo etish ham muhim ahamiyatga ega. Shu orqali qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talabni oshirish va qishloq hududlarida qo‘shimcha ish o‘rinlari tashkil etishga ham erishiladi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining narxi shakllanishini takomillashtirishda qishloq xo‘jalik korxonalarining o‘z mahsulotlarini tashqi bozorlarga eksport qilishini rivojlantirish ham maqsadga muvofiqdir. Hukumatimiz tomonidan bu masalaga ham alohida e’tibor berilmoqda. Jumladan, 2021-yil 14-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2021-yilda O‘zbekiston Respublikasining eksport salohiyatini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4949-sonli qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligining hududiy bo‘linmalarida doimiy faoliyat yurituvchi hududiy eksport shtablari tashkil etiladi. 2021-yil 1-fevraldan eksportchi tashkilotlarga eksportoldi moliyalashtirish ajratiladi. 2021-yil 1-apreldan esa mahalliy eksportchi korxonalarning savdo uylarini ochish va saqlash, ofis, savdo va ombor binolarini ijaraga olish, shuningdek, reklama kampaniyalarini tashkil qilish bilan bog‘liq chet eldagi xarajatlarining 50 foizi Eksportni rivojlantirish agentligi mablag‘lari hisobidan qoplab beriladi.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarining narxlari barcha xarajatlarni qoplab, optimal miqdorda foyda olishni ta’minlashi maqsadga muvofiqdir. Buning uchun qishloq xo‘jalik korxonalari fan-texnika yutuqlarini, samarali texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etishlari, ishchi va xizmatchilarning bilim va malakalarini hamda tadbirkorlik faoliyatlarini yuksaltirishga erishish orqali mahsulot sifatini yaxshilash va xarajatlarni tejashga erishishlari lozim.

Bunday tartibda shakllangan narxlar iqtisodiy jihatdan asoslangan bo‘lib, ular o‘z vazifalarini to‘liq bajarishlari mumkin. Shunday narxlargina tomonlarning manfaatlarini samarali ravishda qondirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Qisqacha xulosalar

Narx qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotining eng muhim kategoriyasi hisoblanadi. Uning mutlaq miqdori iqtisodiy jihatdan asoslangan bo‘lishi kerak. Narxlar qishloq xo‘jalik korxonasida qilinadigan barcha xarajatlarni qoplab, korxonaga o‘zining rivojlanishini ta’minlaydigan miqdorda foyda keltirishi lozim.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlari narxlarining shakllanishida bir qator omillar ta’sir qiladi. Jumladan, talab va taklif o‘rtasidagi munosabat, mahsulotning sifati va naflilik darajasi. Bundan tashqari qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining o‘ziga xos xususiyatlari ham tarmoqda narxlarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Qishloq xo‘jalik mahsulotlari narxlarining tadbirkorlar manfaatlarini ta’minlaydigan darajada bo‘lishi uchun ularning shakllanishini doimiy ravishda takomillashtirib borish lozim

Qishloq xo‘jaligida narxlarning shakllanishini takomillashtirishda tadbirkorlar marketing faoliyatiga ham alohida e’tibor qaratishlari lozim.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Narxning mohiyati nimadan iborat?
2. Narx qanday shakllanadi?
3. Narxning qanday vazifalari mavjud?
4. Narxning qanday funksiyalarini bilasiz?
5. Qishloq xo‘jaligida narxning qanday turlari qo‘llaniladi?
6. Jahon bozori narxi deganda nimani tushunasiz?
7. Qiyosiy narx deganda nimani tushunasiz?
8. Narxlarni liberallashtirishning qanday yo‘llari mavjud?
9. Qishloq xo‘jalik mahsulotlariga bahoning shakllanish jarayonini takomillash-tirish uchun qanday tadbirlarni amalga oshirish lozim?

BOB YUZASIDAN AMALIY TOPSHIRIQLAR:

1-topshiriq:

Klaster usuli yordamida qishloq xo‘jaligida qo‘llaniladigan narxlar turlarini ko‘rsatib berish.



2-topshiriq:

FSMU texnologiyasi yordamida “Qishloq xo‘jaligida narxlarning shakllanishini yanada takomillashtirish uchun nimalarga e’tibor berish kerak?” ekanligini yo‘naltiruvchi uslubiy tavsiyalar asosida yechish:
Yo‘naltiruvchi so‘zlar: Qishloq xo‘jaligida narx shakllanishining o‘ziga xos xususiyatlari, marketing, logistika, sifat menejmenti.

	“Qishloq xo‘jaligida narxlarning shakllanishini yanada takomillashtirish uchun nimalarga e’tibor berish kerak?”
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating	
(M) Ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

3-topshiriq:

Nilufar guli usuli yordamida qishloq xo‘jaligida yilning ayrim davrida narxning keskin pasayib ketishiga ta’sir etuvchi omillar va uni takomillashtirish yo‘llarini tahlil qilish.

	B	

	C	

	D	

	I	

B	**C**	**D**
I	**A**	**E**
H	**G**	**F**

	E	

	H	

	G	

	F	

Nilufar guli - muammoni yechish yo‘llarini ko‘rsatib beruvchi usuldir. O‘zida nilufar guli ko‘rinishini namoyon qiladi. Uning asosini to‘qqizta to‘g‘ri to‘rtburchak tashkil etadi. Bunda A – qo‘yilayotgan asosiy muammo, ya’ni qishloq xo‘jaligida yilning ayrim davrida narxning keskin pasayib ketishi; B,C,D,E,F,G,H,I – esa ushbu muammoga ta’sir etuvchi omillar, har bir omil alohida olinib, uni hal etish yo‘llari yozib chiqiladi. Ushbu usul tizimli fikrlash, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi va faollashtiradi.

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Qishloq xo‘jaligida narxning iqtisodiy mohiyati va shakllanishi.
2. Qishloq xo‘jaligida qo‘llaniladigan narx turlari.
3. Bozor munosabatlari sharoitida qishloq xo‘jalik mahsulotlari narxlarining shakllanishini takomillashtirish yo‘llari.

15-BOB: QISHLOQ XO‘JALIGI ISHLAB CHIQARISHINING IQTISODIY SAMARADORLIGI

1. Iqtisodiy samaradorlikning mohiyati va ahamiyati.
2. Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy samaradorlikni tavsiflovchi ko‘rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi.
3. Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo‘llari.

Tayanch iboralar: samaradorlik, daromad, foyda, sof foyda, xarajatlarning daromadliligi, rentabellik darajasi.

1. Iqtisodiy samaradorlikning mohiyati va ahamiyati.

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida mulkchilikning turli shakllariga asoslangan korxonalar ishlab chiqarish faoliyatida har xil qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtiradilar, xizmatlarni bajaradilar. Ular dastavval natural shaklida hisobga olinadi, keyin ular sotiladi va bir qismi ichki iste’mol uchun ishlatiladi. Bunda mahsulot yetishtirish, ish va xizmatlar bajarish jarayonining samaradorligi tovar-pul munosabatlari yordamida aniqlanadi.

Tadbirkorlik faoliyatidan ko‘zlangan asosiy maqsad – ko‘proq sof foydaga erishishdir. Har qanday iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda avvalo resurslar sarflanadi, ya’ni xarajatlar amalga oshiriladi. Ko‘proq sof foydaga erishish uchun esa ushbu xarajatlarni to‘g‘ri rejalashtirish, sarflanayotgan xarajatlarning har bir birligini imkon qadar ko‘proq foyda keltiradigan holda amalga oshirish talab etiladi.

Iqtisodiy samaradorlik - ma’lum davrdagi iqtisodiy faoliyat davomida amalga oshirilgan xarajatlar evaziga olingan sof foyda summasi bilan aniqlanuvchi muhim ko‘rsatkichdir. Iqtisodiy samaradorlik deganda amalga oshirilgan har bir birlik xarajat evaziga olingan sof foyda hajmi tushuniladi, ya’ni korxonada qilinayotgan xarajatlarning natijadorligini anglatadi. Sarflangan xarajatlar har bir birligi evaziga olingan sof foyda summasi qancha ko‘p bo‘lsa, iqtisodiy samaradorlik darajasi shunchalik yuqori hisoblanadi va aksincha.

Qishloq xo‘jalik korxonalarida yalpi mahsulot miqdorini ko‘paytirish va sifatini yaxshilash, mahsulot tannarxini pasaytirish kabi chora-tadbirlar iqtisodiy samaradorlik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida, xodimlarni moddiy rag‘batlantirish, mahalliy va davlat budjetiga to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirish va

nihoyat, korxona ishlab chiqarishini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish shaklida rivojlantirish imkoniyatini yaratadi. Natijada ishlab chiqarishga yangi texnikalar, samarali texnologiyalarni joriy etish ta’minlanadi. Bu hol mehnatning mexanizatsiyalashganlik darajasini yuksaltirib, unumdorligi oshishini ta’minlaydi.

Demak, iqtisodiy samaradorlikning o‘sishi korxonalarning ham, davlatning ham iqtisodiyoti yuksalishi negizidir. Shuning uchun bu masalaga respublikamizda alohida e’tibor berilmoqda. Respublikamiz hukumati tomonidan qishloq xo‘jalik korxonalari faoliyatining samaradorlogini oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, ularga kredit olishda, soliqlar to‘lashda imtiyozlar yaratilmoqda, chet el investitsiyalarini jalb etishda yordam ko‘rsatilmoqda. Bularning barchasi korxonalar faoliyatining iqtsodiy samaradorligi yuksalishini ta’minlashga qaratilgandir. Buning uchun korxonalar o‘z faoliyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan huquqiy, tashkiliy, texnologik hamda iqtisodiy tadbirlarni o‘z vaqtida va sifatli o‘tkazishlari zarur.

2. Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy samaradorlikni tavsiflovchi ko‘rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi.

Iqtisodiy samaradorlikka baho berishda mutlaq va nisbiy ko‘rsatkichlardan foydalaniladi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasinining 1999-yil 5-fevraldagi 54-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq qishloq xo‘jalik korxonalarining iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari aniqlanadi.

Mahsulotlarni sotish, xizmatlar ko‘rsatish natijasida xo‘jalikning hisob-kitob raqamiga kelib tushgan mablag‘lar uning yalpi pul tushumini tashkil etadi. Yalpi pul tushumidan egri soliqlar (qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i, bojxona to‘lovlari) summasini ayirish orqali sof pul tushumi aniqlanadi.

Qishloq xo‘jalik korxonalarining yalpi daromadi yalpi mahsulot qiymatidan ishlatilgan asosiy vositalarning amortizatsiya summasini ayirish orqali aniqlanadi. Uni quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$YaD = YaM - As$$

Bunda: *YaD* – yalpi daromad summasi;

YaM – yalpi mahsulot qiymati;

As – ishlatilgan asosiy vositalarning amortizatsiya summasi.

Iqtisodiy samaradorlikka baho berishda foydalaniladigan asosiy ko‘rsatkichlardan biri – foydadir. Foyda summasi orqali ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi va korxonaning iqtisodiy salohiyatiga baho berish mumkin. Iqtisodiy samaradorlikka baho berishda foydaning quyidagi turlari aniqlanadi:

1) yalpi foyda summasi. Ushbu ko‘rsatkich mahsulot sotishdan tushgan sof pul tushumidan sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxiga kiruvchi xarajatlarni ayirish natijasida aniqlanadi. Uni quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$YaF = ST - TKX$$

Bunda: *YaF* – yalpi foyda summasi;

ST – sof pul tushumi;

TKX – sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxiga kiruvchi xarajatlar.

2) asosiy faoliyatdan olingan foyda. Ushbu ko‘rsatkichni aniqlash uchun yalpi foydadan davr xarajatlarini ayirish va asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlarni qo‘shish hamda asosiy faoliyatdan ko‘rilgan boshqa zararlarni ayirish orqali aniqlanadi. Bunda quyidagi tenglikdan foydalanish mumkin:

$$AFF = YaF - DX + AFBD - AFBZ$$

Bunda: *AFF* – asosiy faoliyatdan olingan foyda;

DX – davr xarajatlari;

AFBD – asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlari;

AFBZ – asosiy faoliyatdan ko‘rilgan boshqa zararlar.

Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlarga quyidagilar kiradi:

- undirilgan yoki qarzdor tomonidan e’tirof etilgan jarimalar, penyalar, vaqtida to‘lanmagan qarzlar va xo‘jalik shartnomalari shartlarini buzganlik uchun jarimalar, shuningdek yetkazilgan zararlarni undirish bo‘yicha daromadlar;
- hisobot yilida aniqlangan o‘tgan yillar foydasi;

- asosiy fondlar va boshqa mol-mulklarni sotishdan olingan daromadlar;
- da’vo bildirish muddati o‘tgan kreditorlik va deponent qarzlarni hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar;
- xo‘jalikning umumiy ovqatlanish shaxobchalaridan tushumlar va yordamchi xizmatlardan daromadlar sifatidagi boshqa daromadlar;
- davlat subsidiyalari va xolisona moliyaviy yordamlar.

3) umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda. Ushbu ko‘rsatkichni aniqlash uchun asosiy faoliyatdan olingan foydaga moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlarni qo‘shish va moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlarni ayirish orqali aniqlanadi. Bunda quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$UFF = AFF + MFD - MFX$$

Bunda: *UFF* – umumxo‘jalik faoliyatdan olingan foyda;
MFD – moliyaviy faoliyat daromadlari;
MFX – moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar.

Moliyaviy faoliyatdan olinadigan daromadlarga quyidagilar kiradi:
- olingan royaltilar va sarmoya transferi;
- O‘zbekiston Respublikasi hududida yoki uning tashqarisida boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida ulush qo‘shgan holda qatnashishdan olingan daromad, aksiyalar bo‘yicha olingan dividendlar hamda obligatsiyalar va xo‘jalikka tegishli qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha daromadlar;
- mol-mulkni uzoq muddatga ijaraga berishdan olingan daromadlar;
- chet el valyutasi bilan operatsiyalar bo‘yicha ijobiy kurs tafovuti;
- qimmatli qog‘ozlarga, sho‘ba korxonalarga va boshqalarga sarflangan mablag‘larni qayta baholashdan olingan daromadlar;
- moliyaviy faoliyatdan boshqa daromadlar.

Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlarga quyidagilar kiradi:
- olingan kreditlar bo‘yicha to‘lovlar;
- mol-mulkni uzoq muddatga ijaraga olish (lizing) bo‘yicha foizlarni to‘lash xarajatlari;
- chet el valyutasi bilan operatsiyalar bo‘yicha salbiy kurs tafovutlari va zararlar;
- qimmatli qog‘ozlarga, sho‘ba korxonalarga va boshqalarga sarflangan mablag‘larni qayta baholashdan ko‘rilgan zararlar;

- o‘z qimmatli qog‘ozlarini chiqarish va tarqatish bilan bog‘liq xarajatlar;
- moliyaviy faoliyatdan boshqa xarajatlar.

4) soliq to‘langungacha bo‘lgan foyda. Ushbu ko‘rsatkichni aniqlash uchun umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foydaga tasodifiy (ko‘zda tutilmagan) daromadlarni qo‘shish va tasodifiy zararlarni ayirish orqali aniqlanadi. Bunda quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$STF = UFF + TD - TZ$$

Bunda: *STF* – soliq to‘langungacha bo‘lgan foyda;
TD – tasodifiy (ko‘zda tutilmagan) daromadlar;
TZ – tasodifiy zararlar.

Tasodifiy foyda - bu ko‘zda tutilmagan, tasodifiy tusga ega bo‘lgan, xo‘jalik yurituvchi subyektning odatdagi faoliyati doirasidan chetga chiqadigan tusdagi operatsiyalar natijasida paydo bo‘ladigan va olinishi kutilmagan foydadir.

Tasodifiy zararlar - bu xo‘jalik yurituvchi subyektlarning odatdagi faoliyatidan chetga chiquvchi hodisalar yoki operatsiyalar natijasida vujudga keladigan va ro‘y berishi kutilmagan odatdan tashqari xarajatlar moddalaridir. U yoki bu xarajat moddasining favqulodda zararlar moddasi sifatida aks ettirilishi uchun u quyidagi mezonlarga javob berishi kerak:

- korxonaning odatdagi xo‘jalik faoliyatiga mos emaslik;
- bir necha yil mobaynida takrorlanmasligi kerak;
- boshqaruv xodimi tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga bog‘liq emasligi.

Tegishli xarajat moddalarini favqulodda zararlar moddasiga kiritish yoki kiritmaslik to‘g‘risida qaror qabul qilishda ishlar amalga oshiriladigan sharoitlarni ham hisobga olish lozim. Masalan, agar xo‘jalik yurituvchi subyekt alohida iqlim sharoitlarida joylashgan bo‘lsa, u holda iqlim sharoitlariga bog‘liq holdagi ishlamasdan turib qolishlar favqulodda deb baholanishi mumkin emas, chunki ushbu modda bir necha yil mobaynida takrorlanmasligi kerakligi to‘g‘risidagi mezonga mos kelmaydi.

5) sof foyda. Ushbu ko‘rsatkichni aniqlash uchun soliq to‘langungacha bo‘lgan foydadan to‘lanadigan soliqlar summasini ayirish lozim. Bunda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$SF = STF - ST$$

Bunda: *SF* – sof foyda;

ST – to‘lanadigan soliqlar va boshqa to‘lovlar summasi.

Sof foyda xo‘jalik yurituvchi subyekt ixtiyorida qoluvchi foyda bo‘lib, u muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy samaradorlikka baho berishda asosan sof foyda summasiga e’tibor berish kerak.

Iqtisodiy samaradorlikka baho berishda mutlaq ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda nisbiy ko‘rsatkichlardan ham foydalaniladi. Ulardan biri rentabelluk darajasidir.

Rentabellik darajasi korxonalar faoliyatining iqtisodiy samaradorligiga baho berishda qo‘llaniladigan asosiy mezon ko‘rsatkich hisoblanadi. Rentabellik darajasi qilingan xarajatlarning samaradorligini tavsiflaydi, ya’ni qilingan har bir birlik xarajat evaziga qancha sof foyda olinganligini ko‘rsatadi. Uning darajasini aniqlash uchun sof foydani tannarxga kiritilga xarajatlarga taqsimlab, natija 100 ga ko‘paytiriladi. Bunda quyidagi tenglikdan foydalaniladi:

$$Rd = \frac{SF}{T} \times 100$$

Bunda: Rd – rentabellik darajasi, foizda.

Bu ko‘rsatkich yordamida korxona, tarmoq miqyosida yoki alohida mahsulotlar turlari bo‘yicha xarajatlarning iqtisodiy samaradorlik darajasi aniqlanadi. Bu ko‘rsatkichlar darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, bu iqtisodiy samaradorlik darajasi ham shunchalik yuqori ekanligidan dalolat beradi. Masalan, rentabellik darajasi 20 foiz bo‘lsa, bu korxonada sarflangan har 1000 so‘m xarajat evaziga 200 so‘m sof foyda olinganligini anglatadi.

Korxona faoliyatining iqtisodiy samaradorligiga baho berishda rentabellik me’yori ko‘rsatkichidan ham foydalaniladi. Ushbu ko‘rsatkichni aniqlash uchun sof foyda summasi xo‘jalikda foydalanilayotgan barcha ishlab chiqarish fondlari umumiy qiymatiga taqsimlanadi va natija 100 ga ko‘paytiriladi. Bunda quyidagi tenglikdan foydalaniladi:

$$Rm = \frac{SF}{OFq + AFq} \times 100$$

Bunda: Rm – rentabellik me’yori, foizda;

OFq – aylanma fondlarning o‘rtacha yillik qiymati, ming so‘mda;

AFq – asosiy fondarning o‘rtacha yillik qiymati, ming so‘mda;

Bu ko‘rsatkich korxonada sarflangan barcha ishlab chiqarish fondlarining bir birligi evaziga qancha sof foyda olinganligini anglatadi.

Hukumatimiz tomonidan barcha tarmoqlarda bo‘lgani singari qishloq xo‘jaligida ham iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo‘yicha islohotlar izchil amalga oshirilmoqda va bu o‘zining ijobiy natijalarini bermoqda. Jumladan, ishlab chiqarish resurslaridan to‘liq foydalanish natijasida tarmoqning yalpi mahsuloti hajmi oshmoqda va samaradorlik darajasi ham yaxshilanib bormoqda.

3. Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo‘llari.

Qishloq xo‘jalik korxonalarining iqtisodiy samaradorlik darajasiga bir qancha omillar ta’sir etadi. Ularning asosiylari quyidagilar:

- qishloq xo‘jaligi yerlarining holati, ulardan foydalanish darajasi;
- xo‘jaliklarning ishlab chiqarish fondlari bilan ta’minlanganlik va ulardan foydalanish darajasi;
- mehnat resurslaridan foydalanishning holati va mehnat unumdorligi darajasi;
- ishlab chiqarishning intensivlashganlik darajasi;
- qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosildorligi va chorva hayvonlarining mahsuldorligi;
- baholar, soliqlar va to‘lovlar darajasi;
- suv resurslaridan foydalanishning holati;
- qishloq xo‘jaligi korxonalarining moddiy-texnika resurslari bilan ta’minlanganlik holati;
- xodimlarning moddiy va ma’naviy manfaatdorlik darajasi;
- davlat, mahalliy budjetdan ajratilayotgan mablag‘ va boshqalar.

Qishloq xo‘jaligining daromadlarini, yalpi va sof foydalarini kelajakda yanada ko‘paytirish uning barcha tarmoqlarida bozor iqtisodiyoti talablariga mos keladigan tashkiliy, texnikaviy, texnologik hamda iqtisodiy tadbirlar tizimi hayotga o‘z vaqtida, sifatli tatbiq etilishini obyektiv ravishda taqozo etadi.

Qishloq xo‘jaligining iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun quyidagi tadbirlarga e’tibor berish lozim:

1) Qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotinini ko‘paytirish va uning sifatini yaxshilash tadbirlari:

- ekinlarning serhosil navlarini, chorva hayvonlarining esa sermahsul zotlarini yaratish, ularni ishlab chiqarishga joriy etilishini ta’minlash;
- yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, suv ta’minoti tadbirlarini rivojlantirish, sug‘orishning tejamkor usullarini joriy etish;
- chorva hayvonlarini sifatli ozuqa bilan ta’minlash va oziqlantirishni talab darajasida amalga oshirish;
- ekologiyani e’tiborga olgan holda ishlab chiqarish jarayonlarida mahalliy va mineral o‘g‘itlardan hamda kimyoviy vositalardan maqsadga muvofiq ravishda foydalanishni talab darajasida ta’minlash;
- mahsulotlarning sifatini, ularni tashish va saqlash jarayonlarini yaxshilash tadbirlarini tezkorlik bilan amalga oshirish va boshqalar.

2) Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tannarxini pasaytirish chora-tadbirlari:

- ishlab chiqarishni samarali joylashtirish, ixtisoslashtirish va tashkil etishni jadallashtirish;
- yangi texnikalarni, ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, mavjud ishlab chiqarish vositalaridan samarali foydalanish natijasida ish jarayonlarini to‘liq mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish va elektrlashtirish;
- ishchi-xizmatchilarni rag‘batlantirish tizimini rivojlantirish;
- davr hamda moliyaviy faoliyat xarajatlarini tejash va boshqalar.

3) Qishloq xo‘jaligi tarmog‘iga bozor munosabatlarini joriy etishni jadallashtirish tadbirlari:

- sanoat hamda qishloq xo‘jalik mahsulotlari baholari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash, sotish jarayonini erkinlashtirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik turlarini rivojlantirish;
- investitsiyalar jalb etilishini ta’minlovchi iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish;
- qishloq xo‘jaligida infratuzilma sohalarini rivojlantirish;
- qishloq xo‘jaligiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishni jadallashtirish;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini xorijiy mamlakatlarga eksport qilishni qo‘llab-quvvatlash va hokazo.

Bu tadbirlar, avvalo yetishtiriladigan mahsulotlar miqdorini talab darajasida ko‘paytirishga va ularning sifatini yaxshilashga qaratilgan bo‘lishi zarur. Mahsulotlar miqdori ekin maydonlarini kengaytirish hamda ularning hosildorligini oshirish hisobiga ko‘paytirilishi mumkin. Ekin maydonlarini ko‘paytirish uchun yangi yerlarni o‘zlashtirish talab

etiladi, lekin buning imkoniyatlari cheklangan. Shuning uchun asosiy e’tiborni ekinlarning hosildorligini oshirishga qaratish zarur. Buning uchun ekinlarning yangi, serhosil, tezpishar navlarini yaratish, irrigatsiya va melioratsiya inshootlari holatini yaxshilash, agrotexnik tadbirlarni o‘z vaqtida amalga oshirish natijasida tuproqning unumdorligi oshishini ta’minlash lozim. Shu bilan birgalikda ekinlarni almashlab ekishni ilmiy asoslangan holda keng joriy etish maqsadga muvofiq. Alohida e’tibor ishchi-xizmatchilarni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirishga qaratilishi zarur.

Yuqoridagilar bilan birga ishlab chiqarish, davr hamda moliyaviy xarajatlarni tejab amalga oshirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi texnika, ilg‘or texnologiyalarni hayotga joriy etish natijasida mehnat xarajatlari kamayishiga erishish mumkin. Bu jarayon ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish, agrosanoat integratsiyasining rivojlantirilishi bilan bevosita bog‘liqdir. Chorva hayvonlari mahsuldorligini ham oshirish lozim, buning uchun naslchilik ishlarini rivojlantirish zarur. Chorva hayvonlarini to‘yimli ozuqa bilan ta’minlashga erishish maqsadga muvofiqdir. Bu tarmoqda ham barcha xarajatlarni tejash bilan bog‘liq bo‘lgan tadbirlar sifatli amalga oshirilishini ta’minlash zarur.

Korxonalarda iqtisodiy samaradorlikni ta’minlashda iqtisodchi kadrlarning ham o‘rni bor. Eng avvalo, ular yil boshida korxonaning biznes rejasini mukammal tuzishlari va iqtisodiy tahlil usullaridan foydalangan holda korxonaning xo‘jalik faoliyatini tahlil qilib borishi lozim. Amalga oshirilgan tahlil natijasida korxonada samaradorlikni oshirish borasida yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklarni o‘z vaqtida aniqlash va uni bartaraf etish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqib, korxona rahbariyatiga taqdim etishi lozim.

Yalpi foydaning ko‘payishi mahsulotlarni sotish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar tejalishini ham taqozo etadi. Shuning uchun mahsulotlarni sotish bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarni takomillashtirish lozim. Yuqorida ta’kidlangan tadbirlarni amalga oshirish qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining iqtisodiy samaradorligi oshishini ta’minlaydi.

Qisqacha xulosalar

Bozor munosabatlari sharoitida barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlarning o‘z faoliyatidan ko‘zlagan pirovard maqsadi – iqtisodiy samaradorlikka erishishdir. Iqtisodiy samaradorlik korxonada sarflangan investitsiyalarning foydalilik darajasini anglatadi. Bunda mutlaq va

nisbiy ko‘rsatkichlardan foydalaniladi, ushbu ko‘rsatkichlar ichida rentabellik darajasi mihim ahamiyatga ega.

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy samaradorlikni oshirib borishga e’tibor berishlari lozim. Iqtisodiy samaradorlik qanchalik yuqori bo‘lsa, korxonani rivojlantirish, xodimlarni moddiy rag‘batlantirish, kengaytirilgan ishlab chiqarishni tashkil etish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha imkoniyatlari shunchalik yuqori bo‘ladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Iqtisodiy samaradorlik deganda nimani tushunasiz?
2. Iqtisodiy samaradorlik darajasini qanday ko‘rsatkichlar ifodalaydi?
3. Yalpi daromad deganda nimani tushunasiz?
4. Yalpi daromad summasi qanday aniqlanadi?
5. Sof foyda nima va u qanday aniqlanadi?
6. Rentabellik darajasi nima va u qanday aniqlanadi?
7. Foyda me’yori deganda nimani tushunasiz va u qanday aniqlanadi?
8. Qanday tadbirlar qishloq xo‘jalik mahsulotlari miqdorini oshirib, sifatini yaxshilaydi?
9. Qanday tadbirlar moddiy, mehnat va pul xarajatlari tejalishini ta’minlaydi?
10. Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun qanday tadbirlarni amalga oshirish kerak?

BOB YUZASIDAN AMALIY TOPSHIRIQLAR:

1-topshiriq:

Klaster usuli yordamida qishloq xo‘jaligida iqtisodiy samaradorlikni tavsiflovchi ko‘rsatkichlarni tushuntirib bering.

2-topshiriq:

Nilufar guli usuli yordamida qishloq xo‘jaligida iqtisodiy samaradorlik darajasining pastligiga ta’sir etuvchi omillar va ularni bartaraf etish yo‘llarini tahlil qilish.

	B	

	C	

	D	

	I	

B	**C**	**D**
I	**A**	**E**
H	**G**	**F**

	E	

	H	

	G	

	F	

Nilufar guli - muammoni yechish yo‘llarini ko‘rsatib beruvchi usuldir. O‘zida nilufar guli ko‘rinishini namoyon qiladi. Uning asosini to‘qqizta to‘g‘ri to‘rtburchak tashkil etadi. Bunda A – qo‘yilayotgan asosiy muammo, ya’ni qishloq xo‘jaligida iqtisodiy samaradorlik darajasining pastligi; B,C,D,E,F,G,H,I – esa ushbu muammoga ta’sir etuvchi omillar, har bir omil alohida olinib, uni hal etish yo‘llari yozib chiqiladi. Ushbu usul tizimli fikrlash, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi va faollashtiradi.

3-topshiriq:

“Charxpalak” texnologiyasidan foydalanib qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida iqtisodiy samaradorlik darajasini oshirish yo‘llarini muhokama qilish.

“Charxpalak” usuli qoidasi.

4 ta kichik guruhda talabalar ish olib boradi. Har bir guruhga tugallanmagan fikrlardan iborat savollar yozilgan qog‘oz va to‘rt xil rangli ruchka yoki qalam beriladi. Savollar aylanib har bir guruhdan o‘tadi, javoblar to‘ldiriladi va savol o‘z guruhiga kelgach to‘xtatiladi. So‘ng javoblar yig‘ib olingach, doskaga yopishtiriladi va muhokama qilinadi. Har bir guruhdan vakil chiqib o‘zlarining javoblarini o‘qib beradi. Eng asosli javob bergan guruh g‘olib hisoblanadi.

4-topshiriq:

Quyidagi ma’lumotlardan foydalanib fermer xo‘jaligida iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlang, o‘z fikr va xulosalaringizni yozing.

Ko‘rsatkichlar	2019-yil	2020-yil	Farqi (+/-)	O‘sish sur’ati, %
Sof pul tushumi, mln. so‘m	746,5	857,4		
Sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxiga kiruvchi xarajatlar, mln. so‘m	486,7	501,7		
Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlari, mln. so‘m	104,0	116,0		
Asosiy faoliyatdan ko‘rilgan boshqa zararlar, mln. so‘m	87,6	95,3		
Moliyaviy faoliyat daromadlari, mln. so‘m	15,4	13,2		
Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar, mln. so‘m	10,6	18,7		
Tasodifiy (ko‘zda tutilmagan) daromadlar, mln. so‘m	28,6	20,5		
Tasodifiy zararlar, ming so‘m	42,9	53,7		
To‘langan soliqlar va boshqa to‘lovlar, mln. so‘m	136,5	139,4		
Yalpi foyda, mln. so‘m				
Asosiy faoliyat foydasi, mln. so‘m				
Umumxo‘jalik faoliyati foydasi, mln. so‘m				
Soliq to‘languncha foyda, mln. so‘m				
Sof foyda, mln. so‘m				
Rentabellik darajasi, foiz				

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy samaradorlikning mohiyati, ahamiyati va ko‘rsatkichlari.
2. Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy samaradorlikning tavsiflovchi ko‘rsatkichlar.
3. Qishloq xo‘jaligda iqtisodiy samaradorlikni yanada oshirish yo‘llari.

16-BOB: QISHLOQ XO‘JALIGI YALPI VA TOVAR MAHSULOTLARINI KENGAYTIRILGAN TAKROR ISHLAB CHIQARISH

1. Qishloq xo‘jaligi yalpi va tovar mahsuloti to‘g‘risida tushuncha, ularni aniqlash tartibi.
2. Qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotini sotish va taqsimlash yo‘nalishlari.
3. Yalpi mahsulotni ko‘paytirish va uning tovarlilik darajasini oshirish yo‘llari.

Tayanch iboralar: yalpi mahsulot, natural o‘lchovi, qiymat o‘lchovi, tovar mahsuloti, tovarlilik darajasi.

1. Qishloq xo‘jaligi yalpi va tovar mahsuloti to‘g‘risida tushuncha, ularni aniqlash tartibi.

Qishloq xo‘jaligidagi barcha korxonalar ishlab chiqarish jarayonida turli mahsulotlarni yetishtiradi, ishlar va xizmatlarni bajaradilar. Jumladan, paxta, bug‘doy, sholi, makkajo‘xori, kartoshka, karam, pomidor, sabzi, sut, go‘sht va boshqa mahsulotlarni yetishtiradilar.

Tarmoqda ma’lum davr mobaynida, odatda bir yil mobaynida ishlab chiqarilgan barcha mahsulotlar, bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlar qiymatlari yig‘indisi tarmoqning yalpi mahsuloti deyiladi. Yalpi mahsulotni korxona miqyosida ham hisoblash mumkin. Natural o‘lchov birliklarida (tonna, litr, dona) qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining alohida turlari bo‘yicha yalpi mahsulotni aniqlash mumkin. Masalan, 2019-yilda mamlakatimizda 6093,5 ming tonna bug‘doy yetishtirilgan. (16.1-jadval). Tarmoqda yetishtirilayotgan mahsulotning xususiyatiga qarab natural o‘lchovida dona, tonna, litr va boshqa shu kabi o‘lchov birliklari ishlatilishi mumkin. Masalan, yetishtirilgan don, sabzavot kabi mahsulotlar – tonnada, ishlab chiqarilgan tuxum, qorako‘l teri – donada ifodalanadi va hokazo.

16.1-jadval

Asosiy turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish, ming tonna

Ko‘rsatkichlar	2016	2017	2018	2019
Don - jami	8261,3	7288,5	6535,5	7437,8
sh.j.: bug‘doy	6934,9	6079,2	5410,8	6093,5
arpa	167,4	134,3	111,8	133,5
makkajo‘xori don uchun	491,9	389,4	413,2	421,3
sholi	452,0	395,4	221,1	314,7
dukkakli don	98,4	212,5	260,0	339,6
Paxta xomashyosi	2959,0	2853,9	2285,6	2691,7
Kartoshka	2789,5	2793,7	2911,9	3089,7
Sabzavotlar	10184,0	10219,9	9760,3	10215,1
Poliz	2044,9	2031,0	1837,0	2068,7
Go‘sht	2172,5	2286,8	2430,5	2473,6
Sut	9703,4	10047,9	10466,4	10714,3
Tuxum, mln. dona	6152,5	6332,7	7459,3	7771,2
Jun	37,1	36,4	34,6	35,1
Qorako‘l teri, ming dona	1055,4	1075,1	1085,2	1150,7
Pilla	26,4	12,5	17,9	21,4

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

Natural o‘lchovidagi mahsulotlarni umumlashtirib bo‘lmaydi. Yetishtirilgan barcha qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini natural o‘lchov birligida bir-biriga qo‘shib bo‘lmasligi sababli tarmoqning yalpi mahsulotini mazkur o‘lchov birligida aniqlab bo‘lmaydi. Shuning uchun ham qiymat (pul) o‘lchov birligi ishlatiladi. Yetishtirilgan barcha mahsulotlar qiymat o‘lchovida, ya’ni yagona o‘lchovda ifodalanib, so‘ngra qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti qiymat o‘lchov birligida aniqlanadi. Buning uchun tarmoqda yetishtirilgan barcha mahsulotlar va ko‘rsatilgan xizmatlarni narxiga ko‘paytirib, qiymatlari topiladi va so‘ngra ularning umumiy yig‘indisi aniqlanadi. Masalan, 2019-yilda mamlakatimizda qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi yalpi mahsuloti 224265,9 mlrd. so‘m bo‘lib, uning 111904,8 mlrd. so‘mi dehqonchilik

tarmog‘ida, 104378,3 mlrd. so‘mi esa chorvachilik tarmog‘ida yaratilgan (16.2-jadval).

16.2-jadval

Qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti to‘g‘risidagi ma’lumotlar

	2016	2017	2018	2019
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsuloti (xizmatlar) hajmi, mlrd. so‘m	119726,7	154369,4	195095,6	224265,9
Shundan: dehqonchilikda	61755,1	83303,4	98406,4	111904,8
chorvachilikda	53844,1	64895,9	89019,2	104378,3
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsuloti o‘sish sur’ati, o‘tgan yilga nisbatan foizda	106,1	101,2	100,3	103,1
Shu jumladan: dehqonchilikda	105,7	98,2	95,8	104,8
chorvachilikda	107,0	104,1	105,7	101,6

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

Ushbu jadvallar ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2019-yilda qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti ishlab chiqarish hajmining o‘sish sur’ati biroz yaxshilangan.

Mamlakatimiz mintaqalari bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi yalpi mahsuloti to‘g‘risidagi ma’lumotlar 16.3-jadvalda keltirilgan.

16.3-jadval

Mamlakatimiz mintaqalari bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi yalpi mahsuloti, mlrd. so‘m

	2016	**2017**	**2018**	**2019**
O‘zbekiston Respublikasi	119726,7	154369,4	195095,6	224265,9
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	4062,9	4977,3	6995,5	8769,3

Andijon	12287,2	15950,0	20183,9	24314,9
Buxoro	9988,5	13178,6	17334,2	19436,2
Jizzax	7074,3	9194,9	11825,6	14105,9
Qashqadaryo	11121,0	14761,6	17685,8	20415,1
Navoiy	5288,3	6850,7	8685,8	9934,2
Namangan	8674,3	11398,3	13944,1	16832,2
Samarqand	17625,1	22308,7	26585,9	29294,7
Surxondaryo	8896,4	11837,2	15394,4	18152,0
Sirdaryo	4391,3	5490,0	6183,7	7984,8
Toshkent	12578,7	16378,5	19541,2	21632,7
Farg‘ona	10039,4	12692,3	18007,7	18946,3
Xorazm	7699,3	9351,3	12727,8	14447,6

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2019-yil holatiga qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi yalpi mahsuloti hajmi bo‘yicha Samarqand, Andijon, Toshkent va Qashqadaryo viloyatlari yuqori ko‘rsatkichlarga ega. Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi yalpi mahsuloti hajmi bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Navoiy va Sirdaryo viloyatlarida past ko‘rsatkichlar qayd etilgan.

Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar 16.4-jadvalda keltirilgan.

16.4-jadval

Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar

	2016	**2017**	**2018**	**2019**
Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsuloti, ming so‘m	3629,7	4575,7	5919,9	6678,5
Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsuloti, kg:				
don	259,4	225,0	198,3	221,5
kartoshka	87,6	86,3	88,4	92,0

sabzavotlar	319,8	315,5	296,2	304,2
poliz	64,2	62,7	55,7	61,6
meva va rezavorlar	82,0	80,7	82,1	82,0
uzum	50,7	50,2	48,2	47,7
go‘sht	68,2	70,6	73,7	73,7
sut	304,7	310,2	317,6	319,1
tuxum	193	195	226	231
baliq	2,1	2,6	2,8	3,6

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda aholi jon boshiga qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi so‘nggi yillarda o‘sish tendensiyasida bo‘lgan.

Xo‘jalik yuritish shakllarining qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotidagi ulushini tahlil qiladigan bo‘lsak, qishloq xo‘jalik yalpi mahsuloti tarkibida dehqon xo‘jaliklarining ulushi yuqori ekanligini ko‘rishimiz mumkin. 2019-yil holatiga qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti tarkibida dehqon xo‘jaliklarining ulushi 68,3 foizni, fermer xo‘jaliklarining ulushi esa 27,9 foizni tashkil etgan (16.1-rasm).



16.1-rasm. Qishloq xo‘jalik yalpi mahsulotining xo‘jalik yuritish shakllari bo‘yicha tarkibi.

Yalpi mahsulot tarmoqning, korxonaning bir yillik faoliyatini ifodalovchi umumiy ko‘rsatkichdir. Qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotining tarkibi quyidagilardan iborat bo‘ladi:

- tayyor mahsulot;
- tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi jarayonida bir yil davomida yetishtirilib, yig‘ishtirilib, hisobga olingan, taqsimlashga va sotishga tayyor bo‘lgan mahsulotlar qishloq xo‘jaligining tayyor mahsuloti hisoblanadi.

Kelgusi yillarda mahsulotlar yetishtirish uchun joriy yilda sarflanadigan xarajatlar tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari deb ataladi. Masalan, kuzgi bug‘doy yetishtirish uchun mamlakatimiz sharoitida oktabr oyidan boshlab ko‘plab xarajatlar qilinadi. Jumladan, yerlarni shudgorlash, tekislash, urug‘lik, o‘g‘it, yoqilg‘i-moylash materiallari, mehnat haqi sarfi va hokazo. Lekin mahsulot keyingi yilda tayyor bo‘ladi. Bundan tashqari, asosiy podaga o‘tkazish uchun mo‘ljallangan yosh chorva mollariga qilingan xarajatlar, mevali bog‘ yaratishda nihollar voyaga yetguncha qilingan xarajatlar ham tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlaridir.

Qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotini aniqlashda yetishtirilgan mahsulotlar quyidagi baholarda aniqlanadi:

- sotilgan mahsulotlar sotish narxlarida;
- xo‘jalik ichki ehtiyoji uchun sarflanganlari tannarxi bo‘yicha.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ichki ehtiyoj uchun ishlatilgan mahsulotlarni tannarxi bo‘yicha baholash xo‘jalik ehtiyojlarini, ishlab chiqarish bilan shug‘ullanganlarning moddiy manfaatdorligi oshishini yetarli darajada ta’minlay olmaydi. Ichki ehtiyojlar uchun ishlatilgan mahsulotlar tannarxda baholanganligi uchun ishlab chiqaruvchilar uni yetishtirishdan foyda ololmaydilar. Foyda bo‘lmagach, ishchilarni mahsulot ishlab chiqarish natijasiga ko‘ra, rag‘batlantirib bo‘lmaydi. Shuning uchun ichki ehtiyojlarga berilgan mahsulotlarning qiymatini ham o‘rtacha sotish baholarida aniqlash yoki ichki baholarni belgilash maqsadga muvofiqdir.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarining turlari bo‘yicha jami yalpi mahsulot qiymatidagi salmog‘ini aniqlab, tahlil qilish mumkin. Bundan tashqari, qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida yetishtirilgan yalpi mahsulotning jami yalpi mahsulotdagi ulushini ham tahlil etish mumkin. Bu ko‘rsatkichlar asosida qishloq xo‘jaligi korxonalari iqtisodiyotiga oid umumiy xulosalar chiqarish mumkin bo‘ladi.

Qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti hajmining o‘zgarishiga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatadi:

- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ishlab chiqarish hajmi;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining narxlari darajasi;
- qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish tarkibining o‘zgarishi.

Qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti hajmining o‘zgarishida ishlab chiqarish tarkibi ham ta’sir ko‘rsatadi, ya’ni yuqori narxli mahsulotlarning jami ishlab chiqarishdagi salmog‘i o‘zgarishi yalpi mahsulot hajmining ham o‘zgarishiga olib keladi.

Tarmoqdagi yoki xo‘jalikdagi qishloq xo‘jalik yalpi mahsulotining bir necha yillik o‘zgarish dinamikasini tahlil etishda joriy narxlar orqali chuqur tahlil qilib bo‘lmaydi. Chunki joriy narxlar har yili o‘zgarib turadi. Masalan, 1 tonna paxta xomashyosining davlat xarid narxi 2002-yilda 104,7 ming so‘m darajasida belgilangan bo‘lsa, 2009-yilda 502,0 ming so‘mga yaqin bo‘lgan. Shu yillar ichida uning mutlaq miqdori 5 marta oshgan. Yalpi mahsulotning umumiy qiymatiga ta’sir ko‘rsatuvchi bunday holatning oldini olish uchun yalpi mahsulot qiymatining yillar bo‘yicha o‘zgarish dinamikasini tahlil etishda qiyosiy baholarda aniqlanadi. Bunda narx o‘zgarishining yalpi mahsulot o‘zgarishiga ta’siri bartaraf etilib, yalpi mahsulotning haqiqiy o‘zgarishini aniqlash imkoniyati yaratiladi. Hozirgi davrda qiyosiy narxlar sifatida 1996-yildagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari joriy narxlarining o‘rtacha yillik miqdori olingan. Keyinchalik boshqa yilning o‘rtacha narxlari qiyosiy baho sifatida olinishi mumkin.

Qishloq xo‘jaligidagi tayyor mahsulotlar ichki va tashqi bozor talabini e’tiborga olgan holda sotiladi, ya’ni qishloq xo‘jaligida ham tovar-pul munosabatlari amalga oshiriladi. Mahsulotlarning tovar-pul munosabatlari asosida sotilgan miqdori tovar mahsuloti deb ataladi.

Shunga asoslangan holda mahsulotlarning tovarlilik darajasi ham aniqlanadi. Uni aniqlash uchun sotilgan mahsulot qiymatini jami yetishtirilgan mahsulotning miqdoriga taqsimlab, natijani 100 ga ko‘paytirish lozim. Bunda quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$Td = \frac{SM}{YJM} x100$$

Bunda: *Td* – mahsulotning tovarlilik darajasi, foizda;

SM – sotilgan mahsulot miqdori, tonna;

YJM – yetishtirilgan jami mahsulot miqdori, tonna.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarining tovarlilik darajasi turlicha bo‘lishi mumkin. Ayrim texnika ekinlarini qishloq xo‘jalik korxonalarining o‘zida qayta ishlash yo‘lga qo‘yilmaganligi sababli ularning tovarlilik darajasi 100 foizga teng bo‘ladi. Masalan, paxta xomashyosi, kanop va boshqalar. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida yetishtirilayotgan ayrim mahsulotlarning bir qismi sotilmasdan, ichki ehtiyojlar uchun ishlatilganligi sababli, ularning tovarlilik darajasi 100 foizdan kam bo‘lishi ham mumkin. Masalan, yetishtirilgan donning bir qismi urug‘lik, chorva ozuqasi, ishchilarga natura shaklidagi ish haqi, zahira fondi kabilar uchun ajratilishi mumkin. Tarmoqda ayrim mahsulotlar esa faqat ichki ehtiyojlar uchun yetishtirilishi mumkin. Bunday hollarda ularning tovarlilik darajasi aniqlanmaydi. Jumladan, chorva mollari uchun ozuqa sifatida yetishtirilgan yem-xashak va boshqalar.

Yalpi va tovar mahsulotlarning mamlakat, tarmoqlar hamda korxonalar iqtisodiyotidagi ahamiyati katta. Jumladan, ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hajmi, qiymati o‘sishi natijasida mamlakat yalpi ichki mahsulotining ham o‘sishi ta’minlanadi. Korxonalar yalpi va tovar mahsulotining ko‘payishi ularning iqtisodiyoti yuksalishini ta’minlaydi. Xo‘jalik yalpi mahsulotining, natural holdagi miqdori ko‘payishi tayyor mahsulot miqdori oshishiga sabab bo‘lib, ichki va tashqi talab to‘liqroq qondirilishiga imkoniyat yaratadi. Natijada sotiladigan mahsulot miqdori ortadi. Uni sotish evaziga korxonalarning pul daromadlari ko‘payadi. Bu qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining kengaytirilgan holda rivojlanishini, ishchi-xizmatchilarning esa moddiy rag‘batlantirilishini

ta’minlaydi. Shuning uchun ham respublika hukumati qishloq xo‘jalik mahsulotlari miqdorini oshirishga, ularning sifatini yaxshilab, raqobatbardorligini yuksaltirishga katta e’tibor bermoqda. Chunki qishloq xo‘jalik mahsulotlarini chet davlatlarga sotish natijasida mamlakatning valyuta tushumi ortib bormoqda. Ularning evaziga qishloq xo‘jaligi uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish vositalari, yangi texnikalar, ilg‘or texnologiyalar sotib olinmoqda.

Respublikamizda qishloq xo‘jalik yalpi mahsulotining tarkibida nodavlat sektorning ulushi katta bo‘lib, asosan xususiy sektor tomonidan ishlab chiqarilmoqda. Bu mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida ko‘p ukladli iqtisodiyot shakllanganligidan dalolat beradi. Qishloq xo‘jaligida ma’lum miqdorda davlat sektori bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Ular asosan fan va texnika yutuqlarini, zamonaviy texnologiyalarni tarmoqqa joriy etish bilan shug‘ullanadilar. Jumladan, fan yutuqlariga asoslangan holda qishloq xo‘jalik ekinlarining sifatli, serunum navlarini, chorva hayvonlarining mahsuldor zotlarini, yangi, serunum texnikalarni, samarali texnologiyalarni yaratish va ularni ishlab chiqarishga tatbiq etishimiz lozim.

Qishloq xo‘jaligining eng asosiy vazifasi respublika hududidagi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarning xomashyoga, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talablarini qondirishdir. Shu bilan birgalikda, tarmoq tashqi bozor talabini qondirishda ham qatnashishi maqsadga muvofiqdir.

Qishloq xo‘jaligining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, tarmoqda yetishitirilgan mahsulotlarning bir qismi ichki ehtiyojlar uchun sarflanadi, jumladan, urug‘lik, yem-xashak, ozuqa uchun ishlatiladi, zahira fondiga ajratiladi, ishchi-xizmatchilarga natura shaklidagi ish haqi sifatida beriladi, ularning ovqatlanishlari uchun ajratiladi va hokazo. Aks holda tarmoqda kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonining rivojlanishi ta’minlanmaydi.

2. Qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotini sotish va taqsimlash yo‘nalishlari.

Qishloq xo‘jalik korxonalarida yetishtirilgan mahsulotlarni sotish yo‘nalishlari quyidagi ikki guruhga bo‘linadi:

a) davlat ehtiyojlari uchun davlatga qarashli tayyorlov tashkilotlariga sotish;

b) erkin ravishda sotish.

2020-yilga qadar fermer xo‘jaliklari o‘zlari yetishtirgan paxta xomashyosi va g‘allani davlat buyurtmasi asosida joylardagi davlatga qarashli tayyorlov korxonalariga tuzilgan kontraktatsiya shartnomalari asosida sotganlar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-martdagi “Paxtachilik sohasida bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, 2020-yil hosilidan boshlab:

- davlat tomonidan paxta xomashyosi ishlab chiqarish va sotish rejasini belgilash amaliyoti bekor qilindi;
- fermer xo‘jaliklari yetishtirgan paxta xomashyosini o‘zlari a’zo bo‘lib kirgan paxta-to‘qimachilik klasterlariga sotadilar;
- paxta xomashyosi yetishtiruvchilarga rayonlashtirilgan navlarni erkin tanlash huquqi beriladi;
- paxta-to‘qimachilik klasterlari tashkil etilmagan hududlarda paxta tozalash korxonalari ishtirokida fermer xo‘jaliklarining ixtiyoriy kooperatsiyasi tashkil etiladi.

Kooperatsiyaning aosiy vazifalari quyidagilar:

- kooperatsiya a’zolari tomonidan texnika, uskuna, transport vositalaridan , paxta tozalash zavodlaridan birgalikda foydalanishni tashkil etish;
- kooperatsiya a’zolarini qishloq xo‘jaligi texnikasi, yonilg‘i-moylash materiallari, o‘g‘it, urug‘lar, shuningdek, o‘simliklarni kimyoviy himoyalash vositalari bilan ta’minlash;
- ishlab chiqarilgan mahsulotni tayyorlash, tashish, saqlash, qayta ishlash va sotishni tashkillashtirish;

- kooperatsiya a’zolariga agrotexnika, buxgalteriya, konsalting, vositachilik va boshqa xizmatlarni ko‘rsatish.

2020-yil holatiga paxta ekin maydonlarining 125 ming gektari yoki 12 foizida kooperatsiyalar, 908 ming gektari yoki 88 foizida klasterlar faoliyat yuritmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-martdagi “G‘alla yetishtirish, xarid qilish va sotishga bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4634-sonli qaroriga muvofiq, 2020-yil hosilidan boshlab davlat buyurtmasi asosida boshoqli don yetishtirish amaliyoti va 2021-yil hosilidan boshlab davlat tomonidan g‘allaga xarid narxini belgilash amaliyoti, ya’ni davlat xaridi to‘liq bekor qilindi. Davlat xaridi o‘rniga fermer yetishtirgan g‘alla birja orqali yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bilan erkin narxlarda sotilishi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2020-yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4575-sonli qaroriga muvofiq “oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha davlat siyosatini ishlab chiqish va joriy etish” yo‘nalishida 2020-yil 1-oktabrdan boshlab aholini don mahsulotlari bilan uzluksiz ta’minlash va narxlar keskin o‘zgarishining oldini olish maqsadida intervension xaridlar tizimi bosqichma-bosqich joriy etiladi. Bunda:

- 2021-yil hosilidan boshlab don uchun davlat buyurtmasi hajmlarini bosqichma-bosqich kamaytirish, shu jumladan boshoqli don xarid qilish va sotishda erkin raqobatni ta’minlaydigan bozor mexanizmlarini joriy etish;

- oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash uchun davlat buyurtmasi tizimidan davlat zahirasidan foydalanishga o‘tish bo‘yicha mexanizmni ishlab chiqish nazarda tutilgan.

Intervension xaridlarda narxlar pasayib ketgan taqdirda uning yanada arzonlashmasligi uchun davlat ortiqcha g‘allani sotib oladi, narxlar keskin ko‘tarilganda esa davlat zahirasidagi g‘alladan sotiladi. Shunday qilib uning qimmatlashuvi oldi olinadi.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sotishning ikkinchi yo‘nalishi bo‘lgan erkin sotish o‘z navbatida tayyorlov korxonalariga shartnomaviy narxlarda sotish, ulgurji narxlarda birjalar orqali sotish, chakana narxlarda dehqon bozorlari, turli yarmarkalar, ichki sotish tizimi orqali sotish kabi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi.Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini shartnomalar asosida erkin sotishda xaridorlar bilan munosabatlarni mukammal tuzilgan shartnomalar asosida amalga oshirishni taqozo etadi. Shartnomalar har ikki tomonning erkin kelishuvi asosida tuzilishi shart. Shartnomalarni tuzishni osonlashtirish maqsadida mamlakatimizda namunaviy shartnomalar mutasaddi tashkilotlar tomonidan tavsiya etilgan. Ayrim vaziyatlarda shartnomalarning to‘g‘ri tuzilmasligi qishloq xo‘jalik korxonalarining katta miqdordagi zarar ko‘rishiga olib kelishi mumkin. Namunaviy shartnomalarda tomonlarning huquqlari, burchlari, majburiyatlari kabi barcha shartlar to‘liq, aniq, ravon yozilgan boladi. Qishloq xo‘jalik korxonalari shartnomalarni tuzishda ulardan foydalanadilar, bu esa tuzilayotgan shartnomalarning sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sotishda ularni xorijiy mamlakatlarga eksport qilish ham muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizda yetishtirilayotgan qishloq xo‘jalik mahsulotlariga xorijiy mamlakatlarda, ayniqsa Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston kabi davlatlarda talab yuqori. Ushbu imkoniyatlardan unumli foydalangan holda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini xorijiy bozorlarda sotishni rivojlantirish lozim. 2019-yilda meva-sabzavot mahsulotlari ekporti hajmi to‘g‘risidagi ma’lumotlar 16.5-jadvalda keltirilgan.

16.5-jadval

2019-yilda meva-sabzavot mahsulotlari ekporti hajmi to‘g‘risidagi ma’lumotlar

	Miqdori, ming tonna	Qiymati, mln. AQSh dollari	O‘tgan yilga nisbatan, foizda
Jami	1408,7	1207,8	136,4
Sabzavotlar	817,5	549,7	172,4
Uzum	190,5	223,7	124,5

shu jumladan: quritilgani	73,5	104,6	106,7
Yangi qovun va tarvuz	31,3	13,1	201,5
Meva va rezavorlar	357,4	406,8	113,7
shu jumladan: quritilgani	52,8	40,8	116,2
Yeryong‘oq	11,9	14,4	63,0

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

2019-yilda meva-sabzavotlar eksporti geografiyasi 16.6-jadvalda keltirilgan.

16.6-jadval

2019-yilda meva-sabzavotlar eksporti geografiyasi

Davlatlar	Miqdori, ming tonna	Qiymati, mln. AQSh dollari	Ulushi, %
Qirg‘iziston	127,0	320,0	26,5
Qozog‘iston	556,4	283,0	23,4
Rossiya	245,1	160,6	13,3
Turkiya	65,2	101,8	8,4
Pokiston	76,2	78,8	6,5
Afg‘oniston	45,5	57,5	4,8
Xitoy	55,3	48,5	4,0
Ukraina	56,3	37,3	3,1
Tojikiston	21,0	13,5	1,1
Eron	16,2	12,4	1,0
Iroq	20,5	12,3	1,0
Belarus	14,3	10,6	0,9
Turkmaniston	27,5	9,7	0,8
BAA	8,5	9,5	0,8
Ozarbayjon	6,5	7,3	0,6
Boshqa davlatlar	67,0	44,9	3,7

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimiz tomonidan meva-sabzavotlar eksport qilinadigan asosiy mamlakatlar Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Rossiya va Turkiya hisoblanadi. Ushbu davlatlarlar O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan meva-sabzavotlar uchun

yirik bozor hisoblanadi, ushbu bozorlarda munosib o‘rin egallash, raqobatdosh bo‘lish uchun bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Jumladan, mamlakatimizda yetishtirilayotgan mahsulotlarni xalqaro talablar darajasida sertifikatlash tizimini yo‘lga qo‘yish, xorijiy mamlakatlarda bozorlarida marketing tadqiqotlarini o‘tkazish va bizda yetishtirilayotgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining reklamasini yaxshi yo‘lga qo‘yish, eksport infratuzilmasini rivojlantirish lozim.

Meva-sabzavotlar eksportining so‘nggi yillardagi o‘zgarish tendensiyasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar 16.7-jadvalda keltirilgan.

16.7-jadval

Meva-sabzavotlar eksporti to‘g‘risidagi ma’lumotlar (mln. AQSh dollari)

	2016	**2017**	**2018**	**2019**
Meva va rezavorlar	217,4	254,4	357,7	406,8
Sabzavotlar	183,6	217,7	307,7	549,7
Uzum	142,1	159,5	179,7	223,7
Yeryong‘oq	9,3	10,6	22,9	14,4
Yangi qovun va tarvuz	2,0	3,3	6,5	13,1

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2016-2019-yillar mobaynida meva-sabzavotlar eksporti o‘sish tendensiyasida bo‘lgan. Faqat yeryong‘oq eksporti 2019-yilda 2018-yilga nisbatan kamaygan.

Mamlakatimiz hukumati tomonidan qishloq xo‘jalik mahsulotlari eksportini yanada oshirish uchun shart-sharoitlar yaratishga alohida e’tibor berilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-noyabrdagi PF-6109-sonli Farmoniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining Afg‘oniston Islom Respublikasi bilan chegaradosh hududidagi 26,0 gektar maydonida “Termiz xalqaro savdo markazi” erkin savdo zonasi hududi tashkil etilmoqda. Ushbu erkin savdo zonasida logistika, xizmat ko‘rsatish, savdo, ijtimoiy xizmatlar va yordamchi binolardan iborat majmua barpo etilmoqda. Afg‘oniston

Islom Respublikasi fuqarolari hamda ushbu davlat hududidan kiruvchi boshqa davlat fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar o‘n kun davomida xalqaro savdo markazi hududida bo‘lib, savdo faoliyati olib borishi, davolanishi va madaniy hordiq chiqarishi mumkin. Mamlakatimiz hukumati tomonidan yaratilayotgan bu kabi chora-tadbirlar mamlakatimizning eksport salohiyatini kuchaytiradi.

2021-yil 14-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2021-yilda O‘zbekiston Respublikasining eksport salohiyatini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4949-sonli qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligining hududiy bo‘linmalarida doimiy faoliyat yurituvchi hududiy eksport shtablari tashkil etiladi. 2021-yil 1-fevraldan eksportchi tashkilotlarga eksportoldi moliyalashtirish ajratiladi. 2021-yil 1-apreldan esa mahalliy eksportchi korxonalarning savdo uylarini ochish va saqlash, ofis, savdo va ombor binolarini ijaraga olish, shuningdek, reklama kampaniyalarini tashkil qilish bilan bog‘liq chet eldagi xarajatlarining 50 foizi Eksportni rivojlantirish agentligi mablag‘lari hisobidan qoplab beriladi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining barcha xo‘jaliklarda bir vaqtda tayyor bo‘lishi shu davrda ularning bozordagi taklifini keskin oshiradi va tabiiy ravishda ularning narxi pasayadi. Bundan tashqari ko‘pchilik qishloq xo‘jalik mahsulotlari tez buziluvchan bo‘lganligi sababli fermer xo‘jaliklari mahsulot tayyor bo‘lgan paytda arzon narxlarda sotishga majbur bo‘ladi. Shu sababli qishloq xo‘jalik korxonalari o‘z mahsulotlarini qayta ishlaydigan minitexnologiyalarga ega bo‘lishi maqsadga muvofiq. Bundan tashqari yurtimizda yetishtiriladigan yuqori sifatli meva-sabzavotlarni, jumladan, olma, anor, uzum, xurmo va boshqa shu kabi mahsulotlarni saqlab, ma’lum muddatdan so‘ng ichki va tashqi bozorda sotish imkonini beradigan saqlash omborlarini tashkil etish lozim. Bunda xalqimizning qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash bo‘yicha boy tajribasi va an’analaridan ham foydalanish mumkin. Bu orqali nafaqat qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sotish jarayoni takomillashadi, balki aholini qishloq xo‘jalik mahsulotlari bilan yil davomida bir maromda ta’minlash, qish oylarida ularning narxlari

keskin oshib ketishining oldini olish masalalari ham o‘z yechimini topadi.

Qishloq xo‘jalik korxonalari ishlab chiqarishi samarali rivojlanishini ta’minlash maqsadida yetishtirgan mahsulotlarining ma’lum qismini o‘z ichki ehtiyojlari uchun taqsimlaydilar. Shu sababli ko‘pgina qishloq xo‘jalik mahsulotlarining tovarlilik darajasi 100 foizdan past bo‘ladi. Masalan, qishloq xo‘jalik korxonasida yetishtirilgan g‘allaning bir qismi urig‘lik uchun, chorva mollariga yem-xashak sifatida berish uchun, xo‘jalikdagi umumiy ovqatlanish korxonasi uchun sarflanishi mumkin. Bundan tashqari xo‘jaliklar ijtimoiy maqsadlarga, jumladan, iqtisodiy nochor oilalarga, keksalarga, bolalar uylariga, shifoxonalarga xayriya shaklida ham o‘z mahsulotlarini beradilar. Qishloq xo‘jalik korxonalari tomonidan yetishtirilgan mahsulotlarining taqsimlanish yo‘nalishlari quyidagi ikki guruhga ajratiladi:

a) xo‘jalikning ichki ehtiyojlari uchun;

b) ijtimoiy maqsadlarda.

Xo‘jalikning ichki ehtiyojlari uchun taqsimlashda urug‘likka, ozuqa fondiga, mehnat haqiga, umumiy ovqatlanishga, zahira fondiga va boshqa maqsadlarga sarflanadi. Ijtimoiy maqsadlar uchun taqsimlaganda esa kam ta’minlangan oilalar va boquvchisini yo‘qotganlarga moddiy yordam sifatida, bolalar bog‘chalariga, shifoxonalarga va turli tadbirlarga homiylik sifatida sarflanishi mumkin.

Hozirgi kunda respublikamiz aholisining ayrim qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga, jumladan baliq, parranda go‘shti va boshqa ayrim mahsulotlarga bo‘lgan ehtiyoji to‘liq qondirilmayapti. Ularni chetdan import qilish orqali ehtiyoj qondirilmoqda. Shuning uchun ushbu qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirishni yanada ko‘paytirish eng dolzarb masaladir.

Hukumatimiz tomonidan qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirishni ko‘paytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 26-yanvardagi “Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to‘ldirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 1047-sonli

Qarori, 2008-yil 20-oktabrdagi “Oziq-ovqat ekinlari ekiladigan maydonlarni optimallashtirish va ularni yetishtirishni ko‘paytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4041-sonli Farmoni va boshqa bir qator me’yoriy hujjatlar shu maqsadga qaratilgan. Bundan tashqari 2009-yilning birinchi yarmida iqtisodiyotning agrar tarmog‘i samaradorligini oshirish bo‘yicha kompleks choralar doirasida, eng avvalo, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash bo‘yicha zamonaviy korxonalarni barpo etish ishlarini jadallashtirish evaziga hisobot davrida meva-sabzavot, go‘sht va sut mahsulotlarini qayta ishlovchi minitexnologiyalar bilan jihozlangan 66 ta korxona tashkil etildi. Umumiy maydoni 341 gektarga teng bo‘lgan yengillashtirilgan konstruksiyali, muqobil issiqlik manbalaridan foydalanuvchi 648 ta issiqxona tashkil etildi. Meva-sabzavot mahsulotlari va kartoshka yetishtirish uchun avans ajratish, ularni xarid qilish, tayyorlash, saqlash va ulgurji sotish bo‘yicha 13 ta hududiy ixtisoslashtirilgan “Mevasabzavottayyorlovsavdo” kompaniyalari tashkil etildi.

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi xomashyosini chuqur qayta ishlash, yetishtirilgan mahsulotlarni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. 2015-yilda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan 230 ta korxona, 77 ming 800 tonna sig‘imga ega bo‘lgan 114 ta yangi sovutish kamerasi tashkil etildi va modernizatsiya qilindi. Mamlakatimizda meva-sabzavotlarni saqlashning umumiy quvvati 832 ming tonnaga yetkazildi. Bu esa, yil davomida narxlarning mavsumiy keskin oshib ketishiga yo‘l qo‘ymasdan, aholini asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan uzluksiz ta’minlash, ushbu mahsulotlarni eksport qilishni kengaytirish, narx-navo barqarorligini saqlash imkonini bermoqda.

Qishloq xo‘jalik korxonalarida bozorni o‘rganib, savdo-sotiq ishlarini rivojlantiradigan marketing bo‘limlari tashkil etib, ularni rivojlantirishga alohida e’tibor berish lozim.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirishda va sotishda tabiiy sharoitlarni hamda xalqimizning o‘ziga xos milliy xususiyatlarini, albatta, e’tiborga olish zarur. Chunki ayrim mahsulotlarni yetishtirishga tabiiy sharoitlar, ayrimlarini yetishtirishga milliy urf-odatlarimiz ta’sir

ko‘rsatadi. Masalan, cho‘chqachilik serdaromad soha hisoblanadi, lekin mazkur tarmoq milliy an’analarimizga to‘g‘ri kelmaydi. Chunki musulmon diniga mansub bo‘lgan aholi cho‘chqa go‘shtini, cho‘chqa go‘shtidan tayyorlangan mahsulotlarni sotib olmaydi, chunki ularni iste’mol qilmaydi. Lekin un, non mahsulotlarini, guruchni ko‘proq sotib oladi. Demak, mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularni sotishda aholining milliy xususiyatlarini ham e’tiborga olish lozim.

3. Yalpi mahsulotni ko‘paytirish va uning tovarlilik darajasini oshirish yo‘llari.

Qishloq xo‘jalik yalpi mahsulotini ko‘paytirishning asosan quyidagi ikki usuli mavjud:

a) ekstensiv usul, ya’ni miqdoriy usul. Bunda ekin maydonlari hajmini, chorva hayvonlari bosh sonini va resurslar sarfi miqdorini ko‘paytirish hisobiga yalpi mahsulot hajmini ko‘paytirishga erishiladi. Bu usul ayrim ishlab chiqarish resurslari, jumladan, yer va suv resurslari tabiatan cheklanganligi, moliyaviy resurslar taqchilligi sababli qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmini ko‘paytirish imkoniyatlarini to‘liq ta’minlanmaydi. Bu usulda qishloq xo‘jalik mahsulotlari hajmini ko‘paytirish uchun moddiy mablag‘ hamda mehnat sarflari asosan yangi yerlarni o‘zlashtirib, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishiga jalb etishga hamda chorva hayvonlari bosh sonini ko‘paytirishga qaratiladi. Natijada dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining miqdori ko‘paytiriladi.

Mamlakatimizda aholi soni ko‘payishi va qayta ishlash sanoati quvvatlarining o‘sishi natijasida qishloq xo‘jalik mahsulotlariga bo‘lgan talab yuqori sur’atlarda ortmoqda. Ushbu talabni qondirish sug‘oriladigan yerlarni ko‘paytirishni taqozo etadi. Respublikamizda ekstensiv usul bilan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ko‘paytirish imkoniyatlari ancha cheklangan. Hozirgi vaqtda suv resurslarining taqchilligi va so‘nggi yillarda yog‘ingarchilik miqdorining avvalgi yillarga nisbatan kamayishi bunga to‘siq bo‘lmoqda. Mamlakatimizda 2020-yil holatiga 20,7 mln. gektar qishloq xo‘jalik yerlari mavjud bo‘lib, ekin ekish mumkin bo‘lgan yerlar mavjud. Suv resurslaridan samarali

foydalanish, tejamkor sug‘orish texnologiyalarini qo‘llash, xo‘jaliklararo va ichki xo‘jalik sug‘orish tizimining holatini yaxshilash orqali tejalgan suv resurslaridan foydalangan holda ekin maydonlarini ko‘paytirish mumkin. Bu borada mamlakatimiz hukumati tomonidan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda, jumladan, sug‘orishning tejamli usullaridan foydalangan holda sug‘oriladigan maydonlarni ko‘paytirishga e’tibor berilmoqda. Bunda tomchilatib sug‘orish usullarini qishloq xo‘jaligiga joriy etish bo‘yicha amaliy ishlar olib borilmoqda. Chorva mollari bosh sonini ko‘paytirishga ham alohida e’tibor berilmoqda.

b) intensiv usul, ya’ni sifat usuli. Bunda foydalanilayotgan yerlarning unumdorligini oshirish, fan-texnika yutuqlari, samarali texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish orqali mavjud resurslardan oqilona foydalanish, ularning unumdorligini yuksaltirish, urug‘chilik va naslchilik ishlarini rivojlantirish asosida qishloq xo‘jalik ekinlari hosildorligi va chorva mollarining mahsuldorligini oshirish orqali yalpi mahsulot miqdorini ko‘paytirishga erishiladi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hajmini ko‘paytirish va sifatini yaxshilash asosan intensiv usulda bo‘lishi, ya’ni fan-texnika yutuqlari va ilg‘or texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish, chorva mollarining zotlarini, o‘simliklar navlarini yaxshilash orqali bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligini intensiv usulda rivojlantirish bo‘yicha foydalanilmayotgan imkoniyatlar mavjud. Qishloq xo‘jalik ekinlari hosildorligi va chorva mollari mahsuldorligini yanada oshirish mumkin. Buning uchun, avvalo, qishloq xo‘jaligini intensiv rivojlantirish, tarmoqda mehnat qiluvchilarning moddiy va ma’naviy manfaatdorligini oshirish lozim.

Qishloq xo‘jalik yalpi mahsuloti yetishtirishni ko‘paytirishda yerlardan samarali foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Surxondaryo viloyati sharoitida yerdan bir yilda ikki-uch marotaba hosil olish imkoniyatlari mavjud. Qish oylarida ham ko‘katlar yetishtirish, sabzavot, poliz ekinlarini plyonka ostiga ekish va boshqa shu kabi tadbirlar orqali qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotini oshirish hamda shu orqali yerdan foydalanish samaradorligini oshirishga erishish lozim.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlari sotish tizimini erkin bozor talablariga javob beradigan darajaga olib chiqish lozim. Buning uchun avvalo, qishloq xo‘jalik korxonalarining o‘zida marketing masalalari bilan muntazam shug‘ullanadigan guruhlar yoki bo‘limlarni tashkil etish, ularni bozor konyunkturasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan muntazam ta’minlash zarur. Shuningdek, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sotib olish bilan shug‘ullanuvchi barcha tashkilotlarning, korxonalarning faoliyatini rivojlantirish, ularning bo‘limlarini ishlab chiqarishga yaqinlashtirish kerak. Shundagina ortiqcha xarajatlarga, nobudgarchilikka yo‘l qo‘yilmaydi: qishloq xo‘jalik korxonalari tez buziladigan mahsulotlarni uzoq masofadagi zavodlarga tashib, vaqtdan yutqazmaydi, ortiqcha xarajatlar qilmaydi va mahsulot sifati yomonlashmaydi, mahsulotlarning ko‘proq, tezroq, arzonroq sotilishi ta’minlanadi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotish jarayonini bozor iqtisodiyoti talablari asosida takomillashtirish lozim. Bundan tashqari qishloq xo‘jalik korxonalari o‘zlari yetishtirgan mahsulotlarini sotish bilan shug‘ullanuvchi uyushmalar, agrofirmalar tashkil etishlari mumkin. Uyushmaga kiruvchilar uchun erkin, qulay sharoitlar yaratilishi lozim. Bunday uyushmalar mahsulotlarni sotishda erkin raqobatli bozor vujudga kelishida va sotish jarayonini to‘g‘ri tashkil etishda muhim o‘rin tutadi. Natijada qishloq xo‘jalik korxonalari bozor konyunkturasini o‘rganib, marketing tadqiqotlarini o‘tkazgan holda mahsulotlarini sotish va yuqori daromad olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Yalpi va tovar mahsulotlarining ko‘payishi o‘z navbatida daromadlarning oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Qisqacha xulosalar

Qishloq xo‘jalik korxonalarining ma’lum davr mobaynidagi faoliyati natijasini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlardan biri uning yalpi va tovar mahsulotlaridir. Qishloq xo‘jaligida yalpi mahsulot tarkibi o‘ziga xos bo‘lib, uning hajmi o‘zgarishiga ham yetishtirilgan mahsulotlarning natura shaklidagi hajmi va mahsulotlar narxi o‘zgarishi bilan bir qatorda ekinlar tarkibi o‘zgarishi, poda tarkibi o‘zgarishi ham ta’sir ko‘rsatadi.

Shu bilan bir qatorda qishloq xo‘jaligida yetishtirilayotgan mahsulotlar tovarlilik darajasi ham o‘ziga xos bo‘lib, ayrim mahsulotlar sotish uchun emas, balki korxonaning o‘zida ishlab chiqarish vositasi sifatida ishlatish uchun yetishtiriladi.

Qishloq xo‘jalik korxonalarida yetishtirilgan mahsulotning barchasi sotilmasdan, ularning bir qismi ichki ehtiyojlar uchun yoki ijtimoiy maqsadlarda foydalanish uchun taqsimlanadi. Aholi sonining yil sayin ko‘payayotganligi, sanoat korxonalari ishlab chiqarish quvvatlarining ortib borishi tarmoqda yetishtirilayotgan yalpi mahsulot hajmini oshirishni talab etadi. Bunda intensiv va ekstensiv usullardan foydalangan holda yalpi mahsulot hajmini oshirish qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining iqtisodiy samaradorligi yuksalishida ham muhim ahamiyatga ega.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Yalpi mahsulot deganda nimani tushunasiz?
2. Yalpi mahsulotning tarkibi qanday?
3. Tayyor mahsulot deganda nimani tushunasiz?
4. Qanday mahsulot tovar mahsuloti deb ataladi?
5. Mahsulotlarning tovarlilik darajasi qanday aniqlanadi?
6. Yalpi va tovar mahsulotlarning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati qanday?
7. Yalpi mahsulotni ko‘paytirishning qanday yo‘llari bor?
8. Ekstensiv hamda intensiv usul haqida qanday tushunchaga egasiz?
9. Mahsulotlar sotishni takomillashtirishning qanday imkoniyatlari mavjud?
10. Qishloq xo‘jalik korxonalarida ichki ehtiyojlar uchun ishlatiladigan mahsulotlar qaysi maqsadlarda taqsimlanadi?

BOB YUZASIDAN AMALIY TOPSHIRIQLAR:

1-topshiriq:

“Venn diagrammasi” usulidan foydalanib qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida yalpi va tovar mahsulotlarining bir-biriga o‘xshash umumiy jihatlari va bir-biriga o‘xshamaydigan jihatlarini ifodalash.



Bunda X – yalpi mahsulotning o‘ziga xos xususiyatlari, Y – tovar mahsulotining o‘ziga xos jihatlari, XY – yalpi va tovar mahsulotlarining umumiy, o‘zshash jihatlari. Mazkur usul talabalarning mavzu bo‘yicha bilimlarni egallash jarayonidagi faolligini oshiradi, mavzuni tushuntirishning ko‘rgazmaliligi ortadi.

2-topshiriq:

SWOT tahlil usuli yordamida mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti hajmini oshirish imkoniyatlarini tahlil qilish. Bunda doskaga SWOT tahlil jadvali chiziladi va har bir talaba alohida ushbu tahlilni amalga oshiradi.

Qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotini ko‘paytirish imkoniyatlari

S (strength)	W (weakness)
O (opportunity)	T (threat)

3-topshiriq:

Klaster usuli yordamida qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sotish va taqsimlash yo‘nalishlarini ko‘rsatib bering.





4-topshiriq:

FSMU texnologiyasi yordamida “Qishloq xo‘jalik mahsulotlari eksportini yanada oshirish uchun nimalarga e’tibor berish kerak?” ekanligini yo‘naltiruvchi uslubiy tavsiyalar asosida yechish:

Yo‘naltiruvchi so‘zlar: Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligining imkoniyatlarini yoritib berish, marketing, logistika, sifat menejmenti.

	Qishloq xo‘jalik mahsulotlari eksportini yanada oshirish uchun nimalarga e’tibor berish kerak?
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating	
(M) Ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotining mohiyati, ahamiyati va tarkibi.
2. Qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotini sotish va taqsimlash yo‘nalishlari.
3. Qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotini ko‘paytirish va uning tovarlilik darajasini oshirish yo‘llari.

17-BOB: QISHLOQ XO‘JALIGI ISHLAB CHIQARISHINI REJALASHTIRISH

1. Rejalashtirishning mohiyati, asosiy tamoyillari va usullari.
2. Qishloq xo‘jalik korxonalarida qo‘llaniladigan rejalashtirish shakllari.
3. Qishloq xo‘jalik korxonalarida yillik ishlab chiqarish biznes-rejasi.

Tayanch iboralar: rejalashtirish, rejalashtirish tamoyillari, rejalashtirish uslubiyati, qishloq xo‘jaligida qo‘llaniladigan rejalar, biznes reja.

1. Rejalashtirishning mohiyati, asosiy tamoyillari va usullari.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarida ishlab chiqarishni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy va texnologik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va nisbatlarni ta’minlash, rivojlanish yo‘llari va sur’atlari, tarmoqlar va bo‘linmalar, takror ishlab chiqarishning asosiy bo‘g‘inlari o‘rtasida to‘g‘ri mutanosiblikni shakllantirish jarayoniga rejalashtirish deb ataladi.

Qishloq xo‘jaligi korxonasi va uning ichki ishlab chiqarish bo‘linmalari hamda tarmoqlari faoliyatini ifoda etuvchi rejalar ichki xo‘jalik rejalari deb ataladi. Rejalashtirishning asosiy vazifasi korxona faoliyatini uzluksiz va jadal rivojlantirish, tarmoqlar o‘rtasida zarur mutanosiblikni ta’minlash orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni ta’minlashdan iborat.

Rejalashtirishning ahamiyati to‘g‘risida gap ketganda, amerikalik davlat arbobi B.Franklinning quyidagi fikrini keltirib o‘tish maqsadga muvofiqdir: “Muvaffaqiyatsiz rejalashtirish – bu muvaffaqiyatsizlikni rejalashtirishdir” (“*Fail to planning is planning to fail*”). Darhaqiqat, korxonalarda rejalashtirish jarayoniga mas’uliyat bilan yondoshish talab etiladi. Chunki, to‘g‘ri rejalashtirish muvaffaqiyatga erishishning asosidir.

Qishloq xo‘jaligi korxonalari faoliyatini rejalashtirish quyidagi tamoyillarga tayanib amalga oshiriladi:

- rejalarning realligi. Bu tamoyilga rioya qilmaslik rejalashtirishni ma’nosiz qilib qo‘yadi, chunki rejaning biror soha va korxonada bajarilmay qolishi, u bilan bog‘liq bo‘lgan soha shartnomalari bajarilmay qolishiga, jarimalar to‘lashga, ishonchni yo‘qotishga olib keladi.
- ilmiy jihatdan asoslanganligi. Rejalar bajarilishi uchun ular ilmiy jihatdan asoslangan bo‘lishi kerak. Rejalar jamiyatni va ishlab chiqarishni rivojlantirishning obyektiv iqtisodiy qonunlari va qonuniyatlariga mos kelishi, fan va texnikaning eng so‘nggi yutuqlariga, tabiiy, iqtisodiy va mahalliy shart-sharoitlarga, ilg‘orlar tajribalariga tayanishi va korxonaning mavjud resurs salohiyatiga asoslanishi lozim. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘idagi rejalashtirishda ilmiy tadqiqot institutlari tomonidan ishlab chiqilgan me’yorlardan foydalanilishi muhm hisoblanadi.
- uzviylik va o‘zaro bog‘liqlik. Ushbu tamoyilga ko‘ra strategik, tarmoqda tuzilayotgan istiqbolli, joriy va operativ rejalar o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq, bir-birini to‘ldiradigan holda tuzilishi va mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti rejasi bilan bog‘liqligi ta’minlanishi kerak.
- mutanosiblik va muvozanatlilik. Ushbu tamoyil mamlakat iqtisodiyotining tarmoqlarini mutanosib va uyg‘un rivojlantirish qonuniyatlaridan kelib chiqadi. Unga ko‘ra korxona faoliyatining barcha sohalarini tashkil qilish yagona uyg‘unlikda va mutanosiblikda amalga oshiriladi. Buning uchun tarmoqlararo mehnat, moddiy va moliyaviy resurslar balanslari tuziladi.
- reja intizomiga to‘la rioya qilish va uni operativ nazorat qilish. Rejalarni amalga oshirish jarayonida turli sabablarga ko‘ra reja ko‘rsatkichlaridan chetga chiqishlar va belgilangan vazifalarning bajarilmay qolish ehtimollari vujudga kelishi mumkin. Shu tufayli reja ko‘rsatkichlarining bajarilishini doimo nazorat qilib borish, yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf etish, zarur ichki imkoniyatlarni qidirib topish va zarur bo‘lganda reja ko`rsatkichlariga tuzatishlar kiritib borish talab etiladi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalari faoliyatini rejalashtirish qoidalar, yo‘llari va usullari yig‘indisi rejalashtirish uslubiyotini tashkil etadi. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida rejalarni tuzishda quyidagi usullardan foydalaniladi:

- balans usuli. Ushbu usulning mohiyati shundan iboratki, alohida xo‘jalik, u yoki bu soha, qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini rivojlantirish rejasi dastlabki balansni tuzishga asoslanadi. Mazkur balans resurslarga bo‘lgan talab va uni qondirish manbalari aks ettiriladi. Bu usulda yer, mehnat, moddiy va moliyaviy resurslar balanslarini tuzish orqali rejaning ayrim bo‘limlari va ko‘rsatkichlari o‘rtasida muvofiqlik hamda mutanosiblik ta’minlanadi.
- me’yoriy usul. Bu usulga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi korxonasining ishlab chiqarish resurslariga bo‘lgan ehtiyojlari; barcha iqtisodiy, texnik-iqtisodiy va balans hisob-kitoblari; rejalarning asoslovchi ko‘rsatkichlari ilmiy-tadqiqot va loyiha institutlari tomonidan ishlab chiqilgan me’yorlarga asoslanadi. Me’yor deganda ma’lum bir texnikaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarning ilmiy jihatdan yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan chegaraviy miqdoriga aytiladi.

Qishloq xo‘jaligida rejalar tuzishda quyidagi me’yorlardan foydalaniladi:

a) asosiy vositalardan foydalanish (mashinalar unumi me’yorlari, transport vositalari tezligi, quvvatdan foydalanish me’yorlari va hokazo);

b) aylanma vositalardan foydalanish (urug‘, ozuqa, o‘g‘it, yonilg‘i-moylash materiallari sarfi me’yorlari);

d) mehnat sarfi va mahsulotning mehnat sig‘imi – alohida ish turlari bo‘yicha mehnat sarfi me’yorlari va boshqalar;

e) ishlab chiqarish jarayonlarining tashkil etilishi – ta’mirlash uchun sarflanadigan vaqt sarfi, zahiralar, xomashyo, materiallar, yonilg‘i-moylash materiallari qoldiqlari me’yorlari va boshqalar;

f) mahsulot sifati – don tarkibidagi oqsil miqdori, sut tarkibidagi yog‘ miqdori va hokazo;

g) kapital qo‘yilma ajratmalari (1 gektar ekinzorga va hokazo);

h) ishlab chiqarish xarajatlari, rentabellik darajasi va hokazo.

- hisob-variantli usul. Bu usulning mohiyati shundan iboratki, rejaning turli bo‘limlarini ishlab chiqishda ishlab chiqarish tarmoqlarini bog‘lashning, ekin maydonlari tarkibining, chorva mollarini oziqlantirish ratsionining, ishlab chiqarish jarayonini mexanizatsiyalshtirishning turli variantlari ishlab chiqiladi. Reja variantlarni talashda ikki guruh ko‘rsatkichlardan foydalaniladi: birinchisi – mahsulot miqdori va sotish hajmi; ikkinchisi – qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligi (mehnat unumdorligi, mahsulot tannarxi, rentabellik darajasi va hokazo). Ishlab chiqilgan reja variantlari orasidan eng maqbuli tanlab olinadi.
- iqtisodiy-matematik usul. Reja-iqtisodiy ma’lumotlarni qayta ishlash, reja topshiriqlarining optimal variantlarini iqtisodiy-matematik usullar va kompyuter texnologiyalarini larni qo‘llamasdan aniqlab bo‘lmaydi. Ushbu usul rejaning eng maqsadga muvofiq (optimal) variantlarini aniqlashda, iqtisodiy, tashkiliy hamda texnik jarayonlarni optimallashtirishda keng foydalaniladi. Masalan, ekin maydonlarini, poda strukturasini hamda mexanizatsiya ishlarini traktor markalari o‘rtasida taqsimlashning optimal yo‘llarini aniqlashda juda qo‘l keladi. Iqtisodiy-matematik usulni qo‘llashda kompyuter texnologiyalari bilan bir qatorda zarur dasturiy ta’minot ham muhim ahamiyatga ega. Katta hajmli ma’lumotlarni qayta ishlashda STATA, Eviews, SPSS kabi maxsus dasturiy ta’minotlar qo‘llaniladi.
- dasturiy-maqsadli usul. Ushbu usul muhim ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal etish bo‘yicha kompleks dasturlar ishlab chiqish hamda ularning asoslanganligini va yakuniy natijaga yo‘naltirilganligini oshirishda ishlatiladi. Bu usul uzoq muddatli istiqbol rejalarni ishlab chiqishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lad

Rejalashtirish tamoyillari va uslubiyotidan foydalanib rejalashtirish tizimi ko‘rsatkichlari ishlab chiqiladi. Rejalashtirish uchun talab etiladigan dastlabki ma’lumotlar hamda istiqbol, joriy, operativ va biznes-rejalarni ishlab chiqish – rejalashtirish tizimini tashkil etadi.

Rejalashtirish uchun talab etiladigan dastlabki (birlamchi) ma’lumotlarga quyidagilar kiradi:

- xo‘jalikning o‘tgan yillarda erishgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari;
- davlat buyurtmalari bo‘yicha nazorat ko‘rsatkichlari;
- ilmiy-ishlab chiqarish tavsiyalari;
- ilmiy asoslangan limitlar, normalar va normativlar;
- istiqbolda rivojlanishning texnikaviy-iqtisodiy prognoz ko‘rsatkichlari;
- hududiy xo‘jalik yuritish tizimining shart-sharoitlari va usullari.

Rejalashtirish uchun dastlabki ma’lumotlar bazasi sifatida o‘tgan yillarda korxona erishgan ishlab chiqarish natijalari va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar asos qilib olinadi. Buning uchun o‘tgan yillar uchun statistik, moliyaviy va operativ hisobotlar ko‘rsatkichlari chuqur tahlil etiladi va ular asosida joriy yoki kelgusi yillar uchun reja ko‘rsatkichlari belgilab olinadi.

Mahsulot ishlab chiqarishda ishlatiladigan moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarni sarflash normativlari, ilmiy-ishlab chiqarish sohasida to‘plangan tajribalar va tavsiyalar, istiqbolda rivojlanishning prognoz ko‘rsatkichlari rejalashtirish jarayonining haqqoniyligi va ilmiy asoslanganligini ta’minlaydi.

2. Qishloq xo‘jalik korxonalarida qo‘llaniladigan rejalashtirish shakllari.

Qo‘yilgan maqsad va vazifalarning mazmunidan kelib chiqib rejalarning quyidagi shakllarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- rejalashtirilayotgan davrning davomiyligidan kelib chiqib – qisqa muddatli (joriy, operativ), o‘rta muddatli va uzoq muddatli (istiqbolli) rejalar**;**
- korxona faoliyatining yo‘nalishi jihatidan – tashkiliy reja, ishlab chiqarish rejasi, marketing rejasi, moddiy ta’minot rejasi va moliyaviy reja**;**
- mo‘ljallanishi jihatidan – korxona boshqaruvchilariga, statistik organlar va yuqori tashkilotlarga, tashqi investorlarga taqdim etiladigan rejalar**.**

Joriy yoki yillik rejalar korxonani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning yillik ishlab chiqarish-moliyaviy biznes-rejasidan, ishlab chiqarish bo‘linmalarining yillik ishlab chiqarish rejalari va topshiriqlaridan iborat bo‘ladi.

Operativ yoki ish rejalari – yillik rejalarni yanada detallashtirish maqsadida tuziladi. Uning tarkibiga quyidagilar kiradi:

- ayrim ish davrlari (yerni shudgorlash, ekish, ekinlarga ishlov berish, hosilni yig‘ib-terib olish, qo‘zilatish, chorva mollarini semirtirish va hokazo) uchun texnologik kartalar asosida tuzilgan ishchi rejalar;
- o‘simlikchilik va chorvachilik tarmoqlari, yordamchi va xizmat ko‘rsatuvchi tarmoqlarda haftalik, oylik va choraklik rejalar;
- ayrim ishlarni bajarish uchun berilgan qisqa muddatli rejalar.

Rejalarning barcha turlari o‘zaro bog‘liqlikka ega va ularning hammasi yagona maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Istiqbol rejalar kelgusi bir necha yilda korxonani ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari, sur’atlari va ko‘lamini belgilab beradi. Istiqbol rejalar ko‘pincha prognoz xarakteriga ega bo‘ladi. Prognozlar joriy rejalardan farq qilib direktiv xarakterga ega emas, balki ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning asosiy yo‘nalishlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi. Qo‘yilgan vazifani bajarish muddatiga ko‘ra, istiqbol rejalar uzoq muddatli va o‘rta muddatli rejalarga bo‘linadi.

Investitsion loyihalarni moliyalashtirishga mo‘ljallangan biznes rejalar biror bir loyihani amalga oshirish maqsadida korxonaga investitsiyalar yoki kreditlar jalb etish maqsadida tuziladi. Biznes-reja biznes g‘oyalarini kelajakda muvaffaqiyatli amalga oshirishga xizmat qiladigan muhim hujjat hisoblanadi.

3. Qishloq xo‘jalik korxonalarida yillik ishlab chiqarish biznes-rejasi.

Korxonaning yillik rejalari uning aniq kalendar yilidagi taraqqiyoti dasturi bo‘lib, shu yil uchun korxonaning mahsulot ishlab chiqarish va sotish reja ko‘rsatkichlariga asosan tuziladi. Yillik rejada istiqbol

rejaning shu kalendar yiliga mo‘ljallangan ko‘rsatkichlari aniqlashtiriladi, avval ko‘zda tutilmagan va rejaning muvaffaqiyatli bajarilishini ta’minlashga yordam beradigan qo‘shimcha tadbirlar belgilanadi. Tabiiy-iqlim sharoitlariga bog‘liq bo‘lgan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi uchun bu xususiyat juda zarurdir.

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan tavsiya etilgan “Qishloq xo‘jaligi korxonalarining biznes-rejasi” quyidagi asosiy bo‘limlardan tashkil topgan:

1). Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun mehnat va moddiy xarajatlar me’yorlari – dehqonchilikda ekin turlari bo‘yicha rejalashtirilgan hosildorlik darajasidan kelib chiqib, bir gektar yerga sarflanishi lozim bo‘lgan resurslar sarflari me’yorlarini aks ettiradi. Chorvachilikda mahsulot yetishtirishni rejalashtirish jarayonida mehnat va moddiy resurslar sarfi, ya’ni chorva mollarining yillik ozuqaga bo‘lgan talabini me’yorlashtirish muhimdir. Chorva mollari boqish usuli va yosh guruhlariga ko‘ra ozuqa sarfi turlicha bo‘ladi.

Moddiy va mehnat sarflari me’yorlari barcha reja ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish uchun asos bo`lib xizmat qiladi.

2). Yerdan foydalanish rejasi - yer turlari bo‘yicha korxonaning yer maydonlari tuzilishi, tarkibi va miqdorini ifodalaydi. Qishloq xo‘jaligi korxonalari yerlar unumdorligini oshirish, ularni bir turdan boshqa turga o‘tkazish ishlarini olib boradilar. Foydalanilmayotgan yerlarni o‘zlashtirish, yerlarni konservatsiya qilish, yerning meliorativ holatini yaxshilash tadbirlarini o‘tkazish natijasida yuqori unumli yerlarga aylantirish tadbirlari yerdan foydalanish rejasida o‘z aksini topadi.

3). Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish va ularning tannarxi – biznes-rejaning eng yirik bo‘limlaridan biri hisoblanadi. Bu bo‘limda asosiy va takroriy ekinlar maydoni, mahsulotlarni yetishtirishga sarflanadigan moddiy, mehnat va pul mablag‘lari hajmi va qiymati, ekinlar hosildorligi, yalpi hosil va o‘simlikchilik mahsulotlarining rejali tannarxi o‘z aksini topadi. Shu bilan birga har bir ekin turi bo‘yicha rejalashtirilgan umumiy xarajatlar qiymati va bir sentner mahsulotning tannarxi keltiriladi.

4). Mollar, parrandalar va boshqa hayvonlar bosh soni hamda asalari oilalari soni mavjudligi – bo‘limida chorva mollarining yil boshi va oxiridagi bosh soni, tirik og‘irligi va umumiy bahosi rejalashtiriladi.

5). Mollar va parrandalarning mahsuldorligi – bo‘limida chorva mollarining turlari bo‘yicha bosh soni, ulardan olinadigan mahsulot miqdori va mahsuldorligi rejalashtiriladi.

6). Mollarning va parrandalarning ozuqalarga bo‘lgan ehtiyoji va uning ta’minoti - rejalashtirilayotgan yilga talab qilinadigan ozuqalar jami ozuqa birligida va konsentrat ozuqada, shu jumladan sotib olinadigan ozuqa birligi miqdori va summasi, bir sentner mahsulotga sarflanadigan ozuqa birligi aks ettiriladi. Chorva mollarining ozuqaga bo‘lgan ehtiyojini rejalashtirishda ularning sutkalik ozuqaga bo‘lgan talabi, bosh soni va yildagi kunlar soni asos qilib olinadi.

7). Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish va ularning tannarxi – biznes-rejaning eng yirik bo‘limlaridan biri hisoblanadi. Bu bo‘limda chorva mollarining turlari bo‘yicha bosh soni, mahsulotlarni yetishtirishga sarflanadigan moddiy, mehnat va pul mablag‘lari hajmi va qiymati, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va chorvalikchilik mahsulotlarining rejali tannarxi o‘z aksini topadi. Shu bilan birga chorva mollari turlari bo‘yicha rejalashtirilgan umumiy xarajatlar qiymati va bir sentner mahsulotning rejali tannarxi keltiriladi.

8). Joriy yil uchun mahsulot balansi – xo‘jalikning yil davomida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, sotish, ichki xo‘jalik ehtiyojlariga sarflash, chorva mollariga ozuqa sifatida sarflash, ish haqi sifatida va boshqa maqsadlarga sarflash rejasini aks ettiradi.

9). Mahsulot sotish rejasi – xo‘jalikning yillik ishlab chiqarish biznes rejasining muhim tarkibiy qismidir. Rejaning bu bo‘limida rejalashtirilayotgan yilda realizatsiya qilinishi lozim bo‘lgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari o‘z aksini topadi.

10). Xodimlar soni va iste’molga yo‘naltirilgan ish haqi – ishchi xodimlar, mutaxassislar va rahbar xodimlarning o‘rtacha yillik soni, ularning tarkibi va yil davomida rejalashtirilgan ish haqi fondidan tashkil topadi.

11). Asosiy ishlab chiqarish xarajatlari – xo‘jaligining chorvachilik va dehqonchilik tarmog‘i bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarishga sarflanadigan xarajatlarni aks ettiradi.

12). Xo‘jalikning yalpi daromadi – mahsulot sotishdan olinadigan yalpi pul tushumidan farq qiladi. Rejalashtirilgan yalpi daromad tarkibiga xo‘jalik a’zolari iste’moliga yo‘naltirilgan ish haqi va boshqa rag‘batlantiruvchi to‘lovlar ham kiritiladi.

13). Qo‘shimcha va yordamchi tarmoqlarning ishlab chiqarish dasturi – ishlab chiqarish quvvatlari, xomashyo va materiallarga bo‘lgan talab, mahsulotlarni taqsimlash va hokazo.

14). Moliyaviy natijalarning kutilayotgan rejasi - pul kirimlari va ularni taqsimlanish, kapital sarflar, ularning manbalari va yo‘nalishlari, maxsus fondlar, ularni tashkil qilish va foydalanish, foyda va sof daromadning taqsimlanishi, aylanma mablag‘larni me’yorlashtirish masalalarini o‘z ichiga oladi.

Korxonadagi ishlab chiqarish bo‘linmalariga beriladigan yillik topshiriqlar ishlab chiqarish-moliya rejasi bilan bir vaqtda tuzilib, uning ko‘rsatkichlarini aniqlashtiriladi va ishlab chiqarish bo‘linmalari faoliyatining bir yillik ish dasturi hisoblanadi.

Ishlab chiqarish jarayonida mehnat, mehnat qurollari va predmetlari o‘zaro birikadi, harakatga keladi, mehnatning mehnat vositalari orqali mehnat predmetiga ta’sir qilishi natijasida tayyor mahsulot olinadi. Shuning uchun ishlab chiqarish jarayonlarini to‘g‘ri tashkil qilish mahsulot yetishtirishni ko‘paytirib borishning, shu bilan birga mehnatning o‘zidan, mehnat vositalari va predmetlaridan oqilona foydalanish, ularning har bir birligiga ko‘proq mahsulot yetishtirishni ta’minlashning asosidir.

Qishloq xo‘jaligi korxonalari faoliyatida operativ rejalashtirish ham muhim ahamiyatga ega. Korxonaning yillik rejalarida ishlab chiqarish umumiy holda, yirik masshtabda, asosiy ko‘rsatkichlarda aks ettiriladi. Korxona faoliyatini to‘g‘ri boshqarish, ishlab chiqarish dasturlarining muvaffaqiyatli bajarilishini ta’minlash uchun yillik rejalar bilan bir qatorda operativ yoki ish rejalarni tuziladi. Bu rejalar ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil qilishning asosiy hujjati hisoblanadi.

O‘simlikchilik va chorvachilik mavsumiy sohalarida ish rejalari ayrim ishlab chiqarish davrlari bo‘yicha tuziladigan rejalardan iborat bo‘ladi. Masalan, paxtachilikka ixtisoslashgan xo‘jaliklarda ekishgacha, ekish davri, g‘o‘zaga ishlov berish davri va hosilni yig‘ib-terib olish davri kabi muddatlarga ish rejasi tuziladi. Ko‘pincha soddalashtirib ish rejalarini ish grafigi deb ham aytiladi, ya’ni ekish grafigi, paxta terish grafigi va hokazo. Ish rejalarida belgilangan muddatda bajariladigan ishlarning turi va hajmi, ularni bajarish uchun talab qilinadigan ishchi kuchlari, mashina va uskunalar soni, xomashyo va materiallar miqdori ko‘rsatiladi. Ish rejasi ekin turi, ishlab chiqarish bo‘linmalari va korxona bo‘yicha tuzilishi mumkin. Ish rejasini boshqarishning hamma bo‘g‘inlari bo‘yicha tuzilishi ishchi kuchlari, texnika vositalari hamda xomashyo materiallarini to‘g‘ri taqsimlash, zaruratga ko‘ra, kerakli joyda ularni mujassamlashtirgan holda foydalanishni ko‘zda tutish imkonini beradi.

Chorvachilikda mollarni o‘stirish va semirtirish rejasi, qo‘ylarni kuzgi qochirish, bahorgi qo‘zilatish, junini qirqib olish davri uchun ish rejalari tuziladi.

Ishlab chiqarish nisbatan bir me’yorda kechadigan sohalarda, masalan, sut qoramolchiligida, go‘shtchilik majmualarida, sanoat asosidagi parrandachilik fabrikalarida ishlab chiqarish jarayonlarini to‘g‘ri tashkil etish choraklar bo‘yicha belgilangan mahsulot sotish reja topshiriqlarini bajarishni ta’minlash uchun oylar va choraklar bo‘yicha ish rejalari tuziladi. Korxonalardagi eng sodda va qisqa reja – bu, reja-naryaddir. Uning xususiyati shundan iboratki, u bir vaqtning o‘zida ham topshiriq, ham bajarilgan ishni hisboga olish hujjati xizmatini o‘tashi mumkin.

Reja-naryad ishning xususiyatiga ko‘ra, individual xodimga, ishchilarning kichik guruhiga qisqa muddatga (bir, besh kun va dekadaga) beriladi.

Bozor munosabatlari sharoitida qishloq xo‘jaligi korxonalarida moliyaviy rejalashtirish tizimi va undan foydalanish ham muhimdir. Sobiq ittifoq davrida rejalashtirish ma’muriy usulda qabul qilingan bo‘lib, asosan davlat fondi uchun mahsulot ishlab chiqarish

ko‘rsatkichlarini so‘zsiz bajarishga yo‘naltirilgan edi va unda bozor munosabatlari sharoitida eng muhim bo‘lgan ko‘rsatkich – foyda asosiy maqsad qilib qo‘yilmas edi. Sobiq ittifoq davridagi ma’muriy rejalashtirish tizimida korxonalar zararga bo‘lsa ham davlat buyurtmalarini bajarishga majbur qilinar va ko‘radigan zararlari yuqori tashkilotlar tomonidan qoplanardi. Bunday sharoitlarda rejalashtirish tizimi ham asosan davlat buyurtmalarini bajarishga yo‘naltirilib, ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari hamda moliyaviy va investitsion faoliyatdan olinadigan daromadlar, pul oqimlari kabi muhim sohalar rejalarda o‘z aksini topmagan. Shu munosabat bilan hozirgi kunda korxonalar faoliyatini moliyaviy rejalashtirish tizimidan keng foydalanish korxonalarning daromadlari va xarajatlarini to‘g‘ri rejalashtirish va barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Moliyaviy rejalashtirish – muayyan muddat uchun moliyaviy resurslar harakatini va tegishli moliyaviy munosabatlar tizimini asoslashdan iborat jarayondir. Qishloq xo‘jaligi korxonalari faoliyatini moliyaviy rejalashtirishning asosiy vazifasi har bir xo‘jalikning pul mablag‘lariga bo‘lgan ehtiyojini, daromadlar hamda xarajatlar hajmi va tarkibini rejalashtirishdan iborat.

Korxonalar moliyaviy faoliyatini boshqarish mexanizmining asosini moliyaviy rejalashtirish tashkil etadi. Moliyaviy rejalashtirish o‘zida korxonalar rivojlanishini zaruriy moliyaviy resurslar bilan ta’minlash bo‘yicha me’yoriy reja ko‘rsatkichlarini va joriy moliya yili hamda istiqboldagi moliyaviy faoliyatining samarali rivojlantirish yo‘nalishlarini aks ettiradi. Moliyaviy rejalashtirishning barcha tizimi o‘zaro aloqada bo‘lib, ulardan aniq ketma-ketlikda foydalaniladi. Moliyaviy faoliyatni joriy rejalashtirish tizimi ishlab chiqilgan strategiya va moliyaviy faoliyatning alohida jihatlari bo‘yicha moliyaviy siyosat negizida amalga oshiriladi. Bu rejalashtirish tizimining vazifasi joriy moliyaviy rejaning aniq shakllarini ishlab chiqishdan, korxona rivojlanishi oldida turgan barcha moliyalashtirish manbalarini aniqlashdan, daromadlar va xarajatlar tarkibini aniqlashtirishdan, korxonaning doimiy to‘lovga qobilligini ta’minlashdan, rejalashtirilgan

davrda uning aktivlari va kapitallari tarkibini optimallashtirishdan iboratdir.

Qisqacha xulosalar

Har bir korxona bozor munosabatlari sharoitida o‘z maqsadi va unga erishish yo‘llarini aniqlamasdan, ya’ni o‘z faoliyatini rejalashtirmasdan yuqori natijaga erisha olmaydi. Har bir korxona o‘z faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish uchun joriy rejalar bilan bir qatorda istiqbolga mo‘ljallangan rejalar hamda u yoki bu masalani hal qilish uchun dasturlar ishlab chiqadi. Korxona ichki rejalashtirish tizimida biznes-rejalarning o‘rni juda katta. Biznes-rejani tuzishda korxonaning hamma mutaxassislari, investorlar va manfaatdor shaxs va subyektlar qatnashishi kerak. Korxonalar moliyaviy faoliyatini boshqarish mexanizmining asosini moliyaviy rejalashtirish tashkil etadi. Moliyaviy rejalashtirish o‘zida moliyaviy reja tizimini ishlab chiqish jarayonini va korxonalar rivojlanishida zaruriy moliyaviy resurslar bilan ta’minlash bo‘yicha me’yoriy reja ko‘rsatkichlarini va joriy moliya yili hamda istiqboldagi moliyaviy faoliyatining samarali rivojlanishini aks ettiradi.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Rejalashtirishning mohiyati nimadan iborat?
2. Qishloq xo‘jaligida rejalashtirishning qanday tamoyillari mavjud?
3. Qishloq xo‘jaligida rejalashtirishning qanday usullari mavjud?
4. Qishloq xo‘jalik korxonalarida tuziladigan rejalarning qanday turlari mavjud?
5. Korxonaning rejalashtirish tizimi o`z ichiga nimalarni oladi?
6. Istiqbol rejalar qanday rejalar va qanday maqsadni ifoda etadi?
7. Yillik ishlab chiqarish biznes-rejasi nima maqsadda tuziladi va qanday bo`limlardan tashkil topadi?
8. Operativ ish-rejalar qanday maqsadlarda tuziladi?
9. Moliyaviy rejalar nima uchun zarur?
10. Biznes-rejaning mohiyati nimadan iborat va u qanday maqsadni ifoda etadi?
11. Investitsion loyihalarni moliyalashtirishga yo`naltirilgan biznes-rejalarni shakllantirishda nimalarga e’tibor qaratish lozim?

BOB YUZASIDAN AMALIY TOPSHIRIQLAR:

1-topshiriq:

“Baliq skeleti” usuli asosida “Qishloq xo‘jaligida rejalashtirishning tamoyillari nimalardan iborat?” savoliga javob beriladi.



2-topshiriq:

Klaster usuli yordamida qishloq xo‘jaligida tuziladigan rejalarning turlarini ko‘rsatib bering.



3-topshiriq:

FSMU texnologiyasi yordamida “Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida rejalashtirishning holati qanday?” ekanligini yo‘naltiruvchi uslubiy

tavsiyalar asosida yechish:

Yo‘naltiruvchi so‘zlar: Rejalashtirishning zarurligi, texnologik xarita.

	Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida rejalashtirishning holati qanday?
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating	
(M) Ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Qishloq xo‘jaligida rejalashtirishning mohiyati, ahamiyati va tamoyillari.
2. Qishloq xo‘jaligida rejalashtirishning usullari.
3. Qishloq xo‘jalik korxonalarida tuziladigan rejalarning turlari.

18-BOB: QISHLOQ XO‘JALIGINI INTENSIVLASHTIRISH-NING SAMARADORLIGINI OSHIRISH.

1. Ishlab chiqarishni intesiv rivojlantirishning mohiyati.
2. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirishning ko‘rsatkichlari.
3. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirishning asosiy omillari.

Tayanch iboralar: qishloq xo‘jaligini intensivlashtirish nazariyasi, intensiv yo‘li, ekstensiv yo‘l, hosildorlik, mahsuldorlik, zamonaviy texnologiyalar.

1. Ishlab chiqarishni intesiv rivojlantirishning mohiyati.

Qishloq xo‘jaligining rivojlanishi kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning obyektiv iqtisodiy qonunlari asosida amalga oshadi. Qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajminig oshishi ekin maydonlarining kengaytirilishi va chorva mollari sonining ko‘payishi hisobiga hamda mavjud ishlab chiqarish vositalaridan samarali foydalanish evaziga ta’minlanadi. Ekin maydonlarining kengaytirilishi va chorva mollari sonining ko‘payishi hisobiga qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish rivojlanishning ekstensiv yo‘lidir. Ekstensiv yo‘l orqali qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga ishlab chiqarish omillarining miqdoriy o‘sishi evaziga erishiladi. Ekstensiv yo‘l orqali qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirishda ishlab chiqarish texnika va texnologiyalarini takomillashtirmagan holda yangi yerlarni o‘zlashtirish hisobiga ekin maydonlarini ko‘paytirish, chorva mollarining bosh sonini ko‘paytirish, urug’lik, o’g’it, yoqilg’i-moylash materiallari sarfini oshirish, ishlovchilar sonini ko’paytirish va shu kabilarga e’tibor beriladi.

Insoniyat tarixining dastlabki davrlaridan boshlab, insonlar o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun unumdor yerlarni o‘zlashtirib kelganlar. Yangi yerlarni o‘zgartirish hozirgi davrda bizning mamlakatimizdagi

kabi dunyoning boshqa mamlakatlarida ham davom etmoqda. Lekin, qishloq xo‘jaligida foydalanish uchun yaroqli yerlarning tabiatan cheklanganligi va ularni keskin ko‘paytirish imkoniyatlarining chegaralanganligi singari qishloq xo‘jaligini ekstensiv yo‘l orqali rivojlantirish imkoniyatlari ham cheklangan. Bundan tashqari, ekstensiv yo‘l orqali rivojlantirish ishlab chiqarish omillaridan samarali foydalanishni ta’minlamaydi. Shu bilan birgalikda dunyo mamlakatlarining rivojlanish tarixi tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning samaraliroq shakli bo‘lgan intensivlashtirish muhim o‘rin tutadi.

Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning intensiv yo‘lida mahsulot ishlab chiqarishning o‘sishi sifat omillari evaziga amalga oshadi, ya’ni ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish, ilg‘or texnologiyalar, fan-texnika taraqqiyoti natijalari, ishlab chiqarishni va mehnatni tashkil etishning zamonaviy usullarini joriy etish orqali amalga oshiriladi.

Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning intensiv yo‘li rivojlanishning ekstensiv yo‘lini inkor etmaydi. Imkoniyatlar mavjud bo‘lgan ayrim hududlarda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning ekstensiv shaklidan ham foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ekin maydonlarini kengaytirishda ekologiyaga salbiy ta’sir ko‘rsatmaslikka e’tibor berish lozim. Bunda o‘rmonlarning kesilishi, yer erroziyasi va boshqa shu kabi salbiy holatlar yuz berishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak. XX asrning 50-60-yillarida O‘zbekiston Respublikasi hududida katta maydonlarning o‘zlashtirilishi natijasida Amudaryo va Sirdaryo daryolaridan olinadigan suv miqdori keskin ko‘paydi va natijada global ekologik muammolardan biri – Orol dengizi muammoasini keltirib chiqardi. Bu kabi ekologik muammolarning kelib chiqishiga yo‘l qo‘ymagan holda qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning ekstensiv shaklidan foydalanish lozim.

Amalda bu ikki yo‘l ishlab chiqarishning rivojlanishida bir-birini to‘ldirib, pirovardida umumiy iqtisodiy samardorlikning ortishiga olib keladi. Ular yagona xo‘jalik faoliyatiga xos usullar bo‘lib, bir vaqtning o‘zida iqtisodiy o‘sishda ham miqdoriy (ekstensiv), ham sifat (intensiv)

jihatlari mavjud bo‘ladi, ammo ularning nisbati har xil mutanosiblikda bo‘ladi.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishning intensivlashtirish nazariyasi avvalo yerning xususiyatini hisobga olish, uning qishloq xo‘jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi ekanligiga asoslanadi. Ma’lumki yerning asosiy vosita sifatida muhim xususiyatlaridan biri uning cheklanganligidir. Yerning cheklanganligi o‘z navbatida qishloq xo‘jaligini intensivlashtirishni taqozo etadi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni qo‘shimcha yer maydonlarini o‘zlashtirish orqali ko‘paytirish imkoniyatlari cheklanganligi mavjud yerlarning sifatini yaxshilash, ulardan samarali foydalanish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2021-yil 1-yanvar holatiga respublikamizning doimiy aholisi soni 34,5 mln. kishini tashkil qilmoqda va 2020-yil 1-yanvar holatiga nisbatan 653,7 ming kishiga yoki 1,9 foizga ko‘paygan. Mamlakatimiz aholisi 2020-yining har oyida o‘rtacha 54,5 ming kishiga, har bir kunida esa o‘rtacha 1,8 ming kishiga oshgan. Aholi sonining ortishi oziq-ovqatga bo‘lgan talabning ham o‘sishiga olib keladi. Bundan tashqari, mamlakatimiz iqtisodiyoti yuksalib borishi bilan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini xomashyo sifatida ishlatadigan sanoat korxonalari soni va ularning ishlab chiqarish quvvatlari ham ortib bormoqda. Ushbu holatlar qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini barqaror ko‘paytirib borishni talab etadi. Ammo suv taqchilligi, ekin maydonlarining cheklanganligi talab darajasidagi qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishda jiddiy to‘siq bo‘lishi ham ta’kidlanmoqda. Bunda muammoning yechimi – qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini intensiv rivojlantirishdir.

Qishloq xo‘jaligini intensiv rivojlantirish masalalarini o‘rganishda intensivlik, intensivlashtirish darajasi va intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligi tushunchalarini bir-birdan ajratish lozim.

Intensivlik – bu qishloq xo‘jaligi va uning ayrim tarmog‘ining ma’lum vaqt ichida ishlab chiqarish vositalari bilan qay darajada ta’minlanganligini aks ettiradi. Qishloq xo‘jaligi korxonalari ishlab chiqarish vositalari bilan qanchalik yetarli darajada ta’minlangan bo‘lsa,

ularda ishlab chiqarishni intensiv rivojlantirish bo‘yicha imkoniyatlar, ya’ni intensivlik shunchalik yuqori bo‘ladi. Xo‘jalik toifalari bo‘yicha mavjud asosiy qishloq xo‘jaligi texnikalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar 18.1-jadvalda keltirilgan.

18.1-jadval

Xo‘jalik toifalari bo‘yicha mavjud asosiy qishloq xo‘jaligi texnikalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar (yil oxiriga, dona)

	2016	**2017**	**2018**	**2019**
Fermer xo‘jaliklari				
Traktorlar	34146	21831	21551	16794
Yuk avtomobillari	1894	963	1009	971
Kombaynlar:				
g‘alla o‘rib-yig‘adiganlar	1583	881	835	697
ozuqa o‘rib-yig‘adiganlar	309	295	311	379
Traktor omochlari	4279	3490	4084	3205
Seyalkalar	6432	5126	5648	4224
Kultivatorlar	13874	9302	9023	6607
Traktor-o‘rgichlar	879	845	888	942
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar				
Traktorlar	23307	12371	12677	11212
Yuk avtomobillari	5549	3086	2653	2493
Kombaynlar:				
g‘alla o‘rib-yig‘adiganlar	2128	1640	2084	1939
ozuqa o‘rib-yig‘adiganlar	174	155	123	134
Traktor omochlari	3817	2087	2712	2299
Seyalkalar	6229	3064	3163	2861
Kultivatorlar	7663	3664	3937	3247
Traktor-o‘rgichlar	436	367	359	348

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2016-2019-yillar mobaynida mamlakatimizdagi fermer xo‘jaliklarida asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi texnikalari hisoblanuvchi traktorlar, yuk avtomobillari, g‘alla o‘rib-yig‘adiganlar kombaynlar, seyalkalar, kultivatorlar soni deyarli ikki barobarga kamaygan. Bu holat tarmoqda intensivlikning pasayishiga ta’sir etmasdan qolmaydi. Shu sababli qishloq xo‘jaligini

intensiv rivojlantirish uchun tarmoqning qishloq xo‘jalik texnikalari bilan ta’minlanganlik darajasini oshirish lozim.

Qishloq xo‘jalik yerlariga solingan o‘g‘it to‘g‘risidagi ma’lumotlar 18.2-jadvalda keltirilgan.

18.2-jadval

O‘g‘it solish to‘g‘risidagi ma’lumotlar (ming tonna)

	2016	**2017**	**2018**	**2019**
Mineral o‘g‘itlar (100 foiz oziq modda hisobida)				
O‘zbekiston Respublikasi	997,0	977,2	912,0	756,8
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	33,3	35,4	30,8	28,6
Andijon	73,9	74,8	74,7	57,4
Buxoro	81,1	80,5	103,0	64,8
Jizzax	149,5	133,4	84,0	85,3
Qashqadaryo	95,6	97,8	124,6	111,3
Navoiy	30,5	29,5	30,6	22,8
Namangan	88,4	85,2	48,1	39,6
Samarqand	76,9	77,4	49,6	51,7
Surxondaryo	65,8	64,9	65,7	63,5
Sirdaryo	72,3	71,4	80,3	61,5
Toshkent	85,4	90,0	47,3	55,1
Farg‘ona	81,3	77,1	92,1	70,7
Xorazm	63,0	59,8	81,2	44,5
Organik o‘g‘itlar				
O‘zbekiston Respublikasi	19017,2	16384,0	5864,1	8186,2
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	959,2	896,3	584,7	603,9
Andijon	1455,4	1475,5	350,8	471,2
Buxoro	2508,7	2464,8	733,7	892,3
Jizzax	1248,3	1153,8	561,5	680,3
Qashqadaryo	1017,4	983,6	838,9	1119,0
Navoiy	403,5	386,8	242,6	365,4
Namangan	826,3	826,3	505,9	420,7
Samarqand	1543,9	1557,4	825,4	812,9
Surxondaryo	518,2	493,0	189,2	564,0
Sirdaryo	751,0	723,1	106,1	352,6
Toshkent	1843,5	1599,7	385,9	797,2

Farg‘ona	5031,0	2908,9	383,6	691,2
Xorazm	910,8	914,8	155,8	415,5

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, mineral o‘g‘itlar solish Qashqadaryo viloyatidan boshqa barcha viloyatlarda 2019-yilda 2016-yilga nisbatan kamayganini ko‘rishimiz mumkin. Organik o‘g‘itlar solish bo‘yicha esa Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridan boshqa barcha viloyatlarda 2019-yilda 2016-yilga nisbatan kamayganligini ko‘rishimiz mumkin. Organik o‘g‘tlar solish bo‘yicha respublika miqyosida 2018-yilda keskin pasayish kuzatilgan, ya’ni 2018-yilda 2017-yilga nisbatan 35,8 foizni tashkil etgan.

Intensivlashtirish darajasi esa qishloq xo‘jaligi va uning ayrim tarmog‘ini xolisona o‘sish sur’ati darajasini o‘zida aks ettiradi.

Mamlakatimizda qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o‘sish sur’ati 2019-yilda 3,1 foizni tashkil etgan. Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati to‘g‘risidagi ma’lumotlar 18.3-jadvalda berilgan.

18.3-jadval.

Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati, o‘tgan yilga nisbatan foizda

	2016	**2017**	**2018**	**2019**
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi yalpi mahsuloti	106,1	101,2	100,3	103,1
Shu jumladan:				
dehqonchilik mahsulotlari	105,7	98,2	95,8	104,8
chorvachilik mahsulotlari	107,0	104,1	105,7	101,6

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2019-yilda Sirdaryo viloyati (107,9%), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (107,6%) va Jizzax viloyatida (106,2%) qishloq, o‘rmon

va baliq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o‘sish sur’ati yuqori bo‘lgan. Toshkent (100,6%%), Qashqadaryo (101,2%) va Navoiy (101,4%) viloyatlarida ushbu ko‘rsatkich past bo‘lgan. Surxondaryo viloyatida esa 2019-yilda qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o‘sish sur’ati 103,1 foizni tashkil etgan.

Turlari bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o‘sish sur’ati to‘g‘risidagi ma’lumotlar 18.4-jadvalda keltirilgan.

18.4-jadval.

Turlari bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o‘sish sur’ati, o‘tgan yilga nisbatan foizda

	2016	**2017**	**2018**	**2019**
Donli ekinlar	101,1	88,2	89,7	113,8
Shu jumladan:				
bug‘doy	99,6	87,7	89,0	112,6
Paxta xomashyosi	88,0	96,5	80,3	117,8
Kartoshka	107,8	100,2	104,2	106,1
Sabzavotlar	108,5	100,4	95,5	104,7
Poliz	110,3	99,3	90,4	112,6
Meva va rezavorlar	105,9	100,1	103,5	101,7
Go‘sht	106,8	105,3	106,3	101,8
Sut	107,5	103,5	104,2	102,4
Tuxum	111,1	102,9	117,8	104,2
Jun	103,0	98,0	95,2	101,4
Qorako‘l teri	102,3	101,9	100,9	106,0
Pilla	100,2	47,4	143,5	119,3

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligi esa ekin maydoni birligi hisobiga olingan hosil, ya’ni hosildorlik darajasi hamda chorva

moli bosh soni hisobiga olingan mahsulot, ya’ni mahsuldorlik darajasi o‘sishini o‘zida aks ettiradi.

Mamlakatimizda qishloq xo‘jalik ekinlari hosildorlik darajasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar 18.5-jadvalda berilgan.

18.5-jadval.

Qishloq xo‘jalik ekinlarining hosildorligi, sentner/gektar

	2016	**2017**	**2018**	**2019**
Don	45,0	39,7	38,1	42,6
shu jumladan:				
bug‘doy	47,9	42,2	41,0	46,3
arpa	15,1	13,3	11,0	14,3
makkajo‘xori don uchun	54,2	48,1	49,0	47,2
sholi	34,4	30,9	27,6	27,5
dukkakli	17,8	15,6	13,4	13,6
Kartoshka	225,1	217,9	224,8	227,3
Sabzavotlar	271,1	253,6	237,1	235,6
Poliz	209,4	197,9	189,8	180,4
Meva va rezavorlar	134,5	118,3	121,6	118,5

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, sabzavot va poliz ekinlari bo‘yicha o‘rtacha hosildorlik darajasi so‘nggi yillarda pasayish tendensiyasiga ega.

Bundan ko‘rinadiki, mamlakatimizda qishloq xo‘jaligini intensiv rivojlantirish bo‘yicha hal etilishi lozim bo‘lgan masalalar mavjud.

Hosildorlik darajasi tarmoqda faoliyat yurituvchi tadbirkorlik shakllari bo‘yicha ham keskin farq qilishini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2019-yilda kartoshka hosildorligi respublikamiz bo‘yicha o‘rtacha gektaridan 227,3 sentnerni tashkil etgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich fermer xo‘jaliklarida 168,2 sentnerni, dehqon xo‘jaliklarida esa 237,9 sentnerni

tashkil etgan. Bu qishloq xo‘jaligida intensivlashtirish jarayonlariga e’tiborni yanada kuchaytirish lozimligini ko‘rsatadi.

2. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirishning ko‘rsatkichlari.

Qishloq xo‘jaligini intensiv rivajlantirish darajasi natura va qiymat ko‘rsatkichlari yordamida aniqlanadi. Natura ko‘rsatkichlar yordamida xo‘jalikdagi tarmoqlar va ularning bir-birlari bilan qanchalik bog‘langanligi hamda ayrim tarmoqchalar va ekin turlari bo‘yicha qancha mahsulot yetshtirilganligini aniqlash mumkin.

Qishloq xo‘jaligini intensiv rivojlantirish darajasini o‘zida aks ettiruvchi natura ko‘rsatkichlar quyidagilardan iborat:

- yer maydoniga to‘g‘ri keladigan energetik resurslar quvvati. Bu ko‘rsatkich har bir gektar yer maydoniga qancha texnika vositalari, avtomashina va boshqa qishloq xo‘jalik mashinalari to‘g‘ri kelishini ko‘rsatadi;
- har bir gektar ekinzorga to‘g‘ri keladigan meneral va mahalliy o‘g‘it. Bu ko‘rsatkich yerning iqtisodiy unimdorlik darajasiga ta’sir etish ko‘lamini o‘zida ifoda etadi;
- yer fondida ekin maydonlari hissasini ko‘paytirish. Bu ko‘rsatkich yerdan qay darajada foydalanilayotganligini ko‘rsatadi;
- sug‘orilib dehqonchilik qilinadigan yerlarning umumiy yer maydoniga nisbati. Bu ko‘rsatkich tuproqning iqtisodiy unumdorligi o‘sish darajasini ifodalaydi;

Chorvachilikning intensiv rivojlanganligini aks ettiradigan ko‘rsatkichlarning asosiylari quyidagilardan iborat:

- har bosh qishloq xo‘jaligi hayvoniga to‘g‘ri keladigan jonli va buyumlashgan mehnat sarfi. Har bir bosh hayvon hisobiga qancha ko‘p ishlab chiqarish vositalariga va bevosita mehnat xarajatlari to‘g‘ri kelsa, qoidaga muvofiq undan olinadigan mahsulot miqdori ham shuncha yuqori bo‘ladi;

- har bosh qishloq xo‘jaligi hayvoniga to‘g‘ri keladigan ozuqa. Ma’lumki, chorva mollarini ilmiy asoslangan ratsion asosida oziqlantirish ularning mahsuldorligi ortishiga olib keladi;

- chorvachilikni yuritish madaniyatini ko‘tarish: maxsus qulayliklarga ega bo‘lgan chorva binolarini barpo etish, ish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish va elektrlashtirish, sanitariya va gigiyena sharoitlarini yaxshilash va boshqalar;

- chorvachilikda naslchilik bilan bog‘liq ishlarni yaxshilash. Ma’lumki chorva mollarining nasli qanchalik yaxshi bo‘lsa, undan olinadigan mahsulot miqdori ham shuncha ko‘p bo‘ladi;

- mutaxassislarning malakasini oshirish, u mehnat unumdorligining o‘sishiga ta’sir etadi.

Intensivlashtirishning qiymat ko‘rsatkichlari esa sarflangan mehnat va mablag‘ evaziga qancha so‘mlik qo‘shimcha mahsulot yetishtirilganligini ko‘rsatadi. Qishloq xo‘jaligini intensiv rivojlanish darajasini o‘zida aks ettiruvchi qiymat ko‘rsatkichlari quydagilardan iborat:

1) bir gektar yer maydoniga to‘g‘ri kelgan ishlab chiqarish xarajatlari. Bu ko‘rsatkich quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$Id = \frac{IChX}{QXY}$$

Bu ko‘rsatkich qishloq xo‘jaligining qay darajada intensiv rivojlanganligini o‘zida aks ettiradi;

2) bir gektar yer hisobiga to‘g‘ri kelgan ishlab chiqarish asosiy vositalari qiymati. Bu ko‘rsatkich har bir gektar yer maydoni hisobiga qancha ishlab chiqarish vositalari to‘g‘ri kelishini o‘zida aks ettiradi. Ushbu ko‘rsatkich quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Id = \frac{AVq}{QXY}$$

Shunday qilib, intensivlashtirishning natura va qiymat ko‘rsatkichlari yordamida intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorlik darajasini aniqlash mumkin.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi samaradorligini oshirishning hal qiluvchi sharti har bir gektar yerdan va har bir bosh moldan olinadigan mahsulotni ko‘paytirish hisoblanadi. Intensivlashtirish jarayoni nafaqat bir gektar yerga yoki bir bosh molga qo‘shimcha mablag‘ning o‘sishini bildirib qolmasdan, balki ulardan samarali foydalanishni ham bildiradi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligi sarflangan xarajatlar hajmiga taqqoslaganda har bir gektar yerdan arzon va yuqori sifatli mahsulotni yuqori sur’atda olishda ifodalanadi.

Qishloq xo‘jaligini intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish, yer, moddiy texnika va mehnat resurslaridan faol foydalanish, tabiiy va iqtisodiy sharoitlarni har tomonlama hisobga olishni talab qiladi. Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga sarflanadigan xarajatlar oqilona sarflanishi kerakki, bunda xo‘jalik har bir birlik xarajat evaziga ko‘proq mahsulot va maksimum foyda olishi kerak.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligi ko‘rsatkichlar tizimi orqali aniqlanadi. Ular orasida muhimlari quyidagilar:

1) bir gektar yer maydonga to‘g‘ri kelgan yalpi mahsulot:

$$Si = \frac{YM}{QXY}$$

Xo‘jalikning yalpi mahsuloti taqqoslama baholarda baholanadi. Bunday baholanish ushbu ko‘rsatkichni dinamikada, shuningdek bir xil sharoitda ishlaydigan qator xo‘jaliklar faoliyatini taqqoslashni o‘tkazishda foydalanish imkonini beradi. Hosildorlikning oshishi va bir vaqtning o‘zida unga sarflangan tannarxning pasayishi intensivlashtirish samaradorligining yuqori darajada ekanligini bildiradi. Bunday holatda yerga sarf qilingan har bir so‘m nafaqat xarajatlarni qoplaydigan qo‘shimcha mahsulot olib kelmasdan, balki qo‘shimcha sof daromad olish imkonini ham beradi.

2) bir gektar qishloq xo‘jaligiga yaroqli yerga to‘g‘ri kelgan yalpi daromad:

$$Si = \frac{YD}{QXY}$$

Bu ko‘rsatkich ancha takomillashgan ishlab chiqarish vositalarida, ilg‘or texnologiyada, qishloq xo‘jaligi ekinlarining samarali navi va mollar zoti hamda boshqalarda bajarilgan, qo‘shimcha mablag‘lardan ancha oqilona foydalanishni aks ettiradi.

3) bir gektar qishloq xo‘jaligiga yaroqli yerga to‘g‘ri kelgan sof foyda:

$$Si = \frac{SF}{QXY}$$

Bu ko‘rsatkich alohida ahamiyatga ega. Modomiki, sof daromad qo‘shimcha qo‘yilmalarning asosiy manbai hisoblanar ekan, u holda kelgusida ishlab chiqarishni kengaytirish va mustahkamlash uning hajmiga bog‘liq. Qishloq xo‘jaligini izchillik bilan intensivlashtirish qo‘shimcha mablag‘larning ancha yuqori, tez qaytarilishiga va mos ravishda sof daromadning o‘sishiga olib keladi.

4) bir birlik mehnat sarfi hisobiga ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot (yalpi va sof daromad) hajmi:

$$Si = \frac{YM}{MS}$$

5) bir birlik asosiy va aylanma ishlab chiqarish fondlari hisobiga olingan yalpi mahsulot (yalpi va sof daromad):

$$Si = \frac{YM}{AsF + AyF}$$

Shunday qilib, qishloq xo‘jaligini intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligi bir gektar yerdan ishlab chiqariladigan mahsulotning ko‘payishida, mahsulot birligiga sarflangan jonli va buyumlashgan mehnat xarajatlarining pasayishida o‘z aksini topadi.

Qishloq xo‘jaligini intensivlashtirish, uning yo‘nalishiga, sur’atiga va samaradorligiga ta’sir ko‘rsatadigan ko‘p omillarga bog‘liq. Qishloq xo‘jaligini intensivlashtirishda muhim rol qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida fan-texnika taraqqiyotini rivojlantirishga tegishli. U o‘z ichiga nafaqat mashina texnikasidagi taraqqiyotni, balki ishlab chiqarishni tashkil qilish va texnologiyasidagi, fanni rivojlantirishdagi, ilg‘or tajribadan foydalanishdagi taraqqiyotni ham oladi.

Tuproqni ishlashni yaxshilash, qo‘shimcha organik va mineral o‘g‘itlar solish, meliorativ ishlarni o‘tkazish, barcha kompleks agrotexnik tadbirlarni bajarish tuproqning iqtisodiy unumdorligini oshirishga, dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni o‘stirishga imkon beradi.

3. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirishning asosiy omillari.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirish ko‘p jihatli jarayon bo‘lib, hozirgi sharoitda qishloq xo‘jaligini intensivlashtirishning quyidagi omillari muhim ahamiyat kasb etadi:

1) tarmoqda bozor munosabatlarni takomillashtirish. Qishloq xo‘jaligini yuksaltirishni birlamchi masalalaridan biri qishloqda bozor munosabatlarini takomillashtirish, qishloq xo‘jaligida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlarida mahsulot tannarxini pasaytirish, yuqori sifatli mahsulotlar yetishtirish hajmini ko‘paytirishga intilish hissini uyg‘otish, buning uchun ularda yerga nisbatan egalik huquqini qaytarish, o‘zaro munosabatlarini bozor tamoyillari asosida tashkil etish lozim. Qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosida – tarmoqda faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlariga mustaqil harakat etish, tadbirkorlik va tashabbuskorligini amalga oshiririshga zamin yarata oladigan xo‘jalik yuritishning turli mulkchilikka va shakliga asoslangan muhitni yaratishdir.

2) yetishtirilgan mahsulotlarni saqlash, ularning nobudgarchiligi oldini olish. Qishloq xo‘jaligining mavsumiylik xususiyati unga mutanosib holda ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlanishiga bo‘lgan talabni yanada oshiradi. Tarmoqda turli xo‘jalik yuritish va mulkchilik shakllarini keng rivojlantirish orqali ishlab chiqarilgan mahsulotlarni saqlash, qayta ishlash shaxobchalarini tashkil etish imkoniyatlari yuzaga keladi. Mahsulotlarni saqlash tizimini rivojlantirish qishloq xo‘jalik mahsulotlari pishadigan mavsumda narxlarning keskin pasayishining oldini oladi. Buning natijasida qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning me’yor darajasida sof foydaga erishishi va buning

natijasida mazkur mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirilgan takror ishlab chiqarish shaklida davom ettirish imkonini beradi, ishlab chiqarishni intensivlashtirishdan moddiy manfaatdorligini ta’minlaydi. Shu bilan birga bu qish-bahor oylarida qishloq xo‘jalik mahsulotlari narxining keskin ko‘tarilib ketishining oldini ham holadi.

3) qishloq xo‘jaligini kimyolashtirish. Ishlab chiqarishni kimyolashtirishning asosida yerning unumdorligini oshirish orqali o‘simlikchilik va chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishni ko‘paytirishga qaratilgan tadbirlar yotadi. Jumladan, hosildorlikni oshirishga qaratilgan mineral o‘g‘itlarni qo‘llash tadbirlari, kimyoviy vositalar yordamida begona o‘tlarga qarshi kurashish tadbirlari, o‘simlik va chorva mollari zararkunandalari va kasalliklariga qarshi kurashishda kimyoviy vositalardan foydalanish, chorva ozuqalarining to‘yimligini oshirishda kimyoviy vositalarning keng ko‘lamda qo‘llanishiga qaratilgan tadbirlar.

4) qishloq xo‘jaligini melioratsiyalash. Qishloq xo‘jaligida sug‘orish, zax qochirish, sho‘rni yuvish tadbirlarini o‘z vaqtida, sifatli amalga oshirish intensiv rivojlanishda muhim omillar jumlasiga kiradi.

5) resurs talabchanligi kam bo‘lgan intensiv texnologiyalarni qo‘llash. Resurs tejamkor texnologiyalarni qo‘llash muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat: suv tejovchi sug‘orish usullaridan foydalanish, zamonaviy, tejamkor va mehnat unumdorligi yuqori qishloq xo‘jalik texnikalaridan foydalanish orqali agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish muddatlarini qisqartirish va sifatini oshirish, yerdan va boshqa asosiy vositalardan samarali foydalanishni ko‘zda tutadigan ishlab chiqarishni joylashtirishning ratsional sxemalarlarini ishlab chiqish va boshqalar.

6) qishloq xo‘jalik ekinlarining yuqori hosilli, kasalliklarga chidamli, mahalliy sharoitlarga mos navlarini ishlab chiqarishga tatbiq etish;

7) chorva mollarining yuqori mahsuldorlik ko‘rsatkichlariga ega, kasalliklarga chidamli, mahalliy sharoitlarga mos zotlarini ishlab chiqarishga tatbiq etish;

8) chorva mollarini saqlash va boqish yo‘nalishlarda intensiv texnologiyalarni joriy etish. Chorvachilikda texnologiyalarni

takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari: chorva mahsulotlari ishlab chiqarishni sanoat asosiga o‘tkazish, chorva mollarining tarkibi sifatini va ularning ozuqa bazasini yaxshilash. Chorvachilikni rivojlanishida uning mustahkam ozuqa bazasini yaratish muhim bo‘lib, ozuqa tarkibi, miqdori va uning sifatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

9) ishlab chiqarishni joylashtirish va ixtisoslashtirishni takomillashtirish. Fan- texnika taraqqiyoti ta'sirida qishloq xo‘jalik ishlab chiqarish kuchlarini rivojlanishi va ijtimoiy mehnat taqsimotining chuqurlashuvi tinimsiz yuksala boradi. Shu bilan birga iqtisodiy asoslangan qishloq xo‘jalik korxonalarining optimal katta- kichikligi, ularni mehnatga muvofiq ixtisoslashuviga, dehqonchilik va chorvachilik madaniyatini ko‘tarishga, fan-texnika yutuqlarini amaliyotga tatbiq etilishiga zamin yaratilib, natijada mahsulot yetishtirishni samaradorligini oshirishga erishiladi.

10) mutaxassislarning malakasini oshirish. Qishloq xo‘jaligiga fan yutuqlarni tatbiq etishda kadrlarni mutaxasislik saviyasini va texnik tayyorgarlik darajasini oshirmay turib erishish mumkin emas. Qishloq xo‘jaligida mutaxasislarning malakasini oshirish deganda birinchidan, mutaxassislarga murakkab va ilgari amalga oshira olmagan ishlarni bajarish uchun zamonaviy kasblarni egallashiga zamin yaratish, ikkinchidan nisbatan yuqori sifatga ega bo‘lgan mahsulot olish, uchinchidan ma’lum bir vaqt oralig‘i davomida avvaldagidan ko‘proq mahsulot yetishtirishga imkon yaratish nazarda tutiladi.

11) ishlab chiqarishga fan-texnika yutuqlari va innovatsiyalarni tatbiq etish. Hozirgi sharoitda qishloq xo‘jaligini intensivlashtirish sur’atlarini oshirish va uning samaradorligini ko‘tarishda ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Fan-texnika sohalaridagi yutuqlar ishlab chiqarish kuchlarini yanada yuksaltiruvchi muhim omil bo‘lib, ishlab chiqarish resurslari qatorida ishlab chiqarish jarayonlarida ishtiroq etadi. Qishloq xo‘jaligini intensivlashtirishda amaliyotda mavjud bo‘lgan ilg‘or tajribalar natijasini tahlil qilish va ularni ishlab chiqarishga keng tatbiq qilinishi katta ahamiyat kasb etib,

mahsulot ko‘lamini ko‘payishiga va ishlab chiqarish samaradorligining o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Qishloq xo‘jaligida ayrim tadbirlar bir vaqtning o‘zida ham ekstensiv, ham intensiv rivojlanishga ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, hozirgi vaqtda mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida mavjud bo‘lgan sug‘orish tizimida 40 foizga yaqin suv yo‘qotilmoqda. Ushbu sug‘orish tizimining holatini yaxshilash orqali mavjud suvlardan foydalanish samaradorligi oshadi, ya’ni qishloq xo‘jaligining intensiv yo‘lda rivojlanishiga olib keladi. Sug‘orish tizimining holatini modernizatsiyalash orqali tejab qolingan suv o‘z navbatida yangi yerlarni o‘zlashtirish imkonini ham beradi.

Qishloq xo‘jaligini intensivlashtirish samaradorligini oshirish yo‘llari quyidagilar:

- qishloq xo‘jaligida fan-texnika taraqqiyotini rivojlantirish;
- qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida investisiya va kapital qo‘yilmalarning o‘sishini ta’minlash;
- qishloq xo‘jaligi moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;
- ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizasiyalashtirish darajasini oshirish;
- qishloq xo‘jaligini kimyolashtirishni rivojlantirish (mineral o‘g‘itlar solish va o‘simliklarni kimyoviy himoya qilish vositalarni qo‘llash);
- qishloq xo‘jaligini meliorasiyalash (sug‘orish, zaxini qochirish, boshqa ishlarni rivojlantirish);
- qishloq xo‘jaligi uchun kadrlar tayyorlashni takomillashtirish.

Intensivlashtirishni izchillik bilan amalga oshirishning muhim sharti qishloq xo‘jaligiga ajratilgan kapital quyilmalarning o‘sishidir.

Qisqacha xulosalar

Qishloq xo‘jaligining rivojlanishi kengaytirilgan takror ishlab chiqarish qonuni asosida amalga oshadi va ekstensiv va intensiv yo‘llaridan foydalaniladi. Ekstensiv shaklidagi qishloq xo‘jaligini rivojlantirish deganda mahsulot ishlab chiqarish va samaradorlikni o‘sishini miqdoriy omillar evaziga - yangi yerlarni o‘zlashtirish hisobiga ekin maydonlarini ko‘paytirish, chorva mollarini bosh sonini ko‘paytirish va qo‘shimcha ishlovchilarni jalb etish orqali erishilishi tushuniladi.

Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishni intensiv shaklida mahsulot ishlab chiqarishning o‘sishi sifat omillari evaziga, ya’ni nisbatan takomillashgan zamonaviy ishlab chiqarish resurslarini tatbiq etish (ulardan to‘la va samarali foydalanish), o‘simlikchilik va chorvachilikning mahsuldorligiga ijobiy ta’sir etuvchi ilg‘or texnologiya, fan-texnika taraqqiyoti natijalari, ishlab chiqarishni va mehnatni tashkil etishning zamonaviy usullarini joriy etish orqali amalga oshiriladi. Ular yagona xo‘jalik faoliyatiga xos usullar bo‘lib, bir vaqtning o‘zida iqtisodiy o‘sishda ham miqdoriy (ekstensiv), ham sifat (intensiv) jihatlari mavjud bo‘ladi, ammo ularning nisbati har xil mutanosiblikda bo‘ladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Intensiv rivojlanishning mohiyati nimadan iborat?
2. Ekstensiv rivojlanish deganda nimani tushunasiz?
3. Intensivlashtirishning mohiyatini tushuntiring.
4. Qishloq xo‘jaligini intensivlashtirishning zaruriyati nimadan iborat?
5. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishning intensivlashtirish nazariyasi nimaga asoslanadi?
6. Qishloq xo‘jaligini intensivlashtirishning qanday omillari mavjud?
7. Intensivlik deganda nimani tushunasiz?
8. Qishloq xo‘jaligini intensiv rivojlantirish darajasi qanday ko‘rsatkichlar orqali ifodalanadi?
9. Qishloq xo‘jaligini intensivlashtirish samaradorligini oshirishning qanday yo‘llari mavjud?

BOB YUZASIDAN AMALIY TOPSHIRIQLAR:

1-topshiriq:

“Baliq skeleti” usuli yordamida “Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirishning asosiy omillari nimalardan iborat?” savoliga javob beriladi.



2-topshiriq:

Klaster usuli yordamida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirishning ko‘rsatkichlarini yoritib berish.



3-topshiriq:

Nilufar guli usuli yordamida qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida intensivlashtirish darajasining pastligiga ta’sir etuvchi omillar va ularni bartaraf etish yo‘llarini tahlil qilish.

	B	

	C	

	D	

	I	

B	**C**	**D**
I	**A**	**E**
H	**G**	**F**

	E	

	H	

	G	

	F	

Nilufar guli - muammoni yechish yo‘llarini ko‘rsatib beruvchi usuldir. O‘zida nilufar guli ko‘rinishini namoyon qiladi. Uning asosini to‘qqizta to‘g‘ri to‘rtburchak tashkil etadi. Bunda A – qo‘yilayotgan asosiy muammo, ya’ni qishloq xo‘jaligida intensivlashtirish darajasining pastligi; B,C,D,E,F,G,H,I – esa ushbu muammoga ta’sir etuvchi omillar, har bir omil alohida olinib, uni hal etish yo‘llari yozib chiqiladi. Ushbu usul tizimli fikrlash, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi va faollashtiradi.

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Ishlab chiqarishni intesiv rivojlantirishning mohiyati va ahamiyati.
2. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirishning ko‘rsatkichlari.
3. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirishning asosiy omillari.

19-BOB. QISHLOQ XO‘JALIGINI IXTISOSLASHTIRISH VA INTEGRATSIYALASHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH

1. Qishloq xo‘jaligini joylashtirish va ixtisoslashtirish tushunchalari, ularning ilmiy asoslari.
2. Ixtisoslashtirishning shakllari, ko‘rsatkichlari va samaradorligini oshirish imkoniyatlari
3. Qishloq xo‘jaligida integratsiyalashuvning mohiyati, ahamiyati va turlari.

Tayanch iboralar: tarmoq tarkibi, ishlab chiqarishni joylashtirish, ixtisoslashuv, tarmoqlarni integratsiyalash, konsentratsiyalash, ixtisoslashtirish shakllari, ixtisoslashtirish ko’rsatkichlari, ijtimoiy mehnat taqsimoti.

1. Qishloq xo‘jaligini joylashtirish va ixtisoslashtirish tushunchalari, ularning ilmiy asoslari.

Qishloq xo‘jaligini joylashtirish va ixtisoslashtirish ijtimoiy mehnat taqsimotining turli shakllarini o‘zida namoyon etadi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ishlab chiqarishning iqtisodiy va tabiiy jarayonlarini o‘zida aks ettiradi hamda ushbu tarmoqda mehnatning ijtimoiy taqsimoti jarayoniga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundan iboratki, bunda ishchilar mehnat jarayonida turli qishloq xo‘jaligi texnikalari va boshqa shu kabi mehnat vositalari bilan bir qatorda tirik organizmlar bilan ham ishlashiga to‘g‘ri keladi. Shu sababli qishloq xo‘jaligida mehnat taqsimotini sanoat tarmog‘idagi singari mehnat taqsimotining ishlab chiqarish jarayonlari, mahsulotning alohida detallari bo‘yicha amalga oshirilgani singari chuqur amalga oshirib bo‘lmaydi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining tuproq va iqlim sharoitlari bilan uzviy bog‘liqligi mehnatning geografik jihatdan ham taqsimlanish zaruriyatini keltirib chiqaradi va bu xususiyat uning joylashishida o‘z ifodasini topadi.

Ishlab chiqarishni joylashtirish – bu qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish maqsadida mamlakat hududlarining tabiiy-iqtisodiy va ekologik omillarini hisobga olgan holda, ularda u yoki bu turdagi qishloq xo‘jaligi ekini yoki chorva mollari turini hamda ularga ko‘rsatiladigan xizmatni mos holda joylashtirishdir. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini joylashtirish ijtimoiy mehnat taqsimotini miqdor tomondan ko‘rsatib, mamlakat hududlarida joylashgan har bir xo‘jalik, tuman, viloyat qaysi turdagi qishloq xo‘jalik ekinlarini ekishini, chorva mollar turini saqlashni va ularga mos bo‘lgan xizmatni ko‘rsatishini aniqlab beradi.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini joylashtirishda quyidagi omillarga e’tibor berish lozim:

- yirik sanoat markazlari va shaharlar talabini hisobga olish;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining o’ziga xos xususiyatlari (saqlash uchun noqulayligi, sifati tez buzilish, tashish qiyinchiligi va hokazo);
- mahsulot yetishtirish uchun sarflanadigan xomashyo manbalariga yaqinlashtirish;
- transport vositalari hamda yo‘llar holati;
- qishloq xo’jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi, saqlovchi va sotuvchi korxonalarning joylashishi va rivojlanish darajasi;
- mintaqa aholisi, mehnat resurslari, mehnat malakasi, kasbi va bo‘sh ish o‘rinlarining mavjudligi.

Qishloq xo‘jaligi mintaqasi yoki alohida korxonaning ixtisoslashuvi esa asosiy tarmoqni belgilab olish va uning rivojlanishi uchun ustuvor rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratishni nazarda tutadi. U qishloq xo‘jalik mintaqasi yoki xo‘jalikning ishlab chiqarish yo‘nalishini va tarmoq tarkibini tavsiflaydi.

Qishloq xo‘jaligining tarmoq tarkibi yalpi va tovar mahsuloti tarkibida alohida tarmoqlarning salmog‘i bilan tavsiflanadi va quyidagicha hisoblanadi:

$$TT = \frac{TYMQ}{QXYaM} \times 100$$

Bunda: TT - tarmoq tarkibi, foizda;

TYMQ – tarmoqlarda (o‘simlikchilik yoki chorvachilik) yetishtirilgan mahsulot qiymati;

QXYaM – qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining umumiy yalpi mahsuloti qiymati.

Ixtisoslashtirilgan qishloq xo‘jaligi tovar mahsulotlari ishlab chiqarishning asosi hisoblanadi. Shuning uchun qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining ixtisoslashtirish yo‘nalishi ularda yetishtirilgan tovar mahsulotining tarkibiga qarab aniqlanadi. Ma’lumki, xo‘jaliklarda faqatgina tovar mahsuloti yetishtirilmasdan, urug‘lik, chorva uchun yem, sut, inkubatsiya uchun tuxum va shunga o‘xshash mahsulotlar ham yetishtiriladiki, ular yalpi mahsulot tarkibida o‘z ifodasini topadi va aniqlanadi.

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligining tarmoq tarkibi to‘g‘risidagi ma’lumotlar 19.1-jadvalda keltirilgan.

19.1-jadval

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligining tarmoq tarkibi, foizda

	2016	**2017**	**2018**	**2019**
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsuloti	100	100	100	100
shundan:				
dehqonchilik, foizda	51,6	53,9	50,4	49,9
chorvachilik, foizda	45,0	42,0	45,6	46,5

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘miasi ma’lumotlari asosida mualliflar tomonidan hisoblangan.

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi tarkibida o‘simlikchilik tarmog‘ining ulushi so‘nggi yillarda kamaymoqda, shunga mutanosb ravishda chorvachilik tarmog‘ining ulushi esa ortmoqda.

Har bir qishloq xo‘jaligi korxonasida bir necha tarmoqlar mavjud bo’lib, ular orasida korxonaning asosiy yo‘nalishini ifoda etuvchi tarmoq bo‘ladi. U yoki bu qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirishga

nafaqat qishloq xo‘jaligi korxonasi, balki tuman, viloyat, iqtisodiy hudud va zonalar ixtisoslashishi mumkin. Ko‘rinib turibdiki, ixtisoslashish ma’lum mazmunda joylashish bilan bog‘liq bo‘lib, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining mamlakat hududida joylashishini, ya’ni ijtimoiy mehnat taqsimoti shaklini ifoda qiladi. Ixtisoslashtirish va joylashtirish bir jarayonning ikki tomonini aks ettirib, ixtisoslashtirish bu jarayonning sifat tomonini, ya’ni birinchi navbatda, qanday mahsulot yetishtirishni, joylashtirish esa uning miqdor tomonini, ya’ni u yoki bu mahsulotdan qancha yetishtirishni anglatadi.

Ixtisoslashuviga ko‘ra qishloq xo‘jaligi korxonalaridagi tarmoqlar asosiy, qo‘shimcha va xizmat ko‘rsatuvchi tarmoqlarga bo‘linadi.

Asosiy tarmoq deb, qishloq xo‘jaligi yalpi va tovar mahsulotida yuqori salmoqni egallagan tarmoqqa aytiladi. Asosiy tarmoq korxonaning ixtisoslashishini aniqlaydi. Qo‘shimcha tarmoq yalpi va tovar mahsuloti ishlab chiqarishda asosiy tarmoqqa nisbatan kamroq salmoqqa ega bo‘ladi. Asosiy va qo‘shimcha tarmoqlar o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘ladi va bir-birini to‘ldiradi. Ularni o‘zaro uyg‘un holda yuritib borish mavjud resurslardan samaraliroq foydalanishni ta’minlaydi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarida o‘simlikchilik va chorvachilikka xizmat ko‘rsatuvchi tarmoqlar – transport xizmati, ta’mirlash xizmati, ombor xo‘jaligi va boshqalar ham faoliyat ko‘rsatadi. Xizmat ko‘rsatuvchi tarmoqlar tarkibiga qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan bo‘linmalar, qurilish brigadalari, qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi bo‘linmalar va boshqalarni ham kiritish mumkin.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish – bu xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatlarini, talab va taklifdan kelib chiqqan holda, mavjud resurslardan samarali foydalanib, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarni yetishtirishga yo‘naltirishdan iboratdir. Korxonaning u yoki bu turdagi mahsulotni (paxta, don, qand lavlagi, go‘sht, sut, tuxum, jun va boshqalar) ishlab chiqarishdagi ishtirokini belgilab beradi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarining ixtisoslashishi avvalombor asosiy tarmoqni rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatib, kompleks mexanizatsiya-lashtirish, avtomatlashtirish, yangi navlarni joriy etish, yuqori mahsuldor

nasldor mollarni ko‘paytirish, intensiv texnologiyalar qo‘llash va hokazolarni amalga oshirishni taqozo etadi. Biroq, xo‘jaliklar ixtisoslashishining iqtisodiy samaradorligini yuqori darajasiga asosiy, yordamchi va xizmat qiluvchi tarmoqlarni bir-biriga mutanosib rivojlantirish orqaligina erishish mumkin.

Ixtisoslashtirish darajasiga ko‘ra xo‘jaliklar quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

- tor ixtisosli xo‘jaliklar;
- ixtisoslashgan xo‘jaliklar;
- ko‘p ixtisosli (tarmoqli) xo‘jaliklar.

Birinchi guruhga qoidaga asosan tarkibida bitta tarmog‘i bo‘lib, uning tovar mahsulot strukturasidagi ulushi 90-100 foizni tashkil qilgan xo‘jaliklar kiradi (parrandachilik fabrikasi, issiqxonalar, mevali daraxtlar ko‘chatini yetishtiruvchi va shunga o‘xshash xo‘jaliklar kiradi).

Tor ixtisosli xo‘jaliklarning bir qator ijobiy tomonlari bilan bir qatorda ma’lum kamchiliklarga ham ega. Tor ixtisosli xo‘jaliklarda tabiiy-iqlim sharoitlari (qurg‘oqchilik, kuchli sovuq) ta’sirida yetishtirayotgan mahsulot hajmi keskin qisqarishi yoki bozor konyunkturasidagi o‘zgarish sababli mahsulotning narxi keskin tushib ketgan holatlarda korxona iqtisodiy nochor ahvolga tushib qolishi mumkin. Shu sababli bir turdagi mahsulot yetishtirishga chuqur ixtisoslashuv iqtisodiy tomondan o‘zini oqlamasligi mumkin. Masalan, 2021-yilda erta bahorda sovuq bo’lishi natijasida o’rik hosili keskin kamaydi, bahorda yog’ingarchilik juda kam bo’lganligi uchun yaylovlarda chorva ozuqasi juda kam bo’lishi chorvachilik tarmog’i rivojiga salbiy ta’sir ko’rsatdi, piyoz juda ko’p yetishtirilganligi sababli uning narxi juda arzon shakllandi va hokazo. Shunday holatlarda bitta mahsulot yetishtirishga tor doirada ixtisoslashgan xo’jaliklar qiyin holatga tushib qolishi mumkin.

Ikkinchi guruhning tarkibiga hozirda nisbatan keng tarqalgan, tarkibida asosiy, yordamchi va xizmat qiluvchi tarmoqlar mavjud bo‘lgan xo‘jaliklar kiradi. Bu guruhdagi xo‘jaliklar tarkibida asosiy tarmoqlarning soni va ularning katta-kichikligiga qarab uchga bo‘linadi:

a) tarkibida bitta asosiy tarmoq bo‘lib, uning tovar mahsulotidagi ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan xo‘jaliklar kiradi (paxtachilik, sabzavotchilik, bog‘dorchilik, chorvachilik va hokazo);
b) tarkibida ikkita asosiy tarmoq bo‘lib, ularning har birining tovar mahsulotidagi salmog‘i 20 foizdan kam bo‘lmay, birgalikda tovar mahsulotining yarmidan ko‘proq qismini tashkil qilgan xo‘jaliklar kiradi (don-paxtachilik, don-chorvachilik, sabzavot-polizchilik, bog‘dorchilik-uzumchilik va hokazo);
d) tarkibida uchta asosiy tarmoq bo‘lib, ular xo‘jalik tovar mahsulotini to‘rtdan uch qismini tashkil qilgan hamda tarkibida bir nechta yordamchi tarmoqlar bo‘lgan xo‘jaliklar kiradi (don-paxta-chorvachilik, don-kartoshka-chorvachilik va hokazo).

Xo‘jaliklardagi mavjud asosiy tarmoqlarga qarab uning ixtisoslashishini yuritish qabul qilingan. Ba’zi ixtisoslashgan xo‘jaliklarda asosiy tarmoq mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash kabi xizmat qiluvchi tarmoqlar keng rivojlanishi ham mumkin. Bular meva, uzumni, chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlovchi tarmoqlar kabilardir. Ushbu guruhga (ko‘p tarmoqli xo‘jaliklarga) - tarkibida ko‘p sonli qishloq xo‘jaligi tarmoqlari mavjud bo‘lgan va yaqqol ko‘rinadigan ixtisosga ega bo‘lmagan xo‘jaliklar kiradi. Bu xo‘jaliklarda tarmoqlarning kamaytirilishi va ixtisoslashtirishning chuqurlashishi natijasida ixtisoslashgan xo‘jaliklar guruhiga o‘ta boradilar.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida bir nechta tarmoqlarni qo‘shib olib borish ishlab chiqarishning mavsumiyligini pasaytiradi, mehnat, yer, moddiy resurslaridan to‘laroq foydalanish imkoniyatini beradi, ishlab chiqarish vositalari va mehnat xarajatlari notekisligini kamaytiradi. Tarmoqlarni oqilona qo‘shib olib borish yil davomida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va pul vositalarini bir tekis kelib tushishi imkonini beradi, xo‘jaliklar iqtisodiyotiga samarali ta’sir ko‘rsatadi, ularning moliyaviy holatini yaxshilaydi.

Qishloq xo‘jaligida tarmoqlarni oqilona joylashtirishdan ko‘zlangan asosiy maqsadlar quyidagilar:

- resurs potensialidan - yer, suv, mehnat va moddiy resurslardan samarali foydalanish;

- mahsulot birligi hisobiga minimal darajada mehnat xarajatlari va vositalar sarflab maksimal miqdorda mahsulot olishni ta’minlash;
- ishlab chiqarishning mavsumiyligini kamaytirish, yil davomida texnika va ish kuchidan to‘liqroq foydalanish;
- yil davomida aylanma vositalarning aylanishini va pul vositalarning bir tekis kelib tushishini ta’minlash va hokazo.

Qishloq xo‘jaligini iqtisodiy asoslangan holda joylashtirish quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

- bozor talabini hisobga olish. Qishloq xo‘jaligida bozor munosabatlarini joriy qilish qishloq xo‘jaligini ixtisoslashtirish va konsentratsiyalash jarayonini o‘zgartirish, ishlab chiqarishni tashkil qilishning progressiv shakliga o‘tish, zarar keltiradigan mahsulot ishlab chiqarishdan voz kechish;
- moddiy va mehnat resurslarini tejagan holda yalpi mahsulotni ko‘paytirish mumkin bo‘lgan mintaqada ishlab chiqarishni joylashtirish;
- tabiiy-iqlim sharoitlarini inobatga olgan holda ishlab chiqarishni joylashtirish;
- mehnat resurslaridan samarali foydalanish;
- transportning barcha turlarini rivojlantirish;
- qishloq xo‘jaligi va sanoat o‘rtasida to‘g‘ri mutanosiblikni ta’minlash;
- sanoat korxonalarini xomashyoga qishloq xo‘jaligi korxonalarini esa ularning mahsulotlari iste’molchilariga yaqinlashtirish;
- fan-texnika taraqqiyoti va moddiy-texnika bazani takomillashtirish;
- mamlakatning iqtisodiy va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash.

Qishloq xo‘jaligini joylashtirish va ixtisoslashtirish ijtimoiy mehnat taqsimotining turli ko‘rinishlaridir. Joylashtirish - alohida turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni respublika mintaqalarida, ayrim viloyat, tumanlar va korxonalar bo‘yicha miqdoriy taqsimlashni bildiradi. Qishloq xo‘jaligini joylashtirish uni ixtisoslashtirish bilan chambarchas bog‘langan. Ixtisoslashtirishni amalga oshirishda mintaqa va korxonalarning tabiiy va iqtisodiy sharoitlarini hisobga olish muhimdir. Natijada qishloq xo‘jaligi ishlab

chiqarishini oqilona joylashtirish ta’minlanadi. Qishloq xo‘jaligi hududlarini yoki alohida korxonalarni ixtisoslashtirish asosiy tarmoqni ajratib olish va uning rivojlanishiga sharoit yaratishdir. Ixtisoslashtirish ishlab chiqarish yo‘nalishini tavsiflaydi va hudud yoki xo‘jalikning tarmoq tarkibini aniqlaydi.

Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni ixtisoslashtirishning iqtisodiy ahamiyati quyidagilardan iborat:

- ishlab chiqarishning asosiy vositasi - yerdan samarali foydalanish uchun sharoit yaratadi. Shu asosda dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining miqdorini ko‘paytiradi va sifatini yaxshilaydi;
- ixtisoslashtirish qishloqda mehnat resurslaridan yanada samaraliroq foydalanishga imkoniyat yaratadi. Dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlarida xodimlarning professional tarkibini o‘zgartiradi, kadrlarning malakasini va mehnat unumdorligini oshiradi;
- ixtisoslashtirish kapital qo‘yilmalar va asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini oshirishning hal qiluvchi sharti hisoblanadi. Ishlab chiqarishga fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini va ilg‘or tajribalarni joriy qilishga imkoniyat yaratadi;
- ixtisoslashtirish tovar mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini pasaytirish hamda rentabellikni oshirishga sharoit yaratadi va hokazo.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarining ixtisoslashuviga turli omillar ta’sir ko‘rsatadi. Ulardan biri korxonaning tabiiy-iqlim sharoiti va geografik joylashuvidir. Cho‘l zonalarda, tabiiy yog‘ingarchilik juda kam hududlarda suvni kam talab etadigan sohalar rivojlantiriladi. Shuning uchun cho‘l zonalarida joylashgan korxonalar qo‘ychilik, shuningdek, qorako‘lchilik yo‘nalishiga, tog‘ yonbag‘rida joylashgan korxonalar bog‘dorchilikka ixtisoslashgan. Bundan tashqari, ayrim hududlarning tabiiy-iqlim sharoitlari biror turdagi qishloq xo‘jaligi mahulotini yetishtirish uchun qulay bo‘ladi. Masalan, Surxondaryo viloyatining ayrim tumanlari tabiiy-iqlim va tuproq shariotlari anor yetishtirish uchun qulaydir. Shuni inobatga olgan holda hukumatimiz tomonidan viloyatda anorchilikni rivojlantirishga alohida e’tibor berilmoqda. 2021-2022-yillarda Surxondaryoda 9432 gektar yerda

anorzorlar barpo etilishi va yillik hosil hajmini yaqin kelajakda 300 ming tonnaga yetkazish ko‘zda tutilgan. Ayniqsa Sherobod tumanida yetishtiriladigan anorlar o‘zining mazasi, tashqi ko‘rinishi va hosildorligi bilan ajralib turadi. Shu bois uning bozori chaqqon, dovrug’i chet ellarga ketgan. Tumanda 48 ta mahallaning 33 tasi anor yetishtirishga ixtisoslashgan. Hozirgi vaqtda Sherobod tumanida yiliga 30 ming tonna anor yetishtiriladi. Shundan 8 ming tonnasi eksportga chiqarilmoqda. Yaqingacha tumanda 2400 gektar anorzor bor edi. So‘nggi yillarda tumandagi anor yetishtirish uchun mavjud qulay sharoitdan unumli foydalanish maqsadida paxta va g‘alla maydonlari o‘rnida fermer xo‘jaliklari va tadbirkorlar tomonidan anor bog‘lari tashkil etishga e’tibor kuchaymoqda. 2021-yilda Sherobod tumanida besh ming, Muzrabot tumanida ikki ming va Qiziriq tumanida ming gektar yerda anor plantatsiyalari tashkil etilmoqda. Bundan tashqari, tumanda “Sherobod anor impeks” korxonasi ham tashkil etilgan. 5 million dollarlik mazkur loyiha natijasida anorni qadoqlash va qayta ishlash yo‘lga qo‘yilgan. Uskunalar Janubiy Koreya va Sloveniyadan keltirilgan. Korxona 6 ming tonna qadoqlash, 2 ming tonna anor sharbati ishlab chiqarish quvvatiga ega.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarining ixtisoslashuviga ta’sir etuvchi muhim omillardan yana biri – xo‘jalik joylashgan hududda ishlab chiqarishga xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilmalarning rivojlanish darajasidir.

Ixtisoslashuv darajasining ortishiga davlatning agrar iqtisodiy siyosati ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Xususan, sobiq ittifoq davrida va mustaqillikning ilk davrida davlat tomonidan paxta va g‘alla yetishtirishning strategik yo‘nalishlar sifatida e’tirof etilishi, paxta va g‘allaga davlat buyurtmalarining joriy etilishi natijasida dehqonchilik yo‘nalishidagi qishloq xo‘jaligi korxonalarining asosiy qismi paxta va g‘alla yetishtirishga ixtisoslashgan.

Ixtisoslashuvga korxona joylashgan hududdagi aholining qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi sohasidagi tajribalari, asrlar davomida shakllanib kelgan va avloddan-avlodga o‘tuvchi bilim va malakalari, yashash tarzi ham o‘z ta’sirini ko‘rsatishi mumkin. Masalan, Farg‘ona

viloyatining Quva tumani aholisi anor yetishtirish sirlarini yaxshi egallagani bilan mashhurdir.

2. Ixtisoslashtirishning shakllari, ko‘rsatkichlari va samaradorligini oshirish imkoniyatlari.

Qishloq xo‘jaligini joylashtirish uni ixtisoslashishi bilan uzviy bog‘liqdir. Ixtisoslashtirishni amalga oshirishdan oldin hudud va xo‘jalikning tabiiy va iqtisodiy sharoiti sinchiklab hisob-kitob qilinadi va so‘ng qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini ratsional joylashuvi ta’minlanadi. Mehnat taqsimoti ijtimoiy ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida ro‘y berib, ishlab chiqarish kuchlarining darajasini aks ettiradi. Shuning uchun ixtisoslashtirish o‘zgarishlarga boy jarayon bo‘lib, tinimsiz rivojlanadi va takomillashadi.

Qishloq xo‘jaligida ixtisoslashuv deganda mamlakatning ayrim iqtisodiy hududlari, tuman va ayrim xo‘jaliklarini u yoki bu mahsulot turini ko‘plab yetishtirish uchun moslashuvi tushuniladi. Qishloq xo‘jaligini ixtisoslashtirish kompleks mexanizatsiya, tarmoqlarni intensiv texnologiya asosida olib borish, mehnatni tashkil qilishni progressiv shakl va uslublarini joriy etish, ishchilarning malakasini oshirish va mehnat unumdorligini o‘stirish, mehnat vositalari va buyumlaridan ratsional foydalanish sharoitlarini yaratishga keng imkoniyatlar ochib beradi. Ixtisoslashtirish darajasining chuqurlashuvi jarayonida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi takomillashadi va bu o‘zgarishlar undagi tarmoqlar bilan bir qatorda butun qishloq xo‘jaligini iqtisodiy samaradorligini oshishiga olib keladi.

Qishloq xo‘jaligi korxonasini ixtisoslashtirish ikkita guruhga bo‘linadi:

- xo‘jalik ixtisoslashuvi;
- tarmoq ixtisoslashuvi.

Xo‘jalik ixtisoslashuvi o‘z navbatida xo‘jaliklararo ixtisoslashuv va ichki xo‘jalik ixtisoslashuviga bo‘linadi. Xo‘jaliklararo ixtisoslashuvda bir necha mustaqil korxonalar o‘z mablag‘larini, yetarli samara bermayotgan sohani birgalikda birlashtirish orqali ishni maqsadga

muvofiq tashkil etishi tushuniladi. Bunday ixtisoslashuv xo‘jaliklararo korxona sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday korxona mas’uliyati cheklangan jamiyat, kooperativlar, hissadorlik korxonasi kabi shakllarda tashkil etilishi mumkin.

Ichki xo‘jalik ixtisoslashuvining mohiyati – korxona ishlab chiqarish bo‘linmalari yoki hududlarini biron turdagi mahsulot yetishtirishga yo‘naltirish, biror turdagi mahsulotni maqsadga muvofiq hajmda joylashtirishdir. Bunday ixtisoslashuv korxona ishlab chiqarish resurslaridan to‘la va samarali foydalanish imkonini beradi, resurslarning korxona hududida samarasiz harakatini cheklaydi;

Tarmoq ixtisoslashuvi o‘z navbatida tarmoq bo‘yicha ixtisoslashuv va tarmoq ichida ixtisoslashuvga bo‘linadi. Tarmoq bo‘yicha ixtisoslashuvda korxonada bir yoki bir nechta tarmoq maqsadga muvofiq hajmda joylashtiriladi. Masalan, korxona o‘simlikchilik yoki chorvachilikka ixtisoslashadi, yoki bo‘lmasa, paxtachilikka va sabzavotchilikka yoki sutchilikka va ko‘chat etishtirishga ixtisoslashishi mumkin. Tarmoq ichida ixtisoslashuvning chuqurlashib borishi va uning chegarasi mahsulot yetishtirish bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonni mustaqil ajralib, natijada bu mahsulot sifatida namoyon bo‘lishidir.

Mamlakat miqyosida olganda ma’lum mintaqalar biror turdagi mahsulot yetishtirishga ixtisoslashishi mumkin. Bunda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda mintaqa yoki iqtisodiy tumanlar bo‘yicha mehnat taqsimoti joriy qilinadi. Bu mamlakat, viloyat va qishloq xo‘jaligi hududlari va boshqa shu kabi ma’lum hududiy birliklarning ixtisoslashishidir. Tovar qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish maqsadida qishloq xo‘jaligi hududlari yoki ma’muriy-hududiy bo‘linmalar o‘rtasidagi mehnat taqsimoti amalga oshadi. Masalan, mamlakatimizning g‘arbiy mintaqasi (Xorazm viloyati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi) sholi, baliq yetishtirishga, markaziy mintaqada joylashgan Jizzax, Sirdaryo, Toshkent viloyatlari meva, sabzavotchilik va polizchilikka ixtisoslashgan, Surxondayo viloyatida esa shimoliy mintaqa (Sariosiyo, Uzun, Oltinsoy, Denov tumanlari) asosan mevachilikka ixtisoslashgan va hokazo;

Xo‘jaliklarning ixtisoslashuv darajasi yetishtirilayotgan bitta yoki bir qancha tovar mahsulotlarining salmog‘iga qarab turlicha bo‘lishi mumkin. Bunda bir turdagi tovar mahsuloti yetishtirishga asoslangan xo‘jalik tor doirada ixtisoslashgan, yetishtirilaetgan uch, to‘rt xil tovar mahsulotlarining har qaysisining salmog‘i deyarli bir xilda bo‘lsa, bu xo‘jalik past darajada ixtisoslashgan; bir yoki undan ko‘proq tovar mahsulotlarining har biri kattaroq salmoqni egallasa, unda xo‘jalik o‘rtacha darajada ixtisoslashgan bo‘ladi. Masalan: xo‘jalikda yetishtirilgan tovar mahsulotning asosiy qismini paxta egallasa – u paxtachilikka, don egallasa – donchilikka, qorako‘l teri egallasa – qorako‘lchilikka ixtisoslashgan bo‘ladi. O‘zbekistonning tabiiy va iqtisodiy sharoitlari shuni taqozo etadiki, bunda mahsulotning bir turini emas, balki ikki va undan ham ko‘proq turini yetishtirishni ixtisoslashtirish mumkin. Masalan: shahar atrofida joylashgan xo‘jaliklar mahsulotlarning sut-sabzavot, sabzavot-kartoshka-chorva, sabzavot-meva-uzum kabi qator turlarini yetishtirishga ixtisoslashgandir. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda shakllanayotgan va rivojlanayotgan ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari bunga misol bo‘la oladi.

Qishloq xo‘jaligida ixtisoslashuv darajasi muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Ixtisoslashuv darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, xo‘jalikda samaradorlikni oshirish imkoniyatlari ham yuqori bo‘ladi.

Korxonalarning ixtisoslashtirish darajasini quyidagi ko‘rsatkichlar ifoda etadi:

• korxona tovar mahsulotining tarkibi, ya’ni jami tovar mahsulotidagi u yoki bu turdagi mahsulotning salmog‘i;

• korxona yalpi mahsulotini tarkibi;

• yer maydoni, ekin maydoni tarkibi, chorva va poda tarkibi;

• ishchi kuchlari va mehnat sarfining tarkibi va taqsimlanishi.

Ixtisoslashuv darajasi tovar mahsulotlarining salmog‘i bilan tavsiflanadi va quyidagicha hisoblanadi:

$$Id = \frac{ATTMQ}{YTMQ} \times 100$$

Bunda: Id – ixtisoslashuv darajasi, foizda;

ATTMQ – asosiy tarmoqning tovar mahsuloti qiymati, ming so‘m;

YTMQ – yalpi tovar mahsuloti qiymati, ming so‘m.

Yalpi tovar mahsuloti qiymatinini aniqlash uchun bu barcha tarmoqlar tovar mahsulotlari qiymatlarining yig‘indisini hisoblash lozim.

Ixtisoslashtirishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning muhim shartidir. U bozor iqtisodiyotining mehnat taqsimoti qonuni, mehnat unumdorligining o‘sib borishi, mehnat turlarining o‘rin almashinuvi kabi umum iqtisodiy qonunlaridan kelib chiqadi. Ixtisoslashtirish mehnat unumdorligini, xo‘jalikning rentabelligi va daromadini keskin oshirishiga xizmat qiladi.

Ixtisoslashtirish bozor uchun eng zarur iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan tovar mahsulotlarini yetishtirish va xizmat turlarini ko‘rsatish uchun mehnat va moddiy resurlarning bir joyga to‘plashni, mavjud resurslardan va tabiiy sharotlardan samarali foydalanishga qulay sharoit yaratib, yetishtiriladigan mahsulot miqdorini va xizmat turini anchagina ko‘paytirish imkonini beradi, mehnat unumdorligini oshiradi, xo‘jaliklarning ishlab chiqarish samaradorligini yuksaltiradi.

Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish korxonalar oldida turgan asosiy vazifalarni to‘liq bajarilishi, ya’ni ishlab chiqarishga ilg‘or, ekologik toza agrotexnika, zooveterinariya, texnikaviy xizmat, organik va mineral o‘g‘itlar hamda o‘simliklarni va chorvani himoya qilish vositalarini, fan yutuqlari, ilg‘orlar ish tajribasini joriy etib, ulardan unumli foydalanib, mehnat va mablag‘larni kam sarflagan holda qishloq xo‘jaligiga yaroqli har bir gektar yer va shartli bosh mol hisobiga dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini imkon qadar tez va barqaror ko‘paytirishni ta’minlaydi.

Xo‘jalikda ixtisoslashuvni to‘liqroq tavsiflash uchun ixtisoslashuv koeffitsiyenti (Ik) ko‘rsatkichi qabul qilingan. U quyidagicha hisoblanadi:

$$Ik = \frac{100}{\sum S(2n-1)}$$

Bu yerda: 100 – alohida tarmoqlar tovar mahsulotining yalpi tovar mahsulotidagi salmoqlari yig‘indisi;

S – har bir tarmoq mahsulotining yalpi tovar mahsuloti tarkibidagi salmog‘i, % da;

n – tovar mahsulotlarining egallagan salmog‘i bo‘yicha tartib raqami (eng yuqoridan boshlab).

Masalan: sabzavotchilikka ixtisoslashgan xo‘jalikda tovar mahsulotlar tarkibi (yalpi tovar mahsulotiga nisbatan foiz hisobida) quyidagicha: sabzavot-60%, meva-22%, sut-14% va boshqa turdagi mahsulotlar esa 4 %. Shu ma’lumotlar asosida xo‘jalikda ixtisoslashuv koeffitsiyenti quyidagicha hisoblanadi.

$$Ik = \frac{100}{60*(2*1-1)+22*(2*2-1)+14*(2*3-1)+4*(2*4-1)} = 0{,}45$$

Bu koeffitsiyent qanchalik 1 ga yaqin bo‘lsa, ixtisoslashtirish darajasi shuncha yuqori bo‘ladi. Agar ixtisoslashtirish koeffitsiyenti 0,35 dan past bo‘lsa – past darajadagi ixtisoslashuv; 0,35 dan 0,50 gacha bo‘lsa – o‘rta darajadagi ixtisoslashuv; 0,50 dan 0,60 gacha bo‘lsa – yuqori darajadagi ixtisoslashuv; 0,60 dan katta bo‘lsa – chuqur ixtisoslashuvni anglatadi.

Qishloq xo‘jaligida ixtisoslashuvning iqtisodiy samaradorligi quyidagi ko‘rsatkichlar tizimi bilan aniqlanadi:

- 1 gektar qishloq xo‘jaligi yeri va ekin maydoniga, 1 ta xodimga, 1000 so‘mlik asosiy ishlab chiqarish fondlariga va 1000 so‘mlik joriy ishlab chiqarish xarajatlariga to‘g‘ri kelgan yalpi va tovar mahsuloti qiymati;
- qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi va chorva mollari mahsuldorligi;
- Mehnat unumdorligi, mahsulot tannarxi, mahsulot ishlab chiqarish rentabelligi.

Demak, mahsulot yetishtirish uchun qayerda qulay sharoit mavjud bo‘lsa, mahsulot birligining tannarxi va narxi arzonlashsa, bu xo‘jalik va iste’molchilar uchun shuncha foydalidir.

So‘nggi yillarda oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish hajmlarini ko‘paytirish orqali ichki bozorni sifatli mahsulotlar bilan ta’minlash hamda mamlakatning eksport salohiyatini oshirish maqsadida ekin maydonlari tarkibi takomillashtirib borilmoqda. Shuningdek, tumanlarni meva-sabzavotchilikka ixtisoslashtirish, mahsulot yetishtiruvchilarni meva-sabzavotchilik klasterlari hamda kooperatsiyalarga birlashtirish kabi amaliy choralar ko‘rilmoqda. Jahon bozorlari talablariga javob bera oladigan raqobatbardosh qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda hududlarni ixtisoslashtirish to‘g‘ri yo‘l ekanligini ko‘rsatmoqda. Shu sababli, dastlabki bosqichda respublika bo‘yicha 55 ta tuman meva-sabzavotchilikka ixtisoslashtirildi. Biroq, ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlar, ko‘rilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan hududlarning mavjud salohiyatidan to‘liq foydalanilmayapti.

Mamlakatimiz hukumati tomonidan qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya qilish, tumanlar hududlarini tuproq-iqlim sharoitlariga mos bog‘dorchilik, uzumchilik, sabzavot-polizchilik, kartoshkachilik va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashtirish orqali ichki va tashqi bozor talablariga javob beradigan raqobatbardosh mahsulotlar yetishtirishni ko‘paytirish va mahsulot ishlab chiqaruvchilarning moddiy manfaatdorligini oshirishga alohida e’tibor berilmoqda. 2020-yil 11-mayda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika hududlarini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4709-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan bildirilgan quyidagi takliflar ma’qullangan:

- respublika hududlarini bosqichma-bosqich qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining muayyan turlarini yetishtirishga ixtisoslashtirish;

- respublika hududlarini qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining muayyan turlariga ixtisoslashtirish ishlarini samarali tashkil etish maqsadida eksperiment tariqasida 2020-2022-yillar davomida Jizzax viloyatining jami 116,3 ming gektar qo‘shimcha yer maydonlarini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish.Ushbu qarorda Jizzax viloyatining ayrim hududlarini 2020-2022-yillarda bog‘dorchilik va uzumchilik yo‘nalishlariga ixtisoslashtirish nazarda tutilgan bo‘lib, tuman hokimliklari hamda xalq deputatlari viloyat va tuman Kengashlari bilan birgalikda hududlarning yer maydonlari ixtisoslashuvidan kelib chiqib, ushbu yer maydonlarini ustuvor ravishda raqobatbardosh qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, saqlash, qayta ishlash va eksport qilish jarayonini hamda innovatsion va resurstejamkor texnologiyalarni qo‘llashni o‘z ichiga olgan agroklasterlarni tashkil etuvchi salohiyatli tashabbuskorlar, fermer xo‘jaliklari va boshqa subyektlarga qishloq xo‘jaligi maqsadlari uchun tanlov asosida ajratish choralarini ko‘rish belgilab berilgan. Ixtisoslashtirilayotgan hududlarda yaxlitlikka jiddiy e’tibor qaratgan holda tegishli qishloq xo‘jaligi ekinlarining turlariga qarab plantatsiya shaklida eksportbop ekin turlarini joylashtirish va yetishtiriladigan mahsulot hajmlarini aniqlash bo‘yicha chora-tadbirlar belgilangan.

3. Qishloq xo‘jaligida integratsiyalashuvning mohiyati, ahamiyati va turlari.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini konsentratsiyalash deganda ishlab chiqarish vositalari va ishlab chiqarish kuchlarining yirik korxonalarga to‘planishini bildiradi. Konsentratsiyani chuqurlashtirish – yirik ishlab chiqarishning maydalari oldida ustunligi haqidagi amaldagi iqtisodiy qonunga bog‘liq obyektiv jarayondir. Yirik qishloq xo‘jaligi korxonalarida qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi va chorvachilik mahsuldorligini oshirish, mahsulot birligiga kamroq xarajat sarflab, tannarxni pasaytirish, ishlab chiqarish rentabelligini oshirish imkoniyatlari yuqoriroq bo‘ladi. Ammo qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini yiriklashtirish cheksiz davom etmaydi: ishlab chiqarish

kuchlarining har bir bosqichdagi rivojlanishida chegaralar mavjud va bunda kontentratsiyaning samaradorligi keskin pasayadi. Yirik ishlab chiqarishning maydalariga nisbatan ustuvorligi qonuni qishloq xo‘jaligida mutloq ahamiyatga ega emas. Ixtisoslashtirish va konsentratsiyalash agrosanoat ishlab chiqarishi samaradorligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘pgina olimlar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, ishlab chiqarishda ixtisoslashuv va konsentratsiyalashni maqbul (optimal) darajagacha chuqurlashtirish iqtisodiy samaradorlikning oshishiga yordam beradi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bozor iqtisodiyoti sharoitida faqat yirik fermer xo‘jaliklari samarali faoliyat ko‘rsatadi. Ular qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining asosiy ishlab chiqaruvchilari hisoblanadi. Masalan, AQShda yirik fermer xo‘jaliklari (yillik mahsulot realizatsiya qilish hajmi 250 ming dollardan yuqori) barcha fermer xo‘jaliklari sonining 5,3 foizini tashkil etib, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining 50 foizga yaqinini ta’minlaydi. Ularning ishlov beriladigan yerdagi va jami kapital qiymatidagi ulushi mos ravishda 24,7 va 22,1 foizga teng. Hamma fermer xo‘jaliklarining 80,4 foizini tashkil etuvchi mayda fermer xo‘jaliklari 100 ming dollargacha realizatsiya qilingan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 25 foizdan kamrog‘i to‘g‘ri keladi. Ular ishlov beriladigan hamma yerning 47,7 foizini band qiladilar va kapitalning umumiy qiymatidan 54,1 foizga egalar. Bu mahsulotlar AQSh qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni konsentratsiyalash yuqori darajadaligidan dalolat beradi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yagona texnologiya asosida ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlashga ixtisoslangan yirik agrosanoat korxonalarida integratsiyalashmaganlariga nisbatan iqtisodiy samaradorlik yuqori bo‘ladi. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yetishtirilgan hamma mahsulotlar, shu jumladan, nostandart, tez buziladigan va transportirovkaga noqulay bo‘lganlaridan ham oqilona foydalanish imkonini beruvchi qayta ishlovchi sexlar va saqlash omborlarining mavjudligi sezilarli ta’sir qiladi. Bundan tashqari, agrosanoat korxonasida yil davomida ish kuchidan ancha oqilona foydalaniladi. Xulosa qilib aytganda, agrosanoat integratsiyasi asosida

ishlab chiqarishni kelgusida ixtisoslashtirish va konsentratsiyalash mahsulot ishlab chiqarishni sezilarli oshirish, tannarxni pasaytirish, uning sifatini orttirish, mehnat unumdorligini yuksaltirishga xizmat qiladi. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilganlarni inobatga olib, dehqonchilik mahsulotlari yetishtiriladigan hudud tuproqlarida mikroelementlarning o‘zlashtiriladigan miqdorlari, mikroelementlarning turli shakl va manbalarini, kuzgi va qishki ekinlarga bo‘lgan maksimal darajadagi talabini aniqlash, shu asosda yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishish shu kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Qishloq xo‘jaligida xo‘jaliklararo kooperatsiya ham muhim ahamiyatga ega. Hozirgi fan-texnika taraqqiyoti darajasi ijtimoiy mehnat taqsimoti rivoji va takomillashuviga ham faol ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu jarayon nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarining bo‘linishi, balki mehnatning yangi sifat darajasida birlashishini ham nazarda tutadi.

Ijtimoiy mehnat taqsimoti bir tomondan ishlab chiqarish sohalarining biror turdagi mahsulot yetishtirish bo‘yicha ixtisoslashuviga olib kelsa, ikkinchi tomondan ular o‘rtasida aniq kooperatsion aloqalar va so‘ngra yagona maqsad yo‘lida birlashishni nazarda tutadi.

Xo‘jaliklararo kooperatsiya asosida ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanishi kerak:

- xo‘jaliklarning ixtiyoriylikka asoslangan holda hamkorlikda faoliyat yuritishi;
- xo‘jaliklarning iqtisodiyoti va ishlab chiqarish tarkibi, tarmoqning xususiyatlari va to‘plangan tajribaga asoslangan holda kooperatsiyaning tashkiliy formasi hamda faoliyat yo‘nalishini tanlashda ilmiy jihatdan yondashish;
- xo‘jaliklararo birlashmalarga kiruvchi korxonalar erkinligining saqlanishi;
- ishchilarning korxonada va xo‘jaliklararo birlashmada ishlab chiqarishni rivojlantirish va samaradorlikni oshirishdan moddiy manfaatdorligini ta’minlash;
- mehnat unumdorligini oshirish, tannarxni pasaytirish, mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmini sezilarli oshirish hamda mahsulot sifatining yaxshilanishiga erishish.

Integratsiya so‘zi ma’lum bo‘laklar yig‘indisini bir butunga birlashtirish ma’nosini bildiradi. Integratsiya butunlay yoki qisman tashkiliy qo‘shilishga olib keladi. Bir xildagi tarmoq va soha korxonalarining o‘zaro kooperatsiyalashishi gorizontal integratsiya deyiladi. Gorizontal integratsiya ikki xil usulda amalga oshiriladi:

- alohida bo‘lgan, umumiy ishlab chiqarish jarayonida o‘ziga xos vazifani bajaruvchi ixtisoslashgan qishloq xo‘jaligi korxonalari o‘rtasida amalga oshirish;
- bir nechta xo‘jaliklarning imkoniyat va mablag‘larini yirik ixtisoslashgan korxona tashkil etish maqsadida birlashishi.

Gorizontal bo‘yicha xo‘jaliklararo kooperatsiyaning tashkiliy formalari bo‘lib, ular xo‘jaliklararo kooperatsiya korxonalari birlashmalaridir. Xo‘jaliklararo kooperatsiya qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, ishlab chiqarishga bog‘lik bo‘lmagan sohalarda, qurilish, xizmat qilish va boshqalarda tashkil topgandir. U korxonalar va xo‘jaliklar o‘rtasida har xil birikma ko‘rinishlarida amalga oshirilishi mumkindir. Xo‘jaliklararo kooperatsiya kapital mablag‘larni tez qoplash, yer, mehnat va moddiy resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Qishloq xo‘jaligining bir qator texnologik vazifalarini sanoat va xizmat qilish tarmoqlariga o‘tishi bilan qishloq xo‘jaligi mehnati faoliyati toraya boradi: tayyor mahsulot yaratuvchi qishloq xo‘jaligi - ko‘p hollarda xomashyo yetkazib beruvchi sifatida ishtirok etadi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi qishloq xo‘jaligiga xizmat qiluvchi sohalar faoliyatiga, ular o‘rtasidagi aloqa va ishlarni yaxshi yo‘lga qo‘yilganiga bog‘liqdir. Bu esa sanoat tarmoqlarini qishloq xo‘jalik korxonalari bilan uzviy birlashishiga shart-sharoit yaratib beradi. Bunda birlashishning zaminida ma’lum bir mahsulot yaratish maqsadlarining bir xilligi yotadi, ya’ni yagona texnologik jarayon yotadi.

Gorizontal bo‘yicha amalga oshiriladigan qishloq xo‘jaligi korxonalarining kooperatsiyasidan farq qilgan holda, bunday birlashish vertikal agrosanoat integratsiyasi deb yuritiladi. Agrosanoat integratsiyasiga xos birlashmalar avvalombor mahsuloti tez buziladigan

qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida vujudga keldi (uzum, meva, sabzavot, sut, efir moylari va hokazo).

Hozirgi vaqtda mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida gorizontal kooperatsiyaning qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha, mahsulotlarni saqlash bo‘yicha, hamkorlikda texnikalarda foydalanish bo‘yicha, melioratsiya ishlarini bajarish bo‘yicha va ishlab chiqarish-texnikaviy xizmat ko‘rsatish bo‘yicha xo‘jaliklararo korxonalar ko‘rinishidagi shakli mavjud.



19.1-rasm. Qishloq xo‘jaligida kooperatsiya shakllari.

Qishloq xo‘jaligida vertikal agrosanoat tuzilmalarining quyidagi shakllari mavjud:

- agrosanoat korxonalari;
- agrosanoat birlashmalari;
- agrosanoat kombinatlari;
- agrofirmalar;
- ilmiy ishlab-chiqarish birlashmalari.

Agrosanoat korxonasi – bu ishlab chiqarishning shunday tashkiliy tuzilmasidirki, unda qishloq xo‘jaligi xomashyosini ishlab chiqarish va uni qayta ishlash uzviy bog‘liq holda tashkil etilgan bo‘ladi. Buning tarkibida qishloq xo‘jaligi mahsulotini qayta ishlovchi bo‘linmalarga ega bo‘lgan xo‘jaliklar zavodlardir. Bunday korxonalarda mahsulotlarning nobud bo‘lishi oldi olinadi va yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishiladi.

Agrosanoat birlashmalari – bu qator qishloq xo‘jaligi, sanoat korxonalari, hamda, maxsus sovutiladigan holda saqlovchilar, transport, hattoki savdo xo‘jaliklarini yig‘indisi bo‘lib, ular ayniqsa, meva-sabzavot konserva, uzumchilik, vinochilik va boshqa ishlab chiqarishda keng tarqalgan.

Agrosanoat kombinatlari – qishloq xo‘jaligi va sanoatning hududiy, texnologik va tashkiliy jihatdan uzviy bog‘liq bo‘lgan turdosh sohalarini birlashtiradi. U qand lavlagi va shakar sanoatida, uzumchilik va vino sanoati kabilarda keng tarqalgan. Bunda qishloq xo‘jaligi mahsuloti sanoatda qayta ishlash uchun xomashyo sifatida ishlatilsa, sanoatdan olingan ikkilamchi mahsulotlari esa chorvachilik uchun ozuqa hisoblanadi.

Agrofirma asosan tuman miqyosida tuzilib, tarkibiga tuman chegarasidagi xo‘jalik va korxonalar kiradi, ular o‘zlariniig yuridik huquqini yo‘qotmaydilar. Faoliyati qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish, tayyorlash, saqlash, qayta ishlash va tayyor mahsulotni sotishga ixtisoslashadi.

Ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari – bu tarmoqda ilmiy-texnik taraqqiyotni jadallashtirish, hamda hayotga tatbiq etishni keng joriy etish maqsadida tuziladigan birlashmalardir. Ular urug‘ seleksiyasi, hosildor navlar va kuchatlar yaratish, mahsuldor chorva zotlarini yaratish yo‘nalishida xizmat qiladilar.

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘i iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanadi. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘i sanoat korxonalaridan ishlab chiqarish vositalarini oladi va yetishtirilgan mahsulotlar sanoat korxonalari uchun xomashyo hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida ishlab chiqarish jarayonining bir maromda kechishi uchun xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar xizmatidan ham foydalanadi. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining samaradorligi ushbu tarmoqlar bilan bo‘ladigan aloqalari qanchalik yaxshi yo‘lga qo‘yilganligiga bevosita bog‘liq.

Agrosanoat integratsiyasi – sanoat va qishloq xo‘jaligining bir-biri bilan uzviy bog‘lanishi, bir butun tizimga aylanishidir. Agrosanoat integratsiyasi ijtimoiy mehnat taqsimoti va kooperatsiyasi rivojlanishining natijasidir. Tarmoqlarning bir-biridan ajralib, alohida rivojlanishi ularda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni ayriboshlashning kuchayishiga olib keldi. Bir tarmoqda ishlab chiqariladigan mahsulotga talab asosan boshqa tarmoqda vujudga keladi. Natijada bir tarmoq ikkinchisisiz barqaror rivojlana olmaydi. Bu ularning integratsiyalashuvi zaruratini keltirib chiqaradi. Sanoat va qishloq xo‘jaligining rivoji ular o‘rtasida aloqalarning murakkablashuviga olib keldi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sanoat tarmog‘ida qayta ishlanadi. Buning natijasida qishloq xo‘jaligi sanoat uchun xomashyo yetkazib beruvchi tarmoqqa aylanib, qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining oxirgi iste’molchi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqasi kamayib boradi. Bu esa o‘z navbatida tarmoqlararo integratsiyani kuchaytiradi.

Agrosanoat integaratsiyasining yanada chuqurlashib borishi obyektiv jarayondir. Bu albatta, qishloq xo‘jaligining va umuman agrosanoat majmuasi iqtisodiyotining rivojlanishiga olib keluvchi jarayondir. Agrosanoat integratsiyasining va kooperatsiyasining mahsuli sifatida o‘tgan XX asrning 60-yillaridan boshlab mamlakatimizda agrosanoat majmuasi yagona tizim sifatida shaklana boshladi.

Agrosanoat majmuasi – qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, ularni tayyorlash, qayta ishlash, saqlash va tayyor mahsulotni iste’molchilarga yetkazib beruvchi, yagona maqsadlarga bo‘ysundirilgan, texnologik jihatdan bir-biri bilan bog‘langan tarmoq va

xizmatlar yig‘indisidir. Agrosanoat majmuasining quyidagi turlari mavjud:

• mamlakat agrosanoat majmuasi;

• hudud agrosanoat majmuasi;

• ixtisoslashgan (go‘sht, sut, don, sabzavot va poliz kabi mahsulot turlarini yetishtirish bilan shug‘illanuvchi) agrosanoat majmualaridan iborat.

Hozirgi vaqtda mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida integratsiyaning yangi shakli – klasterlar faoliyatini rivojlantirishga alohida e’tibor berilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 10-11-mart kuni xalq bilan muloqot qilish hamda joylarda amalga oshirilayotgan islohotlar bilan tanishish maqsadida Buxoro viloyatiga tashrifi chog‘ida “Paxta va to‘qimachilik klasteri” loyihasini tashkil etish fikrini ilgari surdi. Unda O‘zbekistonda klaster tizimi asosida ishlab chiqarishni tashkil etishning ilmiy asoslari ko‘rsatib berildi.

Klasterlarni shakllantirishdan maqsad – shahar, tuman va viloyat ichida joylashgan bir xil soha korxonalarini va ular bilan yagona texnologik zanjirda bo‘lgan ta’lim, ilmiy, injiniring, konsalting, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va boshqa xizmatlarni uyg‘unlashtirish – innovatsion ishlab chiqarishni tashkil etish asosida raqobatbardosh tovarlar yaratishga yo‘naltirishdan iboratdir. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida klaster tizimi yaxshi samara bermoqda. Xususan, shuning natijasida paxtachilikka yangi texnologiyalar kirib keldi, moddiy manfaatdorlik oshdi. 2020-yil holatiga paxta ekin maydonlarining 908 ming gektari yoki 88 foizida klasterlar faoliyat yuritmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-martdagi “Paxtachilik sohasida bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, 2020-yil hosilidan boshlab davlat tomonidan paxta xomashyosi ishlab chiqarish va sotish rejasini belgilash amaliyoti bekor qilinishi munosabati bilan paxta-to‘qimachilik klasterlari tashkil etilmagan hududlarda paxta tozalash korxonalari ishtirokida fermer xo‘jaliklarining ixtiyoriy kooperatsiyasi tashkil etilishi nazarda tutilgan.

Ushbu qarorga muvofiq, kooperatsiyaning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilab berilgan:

- kooperatsiya a’zolari tomonidan texnika, uskuna, transport vositalaridan , paxta tozalash zavodlaridan birgalikda foydalanishni tashkil etish;
- kooperatsiya a’zolarini qishloq xo‘jaligi texnikasi, yonilg‘i-moylash materiallari, o‘g‘it, urug‘lar, shuningdek, kimyoviy himoya vositalari bilan ta’minlash;
- ishlab chiqarilgan mahsulotni tayyorlash, tashish, saqlash, qayta ishlash va sotishni tashkillashtirish;
- kooperatsiya a’zolariga agrotexnika, buxgalteriya, konsalting, vositachilik va boshqa xizmatlarni ko‘rsatish.

2020-yil holatiga paxta ekin maydonlarining 125 ming gektari yoki 12 foizida kooperatsiyalar, 908 ming gektari yoki 88 foizida klasterlar faoliyat yuritmoqda. 2020-yilda qishloq xo‘jaligidagi islohotlar, paxtachilikda yer maydonlari to‘liq xususiy klaster va kooperatsiyalarga berilgani hosildorlikni bir yilda o‘rtacha 10 foizga oshirish imkonini yaratdi. Meva-sabzavotchilik, g‘allachilik va chorvachilikda ham 500 ga yaqin klaster va kooperatsiyalar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Buning natijasida, pandemiyaning salbiy ta’siriga qaramasdan, 1 milliard dollarlik meva-sabzavot eksport qilindi.

Qisqacha xulosalar

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ishlab chiqarishning iqtisodiy va tabiiy jarayonlarini o‘zida aks ettiradi hamda bu tarmoqda mehnatning ijtimoiy taqsimotiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining tuproq va iqlim sharoitlari bilan uzviy bog‘liqligi mehnatning geografik jihatdan ham taqsimlanish zaruriyatini keltirib chiqaradi va bu xususiyat uning joylashishida o‘z ifodasini topadi.

Qishloq xo‘jaligini joylashtirish va ixtisoslashtirish ijtimoiy mehnat taqsimotining turli ko‘rinishlaridir. Joylashtirish - alohida turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni respublika mintaqalarida, ayrim viloyat, tumanlar va korxonalar bo‘yicha miqdoriy

taqsimlashni bildiradi. Qishloq xo‘jaligini joylashtirish uni ixtisoslashtirish bilan chambarchas bog‘langan. Qishloq xo‘jaligida ixtisoslashuv deganda mamlakatning ayrim iqtisodiy hududlari, tuman va ayrim xo‘jaliklarini u yoki bu mahsulot turini ko‘plab yetishtirish uchun moslashuvi tushuniladi. Qishloq xo‘jaligini ixtisoslashtirish kompleks mexanizatsiya, tarmoqlarni intensiv texnologiya asosida olib borish, mehnatni tashkil qilishni progressiv shakl va uslublarini joriy etish, ishchilarning malakasini oshirish va mehnat unumdorligini yuksaltirish, mehnat vositalari va buyumlaridan ratsional foydalanish sharoitlarini yaratishga keng imkoniyatlar ochib beradi.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni joylashtirishning mohiyati nimadan iborat?
2. Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishini joylashtirishda qanday omillarga e’tibor berish lozim?
3. Qishloq xo‘jaligining tarmoq tarkibining mohiyati nimadan iborat va u qanday aniqlanadi?
4. Qishloq xo‘jalik korxonalari qanday ixtisoslashish tarmoqlariga bo‘linadi?
5. Ixtisoslashtirish darajasiga ko‘ra xo‘jaliklar qanday guruhlarga bo‘linadi?
6. Qishloq xo‘jaligida tarmoqlarni oqilona joylashtirishdan ko‘zlangan asosiy maqsadlar nimalardan iborat?
7. Qishloq xo‘jaligini iqtisodiy asoslangan holda joylashtirishning qanday tamoyillari mavjud?
8. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni ixtisoslashtirishning iqtisodiy ahamiyati nimalardan iborat?
9. Qishloq xo‘jaligi korxonalarining ixtisoslashuviga qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi?
10. Ixtisoslashtirishning qanday shakllari mavjud?
11. Qishloq xo‘jaligida ixtisoslashuv darajasi qanday aniqlanadi?
12. Qishloq xo‘jaligida ixtisoslashuv koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

13. Qishloq xo‘jaligida ixtisoslashuvning iqtisodiy samaradorligi qanday ko‘rsatkichlar orqali aniqlanadi?
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-maydagi “Respublika hududlarini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4709-sonli qarori haqida ma’lumot bering.
15. Qishloq xo‘jaligida integratsiyalashuvning mohiyati nimadan iborat?
16. Qishloq xo‘jaligida integratsiyalashuvning ahamiyati nimadan iborat?
17. Qishloq xo‘jaligida integratsiyalashuvning qanday turlari mavjud?

BOB YUZASIDAN AMALIY TOPSHIRIQLAR:

1-topshiriq:

Klaster usuli yordamida qishloq xo‘jaligida integratsiyaning shakllarini ko‘rsatib bering.

2-topshiriq:

Nilufar guli usuli yordamida qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida ixtisoslashuv darajasining pastligiga ta’sir etuvchi omillar va ularni bartaraf etish yo‘llarini tahlil qilish.

	B	

	C	

	D	

	I	

B	**C**	**D**
I	**A**	**E**
H	**G**	**F**

	E	

	H	

	G	

	F	

Nilufar guli - muammoni yechish yo‘llarini ko‘rsatib beruvchi usuldir. O‘zida nilufar guli ko‘rinishini namoyon qiladi. Uning asosini to‘qqizta to‘g‘ri to‘rtburchak tashkil etadi. Bunda A – qo‘yilayotgan asosiy muammo, ya’ni qishloq xo‘jaligida ixtisoslashuv darajasining pastligi; B,C,D,E,F,G,H,I – esa ushbu muammoga ta’sir etuvchi omillar, har bir omil alohida olinib, uni hal etish yo‘llari yozib chiqiladi. Ushbu usul tizimli fikrlash, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi va faollashtiradi.

3-topshiriq:

Sabzavotchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaligida tovar mahsulotlar tarkibi (yalpi tovar mahsulotiga nisbatan foiz hisobida) quyidagicha: sabzavot - 70%, meva-12%, texnika ekinlari - 14% va boshqa turdagi mahsulotlar esa 4 %. Shu ma’lumotlar asosida xo‘jalikning ixtisoslashuv koeffitsiyentini hisoblang.

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Qishloq xo‘jaligini joylashtirish va ixtisoslashtirish tushunchalari, ularning ilmiy asoslari.
2. Ixtisoslashtirishning shakllari, ko‘rsatkichlari va samaradorligini oshirish imkoniyatlari
3. Qishloq xo‘jaligida integratsiyalashuvning mohiyati, ahamiyati va turlari.

20-BOB: O‘SIMLIKCHILIK TARMOQLARI IQTISODIYOTI

1. O‘simlikchilik tarmoqlari va ularning mamlakatimiz iqtisodiyotidagi ahamiyati.
2. Mamlakatimizda o‘simlikchilik tarmoqlarining hozirgi rivojlanish holati.
3. O‘simlikchilik tarmoqlarini yanada rivojlantirish imkoniyatlari va samaradorligini oshirish yo‘llari.

Tayanch iboralar: qishloq xo‘jaligi tarmoqlari, o‘simlikchilik, donchilik, texnika ekinlari, sabzavotchilik, kartoshkachilik, polizchilik, mevachilik, uzumchilik, ozuqa ekinlari, dorivor o‘simliklar.

1. O‘simlikchilik tarmoqlari va ularning mamlakatimiz iqtisodiyotidagi ahamiyati.

Qishloq xo‘jaligi yetishtirilayotgan mahsulotlarning turlari va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ikkita yirik tarmoqqa: o‘simlikchilik va chorvachilikka bo‘linadi. O‘simlikchilik qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmog‘i bo‘lib, unda ko‘p turdagi mahsulotlar yetishtiriladi. Yetishtirilayotgan mahsulotlarning turlari va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o‘simlikchilik tarmog‘i o‘z navbatida quyidagi kichik tarmoqlarga bo‘linadi:

- donchilik (bug‘doy, arpa, makkajo‘xori, sholi va hokazo);
- texnika ekinlari (paxta, kanop, tamaki, qand lavlagi, moyli ekinlar va hokazo);
- kartoshkachilik;
- sabzavotchilik (piyoz, sabzi, bodring va hokazo);
- polizchilik (qovun, tarvuz va hokazo);
- mevachilik (olma, o‘rik, shaftoli va hokazo);
- uzumchilik;
- chorva ozuqasi ekinlari yetishtiruvchi va boshqa tarmoqlardan iboratdir.

O‘simlikchilik tarmoqlarining mamlakatimiz aholisini oziq-ovqat bilan ta’minlashdagi o‘rni beqiyosdir. Chunki, aholi tomonidan kunlik iste’mol qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida o‘simlikchilik tarmog‘idan olinadigan mahsulotlar asosiy o‘rinni egallaydi. Shu sababli o‘simlikchilik aholining birlamchi ehtiyojlarini qondiruvchi mahsulotlar yetishtirib beruvchi muhim tarmoq hisoblanadi. Bundan tashqari, o‘simlikchilik tarmoqlarida yetishtirilayotgan mahsulotlar sanoatning ko‘pgina sohalari uchun xomashyo bo‘lib hisoblanadi. To‘qimachilik, yog‘-moy, oziq-ovqat kabi yo‘nalishlardagi sanoat korxonalarining faoliyati o‘simlikchilik tarmoqlarining faoliyati bilan uzviy bog‘liqdir. Shu bilan birga, o‘simlikchilik tarmoqlari chorva mollari uchun ozuqa ham yetkazib beradi. Bizga ma’lumki, chorvachilikni rivojlantirish uning mustahkam ozuqa bazasi bilan ta’minlanishiga bog‘liq. Shu jihatdan, chorvachilikning rivoji ham o‘simlikchilik tarmog‘iga bevosita bog‘liqdir.

2. Mamlakatimizda o‘simlikchilik tarmoqlarining hozirgi rivojlanish holati.

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligining muhim tarmog‘i bo‘lgan o‘simlikchilikni rivojlantirishga alohida e’tibor berib kelinmoqda. Mustaqillikning ilk davrida o‘simlikchilik tarkibida paxtachilik va g‘allachilikka alohida e’tibor berilgan bo‘lsa, 2008-yilda yuzaga kelgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozidan so‘ng o‘simlikchilik tarkibida sabzavotchilik, polizchilik, moyli ekinlar, bog‘dorchilikni rivojlantirishga ham e’tibor berila boshlandi. Ayniqsa 2017-yildan boshlab qishloq xo‘jaligida ekinlar tarkibini takomillashtirish, oziq-ovqat ekinlari ekiladigan maydonlarni kengaytirishga e’tibor yanada kuchaydi. Amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida o‘simlikchilik mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibi ham takomillashib bormoqda.

2019-yilda mamlakatimizda qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsuloti hajmi 224265,9 mlrd. so‘m bo‘lib, uning 111904,8 mlrd. so‘mi yoki 49,9 foizi o‘simlikchilik tarmog‘ida yaratilgan (20.1-jadval).

20.1-jadval

O‘simlikchilik tarmog‘ining asosiy ko‘rsatkichlari

	2016	2017	2018	2019
Qishloq xo‘jaligi ekinlari ekilgan maydoni, ming ga	3706,7	3474,5	3396,0	3309,4
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsuloti hajmi, mlrd. so‘m	119726,7	154369,4	195095,6	224265,9
shundan:				
o‘simlikchilik	61755,1	83303,4	98406,4	111904,8
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi o‘sish sur’ati, o‘tgan yilga nisbatan foizda	106,1	101,2	100,3	103,1
shundan:				
o‘simlikchilik	105,7	98,2	95,8	104,8

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda o‘simlikchilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi so‘nggi yillarda kamayish tendensiyasida bo‘lgan va 2019-yilda o‘sish tendensiyasiga o‘tgan.

Turlari bo‘yicha ekin ekilgan maydon to‘g‘risidagi ma’lumotlar 20.2-jadvalda keltirilgan.

20.2-jadval

Turlari bo‘yicha ekin ekilgan maydon (barcha toifadagi xo‘jaliklarda, ming gektar)

	2016	2017	2018	2019
Jami ekin ekilgan maydon	3706,7	3474,5	3396,0	3309,4
Donli ekinlar	1689,4	1655,6	1643,2	1578,3
Shu jumladan:				
boshoqli don	1549,2	1512,6	1495,4	1409,9

shundan: bug‘doy	1446,1	1411,1	1386,3	1316,1
makkajo‘xori don uchun	39,9	37,8	40,8	44,1
sholi	72,8	73,1	46,8	71,0
dukkakli don	23,7	28,0	56,1	49,2
Texnika ekinlari	1333,9	1253,3	1150,5	1099,5
Shu jumladan: g‘o‘za	1265,1	1201,2	1108,2	1050,6
Kartoshka	84,6	78,8	86,8	89,6
Sabzavotlar	206,0	189,7	219,0	220,0
Poliz	58,8	52,3	52,6	53,4
Ozuqa ekinlari	333,5	243,4	242,7	267,6

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Ushbu jadval ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatimizda 2016-2019-yillar mobaynida jami ekin ekilgan maydon 397,3 ming gektarga kamaygan. Ekin turlari bo‘yicha esa texnika ekinlari, poliz va ozuqa ekinlari maydonida kamayish kuzatilgan.

Qishloq xo‘jalik ekinlarining hosildorlik darajasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar 20.3-jadvalda keltirilgan.

20.3-jadval

Qishloq xo‘jalik ekinlari hosildorligi, sentner/gektar

	2015	**2016**	**2017**	**2018**
Don	45,3	45,0	39,7	38,1
Shu jumladan:				
bug‘doy	48,2	47,9	42,2	41,0
arpa	15,1	15,1	13,3	11,0
makkajo‘xori don uchun	50,5	54,2	48,1	49,0
sholi	32,8	34,4	30,9	27,6
dukkakli don	15,5	17,8	15,6	13,4

G‘o‘za	25,8	23,4	23,7	20,7
Kartoshka	219,1	225,1	217,9	224,8
Sabzavotlar	271,0	271,1	253,6	237,1
Poliz	203,6	209,4	197,9	189,8

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi to‘g‘risidagi ma’lumotlar 20.4-jadvalda keltirilgan.

20.4-jadval

Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish (barcha toifadagi xo‘jaliklarda, ming tonna)

	2016	**2017**	**2018**	**2019**
Don - jami	8261,3	7288,5	6535,5	7437,8
shu jumladan:				
bug‘doy	6934,9	6079,2	5410,8	6093,5
arpa	167,4	134,3	111,8	133,5
makkajo‘xori don uchun	491,9	389,4	413,2	421,3
sholi	452,0	395,4	221,1	314,7
Paxta xomashyosi	2959,0	2853,9	2285,6	2691,7
Kartoshka	2789,5	2793,7	2911,9	3089,7
Sabzavotlar	10184,0	10219,9	9760,3	10215,1
Poliz	2044,9	2031,0	1837,0	2068,7
Silos, ko‘k ozuqa va senaj uchun ekilgan makkajo‘xori	4366,4	2775,7	2782,9	3253,3
Ozuqabop ildizmevalar	213,1	180,6	120,5	140,5

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan o‘simlikchilik mahsulotlari 20.5-jadvalda keltirilgan.

20.5-jadval

Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan o‘simlikchilik mahsulotlari, kg

	2016	2017	2018	2019
Don	259,4	225,0	198,3	221,5
Kartoshka	87,6	86,3	88,4	92,0
Sabzavotlar	319,8	315,5	296,2	304,2
Poliz	64,2	62,7	55,7	61,6
Meva va rezavorlar	82,0	80,7	82,1	82,0
Uzum	50,7	50,2	48,2	47,7

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Mamlakatimizda mustaqillikning ilk davridan boshlab ekin maydonlari tarkibini takomillashtirishga alohida e’tibor berildi. Sobiq ittifoq davrida mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi asosan paxta yetishtirishga ixtisoslashtirilgan edi. Shu sababli paxta yakka hokimligiga barham berish va mamlakatimiz aholisi ehtiyoji uchun kerak bo‘ladigan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini o‘zimizda yetishtirishga erishish bo‘yicha islohotlar amalga oshirildi. Mamlakatimizda mustaqillikning ilk davrida don mustaqilligi Davlat dasturi ishlab chiqildi va boshoqli don ekinlari maydoni sug‘oriladigan yerlar evaziga keskin ko‘paytirildi. Buning natijasida hozirgi vaqtda mamlakatimiz aholisi uchun kerak bo‘ladigan don mahsulotlari o‘zimizda to‘liq yetishtirilmoqda va bir qismi eksport ham qilinmoqda.

20.6-jadval

O‘simlikchilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o‘sishi (o‘tgan yilga nisbatab foizda)

	2016	2017	2018	2019
Don - jami	101,1	88,2	89,7	113,8
shu jumladan:				
bug‘doy	99,6	87,7	89,0	112,6
arpa	110,4	80,2	83,2	119,4

makkajo‘xori don uchun	111,9	79,2	106,1	102,0
sholi	106,2	87,5	55,9	142,3
dukkakli don	128,8	216,0	122,3	130,6
Paxta xomashyosi	88,0	96,5	80,3	117,8
Kartoshka	107,8	100,2	104,2	106,1
Sabzavotlar	108,5	100,4	95,5	104,7
Poliz	110,3	99,3	90,4	112,6
Silos, ko‘k ozuqa va senaj uchun ekilgan makkajo‘xori	104,3	63,6	100,3	116,9
Ozuqabop ildizmevalar	143,0	84,7	66,7	116,6

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Mamlakatimiz ekin maydonlari tarkibida donli ekinlarning salmog‘i ortmoqda. 1995-yilda donli ekinlarning umumiy ekin maydonidagi salmog‘i 39,8 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2000-yilga kelib bu ko‘rsatkich 42,7 foizni, 2008-yilda 43,2 foizni, 2012-yilda 44,9 foizni va 2015-yilda esa 45,2 foizni, 2018-yilda esa 48,4 foizni tashkil etgan.

O‘simlikchilik tarmoqlari tarkibida donchilik muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Donchilik mamlakatimizning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Milliy xususiyatlarimizdan kelib chiqqan holada non va non mahsulotlari xalqimizning dasturxonida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli mustaqillikning ilk davridan boshlab don mustaqilligiga erishishga alohida e’tibor berildi. Ushbu maqsadga erishish uchun donli ekinlar maydoni keskin oshirildi, seleksiya va urug‘chilikka e’tibor berildi, donli ekinlarning hosildorligini oshirish bo‘yicha tadbirlar amalga oshirildi. Ushbu islohotlar o‘zining ijobiy natijalarini bermoqda va hozirgi vaqtda mamlakatimizda yillik ehtiyoj uchun yetarli miqdorda don yetishtirilmoqda. Donli ekinlar chorvachilikni ozuqa bazasi bilan ta’minlashda ham muhim ahamiyatga ega.

G‘allachilik asosan respublika aholisining don mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirishga xizmat qiladi. Tibbiyot me’yorlari bo‘yicha

bir kishi yil davomida 124 kg un va un mahsulotlarini iste’mol qilishi lozim. G‘allachilikda erishilgan natija respublikamiz bu boradagi talabni qondirish imkoniyatiga ega ekanligidan dalolat beradi. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yetishtirilayotgan bug‘doy aholi ehtiyojlarini to‘liq qondirib, yetishtirilgan bug‘doyning bir qismi eksport ham qilinmoqda. G‘allachilikning rivojlanishi chorvachilik va sanoat tarmoqlari yuksalishiga ham ijobiy ta’sir etadi.

Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish lozimki, mustaqillikning ilk davrida mamlakatimizda 940 ming tonna g‘alla yetishtirilgan bo‘lib, aholi uchun zarur bo‘lgan bu mahsulotga ichki ehtiyojni ta’minlash uchun taxminan 4,5 mln. tonna bug‘doy chetdan xarid qilinar edi. Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash maqsadida don mustaqilligi davlat dasturi qabul qilindi. Chunki, non xalqimiz asosiy oziq-ovqat mahsuloti hisoblanadi, shu sababli bug‘doy yetishtirishni ko‘paytirisjga alohida e’tibor berildi. Shu maqsadda bug‘doy ekiladigan maydonlar keskin ko‘paytirildi. Mamlakatimiz ekin maydonlari tarkibida donli ekinlarning salmog‘i ortmoqda. 1995-yilda donli ekinlarning umumiy ekin maydonidagi salmog‘i 39,8 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2000-yilga kelib bu ko‘rsatkich 42,7 foizni, 2008-yilda 43,2 foizni, 2012-yilda 44,9 foizni, 2015-yilda 45,2 foizni, 2019-yilda esa 47,7 foizni tashkil etmoqda.

Don mahsulotlariga bo‘lgan talabni qondirishga erishish uchun dastlab urug‘chilikka e’tibor berildi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil dekabr oyida qabul qilingan “Andijon viloyatida boshoqli don ekinlari urug‘chiligini tashkil etish masalalari to‘g‘risida”gi qarori aynan shu vazifani amalga oshirishga qaratilgan edi. Mazkur me’yoriy hujjatga asosan, hududda bug‘doyning yangi navlarini yetishtirishga ixtisoslashgan xo‘jaliklar, urug‘lik bug‘doy sanoat miqyosida tayyorlanadigan va qadoqlanadigan zamonaviy korxonalar yuzaga keldi.

20.7-jadval

Mamlakatimizda don ishlab chiqarish

	2016	2017	2018	2019
Don ekinlari ekilgan maydon, ming ga	1689,4	1655,6	1643,2	1578,3
Don ekinlari hosildorligi, sentner/ga	45,0	39,7	38,1	42,6
Don yalpi hosili, ming tonna	8261,3	7288,5	6535,5	7437,8

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

2019-yil holatiga donli ekinlar ekilgan maydon mamlakatimiz jami ekin maydonining 47,7 foizini tashkil etgan. 2019-yil holatiga donli ekinlar hosildorligi ko‘rsatkichi bo‘yicha Andijon (61,8 sentner/ga), Buxoro (61,4 sentner/ga), Sirdaryo (50,2 sentner/ga) va Surxondaryo (50,0 sentner/ga) viloyatlari yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan bo‘lsa, Jizzax viloyati (28,7 sentner/ga) va Qoraqalpog‘iston Respublikasi (26,6 sentner/ga) eng past ko‘rsatkichni qayd etgan. Don yalpi hosili bo‘yicha esa shu yili Qashqadaryo (938,4 ming tonna), Samarqand (756,1 ming tonna) va Jizzax (711,3 ming tonna) viloyatlari yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan bo‘lsa, Qoraqalpog‘iston Respublikasi (293,4 ming tonna) va Navoiy viloyati (237,7 ming tonna) eng past ko‘rsatkichni qayd etgan.

2019-yilda mamlakatimizda yetishtirilgan jami donning asosiy qismi, ya’ni 81,9 foizi bug‘doy hissasiga to‘g‘ri keladi. Mamlakatimizda oziq-ovqat avfsizligini ta’minlashda bug‘doy muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli hukumatimiz tomonidan bug‘doy ishlab chiqarishga alohida e’tibor berib kelinmoqda.

20.8-jadval

Mamlakatimizda bug‘doy ishlab chiqarish

	2016	2017	2018	2019
Bug‘doy ekilgan maydon, ming ga	1446,1	1411,1	1386,3	1316,1
Bug‘doy hosildorligi, sentner/ga	47,9	42,2	41,0	46,3
Bug‘doy yalpi hosili, ming tonna	6934,9	6079,2	5410,8	6093,5

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

2019-yil holatiga bug‘doy ekilgan maydon mamlakatimiz jami ekin maydonining 39,8 foizini tashkil etgan. 2019-yil holatiga bug‘doy ishlab chiqarish bo‘yicha Qashqadaryo (899,2 ming tonna), Samarqand (644,9 ming tonna), Surxondaryo (552,0 ming tonna), Farg‘ona (547,9 ming tonna) va Jizzax (536,8 ming tonna) viloyatlari yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan bo‘lsa, Xorazm (281,3 ming tonna) va Navoiy (205,9 ming tonna) viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi (172,6 ming tonna) eng past ko‘rsatkichlarni qayd etgan. Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2016-2018-yillar mobaynida mamlakatimizda bug‘doyning o‘rtacha hosildorligi pasaygan, lekin 2019-yilda uchbu ko‘rsatkich bo‘yicha o‘sishga erishilgan. 2019-yil holatiga bug‘doy hosildorlik darajasi ko‘rsatkichi bo‘yicha Andijon (62,9 sentner/ga), Buxoro (61,9 sentner/ga), Xorazm (53,2 sentner/ga) va Sirdaryo (52,7 sentner/ga) viloyatlari yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan bo‘lsa, Qoraqalpog‘iston Respublikasi (29,2 sentner/ga) va Jizzax viloyatida (37,5 sentner/ga) va eng past ko‘rsatkich qayd etilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda ichki ehtiyojlar o‘zimizda ishlab chiqarilgan un va non mahsulotlari bilan to‘liq ta’minlanmoqda. G‘allachilik asosan respublika aholisining don mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirishga xizmat qiladi. Tibbiyot me’yorlari bo‘yicha bir kishi yil davomida 124 kg un va un mahsulotlarini iste’mol qilishi lozim. G‘allachilikda erishilgan natija respublikamiz bu boradagi talabni qondirish imkoniyatiga ega ekanligidan dalolat beradi. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yetishtirilayotgan bug‘doy aholi ehtiyojlarini to‘liq qondirib, yetishtirilgan bug‘doyning bir qismi eksport ham qilinmoqda. Shu bilan bir vaqtda mamlakatimizga Qozog‘istondan un va bug‘doy import ham qilinmoqda. Bu mamlakatimizda yetishtirilayotgan donning aholi ehtiyojlarini qondirmayotganligidan dalolat bermaydi, balki Qozog‘istonda yetishtirilayotgan bug‘doyning sifat ko‘rsatkichlari bilan izohlanadi. Bug‘doyning sifatiga tabiiy-iqlim sharoitlari ham ta’sir ko‘rsatadi, ya’ni salqinroq hududlarda yetishtirilgan bug‘doylar konditer va boshqa sanoat talablariga mos keladi. Shu sababli mamlakatimizga Qozog‘istondan bug‘doy va un import qilinmoqda.

Mamlakatimizda don ishlab chiqarishni intensiv rivojlantirish maqsadida ushbu jarayoniga bozor tamoyillarini joriy etish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-martdagi “G‘alla yetishtirish, xarid qilish va sotishga bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4634-sonli qaroriga muvofiq:

a) 2020-yil hosilidan boshlab:

- davlat buyurtmasi asosida boshoqli don yetishtirish amaliyoti bosqichma-bosqich bekor qilinadi.

- ichki bozorda don va non mahsulotlari narxlari barqarorligini ta’minlash tadbirlarini amalga oshirish uchun davlat tomonidan xarid qilinadigan bug‘doy mulkchilik shaklidan qat’i nazar barcha korxonalarning donni saqlash talablariga mos keladigan omborlarida shartnoma asosida saqlanadi. Ushbu qarorning 1-ilovasi bo‘lgan “G‘alla yetishtirishga davlat buyurtmasi bosqichma-bosqich bekor qilinishi hamda sohaga bozor tamoyillari keng joriy etilishini tashkil etish bo‘yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar dasturi”da “O‘zdonmahsulot” AK tarkibidagi don korxonalarni 2020-2021-yillarda belgilangan tartibda bosqichma-bosqich xususiy sektorga sotish chora-tadbirlarini belgilash hamda don saqlashga talabgor bo‘lgan mulkchilik shaklidan qat’i nazar barcha don qabul qilish korxonalarining laboratoriyalari va tarozilarini xatlov va attestatsiyadan o‘tkazish, ruxsatnomalar berish, don saqlashga ruxsat etilgan korxonalar ro‘yxati hamda ularning don saqlash quvvatlarini ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish belgilab qo‘yilgan.

b) 2021-yil hosilidan boshlab:

- davlat tomonidan g‘alla xarid narxini belgilash amaliyotidan voz kechiladi;

- davlat xaridi to‘liq bekor qilinadi hamda fermerlar va boshqa korxonalar tomonidan yetishtiriladigan g‘alla barcha iste’molchilarga, shu jumladan donni qayta ishlovchi korxonalar, g‘allachilik klasterlari va treyderlarga birja savdolari orqali yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar (fyuchers, forvard va boshqalar) asosida erkin narxlarda sotiladi;

- ichki bozorda don va non mahsulotlari narxlari barqarorligini ta’minlash tadbirlarini amalga oshirish uchun zarur miqdorda don O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tomonidan fyuchers, forvard shartnomalari asosida yoki birja savdolari orqali erkin narxlarda xarid qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-maydagi “2021-yil hosili uchun ekilgan boshoqli don hosilini o‘z vaqtida va sifatli o‘rib-yig‘ib olishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 304-sonli qaroriga ko‘ra, ichki bozorda don va non narxlari barqarorligini ta’minlash tadbirlarini amalga oshirish uchun 2021-yil hosilidan davlat resurslariga tovar va urug‘lik don xarid hajmi belgilandi. Shunga ko‘ra, 2021-yil hosilidan davlat resurslariga jami 2 mln. 434 ming 425 tonna tovar va urug‘lik don (shundan 2 mln 150 ming tonna tovar don, 284 ming 425 tonna urug‘lik don) xarid qilish nazarda tutilgan.

Xalqimiz tomonidan ko‘p iste’mol qilinadigan don mahsulotlaridan yana biri bu – guruchdir. Lekin yetishtirilgan jami don tarkibida sholining salmog‘i ancha past darajada. 2019-yil holatiga jami don tarkibida sholining ulushi 4,2 foizni tashkil etgan, ushbu ko‘rsatkich 2016-yilda 5,4 foizni tashkil etgan. Suv resurslari yetarli bo‘lgan hududlarda sholi yetishtirishni ko‘paytirish maqsadga muvofiqdir.

O‘simlikchilik tarmog‘ining muhim yo‘nalishlaridan biri – texnika ekinlari yetishtirishdir. Texnika ekinlari – sanoat xomashyosi sifatida yetishtiriladigan (xomashyo beradigan) bir va ko‘p yillik qishloq xo‘jaligi ekinlaridir. Texnika ekinlari bir qancha botanik oilaga mansub. Ularga tolali ekinlar (g‘o‘za, kanop, tolali zig‘ir va boshqalar), shakarli ekinlar (qand lavlagi, shakarqamish va boshqalar), moyli ekinlar (kungaboqar, kanakunjut, yer yong‘oq, soya, raps, maxsar, xantal, zig‘ir va boshqalar), efir moyli ekinlar (atirgul, yorongul, yalpiz va boshqalar), oshlovchi modda olinadigan o‘simliklar (skumpiya, badan), kauchukli o‘simliklar (geveya, gvayula, ko‘ksag‘iz, tovsag‘iz), po‘kakli o‘simliklar

(po‘kakli dub va boshqalar), dorivor o‘simliklar (jenshen, kavrak, shrinmiya va boshqalar) kabilar mansubdir.

Texnika ekinlari tarkibida mamlakatimizda eng keng tarqalgani va ko‘p miqdorda yetishtiriladigani paxta xomashyosidir. Paxta xomashyosidan 30-35 foiz tola, 60-65 foiz chigit, 5-10 foiz har xil chiqitlar olinadi. Paxta tolasi to‘qimachilik sanoatida qayta ishlanib, aholi uchun ekologik toza bo‘lgan kiyim-kechak, harbiy soha, kosmonavtika va sanoat uchun sifatli mahsulotlar olinadi. 1 tonna paxta xomashyosidan 3000-3500 m^2 gazlama olinadi. Chigitdan esa 17-20 foiz yog‘, 40-45 foiz sheluxa, 30-35 foiz kunjara va bundan tashqari sovun, atir-upa singari yuzdan ziyod turli-tuman parfyumeriya mahsulotlari olinadi. Umuman g‘o‘zadan olinadigan mahsulotlar asosida sanoat usulida 1200 dan ko‘proq turli mahsulotlar ishlab chiqarish mumkin. Bundan ko‘rinib turibdiki, jahonda paxta tolasi va mahsulotlariga nisbatan talab ortib boraveradi.

Paxtachilik asalarichilikning rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. G‘o‘za asalarilar uchun asosiy ozuqa manbai hisoblanadi, asalarilar esa o‘z navbatida g‘o‘zaning changlanishida muhim ahamiyatga ega va hosildorlikni oshiradi.

Hozirgi kunda jahonning 66 mamlakatida paxta yetishtirilib, 100 dan ortiq mamlakat fabrikalarida paxta tolasiga ishlov beriladi. Shu o‘rinda paxta yetishtiruvchi mamlakatlar soni bilan bog‘liq muayyan tendensiya kuzatilayotganini ta’kidlash joiz. Ayrim adabiyotlarda paxta yetishtiruvchi davlatlar soni XX asrning 80-yillari oxiri va 90-yillari boshida 80 tadan ziyod ekani to‘g‘risida ma’lumot berilgan. Keyinroq, 1990-yillar o‘rtasiga kelib, ular soni 70 taga tushdi. Bugungi kunda Paxta bo‘yicha Xalqaro Maslahat qo‘mitasi (ICAC)ning bergan statistik ma’lumotlariga ko‘ra, paxta yetishtiruvchi davlatlar soni, yuqorida ta’kidlanganidek, 66 tani tashkil etmoqda. Odatda xalqaro statistikada 1000 tonna va undan ortiq paxta tolasi ishlab chiqargan davlatlar hisobga olinadi. Bundan kam paxta tolasi ishlab chiqaruvchi davlatlar mavjud bo‘lsa-da, ularga paxta yetishtiruvchi mamlakat maqomi berilmaydi. Demak, jahonda mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvining chuqurlashib borishi natijasida ayrim davlatlar paxta yetishtirishni

qisqartirib yoki batamom tugatib, boshqa xildagi nisbatan afzalroq qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashmoqdalar. Kelajakda bu jarayonning yanada chuqurlashishi natijasida paxta yetishtiruvchi davlatlar soni bundan keyin ham kamayib borishi mumkin.

Dunyo bo‘yicha har yili o‘rtacha 20-21 mln. tonna paxta tolasi yetishtiriladi. Shundan 0,9-1,0 mln. tonnasi mamlakatamiz hissasiga to‘g‘ri keladi. Yurtimiz g‘o‘za o‘simligi ekiladigan eng shimoliy mamlakatlardan biri bo‘lib, uni yetishtirish uchun qulay shart-sharoit va xalqimiz tomonidan to‘plangan boy tajriba mavjud. O‘zbekiston hozirgi vaqtda paxta yetishtirish bo‘yicha dunyoda oltinchi, uni eksport qilish bo‘yicha esa ikkinchi o‘rinda turadi.

Paxta ishlab chiqaruvchi mamlakatlardan eng yiriklari – Xitoy, AQSh, Hindiston, Pokiston, Turkiya va O‘zbekiston davlatlari bo‘lib, bu 6 ta mamlakat dunyo bo‘yicha ishlab chiqariladigan paxtaning 3/4 qismidan ziyodrog‘ini beradi.

Mamlakatimizda paxta xomashyosi ishlab chiqarish to‘g‘risidagi ma’lumotlar 20.9-jadvalda keltirilgan.

20.9-jadval

Mamlakatimizda paxta xomashyosi ishlab chiqarish

	2016	**2017**	**2018**	**2019**
G‘o‘za ekilgan maydon, ming ga	1265,1	1201,2	1108,2	1050,6
G‘o‘za hosildorligi, sentner/ga	23,4	23,8	20,7	25,6
Paxta xomashyosi yalpi hosili, ming tonna	2959,0	2853,9	2285,6	2691,7

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Mamlakatimizda 2019-yilda paxta ekin maydoni 1050,6 ming gektarni tashkil etgan bo‘lib, 2018-yilga nisbatan 94,8 foizni tashkil etgan. 2019-yil holatiga g‘o‘za ekilgan maydon mamlakatimiz jami ekin maydonining 31,7 foizini tashkil etgan. 2019-yilda 2691,7,0 ming tonna paxta xomashyosi yetishtirilgan bo‘lib, 2016-yilga nisbatan 90,9 foizni tashkil etgan.

2019-yil holatiga paxta xomashyosi ishlab chiqarish bo‘yicha Buxoro (320,6 ming tonna), Andijon (258,1 ming tonna), Xorazm (257,1 ming tonna) va Qashqadaryo (250,4 ming tonna) viloyatlari yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan bo‘lsa, Samarqand (178,2 ming tonna), Surxondaryo (149,7 ming tonna) va Navoiy (89,2 ming tonna) viloyatlarida eng past ko‘rsatkich qayd etilgan. G‘o‘za hosildorlik darajasi ko‘rsatkichi bo‘yicha Andijon (32,6 sentner/ga), Sirdaryo (30,2 sentner/ga) va Buxoro (30,0 sentner/ga) viloyatlari yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan bo‘lsa, Jizzax (22,8 sentner/ga), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (21,7 sentner/ga), Surxondaryo (19,9 sentner/ga) va Qashqadaryo (18,3 sentner/ga) viloyatlarida eng past ko‘rsatkich qayd etilgan.

2020-yil holatiga paxta ekin maydonlarining 908 ming gektari yoki 88 foizi klasterlar, qolgan 12 foizi esa kooperatsiyalarga birlashgan fermerlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-martdagi “Paxtachilik sohasida bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4633-sonli qaroriga muvofiq, 2020-yil hosilidan boshlab paxta xomashyosiga davlat buyurtmasi va xarid narxlarini belgilash amaliyotidan voz kechildi va paxta tolasi Respublika tovar-xomashyo birjasida erkin sotilishi belgilab qo‘yildi. Amalga oshirilgan ushbu islohot paxta yetishtiruvchilarning moddiy manfaatdorligini oshirishi hisobiga tarmoqni intensiv rivojlantirish imkonini beradi.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda paxta tolasini eksport qilishdan voz kechib, paxta tolasini toliq o‘zimizda qayta ishlab, uni yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlarga aylantirgan holda ichki va tashqi bozorlarga yetkazib berish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu orqali mamlakatimizda yangi ish o‘rinlari yaratish, paxtachilikni serdaromad sohaga aylantirish, valyuta tushumlarini ko‘paytirish maqsad qilib qo‘yilgan.

Mustaqillikning ilk yillarida mamlakatimiz aholisining kartoshkaga bo‘lgan ehtiyoji to‘liq qondirilmas va shu sababli ehtiyojning ma’lum qismi chetdan sotib olingan kartoshka hisobidan

qondirilar edi. Ushbu holatga barham berish va o‘zimizda yetishtirilgan kartoshka bilan mamlakatimiz aholisi ehtiyojini to‘liq qondirish borasida izchil islohotlar olib borildi. Jumladan, yurtimizda kartoshka seleksiyasi va urug‘chiligini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilib, mahalliy sharoitlarga mos, yuqori hosilli, kasalliklarga chidamli navlar yaratildi. Gollandiyadan ham kartoshkaning yuqori hosilli navlari olib kelib ekildi va mahalliy sharoitlarga moslashtirildi. Buning natijasida yurtimizda kartoshka yetishtirish hajmi keskin oshdi.

Mamlakatimizda kartoshka ekin maydoni, hosildorligi va yalpi hosili to‘g‘risidagi ma’lumotlar 20.10-jadvalda keltirilgan.

20.10-jadval

Mamlakatimizda kartoshka ishlab chiqarish to‘g‘risida ma’lumot

	2016	**2017**	**2018**	**2019**
Kartoshka ekilgan maydon, ming ga	84,6	78,8	86,8	89,6
Kartoshka hosildorligi, sentner/ga	225,1	217,9	224,8	227,3
Kartoshka yalpi hosili, ming tonna	2789,5	2793,7	2911,9	3089,7

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda kartoshka ekilgan maydon va yetishtirish hajmi keyingi yillarda ortib bormoqda. 2019-yil holatiga kartoshka yalpi hosili ko‘rsatkichi bo‘yicha Samarqand (622,6 ming tonna), Andijon (369,1 ming tonna), Toshkent (366,7 ming tonna), Surxondaryo (324,2 ming tonna) va Farg‘ona (310,3 ming tonna) viloyatlari yuqori ko‘rsatkichlarga ega ega bo‘lgan bo‘lsa, Sirdaryo (59,9 ming tonna), Jizzax (79,3 ming tonna) va Navoiy (79,3 ming tonna) viloyatlarida eng past ko‘rsatkich qayd etilgan.

Kartoshka hosildorlik darajasi bo‘yicha esa Samarqand (292,0 sentner/ga), Navoiy (260,3 sentner/ga) va Andijon (254,3 sentner/ga) viloyatlari yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan bo‘lsa, Namangan (185,9 sentner/ga), Sirdaryo (157,7 sentner/ga) viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasida (119,0 sentner/ga) eng past ko‘rsatkich qayd etilgan.

So‘nggi yillarda kartoshka ekin maydonlari oshirilmoqda. Jumladan, 2019-yil holatiga kartoshka ekilgan maydon mamlakatimiz jami ekin maydonining 2,7 foizini tashkil etgan, 2016-yilda ushbu ko‘rsatkich 2,3 foizni tashkil etgan edi.

Aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirishda sabzavotchilik tarmog‘ida yetishtirilgan mahsulotlar ham muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizda sabzavot ekinlari maydoni, hosildorligi va yalpi hosili to‘g‘risidagi ma’lumotlar 20.11-jadvalda keltirilgan.

20.11-jadval

Mamlakatimizda sabzavot ishlab chiqarish to‘g‘risida ma’lumot

	2016	**2017**	**2018**	**2019**
Sabzavot ekilgan maydon, ming ga	206,0	189,7	219,0	220,0
Sabzavot hosildorligi, sentner/ga	271,1	253,6	237,1	235,6
Sabzavot yalpi hosili, ming tonna	10184,0	10219,9	9760,3	10215,1

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, sabzavot ekinlari hosildorligi keying yillarda oshmoqda. 2019-yil holatiga sabzavot yalpi hosili ko‘rsatkichi bo‘yicha Andijon (1596,9 ming tonna), Samarqand (1584,8 ming tonna), Farg‘ona (1090,4 ming tonna), Toshkent (1066,3 ming tonna) va Surxondaryo (971,9 ming tonna) viloyatlari yuqori ko‘rsatkichlarga ega ega bo‘lgan bo‘lsa, Sirdaryo (300,9 ming tonna), Navoiy (284,6 ming tonna) viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasida (273,9 ming tonna) eng past ko‘rsatkich qayd etilgan. Sabzavotlar hosildorlik darajasi bo‘yicha esa Surxondaryo (278,4 sentner/ga), Toshkent (274,3 sentner/ga), Andijon (253,0 sentner/ga) va Xorazm (252,5 sentner/ga) viloyatlari yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan bo‘lsa, Sirdaryo viloyati (190,8 sentner/ga) va Qoraqalpog‘iston Respublikasida (135,1 sentner/ga) eng past ko‘rsatkich qayd etilgan.

Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash va mamlakatimizning eksport salohiyatini oshirishda sabzavot

mahsulotlarining tutgan o‘rnini inobatga olgan holda mamlakatimizda sabzavot ekinlari maydonini kengaytirish, hosildorlik darajasini oshirish va shu asosida ishlab chiqarish hajmini oshirishga e’tibor kuchaytirilmoqda. Jumladan, 2008-yil 20-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oziq-ovqat ekinlari ekiladigan maydonlarni optimallashtirish va ularni yetishtirishni ko‘paytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4041-sonli Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonda so‘nggi yillarda takrorlanayotgan suv tanqisligi, oziq-ovqat mahsulotlariga jahon bozorida narx-navoning muttasil oshib borayotgani munosabati bilan, shuningdek respublikada oziq-ovqat ekinlari mahsulotlari yetishtirish hajmlarini yanada oshirish hamda ularning turlarini ko‘paytirish va shu asosda aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini yanada to‘liqroq qondirish, pirovard natijada qishloq aholisi daromadlari va turmush darajasini yuksaltirish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilangan. Unga ko‘ra, paxta ekiladigan maydonlarni qisqartirish va boshoqli don, sabzavot hamda boshqa oziq-ovqat ekinlari ekiladigan maydonlar kengaytirilishi nazarda tutilgan. 2019-yil holatiga sabzavot ekilgan maydon mamlakatimiz jami ekin maydonining 6,6 foizini tashkil etgan, 2016-yilda ushbu ko‘rsatkich 5,5 foizni tashkil etgan edi.

Mamlakatimizning eng janubiy mintaqasi bo‘lgan Surxondaryo viloyati o‘ziga xos iqlim sharoitiga ega bo‘lib, sabzavot ekinlarini ertachi tayyorlasj imkoniyatiga ega. Ushbu imkoniyatdan unumli foydalangan holda sabzavotlarni erta yetishtirib, mamlakatimizning ichki bozorlarida sotish yoki eksport qilish orqali ushbu mintaqada sabzavot yetishtirish bilan shug‘ullanuvchilar yuqori daromadga ega bo‘lishlari mumkin.

Mamlakatimizda poliz ekinlari maydoni, hosildorligi va yalpi hosili to‘g‘risidagi ma’lumotlar 20.12-jadvalda keltirilgan.

20.12-jadval

Mamlakatimizda poliz mahsulotlari ishlab chiqarish to‘g‘risida ma’lumot

	2016	**2017**	**2018**	**2019**
Oziqbop poliz ekilgan maydon, ming ga	58,8	52,3	52,6	53,4
Poliz hosildorligi, sentner/ga	209,4	197,9	189,8	180,4
Oziqbop poliz yalpi hosili, ming tonna	2044,9	2031,0	1837,0	2068,7

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda poliz ekinlari hosildorligi va poliz mahsulotlari yetishtirish hajmi so‘nggi yillarda kamayish tendensiyasida bo‘lgan.

2019-yil holatiga poliz ekin maydoni bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi (12,0 ming gektar), Jizzax (9,8 ming gektar) va Xorazm (5,5 ming gektar) viloyatlari yuqori ko‘rsatkichlarga ega. 2019-yilda poliz ishlab chiqarish bo‘yicha Surxondaryo (295,2 ming tonna), Jizzax (262,4 ming tonna) va Sirdaryo (237,1 ming tonna) viloyatlari yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan bo‘lsa, Navoiy (92,0 ming tonna), Namangan (86,21 ming tonna) va Toshkent (58,9 ming tonna) viloyatlarida eng past ko‘rsatkich qayd etilgan.

Poliz ekinlari hosildorlik darajasi bo‘yicha esa Navoiy (260,5 sentner/ga) va Andijon (270,0 sentner/ga) viloyatlari yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan bo‘lsa, Jizzax viloyati (136,4 sentner/ga) va Qoraqalpog‘iston Respublikasida (118,1 sentner/ga) eng past ko‘rsatkich qayd etilgan.

Surxondaryo viloyatida poliz mahsulotlarini ham mamlakatimizning boshqa mintaqalariga nisbatan erta yetishtirish imkoniyati mavjud. Ushbu imkoniyatdan unumli foydalanish orqali shu mintaqada poliz mahsulotlari yetishtiruvchilar yuqori daromadga ega bo‘lishlari mumkin. Bundan tashqari xorijiy mamlakatlarga eksport qilish imkoniyatlaridan ham unumli foydalanish lozim. Chunki, mamlakatimizda yetishtirilayotgan poliz mahsulotlari o‘zining sifat

ko‘rsatkichlari, ta’m xususiyatlari bo‘yicha jahon bozorida ustunlikka ega.

Dehqonchilikning muhim tarmoqlaridan biri mevachilikdir. Mamlakatimizda meva va rezavorlar maydoni, hosildorligi va yalpi hosili to‘g‘risidagi ma’lumotlar 20.13-jadvalda keltirilgan.

20.13-jadval

Mamlakatimizda meva va rezavorlar ishlab chiqarish to‘g‘risida ma’lumot

	2016	**2017**	**2018**	**2019**
Meva va rezavorlar maydoni, ming ga	279,6	271,6	319,2	336,6
Shu jumladan: hosil beradigan yoshdagi meva va rezavorlar maydoni, ming ga	226,2	221,0	222,5	232,2
Mevalar hosildorligi, sentner/ga	134,5	118,3	121,6	118,5
Meva va rezavorlar yalpi hosili, ming tonna	2612,9	2614,9	2706,2	2752,7

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda so‘nggi yillarda meva va rezavorlar maydoni ko‘payishi kuzatilmoqda. Shunga mutanosib ravishda meva va rezavorlar ishlab chiqarish hajmi ham ortmoqda. Ayniqsa Surxondaryo viloyatida 2018-yilda meva va rezavorlar maydoni 2017-yilga nisbatan deyarli 3 barobar ortgan. Meva va rezavorlar maydoni bo‘yicha 2019-yil holatiga Namangan (30,7 ming gektar), Andijon (34,3 ming gektar), Samarqand (41,1 ming gektar), Toshkent (43,4 ming gektar) , Surxondaryo (49,5 ming gektar) va Farg‘ona (50,0 ming gektar) viloyatlari yuqori ko‘rsatkichlarga ega.

2019-yil holatiga meva va rezavorlar yalpi hosili ko‘rsatkichi bo‘yicha Andijon (633,4 ming tonna), Samarqand (334,8 ming tonna) va Farg‘ona (333,9 ming tonna) viloyatlari yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan bo‘lsa, Jizzax viloyati (87,7 ming tonna), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (56,1 ming tonna) va Sirdaryo (39,4 ming tonna) viloyatida eng past ko‘rsatkich qayd etilgan.

Meva va rezavorlar hosildorligi bo‘yicha esa Buxoro (217,6 sentner/ga), Andijon (211,4 sentner/ga), Xorazm (151,1 sentner/ga) va Navoiy (147,3 sentner/ga) viloyatlari yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan

bo‘lsa, Jizzax (79,3 sentner/ga) va Toshkent (57,0 sentner/ga) viloyatlari eng past ko‘rsatkich qayd etilgan. Buxoro va Andijon viloyatlarida boshqa ko‘pgina viloyatlarga nisbatan meva va rezavorlar hosildorligi ikki barobar ortiq ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

2019-yil holatiga mamlakatimiz bo‘yicha meva va rezavorlar maydoni tarkibida 68,9 foizini hosil beradigan yoshdagi meva va rezavorlar tashkil etadi. Ushbu ko‘rsatkich Surxondaryo viloyatida 30,3 foizni tashkil etadi. Bu keyingi yillarda mamlakatimizda bog‘dorchilikka alohida e’tibor berilayotgani, yangi bog‘zorlar tashkil etilayotganidan dalolat beradi. Ushbu tadbirlar yaqin yillar ichida o‘z natijasini beradi, ya’ni meva va rezavorlar ishlab chiqarish hajmi keskin ortadi.

Mamlakatimizda uzum maydoni, hosildorligi va yalpi hosili to‘g‘risidagi ma’lumotlar 20.14-jadvalda keltirilgan.

20.14-jadval

Mamlakatimizda uzum ishlab chiqarish to‘g‘risida ma’lumot

	2016	**2017**	**2018**	**2019**
Tokzorlar maydoni, ming ga	131,2	114,5	113,3	120,2
Hosil beradigan yoshdagi tokzorlar maydoni, ming ga	122,0	103,6	100,9	104,5
Uzum hosildorligi, sentner/ga	142,3	157,0	157,5	153,5
Uzum yalpi hosili, ming tonna	1613,1	1625,5	1589,8	1603,3

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2016-2018-yillar mobaynida mamlakatimizda hosil berish yoshidagi tokzorlar maydoni kamayishi kuzatilgan. Shunga mutanosib ravishda uzum yetishtirish hajmi ham kamaygan. 2019-yilda esa uzum maydonlari ko‘paygan.

2019-yil holatiga uzum yalpi hosili bo‘yicha Samarqand (564,4 ming tonna) va Buxoro (199,4 ming tonna) viloyatlari yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan bo‘lsa, Jizzax viloyati (28,9 ming tonna), Sirdaryo (12,5 ming tonna) viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasida (10,1 ming tonna) eng past ko‘rsatkich qayd etilgan.

Uzum hosildorligi bo‘yicha esa Farg‘ona (270,8 sentner/ga), Andijon (224,1 sentner/ga) va Buxoro (203,8 sentner/ga) viloyatlari yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan bo‘lsa, Surxondaryo viloyati (99,0 sentner/ga), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (98,2 sentner/ga) va Jizzax viloyatida (86,9 sentner/ga) eng past ko‘rsatkich qayd etilgan.

Yurtimizning janubiy mintaqasi bo‘lgan Surxon vohasi o‘ziga xos iqlim sharoitlariga ega va bu ayrim mevali daraxtlarni, jumladan, anor, xurmo, anjir va boshqalarni yetishtirish imkonini beradi. Bundan tashqari, viloyatda mevalar boshqa viloyatlarga nisbatan ertaroq pishib yetiladi. Ushbu imkoniyatlardan samarali foydalangan holda Surxondaryo viloyatida mevachilikdan yuqori daromad olish imkoniyatlari mavjud va shu imkoniyatlardan foydalanish lozim. Jumladan, Surxondaryo viloyatining Sherobod tumani anor, Oltinsoy tumani uzum, Denov tumani xurmo, Sariosiyo, Uzun va Boysun tumanlari esa olma, gilos, pista kabi mevalarni yetishtirish uchun juda qulay tabiiy sharoitlarlarga ega. Ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun ushbu hududlarda bog‘dorchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari va klasterlar faoliyatini rivojlantirish, mevalarni saqlash inshootlarni ko‘paytirish, mevalarni qayta ishlovchi korxonalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish, ichki va tashqi bozorlarda sotishni samarali tashkil etish uchun esa logistika markazlarini tashkillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Tabiiy-iqlim sharoitlari ta’sirida yurtimizda yetishtirilayotgan meva va uzumning sifati va ta’m xususiyatlari juda yuqori darajada bo‘ladi. Shu sababli respublikamizda yetishtirilgan mevalarga xorijiy mamlakatlarda, ayniqsa Rossiya Federatsiyasida talab yuqori. Shuni e’tiborga olgan holda, meva va uzum yetishtirishni ko‘paytirish, aholi ehtiyojlarini to‘liq qondirish hamda xorijiy mamlakatlarga eksport qilishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha tadbirlarni izchil amalga oshirib borish lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-iyundagi 481-sonli qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Bog‘dorchilik va issiqxona xo‘jaligini rivojlantirish agentligi qoshidagi Bog‘dorchilik va issiqxona xo‘jaligini rivojlantirish jamg‘armasi to‘g‘risidagi nizomning 6-bandiga ko‘ra, maydoni 35 gektardan ziyod bog‘larda suvdan maxsus foydalanish yoki suvni maxsus iste’mol qilish bo’yicha vakolatli organlar tomonidan beriladigan tegishli ruxsatnomaga asosan suv chiqarish uchun burg‘ilangan quduqni, shuningdek, daryolar, kanallar

va boshqa suv havzalaridan suvni tortish uchun nasos stansiyasini qurishga har 35 gektar uchun 120 million so‘mdan oshmaydigan miqdorda subsidiya ajratiladi. Yangi tokzorlar uchun esa bir dona artezian quduq yoki nasos stansiyasi qurishga har 10 gektarga 120 mln. so‘mgacha subsidiya beriladi, ya’ni subsidiya beriladigan maydon hajmi 3 barobarga kamaytirilgan. Shuningdek, uzumchilikda ishlatiladigan asbob-uskunalar va texnikalar bojxona to‘lovlaridan ozod etilgan.

Mamlakatimizda ozuqa ekinlari ekilgan maydon to‘g‘risidagi ma’lumotlar 20.15-jadvalda keltirilgan. Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Toshkent va Farg‘ona viloyatlarida ozuqa ekinlari maydoni so‘nggi yillarda keskin kamaygan. Vaholanki, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni ko‘paytirishda chorva mollarini yetarli darajada ozuqa bilan ta’minlash hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

20.15-jadval

Mamlakatimizda ozuqa ekinlari ekilgan maydon, ming gektar

	2016	**2017**	**2018**	**2019**
O‘zbekiston Respublikasi	333,5	243,4	242,7	267,6
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	22,3	23,4	20,3	23,0
Andijon	14,3	10,5	16,2	17,8
Buxoro	24,1	24,8	26,4	30,2
Jizzax	44,0	20,2	19,8	22,9
Qashqadaryo	37,9	28,3	22,4	25,0
Navoiy	6,0	5,0	5,0	5,6
Namangan	19,6	10,0	9,5	8,3
Samarqand	25,2	23,9	18,8	20,0
Surxondaryo	18,4	26,0	28,0	32,5
Sirdaryo	11,1	11,6	14,0	12,8
Toshkent	48,8	31,7	30,7	32,1
Farg‘ona	33,1	11,0	11,8	15,1
Xorazm	28,7	17,0	19,8	22,3

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Chorvachilik tarmog‘ini rivojlanirish uchun hududlarda chorva mollari sonidan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan me’yorlar darajasida ozuqa ekinlari uchun yer maydonlarini ajratish lozim. Chorva mollarini ilmiy asoslangan ratsion asosida ozuqa bilan ta’minlash uchun ozuqa ekinlari ekiladigan maydonlarni chorva mollari bosh soni va ularning kelgusida o‘sish prognozlariga mutanosib holda ko‘paytirib borish talab etiladi. Aks holda chorvachilik tarmog‘ining rivojlanishiga erishib bo‘lmaydi.

Mamlakatimiz hukumati tomonidan ozuqa ekinlari maydonini oshirish bo‘yicha ham islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-yanvardagi “Chorvachilik tarmog‘ini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4576-sonli qaroriga muvofiq Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va barcha viloyatlar hokimliklariga:

a) 2020-yilda yaylovlar hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi “Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5742-sonli farmonida nazarda tutilgan qishloq xo‘jaligida foydalanilmayotgan sug‘oriladigan yerlarni foydalanishga kiritish hisobidan ozuqabop ekinlarni yetishtirishni yo‘lga qo‘yish uchun chorvachilik xo‘jaliklariga ajratib berilishini ta’minlash;

b) O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi hamda davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi bilan birgalikda paxta-to‘qimachilik klasterlari va paxtachilik-g‘allachilik yo‘nalishidagi fermer xo‘jaliklari ekin maydonining 10 foiziga beda ekilishini ta’minlash kabi vazifalar yuklatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-sonli farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasi”dagi aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash yo‘nalishidagi chora-tadbirlarda umumiy ekin maydonlari tarkibida ozuqa ekinlari maydonlari ulushini 2021-yilda 10 foiz, 2025-yilda 12 foiz va 2030-yilga borib 15 foizga yetkazish nazarda tutilgan. Ushbu ko‘rsatkich 2018-yilda 7 foizni tashkil etgan edi.

O‘zbekiston Respublikasi florasida tabiiy holda o‘suvchi dorivor o‘simliklarning katta zaxiralari mavjud. Shu bilan birga mamlakatimizning tabiiy-iqlim sharoitlari ko‘plab dorivor o‘simliklarni

yetishtirish imkonini beradi. Ushbu imkoniyatlardan unumli foydalanish maqsadida mamlakatimiz hukumati tomonidan dorivor o‘simliklarni yetishtirishga ham alohida e’tibor berilmoqda. Jumladan, Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 7-dekabrda shirinmiya o‘simligi xomashyosiga bo‘lgan ichki va tashqi bozor talablarini qondirish maqsadida “O‘zbekiston Respublikasida shirinmiya xomashyosini yetishtirishni ko‘paytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 453-sonli qarori qabul qilingan. Ushbu qaror ijrosini ta’minlash maqsadida “Shifobaxsh” IIChM qoshida tashkil etilgan dorivor o‘simliklarga ixtisoslashgan o‘rmon xo‘jaligida shirinmiya o‘simligi yetishtirish yo‘lga qo‘yildi.

2018-yil 20-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikada kavrak plantatsiyalarini tashkil etish va ularning xomashyosini qayta ishlash hajmlarini ko‘paytirish hamda eksport qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3617-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga ko‘ra Kavrak yetishtiruvchilar va eksport qiluvchilar uyushmasi tashkil etildi. Uyushmaning asosiy vazifalari belgilab berilgan bo‘lib, respublika hududlarining tabiiy-iqlim sharoitlariga mos kelishini inobatga olgan holda, kavrakni plantatsiyalarda yetishtirishni tashkil etish, respublika hududlarida kavrakni sanoat usulida yetishtirish hajmini ko‘paytirish choralarini ko‘rish, mahsulot sotish bozorlarini kengaytirish maqsadida marketing tadqiqotlarini olib borish, eksport hajmini oshirish, kavrak urug‘ini tayyorlash va plantatsiya tashkil etuvchi tashkilotlarga yetkazib berish kabilar shular jumlasidandir.

Mamlakatimizdagi dorivor o‘simliklarni yetishtirish bo‘yicha mavjud inkoniyatlardan unumli foydalanish o‘simlikchilik tarmog‘ining yanada rivojlanishi, yangi ish o‘rinlari tashkil etish, mamlakatimizning eksport salohiyatini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga farmatsevtika sanoatining rivojlanishiga, xalq tabobati an’analaridan unumli foydalanishga ham zamin yaratiladi va aholi salomatligining yaxshilanishiga hissa qo‘shadi.

2021-yilda dunyo bo‘yicha o‘simlik yog‘i narxi o‘rtacha 20-25 foizga oshishi kuzatildi. Ushbu jarayon O‘zbekistonni ham chetlab o‘tmadi. Narx oshishi kungaboqar yog‘i narxi ko‘tarilishi fonida sezilgani ta’kidlandi. Yog‘-moy korxonalari uyushmasining ma’lum qilishicha, hozirda O‘zbekiston aholisining o‘simlik moyiga bo‘lgan yillik talabi 475 ming tonnani tashkil etadi. Yog‘-moy korxonalari yiliga 259 ming tonna o‘simlik moyi ishlab chiqaradi. Respublika aholisining o‘simlik moyiga bo‘lgan talabi mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan 55 foizga, 45 foizi esa import hisobiga qoplanmoqda. Ushbu

muammoning yechismi – mamlakatimizda moyli ekinlar maydonlarini ko‘paytirish hisobiga ichki ehtiyojni imkon qadar o‘zimizda yetishtirilgan mahsulot bilan qondirishdir. Ushbu mahsulot bo‘yicha importga qaramlik jahon bozoridagi konyunktura o‘zgarishi o‘simlik yog‘i narxiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. O‘simlik yog‘i olinadigan ekin turlarini ham diversifikatsiya qilish lozim. Mamlakatimizda hozirgi vaqtda o‘simlik yog‘i asosan chigitdan olinadi. Dunyo mamlakatlari tajribasini ko‘radigan bo‘lsak, o‘simlik yog‘i kungaboqar, yeryong‘oq, raps, soya, zaytun, masxar, kunjut, zig‘ir kabi ko‘pgina ekinlardan olinadi. Mamlakatimizda ham o‘simlik yog‘i olinadigan ekin turlarini ko‘paytirish lozim.

Mamlakatimiz hukumati tomonidan ham ushbu sohada chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2021-yilda aholini mahalliy sharoitda ishlab chiqarilgan o‘simlik moyi bilan ta’minlash, import hajmini keskin qisqartirish maqsadida kungaboqar, soya, masxar, raps, kunjut va zig‘ir ekinlari hajmi oshirilishi nazarda tutilmoqda. Bir gektar yerda zig‘ir yetishtirilganda, o‘rtacha 10-12 sentner hosil olinadi va undan 300-360 litr moy olinadi. Bir gektar maydonga kunjut ekilganda 1,2-1,5 tonna xomashyo yetishtirilib, 500-600 litr moy olinadi. Zaytun ekilgan bir gektar maydonda esa 350-400 tup daraxt bo‘lib, har bir daraxtdan 50-70 kilogramm, jami 2,4-2,8 tonna meva yig‘ib olinadi, undan 1,5-1,7 tonna zaytun moyi olinadi. Zaytun uzoq (500 yildan 4000 yilgacha) yashaydigan va sekin o‘suvchi subtropik daraxt hisoblanadi. Shu bilan birga, zaytun moyi shifobaxsh xususiyatlarga ham ega.

Shularni inobatga olgan holda, hududlarning tuproq-iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan holda zaytun o‘simligini plantatsiya usulida yetishtirish yo‘lga qo‘yilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2021-yilning 1-2-iyun kunlari Surxondaryo viloyatiga amalga oshirgan tashrifi doirasida Surxondaryo viloyatining Oltinsoy, Muzrabot, Uzun, Termiz, Jarqo‘rg‘on, Sariosiyo va Bandixon tumanlarida zaytun plantatsiyalari barpo etilishi ma’lum qilingan. Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida 530 gektar, shu jumladan Surxondaryo viloyatining Oltinsoy, Muzrabot va Uzun tumanlarining har birida 100 gektardan, Termiz, Jarqo‘rg‘on, Sariosiyo, Bandixon tumanlarining har birida 50 gektardan, Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod tumanida 30 gektar moydonda zaytun plantatsiyasi barpo etilishi nazarda tutilmoqda. Zaytunzorlar barpo etuvchi

tashabbuskorlarga tijorat banklari tomonidan 7 yil muddatga imtiyozli kreditlar ajratiladi, tomchilatib sug‘orish texnologiyalarini joriy etish uchun 3,2 mlrd. so‘m miqdorida subsidiyalar beriladi.

3. O‘simlikchilik tarmoqlarini yanada rivojlantirish imkoniyatlari va samaradorligini oshirish yo‘llari.

O‘simlikchilik tarmoqlarining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi ahamiyatini inobatga olgan holda uni rivojlantirib borish lozim.
O‘simlikchilik mahsulotlari yetishtirishni rivojlantirish va ularning samaradorligini yuksaltirish yo‘llari quyidagilar:
a) o‘simlikchilik mahsulotlari yalpi hosilini ko‘paytirish uchun:
- ekin maydonlarini kengaytirish;
- ekinlarning hosildorligini oshirish zarur;
b) hosildorlikni oshirish uchun:
- ekin maydonlarining meliorativ holatini yaxshilash;
- ekin maydonlarining suv bilan ta’minlanishini yaxshilash va sug‘orishning zamonaviy, tejamkor usullarini qo‘llash ;
- ishlab chiqarish vositalaridan samarali foydalanish;
- urug‘larning serhosil, tezpishar, kasallik va suvsizlikka chidamli navlarini ekish;
- mineral va mahalliy o‘g‘itlardan oqilona foydalanish;
- o‘simliklarni kimyoviy himoyalsh vositalardan samarali foydalanish;
- agrotexnik tadbirlarni o‘z muddatida va sifatli bajarish;
- almashlab ekishni joriy etish;
- ishchi va xizmatchilarni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish lozim.
d) mahsulot yetishtirishda xarajatlarni tejash uchun:
- zamonaviy texnikalarni, ilg‘or texnologiyalarni joriy etish;
- mahsulot yetishtirish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirishga e’tibor berish.
e) ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va ekinlarni maqsadga muvofiq joylashtirish zarur;
f) yetishtirilgan hosilni tashish va saqlash jarayonlarini samarali tashkil etish lozim;

g) mahsulotlarni bozor talablari asosida sotishni amalga oshirish kerak.

O‘simlikchilik mahsulotlari yetishtirishni ko‘paytirishning ikkita – ekstensiv va intensiv usullari mavjud. Ekstensiv usulda mahsulot miqdori asosan ekinlar maydonini ko‘paytirish hisobiga, intensiv usulda esa ekinlarning hosildorligini oshirish hisobiga ta’minlanadi. O‘simlikchilik mahsulotlari miqdorini intensiv usul orqali ko‘paytirish uchun tuproq unumdorligi oshishini ta’minlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish, masalan, irrigatsiya-melioratsiya tizimini qurish, ta’mirlash, yerlarni tekislash, o‘g‘itlardan samarali foydalanish, almashlab ekishni joriy etish kerak.

Yetishtirilayotgan mahsulotlar samaradorligini yuksaltirish uchun esa ishlab chiqarish va boshqarish xarajatlari tejalishini ta’minlaydigan tadbirlarni oqilona amalga oshirish zarur. Buning uchun mehnatni tashkil etishning bozor iqtisodiyoti talablariga mos shakllarini tatbiq qilish, ishlab chiqarish, hosilni yig‘ishtirib olish, saqlash jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish, ishlab chiqarish vositalaridan to‘liq va samarali foydalanish, zamonaviy texnika, ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, ishchi-xizmatchilarning moddiy va ma’naviy rag‘batlantirilishini izchillik bilan amalga oshirish kerak.

Qisqacha xulosalar

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘i yetishtirilayotgan mahsulotlarning turlari va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ikkita yirik tarmoqqa: o‘simlikchilik va chorvachilikka bo‘linadi. O‘simlikchilik qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmog‘i bo‘lib, unda ko‘p turdagi mahsulotlar yetishtiriladi. Jumladan, aholi iste’moli uchun kerak bo‘ladigan oziq-ovqat mahsulotlari, oziq-ovqat va yengil sanoatlarining ko‘plab korxonalari uchun xomashyo hamda chorvachilik uchun ozuqa mahsulotlari yetishtiriladi.

Hozirgi vaqtda mamlakatimiz hukumati tomonidan o‘simlikchilik mahsulotlari yetishtirishni rivojlantirish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda va bu islohotlar o‘zining ijobiy natijalarini bermoqda. Mamlaktimiz aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini, sanoat tarmoqlarining xomashyoga bo‘lgan talabini qondirish,

aholi daromadlarini ko‘paytirish, mamlakatimiz eksport salohiyatini yanada yuksaltirish uchun qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini, shu jumladan o‘simlikchilik mahsulotlari yetishtirishni yanada oshirish lozim.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. O‘simlikchilik tarmog‘ining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o‘rnini, ahamiyatini tushuntirib bering.
2. O‘simlikchilik mahsulotlarining inson hayotidagi ahamiyatini izohlab bering.
3. O‘simlikchilik o‘z navbatida qanday tarmoqlarga bo‘linadi?
4. Mamlakatimizda o‘simlikchilik mahsulotlari ishlab chiqarishning hozirgi holati qanday?
5. O‘simlikchilik mahsulotlari samaradorligini qanday ko‘rsatkichlar ifodalaydi?
6. Mamlakatimizda o‘simlikchilik mahsulotlarining iqtisodiy samaradorlik darajasi qanday holatda?
7. O‘simlikchilik mahsulotlari yetishtirishni rivojlantirish, samaradorligini yuksaltirishning qanday yo‘llari mavjud?

BOB YUZASIDAN AMALIY TOPSHIRIQLAR:

1-topshiriq:

Klaster usuli yordamida o‘simlikchilik tarmog‘ining qanday kichik tarmoqlardan tashkil topganligini ko‘rsatib berish.



2-topshiriq:

SWOT tahlil usuli yordamida mamlakatimizda o‘simlikchilikni rivojlantirish imkoniyatlarini tahlil qilish. Bunda doskaga SWOT tahlil jadvali chiziladi va har bir talaba alohida ushbu tahlilni amalga oshiradi.

Mamlakatimizda o‘simlikchilikni rivojlantirish imkoniyatlari

S (strength)	W (weakness)
O (opportunity)	T (threat)

3-topshiriq:

“Baliq skeleti” usuli yordamida “O‘simlikchilik tarmog‘ida mavjud muammolar nimalardan iborat?” savoliga javob berish.



4-topshiriq:

FSMU texnologiyasi yordamida “O‘simlikchilik tarmoqlarining samaradorligini yanada oshirish uchun nimalarga e’tibor berish lozim?” ekanligini aniqlash.

Yo‘naltiruvchi so‘zlar: Xizmat ko‘rsatish sohalari jihatidan, ishchi kuchi jihatdan, marketing jihatdan.

	O‘simlikchilik tarmoqlarining samaradorligini yanada oshirish uchun nimalarga e’tibor berish lozim?
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating	
(M) Ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. O‘simlikchilik tarmog‘ining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o‘rni va ahamiyati.
2. Mamlakatimizda o‘simlikchilik tarmoqlarining hozirgi rivojlanish holati.
3. Mamlakatimizda o‘simlikchilik tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar.
4. O‘simlikchilik mahsulotlari yetishtirishni ko‘paytirish va samaradorligini oshirish yo‘llari.

21-BOB: CHORVACHILIK TARMOQLARI IQTISODIYOTI

1. Chorvachilik tarmoqlari va ularning mamlakatimiz iqtisodiyotidagi ahamiyati.
2. Mamlakatimizda chorvachilik tarmoqlarining hozirgi rivojlanish holati.
3. Chorvachilik tarmoqlarini yanada rivojlantirish imkoniyatlari va samaradorligini oshirish yo‘llari.

Tayanch iboralar: chorvachilik, qoramolchilik, qo‘ychilik va echkichilik, yilqichilik, parrandachilik, quyonchilik, chorva ozuqasi.

1. Chorvachilik tarmoqlari va ularning mamlakatimiz iqtisodiyotidagi ahamiyati.

Chorvachilik – mamlakatimiz qishloq xo‘jaligining muhim tarkibiy qismidir. Chunki bu tarmoqda inson salomatligi uchun zarur bo‘lgan turli xildagi oziq-ovqat mahsulotlari yetishtiriladi. Go‘sht, sut va tuxum aholining asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bo‘lib, ularsiz oziq moddalariga bo‘lgan talabni qondirib bo‘lmaydi. Chorvachilik tarmog‘ining aholini oqsil va uglevodlarga boy sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashda o‘rni beqiyosdir. Chorvachilik sanoatning ko‘pgina yo‘nalishlari uchun xomashyo yetkazib beradi. Sanoat tarmoqlarining rivojlanishi chorvachilik tarmoqlari tomonidan yetkazib beriladigan xomashyolarga ham bog‘liqdir. Chorvachilik tarmog‘i dehqonchilikni mahalliy o‘git bilan ham ta’minlaydi. Bu esa tuproq unumdorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Chorvachilik yirik tarmoq bo‘lib, o‘z navbatida hayvonlar turlari va yetishtiriladigan mahsulotlar xususiyatidan kelib chiqqan holda quyidagi kichik tarmoqlarga bo‘linadi:

- qoramolchilik;
- qo‘ychilik va echkichilik;
- parrandachilik;
- yilqichilik;

- mo‘ynachilik;
- cho‘chqachilik;
- baliqchilik;
- asalarichilik va boshqalar.

Aholini zarur bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashda chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash va sotish tizimlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Aholi soni ko‘payishi va sanoat korxonalari quvvatlarining oshishi chorvachilik mahsulotlariga bo‘lgan talabning o‘sishiga olib kelmoqda. Aholining chorvachilik mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirish uchun bir qancha tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy tadbirlarni amalga oshirish, jumladan, chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash tizimini rivojlantirish kerak. Chorvachilik tarmog‘ini jadal rivojlantirish, zamonaviy va innovatsion uslublarni joriy etish, mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish va turlarini kengaytirish, shuningdek, aholini mahalliy sharoitda ishlab chiqarilgan sifatli va arzon chorvachilik mahsulotlari bilan uzluksiz ta’minlash hamda chorvachilikka ixtisoslashgan korxonalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyatga ega.

Chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlarning zamonaviy talablarga javob beradigan moddiy-texnika bazasini bosqichma-bosqich rivojlantirishga alohida e'tibor berish lozim. Hozirgi vaqtda mamlakatimizda chorvachilik mahsulotlari asosan dehqon xo‘jaliklarida yetishtirilmoqda. Bu esa chorvachilik mahsulotlari yetishtirish jarayonini mexanizatsiyalashtirish, naslchilik ishlarini ilmiy asoslangan holda tashkil etish, ishlab chiqarilgan chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlashni tashkil etish imkoniyatlarini cheklab qo‘yadi. Bu masalani hal etish uchun chorvachilik sohasiga ixtisoslashgan klasterlarni tashkil etish, fermer xo‘jaliklarida ham chorvachilikni rivojlantirishga, bu jarayonga xorijiy investitsiyalarni jalb etishga e’tibor berish zarur.

Mamlakatimiz hukumati tomonidan chorvachilikni rivojlantirishga qaratilgan yirik dasturlar ishlab chiqilib, ularni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha qator chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Masalan, shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklarida chorva mollarini ko‘paytirishni rag‘batlantirish dasturini amalga oshirish yuzasidan bajarilayotgan chora-tadbirlar bugungi kunda sezilarli natijalar bermoqda.

2. Mamlakatimizda chorvachilik tarmoqlarining hozirgi rivojlanish holati.

2019-yilda mamlakatimiz bo‘yicha 104378,3 mlrd. so‘mlik chorvachilik mahsulotlari yetishtirilgan bo‘lib, 2018-yilga nisbatan 101,6 foizni tashkil etgan. Qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotining tarkibida chorvachilik tarmog‘ining ulushi 2019-yilda 46,5 foizni tashkil etgan bo‘lib, 2018-yilda bu ko‘rsatkich 45,6 foiz edi (21.1-jadval).

21.1-jadval

Chorvachilik tarmog‘ining asosiy ko‘rsatkichlari

	2016	**2017**	**2018**	**2019**
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsuloti hajmi, mlrd. so‘m	119726,7	154369,4	195095,6	224265,9
Shu jumladan:				
chorvachilikda	53844,1	64895,9	89019,2	104378,3
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi o‘sish sur’ati, o‘tgan yilga nisbatan foizda	106,1	101,2	100,3	103,1
Shu jumladan:				
chorvachilikda	107,0	104,1	105,7	101,6

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Mustaqilllikning ilk yillaridan mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida davlat mulkini xususiylashtirish, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e’tibor berildi. Shu maqsadda 1995-yil 24-martda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Chorvachilikda xususiylashtirishni davom ettirish va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 96-sonli qarori qabul qilingan edi. Ushbu qarorda 1995-yil oxirigacha chorvachilik mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirilmagan xo‘jaliklardagi chorvachilik fermalarini xususiylashtirish belgilab berilgan. Unga ko‘ra chorva mollari, binolar va asbob-anjomlarni kim oshdi savdosi asosida sotish nazarda tutilgan edi. Ushbu qarorda xususiylashtirilgan fermalarga

chorva ozuqasi yetishtirish uchun, har bir xo‘jalikning aniq tabiiy-iqtisodiy hududlaini va yer resurslarini hisobga olgan holda, shartli har bosh mol hisobiga sug‘oriladigan yerlardan Andijon, Farg‘ona, Namangan, Toshkent, Xorazm va Samarqand viloyatlarida 0,3 gektardan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida va boshqa viloyatlarda 0,45 gektardan, lalmi yerlarda esa 2 gektardan yer ajratish nazarda tutilgan bo‘lib, qarorning 1-ilovasiga ko‘ra respublikamiz bo‘yicha jami 144,4 ming gektar yer ajratilishi ko‘rsatilgan edi. Bundan tashqari, chorvachilik fermalarini xususiylashtirishda yangi mulkdorlarning ulush qo‘shib qatnashishlari asosida mavjud kommunikatsiyalar, ozuqa sexlari, transport vositalari va qishloq xo‘jaligi texnikasi negizida shirkatlar tashkil etilishi nazarda tutilgan edi. Yuqoridagi qaror asosida mamlakatimizda mavjud ko‘plab chorvachilik fermalari xususiylashtirildi, lekin ularning faoliyati ko‘zlangan natijalarni bermadi. Bunga asosiy sabablardan biri – chorvachilik fermasini xususiylashtirib olgan tadbirkorlarning o‘z faoliyatini samarali davom ettirib ketishlari uchun zarur bo‘lgan investitsiyalarni amalga oshira olmaganliklari hamda chorva mollarini mustahkam ozuqa bazasi bilan ta’minlash uchun yetrali miqdorda sug‘oriladigan yer maydonlari ajratib berishda kamchiliklarga yo‘l qo‘yilganligidir. Ushbu xususiylashtirilgan fermalar keyinchalik o‘z faoliyatini to‘xtatdi va ulardagi chorva mollari sotilib, aholi qo‘liga, ya’ni dehqon xo‘jaliklari ixtiyoriga o‘tgan. Shuning natijasida dehqon xo‘jaliklari chorva mollari bosh soni va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda yuqori salmoqni egallab kelmoqda.

Chorva mollari va parrandalar bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha tarkibi 21.2-jadvalda keltirilgan.

21.2-jadval

Chorva mollari va parrandalar bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha takibi, 1-yanvar holatiga, barcha toifadagi xo‘jaliklarga nisbatan foizda

	2017	**2018**	**2019**	**2020**
Fermer xo‘jaliklari				
Qoramollar	4,7	4,9	5,2	5,5
sh.j. sigirlar	4,6	4,8	5,0	5,4
Qo‘y va echkilar	7,7	10,5	11,4	12,3

Otlar	9,5	14,1	16,0	17,8
Parrandalar	11,6	12,4	14,1	14,0
Dehqon xo‘jaliklari				
Qoramollar	94,1	93,6	93,5	93,2
sh.j. sigirlar	94,5	94,2	94,1	93,6
Qo‘y va echkilar	83,8	84,2	83,6	82,5
Otlar	85,0	82,2	80,0	77,4
Parrandalar	62,0	59,0	55,2	58,7
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar				
Qoramollar	1,2	1,5	1,3	1,3
sh.j. sigirlar	0,9	1,0	0,9	1,0
Qo‘y va echkilar	8,4	5,3	5,0	5,2
Otlar	5,5	3,7	4,0	4,8
Parrandalar	26,4	28,6	30,7	27,3

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda chorva mollari asosan dehqon xo‘jaliklar ixtiyorida bo‘lib, 2019-yil holatiga qoramollarning 93,2 foizi, sigirlarning 93,6 foizi, qo‘y va echkilarning 82,5 foizi dehqon xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keladi. Parrandalar soni bo‘yicha qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning ham ulushi sezilarli darajadadir. 2019-yil holatiga qoramollarning atigi 5,5 foizi fermer xo‘jaliklari tasarrufida bo‘lgan, lekin so‘nggi yillarda chorva mollari bosh soni tarkibida fermer xo‘jaliklarining ulushi ortmoqda. Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish, chorvachilik mahsulotlari narxlarini pasaytirishga erishish uchun chorvachilik mahsulotlari yetishirishning xo‘jalik yuritish shakllari bo‘yicha tarkibini takomillashtirish lozim. Chorva mollari bosh sonida fermer xo‘jaliklarining ham ulushini oshirish va chorvachilik klasterlari faoliyatini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Fermer xo‘jaliklari faoliyatini diversifikatsiyalash, ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini ko‘paytirish orqali ularda ham chorvachilik tarmog‘ini rivojlantirish lozim. Bunda hal etilishi lozim bo‘lgan asosiy masala – fermer xo‘jaliklariga ulardagi chorva mollari bosh sonidan kelib chiqqan holda ozuqa ekinlari ekish uchun yer maydonlarining ajratilishidir. Xo‘jalik yuritish shakllari bo‘yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar 21.3-jadvalda keltirilgan.

21.3-jadval

Chorva mollari va parrandalar bosh soni, 1-yanvar holatiga, ming bosh

	2017	**2018**	**2019**	**2020**
Barcha toifadagi xo‘jaliklarda				
Qoramollar	12181,4	12471,0	12814,1	12949,7
sh.j. sigirlar	4217,3	4336,5	4626,0	4663,5
Qo‘y va echkilar	19697,9	20640,9	21580,5	21906,9
Otlar	221,4	230,6	242,5	247,1
Parrandalar	67037,7	74870,1	86374,8	87859,7
Fermer xo‘jaliklari				
Qoramollar	575,8	615,9	662,2	708,3
sh.j. sigirlar	193,9	210,3	230,1	249,6
Qo‘y va echkilar	1518,9	2166,9	2461,7	2691,8
Otlar	21,1	32,5	38,8	44,1
Parrandalar	7745,6	9263,2	12146,8	12299,1
Dehqon xo‘jaliklari				
Qoramollar	11461,2	11675,4	11983,3	12071,7
sh.j. sigirlar	3983,5	4085,0	4351,2	4366,4
Qo‘y va echkilar	16516,5	17369,9	18034,7	18064,1
Otlar	188,1	189,6	193,9	191,3
Parrandalar	41568,1	44197,0	47637,2	51611,2

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar				
Qoramollar	144,4	179,7	168,6	169,7
sh.j. sigirlar	39,9	41,2	44,7	47,5
Qo‘y va echkilar	1662,5	1104,1	1084,1	1151,0
Otlar	12,2	8,5	9,8	11,7
Parrandalar	17724,0	21409,9	26590,8	23949,4

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, so‘nggi yillarda mamlakatimizda barcha turdagi chorva mollari bosh soni ko‘paygan. Fermer xo‘jaliklarida barcha turdagi chorva mollari bosh soni ko‘paygan bo‘lsa, dehqon xo‘jaliklarida otlar soni 2019-yilda 2018-yilga nisbatan 2600 boshga kamayganligini ko‘rishimiz mumkin. Dehqon xo‘jaliklarida boshqa barcha turdagi chorva mollari bosh soni ko‘payan. Mamlakatimizda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi to‘g‘risidagi ma’lumotlar 21.4-jadvalda keltirilgan.

21.4-jadval

Asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish, ming tonna

	2016	**2017**	**2018**	**2019**
Barcha toifadagi xo‘jaliklarda				
Go‘sht	2172,5	2286,8	2430,5	2473,6
Sut	9703,4	10047,9	10466,4	10714,3
Tuxum, mln. dona	6152,5	6332,7	7459,3	7771,2
Jun	37,1	36,4	34,6	35,1
Qorako‘l teri, ming dona	1055,4	1075,1	1085,2	1150,7
Pilla	26,4	12,5	17,9	21,4
Fermer xo‘jaliklari				
Go‘sht	62,2	69,3	109,5	125,7
Sut	352,7	337,7	397,3	462,0
Tuxum, mln. dona	656,7	695,3	1079,5	1142,8
Jun	3,0	2,2	2,8	3,2
Qorako‘l teri, ming dona	58,0	59,8	85,6	91,4
Pilla	24,9	11,4	14,3	15,7

Dehqon xo‘jaliklari				
Go‘sht	2051,3	2145,9	2236,5	2230,9
Sut	9278,8	9641,8	9995,8	10156,5
Tuxum, mln. dona	3528,2	4020,8	4335,1	4491,6
Jun	31,7	32,4	30,5	30,5
Qorako‘l teri, ming dona	883,6	906,2	904,4	975,4
Pilla	-	-	-	
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar				
Go‘sht	59,1	71,6	84,5	117,0
Sut	71,9	68,4	73,3	95,8
Tuxum, mln. dona	1967,5	1616,6	2044,7	2136,8
Jun	2,5	1,8	1,3	1,4
Qorako‘l teri, ming dona	113,9	109,1	95,2	83,9
Pilla	1,4	1,1	3,6	5,7

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, so‘nggi yillarda mamlakatimizda go‘sht, sut, tuxum va qorako‘l teri ishlab chiqarish hajmi o‘sib kelmoqda. Jun va pilla ishlab chiqarishda esa biroz pasayish kuzatilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning xo‘jalik toifalari bo‘yicha tarkibi 21.5-jadvalda keltirilgan.

21.5-jadval

Asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning xo‘jalik toifalari bo‘yicha tarkibi, barcha toifadagi xo‘jaliklarga nisbatan foizda

	2016	**2017**	**2018**	**2019**
Fermer xo‘jaliklari				
Go‘sht	2,9	3,0	4,5	5,1
Sut	3,6	3,4	3,8	4,3
Tuxum	10,7	10,9	14,5	14,7
Jun	8,1	6,0	8,1	9,1
Qorako‘l teri	5,5	5,6	7,9	7,9
Pilla	94,3	91,2	79,8	73,4

Dehqon xo‘jaliklari				
Go‘sht	94,4	93,9	92,0	90,2
Sut	95,6	95,9	95,5	94,8
Tuxum	57,3	63,5	58,1	57,8
Jun	85,4	89,0	88,2	86,9
Qorako‘l teri	83,7	84,3	83,3	84,8
Pilla	-	-	-	-
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshgiruvchilar				
Go‘sht	2,7	3,1	3,5	4,7
Sut	0,8	0,7	0,7	0,9
Tuxum	32,0	25,6	27,4	27,5
Jun	6,7	4,9	3,7	4,0
Qorako‘l teri	10,8	10,1	8,8	7,3
Pilla	5,7	8,8	20,2	26,6

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Ushbu jadval ma’lumotlaridan mamlakatimizda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda dehqon xo‘jaliklarining ulushi yuqoriligini ko‘rishimiz mumkin. 2019-yil holatiga dehqon xo‘jaliklarining ulushi jami ishlab chiqarilgan go‘sht tarkibida 90,2 foizni, jami ishlab chiqarilgan sut tarkibida 94,8 foizni, jami ishlab chiqarilgan tuxum tarkibida 57,8 foizni, jami ishlab chiqarilgan jun tarkibida 86,9 foizni va jami ishlab chiqarilgan qorako‘l teri tarkibida 84,8 foizni foizni tashkil etgan. Chorvachilik tarmog‘ini intensiv rivojlantirish uchun chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida boshqa xo‘jalik yuritish shakllari, jumladan, fermer xo‘jaliklari va chorvachilik klasterlarining ulushini ham ko‘paytirish maqsadga muvofiq. Chunki dehqon xo‘jaliklarida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonini mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish, veterinariya xizmatlarini tashkil etish, naslchilikni yo‘lga qo‘yish, sohaga taalluqli ilmiy-tadqiqotlar olib borish, ishlab chiqarishga innovatsiyalarni joriy etish, ilmiy asoslangan miqdordagi barcha zaruriy ozuqa mahsulotlari bilan ta’minlash, chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlashni yo‘lga qo‘yish, yirik investitsion loyihalarni tatbiq etish kabi tadbirlarni amalga oshirish imkoniyatlari cheklangan. Shu sababli fermer xo‘jaliklarida ham chorvachilik tarmog‘ini rivojlantirish va chorvachilik

klasterlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish va ularni rovojlantirishga e’tibor berish lozim.

Asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o‘sish sur’atlari 21.6-jadvalda keltirilgan.

21.6-jadval

Asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur’atlari, o‘tgan yilga nisbatan foizda

	2016	**2017**	**2018**	**2019**
Barcha toifadagi xo‘jaliklarda				
Go‘sht	106,8	105,3	106,3	101,8
Sut	107,5	103,5	104,2	102,4
Tuxum	111,1	102,9	117,8	104,2
Jun	103,0	98,0	95,2	101,4
Qorako‘l teri	102,3	101,9	100,9	106,0
Pilla	100,2	47,4	143,5	119,3
Fermer xo‘jaliklari				
Go‘sht	106,6	111,5	158,0	114,8
Sut	107,4	95,7	117,7	116,3
Tuxum	107,0	105,9	155,2	105,9
Jun	103,2	73,9	127,2	116,4
Qorako‘l teri	103,9	103,1	143,3	106,7
Pilla	101,2	45,8	125,1	109,6
Dehqon xo‘jaliklari				
Go‘sht	106,8	104,6	104,2	99,8
Sut	107,5	103,9	103,7	101,6
Tuxum	113,6	114,0	107,8	103,6
Jun	102,8	102,4	94,2	99,6
Qorako‘l teri	102,7	102,6	99,8	107,9

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Ushbu jadval ma’lumotlaridan 2019-yil holatiga barcha turdagi chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o‘sganligini ko‘rishimiz mumkin. So‘nggi yillarda fermer xo‘jaliklarida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi boshqa turdagi xo‘jalik yuritish shakllariga nisbatan yuqoriroq sur’atlarda o‘smoqda.

Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan chorvachilik mahsulotlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar 21.7-jadvalda keltirilgan.

21.7-jadval

Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan chorvachilik mahsulotlari, kg

	2016	**2017**	**2018**	**2019**
Go‘sht	68,2	70,6	73,7	73,7
Sut	304,7	310,2	317,6	319,1
Tuxum, dona	193	195	226	231
Baliq	2,1	2,6	2,8	3,6

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Ushbu jadval ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatimizda aholi jon boshiga ishlab chiqarilayotgan chorvachilik mahsulotlari so‘nggi yillarda ortib bormoqda.

Chorvachilikning muhim yo‘nalishlaridan biri – qoramolchilikdir. U aholini qimmatli oziq-ovqat mahsulotlari – sut va go‘sht bilan ta’minlaydi. Ularning terisidan esa ko‘p turdagi charm mahsulotlari tayyorlanadi. Boshqa turdagi chorva mollari bilan taqqoslaganda, qoramollar yuqori sut mahsuldorligiga ega. Bundan tashqari, qoramollar ratsioni tarkibiga kiruvchi ozuqalar ham boshqa turdagi chorva mollari ozuqasiga nisbatan ancha arzon bo‘lib, dag‘al xashakdan keng foydalaniladi.

21.8-jadval

Yirik shoxli qoramollar bosh soni (yil oxiriga, ming bosh)

	2016	**2017**	**2018**	**2019**
O‘zbekiston Respublikasi	12181,4	12471,0	12814,1	12949,7
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1009,3	1058,0	1095,3	1110,6
Andijon	1028,9	1012,2	1038,2	1053,0
Buxoro	1179,9	1197,2	1209,0	1227,5
Jizzax	867,1	880,4	893,7	893,9
Qashqadaryo	1479,3	1539,7	1584,9	1598,7
Navoiy	440,9	469,0	496,8	501,7
Namangan	680,1	693,9	702,5	706,9

Samarqand	1454,2	1476,0	1555,6	1578,2
Surxondaryo	892,5	946,1	962,1	974,1
Sirdaryo	412,6	413,2	458,3	458,7
Toshkent	861,3	886,4	902,2	918,8
Farg‘ona	1012,0	994,6	1003,7	1003,8
Xorazm	863,3	904,3	911,8	923,8

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda qoramollar bosh soni so‘nggi yillarda ortmoqda. 2016-yilda 12181,4 ming bosh yirik shoxli qoramol bo‘lgan bo‘lsa, 2019-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 12949,7 ming boshni tashkil etgan. Yirik shoxli qoramollar bosh soni bo‘yicha 2019-yil holatiga Qashqadaryo (1598,7 ming bosh), Samarqand (1578,2 ming bosh) va Buxoro (1227,5 ming bosh) viloyatlari yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lsa, Namangan (706,9 ming bosh), Navoiy (501,7 ming bosh) va Sirdaryo (458,7 ming bosh) viloyatlari eng past ko‘rsatkichga ega.

Qo‘ychilik ham chorvachilikning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, go‘sht, jun, teri, qorako‘l teri, sut va boshqa mahsulotlar beradi. Mamlakatimizda 2020-yil 1-yanvar holatiga 11559,7 ming gektar pichanzor va yaylovlar mavjud bo‘lib, bu chorvachilik uchun asosiy ozuqa manbai hisoblanadi.

21.9-jadval

Qo‘y va echkilar bosh soni (yil oxiriga, ming bosh)

	2016	**2017**	**2018**	**2019**
O‘zbekiston Respublikasi	19697,9	20640,9	21580,5	21906,9
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	939,7	1031,8	1089,7	1115,1
Andijon	1290,5	1365,1	1434,9	1437,2
Buxoro	2043,4	2068,2	2115,9	2189,1
Jizzax	1823,0	2006,9	2118,3	2155,7
Qashqadaryo	4412,6	4518,4	4599,2	4614,2
Navoiy	1834,0	1875,0	2091,8	2151,4
Namangan	702,4	716,0	765,1	767,6

Samarqand	2205,8	2282,8	2397,1	2434,2
Surxondaryo	2089,7	2234,1	2316,9	2361,4
Sirdaryo	293,5	320,0	347,6	347,7
Toshkent	838,1	975,4	1024,4	1040,1
Farg‘ona	829,2	831,8	851,4	856,7
Xorazm	396,0	415,4	428,2	436,5

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda qo‘y va echkilar bosh soni ham so‘nggi yillarda ortmoqda. 2016-yilda 19697,9 ming bosh qo‘y va echkilar bo‘lgan bo‘lsa, 2019-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 21906,9 ming boshni tashkil etgan. Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatimizda jami qo‘y va echkilar soni bo‘yicha 2019-yil holatiga Qashqadaryo (4614,2 ming bosh), Samarqand (2434,2 ming bosh) va Surxondaryo (2361,4 ming bosh) viloyatlari yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lsa, Namangan (767,6 ming bosh), Xorazm (436,5 ming bosh) va Sirdaryo (347,7 ming bosh) viloyatlari eng past ko‘rsatkichga ega. Mamlakatimizda hozirgi vaqtda qo‘y va echkilar sonining asosiy qismi dehqon xo‘jaliklari tasarrufidadir. 2019-yil holatiga ushbu ko‘rsatkich 82,5 foizni tashkil etgan.

Chorvachilik tarmoqlari ichida parrandachilik ham muhim ahamiyatga ega. Parrandachilik aholini to‘yimli parhez oziq-ovqat mahsuloti va oqsilga boy tuxum bilan ta’minlaydi. Xalqimiz tomonidan parrandachilik “yetti xazinaning biri” sifatida e’tirof etiladi. Darhaqiqat, parrandachilik juda serdaromad soha hisoblanadi. Shu sababli mamlakatimizda parrandachilikni rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda.

21.10-jadval

Barcha turdagi parrandalar bosh soni (yil oxiriga, ming bosh)

	2016	**2017**	**2018**	**2019**
O‘zbekiston Respublikasi	67037,7	74870,1	86374,8	87859,7
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	3285,3	3871,4	4310,8	4524,8
Andijon	6682,0	7116,7	7478,9	8002,9
Buxoro	3774,5	4029,4	4695,1	5356,7
Jizzax	2641,6	2956,1	3285,8	3574,5
Qashqadaryo	5024,3	5710,6	6215,3	6049,1

Navoiy	2272,5	2234,8	2721,0	3031,9
Namangan	3839,8	4934,7	5708,7	5849,1
Samarqand	8941,6	11159,0	12755,1	12864,8
Surxondaryo	3985,8	4099,9	4808,5	4893,7
Sirdaryo	1936,2	1717,4	2619,9	2588,5
Toshkent	14242,8	16024,2	18229,5	17039,2
Farg‘ona	5356,5	6077,0	7988,7	8119,7
Xorazm	5054,8	4938,9	5557,5	5964,8

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda barcha turdagi parrandalar soni ham so‘nggi yillarda ortmoqda. 2016-yilda 67037,7 mingta parranda bo‘lgan bo‘lsa, 2019-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 87859,7 mingtani tashkil etgan. Mamlakatimizda jami parrandalar soni bo‘yicha 2019-yil holatiga Toshkent (17039,2 ming bosh) va Samarqand (12864,8 ming bosh) viloyatlari yuqori ko‘rsatkichga ega va ushbu viloyatlar parrandalar umumiy sonida dehqon xo‘jaliklari ulushining pastligi bilan ham ajralib turadi. Ushbu viloyatlarda parrandachilik asosan parrandachilik fabrikalarida rivojlangan. 2020-yil 1-yanvar holatiga Toshkent viloyati jami aholisi soni 2941,9 ming kishini, Namangan viloyatida esa 2810,8 ming kishini tashkil etgan, shunga mutanosib ravishda ushbu viloyatlardagi dehqon xo‘jaliklari soni ham bir-biriga yaqin, ammo Toshkent viloyatida parrandalar soni Namangan viloyatidagi parrandalar soniga nisbatan deyarli 3 barobar ko‘p. Bundan ko‘rinadiki, parrandachilikni rivojlantirishda sanoat usulidan foydalanish yuqori samara beradi. Chunki, dehqon xo‘jaliklarida parrandalar sonini keskin ko‘paytirish, ularni ilmiy asoslangan ratsion asosida oziqlantirish, ish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish, turli kasalliklarga qarshi kurashish imkoniyati parrandachilikka ixtisoslashgan fermalarga nisbatan past bo‘ladi. Mamlakatimizda jami parrandalar soni bo‘yicha 2019-yil holatiga Jizzax (3574,5 ming bosh), Navoiy (3031,9 ming bosh) va Sirdaryo (2588,5 ming bosh) viloyatlari eng past ko‘rsatkichga ega. Aholining tuxum va parhez taom hisoblanuvchi parranda go‘shtiga bo‘lgan talabini yanada to‘liqroq qondirish uchun boshqa viloyatlarda ham parrandachilik fabrikalari tashkil etish va ular faoliyatini rivojlantirish lozim.

21.11-jadval

Ishlab chiqarilgan go‘sht (ming tonna)

	2016	2017	2018	2019
O‘zbekiston Respublikasi	2172,5	2286,8	2430,5	2473,6
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	95,2	101,3	105,2	106,9
Andijon	134,0	135,6	146,1	151,6
Buxoro	209,3	223,5	243,0	253,9
Jizzax	190,2	203,3	212,4	212,9
Qashqadaryo	266,2	281,9	289,3	293,7
Navoiy	142,0	148,4	157,3	159,1
Namangan	125,0	134,9	143,8	150,9
Samarqand	258,0	262,8	294,6	297,3
Surxondaryo	168,5	177,6	184,1	186,5
Sirdaryo	60,4	62,9	64,8	67,3
Toshkent	238,9	258,6	264,4	267,0
Farg‘ona	148,0	149,5	167,6	167,9
Xorazm	136,8	146,5	157,9	158,6

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda go‘sht ishlab chiqrish so‘nggi yillarda ortmoqda. 2016-yilda 2172,5 ming tonna go‘sht ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 2019-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 2473,6 ming tonnani tashkil etgan. Barcha viloyatlarda go‘sht ishlab chiqarish hajmi oshganligini ko‘rishimiz mumkin.

Go‘sht ishlab chiqarish bo‘yicha 2019-yil holatiga Toshkent (267,0 ming tonna), Qashqadaryo (293,7 ming tonna) va Samarqand (297,3 ming tonna) viloyatlari yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lsa, Qoraqalpog‘iston Respublikasi (106,9 ming tonna) va Sirdaryo viloyati (67,3 ming tonna) eng past ko‘rsatkichga ega.

Mamlakatimizda go‘sht ishlab chiqarish bo‘yicha erishilayotgan natijalatga qaramasdan, ishlab chiqarilayotgan go‘sht miqdori aholi talablaridan orqada qolmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2020-yilda 19,2 ming tonna go‘sht import qilingan. Mamlakatimizga go‘sht import qilinayotgan

davlatlar orasida Belarus, Qozog‘iston va Ukraina yuqori salmoqni egallagan.

Go‘sht va sut mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini yanada ko‘paytirish uchun qoramolchilikni fermer xo‘jaliklarida, chorvachilik klasterlarida ham rivojlantirish, yirik qoramolchilik komplekslarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Chunki chorvachilikka ixtisoslashgan yirik ishlab chiqaruvchilarda ishlarni mexanizatsiya-lashtirish va shu orqali mehnat unumdorligini oshirish, chorva mollarini ilmiy asoslangan me’yorlar darajasida mustahkam ozuqa bazasi bilan ta’minlash, naslchilik ishlarini yo‘lga qo‘yish, zootexniya va veterinariya xizmatlarini tashkil etish imkoniyatlari ancha yuqori bo‘ladi. 2007-yilning qish oylarida ob-havoning noqulay kelishi, ya’ni qorning uzoq muddat davomida erimasdan turishi, havo haroratining sovuq bo‘lishi mamlakatimizda chorvachilik tarmog‘iga kata talofot yetkazdi. Chunki, dehqon xo‘jaliklarida g‘amlangan chorva ozuqasining yetishmasligi, chorva mollarini saqlovchi inshootlarning talab darajasida emasligi va boshqa shu kabi omillar natijasida chorva mollarining nobud bo‘lishiga olib keldi. Shuni inobatga olgan holda chorvachilikni dehqon xo‘jaliklari bilan bir qatorda boshqa tadbirkorlik shakllarida ham rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Go‘sht va sut mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirishda chorva ozuqasi bilan ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Chorvachilik tarmog‘ini mustahkam ozuqa bazasi bilan ta’minlash maqsadida ozuqa yetishtirishning intensiv texnologiyalaridan ham foydalanish maqsadga muvofiq. Jumladan, chorva ozuqasini gidroponika usulida yetishtirish orqali chorvachilik tarmog‘ining ozuqaga bo‘lgan talabini qondirish, chorva ozuqasi narxini arzonlashtirish, chorvachilik komplekslariga yaqin joylarda, ekin maydonlari toifasiga kirmaydigan yerlarda ham chorva ozuqasini yil davomida yetishtirish imkoniyatiga ega bo‘lish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi granti asosida ilmiy – tadqiqot ishi olib borayotgan Buxoro davlat universiteti dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent Mahmud Oripov buni ham nazariy, ham amaliy jihatdan dalillab berdi. “Chorvachilikning ozuqa bazasini rivojlantirish orqali chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish (Buxoro viloyati misolida)” deb nomlangan loyiha doirasidagi izlanishlar shuni ko‘rsatdiki, ozuqani gidroponika usulida yetishtirish sohani keskin ravnaq toptirish imkonini beradi. Ushbu usulda chorva ozuqasi yetishtirish nafaqat ozuqa

masalasini hal etish, balki sifatli va nisbatan arzon chorvachilik mahsulotlari yetishtirish imkonini beradi. O'tkazilgan tajribalarga ko'ra, 1 metr kvadrat yerda gidroponika usulida undirilgan dondan 25-28 kilogrammgacha ko'k massa olish mumkin. Buning uchun atigi 7-8 kun kifoya qiladi. Xuddi shu o'lchamdagi yerda bir yilda 52-marta hosil yetishtirish mumkin. Bu 1300-1456 kilogrammgacha ko'k massa olish mumkin, deganidir. Ushbu ko'rsatkich don va takroriy ekindan olinadigan dag'al xashak va silosga nisbatan 282-316 martaga ko'p. Negaki, bir metr kvadrat yerda yetishtirilgan g'alladan 0,6 kilogramm somon, takroriy ekindan 4 kilogramm makkajo'xori, jami o'rtacha 4,6 kilogramm chorva ozuqasi olish mumkin. Gidroponika usulida yetishtirilgan 1 kilogramm yashil massada 0,9 – 1,2 ozuqa birligi mavjud. 1 kilogramm senajda esa 0,4 -0,6 ozuqa birligi bor, xolos.

Mamlakatimizda sut ishlab chiqarish hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar 21.12-jadvalda keltirilgan.

21.12-jadval

Sut ishlab chiqarish (ming tonna)

	2016	**2017**	**2018**	**2019**
O'zbekiston Respublikasi	9703,4	10047,9	10466,4	10714,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	347,0	364,0	378,0	386,3
Andijon	892,6	899,2	929,8	953,6
Buxoro	852,8	905,8	940,7	965,6
Jizzax	536,7	566,1	593,9	609,5
Qashqadaryo	1023,1	1089,0	1131,2	1149,0
Navoiy	415,1	444,8	454,0	468,8
Namangan	637,4	665,5	678,3	696,3
Samarqand	1228,3	1240,9	1241,8	1273,9
Surxondaryo	781,5	809,6	844,6	867,1
Sirdaryo	318,9	317,2	341,5	350,3
Toshkent	838,2	860,9	898,3	919,7
Farg'ona	909,6	921,4	1022,0	1038,4
Xorazm	922,2	963,5	1012,3	1035,8

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda sut ishlab chiqrish ham so‘nggi yillarda ortmoqda. 2016-yilda 9703,4ming tonna sut ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 2019-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 10714,3 ming tonnani tashkil etgan.

21.13-jadval

Tuxum ishlab chiqarish (mln. dona)

	2016	**2017**	**2018**	**2019**
O‘zbekiston Respublikasi	6152,5	6332,7	7459,3	7771,2
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	236,0	260,1	307,3	322,4
Andijon	532,3	573,8	654,0	682,5
Buxoro	347,7	363,5	428,6	476,4
Jizzax	232,6	238,0	270,2	313,4
Qashqadaryo	457,9	495,7	586,1	506,0
Navoiy	262,3	253,9	308,1	334,2
Namangan	423,3	487,9	552,6	597,9
Samarqand	1167,0	1198,0	1426,5	1355,8
Surxondaryo	311,8	334,0	463,7	513,0
Sirdaryo	146,0	127,9	155,8	171,7
Toshkent	1299,6	1266,9	1347,6	1502,1
Farg‘ona	349,9	350,1	498,7	516,1
Xorazm	386,1	382,9	460,1	479,7

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda tuxum ishlab chiqrish ham so‘nggi yillarda ortmoqda. 2016-yilda 6152,5 mln. dona tuxum ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 2019-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 7771,2 mln. donani tashkil etgan. Faqat Qashqadaryo va Samarqand viloyatlarida tuxum ishlab chiqarish 2019-yilda 2018-yilga nisbatan kamayganligini ko‘rishimiz mumkin.

Tuxum ishlab chiqarish bo‘yicha 2019-yil holatiga Toshkent (1502,1 mln. dona) va Samarqand (1355,8 mln. dona) viloyatlari yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lsa, Qoraqalpog‘iston Respublikasi (322,4 mln.

dona), Jizzax (313,4 mln. dona) va Sirdaryo (171,7 mln. dona) viloyatlari eng past ko‘rsatkichga ega.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan go‘sht va sutning asosiy qismi dehqon xo‘jaliklarida ishlab chiqrilmoqda. Mazkur holatni inobatga olgan holda hukumatimiz tomonidan chorvachilikka ixtisoslashgan klasterlarni tashkil etish va rivojlantirishga alohida e’tibor berilmoqda. Chunki chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda sanoat asosida faoliyat yurituvchi yirik ishlab chiqaruvchilarning ustunlik tomonlari mavjud. Fermer xo‘jaliklarida ham chorvachilikni yanada rivojlantirish uchun ushbu xo‘jaliklarga chorva ozuqasi yetishtirish uchun sug‘oriladigan maydonlardan yer ajratib berishni yo‘lga qo‘yish lozim.

21.14-jadval

Jun ishlab chiqarish (tonna)

	2016	**2017**	**2018**	**2019**
O‘zbekiston Respublikasi	37103	36360	34615	35115
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1241	1187	1260	1337
Andijon	2138	2106	1650	1701
Buxoro	3747	3871	3761	3817
Jizzax	4045	4064	3822	3946
Qashqadaryo	7457	7360	7462	7519
Navoiy	3843	4037	3839	4089
Namangan	1702	1780	1464	1582
Samarqand	4779	4655	3871	3836
Surxondaryo	2371	2375	2300	2506
Sirdaryo	713	666	712	623
Toshkent	2438	1899	2068	1771
Farg‘ona	1348	1341	1305	1266
Xorazm	1281	1019	1101	1122

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda 2016-yilda 37103 tonna jun ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 2019-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 35115 tonnani tashkil etgan. Bundan ko‘rinadiki, mamlakatimizda jun ishlab chiqarish hajmi 2019-yilda 2016-yilga nisbatan kamaygan. Bu jun ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi

pastligi bilan izohlanadi. Ishlab chiqarilgan junni sotish bozorlarining rivojlanmaganligi uni ishlab chiqarish samaradorligi va ishlab chiqarish hajmiga salbiy ta’sir qilmoqda. Bundan tashqari, hozirgi vaqtda mamlakatimizda yetishtirilayotgan junni qayta ishlash bo‘yicha holat qoniqarli emas. Buning natijasida mamlakatimizda yetishtirilayotgan jun xomashyosidan foydalanish holati qoniqarsiz holatda qolmoqda. Junni qayta ishlash korxonalari sonini ko‘paytirish, jundan tayyor mahsulotlar olishni yo‘lga qo‘yish lozim.

21.15-jadval

Qorako‘l teri ishlab chiqarish (dona)

	2016	**2017**	**2018**	**2019**
O‘zbekiston Respublikasi	1055428	1075064	1085224	1150742
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	81074	81164	81390	83222
Andijon	-	-	-	-
Buxoro	422009	434968	437274	496455
Jizzax	6070	409	3260	3554
Qashqadaryo	196067	208455	218000	218534
Navoiy	240137	248793	266550	280992
Namangan	-	-	-	-
Samarqand	94016	86348	59070	47991
Surxondaryo	8035	7872	11060	11030
Sirdaryo	-	-	-	-
Toshkent	-	-	-	-
Farg‘ona	-	-	-	-
Xorazm	8020	7055	8620	8964

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda qorako‘l teri ishlab chiqrish ham so‘nggi yillarda ortmoqda. 2016-yilda 1055428 dona qorako‘l teri ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 2019-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 1150742 donani tashkil etgan. Qorako‘l teri ishlab chiqarish bo‘yicha Buxoro va Navoiy viloyatlari yetakchi hisoblanadi.

Qorako‘lchilik mahsulotlarini qayta ishlash va tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan korxonalarning modernizatsiya qilinmaganligi, ushbu sohada yangi zamonaviy texnologiyalar asosida faoliyat yurituvchi korxonalarning barpo etilmaganligi mazkur soha rivojiga salbiy ta’sir etmoqda. Bundan tashqari, qorako‘lchilik bilan shug‘ullanayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar va aholi tomonidan yetishtirilgan qo‘y terisi, qorako‘l terisi va junning bozori yaxshi rivojlanmagan. Ushbu muammolarni hal etish maqsadida 2019-yil 16-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qorako‘lchilik tarmog‘ini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4420-sonli qarori qabul qilindi. 2018-yil holatiga mamlakatimizda qorako‘l zotli qo‘ylar bosh soni 5870 ming boshni tashkil etgan bo‘lib, ushbu qarorga ko‘ra 2021-yilga borib qorako‘l zotli qo‘ylar bosh sonini 7346 ming boshga yetkazish, ya’ni 25,1 foizga oshirish nazarda tutilgan. Ushbu ko‘rsatkich 2018-yil holatiga 5870 ming boshni tashkil etgan.

2020-yil 2-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida pillachilik va qorako‘lchilikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6059-sonli farmoni qabul qilindi. Unga ko‘ra, 2021-yil 1-iyulga qadar respublikaning yaylovlarga ega barcha hududlarida ozuqa bazasini yaratgan holda mayda shoxli nasldor mollarni ko‘paytirish, shuningdek mol so‘yish, teri va junni qayta ishlash, go‘sht-sut mahsulotlari, yarim tayyor va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish korxonalarini tashkil qilish bo‘yicha qorako‘lchilik klasterlari tashkil qilinishi belgilangan. Klasterlarga qorako‘l zotli qo‘ylarni boqishga mo‘ljallangan, shu jumladan o‘rmon bilan qoplanmagan o‘rmon fondi yerlaridan yaylovlar ijaraga berilishi nazarda tutilgan. Ushbu qarorning 2-ilovasiga muvofiq, respublikada qorako‘lchilikni rivojlantirishning maqsadli parametrlari keltirilgan (21.16-jadval).

21.16-jadval

2021-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasida qorako‘lchilikni rivojlantirishning maqsadli parametrlari

Ko‘rsatkichlar		O‘lchov birligi	**2021**	**2022**	**2023**	**2024**	**2025**
Yaylovlar maydoni		ming ga	17727	17727	17727	17727	17727
Qorako‘l naslli qo‘ylar		ming bosh	6270	6897	7932	8725	9619
Jun ishlab chiqarish		tonna	15048	16553	19036	20940	23086
Jundan yigirilgan ip ishlab chiqarish		tonna	6019	6621	7614	8376	9234
Gilamlar ishlab chiqarish		ming m^2	301	331	381	419	462
Kigiz ishlab chiqarish		ming m^2	3143	3414	3860	4176	4595
Terilar ishlab chiqarish		ming dona	608	669	769	846	933
Qorako‘ldan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish		ming dona	243	268	308	339	372
Qorako‘l mahsulotlarini eksport qilish		mln. dollar	15	25	30	35	45
Investitsiyalar hajmi		mln. dollar	15	15	15	15	15
Ish o‘rinlari	Doimiy	Shtat birligi	36775	40453	46520	51172	56577
	Mavsumiy		49152	54068	59474	65422	75619
	Jami		85927	94520	105995	116594	132196

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-sentabrdagi PF-6059-sonli farmoni

Surxondaryo viloyatida ham 737 ming gektar yer ajratish mo‘ljallangan bo‘lib, qorako‘l naslli qo‘ylar soni 2021-yilda 45 ming boshni, 2025-yilga borib esa 295 ming boshni tashkil etishi mo‘ljallangan. Ushbu qarorning 1-ilovasiga muvofiq ozuqa bazasini yaratish uchun qorako‘lchilik klasterlariga respublikamiz bo‘yicha jami 9200 gektar yer, shu jumladan Surxondaryo viloyatida 1000 gektar yer ajratish belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-avgustdagi “Qorako‘lchilik tarmog‘ini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4420-sonli qaroriga muvofiq naslchilik qorako‘lchilik xo‘jaliklariga ozuqalar yetishtirish maqsadida sug‘oriladigan yerlar ajratib berish nazarda tutilgan bo‘lib, respublikamiz bo‘yicha jami 3235 gektar ajratilishi nazarda tutilgan bo‘lib, shundan 3125 gektariga arpa va jo‘xori, 110 gektariga esa beda ekish uchun ajratish nazarda tutilgan. Surxondaryo viloyatidagi qorako‘lchilikka ixtisoslashgan yagona xo‘jalik bo‘lgan Qumqo‘rg‘on tumanidagi “Bobotog‘ suri

qorako‘lchilik” MChJga ham 120 gektar sug‘oriladigan yer ajratish nazarda tutilgan bo‘lib, ushbu maydonning barchasiga arpa va jo‘xori ekish rejalashtirilgan. Bundan tashqari, qorako‘lchilik sohasida naslchilik seleksiya ishlarini takomillashtirish, jahon bozori nalablariga mos bo‘lgan raqobatbardosh qorako‘l terisi ishlab chiqarish va uni qayta ishlashni moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadida Qorako‘lchilikni rivojlantirish jamg‘armasi tashkil etildi.

Mazkur qarorda qorako‘lchilik mahsulotlarini qayta ishlashni tashkil etuvchi korxonalar faoliyatini rivojlantirish ham nazarda tutilgan bo‘lib, Qashqadaryo, Navoiy va Buxoro viloyatlarida loyiha qiymati 31 mlrd. so‘m bo‘lgan 3 ta korxona faoliyatini yo‘lga qo‘yish rejalashtirilgan. Ushbu mablag‘larning 9 mlrd. so‘mi korxonalarning o‘z mablag‘lari, 22 mlrd. so‘mi esa Qorako‘lchilikni rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilishi ko‘rsatib o‘tilgan. Ushbu korxonalar yiliga 560 ming dona terini (shundan 350 ming dona qorako‘l teri va 210 ming dona qo‘y terisi) qayta ishlash quvvatiga ega bo‘lishi nazarda tutilgan.

Ushbu qarorga ko‘ra, 2019-2023-yillarda qorako‘lchilik xo‘jaliklariga yetishtirib eksportga sotilgan har bir dona qoarko‘l terisi uchun O‘zbekiston Respublikasi davlat budjetidan 50 ming so‘mdan va har bir dona qorako‘lcha terisi uchun 75 ming so‘mdan subsidiyalar ajratilishi belgilab qo‘yilgan.

2021-yil 9-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qorako‘lchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4984-sonli qarori qabul qilindi. Qarorga ko‘ra, 2021-yil 1-martgacha qorako‘lchilik klasterlariga qishloq xo‘jaligida foydalanilmayotgan sug‘oriladigan yerlarni foydalanishga kiritish sharti bilan ozuqalar yetishtirish uchun yer maydonlari ajratilishi nazarda tutilgan. Shunga ko‘ra, 2021-yil 15-fevralgacha 100 milliard so‘m mablag‘lari “Turonbank” ATBga Markaziy bank asosiy stavkasida ajratiladi. Mazkur mablag‘lar Respublika “Qorako‘lchilik” uyushmasi a’zolariga 3 yil muddatgacha, shu jumladan 1 yillik imtiyozli davr bilan Markaziy bank asosiy stavkasiga 2 foizlik bank marjasini qo‘shish orqali hisoblanadigan stavka bo‘yicha kredit sifatida taqdim etilishi ko‘rsatib o‘tilgan. Qarorga ko‘ra, 2024-yil 1-yanvargacha Pillachilik va qorako‘lchilikni rivojlantirish qo‘mitasining doimiy egaligidagi yaylovlar hamda O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi tomonidan

Qo‘mitaga ijaraga berilgan yaylovlar uchun belgilangan yer solig‘i stavkasi 50 foizga kamaytirlishi ko‘zda tutilgan. Shuningdek, nasldor qo‘y va echkining, shu jumladan qorako‘l zotli qo‘ylarning xorijiy davlatlardan import qilingan har bir embrioniga respublika budjeti mablag‘lari hisobidan 400 ming so‘m miqdorida subsidiya taqdim etilishi belgilab qo‘yilgan. Bundan tashqari, 2021-yil 1-apreldan Uyushma a’zolariga o‘zlari tomonidan import qilingan qo‘y bosh sonining 50 foizidan oshmagan qismini tirik va xom go‘sht ko‘rinishida eksport qilishga ruxsat etilgan.

2020-yil 2-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi pillachilik va qorako‘lchilikni rivojlantirish qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-4817-sonli qarori ham qabul qilindi.

21.17-jadval

Pilla ishlab chiqarish, tonna

	2016	**2017**	**2018**	**2019**
O‘zbekiston Respublikasi	26355,6	12480,3	17912,3	21374,1
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	852,6	346,8	607,0	684,6
Andijon	3303,4	2110,1	2450,6	3059,8
Buxoro	3099,7	1855,2	1659,7	2043,4
Jizzax	641,5	400,0	596,4	641,7
Qashqadaryo	3082,1	1068,5	1812,7	2184,7
Navoiy	1007,9	653,8	801,3	969,8
Namangan	2827,2	601,8	1498,5	1636,0
Samarqand	2829,8	1984,2	2241,1	2942,8
Surxondaryo	1552,7	1131,3	1515,9	1627,0
Sirdaryo	616,0	132,9	400,9	483,1
Toshkent	1641,4	532,9	1166,8	1170,1
Farg‘ona	2722,9	858,7	1655,1	2055,8
Xorazm	2178,4	804,1	1506,3	1875,3

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda 2016-yilda 26355,6 tonna pilla ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 2019-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 21374,1 tonnani tashkil etgan. Bundan ko‘rinadiki, mamlakatimizda pilla ishlab chiqarish hajmi 2019-yilda 2016-yilga nisbatan kamaygan. Ayniqsa 2017-yilda pilla ishlab chiqarish hajmi keskin kamayganligini ko‘rishimiz mumkin. So‘nggi vaqtda mamlakatimizda pillachilikni rivojlantirishga alohida e’tibor berilmoqda. Pillani ishlab chiqarishni zamonaviy usullarda tashkil etish bilan bir qatorda, pillani qayta ishlovchi korxonalar faoliyatini tashkil etish va ularning faoliyatini rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-martdagi “O‘zbekipaksanoat” uyushmasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2856-sonli qaroriga ko‘ra, 2023-yil 1-yanvargacha uy sharoitida tirik pilla yetishtirish bilan shug‘ullanuvchi (kasanachi)lar – jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini to‘lashdan hamda pilla yetishtiruvchi tashkilotlar – pilla yetishtirish bilan shug‘ullanuvchi kasanachilar va boshqa ishchi-pillakorlar mehnatiga haq to‘lashga yo‘naltirilgan mablag‘lar bo‘yicha yagona ijtimoiy to‘lovni to‘lashdan ozod etilgan.

Chorvachilikning yana bir yo‘nalishi – quyonchilikdir. Mutaxassislar quyon go‘shtini, avvalo, parhezbop, inson salomatligi uchun foydali, deya ta’kidlashadi. Shu bois ham u xaridorgir va jahon bozorida bu turdagi go‘shtga talab o‘sib borayotgani mazkur omil bilan bog‘liq. Xalqaro standartga ko‘ra, bir kishi yil davomida 90 kilogramm go‘sht iste’mol qilsa, shuning 5 foizini quyon go‘shti tashkil etishi lozim. O‘z navbatida mazkur tarmoq yaxshigina daromad manbai ham hisoblanadi. Chunki bitta ona quyon tabiiy uy sharoitida yiliga besh marta, har safar kamida besh-oltitadan bolalaydi. Yana bir jihati, yil boshida tug‘ilgan quyonlar yil oxiriga kelib, o‘zlari ham bolalaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 17-dekabrdagi “Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini rivojlantirish to‘g‘risida”gi majlis bayoniga muvofiq, mamlakatimizda quyonchilikni rivojlantirishga “Mikrokreditbank” ATB mas’ul etib biriktirilgan. Bank tomonidan o‘tgan vaqt mobaynida mazkur yo‘nalishda ko‘plab loyihalar amalga oshirildi, tashabbuskor tadbirkorlar g‘oyalari qo‘llab-quvvatlandi va jarayon hozir ham izchil davom ettirilmoqda. “Mikrokreditbank” ATB o‘tgan davrda jami 1751 ta jismoniy va yuridik shaxsga quyonchilik bilan shug‘ullanishlari uchun 106 milliard so‘m miqdorida

kredit ajratdi. Shundan 80,4 milliard so‘mi moliyaviy qo‘llab-quvvatlash uchun yo‘naltirilgan bo‘lsa, 25,7 milliard so‘mi aholiga o‘z xonadonida quyon boqish uchun taqdim etildi. Respublika bo‘yicha 190 ta quyonchilikka ixtisoslashtirilgan agrofirma faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Qolaversa, aholini quyonchilik sohasidagi loyihalarga jalb etish orqali ularning bandligini ta’minlash, daromadlarini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Keyingi yillarda mamlakatimizda baliqchilikka ham alohida e’tibor berilmoqda. Baliqchilikning rivojlanishi oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashi barobarida, aholini baliq tarkibidagi yuqori sifatli oqsillar bilan ta’minlash imkonini beradi. Ayniqsa, baliq tarkibidagi kalsiy moddasi bolalarning sog‘lom bo‘lib o‘sishida muhim ahamiyatga ega. Tahlillarga ko‘ra, O‘zbekiston uchun baliqni iste’mol qilishning minimal me’yor miqdori bir yilda bir kishi uchun 12 kilogrammni tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich dunyo miqyosida 1 kishi uchun 16,6 kilogrammdir.

Baliqchilikni rivojlantirish bo‘yicha maxsus dastur va me’yoriy hujjatlar qabul qilinib, baliq yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari tashkil etilmoqda. 2018-yil 6-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Baliqchilik tarmog‘ini jadal rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3657-sonli qarori qabul qilingan bo‘lib, unga ko‘ra Toshkent viloyati Quyi Chirchiq tumani hududida “Baliq ishlab chiqaruvchi” erkin iqtisodiy zonasi tashkil etilgan. Ushbu erkin iqtisodiy zonasining asosiy vazifalaridan vazifalari sifatida quyidagilar belgilab berilgan:

- baliqchilik xo‘jaliklarini ta’minlash uchun baliqning yangi va sinalgan turlarini iqlimlashtirish orqali naslli baliq chavoqlarini yaratish;
- nasldor baliq lichinkalari yetishtiruvchi zamonaviy inkubatsion sexlar faoliyatini tashkil etish;
- baliq chavoqlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish;
- o‘z ehtiyoji va baliqchilik xo‘jaliklari uchun to‘la qiymatli va yuqori oqsilli ozuqalarni ishlab chiqarish bo‘yicha zamonaviy quvvatlarni yaratish orqali ozuqa bazasini mustahkamlash;
- innovatsion va zamonaviy intensiv texnologiyalarni keng joriy qilish;
- birinchi navbatda, aholi ehtiyojlarini qondirish, shuningdek, keyinchalik eksport qilish uchun baliqlarni qayta ishlash hamda baliq mahsulotlarini ishlab chiqarish va boshqalar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-noyabrdagi “Baliqchilik sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4005-sonli qarori ham soha rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu qarorda baliqchilikni intensiv rivojlantirish, sun’iy havzalarda baliqchilikni innovatsion usullarda ko‘paytirish chora-tadbirlari belgilab berilgan.

Ushbu qarorga ko‘ra:

- baliqchilik xo‘jaliklarini bosqichma-bosqich intensiv usulda baliq yetishtirishga ixtisoslashtirish;

- “Ipoteka-bank” ATIB baliqchilik sohasini rivojlanatirishni uchun taqdim etilgan loyihalarni kreditlashni amalga oshirishi nazarda tutilgan.

Qarorda baliqchilik loyihalari hajmi va uni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan valyuta turidanqat’i nazar, tijorat banklari tomonidan 2019-2020-yillarda ajratilayotgan kredit foizi uchun Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi hisobidan kompensatsiya berishning quyidagi tartibi o‘rnatilgan:

- aylanma mablag‘larni to‘ldirish ga (baliq chavoqlari, omixta yem, mineral o‘g‘it va boshqalar) tijorat banki tomonidan o‘rnatilgan kredit stavkasining 25 foizi miqdorida;

- naslli ona baliq va baliq uvildirig‘i, yopiq suv aylanma tizimi, qafas qurilmalarida va boshqa intensiv usullarda baliq yetishtirishni tashkil etish, baliq mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash, inkubatsiya sexlari va reproduktorlarni tashkil etish, hovuzlar qurish va qayta ta’mirlash, maxsus texnika va boshqa asosiy vositalarni xarid qilish hamda barpo etish uchun tijorat banki tomonidan o‘rnatilgan kredit stavkasining 50 foizi miqdorida.

Bundan tashqari, ushbu qarorga ko‘ra barcha dehqon bozorlarida baliq sotishni tashkil etish uchun akvariumlar tashkil etildi.

Mamlakatimizda ovlangan baliq to‘g‘risidagi ma’lumotlar 21.18-jadvalda keltirilgan.

21.18-jadval

Mamlakatimizda ovlangan baliq to‘g‘risida ma’lumot, tonna

	2016	2017	2018	2019
O‘zbekiston Respublikasi	65322,1	83900,4	90984,3	121717,0
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	4515,0	6157,2	9856,7	12847,0
Andijon	2088,1	4081,0	10224,0	11048,6
Buxoro	2812,7	3399,7	3737,9	5798,3
Jizzax	11197,7	13837,6	7151,5	10314,9
Qashqadaryo	3952,3	4769,6	4796,1	5714,4
Navoiy	7669,7	12565,9	10882,4	11997,6
Namangan	3383,6	5218,0	5360,0	6931,6
Samarqand	2540,3	3435,3	4006,1	8974,1
Surxondaryo	2579,9	3876,0	3815,9	3610,8
Sirdaryo	2279,0	2222,4	5375,9	9994,1
Toshkent	8171,1	8155,1	9867,2	7896,6
Farg‘ona	5214,1	6781,6	6430,3	10567,6
Xorazm	8918,6	9401,0	9480,3	16021,4

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari

Ushbu jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda ovlangan baliq miqdori so‘nggi yillarda ortmoqda. 2016-yilda 65322,1 tonna baliq ovlangan bo‘lsa, 2019-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 121717,0 tonnani tashkil etgan. 2019-yilda ovlangan baliq miqdorining 2016-yildagi ovlangan baliq miqdoriga nisbatan o‘sish sur’ati 186,3 foizni tashkil etgan. Ovlangan baliq miqdori bo‘yicha 2019-yil holatiga Xorazm viloyati (16021,4 tonna) va Qoraqalpog‘iston Respublikasi (12847,0 tonna) yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lsa, Buxoro (5798,3 tonna), Qashqadaryo (5714,4 tonna) va Surxondaryo (3610,8 tonna) viloyatlari eng past ko‘rsatkichga ega.

Mamlakatimizda 2019-yilda ovlangan 121717,0 tonna baliqning 42321,5 tonnasi yoki 34,8 foizi tabiiy suv havzalaridan ovlangan bo‘lib,

qolgan 65,2 foizi tadbirkorlar tomoidan tashkil etilgan sun’iy suv havzalaridan ovlangan.

Mamlakatimiz hukumati tomonidan baliqchilikni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar o‘zining ijobiy natijalarini bermoqda. Baliq xo‘jaligida ishlab chiqarilgan mahsulot (xizmatlar) hajmi so‘nggi yillarda barqaror o‘smoqda (21.1-rasm).



21.1-rasm. Baliq xo‘jaligida ishlab chiqarilgan mahsulot (xizmatlar) hajmi, mlrd. so‘m

Ushbu rasmdan ko‘rinib turibdiki, 2019-yilda baliq xo‘jaligida 1468,6 mlrd. so‘mlik mahsulot yetishtirilgan bo‘lib, 2016-yilga nisbatan 2,5 barobar o‘sishga erishilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-avgustdagi “Baliqchilik tarmog‘ini qo‘llab-quvvatlash va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4816-sonli qaroriga muvofiq:

- 2020-yildan boshlab sun’iy suv havzalarida baliq yetishtiradigan baliqchilik xo‘jaliklarida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq suv obyektlaridan olingan va qaytarib chiqarilgan suv hajmi o‘rtasidagi farqidan kelib chiqib, qishloq xo‘jaligi yerlarini sug‘orish uchun belgilangan stavkalarda hisoblanadi;

- kollektor drenaj suvlaridan olib foydalanilgan suv resurslari soliq solish obyekti hisoblanmaydi.

Ushbu qarorda Suv xo‘jaligi vazirligi foydalanish mumkin bo‘lgan kollektor-drenaj tarmoqlari, undagi suvlarning sho‘rlanish darajasi va sifati doimiy nazorat qilinishi hamda bu to‘g‘risidagi ma’lumotlarni

o‘zining rasmiy veb-saytida ko‘rsatib borishni ta’minlashi nazarda tutilgan. Bundan tashqari, sun’iy suv havzalarida baliq yetishtiradigan baliqchilik xo‘jaliklari, suv yetkazib beruvchi tegishli tashkilotlar va “O‘zbekbaliqsanoat” uyushmasi bilan birgalikda har yili 15-yanvardan kechikmagan muddatda belgilangan tartibda uch tomonlama shartnoma tuzishi belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-yanvardagi “Chorvachilik tarmog‘ini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4576-sonli qaroriga muvofiq 2020-2022-yillarda “O‘zbekbaliqsanoat” uyushmasiga a’zo bo‘lgan intensiv usulda baliq yetishtiruvchi xo‘jaliklarga davlat tomonidan quyidagi tartibda subsidiya ajratiladi:

- intensiv usulda yetishtirilgan har bir tonna baliq mahsuloti uchun1 million so‘m miqdorida;
- O‘zbekiston Respublikasi hududiga import qilingan 1 dona nasldor ona baliqning 3,5 million so‘mgacha bo‘lgan xarajatlariniing 50 foizi miqdorida.

3. Chorvachilik tarmoqlarini yanada rivojlantirish imkoniyatlari va samaradorligini oshirish yo‘llari.

2020-yil 29-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chorvachilik tarmog‘ini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4576-sonli Farmoni qabul qilindi va unga muvofiq Chorvachilik va uning tarmoqlarini rivojlantirish Respublika kengashi tashkil etildi. Ushbu Farmonga muvofiq 2020-2022 yillarda:

a) chorvachilik mahsulotlari yetishtiruvchi xo‘jaliklarga davlat tomonidan quyidagi tartibda subsidiya ajratiladi:

- respublika hududida faoliyat yuritayotgan naslchilik xo‘jaliklaridan sotib olingan nasldor qoramolning har bir boshiga 1 million so‘m miqdorida;
- xorijiy davlatlardan import qilingan nasldor qoramolning har bir boshiga 2 million so‘m, nasldor qo‘y va echkining har bir boshiga 400 ming so‘m miqdorida;

b) “O‘zbekbaliqsanoat” uyushmasiga a’zo bo‘lgan intensiv usulda baliq yetishtiruvchi xo‘jaliklarga davlat tomonidan quyidagi tartibda subsidiya ajratiladi:

- intensiv usulda etishtirilgan bir tonna baliq mahsuloti uchun 1 million so‘m miqdorida;

- O‘zbekiston Respublikasi hududiga import qilingan 1 dona nasldor ona baliqning 3,5 million so‘mgacha bo‘lgan xarajatlarining 50 foizi miqdorida;

d) “Parrandasanoat” uyushmasiga a’zo bo‘lgan parrandachilik xo‘jaliklariga har bir bosh 1 kunlik nasldor jo‘jani import qilish bilan bog‘liq xarajatlarning 9 ming so‘mini qoplash uchun davlat tomonidan subsidiya ajratiladi.

Bundan tashqari 2020-yilda sotib olinadigan nasldor:

a) qoramollar uchun ajratiladigan subsidiyaning umumiy summasi:

- respublika hududida faoliyat yuritayotgan naslchilik xo‘jaliklaridan sotib olish uchun 10 milliard so‘m miqdorida;

- xorijiy davlatlardan import qilish uchun 40 milliard so‘m miqdorida;

b) qo‘y va echkilarni import qilish uchun ajratiladigan subsidiyaning umumiy summasi 6 milliard so‘m miqdorida belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi chorvachilik mahsulotlari yetishtiruvchi xo‘jaliklarga, intensiv usulda baliq yetishtiruvchi va parrandachilik xo‘jaliklarga subsidiya berish xarajatlarini 2020-yilda O‘zbekiston Respublikasi respublika budjetida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlariga muvofiq hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha xarajatlar uchun ko‘zda tutilgan mablag‘lar hisobidan qoplanishini ta’minlash va 2021-2022 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti parametrlarida tegishli mablag‘ ajratilishini nazarda tutishi ham belgilab berilgan.

Ushbu Farmonga ko‘ra viloyatlar hokimliklari:

a) 2020-yilda yaylovlar hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi “Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5742-sonli Farmonida nazarda tutilgan qishloq xo‘jaligida foydalanilmayotgan sug‘oriladigan yerlarni foydalanishga kiritish hisobidan ozuqabop ekinlarni yetishtirishni yo‘lga qo‘yish uchun chorvachilik xo‘jaliklariga ajratib berilishini ta’minlashi;

b) O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi hamda davlar soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi bilan birgalikda paxta-to‘qimachilik klasterlari va paxtachilik-g‘allachilik yo‘nalishidagi fermer xo‘jaliklari ekin maydonining 10 foiziga beda ekilishini ta’minlashi belgilab qo‘yilgan.

Mavjud me’yoriy hujjatlarga ko‘ra chorvachilik mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo‘jaligiga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o‘lchami har bir shartli bosh chorva moliga hisoblaganda:

- Andijon, Namangan, Samarqand, Toshkent, Farg‘ona va Xorazm viloyatlarida sug‘oriladigan yerlarda – kamida 0,3 gektarni (nasldor chorvachilik fermer xo‘jaliklari uchun 0,5 gektarni);
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Qashqadaryo, Jizzax, Navoiy, Surxondaryo va Sirdaryo viloyatlaridagi sug‘oriladigan yerlarda – kamida 0,45 gektarni (nasldor chorvachilik fermer xo‘jaliklari uchun 0,6 gektarni);
- sug‘orilmaydigan (lalmikor) yelarda – kamida 2 gektarni tashkil etishi lozim.

Chorvachilik bilan shug‘ullanayotgan fermer xo‘jaliklariga chorva ozuqasi yetishtirishlari uchun yuqorida belgilangan me’yorlar darajasida maydonlar ajratib berilishi lozim. Hozirgi vaqtda chorvachilik mahsulotlari yetishtirish umumiy hajmida fermer xo‘jaliklarining ulushi past darajada ekanligining asosiy sabablaridan biri – ularda chorva ozuqasi yetishtirish uchun ekin maydonlarining yetarli emasligi hisoblanadi. Ushbu holatni inobatga olgan holda ozuqa ekinlari maydonini ilmiy asosda ajratishga e’tiborni kuchaytirish lozim.

Chorvachilikni rivojlantirishda ozuqa bilan ta’minlanganlik darajasi muhim ahamiyatga ega. Mustahkam ozuqa bazasini yaratmasdan turib chorvachilikni barqaror rivojlantirib bo‘lmaydi. Hozirgi vaqtda ayrim chorvachilik mahsulotlari narxining qimmatlashishi muammosining kelib chiqish sabablaridan biri – chorva ozuqasi tanqisligi va ular narxining qimmatligidir. Shu sababli, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish va shu orqali ushbu mahsulotlar narxining barqarorligiga erishish uchun avvalo chorva ozuqa ishlab chiqarishga e’tiborni kuchaytirish lozim.

Mamlakatimizda donli ekinlarning somoni chorva ozuqasi sufatida keng foydalaniladi. Ilmiy tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, don va somon nisbati g‘alla hosildorligi gektaridan 30 sentner bo‘lganda 1:1, hosildorlik 40 sentner bo‘lganda 1:0,9, hosildorlik 50-70 sentner bo‘lganda 1:0,8 ni tashkil etadi. 2019-yilda mamlakatimizda 7437,8 ming tonna don yetishtirilgan bo‘lib, hosildorlik darajasi 42,6 sentner/gektarni tashkil etgan. Demak, mamlakatimizda 2019-yilda 6694 ming tonnadan ortiq somon yetishtirilgan. Kuzgi bug‘doyning 1 kg somonida 0,20 ozuqa birligi, 8 gramm atrofida protein mavjud. Chorva

mollari uchun bunday somon yaxshi ozuqa hisoblanadi. Ushbu ozuqalardan samarali foydalanish uchun fermer xo‘jaliklarida ham chorvachilikni rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Chorvachilik tarmog‘ini rivojlantirish, bu jarayonga xorijiy investitsiyalarni jalb etishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, ushbu farmonga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoat majmui va oziq-ovqat ta’minoti sohasidagi loyihalarni amalga oshirish agentligi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi bilan birgalikda chorvachilik sohasida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari va chora-tadbirlarga Osiyo taraqqiyot bankining chorvachilikni rivojlantirish uchun 150,0 million AQSh dollari miqdoridagi kredit mablag‘lari yo‘naltirilishini ta’minlashi belgilab berilgan.

Dehqon xo‘jaliklarida chorvachilik yuqoriroq sur’atlarda rivojlanmoqda. Fermer va dehqon xo‘jaliklarida ishlab chiqarish xususiy mulkka asoslanganligi uchun ular xarajatlarni imkoniyat darajasida tejashga, sifatli mahsulot yetishtirib, yuqori baholarda sotishga intiladilar. Shuning uchun ham bu xo‘jaliklarda chorvachilik tarmoqlarining rentabellik darajasi tobora oshmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 23-martdagi “Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklarida chorva mollarini ko‘paytirishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-308-sonli qarori bo‘yicha chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklariga quyidagi imtiyozlar berish nazarda tutilgan edi:

- shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklariga qoramol sotib olish uchun imtiyozli mikrokreditlar berish;
- shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklarini omuxta yem va shirali ozuqa bilan ta’minlash;
- shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklarida chorva mollari, birinchi navbatda qoramollar sonini ko‘paytirishni rag‘batlantirish;
- chorvachilik bilan shug‘ullanadigan shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklaridagi fuqarolarning mehnat davri ish stajiga kiritilishi, ularga nafaqa va ijtimoiy sug‘urta to‘lovlari to‘lash va mehnat daftarchalarini yuritish.

Ushbu qarorga asosan, omuxta yem sotish shaxobchalari tashkil etildi. Ular tomonidan chorva mollari uchun arzon narxlarda ozuqa yetkazib berilish yo‘lga qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-apreldagi “Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3680-sonli qarorining 14-bandiga ko‘ra, 2018-yil 1-iyuldan dehqon xo‘jaligi va 4 sotixdan kam bo‘lmagan tomorqa yerida band bo‘lgan yoki ushbu uchastkada qoramol yoxud 50 boshdan kam bo‘lmagan parranda parvarishlayotgan jismoniy shaxslar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasiga yiliga bazaviy hisoblash miqdorining bir barobari miqdorida sug‘urta badali to‘langan taqdirda, sug‘urta badali to‘langan yil mehnat stajiga kiritiladi. Bu dehqon xo‘jaliklarida chorvachilikni rivojlantirishga rag‘bat beruvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Chorvachilikni rivojlantirishda hukumatiniz tomonidan qabul qilinayotgan davlat dasturlari ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, 2018-yil 7-iyunda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Har bir oila – tadbirkor” dasturi amalga oshirish to‘g‘risida”gi PQ-3777-sonli qarori ham chorvachilikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Unga ko‘ra, tashkiliy muvofiqlashtiruvchi ishchi guruh, masus ishchi guruh hamda hududiy ishchi guruhlar tashkil etilishi nazarda tutilgan. Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishga amaliy yordam berish hamda monitoring qilish maqsadida tuman hokimlarining birinchi o‘rinbosari rahbarligida hududiy ishchi guruhlar tashkil etiladi. Hududiy guruhlar zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatilgan:

• har bir oila va xonadonlarni xatlov asosida qamrab olgan holda tadbirkorlik bilan shug‘ullanish salohiyati, istak va takliflarini sinchkovlik bilan o‘rganish;

• o‘rganish davomida oilaning tadbirkorlik g‘oyasi va ko‘nikmasi, ushbu faoliyatni amalga oshirish uchun yetarli sharoitlari mavjudligini aniqlash;

• aholining shaxsiy tomorqa yer maydonlaridan samarali foydalanish yuzasidan takliflar berish, ularni amalga oshirishga ko‘maklashish;

• tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yish yoki rivojlantirish istagida bo‘lgan shaxslarga tijorat banklari tomonidan kreditlar ajratish ishlarini tashkillashtirish.

Bundan tashqari, 2018-yil 27-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar – kelajagimiz” Davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-5466-sonli farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonga ko‘ra O‘zbekiston yoshlar ittifoqi huzurida “Yoshlar – kelajagimiz” jamg‘armasi tashkil

etildi va mazkur jamg‘arma mablag‘laridan tijorat banklari orqali yoshlarning biznes tashabbuslari, startaplari, g‘oyalari va loyihalarini amalga oshirish uchun 2019-yil 31-dekabrgacha – yillik 7 foiz stavkada, 2020-yil 1-yanvardan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkalarida, 2021-yil 1-yanvardan esa tijorat banklarining bozor tamoyillari asosida mustaqil ravishda o‘rnatiladigan stavkalarda kredit berish belgilangan. Ushbu farmonga muvofiq, tegishli ko‘nikmalarga ega, band bo‘lmagan yoshlar yashaydigan uy xo‘jaliklari uchun 20 tagacha parranda va quyon bolasi, 5 ta mayda va 2 ta yirik qoramol sotib olish, ularning qiymatini kelishilgan muddatlarda qaytargan holda ularni boqish va keyinchalik realizatsiya qilishda ko‘maklashish ham nazarda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-iyundagi “Parrandachilikni rivojlantirish va tarmoq ozuqa bazasini mustahkamlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5146-sonli qaroriga muvofiq 2021-yil 1-iyuldan 2024-yil 1-iyulga qadar asosiy faoliyat turi parrandachilik bo‘lgan tadbirkorlar uchun asosiy faoliyat turi bo‘yicha foyda solig‘i (tijorat banklarida joylashtirilgan mablag‘lardan olingan foizlardan tashqari), mol-mulk solig‘i, yer solig‘i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi 50 foiz miqdorida qo‘llaniladi. Qarorga ko‘ra, 2021-yil 1-iyundan QQS to‘lovchisi bo‘lgan parrandachilik xo‘jaliklariga – o‘z xo‘jaliklarida yetishtirilib, realizatsiya qilingan tuxumning har bir donasi uchun 50 so‘m hamda parranda go‘shtining har bir kilogrami uchun 1000 so‘m miqdorida subsidiya berilishi belgilandi.

Bundan tashqari, 2025-yil 1-yanvarga qadar:

- omuxta yem va parrandachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi kichik tadbirkorlik subyektlariga aylanma mablag‘larni to‘ldirish uchun ajratiladigan 10 mlrd. so‘mgacha kredit foiz stavkasining Markaziy bank asosiy stavkasidan oshgan, biroq 8 foizdan ortiq bo‘lmagan qismi;

- parrandachilik loyihalarini amalga oshirish uchun ajratiladigan 10 mlrd. so‘mgacha kredit foiz stavkasining Markaziy bank asosiy stavkasidan oshgan, biroq 8 foizdan ortiq bo‘lmagan qismi qoplab beriladi;

- kushxona va muzlatkichlarni o‘z ichiga olgan parrandalarni so‘yishga mo‘ljallangan zamonaviy kompleksni ishga tushirgan tadbirkorlarga loyiha qiymati 40 mlrd. so‘mdan oshmaydigan qismining 10 foizi miqdorida subsidiya beriladi.

Ushbu qarorda 2022-yil 1-iyulga qadar tuxum, parranda go‘shti va mahsulotlarini eksport qiluvchi hamda soya donini import qiluvchi tadbirkorlar (ularning vakolatli vakillari)ga avtomobil, temir yo‘l va havo transportida tashish xarajatlarining 50 foizigacha miqdorida kompensatsiya qilishga subsidiyalar taqdim etilishi ham belgilab qo‘yilgan.

Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash uchun qishloq xo‘jalik tarmog‘ida, shu jumladan, chorvachilikda iqtisodiy islohotlarni izchil davom ettirish lozim. Bu jarayon bir necha yo‘nalishlarda amalga oshirilishi mumkin. Masalan, respublika hududlarining, xo‘jaliklarning yo‘nalishlarini e’tiborga olgan holda chorvachilik tarmoqlarini maqsadga muvofiq joylashtirib, ularni ixtisoslashtirish jarayonlarini rivojlantirishga e’tibor berish lozim.

Chorva mollari bosh sonini ko‘paytirish va ularning mahsuldorlik darajasini oshirishga e’tibor berish kerak. Chorvachilikda ishlab chiqarish jarayonlari mexanizatsiyalashtirilib, mehnat unumdorligini oshirishga erishish lozim. Naslchilik ishlarini rivojlantirib, sermahsul chorva zotlarini yaratish, ularni ishlab chiqarishga tezroq tadbiq etilishini ta’minlash lozim. Hozirgi vaqtda hukumatimiz tomonidan naslchilikni rivojlantirishga va fermer xo‘jaliklarining yuqori mahsuldorlik darajasiga ega naslli chorva mollarini chetdan keltirishlariga ko‘mak berilmoqda.

Chorvachilikning ozuqa bazasini mustahkamlash uchun ozuqa ekinlari yetishtiriladigan maydonlarni kengaytirib, ekinlarni almashlab ekishni rivojlantirish lozim. Bunda ozuqa ekinlari ekiladigan maydonlarning suv ta’minotiga, meliorativ holatini yaxshilashga hamda mahalliy va mineral o‘g‘itlardan talab darajasida foydalanishga alohida ahamiyat berish zarur.

Chorva ozuqasi yetishtirishda zamonaviy, noan’anaviy usullardan foydalanish ham yuqori samara beradi. Masalan, gidroponika usulida chorva ozuqasini yetishtirish uchun ekin maydoni mavjud bo’lishi talab etilmaydi. Chorva fermalari yaqinida, yaylov hududlarida ham gidroponika usulida chorva ozuqasi yetishtirish mumkin.

Ushbu masalani ijobiy hal etishda omuxta yem ishlab chiqarishni ko’paytirish orqali ularning narxi arzonlashishiga erishish, omuxta yemlar sifatining mavjud standartlarga mosligini ta’minlash, chorva hayvonlariga ozuqani ilmiy asoslangan ratsion asosida berilishini tashkil etish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, tarmoqda faoliyat ko‘rsatayotgan ishchi-xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirishga ham alohida e’tibor qaratish lozim. Ishchi-xizmatchilarni yetishtirgan mahsulotlar miqdori va sifatini e’tiborga olgan holda rag‘batlantirishning samarali usulini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Yuqorida ko‘rsatilgan masalalarning hal etilishi natijasida chorvachilik tarmoqlari rivojlanib, samaradorligi yuksalishi ta’minlanadi.

Chorvachilikni rivojlantirishda quyidagi yo‘nalishlarda chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1) Ozuqa bilan ta’minlashni yaxshilash. Buning uchun quyidagilarga e’tibor berish kerak:

- ozuqabop ekinlarni ilmiy asoslangan holda joylashtirishni va almashlab ekish tizimini joriy etish;
- xo‘jaliklarni ozuqabop ekinlar o‘rim-yig‘im texnikalari bilan ta’minlash masalasini hal etish, chorvachilik fermer xo‘jaliklarida ozuqa ekin maydonlarining chorva mollari bosh soniga mutanosib holda ajratish va joylashtirish;
- yem-xashak ekinlarining hosildorligini oshirish;
- chorva ozuqasini yetishtirishning noan’anaviy usullaridan foydalanish;
- hududlarda chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi dehqon va fermer xo‘jaliklarini omuxta yem bilan ta’minlashda qulayliklar yaratish.

2) Naslchilikni rivojlantirish. Buning uchun quyidagilarga e’tibor berish kerak:

- chorva hayvonlari zotlarining nasl va mahsuldorlik xususiyatlarini takomillashtirish;
- chorva hayvonlari naslchiligi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga e’tiborni kuchaytirish;
- chorva mollari zotlarining genofondini saqlash;
- chorva hayvonlari zotlarining irsiy imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida sun’iy qochirishni keng qo‘llash;
- qorako‘l terilarning jahon bozori talablariga javob beradigan raqobatbardosh yangi tiplarini yaratish.

3) Zooveterinariya ishlarini samarali tashkil etish. Buning uchun quyidagilarga e’tibor berish kerak:

- har bir qishloq fuqarolar yig‘ini qoshida zooveterinariya shoxobchalarini tashkil etish;
- chorvachilik va parrandachilik mahsulotlari xavfsizligini ta’minlash;

- yuqumli kasalliklarning respublika hududiga kirib kelishini oldini olish;
- chorva mollarini profilaktik emlash ishlarini to‘la qamrovda amalga oshirish;
- aholi va fermer xo‘jaliklariga zooveterinariya shoxobchalari orqali servis xizmatlari ko‘rsatish darajasi va sifatini oshirish.

4) Chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlashni rivojlantirish. Buning uchun quyidagilarga e’tibor berish kerak:
- qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratish hamda bu mahsulotlarga bo‘lgan talabni qondirish maqsadida go‘sht, sut, jun va teri mahsulotlarini qayta ishlaydigan mini sexlar tashkil etish;
- qorako‘lchilikka ixtisoslashgan hududlarda qorako‘l teri va jun mahsulotlaridan tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi kichik korxonalar tashkil etish. Qorako‘l terini qayta ishlashni rivojlantirish orqali undan jahon bozorida xaridorgir tayyor mahsulotlar olish mumkin. Shu sababli qorako‘l terini qayta ishlaydigan va tayyor mahsulotlar oluvchi korxonalar faoliyatini yanada rivojlantirishga e’tiborni kuchaytirish lozim.
- mazkur sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb etish va zamonaviy minitexnologiya bilan jihozlangan qo‘shma korxonalar tashkil etish va hokazo.

Mamlakatimizda chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash va sotish tizimlarini yanada rivojlantirish uchun quyidagilarga e’tibor berish lozim:
- chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash va sotish bo‘yicha davlat va xususiy sherikchilik asosida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va ularni rivojlantirish;
- chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash va sotish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi chorvachilik klasterlari tashkil etishga e’tiborni kuchaytirish;
- chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash va sotish jarayoniga xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali zamonaviy texnologiya va usullarni o‘zlashtirish;
- chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash sohasida yangi quvvatlarni ishga tushirish va mahsulotlar turlarini kengaytirish bilan bog‘liq masalalarni hal etish;
- chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirib borish va boshqalar.

Qisqacha xulosalar

Qishloq xo‘jaligi tarmog‘i yetishtirilayotgan mahsulotlarning turlari va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ikkita yirik tarmoqqa: o‘simlikchilik va chorvachilikka bo‘linadi. Chorvachilik qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmog‘i bo‘lib, unda ko‘p turdagi mahsulotlar yetishtiriladi. Jumladan, aholi iste’moli uchun kerak bo‘ladigan oziq-ovqat mahsulotlari, oziq-ovqat, charm poyabzal, to‘qimachilik va yengil sanoatlarining ko‘plab korxonalari uchun xomashyo yetishtiriladi.

Hozirgi vaqtda mamlakatimiz hukumati tomonidan chorvachilik mahsulotlari yetishtirishni rivojlantirish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda va bu islohotlar o‘zining ijobiy natijalarini bermoqda. Mamlakatimiz aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini, sanoat tarmoqlarining esa xomashyoga bo‘lgan talabini qondirish, aholi daromadlarini ko‘paytirish, mamlakatimiz eksport salohiyatini yanada yuksaltirish uchun qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini, shu jumladan chorvachilik mahsulotlari yetishtirishni yanada oshirish lozim.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Chorvachilik tarmog‘i mamlakatimiz iqtisodiyotida qanday o‘rin tutadi? Uning ahamiyatli ekanligi nimalarda namoyon bo‘ladi?
2. Chorvachilik tarmoqlarining rivojlanishini, ularning samaradorligini qanday ko‘rsatkichlar ifodalaydi? Bu ko‘rsatkichlar qanday aniqlanadi?
3. Mamlakatimizda chorvachilik tarmoqlarining hozirgi rivojlanish holati qanday?
4. Chorvachilikning mamlakatimiz mintaqalari bo‘yicha rivojlanish holati qanday?
5. Chorvachilik tarmoqlarida islohotlarni qanday qilib yanada chuqurlashtirish mumkin?
6. Chorvachilikni rivojlantirish, uning samaradorligini yuksaltirish uchun qanday tadbirlarni amalga oshirish lozim?

BOB YUZASIDAN AMALIY TOPSHIRIQLAR:

1-topshiriq:

Klaster usuli yordamida chorvachilik tarmog‘ining qanday kichik tarmoqlardan tashkil topganligini ko‘rsatib berish.



2-topshiriq:

SWOT tahlil usuli yordamida mamlakatimizda chorvachilikni rivojlantirish imkoniyatlarini tahlil qilish. Bunda doskaga SWOT tahlil jadvali chiziladi va har bir talaba alohida ushbu tahlilni amalga oshiradi.

Mamlakatimizda chorvachilikni rivojlantirish imkoniyatlari

S (strength)	W (weakness)
O (opportunity)	T (threat)

3-topshiriq:

Nilufar guli usuli yordamida chorvachilik tarmog‘ida mavjud muammolar (masalan, go‘sht narxining qimmatligi) va uni hal etish yo‘llarini tahlil qilish.

	B	

	C	

	D	

	I	

B	**C**	**D**
I	**A**	**E**
H	**G**	**F**

	E	

	H	

	G	

	F	

Nilufar guli - muammoni yechish yo‘llarini ko‘rsatib beruvchi usuldir. O‘zida nilufar guli ko‘rinishini namoyon qiladi. Uning asosini to‘qqizta to‘g‘ri to‘rtburchak tashkil etadi. Bunda A – qo‘yilayotgan asosiy muammo, ya’ni go‘sht narxining qimmatligi; B,C,D,E,F,G,H,I – esa ushbu muammolarga ta’sir etuvchi omillar, har bir omil alohida olinib, uni hal etish yo‘llari yozib chiqiladi. Ushbu usul tizimli fikrlash, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi va faollashtiradi.

4-topshiriq:

FSMU texnologiyasi yordamida “Chorvachilik tarmoqlarining samaradorligini yanada oshirish uchun nimalarga e’tibor berish lozim?” ekanligini aniqlash.

Yo‘naltiruvchi so‘zlar: Xizmat ko‘rsatish sohalari jihatidan, ishchi kuchi jihatdan, marketing jihatdan.

	Chorvachilik tarmoqlarining samaradorligini yanada oshirish uchun nimalarga e’tibor berish lozim?
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating	
(M) Ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Chorvachilik tarmog‘ining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o‘rni va ahamiyati.
2. Mamlakatimizda chorvachilik tarmoqlarining hozirgi rivojlanish holati.
3. Mamlakatimizda chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar.
4. Chorvachilik mahsulotlari yetishtirishni ko‘paytirish va samaradorligini oshirish yo‘llari.

GLOSSARIY.

Agrar siyosat – davlatning qishloq xo‘jaligi sohasidagi faoliyati bo‘lib, u qishloq xo‘jaligini, yer mulkchiligini va hokazolarni rivojlantirish yo‘llari haqidagi masalalarni hal qilishga qaratilgan iqtisodiy siyosatning bir turi.

Almashlab ekish – ekinlarning dalalarda ma’lum muddatda (yillar bo‘yicha) ilmiy asoslangan holda navbatlab ekilishi tushuniladi.

Almashlab ekish rotatsiyasi – almashlab ekilayotgan ekinlarning belgilangan muddatda navbat bilan barcha dalalarda ekib chiqilishi.

Aksiya - uning egasi aksiyadorlik jamiyati kapitaliga o‘zining ma’lum hissasini qo‘shganiga va uning foydasidan dividend shaklida daromad olish huquqi borligiga guvohlik beruvchi qimmatli qog‘oz.

Amortizatsiya – asosiy fondlar qiymatini qismlarga bo‘lgan holda ular vositasida ishlab chiqariladigan mahsulotlar va ko‘rsatiladigan xizmatlar tannarxiga asta-sekin o‘tkazib borish.

Amortizatsiya fondi – eskirgan asosiy fondlarning o‘rnini keyinchalik qoplash maqsadida pul mablag‘larini to‘plab borishga mo‘ljallangan fond.

Bank – iqtisodiyotning me’yorda amal qilishi uchun zarur bo‘lgan pul massasi harakatini tartibga soluvchi moliya-kredit muassasasi.

Bozor – tovarlar bilan pullarning harakatini ta’minlovchi ishlab chiqarish va iste’mol o‘rtasida, sotuvchi va xaridor o‘rtasidagi munosabatlar tizimi. Bozor sotuvchi va xaridorlar uchrashadigan, ayirboshlash amalga oshadigan joyni ham anglatadi. Bozorning faoliyat ko‘rsatishi uchun dastavval mulkchilikning xilma-xil shakllariga asoslangan mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyektlar va bozor infrastrukturasini vujudga keltirish talab etiladi.

Bozor iqtisodiyoti – iqtisodiy munosabatlar erkin amalga oshadigan iqtisodiyotdir. Bozor iqtisodiyotining faoliyat ko‘rsatishi asosan bozor mexanizmlari orqali amalga oshadi.

Bozor infratuzilmasi – bozor iqtisodiyoti uchun xizmat ko‘rsatuvchi har xil sohalar.

Bozor muvozanati – bozordagi talab va taklifning miqdoran va tarkibi jihatidan bir-biriga muvofiq kelishi.

Bozor konyunkturasi – ma’lum bir davrda tovarlar talab va taklifi tuzilishi va dinamikasini shakllantiruvchi iqtisodiy sharoit va omillar majmui.

Bozorni segmentlash – bozorni biron-bir belgi bo‘yicha alohida bo‘g‘inlarga ajratish.

Budjet – davlat, korxona, muassasaning qonuniy tartibda tasdiqlangan davrga mo‘ljallangan pul ifodasidagi daromad va sarf-xarajatlari.

Budjet defitsiti – muayyan davr mobaynida (odatda bir yilda) budjet xarajatlarining budjet daromadlaridan ortiq bo‘lgan summasi.

Budjet profitsiti – muayyan davr mobaynida (odatda bir yilda) budjet daromadlarining budjet xarajatlaridan ortiq bo‘lgan summasi.

Chet el investitsiyalari – chet ellik investorlar asosan foyda olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida ta’qiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat obyektlariga qo‘shadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlar, shu jumladan intellektual mulkka doir huquqlar.

Davlat tasarrufidan chiqarish – davlat korxonalarini va tashkilotlarini jamoa, ijara korxonalariga, aksiyadorlik jamiyatlariga, mas’uliyati cheklangan jamiyatlarga, davlatga qarashli mulk bo‘lmaydigan boshqa korxonalar va tashkilotlarga aylantirish.

Degradatsiyaga uchragan yerlar – tabiiy va antropogen omillar, xo‘jalik va boshqa faoliyatning salbiy ta’sirlari natijasida tuproq sifati yomonlashgan qishloq xo‘jaligi yerlari.

Dehqon xo‘jaligi – oila a’zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig‘iga berilgan tomorqa yer uchastkasida qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtiradigan va realizatsiya qiladigan oilaviy mayda tovar xo‘jaligidir. Dehqon xo‘jaliklaridagi faoliyat tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi hamda dehqon xo‘jaligi a’zolarining istagiga ko‘ra yuridik shaxs tashkil etgan holda yoki yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshirilishi mumkin.

Depozit – 1) bank jamg‘armasi; 2) bankka omonat kassasi yoki foydalanish uchun vaqtincha qo‘yilgan pul yoki qimmatli qog‘ozlar, qimmatli narsalar.

Depressiya – ishsizlik darajasi yuqori, tovar va xizmatlarga talab pastligi, ishlab chiqarishning hajmi va ishchanlik tushib ketadigan davrni xarakterlaydigan iqtisodiyotdagi tushkunlik davri. Inqiroz siklining eng past darajasidir.

Devalvatsiya – boshqa mamlakatlar valyutasiga nisbatan milliy yoki xalqaro pul birligi kursining pasayishi.

Diversifikatsiya – 1) turli-tumanlik, o‘zgarish; 2) korxonalar va tarmoqlar faoliyatining kengayishi, ishlab chiqarayotgan mahsulotlarning turlarini bozor talablariga qarab o‘zgartirishidir; 3) davlatning milliy xalq xo‘jaligining zamonaviy ko‘p tarmoqli tarkibini vujudga keltirishga qaratilgan siyosati, kompleks ko‘p tarmoqli rivojlanish.

Dotatsiya – korxona, muassasalarga qaytarib olmaslik sharti bilan zararlarni qoplash, bahoni quvvatlash uchun davlat budjeti hisobidan beriladigan subsidiya (pul mablag‘lari).

Fermer xo‘jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqarishi bilan shug‘ullanuvchi, mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyekt.

Foiz – qarzga olingan pullar yoki moddiy buyumlardan foydalanganlik uchun kreditorga qarzdorning ustama to‘lovi.

Globallashuv – davlatlar va mintaqalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning chuqurlashuvi, yagona umumjahon iqtisodiy, madaniy va axborot makonlarining shakllanishi bilan bog‘liq bo‘lgan jarayondir.

Ijara haqi – vaqtincha foydalanish uchun berilgan yer maydoni, bino, inshoot, transport vositalari, qishloq xo‘jalik texnikalari va boshqa shu kabilar uchun mulk egasining ijaraga oluvchidan oladigan haqi (mukofoti). Ijara haqining tarkibiga ijaraga olingan mulk qiymatidan ajratiladigan amortizatsiya ajratmasi va mulkdan foydalanish natijasida olinadigan daromadning bir qismi kiradi.

Ijtimoiy soha – insonning hayot faoliyati darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi mahsulot va xizmatlarni taqdim etuvchi tarmoq va sohalar (masalan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat va san’at, uy-joy kommunal xo‘jaligi, savdo, umumiy ovqatlanish, jismoniy tarbiya va

sport va boshqalar)ni o‘z ichiga olgan iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi.

Injiniring – tijorat asosida injener-maslahat xizmatlarini sanoat obyektlari, infratuzilmani tashkil etish masalalarini o‘rganib chiqish bo‘yicha faoliyat turi. Loyiha xarakteridagi, ekspluatatsiyasi bo‘yicha tavsiya xizmatlari kiradi.

Innovatsiya – fan yutuqlari va ilg‘or tajribadan foydalanishga asoslangan texnika, texnologiya, mehnatni tashkil qilish, boshqaruv sohasida yangilik kiritish.

Infratuzilma – asosiy tarmoq yoki sohaga xizmat ko‘rsatuvchi, uning to‘laqonli faoliyati uchun shart-sharoit yaratib beruvchi soha. Yo‘nalishiga ko‘ra, ishlab chiqarish, ijtimoiy, bozor va boshqa infratuzilmalarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

Integratsiya – 1) turli bo‘limlar, elementlar harakatining bir butunga birlashish jarayoni; 2) iqtisodiy integratsiya – iqtisodiy subyekt (davlat, korxona, firma)larning iqtisodiy, texnologik munosabatlarning o‘zaro bog‘liqligi natijasida vujudga keluvchi hamkorlikning chuqurlashuvi.

Intensiv rivojlanish – samaraliroq ishlab chiqarish vositalari va texnologik jarayonlarni qo‘llash, mehnatni tashkil etishning ilg‘or usullari, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanish asosida rivojlantirish.

Ipoteka – ko‘chmas mulkni garovga qo‘yish bilan beriladigan ssuda. Ushbu ssudani ta’minlashga xizmat qiluvchi garov kreditorga berilmaydi, balki qarzdorning o‘zida qoladi.

Iqtisodiy sikl – iqtisodiy rivojlanishning bir holatidan boshlanib, birin-ketin bir necha fazalarni bosib o‘tib, o‘zining dastlabki holatiga qaytib kelgunga qadar o‘tgan davr hisoblanadi.

Iqtisodiyotni liberallashtirish – iqtisodiyotni erkinlashtirish, xo‘jalik hayotining barcha sohalaridagi to‘siq hamda cheklovlarni, shuningdek, davlat nazoratini keskin ravishda qisqartirish yoki bekor qilishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar tizimi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash – iqtisodiyot tarmoq va korxonalaridagi ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma’naviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va

texnologik qayta tuzish kabi chora-tadbirlarni o‘z ichiga oluvchi jarayonni tartibga solishga qaratilgan faoliyat.

Irrigatsiya – suv resurslari bilan ta’minlash va suv inshootlari faoliyatini tartibga soluvchi tizim.

Intensiv bog‘ — pakana va yarim pakana payvandtaglarda yetishtirilgan ko‘chatlarni zich sxemada ekib, tomchilatib sug‘orish tizimi asosida tashkil etilgan bog‘.

Investitsiya – iqtisodiy samara (foyda, daromad) olish yoki ijobiy ijtimoiy natijaga erishish uchun sarflanadigan pul mablag‘lari, banklarga qo‘yilgan omonatlar, paylar, qimmatli qog‘ozlar (aksiya, obligatsiyalar), texnologiyalar, mashinalar, asbob-uskunalar, litsenziyalar va samara beradigan boshqa har qanday boylik.

Jismoniy shaxs – iqtisodiy faoliyatda qatnashuvchi va bu jarayonning to‘la huquqli subyekti sifatida faoliyat ko‘rsatuvchi shaxs. Jismoniy shaxs o‘zining nomidan ish yuritadi, firma yoki korxona kabi hokimiyatda ro‘yxatdan o‘tish majburiyatidan ozod.

Kapitallashuv – aksiyadorlik kompaniyalari, banklar tomonidan chiqarilgan va kapitalga aylantirilgan barcha qimmatbaho qog‘ozlarning umumiy summasi.

Kichik biznes subyektlari – korxona ko‘lami, ishlab chiqarish hajmi, ishlovchilar soni, moliyaviy mablag‘lari miqdori va boshqalar jihatidan kichikroq bo‘lgan subyektlar. Respublikamizda kichik biznes subyektlari toifasiga yakka tartibdagi tadbirkorlar, mikrofirmalar va kichik korxonalar kiradi.

Klaster – qishloq xo‘jaligida faoliyat yurituvchi klasterlar xomashyo yetishtirishdan boshlab tayyor mahsulot ishlab chiqarish, marketing tadqiqotlari o‘tkazish, saqlash, sotish va uni ularni xaridorlarga yetkazib berishgacha bo‘lgan barcha jarayonlarni qamrab oluvchi tadbirkorlik shakli.

Konsalting – tashkily, texnikaviy, moliyaviy, iqtisodiy masalalar bo‘yicha ishlab chiqaruvchilar, sotuvchi va xaridorlarga maslahat berish xizmatini ko‘rsatuvchi muassasalar (firmalar).

Konsepsiya – tushunchalar va ular o‘rtasidagi biron-bir voqelikni rivojlantirish va xususiyatlarining asosiy yo‘nalishlarini belgilovchi aloqalar majmui.

Ko‘chmas mulk – yer, imorat, inshoot va boshqa shu kabi mulklar. Yerga egalik huquqlari ham ko‘chmas mulkka kiradi.

Ko‘p ukladli iqtisodiyot – turli mulk shakllari va har xil xo‘jalik turlarining yaxlitligidan tashkil topgan iqtisodiyot. Bozor iqtisodiyoti xilma-xil, bir-biri bilan erkin raqobatlashadigan xo‘jalik ukladlarini taqozo etadi, o‘z tabiatiga ega bo‘lgan ishlab chiqarishdan iborat bo‘ladi.

Likvidlik – kredit moliya majburiyatlarini va qonuniy pul talablarini muddatida uzluksiz to‘lash imkoniyatini nazarda tutuvchi korxonalar, firmalar, banklar aktivlarining to‘lov qobiliyati.

Lizing - moliyaviy ijaraning alohida turi bo‘lib, unda bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi tarafning (lizing oluvchining) topshirig‘iga binoan uchinchi tarafdan (sotuvchidan) lizing shartnomasida shartlashilgan mol-mulkni (lizing obyektini) mulk qilib oladi va uni lizing oluvchiga shu shartnomada belgilangan shartlarda haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun o‘n ikki oydan ortiq muddatga beradi.

Loktatsiya – chorva molining bolalashidan tortib to sutdan chiqquniga qadar bo‘lgan davr.

Melioratsiya obyektlari – kollektor-drenaj va yer usti tashlama suvlarini to‘plash hamda ularni sug‘oriladigan yerlardan tashqariga chiqarib tashlashga ko‘maklashadigan, kollektorlarni va kollektor-drenaj tarmog‘ini, vertikal drenaj quduqlarini, melioratsiya nasos stansiyalarini (agregatlarini) va kuzatuv tarmog‘ini o‘z ichiga oladigan suv xo‘jaligi obyektlari.

Mehnatga haq to‘lash – yaratilgan milliy mahsulotdan ishchi va xizmatchilar mehnatining miqdori, sifati va unumdorligiga ko‘ra ulushini belgilash va to‘lash.

Mikrofirma – kichik biznes subyektlarining bir turi bo‘lib, mamlakatimizda amaldagi qonunchilikka ko‘ra sanoat ishlab chiqarish tarmoqlarida 20 kishigacha, xizmat ko‘rsatish sohasida 10 kishigacha, savdo va umumiy ovqatlanish sohasida 5 kishigacha ishlovchi korxonalar mikrofirma hisoblanadi.

Monopoliya – monopol yuqori narxlarni o‘rnatish hamda monopol yuqori foyda olish maqsadida tarmoqlar, bozorlar va yaxlit makroiqtisodiyot ustidan hukmronlikni amalga oshiruvchi yirik korxonalar (firma, korporatsiyalar)ning birlashmalari.

Mulkka egalik qilish – mulkdorlik huquqining uning egasi qo‘lida saqlanib turishi va yaratilgan moddiy boyliklarni o‘zlashtirishning iqtisodiy shakli.

Mulkdan foydalanish – mol-mulkning iqtisodiy faoliyatda ishlatilishi yoki ijtimoiy hayotda qo‘llanishi, ya’ni uning nafli jihatlarining bevosita iste’mol qilinishi.

Mulkni tasarruf etish – mol-mulk taqdirini mustaqil hal qilish.

Oilaviy biznes – tadbirkorlik faoliyatining o‘zaro qon-qardoshlik aloqalari bilan bog‘liq bo‘lgan kishilar guruhi (asosan oila a’zolari) tomonidan birgalikda yuritishga asoslangan shakli.

Ozuqa birligi – yem-xashak ekin maydonlari yoki ozuqa ekinlarining o‘z to‘yimliligi jihatidan 1 kg suliga teng keladigan unumdorligining o‘lchov birligi.

Preferensiya – shartnoma bo‘yicha beriladigan ustunlik, imtiyozli shart-sharoitlar.

Proteksionizm – davlatning milliy iqtisodiyot va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni xorij raqobatidan himoya qilish siyosati. Bunda mamlakatga olib kelinayotgan ayrim tovarlarga yuqori bojlar belgilanadi, ba’zi tovarlarni olib kelish cheklanadi yoki umuman ta’qiqlanadi.

Qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarining normativ qiymati — normativ ko‘rsatkichlardan foydalangan holda aniqlangan qishloq xo‘jaligi ekin maydonlari qiymati.

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga shiruvchi tashkilotlar – xo‘jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa mulklarga egalik qiluvchi, dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi yuridik shaxs.

Qishloq xo‘jaligi korxonalari kooperatsiyasi – qishloq xo‘jaligi korxonalarining birlashish usuli bo‘lib, bundan maqsad fan-texnika

taraqqiyoti yutuqlaridan va yirik ixtisoslashgan ishlab chiqarish imkoniyatlaridan yaxshiroq foydalanish.

Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchisi — qishloq xo‘jaligini yuritish uchun belgilangan tartibda ajratilgan yer uchastkasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi yuridik shaxs, shuningdek dehqon xo‘jaliklari.

Ratsion – mollarning fiziologik holatini hisobga olgan holda bir sutkada beriladigan yem-xashak miqdori.

Renta – yer egalarining qishloq xo‘jaligi yerlarini foydalanishga berishdan oladigan pul mablag‘lari. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari tomonidan yaratilgan qo‘shimcha mahsulotning bir qismi yer egalari tomonidan o‘zlashtiriladi. Yer rentasi yerga mulkchilikning paydo bo‘lishi bilan shakllangan. Monopol, differensial va absolyut rentalar mavjud.

Rekultivatsiya – holati yomonlashgan yer maydonining barcha xususiyatlarini qayta tiklash.

Rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar – aholining salomatligini tiklashi, ommaviy dam olishi va turizmni tashkil etish uchun tegishli muassasalar va tashkilotlarga berilgan yerlardir.

Resurslar – 1) imkoniyat, boylik manbai, vosita; 2) ishlab chiqarishni ta’minlaydigan omil va vositalar. Iqtisodiy resurslar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: moddiy (xomashyoviy, tabiiy), mehnat va moliyaviy resurslar.

Retsessiya – uzluksiz ikki chorak davomida aniqlanadigan inqiroz, ishchanlik faolligining pasayishi. Real yalpi milliy mahsulotning kamayishi, iqtisodiy tushkunlik.

Servitut – o‘zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish huquqi bo‘lib, qo‘shni bo‘lgan bir yoki bir necha yer uchastkalaridan cheklangan tarzda foydalanish huquqidir. Servitut quyidagi maqsadlarda belgilanishi mumkin: o‘zganing yer uchastkasi orqali piyoda yoki transportda o‘tish; o‘zganing yer uchastkasida drenaj ishlari o‘tkazish; o‘zganing yer uchastkasidan elektr uzatish, aloqa liniyalari va quvurlar, irrigatsiya, muhandislik va boshqa liniyalar hamda tarmoqlar o‘tkazish va ulardan foydalanish; o‘zganing yer uchastkasidan

ekinzor va mollarni sug‘orish uchun suv olish; mollarni o‘zganing yer uchastkasi orqali haydab o‘tish; o‘zganing yer uchastkasidan qidiruv, tadqiqot va boshqa ishlarni bajarish uchun vaqtincha foydalanish; o‘zganing yer uchastkasida ihota daraxtlari ekish va tabiatni muhofaza qilishga taalluqli boshqa obyektlar barpo etish. Servitut, uni belgilashni talab qilgan shaxslar bilan o‘zga yer uchastkasining egalik qiluvchisi, foydalanuvchisi, ijarachisi va mulkdori o‘rtasidagi kelishuvga muvofiq, kelishuvga erishilmagan taqdirda esa, sudning hal qiluv qaroriga binoan belgilanadi.

Shartli qoramol – xo‘jalikdagi chorva mollari jami bosh sonini hisoblashda qo‘llaniluvchi o‘lchov birligi bo‘lib, chorva mollarini shartli qoramol o‘lchovida ifodalash uchun tegishli koeffitsiyentlardan foydalaniladi.

Shaxsiy yordamchi xo‘jalik – shaharcha, qishloq, ovullarda yashovchi fuqarolarga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi asosida uy-joy qurish uchun berilgan uchastkalarning bir qismi – tomorqada oila a’zolarining shaxsiy mehnati asosida oila ehtiyojlari uchun dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hamda oila ehtiyojidan ortiqchasini sotish bilan shug‘ullanadigan oilaviy xo‘jalik.

Subvensiya – hukumat mahalliy organlariga yoki xo‘jaliklarning turli bo‘g‘inlariga davlat tomonidan beriladigan moliyaviy yordam turi.

Subsidiya –pul yoki natura ko‘rinishidagi qaytarib olinmaydigan yordam; narxni quvvatlash usuli, davlat narxlar o‘rtasidagi farqni to‘laydi.

Suv resurslari – foydalaniladigan yoki foydalanilishi mumkin bo‘lgan suv obyektlari suvlari.

Suv xo‘jaligi – iqtisodiyotning suv resurslarini va suv obyektlarini o‘rganish, hisobga olish, boshqarish, ulardan foydalanish, ularni muhofaza qilish, shuningdek suvlarning zararli ta’siriga qarshi kurashishni qamrab oluvchi tarmog‘i.

Suv obyekti – suvlar doimiy ravishda yoki vaqtincha to‘planadigan va suv rejimining o‘ziga xos shakllari va belgilari bo‘lgan tabiiy (jilg‘alar, soylar, daryolar va boshqalar) hamda sun’iy (ochiq va yopiq

kanallar, shuningdek kollektor-drenaj tarmoqlari) suv oqimlari, tabiiy (ko‘llar, dengizlar, yer osti suv qatlamlari) va sun’iy (suv omborlari, sel suvlari to‘planadigan joylar, hovuzlar va boshqalar) suv havzalari, shuningdek buloqlar va boshqa obyektlar.

Suv rejimi – suv obyektlari va tuproq-gruntda suv sathi, tezligi, sarfi va hajmining vaqt bo‘yicha o‘zgarishi.

Suv iste’molchilari uyshmasi – yuridik shaxs bo‘lgan suv iste’molchilari tomonidan suvga doir munosabatlar, sohasidagi o‘z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek umumiy manfaatlarini ifodalash va himoya qilish uchun ixtiyoriy asosda tashkil etiladigan nodavlat notijorat tashkiloti.

Sug‘orish me’yori – bir marta sug‘orish uchun kerak bo‘ladigan suv miqdori.

Tadbirkorlik faoliyati – shakli, turi va sohasidan qat’i nazar, foyda olish va uni ko‘paytirish maqsadida amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyat.

Talab – ma’lum vaqt oralig‘ida, narxlarning mavjud darajasida iste’molchilarning tovar va xizmatlar ma’lum turlarini sotib olishga qodir bo‘lgan, pul bilan ta’minlangan ehtiyoji.

Tender – 1) bozorda obligatsiya va boshqa qimmatli qog‘ozlarni taklif etish vositasi; 2) xalqaro savdo shakli; 3) tanlov, talabgorlar o‘rtasidagi raqobat.

Tomchilatib sug‘orish – ekinlarga suv berishning eng ilg‘or usullaridan biri bo‘lib, bunda suv o‘simliklarga to‘g‘ridan to‘g‘ri maxsus jihozlar va qurilmalar yordamida tomchi tarzida etkaziladi.

Transchegaraviy suvlar – ikki yoki undan ortiq davlatlar chegaralarini kesib o‘tadigan yoki shunday chegaralarda joylashgan har qanday yer usti yoki yer osti suvlari.

Tugallanmagan ishlab chiqarish – ishlab chiqarish jaryonlari va xarajatlari kalendar yili oxirida nihoyasiga yetmagan, pirovard mahsulot olinmagan holatidir.

Tuproq bonitirovkasi – qishloq xo‘jaligi ekinlarining o‘rtacha agrotexnika darajasida tuproqning sifatini va tabiiy ishlab chiqarish unumdorligini 100 ballik shkala bo‘yicha qiyosiy baholash.

Unifikatsiya – yagona tizimga, shaklga, bir xillikka keltirish.

Vaqf yerlari – mulkdorlar tomonidan diniy muassasa ixtiyoriga daromadidan foydalanib turishi uchun berilgan yoki vasiyat qilib qoldirilgan yer maydoni.

Xususiylashtirish – mulkni davlat tasarrufidan chiqarilishi va xususiy mulkka aylantirilishi; davlat mulkini fuqarolarga sotish shakli.

Xususiy mulk – mulk shakllaridan biri bo‘lib, fuqaro foyda olish maqsadida o‘z mulkidan foydalanish huquqiga ega bo‘ladi. Ishlab chiqarish jarayonida fuqaroning o‘z mehnati bilan birga yollanma mehnatdan ham foydalanish mumkin.

Yalpi ichki mahsulot – bir yil mobaynida mamlakat hududida ishlab chiqarilgan barcha tovarlar, ko‘rsatilgan xizmatlar va bajarilgan ishlar summasi.

Yer uchastkasi – o‘z chegaralangan belgisi, maydoni, joylashgan o‘rni, huquqiy tuzilishiga (yer egasi, yerdan foydalanuvchilar va boshqalar) ega bo‘lgan yer sathining qismi.

Yer uchastkasining ijarasi – yer uchastkasiga ijara shartnomasi shartlarida muddatli, haq evaziga egalik qilish va foydalanishdan iboratdir.

Yer kadastri – yerlarning tabiiy, xo‘jalik va huquqiy rejimi, ularning toifalari, sifat ko‘rsatkichlari va bahosi, yer uchastkalarining joylashgan manzili va o‘lchamlari, ularni yer egalariga, yerdan foydalanuvchilarga, ijarachilarga hamda mulkdorlarga taqsimlash to‘g‘risidagi zarur, ishonchli ma’lumotlar va hujjatlar tizimidan iborat.

Yerlarni konservatsiya qilish – degradatsiyaga (sho‘rlanishga, cho‘llanishga, botqoqlashishga uchrashi hamda yaylov va pichanzorlarda tuproq-o‘simlik qoplami jiddiy tanazzulga) uchragan, kam mahsuldor, hosildorligi juda pasaygan va tabiiy xususiyatlari bo‘yicha salbiy tavsiflarga ega tuproqlar, yuqori darajada zaharli sanoat chiqindilari, radioaktiv moddalar, og‘ir metallar va boshqa kimyoviy elementlar bilan ifloslangan qishloq xo‘jalik yerlarining unumdorlik va tabiiy xususiyatlarini tiklash, buzilgan yerlarning atrof-muhitga salbiy ta’sirini va degradatsiya sur’atlarini pasaytirish hamda oldini olish

chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun besh yildan kam bo‘lmagan muddatga maqsadli foydalanishdan chiqarish.

Yer monitoringi – yer tarkibidagi o‘zgarishlarni o‘z vaqtida aniqlash, yerlarga baho berish, salbiy jarayonlarning oldini olish va oqibatlarini tugatish uchun yer fondining holatini kuzatib turish tizimidan iborat.

BILIMNI BAHOLASH UCHUN TEST SAVOLLARI.

1. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining asosiy vazifasi nimadan iborat?

A) Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va aholini ish bilan ta’minlash

B) Aholini oziq-ovqat mahsulotlari va sanoatning ayrim tarmoqlarini xomashyo bilan ta’minlash

D) Sanoatning ayrim tarmoqlarini xomashyo bilan ta’minlash va aholini ish bilan ta’minlash

E) Aholini qishloq xo‘jalik mahsulotlari bilan ta’minlash va mavjud resurslardan unumli foydalanish

2. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining qanday o‘ziga xos xususiyatlari mavjud?

A) Yer asosiy ishlab chiqarish vositasi, ishlab chiqarishning uzluksizligi, ishlab chiqarish katta maydonlarda amalga oshadi

B) Ishlab chiqarish mavsumiy, tabiiy omillar ta’siri kuchli, mehnatning chuqur ixtisoslashganligi, ishlab chiqarish natijasi iqlimga bog‘liq

D) Tabiiy omillar ta’siri kuchli, ishlab chiqarishning yuqori darajada mexanizatsiyalashganligi, ishlab chiqarish katta maydonlarda amalga oshadi

E) Yer asosiy ishlab chiqarish vositasi, ishlab chiqarish mavsumiy, tabiiy omillar ta’siri kuchli, ishlab chiqarish katta maydonlarda amalga oshadi

3. “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” fanining predmeti nimadan iborat?

A) Qishloq xo‘jaligida obyektiv iqtisodiy qonunlarning amal qilish xususiyatlari, tarmoqda iqtisodiy munosabatlarni ishlab chiqarish omillari bilan bog‘lagan holda o‘rganish

B) Iqtisodiy qonunlar, kategoriyalar va ishlab chiqarish munosabatlarining mamlakat iqtisodiyotida amal qilish xususiyatlari va ularni yanada takomillashtirish yo‘llarini o‘rganish

D) Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini samarali tashkil etish va yalpi ichki mahsulotni ko‘paytirish yo‘llarini o‘rganish

E) Qishloq xo‘jaligida yer va mulkiy munosabatlarni takomillashtirish, tarmoqning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yo‘llarini o‘rganish

4. “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” fani o‘z predmetini o‘rganishda qanday usullardan foydalanadi?

A) Eksperiment, SWOT tahlil, zanjirli bog‘lanish, hisob-konstruktiv

B) Nisbiy miqdorlar, tushunchalar tahlili, indikativ rejalashtirish, analiz

D) Ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, monografik, iqtisodiy-matematik

E) Taqqoslama tahlil, absolyut miqdorlar, tizimli tahlil, gipoteza, balans

5. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2019-yilda necha foizni tashkil etdi?

A) 28,1

B) 36,8

D) 26,4

E) 17,5

6. 2019-yilda meva-sabzavot mahsulotlarining mamlakatimiz jami eksportidagi ulushi necha foizni tashkil etgan?

A) 7,8

B) 6,9

D) 5,4

E) 8,2

7. “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” Davlat dasturi qachon qabul qilingan?

A) 2009-yil 15-fevral

B) 2009-yil 26-yanvar

D) 2009-yil 20-mart

E) 2008-yil 31-dekabr

8. Qishloq xo‘jalik korxonalari uchun yagona yer solig‘i qachondan joriy etilgan?

A) 1998-yil 1-noyabrdan

B) 1999-yil 1-yanvardan

D) 1998-yil 1-yanvardan

E) 2008-yil 1-yanvardan

9. Fermer xo‘jaliklarining yer maydonlarini maqbullashtirish jarayoni nimani anglatadi?

A) Ekin maydonlari tarkibini o‘zgartirishni

B) Zarar ko‘rib ishlayotgan, istiqbolsiz va to‘lovga noqobil fermer xo‘jaliklarining yer maydonlarini yiriklashtirish yoki ixchamlashtirish orqali ularning samaradorligini yuksaltirishni

D) Paxta, g‘alla, sabzavot va poliz ekinlari joylashuvining maqbul chegaralarini belgilashni

E) Yer maydoni katta, boshqarish qiyin bo‘lgan fermerlar yerlarini ixchamlashtirishni

10. Yangidan tashkil etilgan bog‘dorchilik va uzumchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari necha yilga yagona yer solig‘i to‘lashdan ozod etilgan?

A) 2 yilga

B) 3 yilga

D) 4 yilga

E) 5 yilga

11. Yangidan tashkil etilgan paxta, g‘alla, sabzavot, poliz, kartoshka va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi fermer xo‘jaliklari necha yilga yer solig‘i to‘lashdan ozod etilgan?

A) 2 yilga

B) 3 yilga

D) 4 yilga

E) 5 yilga

12. Loyiha asosida o‘z hisobidan o‘zlashtirgan yer uchun fermer xo‘jaligi necha yil davomida yer solig‘i to‘lashdan ozod qilingan?

A) 2 yilga

B) 3 yilga

D) 4 yilga

E) 5 yilga

13. Mamlakatimizda agrosanoat majmuasi yagona tizim sifatida qachon shaklana boshlagan?

A) XX asrning 40-yillaridan boshlab

B) XX asrning 50-yillaridan boshlab

D) XX asrning 60-yillaridan boshlab
E) XX asrning 70-yillaridan boshlab

14. Agrosanoat majmuasining mohiyati nimadan iborat?

A) Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoatining tashkil etilishi va rivojlantirilishi
B) Qishloq xo‘jaligi va sanoat tarmoqlarining o‘zaro kooperatsiyasi va integratsiyasi
D) Sanoat korxonlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash orqali yuqori qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish
E) Qishloq joylarda sanoat korxonalarining tashkil etilishi va shu orqali ularni xomashyo manbaiga yaqinlashtirish orqali yuqori samaradorlikka erishish usuli

15. Agrosanoat majmuasi nechta sohadan iborat?

A) Ikkita
B) Uchta
D) To‘rtta
E) Beshta

16. Agrosanoat majmuasining birinchi sohasiga nimalar kiradi?

A) Agrosanoat majmuasi tarkibiga kiruvchi korxonalar uchun ishlab chiqarish vositalari yetkazib beruvchilar
B) Qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar
D) Qishloq xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatuvchi korxona va tashkilotlar
E) Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash va sotish bilan shug‘ullanuvchilar

17. Agrosanoat majmuasining ikkinchi sohasiga nimalar kiradi?

A) Agrosanoat majmuasi tarkibiga kiruvchi korxonalar uchun ishlab chiqarish vositalari yetkazib beruvchilar
B) Qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar
D) Qishloq xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatuvchi korxona va tashkilotlar
E) Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash va sotish bilan shug‘ullanuvchilar

18. Agrosanoat majmuasining uchinchi sohasiga nimalar kiradi?

A) Agrosanoat majmuasi tarkibiga kiruvchi korxonalar uchun ishlab chiqarish vositalari yetkazib beruvchilar
B) Qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar
D) Qishloq xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatuvchi korxona va tashkilotlar
E) Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash va sotish bilan shug‘ullanuvchilar

19. Agrosanoat majmuasining to‘rtinchi sohasiga nimalar kiradi?

A) Agrosanoat majmuasi tarkibiga kiruvchi korxonalar uchun ishlab chiqarish vositalari yetkazib beruvchilar
B) Qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar
D) Qishloq xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatuvchi korxona va tashkilotlar
E) Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash va sotish bilan shug‘ullanuvchilar

20. Oziq-ovqat xavfsizligining mohiyati nimadan iborat?

A) Mamlakatda ishlab chiqarilayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining inson salomatligi uchun salbiy ta’sirining oldini olish chora-tadbirlari tizimi
B) Mamlakat aholisini zarur oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash maqsadida ularni import qilishni qo‘llab-quvvatlash tizimi
D) Tibbiy me’yorlar darajasida aholini muhim iste’mol mahsulotlari bilan uzluksiz ravishda kafolatli ta’minlash imkoniyati
E) Mamlakat aholisini zarur oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz ravishda ta’minlash maqsadida ularni saqlash tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari

21. Qishloq xo‘jaligi yerlari qanday toifalarga ajratiladi?

A) Sug‘oriladigan va sug‘orilmaydigan (lalmikor) yerlar, haydaladigan yerlar, pichanzorlar, yaylovlar, ko‘p yillik mevali dov-daraxtlar va tokzorlar egallagan yerlar
B) Haydaladigan yerlar, yaylovlar, aholi turar joylari, ixota daraxtzorlari ekilgan yerlar, lalmikor yerlar
D) Sug‘oriladigan va sug‘orilmaydigan (lalmikor) yerlar, suv bilan band yerlar, mevazorlar, o‘rmonlar bilan band yerlar, zahiradagi yerlar

E) Ekinzorlar, yaylovlar, aholi turar joylari, rekreatsiya yerlari, qo‘riqxonalar, ko‘p yillik mevali dov-daraxtlar va tokzorlar egallagan yerlar, zahiradagi yerlar

22. O‘zbekiston Respublikasining Yer Kodeksi qachon qabul qilingan?

A) 1998-yil 20-oktabr
B) 1998-yil 30-aprel
D) 1993-yil 2-sentabr
E) 1998-yil 28-avgust

23. O‘zbekiston Respublikasining Yer Kodeksida yer resurslari necha toifaga ajratilgan?

A) Beshta
B) Yettita
D) Sakkizta
E) To‘qqizta

24. Yerlarning mahsuldorligi qanday aniqlanadi?

A) Yer maydonini olingan mahsulot miqdoriga taqsimlab
B) Olingan yalpi hosilni umumiy maydonga taqsimlab
D) Yer maydonini olingan mahsulot qiymatiga taqsimlab
E) Olingan yalpi hosilni ekin maydoniga taqsimlab

25. “Yer monitoringi to‘g‘risida”gi Nizom qachon qabul qilingan?

A) 1998-yil 30-aprel
B) 2000-yil 23-dekabr
D) 1998-yil 28-avgust
E) 1993-yil 2-sentabr

26. 2020-yilning 1-oktabr holatiga mamlakatimizda sug‘oriladigan yerlarning necha foizi turli darajada sho‘rlangan?

A) 51,3
B) 44,7
D) 38,1
E) 62,8

27. Yerdan foydalanishlar soni ko‘rsatkichi qanday aniqlanadi?

A) Urug‘ ekilgan maydonni umumiy ekin maydoniga taqsimlash orqali
B) Umumiy ekin maydonini urug‘ ekilgan maydonga taqsimlash orqali

D) Takroriy ekilgan maydonni umumiy ekin maydoniga taqsimlash orqali

E) Takroriy ekilgan maydonni qishloq xo‘jaligi yerlari maydoniga taqsimlash orqali

28. Yer monitoringi nima?

A) Yerlarning qiymat bahosini aniqlash tizimi

B) Yer fondining holatini kuzatib turish tizimi

D) Yerlarning holatini yaxshilash chora-tadbirlari tizimi

E) Yerlardan foydalanishni nazorat qilish tizimi

29. Davlat yer kadastri nima?

A) yerlarning tabiiy, xo‘jalik va huquqiy rejimi to‘g‘risidagi zarur, ishonchli ma’lumotlar va hujjatlar tizimi

B) Yerlarning unumdorlik darajasini tavsiflovchi ishonchli ma’lumotlar va hujjatlar tizimi

D) Yer uchastkalarining chizmalari ko‘rsatilgan ishonchli ma’lumotlar va hujjatlar tizimi

E) Fuqarolarga biriktirilgan yer uchastkalarida qurilgan binolar to‘g‘risidagi zarur, ishonchli ma’lumotlar va hujjatlar tizimi

30. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6061-sonli farmoni qachon qabul qilingan?

A) 2020-yil 15-oktabrda

B) 2020-yil 7-sentabrda

D) 2021-yil 3-yanvarda

E) 2020-yil 24-martda

31. Umumiy yer fondidan foydalanish koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

A) Sug‘oriladigan yerlarni jami yer maydoniga taqsimlash orqali

B) Foydalanilgan yerni jami yer maydoniga taqsimlash orqali

D) Haydaladigan yerlarni qishloq xo‘jalik yerlariga nisbati bilan

E) Lalmi va haydaladigan yerlarni jami yer maydoniga nisbati

32. 2020-yil 1-yanvar holatiga qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan shug‘ullanuvchilar ixtiyoridagi yer maydoni necha gektarni tashkil etgan?

A) 20761,6 ming gektar

B) 16485,1 ming gektar

D) 18376,0 ming gektar

E) 22039,2 ming gektar

33. O‘zbekiston Respublikasining “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni qachon qabul qilingan?

A) 1998-yil 30-aprel

B) 1993-yil 6-may

D) 1998-yil 20-oktabr

E) 1998-yil 28-avgust

34. Suvdan foydalanish koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

A) Sarflangan suv miqdorini shu suv yordamida sug‘orilgan yerdan olingan yalpi hosilga bo‘lish orqali

B) Olingan sof foydani xo‘jalikda sarflangan umumiy suv sarfi miqdoriga bo‘lish orqali

D) Haqiqatda sarflangan suv miqdorini xo‘jalik uchun ajratilgan suv limitiga bo‘lish orqali

E) Haqiqatda sug‘orilgan maydonni shu suv bilan sug‘orish mumkin bo‘lgan maydonga taqsimlash orqali

35. Sug‘orish tizimidan foydalanish koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

A) Sug‘orish tizimi boshida olingan suv miqdorini shu tizim oxirida ekinlarni sug‘orish uchun berilgan suv miqdoriga taqsimlash orqali

B) Sof foydani sug‘orish tizimi uchun qilingan xarajatlarga taqsimlash orqali

D) Sug‘orish tizimi oxirida ekinlarni sug‘orish uchun berilgan suv miqdorini shu tizim boshida olingan suv miqdoriga taqsimlash orqali

E) Sug‘orish tizimi boshida olingan suv miqdorini xo‘jalik uchun ajratilgan suv limitiga taqsimlash orqali

36. Respublikamizda suv resurslarining necha foizi qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun foydalaniladi?

A) 80-81
B) 75-76
D) 90-91
E) 94-95

37. Mamlakatimiz suv resurslarining necha foizi transchegaraviy suv havzalari hisobiga shakllanadi?

A) Qariyb 60 foizi
B) Qariyb 70 foizi
D) Qariyb 80 foizi
E) Qariyb 90 foizi

38. 2020-yil holatiga mamlakatimiz bo‘yicha sug‘orish tarmoqlarining foydali ish koeffitsiyenti qanchani tashkil etgan?

A) 0,54
B) 0,79
D) 0,63
E) 0,81

39. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6024-sonli farmoni qachon qabul qilingan?

A) 2020-yil 7-martda
B) 2020-yil 12-oktabrda
D) 2020-yil 10-iyulda
E) 2020-yil 14-fevralda

40. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6024-sonli farmoniga ko‘ra 2030-yilga qadar sug‘orish tizimlarining foydali ish koeffitsiyentini qanchagacha oshirish belgilab berilgan?

A) 0,75
B) 0,86
D) 0,68
E) 0,73

41. 2020-yil holatiga mamlakatimizda tomchilatib sug‘orish tizimi sug‘oriladigan yerlarning qancha qismida tomchilatib sug‘orish tizimi joriy etilgan?

A) 1,2 foizida

B) 1,7 foizida

D) 3,5 foizida

E) 7,8 foizida

42. 2021-yilning 1-yanvaridan boshlab, suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalari (tomchilatib, suv purkagich, diskret va boshqalar) joriy qilingan yerlar ushbu texnologiyalar joriy qilingan oydan boshlab qancha muddatga soliqdan ozod qilingan?

A) Bir yilga

B) Uch yilga

D) To‘rt yilga

E) Besh yilga

43. 2020-yil 1-yanvar holatiga mamlakatimiz aholisining necha foizi qishloq joylarda istiqomat qiladi?

A) 62,0

B) 58,7

D) 49,4

E) 47,9

44. Qishloq xo‘jaligida mehnat resurslarining tarkibiga kimlar kiradi?

A) 18 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan erkaklar va 55 yoshgacha bo‘lgan ayollarning mehnatga layoqatlilari hamda o‘z xohishiga ko‘ra ishlayotgan nafaqaxo‘rlar va o‘smirlar

B) Qishloq joylarda yashovchi va mehnat qilish qobiliyatiga ega barcha aholi

D) 16 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan erkaklar va 55 yoshgacha bo‘lgan ayollarning mehnatga layoqatlilari hamda o‘z xohishiga ko‘ra ishlayotgan nafaqaxo‘rlar va o‘smirlar

E) Qishloq joylarda yashovchi va tarmoqda haqiqatda mehnat qilayotgan aholi

45. Qishloq xo‘jaligida mehnat sig‘imi ko‘rsatkichi qanday aniqlanadi?

A) Yalpi mahsulot qiymatini sarflangan mehnat sarfiga taqsimlash orqali

B) Sof foyda summasini sarflangan mehnat sarfiga taqsimlash orqali

D) Sarflangan mehnat sarfini yalpi mahsulot qiymatiga taqsimlash orqali

E) Fond sig‘imini sarflangan mehnat sarfiga taqsimlash orqali

46. Qishloq xo‘jaligida mavjud mehnat resurslaridan foydalanish koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

A) Yalpi mahsulot qiymatini xodimlar o‘rtacha yillik soniga taqsimlash orqali

B) Mehnat resurslarining o‘rtacha yillik sonini ularning umumiy soniga taqsimlash orqali

D) Yil davomida sarflangan mehnat sarfini xodimlar o‘rtacha yillik soniga taqsimlash orqali

E) Ishchilarning umumiy sonini haqiqatda ishlagan ishchilar soniga taqsimlash orqali

47. Qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligi qanday aniqlanadi?

A) Yetishtirilgan mahsulotni ish vaqti fondiga taqsimlash orqali

B) Yetishtirilgan mahsulotni sarflangan mehnat sarfiga taqsimlash orqali

D) Sarflangan mehnat sarfini xodimlar o‘rtacha yillik soniga taqsimlash orqali

E) Yetishtirilgan mahsulotni mehnat resurslaridan foydalanish koeffitsiyentiga taqsimlash orqali

48. Ishlarning mexanizatsiyalashganlik darajasi qanday aniqlanadi?

A) Mexanizmlar yordamida bajarilgan ishlarni jami ish hajmiga taqsimlab

B) Qo‘lda bajarilgan ishlarni jami ish hajmiga taqsimlab

D) Mexanizmlar yordamida bajarilgan ishlar yig‘indisi

E) Jami ish hajmini mexanizmlar yordamida bajarilgan ish hajmiga taqsimlab

49. Qishloq xo‘jaligida ish vaqti fondidan foydalanish koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

A) Mehnat resurslarining bir yil davomida sarflagan vaqtini mavjud me’yoriy hujjatlarga ko‘ra ularning sarflashi lozim bo‘lgan vaqtiga taqsimlash orqali
B) Bir xodimning bir yil davomida sarflagan vaqtini mehnat resurslarining sarflagan umumiy vaqtiga taqsimlash orqali
D) Mavjud me’yoriy hujjatlarga ko‘ra mehnat resurslarining sarflashi lozim bo‘lgan vaqtini ularning haqiqatda sarflagan vaqtiga taqsimlash orqali
E) Mehnat resurslarining bir yil davomida sarflagan vaqtini xodimlarning o‘rtacha yillik soniga taqsimlash orqali

50. Qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan mehnat resurslarining salmog‘i qanday aniqlanadi?

A) Qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan mehnat resurslarining jami aholi soniga nisbati bilan
B) Jami mehnat resurslarining qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan mehnat resurslariga nisbati bilan
D) Qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan mehnat resurslari sonining umumiy yig‘indisini hisoblash orqali
E) Qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan mehnat resurslarining jami mehnat resurslariga nisbati bilan

51. Qishloq xo‘jaligida mehnatning mavsumiylik koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

A) Mavsumiy ishlarga jalb etilgan ishchilar sonini mehnat resursining umumiy soniga taqsimlash orqali
B) Ma’lum muddat oralig‘idagi sarflangan eng kam mehnat sarfini eng ko‘p mehnat sarfiga taqsimlash orqali
D) Mehnat resursining umumiy soni mavsumiy ishlarga jalb etilgan ishchilar soniga taqsimlash orqali
E) Ma’lum muddat oralig‘idagi sarflangan eng ko‘p mehnat sarfini shu davrdagi eng kam mehnat sarfiga taqsimlash orqali

52. Qishloq xo‘jaligida mehnat qaytimi ko‘rsatkichi qanday aniqlanadi?

A) Sarflangan mehnat sarfini sof foyda summasiga taqsimlash orqali
B) Yalpi mahsulot qiymatini sarflangan mehnat sarfiga taqsimlash orqali

D) Fond qaytimini sarflangan mehnat sarfiga taqsimlash orqali
E) Sarflangan mehnat sarfini yalpi mahsulot qiymatiga taqsimlash orqali

53. 2019-yil holatiga mamlakatimiz iqtisodiyot tarmoqlarida band bo‘lgan aholining necha foizi qishloq xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi?

A) 32,7
B) 25,4
D) 22,8
E) 26,2

54. Qishloq xo‘jaligining moddiy-texnika resurslari barpo etilishi bo‘yicha qanday turkumlanadi?

A) Iqtisodiy, moddiy
B) Tabiiy, moliyaviy
D) Tabiiy, iqtisodiy
E) Moddiy, moliyaviy

55. Qishloq xo‘jaligida moddiy-texnika resurslari qanday manbalar hisobiga barpo etiladi?

A) Korxonaning o‘z mablag‘lari, davlat tomonidan beriladigan subsidiyalar
B) Chetdan jalb etiladigan mablag‘lar, hamkorlarning mablag‘lari
D) Bank kreditlari, lizing, amortizatsiya fondi mablag‘lari
E) Korxonaning o‘z mablag‘lari, chetdan jalb etiladigan mablag‘lar

56. Mehnatning energetik resurslar bilan qurollanganlik darajasi qanday aniqlanadi?

A) Jami energetik resurslar quvvatini xodimlar soniga taqsimlab
B) Jami energetik resurslar quvvatini qishloq xo‘jalik yerlariga taqsimlab
D) Qishloq xo‘jalik yerlarini jami energetik resurslar quvvatiga taqsimlab
E) Xodimlar sonini jami energetik resurslar quvvatiga taqsimlab

57. Mashina-traktor parkidan foydalanish koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

A) Mashina-traktorlarning bajargan jami ish hajmini ularning soniga taqsimlab

B) Ishlagan mashina-traktorlar sonini ularning umumiy soniga taqsimlab
D) Ishlamagan mashina-traktorlar sonini ishlagan mashina-traktorlar soniga taqsimlab
E) Mashina-traktorlar umumiy sonini ularning bajargan ish hajmiga taqsimlab

58. Xo‘jalikning energetik resurslar bilan ta’minlanganlik darajasi qanday aniqlanadi?

A) Jami energetik resurslar quvvatini xodimlar soniga taqsimlab
B) Jami energetik resurslar quvvatini qishloq xo‘jalik yerlariga taqsimlab
D) Qishloq xo‘jalik yerlarini jami energetik resurslar quvvatiga taqsimlab
E) Xodimlar sonini jami energetik resurslar quvvatiga taqsimlab

59. Qishloq xo‘jaligida asosiy fondlarning mohiyati nimadan iborat?

A) Ishlab chiqarish jarayonida bir marta qatnashib, o‘z qiymatini yetishtirilgan mahsulot tannarxiga to‘liq o‘tkazadigan vositalar
B) Ishlab chiqarish jarayonida ko‘p marotaba qatnashib, o‘z qiymatini yetishtirilgan mahsulot tannarxiga qismlarga bo‘lib o‘tkazadigan vositalar
D) Ishlab chiqarish jarayonida bir marta qatnashib, o‘z qiymatini yetishtirilgan mahsulot tannarxiga qismlarga bo‘lib o‘tkazadigan vositalar
E) Ishlab chiqarishda qatnashadigan barcha texnika vositalari va asbob uskunalar

60. Aylanma fondlarning mohiyati nimadan iborat?

A) Ishlab chiqarish jarayonida bir marta qatnashib, o‘z qiymatini yetishtirilgan mahsulot tannarxiga to‘liq o‘tkazadigan vositalar
B) Ishlab chiqarish jarayonida ko‘p marotaba qatnashib, o‘z qiymatini yetishtirilgan mahsulot tannarxiga qismlarga bo‘lib o‘tkazadigan vositalar
D) Ishlab chiqarish jarayonida bir marta qatnashib, o‘z qiymatini yetishtirilgan mahsulot tannarxiga qismlarga bo‘lib o‘tkazadigan vositalar
E) Qimmatli qog‘ozlar va hisob-kitob raqamidagi barcha pul mablag‘lari

61. Asosiy fondlar bilan ta’minlanganlik darajasi qanday aniqlanadi?

A) Asosiy fondlar qiymatini xodimlar soniga taqsimlab

B) Xodimlar sonini asosiy fondlar qiymatiga taqsimlab

D) Asosiy fondlar qiymatini qishloq xo‘jaligi yerlariga taqsimlab

E) Qishloq xo‘jaligi yerlari maydonini asosiy fondlar qiymatiga taqsimlab

62. Asosiy fondlarning amortizatsiya summasi qanday aniqlanadi?

A) Asosiy fondlarning qoldiq qiymatini 100 ga taqsimlash va natijani amirtizatsiya me’yoriga ko‘paytirish orqali

B) Asosiy fondlarning qoldiq qiymatini ularning balans qiymatiga taqsimlash va natijani 100 ga ko‘paytirish orqali

D) Asosiy fondlarning balans qiymatini 100 ga taqsimlash va natijani amirtizatsiya me’yoriga ko‘paytirish orqali

E) Asosiy fondlarning balans qiymatini ularning qayta tiklash qiymatiga taqsimlash va natijani 100 ga ko‘paytirish orqali

63. Qishloq xo‘jaligida asosiy fondlar bilan qurollanganlik darajasi qanday aniqlanadi?

A) Asosiy fondlar qiymatini xodimlar soniga taqsimlab

B) Xodimlar sonini asosiy fondlar qiymatiga taqsimlab

D) Asosiy fondlar qiymatini qishloq xo‘jaligi yerlariga taqsimlab

E) Qishloq xo‘jaligi yerlari maydonini asosiy fondlar qiymatiga taqsimlab

64. Qishloq xo‘jaligida asosiy fondlar tarkibiga nimalar kiradi?

A) Yer, kimyoviy vositalar, bino-inshootlar, traktorlar, mashinalar, ko‘p yillik daraxtlar

B) Traktorlar, yer, mashinalar, ko‘p yillik daraxtlar, ishchi hayvonlar, urug‘lik, kombaynlar, binolar

D) Yer, mashinalar, traktorlar, kombaynlar, ko‘p yillik daraxtlar, ishchi hayvonlar, bino-inshootlar, texnikalar

E) Yer, traktorlar, mashinalar, kombaynlar, ko‘p yillik daraxtlar, ishchi hayvonlar, bino-inshootlar, xomashyo

65. Asosiy fondlarning o‘sish koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

A) Asosiy vositalarning joriy yildagi o‘rtacha yillik qiymatini o‘tgan yildagi o‘rtacha yillik qiymatiga taqsimlab
B) Asosiy vositalarning yil boshidagi qiymatini yil oxiridagi qiymatiga taqsimlab
D) Asosiy vositalarning yil oxiridagi qiymatini yil boshidagi qiymatiga taqsimlab
E) Yil davomida hisobdan chiqarilgan asosiy fondlar qiymatini yil boshidagi asosiy fondlar qiymatiga taqsimlab

66. Fondlar rentabelligi darajasi qanday aniqlanadi?

A) Yalpi mahsulot qiymatini xo‘jalikning barcha fondlari qiymatiga taqsimlab va natijani 100 ga ko‘paytirib
B) Sof pul tushumini xo‘jalikning barcha fondlari qiymatiga taqsimlab va natijani 100 ga ko‘paytirib
D) Xo‘jalikning barcha fondlari qiymatini ishlab chiqarish xarajatlariga taqsimlab va natijani 100 ga ko‘paytirib
E) Sof foyda summasini xo‘jalikning barcha fondlari qiymatiga taqsimlab va natijani 100 ga ko‘paytirib

67. Fond sig‘imi qanday aniqlanadi?

A) Fondlar qiymatini xodimlar soniga taqsimlab
B) Asosiy fondlar summasini yalpi mahsulot qiymatiga taqsimlab
D) Aylanma fondlar summasini asosiy vositalarga taqsimlab
E) Yalpi mahsulot qiymatini asosiy fondlar summasiga taqsimlab

68. Fond qaytimini qanday aniqlanadi?

A) Olingan yalpi mahsulot, sof foyda summasini asosiy fondlar qiymatiga taqsimlab
B) Fondlar qiymatini olingan yalpi mahsulot, sof foyda summasiga taqsimlab
D) Asosiy fondlarni aylanma fondlarga taqsimlab
E) Olingan yalpi mahsulotni yer maydoniga taqsimlab

69. Asosiy fondlarning yangilanish koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

A) Yil davomida ishga tushirilgan asosiy fondlar qiymatini asosiy fondlarning yil oxiridagi qiymatiga taqsimlab

B) Yil ichida chiqarilgan asosiy fondlar qiymatini shu fondlarning yil oxiridagi qiymatiga taqsimlab

D) Yaratilgan asosiy fondlar bilan ishdan chiqqan asosiy fondlar o‘rtasidagi farqi

E) Yaratilgan va sotib olingan asosiy fondlar qiymatlari yig‘indisi

70. Qishloq xo‘jaligida aylanma fondlar qanday tarkibiy qismlardan tashkil topgan?

A) Ishlab chiqarish zahiralari, muomaladagi mablag‘lar, xomashyo

B) Ishlab chiqarish zahiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot

D) Xomashyo va materiallar, kimyoviy vositalar, tayyor mahsulot, pul mablag‘lari

E) Ishlab chiqarish zahiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, muomaladagi mablag‘lar

71. Aylanma fondlarning aylanish davri qanday aniqlanadi?

A) Aylanma fondlar aylanish koeffitsiyentini bir yildagi kalendar kunlar soniga taqsimlash orqali

B) Aylanma fondlar o‘rtacha yillik qiymatini bir yildagi kalendar kunlar soniga taqsimlash orqali

D) Aylanma fondlar o‘rtacha yillik qiymatini aylanma fondlar aylanish koeffitsiyentiga taqsimlash orqali

E) Bir yildagi kalendar kunlar sonini aylanma fondlar aylanish koeffitsiyentiga taqsimlash orqali

72. Qishloq xo‘jaligiga jalb qilingan real investitsiyaga nimalar kiradi?

A) Qimmatli qog‘ozlarni shakllantirishga sarflangan mablag‘lar

B) Xorijiy homkor tomonidan jalb etilgan barcha mablag‘lar

D) Moddiylashgan asosiy va aylanma vositalarga sarflangan mablag‘lar

E) Zamonaviy texnika va texnologiyalar uchun sarflangan mablag‘lar

73. Qishloq xo‘jaligiga jalb qilingan moliyaviy investitsiyaga nimalar kiradi?

A) Tarmoqqa jalb etilgan kredit mablag‘lari

B) Moddiylashgan asosiy va aylanma vositalarga sarflangan mablag‘lar

D) Moliyaviy institutlar tomonidan berilgan ssuda kapitali

E) Qimmatli qog‘ozlarni shakllantirishga sarflangan mablag‘lar

74. Qishloq xo‘jaligiga jalb etiladigan investitsiyalar maqsad va vazifasiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?

A) Real, kapital

B) Real, ijtimoiy, texnologik

D) Kapital, innovatsion, ijtimoiy

E) Innovatsion, texnologik, ijtimoiy

75. Qishloq xo‘jaligida investitsiyalarning qoplash muddati qanday aniqlanadi?

A) Sof foydaning o‘sgan summasini sarflangan investitsiya summasiga taqsimlash orqali

B) Sarflangan investitsiya summasini yalpi mahsulot qiymatiga taqsimlash orqali

D) Yalpi mahsulotning o‘sgan summasini sarflangan investitsiya summasiga taqsimlash orqali

E) Sarflangan investitsiya summasini sof foydaning o‘sgan summasiga taqsimlash orqali

76. Qishloq xo‘jaligiga jalb etiladigan investitsiyalarning o‘z manbalariga nimalar kiradi?

A) bank kreditlari, davlat budjeti mablag‘lari, hamkorlar mablag‘lari

B) davlat budjetidan va maxsus fondlardan ajratilayotgan subsidiya shaklidagi mablag‘lar, tijorat banklari tomonidan berilayotgan imtiyozli va tijorat kreditlari

D) xalqaro moliya institutlari mablag‘lari, tijorat banklari kreditlari, asosiy vositalarni ijaraga berishdan olingan tushumlar

E) sof foyda, amortizatsiya fondi, asosiy fondlarni sotish yoki tugatishdan tushgan tushumlar

77. 2019-yilda qishloq xo‘jaligiga jalb etilgan investitsiyalar tarkibida xorijiy investitsiya va kreditlar necha foizni tashkil etgan?

A) 15,9

B) 16,7

D) 41,4

E) 38,5

78. Innovatsiya so‘zining ma’nosi nima?

A) Pul sarf qilmoq
B) Xizmat ko‘rsatuvchi sohalar majmuasi
D) Yangiliklarni joriy etish
E) Boshqaruv san’ati

79. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853 sonli farmoni qachon qabul qilingan?

A) 2017-yil 29-noyabr
B) 2019-yil 23-oktabr
D) 2018-yil 7-yanvar
E) 2018-yil 14-mart

80. 2020-yil holatiga ilmiy-tadqiqotlar uchun davlat tomonidan amalga oshirilayotgan investitsiyalar qishloq xo‘jaligi umumiy budjetining necha foizini tashkil etadi?

A) 1,7
B) 2,4
D) 3,1
E) 0,2

81. “Aqlli qishloq xo‘jaligi” (smart agriculture) tushunchasining mohiyati nimadan iborat?

A) qishloq xo‘jaligiga zamonaviy texnikalarni joriy etish orqali yuqori samaradorlik darajasiga erishish
B) zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash orqali qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga qaratilgan yangicha yondoshuvlardir
D) qishloq xo‘jaligiga taalluqli ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish va bunda ma’lumotlar to‘plashda internetdan keng foydalanish
E) qishloq xo‘jaligida resurs tejamkor texnologiyalarni qo‘llash va shu orqali tarmoqda resurslardan samatrali foydalanishga erishish

82. Qishloq xo‘jaligiga oid ilmiy izlanishlar markazi hisoblanuvchi “Oziq-ovqat vodiysi” qaysi davlatda tashkil etilgan?

A) Germaniyada
B) Isroilda
D) Niderlandiyada

E) AQShda

83. Qishloq xo‘jaligida infratuzilmaning mohiyati nimadan iborat?

A) Boshqaruv organlari va ularning hududiy bo‘linmalari majmuasi

B) Davlat tomonidan tashkil etiladigan ijtimoiy sohalar majmuasi

D) Tarmoqqa xizmat ko‘rsatuvchi sohalar majmuasi

E) Xalqaro va mahalliy moliya institutlari majmuasi

84. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish infratuzilmasining ahamiyati nimadan iborat?

A) Tarmoqda aholining yashash sharoitlarini yaxshilash va mehnat resurslarining qayta tiklanish jarayoniga xizmat qilish

B) Tarmoqda ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko‘rsatish va shu orqali ishlab chiqarish jarayonining bir maromda davom etishiga ko‘maklashish

D) Tarmoqda bozor munosabatlarini shakllantirish va uning rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratib berish

E) Tarmoqda ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirishda tabiatga salbiy ta’sir ko‘rsatilishining oldini olishga xizmat qiluvchi muassasalar

85. Qishloq xo‘jaligida ijtimoiy infratuzilmaning ahamiyati nimadan iborat?

A) Tarmoqda maishiy xizmat ko‘rsatuvchi sohalarni tashkil etish va rivojlantirish orqali tarmoqning rivojlanishiga sharoit yaratish

B) Tarmoqdagi ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etayotgan xodimlarning ijtimoiy himoyasini tashkil etish va shu orqali ularning turmush farovonligi uchun shart-sharoit yaratib berish

D) Tarmoqda ijtimoiy soha obyektlarining davlat tomonidan tashkil etilishi va ularning rivojlantirilishi orqali aholining turmush farovonligini rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratib berish

E) Tarmoqda xodimlar uchun munosib ish sharoitlarini tashkil etish va aholining yashash sharoitlarini yaxshilash orqali mehnat resurslarining qayta tiklanish jarayoniga xizmat qilish

86. Qishloq xo‘jaligida bozor infratuzilmasining ahamiyati nimadan iborat?

A) Tarmoqda yetishtirilgan mahsulotlarni sotishning zamonaviy shakllardagi bozorlarini tashkil etish va ularning faoliyatini

takomillashtirish orqali tarmoqda faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlariga ko‘maklashish

B) Hududlarda dehqon bozorlari faoliyatini rivojlantirish orqali qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sotish jarayonlarini yanada takomillashtirish

D) Tarmoqda bozor munosabatlarini shakllantirish va uning rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratib berish

E) Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sotish jarayoniga zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini jalb qilgan holda savdo platformalarini yaratish

87. Qishloq xo‘jalik korxonalarining rejalashtirish tizimini nimalar tashkil etadi?

A) Qishloq xo‘jalik korxonalarida rejalarni tuzish bilan shug‘ullanuvchi bo‘limlar va xodimlar majmuasi

B) Rejalashtirish uchun talab etiladigan dastlabki ma’lumotlar hamda istiqbol, joriy, operativ va biznes-rejalarni ishlab chiqish

D) Qishloq xo‘jalik korxonalarida istiqbol, joriy, operativ va biznes-rejalarni tuzish uchun talab etiladigan ma’lumotlar majmuasi

E) Qishloq xo‘jalik korxonalarida istiqbol, joriy, operativ va biznes-rejalarni tuzish uchun talab etiladigan me’yorlar ishlab chiqish va boshlang‘ich hujjatlarni yuritish

88. Qishloq xo‘jalik korxonalarida rejalashtirishning me’yoriy-resurs usulining mohiyati nimadan iborat?

A) Eng maqsadga muvofiq (optimal) variantlarini aniqlashda, iqtisodiy, tashkiliy hamda texnik jarayonlarni optimallashtirishda keng foydalaniladi.

B) Korxona ishlab chiqarish jarayonining asosiy omillari bo‘yicha ishlab chiqarish salohiyatiga baho beriladi

D) Texnikaviy-iqtisodiy koeffitsiyentlarning, moddiy-pul xarajatlarining, tarmoqlararo va ishlab chiqarish elementlari mutanosibligining turli variantlarini ishlab chiqish

E) Korxonani rivojlantirishning asosiy vazifasi, maqsadi aniqlanib, uni hal qilishning vositalari va yo‘llari ishlab chiqiladi

89. Qishloq xo‘jalik korxonalarida rejalashtirishning iqtisodiy-matematik usulining mohiyati nimadan iborat?

A) Eng maqsadga muvofiq (optimal) variantlarini aniqlashda, iqtisodiy, tashkiliy hamda texnik jarayonlarni optimallashtirishda keng foydalaniladi.

B) Korxona ishlab chiqarish jarayonining asosiy omillari bo‘yicha ishlab chiqarish salohiyatiga baho beriladi

D) Texnikaviy-iqtisodiy koeffitsiyentlarning, moddiy-pul xarajatlarining, tarmoqlararo va ishlab chiqarish elementlari mutanosibligining turli variantlarini ishlab chiqish

E) Korxonani rivojlantirishning asosiy vazifasi, maqsadi aniqlanib, uni hal qilishning vositalari va yo`llari ishlab chiqiladi

90. Qishloq xo‘jalik korxonalarida rejalashtirishning variant yoki hisob-konstruktiv usulining mohiyati nimadan iborat?

A) Eng maqsadga muvofiq (optimal) variantlarini aniqlashda, iqtisodiy, tashkiliy hamda texnik jarayonlarni optimallashtirishda keng foydalaniladi.

B) Korxona ishlab chiqarish jarayonining asosiy omillari bo‘yicha ishlab chiqarish salohiyatiga baho beriladi

D) Texnikaviy-iqtisodiy koeffitsiyentlarning, moddiy-pul xarajatlarining, tarmoqlararo va ishlab chiqarish elementlari mutanosibligining turli variantlarini ishlab chiqish

E) Korxonani rivojlantirishning asosiy vazifasi, maqsadi aniqlanib, uni hal qilishning vositalari va yo‘llari ishlab chiqiladi

91. Qishloq xo‘jalik korxonalarida rejalashtirishning maqsadli dasturlash usulining mohiyati nimadan iborat?

A) Eng maqsadga muvofiq (optimal) variantlarini aniqlashda, iqtisodiy, tashkiliy hamda texnik jarayonlarni optimallashtirishda keng foydalaniladi.

B) Korxona ishlab chiqarish jarayonining asosiy omillari bo‘yicha ishlab chiqarish salohiyatiga baho beriladi

D) Texnikaviy-iqtisodiy koeffitsiyentlarning, moddiy-pul xarajatlarining, tarmoqlararo va ishlab chiqarish elementlari mutanosibligining turli variantlarini ishlab chiqish

E) Korxonani rivojlantirishning asosiy vazifasi, maqsadi aniqlanib, uni hal qilishning vositalari va yo‘llari ishlab chiqiladi

92. Rejalashtirilayotgan davrning davomiyligidan kelib chiqib qishloq xo‘jalik korxonalarida qo‘llaniladigan rejalashtirish shakllari qaysilar?

A) Tashkiliy reja, ishlab chiqarish rejasi, marketing rejasi, moddiy ta’minot rejasi va moliyaviy reja

B) Korxona boshqaruvchilariga, statistik organlar va yuqori tashkilotlarga, tashqi investorlarga taqdim etiladigan

D) Qishloq xo‘jalik korxonalarida yillik ishlab chiqarish biznes-rejasi, uzoq muddatli (istiqbolli) rejalar

E) Qisqa muddatli (joriy, operativ), o‘rta muddatli va uzoq muddatli (istiqbolli) rejalar

93. Korxona faoliyatining yo‘nalishi jihatidan qishloq xo‘jalik korxonalarida qo‘llaniladigan rejalashtirish shakllari qaysilar?

A) Tashkiliy reja, ishlab chiqarish rejasi, marketing rejasi, moddiy ta’minot rejasi va moliyaviy reja

B) Korxona boshqaruvchilariga, statistik organlar va yuqori tashkilotlarga, tashqi investorlarga taqdim etiladigan

D) Qishloq xo‘jalik korxonalarida yillik ishlab chiqarish biznes-rejasi, uzoq muddatli (istiqbolli) rejalar

E) Qisqa muddatli (joriy, operativ), o‘rta muddatli va uzoq muddatli (istiqbolli) rejalar

94. Mo‘ljallanishi jihatidan qishloq xo‘jalik korxonalarida qo‘llaniladigan rejalashtirish shakllari qaysilar?

A) Tashkiliy reja, ishlab chiqarish rejasi, marketing rejasi, moddiy ta’minot rejasi va moliyaviy reja

B) Korxona boshqaruvchilariga, statistik organlar va yuqori tashkilotlarga, tashqi investorlarga taqdim etiladigan

D) Qishloq xo‘jalik korxonalarida yillik ishlab chiqarish biznes-rejasi, uzoq muddatli (istiqbolli) rejalar

E) Qisqa muddatli (joriy, operativ), o‘rta muddatli va uzoq muddatli (istiqbolli) rejalar

95. Qishloq xo‘jaligida narxning qanday turlari mavjud?

A) shartnomaviy narx, ulgurji narx, chakana narx, transfer narx, indikativ narx, tannarx narx, jahon bozori narxi, qiyosiy narx

B) Erkin bozor narxi, barter narx, tarif narxi, bazis narx, qiyosiy narx, ulgurji narx, chakana narx

D) Davlat xarid narxi, erkin bozor narxi, ulgurji narx, chakana narx, me’yoriy narx, shartnomaviy narx

E) Davlat xarid narxi, erkin narx, transfer narx, tannarx narxi, qiyosiy narx, jahon bozori narxi

96. Indikativ narx qanday holatda qo‘llaniladi?

A) korxonaning ishlab chiqarish bo‘linmalari yoki korxonalar tomonidan tashkil etilgan kooperatsiya ichidagi o‘zaro hisob-kitoblarda qo‘llaniladi

B) qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining kelgusi yil hosili uchun yoki kelgusida kutilayotgan narxi bo‘lib, qishloq xo‘jaligi korxonalari faoliyatini rejalashtirishda ishlatiladi

D) korxonalar faoliyatining ma’lum davr oralig‘idagi ko‘rsatkichlarini tahlil qilishda foydalaniladi

E) qishloq xo‘jaligi korxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulotning o‘z ehtiyojlari uchun ishlatilgan qismini hisobga olishda

97. Mamlakatimizda paxta xomashyosi uchun davlat xarid narxlari qachondan bekor qilindi?

A) 2018-yildan

B) 2019-yildan

D) 2020-yildan

E) 2021-yildan

98. Mamlakatimizda g‘alla uchun davlat xarid narxlari qachondan bekor qilindi?

A) 2018-yildan

B) 2019-yildan

D) 2020-yildan

E) 2021-yildan

99. Qishloq xo‘jaligida sof pul tushumi qanday aniqlanadi?

A) Sotilgan mahsulotlarni sotish narxlariga ko‘paytirish orqali

B) Yalpi pul tushumidan egri soliqlarni ayirish orqali

D) Yalpi pul tushumidan soliqlar summasini ayirish orqali

E) Mahsulotlarni sotishdan tushgan pul tushumidan xarajatlarni ayirish orqali

100. Qishloq xo‘jaligida yalpi foyda ko‘rsatkichi qanday aniqlanadi?

A) Yalpi mahsulotdan mahsulotlar ishlab chiqarish tannarxini ayirish orqali

B) Yalpi pul tushumidan ishlab chiqarish xarajatlarini ayirish orqali

D) Sof pul tushumidan mahsulotlar ishlab chiqarish tannarxini ayirish orqali

E) Sof pul tushumidan soliqlar summasini ayirish orqali

101. Qishloq xo‘jaligida yalpi daromad ko‘rsatkichi qanday aniqlanadi?

A) Yalpi pul tushumidan ishlab chiqarish xarajatlarini ayirish orqali

B) Sof pul tushumidan mahsulot ishlab chiqarish tannarxini ayirish orqali

D) Yalpi mahsulotdan amortizatsiya summasini ayirish orqali

E) Yalpi mahsulotdan mehnat xarajatlarini ayirish orqali

102. Qishloq xo‘jaligida asosiy faoliyatdan olingan foyda ko‘rsatkichi qanday aniqlanadi?

A) Yalpi foydaga moliyaviy faoliyat daromadlarini qo‘shish va moliyaviy faoliyat xarajatlarini ayirish orqali

B) Yalpi foydaga tasodifiy daromadlarni qo‘shish va tasodifiy xarajatlarni ayirish orqali

D) Yalpi foydadan davr xarajatlarini ayirish va asosiy faoliyat boshqa daromadlarini qo‘shish hamda asosiy faoliyat boshqa xarajatlarini ayirish orqali

E) Yalpi foydadan ma’muriy xarajatlarini ayirish va boshqa operatsion daromadlarni qo‘shish hamda boshqa operatsion xarajatlarni ayirish orqali

103. Qishloq xo‘jaligida umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda ko‘rsatkichi qanday aniqlanadi?

A) Asosiy faoliyatdan olingan foydaga tasodifiy daromadlarni qo‘shish va tasodifiy xarajatlarni ayirish orqali

B) Asosiy faoliyatdan olingan foydaga boshqa operatsion daromadlarni qo‘shish hamda boshqa operatsion xarajatlarni ayirish orqali

D) Asosiy faoliyatdan olingan foydadan davr xarajatlarini ayirish va asosiy faoliyat boshqa daromadlarini qo‘shish hamda asosiy faoliyat boshqa xarajatlarini ayirish orqali
E) Asosiy faoliyatdan olingan foydaga moliyaviy faoliyat daromadlarini qo‘shish va moliyaviy faoliyat xarajatlarini ayirish orqali

104. Qishloq xo‘jaligida soliq to‘langungacha foyda ko‘rsatkichi qanday aniqlanadi?

A) Umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foydaga tasodifiy daromadlarni qo‘shish va tasodifiy xarajatlarni ayirish orqali
B) Umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foydaga moliyaviy faoliyat daromadlarini qo‘shish va moliyaviy faoliyat xarajatlarini ayirish orqali
D) Umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foydaga boshqa operatsion daromadlarni qo‘shish hamda boshqa operatsion xarajatlarni ayirish orqali
E) Umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foydaga asosiy faoliyat boshqa daromadlarini qo‘shish hamda asosiy faoliyat boshqa xarajatlarini ayirish orqali

105. Qishloq xo‘jaligida sof foyda ko‘rsatkichi qanday aniqlanadi?

A) Soliq to‘langungacha foydadan daromad solig‘ini ayirish orqali
B) Sof pul tushumidan mahsulotlar ishlab chiqarish tannarxini ayirish orqali
D) Yalpi pul tushumidan mahsulotlar ishlab chiqarish tannarxini ayirish orqali
E) Soliq to‘langungacha foydadan soliq va yig‘imlar summasini ayirish orqali

106. Rentabellik darajasi qanday aniqlanadi?

A) Yalpi mahsulot qiymatini ishlab chiqarish xarajatlariga taqsimlab va natijani 100 ga ko‘paytirish orqali
B) Sof foyda summasini yalpi mahsulot qiymatiga taqsimlab va natijani 100 ga ko‘paytirish orqali
D) Sof foyda summasini mahsulot tannarxiga kiruvchi xarajatlarga taqsimlab va natijani 100 ga ko‘paytirish orqali
E) Sof pul tushumini ishlab chiqarish xarajatlariga taqsimlab va natijani 100 ga ko‘paytirish orqali

107. Qishloq xo‘jaligida foyda me’yori ko‘rsatkichi qanday aniqlanadi?

A) Sof foydani asosiy fondlar qiymatiga taqsimlash va natijani 100 ga ko‘paytirish orqali

B) Sof foydani ishlab chiqarish fondlari umumiy qiymatiga taqsimlash va natijani 100 ga ko‘paytirish orqali
D) Sof foydani aylanma fondlar qiymatiga taqsimlash va natijani 100 ga ko‘paytirish orqali
E) Sof foydani korxona aktivlariga taqsimlash va natijani 100 ga ko‘paytirish orqali

108. Iqtisodiy samaradorlikning mohiyati nimadan iborat?
A) Intensiv texnologiyani joriy etish natijasida hosildorlikning oshishi
B) Intensiv texnologiyani joriy etish natijasida xarajatlarning qisqarishi
D) Sarflangan xarajatlar evaziga sof foydaga erishish
E) Zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash evaziga rentabellik darajasiga erishish

109. 2019-yilda qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotining o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati necha foizni tashkil etdi?
A) 2,6 foizni
B) 0,8 foizni
D) 1,5 foizni
E) 3,1 foizni

110. 2019-yil holatiga qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti tarkibida fermer xo‘jaliklarining ulushi necha foizni tashkil etgan?
A) 34,5
B) 22,7
D) 27,9
E) 68,3

111. 2019-yil holatiga qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti tarkibida dehqon xo‘jaliklarining ulushi necha foizni tashkil etgan?
A) 27,9
B) 42,7
D) 63,9
E) 68,3

112. Qishloq xo‘jaligining yalpi mahsuloti qanday tarkibiy qismlardan tashkil topadi?
A) Sotilgan mahsulotlar, xo‘jalikning ichki ehtiyojlari uchun ishlatilgan mahsulotlar
B) Ishlab chiqarilgan mahsulotlar, ko‘rsatilgan xizmatlar
D) Sotilgan mahsulotlar, ijtimoiy maqsadlar uchun ishlatilgan mahsulotlar
E) Tayyor mahsulot, tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari

113. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining tovarlilik darajasi qanday aniqlanadi?
A) Yalpi mahsulotni sotilgan mahsulotga taqsimlash va natijani 100 ga ko‘paytirish orqali
B) Yalpi mahsulotdan sotilmagan mahsulotlarni ayirish orqali
D) Sotilgan mahsulotni yalpi mahsulotga taqsimlash va natijani 100 ga ko‘paytirish orqali
E) Tayyor mahsulotni yalpi mahsulotga taqsimlash va natijani 100 ga ko‘paytirish orqali
114. Qishloq xo‘jaligida mahsulotlarni taqsimlashning qanday yo‘nalishlari mavjud?
A) Urug‘likka, kam ta’minlangan oilalarga, shifoxonalarga
B) Maktablarga, bolalar bog‘chasiga, zahira fondiga
D) Ichki ehtiyojlar uchun, ijtimoiy maqsadlarda
E) Ozuqa uchun, ishchilarga natura shaklidagi ish haqi uchun
115. Qishloq xo‘jaligining yalpi mahsulotini ko‘paytirishning qanday usullari mavjud?
A) Inovatsion va an’anaviy
B) Ekstensiv va intensiv
D) Mahalliy va xorijiy
E) Eksklyuziv va inklyuziv
116. Qishloq xo‘jaligining yalpi mahsulotini ko‘paytirishda qo‘llaniladigan ekstensiv usulining mohiyati nimadan iborat?
A) Tarmoqni zamonaviy texnologiyalar va zarur texnikalar bilan to‘liq ta’minlash orqali yalpi mahsulotni ko‘paytirish
B) Hosildorlikni oshirish evaziga har bir gektar yerdan olindigan hosilni ko‘paytirish orqali yalpi mahsulotni ko‘paytirish
D) Mahsuldorlikni oshirish evaziga har bir chorva molidan olindigan mahsulot miqdorini ko‘paytirish orqali yalpi mahsulotni ko‘paytirish
E) Ekin maydonlari va chorva mollari bosh sonini ko‘paytirish orqali yalpi mahsulotni ko‘paytirish
117. Qishloq xo‘jaligining yalpi mahsulotini ko‘paytirishda qo‘llaniladigan intensiv usulining mohiyati nimadan iborat?
A) Tarmoqda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarining zarur texnikalar bilan ta’minlanganlik darajasini oshirish orqali yalpi mahsulotni ko‘paytirish
B) Ekinlar ekiladigan maydonlarni ko‘paytirish orqali yalpi mahsulotni ko‘paytirish

D) Har bir gektar yerdan olindigan hosilni va chorva mollari mahsuldorligini oshirish orqali yalpi mahsulotni ko‘paytirish
E) Chorva mollarining bosh sonini ko‘paytirish orqali yalpi mahsulotni ko‘paytirish

118. Qishloq xo‘jaligida xarajatlar qanday turkumlanadi?

A) Mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga kiruvchi xarajatlar, favqulodda xarajatlar, sotish xarajatlari, boshqaruv xarajatlari
B) Davr xarajatlari, moddiy xarajatlar, mehnat xarajatlari, ijtimoiy sug‘urta xarajatlari, boshqa xarajatlar
D) Moliyaviy faoliyat xarajatlari, xomashyo va materiallar xarajati, soliqlar va to‘lovlar, favqulodda xarajatlar
E) Mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga kiruvchi xarajatlar, davr xarajatlari, moliyaviy faoliyat xarajatlari, favqulodda xarajatlar

119. Davr xarajatlari tarkibiga qanday xarajatlar kiritiladi?

A) Kadrlar tayyorlash xarajatlari, ijtimoiy himoyalash xarajatlari, loyihalar tuzish xarajatlari
B) Sotish xarajatlari, ma’muriy xarajatlar, boshqa operatsion xarajatlar
D) Boshqaruv xarajatlari, qo‘riqlash xarajatlari, idora buyumlari xarajatlari
E) Mahsulotlarni qadoqlash xarajatlari, reklama xarajatlari, ombor xo‘jaligi xarajatlari

120. Tannarx qanday aniqlanadi?

A) Yetishtirilgan mahsulot miqdorini xarajatlar umumiy summasiga taqsimlash orqali
B) Moddiy va moliyaviy faoliyat xarajatlarini yetishtirilgan mahsulot miqdoriga taqsimlash orqali
D) Xarajatlar umumiy summasini yetishtirilgan mahsulot miqdoriga taqsimlash orqali
E) Xarajatlar umumiy summasini sotilgan mahsulotlar miqdoriga taqsimlash orqali

121. Tannarxning qanday turlari bor?

A) Reja, haqiqiy, me’yoriy
B) Ishlab chiqarish, sotish
D) Reja, ishlab chiqarish, toliq
E) Ishlab chiqarish, moliyaviy

122. “Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom qachon qabul qilingan?

A) 1999-yil 5-fevral

B) 1998-yil 24-mart
D) 2001-yil 18-may
E) 1998-yil 30-aprel

123. Qishloq xo‘jaligida qanday xarajatlar doimiy xarajatlar tarkibiga kiradi?

A) Xomashyo, materiallar, mehnat sarfi, ijara haqi
B) Urug‘lik, o‘g‘it, yoqilg‘i, amortizatsiya summasi
D) Mehnat haqi, ijtimoiy sug‘urta, ehtiyot qismlar
E) Amortizatsiya summasi, ijara haqi, kreditlar uchun to‘lovlar

124. Qishloq xo‘jaligida o‘zgaruvchan xarajatlar tarkibiga qanday xarajatlar kiradi?

A) Yer va ijaraga olingan asosiy fondlar uchun ijara haqi
B) Xomashyo, materiallar, mehnat sarfi
D) Asosiy fondlar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi
E) Chetdan jalb qilingan kredit mablag‘lari uchun to‘lovlar

125. Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning ekstensiv shaklida mahsulot ishlab chiqarishning o‘sishi qanday omillar evaziga amalga oshadi?

A) Miqdor omillari
B) Sifat omillari
D) Aralash omillar
E) Mahsuldorlik omillari

126. Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning intensiv shaklida mahsulot ishlab chiqarishning o‘sishi qanday omillar evaziga amalga oshadi?

A) Miqdor omillari
B) Sifat omillari
D) Aralash omillar
E) Resurslar miqdorini oshirish hsobiga

127. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirish nazariyasi nimaga asoslanadi?

A) Aholining qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talabining doimiy ravishda oshib borishiga
B) Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida foydalanilayotgan yerlar meliorativ holatining yomonlashib borishiga
D) Yerning qishloq xo‘jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi ekanligi va uning cheklanganligiga
E) Sanoat korxonalarining soni va ishlab chiqarish quvvatlari ortib borishi natijasida xomashyoga bo‘lgan talabning ortishi hamda ushbu

talabning qondirilishida qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining o‘rni yuqori ekanligiga

128. Intensivlikning mohiyati nimadan iborat?

A) Qishloq xo‘jaligi va uning ayrim tarmoqlarining ma’lum vaqt ichida ishlab chiqarish vositalari bilan qay darajada ta'minlanganligini aks ettiradi

B) Qishloq xo‘jaligi va uning ayrim tarmoqlarining o‘sish sur’ati darajasini o‘zida aks ettiradi.

D) Ekin maydoni birligi hamda chorva mollari soni hisobiga o‘sishni o‘zida aks ettiradi.

E) Ma’lum davr oralig‘ida qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorlik darajasining o‘sish sur’atini o‘zida aks ettiradi

129. Intensivlashtirish darajasining mohiyati nimadan iborat?

A) Qishloq xo‘jaligi va uning ayrim tarmoqlarining ma’lum vaqt ichida ishlab chiqarish vositalari bilan qay darajada ta'minlanganligini aks ettiradi

B) Qishloq xo‘jaligi va uning ayrim tarmog‘ining o‘sish sur’ati darajasini o‘zida aks ettiradi.

D) Ekin maydoni birligi hamda chorva mollari soni hisobiga o‘sishni o‘zida aks ettiradi.

E) Ma’lum davr oralig‘ida qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorlik darajasining o‘sish sur’atini o‘zida aks ettiradi

130. Intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligi deganda nima nazarda tutiladi?

A) Qishloq xo‘jaligi va uning ayrim tarmoqlarining ma’lum vaqt ichida ishlab chiqarish vositalari bilan qay darajada ta’minlanganligini aks ettiradi

B) Qishloq xo‘jaligi va uning ayrim tarmoqlarining o‘sish sur’ati darajasini o‘zida aks ettiradi

D) Ekin maydoni birligi hamda chorva mollari soni hisobiga olingan mahsulot miqdori o‘sishini o‘zida aks ettiradi

E) Ma’lum davr oralig‘ida qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorlik darajasining o‘sish sur’atini o‘zida aks ettiradi

131. Ixtisoslashuviga ko‘ra qishloq xo‘jaligi korxonalaridagi tarmoqlar qanday turlarga bo‘linadi?

A) Asosiy va yordamchi tarmoqlarga

B) Asosiy, qo‘shimcha va xizmat ko‘rsatuvchi tarmoqlar.

D) O‘simlikchilik va chorvachilik tarmoqlariga

E) Asosiy, yordamchi va xizmat ko‘rsatuvchi tarmoqlar

132. Ixtisoslashtirish darajasiga ko‘ra xo‘jaliklar qanday guruhlarga bo‘linadi?
A) Bir tarmoqli va ko‘p tarmoqli xo‘jaliklar
B) Ixtisoslashgan va ixtisoslashmagan xo‘jaliklar
D) Tor ixtisosli, ixtisoslashgan va ko‘p ixtisosli (tarmoqli) xo‘jaliklar
E) Ixtisoslashgan va ko‘p tarmoqli xo‘jaliklar
133. Qishloq xo‘jaligi korxonasini ixtisoslashtirish qanday guruhlarga bo‘linadi?
A) Xo‘jalik ixtisoslashuvi, mintaqa ixtisoslashuvi
B) Mintaqaviy ixtisoslashuv, mahalliy ixtisoslashuv
D) Mahalliy ixtisoslashuv, xo‘jalik ixtisoslashuvi,
E) Xo‘jalik ixtisoslashuvi, tarmoq ixtisoslashuvi.
134. Xo‘jalik ixtisoslashuvi qanday turlarga bo‘linadi?
A) xo‘jaliklararo ixtisoslashuv va ichki xo‘jalik ixtisoslashuvi
B) Tarmoqlararo ixtisoslashuv va tarmoq ichidagi ixtisoslashuv
D) Mintaqaviy ixtisoslashuv, mahalliy ixtisoslashuv
E) Xo‘jalik tarmoqlari ixtisoslashuvi, xo‘jalik bo‘linmalari ixtisoslashuvi
135. Ixtisoslashuv darajasi qanday aniqlanadi?
A) Yalpi tovar mahsuloti qiymatini asosiy tarmoqning tovar mahsuloti qiymatiga taqsimlash va natijani 100 ga ko‘paytirish orqali
B) Asosiy tarmoqning tovar mahsuloti qiymatini yalpi tovar mahsuloti qiymatiga taqsimlash va natijani 100 ga ko‘paytirish orqali
D) Asosiy tarmoqning tovar mahsuloti qiymatini asosiy tarmoqning yalpi mahsuloti qiymatiga taqsimlash va natijani 100 ga ko‘paytirish orqali
E) Asosiy tarmoqning tovar mahsuloti qiymatini qo‘shimcha tarmoqning tovar mahsuloti qiymatiga taqsimlash va natijani 100 ga ko‘paytirish orqali
136. Agar ixtisoslashuv koeffitsiyenti 0,35 dan past bo‘lsa, bu ixtisoslashuvning qanday darajasini anglatadi?
A) Yuqori darajadagi ixtisoslashuv
B) O‘rta darajadagi ixtisoslashuv
D) Past darajadagi ixtisoslashuv
E) Chuqur ixtisoslashuv
137. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika hududlarini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4709-sonli qarori qachon qabul qilingan?

A) 2020-yil 23-oktabr
B) 2020-yil 17-iyul
D) 2019-yil 22-dekabr
E) 2020-yil 11-may

138. Qishloq xo‘jaligida kooperatsiyaning qanday shakllari mavjud?

A) Gorizontal, vertikal
B) Parallel, gorizontal
D) Agrosanoat korxonalari, agrosanoat birlashmalari
E) Agrofirmalar, agroklasterlar

139. Qishloq xo‘jaligi qanday yirik tarmoqlarga bolinadi?

A) Paxtachilik, o‘rmonchilik, chorvachilik
B) Paxtachilik, g‘allachilik, chorvachilik
D) O‘simlikchilik, chorvachilik
E) Texnika ekinlari, donli ekinlar, chorvachilik

140. 2019-yil holatiga o‘simlikchilik tarmog‘ining qishloq xo‘jaligi mahsulotidagi ulushi necha foizni tashkil etgan?

A) 49,9
B) 43,6
D) 51,2
E) 48,4

141. 2019-yilda o‘simlikchilik tarmog‘ida yetishtirilgan mahsulotlar 2018-yilga nisbatan necha foizni tashkil etgan?

A) 100,6
B) 103,0
D) 95,8
E) 104,8

142. 2019-yil holatiga mamlakatimizda jami yetishtirilgan don qanchani tashkil etgan?

A) 6079,2 ming tonna
B) 7288,5 ming tonna
D) 6535,5 ming tonna
E) 7437,8 ming tonna

143. 2019-yil holatiga chorvachilik tarmog‘ining qishloq xo‘jaligi mahsulotidagi ulushi necha foizni tashkil etgan?

A) 50,4
B) 46,5
D) 45,6
E) 48,4

144. 2019-yilda chorvachilik tarmog‘ida yetishtirilgan mahsulotlar 2018-yilga nisbatan necha foizni tashkil etgan?
A) 103,8
B) 105,7
D) 98,1
E) 101,6
145. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chorvachilik tarmog‘ini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4576-sonli Farmoni qachon qabul qilingan?
A) 2020-yil 29-yanvarda
B) 2020-yil 14-martda
D) 2019-yil 17-dekabrda
E) 2020-yil 5-fevralda
146. 2019-yil holatiga mamlakatimizda ishlab chiqarilgan jami go‘sht hajmida dehqon xo‘jaliklarining ulushi necha foizni tashkil etgan?
A) 92,0
B) 88,3
D) 90,2
E) 58,1
147. 2019-yil holatiga mamlakatimizda ishlab chiqarilgan jami sut tarkibida dehqon xo‘jaliklarining ulushi necha foizni tashkil etgan?
A) 88,3
B) 94,8
D) 58,1
E) 95,5
148. Chorvachilik mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo‘jaligiga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o‘lchami sug‘orilmaydigan (lalmikor) yerlarda har bir shartli bosh chorva moliga hisoblaganda qanchani tashkil etishi lozim?
A) 1,5 gektar
B) 2,0 gektar
D) 2,5 gektar
E) 3,0 gektar
149. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chorvachilik tarmog‘ini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4576-sonli Farmoniga muvofiq 2020-2022 yillarda xorijiy davlatlardan import qilingan nasldor

qoramolning har bir boshiga qancha miqdorda subsidiya berilishi nazarda tutilgan?

A) 0,5 million so‘m

B) 1 million so‘m

D) 1,5 million so‘m

E) 2 million so‘m

150. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chorvachilik tarmog‘ini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4576-sonli Farmoniga muvofiq 2020-2022 yillarda xorijiy davlatlardan import qilingan nasldor qo‘y va echkining har bir boshiga qancha miqdorda subsidiya berilishi nazarda tutilgan?

A) 300 ming so‘m

B) 400 ming so‘m

D) 450 ming so‘m

E) 500 ming so‘m

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Asosiy adabiyotlar:

1. Abdug‘aniyev A.A., Abdug‘aniyev A.A. Qishloq xojaligi iqdisodiyoti. Darslik. - T: “Adib Nashriyoti”, 2011. – 400 b.

2. David L. Debertin. Agricultural Production Economics Textbook. - 2nd ed. Published by McMillan. University of Kentucky, USA. 2012.

3. Rustamova I.B., Sheripbayeva U.A., Dehqonova N.S., Ahmedova V. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma. –T.: TDAU, 2015. - 174 b.

4. Samatov G‘.A., Rustamova I.B., Sheripbayeva U.A. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti va menejmenti. Darslik. –T.: “Cho‘lpon” nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. -320 b.

5. Umurzoqov O‘.P., Toshboyev A.J., Rashidov J., Toshboyev A.A.. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti va menejmenti. Oquv qo‘llanma. –T.: “Iqtisod-Moliya”, 2008. -264 b.

6. Murtazayev O., Ahrorov F.B. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti. Darslik. –T.: “ILM ZIYO”, 2017. -415 b.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 47 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 485 b.

4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 103 b.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-4947-sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017, 6-son, 70-modda.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5853-sonli Farmoni.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-martdagi “Paxtachilik sohasida bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4633-sonli qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 07.03.2020-y., 07/20/4633/0269-son.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-martdagi “G‘alla yetishtirish, xarid qilish va sotishga bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4634-sonli qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 07.03.2020-y., 07/20/4634/0270-son.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6024-sonli farmoni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 11.07.2020-y. 06/20/6024/1063-son.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-mayda “Respublika hududlarini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4709-sonli qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 12.05.2020-y., 07/20/4709/0577-son; 12.12.2020-y., 07/20/4919/1616-son.

12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 17-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi agrosanoat majmui va qishloq xo‘jaligida raqamlashtirish tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 794-sonli qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 18.12.2020-y. 09/20/794/1655-son.

13. Andrew Barkley and Paul W. Barkley. Principles of Agricultural Economics. -2nd ed. Rublished in the USA and Canada by Routlrdge Taylor&Francis Group. USA. 2013.

14. Gerge W. Norton, Jeffrey Alwang and William A.Masters. Economics of Agricultural Development. -2nd ed. Rublished in the USA and Canada by Routlrdge Taylor&Francis Group. USA. 2010.

15. Коваленко Н.Я. “Экономика сельского хозяйства” Учебник, Москва, «Юрайт», 2017. -385 стр.

16. McConnell, Brue. Economics: principles, problems and policies. 17th edition. America, NewYork: McGraw-Hill, 2009.

17. Ergashev R.X., Fayziyeva Sh.Sh., Xamrayeva S.N. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti. Darslik. –T.: «Iqtisod-moliya», 2018. -404 b.

18. Umurzoqov O‘.P., Toshboyev A.J., Toshboyev A.A. Fermer xo‘jaligi iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma. –T.: Iqtisod-Moliya, 2008. -276 b.

19. Zokirov O., Pardayev A. Qishloq xo‘jalik iqtisodiyoti. Darslik. - T.: O‘AJBNT Markazi, 2003. - 456 b.

20. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi. Statistik to‘plam. Toshkent, 2020

Internet saytlari:

1. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali

2. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy sayti

3. www.agro.uz – O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi vaziriligining sayti

4. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi

5. www.agriculture.uz – O‘zbekiston agroaxborot tizimi tayanch punktining sayti

6. www.agrowebcee.net/awuz – O‘zbekiston agroaxborot tizimi tayanch punktining sayt navigatori

7. www.uni-halle.de. – Halle-Vittenberg universiteti (Germaniya) sayti

8. www.usc.es. – Santyago de Kampostella universiteti (Ispaniya) sayti
9. www.osu.edu – Ogayo universiteti (AQSH) sayti
10. www.hswt.de. – Vaynshtefen Triesdorf Universiteti (Germaniya) sayti

MUNDARIJA:

KIRISH……. 3

1-BOB: “QISHLOQ XO‘JALIGI IQTISODIYOTI” FANINING PREDMETI, VAZIFASI VA USLUBLARI

1. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o‘rni va ahamiyati…….. 5

2. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining o‘ziga xos xususiyatlari……..... 9

3. “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” fanining predmeti, maqsadi va vazifalari……. 11

4. “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” fanining tadqiqot usullari va boshqa fanlar bilan aloqadorligi……..……... 12

2-BOB: O‘ZBEKISTONDA AGRAR ISLOHOTLARNING MOHIYATI, BOSQICHLARI VA ASOSIY YO‘NALISHLARI

1. Qishloq xo‘jaligida bozor munosabatlarini shakllantirishning zarurligi va ahamiyati……. 18

2. Qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan islohotlarda davlatning roli……..…….. 19

3. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy bosqichlari va yo‘nalishlari……. 20

4. Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha islohotlarning istiqbolli yo‘nalishlari…….…… 50

3-BOB: AGROSANOAT MAJMUASINING MOHIYATI, TARKIBI VA VAZIFALARI

1. Agrosanoat majmuasining mohiyati va ahamiyati……..……. 56

2. Agrosanoat majmuasining tarkibi……..……. 60

3. Agrosanoat majmuasining asosiy vazifalari…….…… 69

4-BOB: QISHLOQ XO‘JALIGIDA YER RESURSLARI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

1. Yer resurslarining qishloq xo‘jaligidagi ahamiyati va o‘ziga xos xususiyatlari…….……... 77

2. Yerdan foydalanish holati va samaradorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar, ularni aniqlash tartibi…… 85

3. Yer to‘g‘risidagi me’yoriy hujjatlar. Yer monitoringi va davlat yer kadastri……..……..... 87
4. Qishloq xo‘jaligida yer resursidan foydalanish samaradorligini yanada oshirish yo‘llari……..…….. 115
5-BOB: QISHLOQ XO‘JALIGIDA SUV RESURSLARI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI
1. Suv resurslarining qishloq xo‘jaligidagi ahamiyati…….…….. 123
2. Mamlakatimizda suv xo‘jaligini boshqarish tizimi……..…….. 127
3. Suvdan foydalanish holati va samaradorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar, ularni aniqlash tartibi…….…….. 129
4. Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini yanada oshirish yo‘llari…… 131
6-BOB: QISHLOQ XO‘JALIGIDA MEHNAT RESURSLARI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI
1. Mehnat resurslarining qishloq xo‘jaligidagi ahamiyati va o‘ziga xos xususiyatlari…….…… 145
2. Qishloq xo‘jaligida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi……..... 152
3. Qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligini oshirish yo‘llari…..... 157
7-BOB. QISHLOQ XO‘JALIGIDA MULK VA XO‘JALIK YURITISH SHAKLLARINING SAMARADORLIGI
1. Qishloq xo‘jaligida mavjud mulk shakllari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari……. 167
2. Qishloq xo‘jaligida mavjud tadbirkorlik shakllari, ularning tashkil etilishi va rivojlanishi……. 170
3. Qishloq xo‘jaligida mulkiy munosabatlarni yanada takomillashtirish……. 197
8-BOB: QISHLOQ XO‘JALIGIDA MODDIY-TEXNIKA RESURSLARI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI
1. Qishloq xo‘jaligining moddiy-texnika resurslari va ularning turkumlanishi…… 206

2. Qishloq xo‘jaligida moddiy-texnika resurslaridan foydalanish holati va samaradorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar…….. 212
3. Qishloq xo‘jaligida moddiy-texnika resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llari…… 219
9-BOB: QISHLOQ XO‘JALIGIDA ASOSIY VA AYLANMA FONDLAR HAMDA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI
1. Qishloq xo‘jaligining asosiy va aylanma fondlari to‘g‘risida tushuncha, ularning ahamiyati va turkumlanishi……..... 227
2. Bozor munosabatlari sharoitida asosiy va aylanma fondlarni shakllantirish manbalari……. 237
3. Asosiy va aylanma fondlardan foydalanish holati va samaradorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar……. 239
4. Asosiy va aylanma fondlardan foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llari…….. 246
10-BOB: QISHLOQ XO‘JALIGIDA INVESTITSIYALAR VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI
1. Qishloq xo‘jaligida investitsiyaning mohiyati va ahamiyati……. 252
2. Qishloq xo‘jaligiga investitsiyalarni jalb etish yo‘llari…….. 256
3. Investitsiyalardan foydalanish samaradorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi……..... 261
4. Qishloq xo‘jaligiga investitsiyalarni jalb etish ko‘lamini va samaradorligini oshirish yo‘llari……... 265
11-BOB: QISHLOQ XO‘JALIGIDA INNOVATSIYALAR VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI
1. Qishloq xo‘jaligida innovatsiyaning mohiyati va ahamiyati…… 276
2. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida qo‘llanilayotgan innovatsiyalarning turlari…….. 278
3. Qishloq xo‘jaligiga innovatsiyalarni joriy etish bo‘yicha ilg‘or xorijiy davlatlar tajribalari…….. 282
4. Qishloq xo‘jaligiga innovatsiyalarni jalb etish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llari……. 286

12-BOB: QISHLOQ XO‘JALIGIDA INFRATUZILMA VA UNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

1. Infratuzilmaning mohiyati, ahamiyati va turkumlanishi……..... 291

2. Qishloq xo‘jaligida infratuzilmaning turlari va ularning tashkil etilishi……. 295

3. Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar…… 307

13-BOB: QISHLOQ XO‘JALIGIDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI VA MAHSULOT TANNARXI

1. Qishloq xo‘jaligida qilinadigan xarajatlar va ularning turkumlanishi..... 318

2. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tannarxi haqida tushuncha, uning turlari va aniqlanish tartibi..... 327

3. Qishloq xo‘jaligida xarajatlarni tejash va mahsulotlar tannarxini pasaytirish yo‘llari..... 332

14-BOB. QISHLOQ XO‘JALIGIDA NARX VA NARXLARNI SHAKLLANTIRISH

1. Qishloq xo‘jaligida narxning iqtisodiy mohiyati va shakllanishi……..... 337

2. Qishloq xo‘jaligida qo‘llaniladigan narx turlari…… 343

3. Bozor munosabatlari sharoitida qishloq xo‘jalik mahsulotlari narxlarining shakllanishini takomillashtirish yo‘llari…… 348

15-BOB: QISHLOQ XO‘JALIGI ISHLAB CHIQARISHINING IQTISODIY SAMARADORLIGI

1. Iqtisodiy samaradorlikning mohiyati va ahamiyati……. 355

2. Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy samaradorlikni tavsiflovchi ko‘rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi……. 356

3. Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo‘llari…... 361

16-BOB: QISHLOQ XO‘JALIGI YALPI VA TOVAR MAHSULOTLARINI KENGAYTIRILGAN TAKROR ISHLAB CHIQARISH

1. Qishloq xo‘jaligi yalpi va tovar mahsuloti to‘g‘risida tushuncha, ularni aniqlash tartibi..... 367

2. Qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotini sotish va taqsimlash yo‘nalishlari..... 376
3. Yalpi mahsulotni ko‘paytirish va uning tovarlilik darajasini oshirish yo‘llari..... 384
17-BOB: QISHLOQ XO‘JALIGI ISHLAB CHIQARISHINI REJALASHTIRISH
1. Rejalashtirishning mohiyati, asosiy tamoyillari va usullari…..... 391
2. Qishloq xo‘jalik korxonalarida qo‘llaniladigan rejalashtirish shakllari…….. 395
3. Qishloq xo‘jalik korxonalarida yillik ishlab chiqarish biznes-rejasi…….. 396
18-BOB: QISHLOQ XO‘JALIGINI INTENSIVLASH-TIRISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH
1. Ishlab chiqarishni intesiv rivojlantirishning mohiyati..... 405
2. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirishning ko‘rsatkichlari..... 413
3. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirishning asosiy omillari..... 417
19-BOB. QISHLOQ XO‘JALIGINI IXTISOSLASHTIRISH VA INTEGRATSIYALASHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH
1. Qishloq xo‘jaligida joylashtirish va ixtisoslashtirish tushunchalari, ularning ilmiy asoslari…….. 424
2. Ixtisoslashtirishning shakllari, ko‘rsatkichlari va samaradorligini oshirish imkoniyatlari……..... 433
3. Qishloq xo‘jaligida integratsiyalashuvning mohiyati, ahamiyati va turlari…… 439
20-BOB: O‘SIMLIKCHILIK TARMOQLARI IQTISODIYOTI
1. O‘simlikchilik tarmoqlari va ularning mamlakatimiz iqtisodiyotidagi ahamiyati..... 451
2. Mamlakatimizda o‘simlikchilik tarmoqlarining hozirgi rivojlanish holati……..... 452

3. O‘simlikchilik tarmoqlarini yanada rivojlantirish imkoniyatlari va samaradorligini oshirish yo‘llari…… 477
21-BOB: CHORVACHILIK TARMOQLARI IQTISODIYOTI
1. Chorvachilik tarmoqlari va ularning mamlakatimiz iqtisodiyotidagi ahamiyati..... 482
2. Mamlakatimizda chorvachilik tarmoqlarining hozirgi rivojlanish holati…….. 484
3. Chorvachilik tarmoqlarini yanada rivojlantirish imkoniyatlari va samaradorligini oshirish yo‘llari…… 510
GLOSSARIY……..…….**.....** 523
BILIMNI BAHOLASH UCHUN TEST SAVOLLARI…….**.....** 535
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI……**...** 570

NURMATOV NORBEK JO‘RAYEVICH

AVLIYAQULOV ASHURALI AVAZOVICH

QISHLOQ XO‘JALIGI IQTISODIYOTI

Darslik

Bosh muharrir: Abduxoliq Abdurazzoqov

Musahhih: I.Xalilov

Texnik muharrir: Muhiddin Hakimov

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining “Fan ziyosi” nashriyotiga
2021-yil 14-fevralda berilgan 308197041-sonli litsenziyasi
Nashriyot manzili: Toshkent shahri, A.Navoiy ko‘chasi, 30 uy.

Ofset qog‘ozi. Bichimi 60x84, 1/16
Times garniturasida ofset usuli. Shartli bosma tobog‘i 36,25
Buyurtma № 9201902. 29.06.2021. Adadi 100 nusxada
“Munis design group” MChJ bosmaxonasida chop etildi.
100000 Toshkent sh., Buz-2 mavze, 17-A uy.